

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrası

XO'JAGELDI ALIMOV
TASAVVUF VA PSIXOLOGIYA

O'quv qo'llanma

Toshkent - 2021

“Tasavvuf va psixologiya”. O’quv qo’llanma. /Alimov X. O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi – Toshkent: “.....”, 2022 y. b.

Mazkur o’quv qo’llanmada “Tasavvuf va psixologiya” kursining predmeti, maqsadi va vazifalari, tasavvuf va psixologiyaga oid bilimlarning shakllanish tarixi, globallaShuv sharoitida zamonaviy tariqatlar va ularning psixologik mazmuni va mohiyati, tasavvuf ta’limotining psixologik asoslari, so’fiylik tariqatining mazmun va mohiyati va uning psixologik asoslari, zohidlik harakatlari va ularning psixologik mazmuni, Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf g’oyalari va ularning psixologik mazmuni, tasavvuf ta’limotida komil inson kontseptsiyasi, Markaziy Osiyo mutafakkirlari tasavvufiy ta’limotlarida komil insonni tarbiyalash muammosi, nafsni tarbiyalash masalalari singari qator masalalar ko’rib chiqiladi.

O’quv qo’llanma tasavvuf ta’limoti va amaliyotining psixologik masalalari bo’yicha tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilar, psixolog, sotsiolog, faylasuf, dinShunos olimlar, umuman tasavvuf psixologiyasi masalalariga qiziqish bildiradigan keng jamoatchilik uchun mo’ljallangan.

Taqrizchilar:

Rasulov A. - psixologiya fanlari doktori, dotsent

Akramov M. - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

O’quv qo’llanma O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi Uslubiy Kengashining 2021 yildagi..... sonli majlisida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH

Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davrimizning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, uni hal etishda barcha gumanitar soha vakillari – faylasuflar, sotsiologlar, pedagoglar, psixologlar va h.k. sohalar mutaxassislari bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilishlari talab etiladi. Barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida o'tmish va hozirgi zamon tarbiyaviy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'tmishda buyuk Sharq mutafakkirlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab ta'lim-tarbiya usullari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Shunday buyuk meroslarimizdan biri tasavvuf ahli tomonidan ishlab chiqilgan tasavvuf ta'limoti va amaliyotidir. Tasavvuf buyuk aziz-avliyolarimiz tomonidan mukammal ishlab chiqilgan ta'limot va amaliyot hisoblanadi. Insonga ham jismoniy, ham ma'naviy-ruhiy jihatdan ta'sir qilishning va uni muttasil ko'zlangan maqsadga qarab takomillashtirishning aniq konkret tizimi ishlab chiqilganki, mazkur tizimni o'rganish hamda barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishda uning usul va vositalaridan foydalanish davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Tasavvuf g'oyasi bilan barkamol avlod g'oyalari o'rtasida mushtaraklik mavjud. Bu mushtarak chegarani aniqlashtirish va Shu chegarada turib tasavvuf ta'limoti va amaliyotida ishlab chiqilgan tajribadan foydalanish, bizning fikrimizcha, aniq samara beradigan konkret tadbirdir. Biroq bu tadbirni amalga oshirishdan oldin tasavvuf ahlidan meros qolgan badiiy - ilmiy ishlarni nazariy - psixologik jihatdan tahlil qilmoq zarur.

Bu haqda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday deb yozadi: "Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, Shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, ilgari yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizni ibratli hayoti va faoliyati, bemsil ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim".¹ E'tibor berib qaralsa, yurtboshimiz "bemsil ilmiy-ijodiy kashfiyotlar" haqida fikr yurita turib, ularni o'rganishga da'vat qilmoqda. Shunday kashfiyotlardan biri tasavvuf hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida Shunday dedi: "islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas."² Prezidentimiz aytgan "odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar" bevosita tasavvuf g'oyalari bilan mushtarak.

Tasavvuf islom dinimizda mavjud bo'lgan alohida holat bo'lib, uni tariqat ahlidan ba'zi birlari botiniy, ichki fiqh, shariat ham deb atashadi. Tasavvuf mukammal ishlab chiqilgan tizim hisoblanib, uning manbalarini o'rganish orqali inson ma'naviyatining Shunday kengliklari va chuqurliklariga etib boriladiki, bu erdan turib unga ta'sir ko'rsatish, unga ta'lim-tarbiya berish juda oson bo'ladi. Tasavvuf islom falsafasidagi nazariy-amaliy ta'limot sifatida psixologik jihatdan qarayib o'rganilmagan. Uning falsafiy, badiiy-adabiy, tarixiy ildizlari har tomonlama tadqiq qilingan bo'lsada, biroq psixologik qirralariga e'tibor qaratilmagan. Xolbuki, tasavvuf insonning o'zini o'zi anglash, o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish, o'zini o'zi boshqarish tizimi sifatida aslida psixologik muammo hisoblanadi.

Shunday qilib, inson ma'naviyatining muhim masalalaridan biri hisoblangan tasavvufni nazariy psixologik jihatdan tahlil qilishning dolzarbligi quyidagi holatlarda o'z aksini topadi:

- yurtboshimiz ta'kidlagan Sharq mutafakkirlarining "odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar"ni tadqiq etish zaruriyati to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarish;

¹ I.Karimov. YUksak ma'naviyat - engilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 y., 40-41 bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

- mamlakatimizning asosiy e'tibori qaratilgan masalalardan biri – barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bilan tasavvuf ahli tomonidan ishlab chiqilgan komil inson g'oyasi o'rtasidagi mushtarak nuqtalarni o'rganish orqali barkamol avlodni tarbiyalash ishlariga nazariy - amaliy ko'mak berish;

- alohida nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tasavvuf ta'limotini psixologik jihatdan tahlil qilish;

- tasavvuf ta'limoti va amaliyotidan bugungi kun shaxsi uchun foydali va zarur bo'lgan tomonlarni ajratib olish hamda ularni shaxsga singdirish shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

- hozirgi zamonda o'zlarini tariqat ahlidan qilib ko'rsatayotgan jamoalarning botil tomonlarini ochib tashlash uchun haqiqiy tariqat yo'llari va usullarini ajratib ko'rsatish va h.k.

Yuqoridagi holatlar tasavvuf ta'limoti va amaliyotini psixologik jihatdan tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

Insoniyatning minglab yillik tarixi Shundan dalolat beradiki, har qanday xalq o'zining milliy davlatiga ega bo'lgani holatidagina har tomonlama yuksalish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham milliy mustaqillik hamisha eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi. Ma'lum bir davlatning milliy mustaqillik sharoitida taraqqiy qilishi uchun Shu davlatni tashkil etadigan fuqarolar har tomonlama etuk, barkamol insonlardan tashkil topgan bo'lishi talab qilinadi. Man nima uchun mamlakatimiz milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, xalqning dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy-ruhiy holatini yuksaltirish va madaniy saviyasini oshirishi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Demak, mana Shu yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviy - ruhiy salohiyati masalasi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizdagi ustuvor yo'nalishlardan biri barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishdir.

1-MAVZU. "TASAVVUF VA PSIXOLOGIYA" KURSINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

- 1. «Tasavvuf va psixologiya» kursining predmeti, ob'ekti va maqsadi.***
- 2. Tasavvuf ta'limotini o'rganishning zaruriyati.***
- 3. Tasavvuf ilmining nazariy va amaliy asoslari.***
- 4. Tasavvuf ilmining vujudga kelishiga ta'sir etgan tarixiy va ijtimoiy psixologik omillar.***
- 5. Tasavvufning falsafiy oqim sifatidagi nazariy talqini.***

Tayanch tuhhunchalar: *Tasavvuf, psixologiya, ta'limot, islom dini, mistika, ateizm, zohidlik, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlar yuksalishida o'ziga xos o'rin tutgan tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayoni, tarixiy o'rnini ko'rsatib berish, tasavvufiy manbalarni xolisona tadqiq etish hamda uning insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashib, jaxonshumul badiiy ijod namunalarning paydo bo'lishiga zamin yaratganini keng ko'lamda o'rganishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra, tasavvuf ilmi va uning psixologik asoslarini bilish tasavvuf ta'limotining tub mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

Tasavvuf - uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligidan iborat ta'limotdir. Tariximizda xalqimizni tarkidunyochilikka emas, balki ijtimoiy faol hayot tarziga da'vat etgan g'oyalar va qarashlar tarannum etilgan nodir asarlarni ilmiy tadqiq etish va yuzaga chiqarish Sharqshunos-islomshunoslar oldida turgan muhim vazifalardandir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi va uning hayotdan uzilmagan ta'limoti haqida alohida tuxtalib: «Ota-bobolarimiz ulur avliyo Baxouddin

Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Oллоhda, qo'ling mehnatda bo'lsin», degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini Yorqin ifodalab, xuddiki Shu bugun aytilgandek jaranglaydi»³, - deydi.

Tasavvuf islom ilmlari orasida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Agar tasavvufning mohiyatiga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, unda falsafa, din, shariat, ruhiyat hamda odob-axloq kabi tushunchalar jamuljam bo'lganini ko'ramiz. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi va ilohiy muhabbatdan quvvat olib yuksalib borishi bu ta'limotning asosiy g'oyalaridir. Tasavvuf dunyoni bilishni va insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog'liq qarashlarni o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvufni ilm-ma'rifat taraqqiyotidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Tasavvuf tarixiga nazar tashlasak, boshlang'ich bosqichida sodda qarash va tushunchalardan iborat bo'lib, ko'proq amaliy tus olganini ko'ramiz. So'fiylar ko'pincha toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lib, tarkidunyochilik va riyozatga katta e'tibor berar edilar. Usha vaqtlarda tasavvufiy matlablar ta'limot sifatida qayd etilmagan bo'lsada, og'izdan-ogizga o'tib kelgan. Keyingi davrlarda esa tasavvufga doir risola va kitoblar yaratildi, xonaqohlar kurildi, so'fiylarga xos odob-rusum, ularning yurish-turishlarini belgilovchi dasturlar to'zildi.

IX asr boshlariga kelib, tasavvufning nazariy asoslari ishlab chikildi, so'fiylarning amaliy ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllandi, Shuningdek, tariqat, ma'rifat va haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch asosiy bosqichiga oid karashlar majmui tuzildi, tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi.

Tasavvufning tarixiy taraqqiyoti va nazariy jihatlarini o'rganish barobarida, yirik Shayxlar va avliyolar faoliyatini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etdi. Voqean, nazariy qarashlarning o'zini olib qaraganda ham Shayxlarning so'zi va holatlari, asarlari, nasihatlarini, ular haqidagi xotiralar, rivoyat va hikoyatlarni o'rganish zamirida umumlashtirilgan. Tasavvufiy qarashlarning yaxlit ta'limot sifatida islom o'lkalariga keng yoyilishi va ijtimoiy hayotda muhim voqe'likka aylanishida Movarounnaxr va Xurosondan etishib chiqqan olimlarning o'ziga xos o'rni bor.

Tasavvufning muhim xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmasdan tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yuli orkali amaliy hayotda tatbiq etishidir. Nazariyotda "tasavvuf" deb atalgan bu oqimga amaliyotda "tariqat" deyiladi. Chunonchi, tasavvuf dastlab amaliyotga katta ahamiyat bergan zoxidlik harakatidan kelib chiqqan. Tasavvufning ko'pgina masalalarini etarlicha anglab olish uchun faqatgina nazariy bilim kifoya qilmaydi, deb hisoblaydi so'fiylar. Ularga ko'ra, zikr, mushohada va riyozat orqali qalb ushbu masalalarni idrok etadigan soflikka erishadi. Tasavvuf amaliy turmush tarziga asoslangani uchun, bir tomondan uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tariqatlar paydo bo'lib, tasavvufiy turmush tarzi shakllanishda davom etgan. Dastlab, shaxsiy-ma'naviy hayot tarzida muhim o'rin tutgan tasavvufiy turmush tarzi asta-sekin ijtimoiy ma'noga ega bo'la boshladi. Zohidligi va ilmi bilan tanilgan ulug' shaxslar atrofida suhbat xalqalari tashkil etilib, ularning suhbatlarida ishtirok etganlar berilgan tavsivalarni shaxsiy hayotlarida tatbiq eta boshlaganlar. Shunday qilib, X va XI asrlarda ana Shunday mashhur zotlar etakchiligida tariqatlar paydo bo'la boshladi. Fikriy va e'tiqodiy mazhablarda bo'lganidek, bu zotlarning tariqat tashkil qilish maqsadlari bo'lmasa ham, ularning atrofida o'z-o'zidan tabiiy ravishda tariqatlar yuzaga keldi.

Tasavvuf va psixologiya fanining predmeti – tasavvuf ta'limotining psixologik asoslarini va tasavvufda ruh, qalb, e'tiqod, munosabat hamda inson shaxs xususiyatlari, uning xulq-atvori to'g'risidagi tushunchalarni o'rganish hisoblanadi.

Fanning maqsadi. «Tasavvuf va psixologiya» fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda tasavvuf ta'limotining psixologik asoslari to'g'risida tushunchalar, tariqatlarining psixologik mazmuni va tasavvuf ta'limotining, so'fiylarning psixologik qarashlari haqidagi bilim va malakalarni shakllantirishdir. Shuningdek, talabalarga tasavvuf psixologiyasi bilimlarining nazariy asoslarini, uning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, tasavvuf ilmi va uning

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.39.

psixologik asoslarini, inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik omillarini, komil insonni tarbiyalash tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishining ijtimoiy-psixologik omillari, tasavvufiy ta'limotlarning psixologik asoslari, glaballaShuv sharoitida zamonaviy tariqatlar va ularning psixologik mazmuni, so'fiylik tariqati va uning psixologik mazmuni, Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf g'oyalari va ularning psixologik mazmuni, tasavvuf ta'limotida shaxsni shakllantirish, unda axloq-odob, ma'naviyatni qaror toptirishning psixologik masalalari, tasavvuf ta'limotida ruhiyat (psixologiya)ga doir tushunchalar, tasavvufda diniy e'tiqodning psixologik asoslari, tasavvufiy ta'limotlarda bag'rikenglik ta'limoti, psixologiyada shaxs va komil inson muammosi, komil insonni tarbiyalash haqidagi bilimlar bilan talabalarni qurollantiradi hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. "Tasavvuf va psixologiya" fani «Qur'on va tafsir», "Hadis va hadisShunoslik", "Islom manbaShunosligi", "IslomShunoslik", "Kalom ilmi", "Balog'at", "Ma'naviyat asoslari", «Din psixologiyasi», «Ijtimoliy psixologiya», "Islom tarixi", "Islom falsafasi", "Sharq mamlakatlari madaniyati tarixi" kabi turdosh fanlar bilan o'zaro aloqador va uzviy bog'liqdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf tushunchasi va uning mazmun mohiyati.
2. Tasavvuf ta'limoti va uning rivojlanish tendentsiyalari.
3. "Tasavvuf va psixologiya" kursining predmeti, maqsadi, vazifalari va ob'ekti.
4. "Tasavvuf va psixologiya" kursining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvufning tarixiy shakllanish jarayoni.
2. Tasavvuf psixologiyasi psixologiyadagi yangi tarmoq sifatida.

2-MAVZU. TASAVVUFNING PAYDO BO'LISHI, SHAKLLANISHI VA TASAVVUFGA DOIR MASALALAR.

Reja:

1. *Tasavvufning tarixi.*
2. *Tasavvufning mavzusi.*
3. *Tasavvuf goyasi.*
4. *Tasavvuf so'zining kelib chiqishi.*
5. *Tasavvuf ilmining paydo bo'lish tarixidan.*
6. *Tasavvufiy tushunchalarning xususiyatlari.*
7. *Tasavvufning tarixiy shakllanish jarayoni.*

Tayanch tushunchalar: *tasavvuf, tarix, mavzu, goya, tasavvuf ilmi, tasavvuf tushunchasi, tarixiy shakllanish.*

Tasavvuf nima? degan savolga javoblar ham xilma xil. Ingliz Sharqshunosi R. Nikolson XI asrgacha bo'lgan yozma manbalarni o'rganib, tasavvuf, ya'ni sufizmning etmish sakkizta talqinini aniqlagan⁴.

Tasavvuf ilmi ta'limot sifatida g'oyat ko'p qirrali ma'naviy - ma'rifiy, ijtimoiy - psixologik hodisa hisoblanadi. Uning murakkabligi, tasavvufiy maktablar va yo'nalishlarning turli tumanligidadir.

⁴Bo'ronov Q.B. Tasavvuf falsafasi xususida. T.,2000. 11 – bet

Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, tasavvuf, sufizm - arabcha “suvf”, “jun”, “po’stin” so’zidan kelib chiqqan. Qadimda tarki dunyo qilgan zohidlar taka junidan tiqilgan chakmon, po’stin kiyib yurishgan. Bu bilan ular bashang kiyinib, turli tuman taqinchoqlar bilan yuruvchilardan farqlanishga harakat qilishgan.

Evropalik tadqiqotchilar XX asrga qadar sufizmning kelib chiqishini yunonchi “sophia“ – donishmandlik, hikmat so’zi bilan bog’lab tushuntirishgan.

“Islom ensiklopediya”da tasavvuf, so’fiylik -islomda insonning ruhiy dunyosi to’g’risidagi qarash” deb izoh berilgan. Shu fikrdan kelib chiqadigan bo’lsak, tasavvuf ruh ilmi bo’lib, zamonaviy tushunchaga ko’ra, “Psixologiya” fani deganidir. Bu atamadan yasalgan “mutasavvif”(so’fiy) – tasavvuf izidan boruvchi ma’nolarini anglatadi.

Tasavvuf ta’limoti botin ilmi, ko’ngil ilmi, asror (sir) ilmi, yuksalish va kamolot yo’li bo’lganligi uchun uni hamma ham birdek anglayolmaydi. Shunga ko’ra, uning tarafdorlari va inkor etuvchilari mavjud. “Ma’naviyat. Asosiy tushunchalar” izohli lug’atida, tasavvuf – diniy e’tiqod, so’fiylik oqimi. “Mistiqlizm”, “mistika” (lotincha–mystikos - „yashirin”, “sirli”) so’zidan olingan, deb izohlanadi.

Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar - mayda savdogarlar, xunarmandlar va x.k. tashkil etgan edi. Tasavvufning ilk bosqichidayok murid-Shayx (murshid, pir) raxbarligida so’fiylik nazariyoti va amaliyotini egallash muhim hisoblangan. Muridlar Shayxga barcha diniy va dunyoviy masalalarda butunlay buysunishi shart edi. O’zining taqvodorligi, bilimi bilan tanilgan yirik so’fiy murshidlarni esa, vakt o’tishi bilan “valiy”, ba’zan esa “kutb” deb ham atay boshladilar. Muridlarga ergashib, oddiy xalq ham ularning “ma’sumligi”, tayrioddiy karomatlar ko’rsatishi, paytambarga kelgan vaxiyalarning “yashirin” ma’nosini izoxlab berishga kodirliigi, Xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqidagi islom ta’limotiga zid bo’lgan turli uydirmalarni gapira boshladilar. Bular ham o’z navbatida, xalq og’zaki ijodi namunalariida hamda ba’zi tasavvuf nazariyotchilarining asarlarida ifodasini topa boshladi. Tasavvufiy bilimlar va baraka Shayxdan muridga uzoq muddatli ta’lim jarayoni orqali o’tadi, deb hisoblangan. Saboq berish tugagach, Shayx shogirdiga o’ziga xos “guvoxnoma” vazifasini utovchi so’fiylik xirqasini kiydirgan. Bu esa, o’z navbatida muridga mustaqil tartibot olib borish hukukini bergan. Islom olamining turli chekkalaridan kelgan muridlar, ruxsat olganlaridan sung o’z yurtlariga qaytib borib, u erda zoviya, xonaqoh va so’fiylik xalqalarini tashkil qilib, o’zlari ham shogird etishtira boshlaganlar. Bu jarayon tasavvufning tez tarqalishiga olib kelgan.

X-XI asrlarda tasavvufiy hayot va tafakkur tarzi jamiyatning keng qatlamlarini kamrab oldi. Tasavvuf tarafdorlari soni doimiy ravishda ortib bordi. Bu davrda so’fiylik an’analari shakllanib, tasavvuf asoslarini Yoritib bergan ilk yozma manbalar vujudga keldi. Mazkur kitoblarning asosiy iaqsadi tasavvuf o’z nazariyoti va amaliyoti bilan islom ta’limotlariga batamom muvofiq ekanini ko’rsatib berish hamda tasavvufning ogzaki tarzda etib kelgan merosini tasniflashdan iborat bo’lgan.

X asr oxiri XI asr boshlarida tasavvufning mumtoz yuriknoma asarlari yozildi. Bundan at-Tusiyning (vaf. 988 i.) “al-Luma”, al-Kalabodiyning (vaf. 990 Yoki 995 y.) “at-Ta’arruf”, Abu Tolib al-Makkiyning (vaf. 998 y.) “Kutu-l-kulub”, as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) “Tabaqotu-s-so’fiyya”, al-Kushayriyning (vaf. 1072 y.) “ar-Risola”, al-Xujviriyning fors tilidagi (vaf.1072 Yoki 1076-77 y.) “Kashfu-l-maxjub”, al-Ansoriyning (vaf.1089y.) “Manazilu-s-soiriyn”, Abu Nu’aym Isfaxoniyning (vaf. 1038 y.) “Xilyatu-l-avliyo” asarlari bizgacha etib kelgan. Bu davrda yaratilgan as-Sulamiyning “Haqoiku-t-tafsir” asari Qur’onning ilk tasavvufiy tafsirlari sirasida alohida o’rin egallab, tasavvufiy, ezoterik talkin an’analarini namoyon etadi. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar, so’fiylik istillohlarini tushuntirib berdilar hamda tasavvufni islom ta’limotlariga zid emasligini ko’rsatib bera oldilar.

XI-XIV asrlar musulmon jamiyatlarida tasavvufning mavke’i omma orasida kuchayishi bilan belgilanadi. Bu davrda tasavvufning rasmiy ta’limot sifatida e’tirof etilishida al-G’azzoliyning (vaf. 1111 y.) o’rni beqiyos bo’lib, “al-Munkiz min az-zolal” asarida tasavvuf axloki oxirat uchun asosiy zaxira ekani, “Ixyo ulum ad-din”da barcha ilmlarni zikr etib turib, xotimada tasavvufiy bilimni Yuqori quyishini aytib o’tadi. Uning islom olamidagi nufu’zi

tasavvufning shariat tomonidan batamom tan olinishiga sabab bo'ldi. Xdnbaliy mazxabiga mansub bo'lgan 'Abdu-l-Kodir al-G'iloniy (al-Jiloniy, vaf. 1161y.) faoliyati tasavvufiy g'oyalarning ommallaShuvida katta ta'sirga ega bo'lgan. Uning ma'ro'zalari turli murakkab va ziddiyatli masalalardan holi bo'lib, aholi orasida keng Shuhrat qozondi. Umuman, tasavvuf jamiyatda o'z ta'sir doirasini tobora kengaytirib borgani sari, hukmron tabaqalar, zodagonlar ham u bilan hisoblasha borib, ular ham pirlarning maslahatlariga quloq osadigan bo'ldilar. Valiy Shayxlarning qabrlari esa, ziYoratgohga aylantirilib, odamlar ularni mukaddaslashtirish darajasiga etdilar. Shuni ham kayd qilish lozimki, bu davrlarda islom dini jahongashta qalandar-darvishlar orqali islomlashmagan mintaqalarga yoyila boshladi. Ular o'zlari borgan joylarda xonako va zoviyalar tashkil etib, keyinchalik bunday joylar targ'ibot- tashvikot va diniy turmush tarzi markazlariga aylanib bordi.

XII asr o'rtalari XIII asr boshlarida so'fiylar tashkil etgan zoviyalar atrofida, xususan, shaharlarda tariqatlar shakllana boshladi. Dastlab, Bag'dodda paydo bo'lgan suxravardiya va kodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi. Tariqatlarning shakllanishi tasavvufning ta'siri Yanada kuchayishiga olib keldi. Umuman olganda, so'fiylar xalq ommasi bilan yaqinlashib, ularning diniy extiyojlarini kondirishga yuz tutgan edi. Xunarmandchilik uyushmalarining qarashlarida ham so'fiylik tamoyillari - "futuvva" va "ayYorlik" o'z aksini topa boshladi.

Avliyolar kul'ti omma e'tiqodi va diniy qarashlarida mustaxdam o'rin egalladi. Chunonchi, hatto ayrim avliyolar ba'zi kasblarning xomiy pirlariga ham aylanib bordi. Tasavvufning bu yo'sinda rivojlanishi ba'zi nufu'zli mutasavviflar bilan bir qatorda shariat peshvolarini ham tashvishga solar edi. Ibn al-Javziy (116-1201) "Talbisu-l-iblis", Ibn Taymiya (1263-1328) "Fatovo", Ibn Xaldun (1332-1406) "al-Ibar" kabi qat'iy sunniy qarashlar ifoda etilgan asarlarda shariatga zid keladigan, ular "bid'at" deb e'tirof etgan so'fiylikdagi ba'zi jihatlar: juldur kiyinish, uylanmaslik, doimiy ro'zadorlik, avliyolar qabrlarini mukaddaslashtirish, rijolu-l-g'ayb, tinimsiz ibodatlar, avliyolar muxri va boshqa mavzularni keskin tankid ostiga oldilar. Bunday sharoitda Boyazid al-Bistomiy tomonidan kiritilgan "sukr", Yani shatx va jushkin xatti-harakatlarga asoslangan tasavvufdan ko'ra al- Junayd al-Bag'dodiy tomonidan ta'kidlangan hamda "saxv" va "tamkin"ga asoslangan mu'tadil tasavvuf, barcha taraflarni koniktirar edi. Shu jihatdan ham hozirgacha mavjud bo'lgan aksariyat tariqatlarning poydevori al-Junayd al-Bag'dodiy ishlab chiqqan asosga binoan barpo qilingan. Har qaysi alohida mintaqada so'fiylik tashkilotlarining faoliyati maxalliy xususiyatlar va an'analar, urf-odat va udumlar bilan qorishib ketdi. Shuning uchun ham tasavvuf ko'p qirrali mintaqaviy ko'rinish kasb etdi.

XI-XIV asrlarda tasavvuf g'oyalarning musulmon jamiyatining turli qatlam va ijtimoiy guruhlarida o'rtasida keng tarqalishi natijasida undagi ichki farqlanishlar yakkol namoyon bo'la boshladi. Asosan ommaning ma'naviy extiyojlarini kondirishga qaratilgan "amaliy" tasavvuf bilan bir qatorda tasavvuf ta'limotining ziyoli tabaqalarga qaratilgan ezoterik jihati Yanada rivojlandi. Mazkur "falsafiy" tasavvufning asosiy qoidalarini ishlab chiqishda as-Suhravardiy al-Maktul (vaf. 1191 y.), Ibn al-'Arabiyy (vaf. 1240 y.), Ibn Sab'in (vaf. 1268 Yoki 1271 y.), 'Abdu-r-Razzok al- Koshoniy (vaf. 1329 y.), 'Abdu-l-Karim al-Jiliy (vaf. 1428 y.) kabi tasavvuf namoyandalari faol ishtirok etib, nomusulmon xalqlarning falsafasiy qarashlarini tasavvuf ruxida talkin eta boshladilar. Bularning orasida Ibn al-'Arabiyy "vaxdatu-l- vujud" deb nomlangan nazariyaga asos solgani bilan ajralib turadi. Ibn al-Arabiyy o'zidan avvalgi so'fiylarning tavxid va boshqa mavzularga oid qarashlarini tartibga solib, tizimli falsafa holiga keltirgan. Bu falsafa tasavvuf muhitida keng miqyosda qabul qilingan. Vaxdatu-l-vujudni keskin tankid qilib, unga karshi chiqqan 'Alauddavla as-Simnoniy (1261-1336) va Naqshbandiylik Shayxi Imom Rabboniy nomi bilan mashqur Ahmad as-Sirxindiy (1564-1624) "vaxdatu-sh-Shuxud" nazariyasini ilgari surdilar. Ammo "vaxdatu-sh-Shuxud" asosan Naqshbandiya tariqatiga ta'sir ko'rsatdi. "Falsafiy" tasavvuf XIII-XIV asrlarda yuksak chukqilarga ko'tarilgach, asta-sekin o'zining ijodkorlik saloxiyatini yo'qota bordi. "Komil inson", "borliqning birligi" ("vaxdatu-l-vujud), "tajalli" kabi

g'oyalar baxs va munozaralar manbaiga aylanib, bu baxslar ham ko'pincha besamarligicha kolib ketdi.

Tasavvuf g'oyalari ko'plab She'riy asarlarda ham o'z ifodasini topdi. So'fiylik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors She'riyatiga (Jaloliddin Rumi, Sanoiy, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), Shuningdek, ma'lum darajada arab She'riyati hamda turkiy xalqlarning (Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Alisher Navoiy), Bolqon yarim oroli, shimoliy Hindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va folkloriga singib ketdi.

VIII-IX asrlarda Robia al-Adaviya, Mansur al-Xalloy singari yirik so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiy She'riyat, X-XP asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obraz va timsollar, ramzlar va usullar olami paydo bo'ldi. Tasavvuf adabiyot bilan bir qatorda boshqa badiiy ijod yunalishlariga ta'sir ko'rsatdi. Zero, tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, raks san'atini, hattoki o'z so'fiy teatrini ham vujudga keltirdi. Chunonchi, samo' majlisleri ko'pincha sahnalashtirilgan tomoshaga aylanib ketar, ularni tomosha qilgani ayollar ham yigilar edi. Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi mushtaraklik jihatlari so'fiylar va ijod ahlining ruhiy yaqinligidan izlash darkor bo'lsa kerak. Zero, ijod zavki va sufiyona zavk inson ruhiy holati nuktai nazaridan umumiylikka egadek guyo. Tariqatda ijodga moyil, qalbida Illoh,iy ishq jush o'rgan Soliklar ko'proq muvaffaqiyatga erishganlar. Ibn al-'Arabi ham so'fiy shoir bo'lib, mashhur "Fususul-hikam" va "al-Futuhotul-Makkiyya" asarlarida ba'zi joylarni badiiy bezak berish uchun nazmda ifoda etgan. Shunki, tasavvufning nozik masalalarini akliy-nazariy usullardan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur vositasi bilan ifoda etish samaralirok bo'lib tuyuladi. She'r va musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir kuchini sezgan tasavvuf Shayxlari honakolardagi yig'inlarda ulardan keng foydalanganlar. Ayniqsa, samo' yig'inlarida raks bilan bir qatorda She'r va musiqa Soliklarni o'zini yo'qotib atrof-muhitni anglay olmay koladigan darajaga borib qolishida ahamiyati katta edi.

Davr o'tishi bilan tasavvuf maxsus istillohlari, ramz va timsollarini ifodalaydigan She'riy adabiyot paydo bo'ldi. Natijada sufiyona yashirin ma'nolarni ifodalovchi maxsus til shakllanib, bu tilda yozilgan g'azal va ruboiylar adabiyotni murakkablashtirib, uni faqatgina "xos kishilar" anglaydigan bo'lib koldi. Ikkinchi tomondan esa, Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor kabi so'fiylar tomonidan sufiyona pand-nasihatlar juda sodda til va xalqchil usulda ifoda etilgan tasavvufiy She'rlar ham bitildi.

Tasavvufiy adabiyotni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin: tasavvuf tarixi va ta'limotini bayon etgan, so'fiy istillohlar vositasida tushuniladigan asarlar: Abu Bakr al-Kalabodiyning "Ta'arruf", Jomiyning "SHarxi ruboiyot", Sufi Olloyorning "Sabotu-l-ujizin", Maxmud SHabistariyning "Gulshani roz", Bedilning "Muhiti a'zam" asarlari. Ikkinchisi tasavvuf g'oyalari kechinma va hayajonlar, siymo va timsollar orqali tavirlanib talkin qilinadigan adabiyot: Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy-yi ma'naviy", Fariduddin 'Attorning "Ilohiynoma", Alisher Navoiyning "Xayratul-abror", "Lisonu-t-tayr" kabi asarlari. Tasavvuf adabiyoti turli adabiy janrlardan unumli foydalandi. Chunonchi, ruboiy, g'azal, kasida, masnaviy kabi janrlar so'fiy adabiyotiga yangi rux kiritib, o'zgacha talkin bilan rivoj topdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf tushunchasi va uning mazmun mohiyatini tushuntiring.
2. Tasavvuf ta'limoti va uning rivojlanish tendensiyalarini ayting.
3. "Tasavvuf va psixologiya" kursining predmeti, maqsadi, vazifalari va ob'ektini ko'rsating.
4. "Tasavvuf va psixologiya" kursining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf psixologiyasi: metodologik muammolar va echimlar.
2. Tasavvuf psixologiyasining tadqiqot predmeti bo'yicha qarachlar.

3-MAVZU. ZOHIDLIK HARAKATLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK MAZMUNI.

Reja:

1. *Zohidlik harakatlari mazmuni.*
2. *Tasavvuf goyasi.*
3. *Ilk zohidlik harakatlarining paydo bo'lishi.*
3. *Zohidlik va oriflik.*

Tayanch tushunchalar: *tasavvuf, psixologiya, ta'limot, islom dini, mistika, ateizm, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, zohidlik, oriflik.*

“Tasavvuf” va “so'fiy” so'zlarining Qur'oni karimda ham, hadisi sharifda ham ishlatilmaganligi bizga islomiy adabiyotlardan ma'lum. Biroq hali islomiy ilmlar alohida ilm yo'nalishi sifatida ajralib chiqmagan bir davrda, ya'ni Payg'ambarimiz (s.a.v.) hayotligidagi Saodat asrida tasavvuf mohiyatan mavjud edi. Diniy qonun-qoidalaridan yuzaki bajarilayotganligidan qoniqmagan ba'zi sahobalar kishilarning e'tiborini islomning, uning hayotga tatbiq etilishining botiniy tomonlariga qaratishdilar va o'zlari o'z tajribalarida buni ko'rsatgan holda hayot kechirishdilar. SHuning uchun o'zlarining elkalariga Payg'ambar (s.a.v.)dek yashash, turli xil qo'shimcha amallarni bajarishsingari holatlarni o'zlarida mujassamlashtirgan sahobalarni islom adabiyotlarda ilk so'fiylar sifatida qarashdilar, tasavvuf ahlidan deb baho berishdilar.

Tasavvuf ta'limotida shunday nazariya mavjudki, unga ko'ra “tasavvuf” termini IX asrning birinchi asrlariga kelib islomiy adabiyotlarga keng tarqala va bu terminni Iroqdagi, Suriyadagi, ayrim manbalarga ko'ra Misrdagi zohidlarga nisbatan ishlatish holatlari kuzatilgan. Bu zohidlarga Abu Zarr (652 y. v.e.), Abu Dardo (625 y. v.e.), uning xotini Umm ad-Dardo, Solmoni Forsiy (655 yoki 656 y. v. e.), Huzayfa bin al-Yaman (657 y. v. e.) va h.k.lar kiradi. Bu zohidlar Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning bevosita atrofida yurgan kishilar bo'lib, ular tasavvuf an'analarini hali “tasavvuf” so'zi hayotga kirib kelmasdan burun islom amallari doirasiga kiritishganlar. U paytlar islomiy ibodatlarining botiniy tomonlariga ham asosiy e'tiborlarini qaratishgan, toat-ibodatda, xulqu odobda, jamoatda ilg'or kishilar zohid, obid, faqir va nosiq degan nomlar bilan atalar edi. Bu Payg'ambarimiz (s.a.v.) sahobalari, umaviylar va ilk abbosiylar davrlariga to'g'ri keladi (670-800 yy.).

Bu davrda islom olamidanda shunday kishilar etishib chiqdilar ki, ular diniy majburiyatlarini ko'r-ko'rona va shaklan bajarayotganlarni tanqid ostiga olishdi. Ular xulq-atvor va hatti-harakatlarning zamirida qanday motivlar yotganini tahlil qilishga unindilar va ular hayotga, bajariladigan barcha amallarga alohida ruhoniylar ma'no berishga intildilar. Ular o'z maqsadlariga etishish uchun avvalom bor Qur'oni karim matnining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qildilar, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning ibratona turmush tarziga taqlid qildilar, o'zini o'zi anglashga intildilar, ixtiyoriy faqirlikni afzal ko'rilar va dunyodan yuz o'girdilar. Bu kishilar ma'naviy-ruhiy poklanish va o'zini o'zi takomillashtirishga haddan oshiq kirishdilar va bu holatni jihad bilan tengladilar. Ular nafaqat ruhoniylar unsurlariga, balki jismoniy unsurlariga ham alohida e'tibor qaratdilar, ya'ni masalan go'zal xulq-atvor egasi bo'lishga, yashashning halol yo'llarini topishga, tavba qilingan ishga boshqa qo'l urmaslikka intildilar.

Ilk tasavvuf ahlidan hisoblangan sahobalar shunday deb ta'lim berishar edi: Allohdan haqiqiy qo'rquv tuyg'usinituygan musulmonlarni shu hayoti dunyodalik paytlarida qutqarib qolishlari kerak. Buning uchun ular asosiy dushman hisoblangan, o'zining gunohlarga va adolatsizliklarga ega bu dunyoviy hayotidanvoza kechishlari, zohidona hayot kechirishlarizurur. Mana ilk zohidlarning maslaklari qanaqa bo'lgan. Ular shunday e'tiqodga ega bo'lishliklarini tashqi jihatdan ham ayon etish maqsadida jundan tikilgan alohida kiyim kiyib yurishlari sekin-asta odat tusiga kirib boshlagan.

Zohidlarning jundan tikilgan matodan kiyim kiyib yurishlari masalasiga ikki xil qarash mavjud bo'lib, ulardan birinchisi bu holatni xristianlik bilan bog'laydilar. Masalan, A.D.Knish shunday deb yozadi: "Ma'lum ma'noda ilk musulmon zohidlarixristian monaxlari va darvishlarini eslatar edi. CHunki ular ham odatda qo'pol junli kiyim kiyishardilar va bu kiyim ularning tavbasining hamda dunyoviy hayot ne'matlariga nisbatan nafratining timsoli edi. Bunday zohidlar xulq-atvorining "xristiancha" kelib chiqqaniligini anglagan ba'zi musulmon arboblari junli kiyimlar kiyishni tanqid ostiga oladilar"⁵.

Ikkichisi, bu holat zohidona tajribaning mazmuni bilan bog'liq. Ilk zohidlarning e'tiroficha, Alloh ularga faqirona turmush tarzini tuhfa etgan. Faqirlikning tashqi belgisi junli qo'pol kiyim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ularning junli kiyim kiyib yurishiga sabab – faqirona hayotini zohidona isbotlash uchundir.

Nima bo'lganda ham jun kiyimlarni kiyib yurish Suriya va Iroqdagi zohidona turmush tarzini kechirib yurganlar uchun odob, urf tusini ola boshladi. SHunday qilib, lingvistika fanidagi metonimiya hodisasi kuzatildi. Bu hodisaga ko'ra, ba'zan narsa o'zi tayyorlangan narsa nomi bilan ataladi. Bu erda ham odamlar o'zlari kiyib yuradigan kiyim ("jun" arab tilida "suf" ekanligini bilamiz) nomi bilan so'fiylar deb atala boshlandi. SHunday qilib, VIII-asrning oxirlariga kelib Arab Xalifaligining markaziy viloyatlarida zohidona va mistik hayot tarzini kechiradigan kishilarni "so'fiylar" deb atash odat tusiga kirib qoldi. SHu narsani ta'kidlash joizki, Islom davlatlarining turli xil joylarida ularni har xil nomlash kuzatiladi. Xuroson va Movarounnahrda bunday kishilar "hakimlar" (donishmandlar) yoki "oriflar" (Xudoni biluvchilar), Iroq va Suriyada "faqirlar" (kambag'allar) yoki "zohidlar" (Dunyodan yuz o'girganlar) deb nomlanadi.

1. a) tariqatlardan avvalgi davr (h. I – m. VII asr);
b) tariqatlar paydo bo'lgandan keyingi davr (m. VIII – XIV asr);
v) keyingi davrlar tasavvufi.
2. a) tashkil topish davri (h. I – m. III asr);
b) shakllanish davri (h. III – m. VIII asr);
v) taqlid davri (m. IX – XV asr).
3. a) Muhammad a.s.dan Junayd Bog'dodiygacha bo'lgan davr (h. I – III asr);
b) Junayd Bog'dodiydan Ibn Arabiygacha bo'lgan davr (h. IV – XV asr);
v) Ibn Arabiydan keyingi davr (h. VIII asr va undan keyingi asrlar).
4. a) zuhd davri;
b) tasavvuf davri;
v) vahdati vujud davri;
g) tariqatlar davri;
d) zamonamizdagi tasavvufiy jarayon.
5. Bundan tashqari, tasavvuf jarayoni e'tiqod nuqtai nazaridan quyidagicha tasnif etiladi:
a) sunniy tasavvuf;
b) salafiy tasavvuf;
v) shia tasavvufi"⁶.

Biz yuqorida beshxil tasnifni farqladik. Ulardan to'rtinchisini tarixiy psixologik tahlil uchun asos qilib oldik. Bundan keyingi tasavvuf psixologiyasi bo'yicha tahlilimiz shu yo'nalishda bo'ladi. SHunday qilib, tasnifning yuqorisida zuhd davri ko'rsatilgan. Biz shu davrga taalluqli bo'lgan materiallarni tarixiy psixologik jihatdan tahlil qilishga o'tamiz.

Biz yuqorida yozganimizdek, ilu musulmon zohidlari o'zini o'zi tahlil qilishga, axloqiy bokiralikka, Allohdan qo'rqishga (xavf) va ilohiy qonunlarga qat'iy bo'ysinishga asosiy e'tiborlarini qaratishganlar. Keyinchalik zohidlar o'z dunyoqarashlarini yanada kengaytirdilar va Allohga yanala ruhiy jihatdan yaqinlashish uchun turli tuman nafl ibodatlarini kuchaytirdilar,

⁵ Кнѣш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / А.Д.Кнѣш; пер. с англ. М.Г.Романов. – СПб.: "Издательство «ДИЛТА»", 2004. – 464 с. 50-бет.

⁶ Турар Усмон. Тасаввув тарихи. – Т.: "Истиқлол", 1999. – 180 б. 49-50 бет.

taslimiyat yo'lini kengaytirdilar, qo'shimcha urf-odatlariga amal qildilar, tunlari tahajjud va zikr bilan bedor bo'ldilar, Qur'oniy oyatlarning botiniy tomonlariga e'tiborlarini qaratdilar, shuningdek, ham fikriy, ham ruhiy diqqatini Allohga yo'naltirdilar. Yaratilayotgan ta'limotining ilk vakillari sekin-asta o'z davridagi ilg'or sahobalar va tobeinlar maslahatlariga amal qilgan holda zohidlar xulq-atvorining umumiy qoidalarini ishlab chiqisha boshlashdilar. Bu qoidalar ro'yxatining asosiy qismida tavba-tazarru (tavbai nasuh), dunyo lazzatlaridan voz kechish va ixtiyoriy faqirliksingari amallar turar edi. Bu davrdagi zohidlik harakatiga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'risida Usmon Turar shunday deb yozadi: "Hijriy I va II asrlarda zohidlarda namoyon bo'lgan xususiyat – qilgan toat-ibodatlarida, dunyodan yuz o'girishlarida va har qanday zohidona turmash tarzlarida Allohning roziligini topib, jannatga kirish va dahannam azobidan qutilish g'oyasiga ega bo'lishlaridir."ni ularning hayotlarida hokim bo'lgan tuyg'u va tushuncha – jahannam qo'rquvi va jannatda Allohning jamolini ko'rish umidi edi. Bu davrdagi zohidlarda avval "qo'rquv"ga tayangan zuhd tushunchasi hukmron edi"⁷.

Ilk so'fiylardagi ilk xususiyat - Allohga yaqinlik hissi va uning jazosidan qo'rquv bo'lsa, ilk mistiklar ta'limotining keyingi muhim elementi Alloh va inson zoti bilan tuzilgan shartnoma ("Alastu birobbikum?") hisoblanadi. Ma'lumki, bu shartnoma hali insonning gunohkor tanasi dunyoga kelmasdan turib tuzilganidir. Bu shartnoma bo'yicha inson Allohning mutloq hokimiyatini tan oladi hamda unga sodiq xizmat qilishga va'da bergan edi. Biroq insoniy ruh vujudga kirgach, o'zining va'dalarini unitadi va mazkur gunohlarga to'la dunyoning ishvalari qurboni bo'ladi. Zohidlarning maqsadi shundan iboratki, Alloh o'zining huzurida yana uchratguncha ruhini poklamog'i zarur. Bu maqsadlarga erishish yo'lida dunyo aldovlariga uchmasligi, shuningdek egoistik istaklar makoni hisoblangan nafs bilan kurashish talab etiladi.

Shunday qilib, zohidning vazifasi o'zini o'zi tahlil qilishdan va uning elkasiga yuklatilgan topshiriqlarni qat'iy bajarishdan iboratdir. Tokim g'alokatli ehtirosarga boshlaydigan insoniy "men" foniy bo'lsin. Chunki insoniy "men" yashar ekan, ilohiy irodaga to'liq bo'ysinish mumkin emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zohidlik harakatlari mazmunini tushuntirib bering.
2. Tasavvufning asosiy goyasi nima?
3. Ilk zohidlik harakatlari qachon paydo bo'lgan?
3. Zohidlik va oriflikning farqi nima?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf psixologiyasining tadqiqot metodlari.
2. Tasavvuf tushunchasi va ilk so'fizmning psixologik asoslari.

4-MAVZU. TASAVVUNING ISLOM TA'LIMOTI BILAN UYG'UNLIGI.

Reja:

1. IX-asr boshlariga kelib tasavvuf nazariy asoslarining ishlab chiqilishi.
2. So'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari.
3. O'zini o'zi tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari.
4. Tariqat, haqiqat va ma'rifat degan tushunchalarning yuzaga kelishi.

Tayanch tushunchalar: islom ta'limoti, nazariy asoslar, zohidlik, psixologik mashqlar, o'zini o'zi tarbiyalash, tadbir-usullar, tariqat, haqiqat, ma'rifat.

Tarixiy va ijtimoiy jarayonlar tufayli muayyan davr oralig'ida ota - bobolarimiz ming yillardan beri e'tiqod qilib kelgan islom dinidan uzoqlashib qoldik. Tariximizning "eng qora

⁷ O'sha asar, 50-bet

kunlari” bo’lgan Sho’ro davrida mamlakatimizda diniy bilimlarni o’qitish uyoqda tursin, hatto diniy amallarni bajarish, qat’iy ta’qiqlab qo’yildi. Dindor kishilar qatag’on qilinib, surg’un va qamoqlarga salindi. Bu bedodlik, ayniqsa, XX asrning 30 - 40 yillar oralig’ida kuchaydi.

20-yillarning oxirida O’zbekistonda arab alifbosidan lotin yozuviga o’tildi. Lotin alifbosida savod chiqarib, ateizmdan ta’lim olgan va davlat idoralarida ishlagan kommunist rahbarlar arab yozuvidagi har qanday kitoblarni yo’q qila boshladilar. Uyidan arab alifbosida yozilgan kitob chiqqan kishilar sovet tuzumining dushmani sifatida qamaldilar. Qo’rquv natijasida odamlar diniy kitoblar bilan birga arab alifbosida yozilgan ilmiy va badiiy kitoblarni kechalari qabristonlarga borib ko’mib kelishgan, uylarining devorlari orasiga yashirishga majbur bo’lganlar. Natijada millatimiz orasida diniy bilimlar va milliy qadriyatlardan xabarsiz, xudosizlik aqidasi o’zlashtirgan ikki – uch avlod shakllandi.

Shayx Muhamid Sodiq Muxammad Yusuf “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida yozishicha, nafs tarbiyasi deb qabul qilingan tasavvur ilmiga dastlab sahobai kiromlar tamal toshini qo’yishgan. Ular orasidan ruhiy kamolot va zohidlikka moyil zotlar Qur’on oyatlari va sunnatlardan o’zlari uchun qo’losalar chiqarib, dalillar keltirib, ruhiy tarbiya bilan mashgul bo’la boshlanganlar. Ularning ko’zga ko’ringan vakillari Abdulloh ibn Amr, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar, Salmon Forsiy, ashobi suffa roziyallohu anhumlar bo’lishgan.

Ulardan keyingi – tobe’inlar avlodi bu ilmni yanada rivojlantirib, tasavvuf ilmining shakllanishiga o’z hissalarini qo’shishgan. Bu sohada Uvays Qaraniy, Hasan Basriy, Robiya Adaviya, Ja’far sodiq kabi azizlarning xizmatlari katta bo’lib, tasavvuf tarixini o’rgagan ulamolar fikricha, ularning tasavvufi eng to’g’ri va ishonchli yo’l bo’lgan. Ularning yo’llarini davom ettirgan taba’a tobe’inlar orasidan Ibrohim ibn Adham, Fuzayl ibn Ayozi, Zunnuni Misriy kabi etuk so’fiylar etishib chiqdilar. Keyinchalik nafs tarbiyasi bo’yicha ustozlar, Piru murshidlar etishib chiqdilar, ular o’z shogirdlariga ruhiy tarbiya bo’yicha nazariy va amaliy bilimlar bera boshladilar. Sekin - astalik bilan har bir Shayxning o’z tariqati (yo’li) paydo bo’la boshladi. Bu jarayon XI – XII asrlarda ancha rivojlandi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar tasavvufni G’arb olamida keng tarqalayotganini va aholi tomonidan iliq qabul qilinayotganini e’tirof etmoqdalar. Aynan Evropa mamlaqatlari, Shuningdek, AQSH, Kanada va Avstraliyada bu jarayon oxirgi o’n yil ichida birmuncha jadallashgani namoyon bo’lmoqda. Afsuski, hozirgi kunda tasavvuf tariqatlarining G’arb mamlaqatlarida tez sur’atlarda tarqalishining sabablarini tahlil etuvchi mukammal tadqiqotlar etarli emas. Amerikalik tasavvufshunos olim K.Ernstning qayd etishicha, bugungi kunda so’fiylik bir tomondan globallaShuv va sekulyarizatsiya jarayonlariga moslashishga o’rinayotgan bo’lsa, boshqa tomondan tarixiy asosini ham saqlab qolishga muvaffaq bo’lmoqda. G’arbda tasavvufga nisbatan qiziqishning kulminaatsion nuqtasi II Jahon urushidan keyin Janubiy Osiyodan ko’psonli musulmon aholisining Evropa mamlaqatlariga ko’chib o’tishi bo’ldi. 1960-70 yillarga kelib Fransiya va Germaniyada etnik jihatdan xilma-xillikning ortishi kuzatildi. Shu bilan birga mazkur hududda musulmon aholisining ko’payishi islom diniga xos unsurlarning, jumladan, tasavvufning ham tarqalishiga sabab bo’ldi. Natijada nafaqat musulmon aholisi balki, mahalliy xalq orasida ham tasavvufga bo’lgan qiziqish orta boshladi. Ushbu qiziqishlarga javob tariqasida tasavvufga oid bir qancha ilmiy adabiyotlar yuzaga keldi. G’arb tadqiqotchilari tasavvufni faqatgina bugungi kunga kelib o’rganayotganlari yo’q. Bu jarayon bir necha asrlar ilgari boshlangan bo’lib, o’z davriga xos vazifalardan kelib chiqib o’rganilganligi bois bugungi kundagi muammolarni to’liq aks ettirgan deb aytolmaymiz. Ammo tasavvuf haqida tarixiy va dastlabki ma’lumotlarni o’zida jamlagan mazkur ilmiy adabiyotlardan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanib kelinmoqda. G’arb tadqiqotchilariga xos xususiyat islomshunoslikni qomusiy jihatdan o’rganish bo’lib, ushbu tadqiqotlar tarkibida tasavvuf alohida o’rin tutgan. Ular orasida vengriyalik olim I.Golbdqier (1850-1921) yni keltirish mumkin. U so’fiylikni neoplatonchilik bilan aloqadorligini qayd etgan. Uning fikricha, so’fiylikda eng muhim nuqta bu Yaratganga bo’lgan muhabbatdir. Ushbu davrda so’fiylikni yaxudiylik va xristianlik dinining mahsuli sifatida qarovchi tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Ulardan gollandiyalik olim K.Snuk-Xyurgron’eni (1857-1936) keltirish o’rinli.

Ammo bu qarashlar bugungi kunda o'zining ilmiy va holis tasdig'ini topmaganligi bois biz yuqoridagi fikrlarni inkor etishimizga to'g'ri keladi. Xususan, har bir din va falsafiy ta'limot tarkibida alohida ravishda o'sib ulg'aygan mistik jarayonlar o'zaro farqlarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois tasavvufda mistik xususiyat bilan bir qatorda boshqa, o'ziga xos jihatlar ham mavjud bo'lib, mistiqizmdan tamoman farqlidir... Mistiqizmning ikki xarakteri bor: passivlik (harakatsizlik) va metodsizlik (usul yo'qligi). Tasavvufda bidoya va nihoya, boshlanish va kamol topishga eriShuv va bu yo'ldagi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mistiqizmda esa harakat va g'ayratga extiyoj yo'q va insonning yaratilishi kifoya.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida tasavvufni zamonaviy tadqiqot metodlari asosida o'rganila boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmida A.Arberri, X.Ritter, F.Mayer, M.Molya kabi G'arb olimlarining ilmiy izlanishlarini ushbu turkumga kiritish mumkin. Mana Shu davrdan tasavvuf falsafasi hamda She'riyatini tarixiy va fenomenologik asosda o'rganilgan tadqiqotlar soni ortib bordi.

Tasavvufni o'rganish Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Rossiyada ilg'or darajada bo'lib, boshqa mamlakat olimlari ularning ilmiy izlanishlaridan keng foydalanadilar. Rus olimi, Michigan universitetining dekani, tasavvufshunos, professor A.D.Knichning fikriga ko'ra, G'arbda so'fiylik XII-XIII asrdayoq ma'lum edi. Ammo o'rta asrlarda evropaliklarning Sharqqa nisbatan qiziqishlari orta borishi natijasida dastlab, Kembrij universitetida 1632 yilda, keyin Oksfordda 1636 yilda arab va boshqa Sharq tillari kafedralari tashkil qilingan. 1942 yilga kelib (A.Arberri misolida) so'fiylik haqida ma'lumot beruvchi ilk yirik tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Ammo ushbu dargohdagi izlanuvchilarning aksariyati so'fiylikning tashqi jihatlarini katta ahamiyat erib o'rganishlari natijasida kishilar tasavvurida tasavvufga nisbatan uydirma ba'zan soxta qarashlar uyg'onishiga olib keldi (P.Rikot tadqiqoti misolida).

G'arb olamida tasavvufga bo'lgan qiziqish sufiyona She'rlarni lotin tiliga tarjima qilinishi bilan boshlandi. Qodiriya tariqatining vakili Aziziddin Nasafiyning "Maqsadul-aqso" asarini Branderburgli A.Myullerning tarjima qilishi ham g'arbliklarda tasavvufga nisbatan iliq munosabat uyg'otti. Oradan yuz yil o'tib Hofiz She'riyati G'arbda mashhurlikka erishib, uning qarashlar xalq orasida ommalashdi. Britaniyalik V.Jons (1746-1794) A.Arberri nazdida evropalik olimlar orasida Sharqshunoslik sohasidagi ilk yirik olimdir. U Britaniya qirolligi topshirig'i bilan Hindistonda maxsus xizmatda bo'ladi. Hindistonda fors She'riyati bilan tanishib, tasavvufga nisbatan qiziqishi ortadi. U tasavvuf ildizlarini hinduiylikdan izlashga o'ringan. V.Jons, D.Malkolm, J.Grexmlar tasavvufning ilk asoslarini Britaniya mustamlakasi ostidagi mamlaqatlarda deb bilganlar. Ular tasavvuf, hinduiylik va buddizm orasidagi bog'liqlikni ko'rsatishga o'ringanlar.

Britaniyalik olimlar tasavvufni o'rganishni mustamlaka ostidagi mamlaqatlar madaniyati va diniy ta'limotlarini o'rganishning asosi sifatida qaraganlar. Xalq ongiga ta'sir qilishda tasavvufning o'rni beqiyos deb bilganlar.

Fransiya tasavvufshunoslik maktabining yirik vakillari qatorida Lui Massinbonni (1883-1962) keltirish mumkin. U Sharqshunos va islomshunos olim sifatida musulmon madaniyati va tasavvufi yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borgan. Massinbon Parijdagi Sorbonna universitetining faxriy professori bo'lgan. L.Massinbon so'fiylikka oid atamalarni o'rganishda muhim va o'ziga xos qadam tashladi. Ushbu izlanish metodologik jihatdan tasavvufga ichki tomondan nazar solishni talab etdi. U tasavvufdagi atamalarni Qur'onga tayanishi haqidagi fikrni qo'llab quvvatladi va uni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Shu jihatdan qaraganda Massinbonning tadqiqoti qimmatli adabiyotlardan sanaladi.

Yana bir Fransiyalik olim J.G.Tassi islom tasavvufini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan. U Fariduddin Attorning asarlarini tarjima qilish bilan birga islom va xristianlik orasidagi o'xshashliklarni kuzatishga muvaffaq bo'lgan. Knichning fikriga ko'ra, mazkur Fransiyalik olimning izlanishlarida adabiyot va lingvistika birinchi o'rinda bo'lib, islomshunoslik mukammal darajada emas. Tassining yangiligi tasavvufiy adabiyotlarga filologik yondaShuv bildirishdadir.

Fransiyadagi tasavvufshunoslik ikki xil tartibda amalga oshiriladi. Birinchisi, Sharqshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish turi bo'lib, bunda hudud tanlanmaydi, umumiy masshtabda o'rganilib, filologik tahlil amalga oshiriladi. Bu turdagi tadqiqotni amalga oshirgan Fransiyalik olim S.de Sassi (vaf.1838) asosan tasavvufning tarixiy jihatlarini Yoritishga muvaffaq bo'lgan. Ikkinchi tur vakillari tasavvufga zamonaviy nuqtai nazardan qaraydilar. Asosan tasavvufshunoslikning bugungi va ertangi rivojiga munosabat bildiradilar. Sosiologik jihatdan tahlil qilinganda, tasavvufni G'arb olamiga ko'rsatayotgan ta'sirini va uning oqibatlarini o'rganadi.

Fransuz sayyohlari va harbiylari tomonidan yozib qoldirilgan xotira kitoblari ham tasavvufshunoslar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bular jumlasiga E. de Nevo (1845), SH.K.Brosslar (1859), M.Mersye (1869), A.Dyuveirye (1884)larni keltirish mumkin. Kapitan L.Rinna kuzatuvlarini yozuvga tushirib, so'fiylarning tarixi va odatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan. Uning SHimoliy Afrikadagi tariqatlar va ularning soni, yashash manzillari haqida bergan ma'lumotlari haligacha Sosiologik tadqiqot olib boruvchi olimlar uchun yo'llanma vazifasini o'taydi. Fransiyalik tasavvufshunoslar bugungi kunga kelib tasavvufni ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini o'rganish ustida ish olib bormoqdalar.

N.S.Semenov ilk bor tasavvuf bo'yicha Germaniyada akademik ilmiy izlanish olib borgan Shaxs sifatida XIX asrda yashagan nemis ruhoniysi Frid Avgust Tolukni e'tirof etadi. F.Toluk tasavvufni islom tarkibidagi bir shahobcha sifatida o'rganadi. Yana bir nemis tadqiqotchisi Fon Xamer tasavvufni Payg'ambarning ilk sahobiyalariga ergashuvchilar tomonidan ishlab chiqilgan yo'nalish sifatida baholagan. Ba'zi tadqiqotchilar esa tasavvufni xristianlikdagi tarkidunyochi oqimlar bilan solishtirgan holda o'rgandilar. Nemis olimlari Al'fred fon Kremer va Frid Avgust Toluk fikriga ko'ra, islom tasavvufi zamirida Sharq xalqlari ruhiyatining o'ziga xos yig'indisi aks etadi. A.Kremer "Islomdagi ilohiy qarashlar tarixi" nomli ilmiy izlanish olib borganini qayd etish zarur. Muallif mazkur tadqiqotni evroqentrik va islomiy qarashlardan holi bo'lgan holda amalga oshirgan. U tasavvufni ikkiga ajratadi:

1. Mo'tadil, zohidlik amaliyotiga asoslangan toifa;
2. Fikriy jihatdan chuqur mulohazaga, har bir masalada botinga ahamiyat beruvchilar.

So'fiy shoirlar tomonidan ta'lif etilgan klassik fors She'riyatining g'arb tillariga tarjima qilinishi evropaliklar xususan, nemis xalqi madaniyatiga ham katta ta'sir o'tkazmay qolmadi. Nemis tarjimonlari Y.Xammer va F.Ryukertlarning ijodi tufayli nemislar so'fiylik an'analari bilan yaqindan tanishdilar.

Nemis tadqiqotchilaridan Sede Sassi Fariduddun Attorning "Pandnoma"sini. missioner E.Trumpa hind so'fisi Abdullatifning "Risola" poetik asarini, Y.Xammer esa Ibn Faridning "Qasida"sini nemis tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'lgan. Bular orasida E.Trumpa tasavvufni buddizmdan kelib chiqqan ta'limot sifatida qaraydi va yondoshadi.

Germaniyalik zamonaviy tasavvufshunoslardan Yurgen Paulni keltirish mumkin. U 1949 yil Germaniyaning Lindholmida tavallud topgan. Yu.Paul Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari haqida monografiya va o'nga yaqin maqolalar muallifidir. Tasavvufning mazkur hududda tutgan o'rnini, o'lka ijtimoiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi tasavvufni o'rganuvchi yirik olimlar sirasiga kiradi. Uning ilmiy izlanishlari asosan Naqshbandiylik tariqati va uning vakillari faoliyatiga bag'ishlangan.

Germaniyalik dinshunos, islomshunos olimi Annemari Shimmel (1922-2003) tasavvufshunoslik sohasida salmoqli faoliyat yuritgan. Uning rus tiliga tarjima qilingan "Mir islamskogo mistiqizma" kitobi ushbu sohada amalga oshirilgan yirik tadqiqotlardandir. Uning mazkur tadqiqoti barcha hududlar doirasida amalga oshirilgan umumlashma kitob bo'lib, tasavvuf tarixi va bugungi kuni haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, fors she'riyatidagi majoziy obrazlarning tasavvufiy talqini haqida to'xtaladi.

Rus sharqshunos olimlari E.E.Bertels, A.M.Bagao'tdinov, I.S.Braginskiy va B.G.Gafurovlar fikriga ko'ra, tasavvuf ilk islom tarixi davrida mavjud tuzumdan kishilarning norozi bo'lishlari natijasida yuzaga kelgan. Ushbu ko'rash ijtimoiy hamda siyosiy ahamiyatga

egaligi bilan ahamiyatlidir. Klassik olimlar tomonidan tasavvufiy qarashlar, shaxslar va atamalar ancha oldin o'rganila boshlangan.

Tasavvuf sohasida G'arb olimlari katta ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Turkiyalik olim Muhammad Sarhind Tayshiyning akfsuslanib ta'kidlashicha, G'arb olimlarining tasavvuf mavzusida yozgan asar va maqolalari o'n mingga yaqin bo'lgan holda, islom olamida bu mavzu etarli darajada tadqiq etilmagan.

Fransuz sharqshunosligi XVII asrdan shakllana boshlagan. Buning bosh sababi o'sha davrda Evropada Sharq mamlakatlariga, ularning boy tarixi, madaniyati va diniga qiziqishning ortib borishi bilan izohlanadi.

Shuning bilan birga Evropaning dengiz bo'yida joylashgan mamlakatlarida bug' mashinalarining ixtiro qilinishi bilan kemasozlik rivojlanib ketdi. Uzoq yurtlarga, xususan Sharqqa va Osiyo, Afrika qit'alariga savdo sotiq bilan borish, undanda muhimroq bo'lgan harbiy maqsadlar, qoloq o'lkalarni bosib olish, tabiiy boyliklariga egalik qilish kabi geopolitik maqsadlar ham etakchi omil bo'lgan. Buning uchun erli aholining tili, dini, urf – odatlarini bilish ham zarur bo'lgan. Yana bir muhim omil bu – Usmonli turklar, safaviylar, boburiylar dinastiyasi sekin – asta tanazzo'lg'a uchrab, o'z qudratini yo'qota boshlagandi.

Natijada, Sharq mamlakatlariga tijorat, ilmiy, harbiy maqsadlarda ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Shunday safarlar jarayonida tasavvuf ta'limoti bilan tanishishadi.

Fransuz sharqshunosi Anri Maessi 1963 yilda "Islam" nomli kitobida islom dinining kelib chiqishi, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayoti va faoliyatlari haqida yozgan. Tasavvuf ilmi islom dini zahirida shakllangan va rivojlanib borgan. Islomning dastlabki davrlarida fiqh aqid, hadis va boshqa islomiy ilmlar kabi tasavvuf ham alohida fan sifatida ajralib chiqmagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. IX-asr boshlariga kelib tasavvufning qanday nazariy asoslari ishlab chiqildi?
2. So'fiylarning qanaqa amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari mavjud?
3. O'zini o'zi tarbiyalash va chiniqtirishning qanday tadbir-usullari mavjud?
4. Tariqat, haqiqat va ma'rifat degan tushunchalar qanday yuzaga keldi?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvufning psixologik mohiyati.
2. Asosiy tasavvuf tushunchalari va ularning psixologik sharhi.

5 - MAVZU. BILISHNING TASAVVUFIY YO'LI.

Reja:

1. *Tasavvuf ahli bilishining falsafiy yo'llari.*
2. *Tasavvur, his, mantiqiy tafakkur.*
3. *Ilohiyot ilmi.*
4. *Ularning islomga mos kelmasligi sabablari.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, ta'limot, mutasavvif, so'fiy, falsafiy yo'llar, tasavvuf ahli, tasavvur, his, mantiqiy tafakkur, ilohiyot ilmi, sabablar.*

Tasavvuf ta'limoti yaxlit ta'limot sifatida hozirgi arab mamlakatlari hududida vujudga kelgan, Markaziy Osiyo da esa so'fiylik IX - XI asrlarda tarqalgan. Musulmon Sharqida tasavvuf ilmi va harakati muntazam tadrijiy taraqqiyotda bo'lgan. Tasavvuf ilmining negizlari payg'ambar hayotligida paydo bo'lgan va tasavvufning barcha tariqatlari o'zlarini aynan Muhammad payg'ambar bilan bog'laydilar. Muhammad payg'ambar ta'limoti oddiy tilda ilmi safina - kitobiy bilim va ilmi siyna - dildagi bilim deb ataladi. Birinchisi ulamolarning doktrinal ta'limotida bo'lsa, ikkinchisi so'fiylarning qat'iy ezoterik, mistik ta'limotida mujassamlashgan.

Tasavvuf ravnaqini bir necha davrlariga bo'lish mumkin: zohidlik - VIII asr; Obidlik, oriflik - IX asr o'rtalari - X asr; XI - XII asrlar tasavvuf maktablari va silsilalarining tarkib topishi. Islomning ilk davrida «at - tasavvuf» va «as - so'fiy» iboralari keng tarqalmagan. Ularning o'rniga odatda «zuhd» (tarkidunyochilik, faqirlik, dunyoviy orzu - havaslardan voz kechish), «zohid» Yoki Shunga yaqin, «obid» (ibodatchi) so'zlaridan foydalanilgan.

Mistik zohidlik yo'nalishining rivojlanishi VII - IX asrlarda ro'y bergan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun, musulmonchilikdagi mistik - asketik yo'nalishning kuchayishini arab kibar urug'lar hoqimiyatiga, ilk ta'limot g'oyalari ning asta - sekin uzoqlashib ketayotganiga, axloqning tubanlashuviga nisbatan munosabatni ifodaladi

Hijriy III asr oxiri - IV asr boshlarida Abu Nasr Forobiy tomonidan yaratilgan va keyinchalik islom falsafasi deb nomlangan falsafa ilmining shakllanishigacha tasavvuf o'zining an'anasiga va mustahkam asoslariga ega bo'lib qolgan ta'limot edi. Tasavvuf, shariat va falsafa munosabatlari ma'lum darajada shakllandi va jamiyatning ijtimoiy - siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsata boshladi

VIII asrning ikkinchi - IX asrning birinchi yarmida ilohiyot va tasavvuf o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar XII asrda asosan bartaraf etilgan. Musulmonlar orasida so'fiyona dunyoqarash kengroq yoyila boshlagan. Shu bilan birga, tasavvufda mo'tadil, keskin ekstatik hamda panteistik oqimlar yaqqol ko'zga tashlanib borgan. Tasavvufning shakllanishida va keyingi nazariy - g'oyaviy takomillashuvida «xonaqoh», (zoviya, rabot) instituti katta rol o'ynagan. Darvesh so'fiylarni birlashtiruvchi markaz sifatida «xonaqoh» ilk bor Sharq musulmon olamida IX - X asrlar oralig'ida Xurosan va Movarounnahrda, keyinroq G'arbiy Eron, Iroqda, Suriyada va Misrda, Shuningdek, Hindistonda paydo bo'lgan. X asr oxiridan boshlab «ustoz - shogird» (murshid - murid) instituti shakllangach doimiy harakatdagi xonaqohlar paydo bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan Sharqdagi ba'zi xonaqohlar avliyo - pirlarning ziyoratgohlariga aylangan.

IX - XIII asrlar ni tasavvuf ta'limotining mumtoz davri, XIV - XV asrlar ni esa uning oltin davri deb tavsiflash mumkin. Shunki, bu davrga kelib, Movarounnahrda va Xurosandada Naqshbandiya keng yoyilib gullagan davr bo'ldi. Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Umuman, XV asrdan keyin tasavvufning nazariy - falsafiy jihati so'na boshladi

Tasavvuf ta'limoti dunyoqarashiga oid murakkab va ziddiyatli bo'lgan jihatlari tadqiq etilgan. So'fiy uchun mutlaq borliq sifatida Allohning mavjudligi isbot talab qilmaydigan (aksioma) haqiqatdir. Masalaning tub mohiyatini nazariy bilish tashkil etadi. O'rta asrlar g'oyaviy - falsafiy hayotida ikkita bir - birini inkor qiluvchi ta'limot mavjud edi: biri aqidaviy kalomga asoslangan ortodoks islom, ikkinchisi aql imkoniyati va qudratidan kelib chiqadigan dunyoviy bilimga suyanadigan falsafa. Ikkinchi oqim ma'lum darajada tasavvufda rasmiy din me'yorlaridan chiqish mumkinligini hisobga olgan uchun hurfikrlilik manbai edi. Shu boisdan g'oyaviy falsafiy oqimlarning ontologik ildizlari har xil edi.

Tasavvufni mifologik, diniy - irfoniy va ilmiy anglashlar uyg'unlashgan, islom dini tarkibida vujudga kelgan tarafdorlaridan maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi alohida ta'limot ekani asoslangan.

So'fiylik amaliyotida muridda (shogird) ro'y berishi mumkin bo'lgan «hol» - o'zligini uno'tish darajasi ustoz (murshid) rahbarligida, ba'zi kishilarda esa kutilmaganda g'ayritabiiy tarzda ham paydo bo'lishi mumkin.

So'fiylik borliq, ong va jamiyat taraqqiyoti muammolarining noan'anaviy echimlarini ijodiy va kreativ izlab topishga intilish sifatida yuzaga kelgan. Olamning yaratilishi masalasida faylasuflar va mutakallimlar orasidagi farqni quyidagicha ifodalash mumkin: faylasuflar Xudoni birinchi sabab deydilar, lekin ulardan ba'zilar bu ta'rifdan chetlab o'tib, xudoni yaratuvchi deb ataydilar, Shunki, deydi ular, - agar uni birinchi sabab deyiladigan bo'lsa, Shuning o'zi bilan oqibatning mavjudligi tan olingan Bular edi, bu esa olamning abadiy emasligi g'oyasini tan olishga olib keladi.

IX - XIII asrlarda tasavvufning ontologik konsepsiyasi asosi - vahdat al - vujud, Yani Alloh va olamning birligi to'g'risidagi ta'limot yaratildi. Vahdat al - vujud ta'limoti tanqidi

natijasida yuzaga kelgan Vahdat ash - Shuhud ta'limoti asosini Alloh – yagona, abadiy, olam esa U tomonidan yaratilgani g'oyasi tashkil etadi. Bu esa an'anaviy falsafada dualistik dunyoqarash deb ataladi. Undan kelib chi qadigan qo'losa Shuki, Allohning bu olam bilan hech qanday birligi yo'q. Bu ikki ta'limot o'rtasidagi farqlarni Shunday izohlash mumkin: Vahdat al - vujud - zot va vujud bir xil; sifat va zot aynidir; olam – sifatning ma'lum bo'lish va yuzaga kelishidan iborat; o lam xayoldir, ammo Alloh bor, Yani Alloh olamdir; olam soyadir, lekin soya Allohdir; Alloh - inson munosabatlari yaqinlashish jarayonidir; yaratilish sababi ilohiy ishqdir. Vahdat ash - Shuhudda esa vujud zotdan boshqa narsa bo'lib, u birinchi yaratilgan unsur; sifatlar zotd an farq qilib, zot vujud bilan tashqarida mavjud bo'lib, zotning soyalaridir; olam sifatning emas, ularning soyalari tajalliysidir.

Tasavvufning ontologik ildizlari islom zamirida shakllangani uchun ilk o'rta asrlarda u Sharqona tus olgan. Bu esa diniy ta'limo t bazasining Sharqda kengayishiga imkoniyat yaratib berdi. So'fiylar jamoadan uzoqlashishga emas, balki jamoa bilan birga bo'lishga, ochko'zlikdan, kibrdan, odatlarga ko'r - ko'rona bo'syunishdan, Yuqori tabaqadagi Shaxslardan qo'rqishdan xalos bo'lishga chorlar edilar. Odam qa ncha o'rinmasin Alloh sifatlarini bilishga qodir emas. Rasionalistlar faqat mantiqqa suyanib haqiqatga erishish mumkin deb o'ylaydilar. So'fiylar esa bu haqiqatga faqat intuiqiya Yordamida erishish mumkin deb ta'kidlaydilar. Abu Homid G'azzoliy esa bu ikki yondaShuvni uy g'unlashtirishga intildi.

So'fiylikning turkiy silsilasi asoschisi Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi tarixiy - falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilingan. Uning She'rlarida fano va baqo, harom va halol qayta - qayta tilga olinadi. Yassaviy o'zining hikmatlarida insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo'lida fidoyilik, e'tiqodda sobitlik, hayotda halollik, poklikni tarannum etadi. Uning «Faqrnoma» asariga Yassaviylik tariqati aks etgan nazariy manba deb qaraladi. Risolada darveshlik maqomining 40 ta sharti ko'rsatilgan. «Va ul qirq maqomdin o'n m aqom shariatda turur va o'n maqom tariqatda turur va o'n maqom ma'rifatda turur va o'n maqom haqiqatda turur», deyiladi. Yassaviy hikmatlarining botiniy mazmunida tasavvuf ta'limotining insonni kamolotga chorlovchi g'oyalar mujassamlashgan. Ular barkamol avlod Shaxsi ni shakllantirish siyosatini amalga oshirishda dolzarbligicha qolmoqda. Musulmon Sharqida Xojai Jahon unvoniga sazovor bo'lgan mashhur shayh xojagon tariqatining asoschisi Xoja Abduholiq G'ijduvoni ta'limotining asosini ilm o'rganish, bilimlarni, kasb - hunarni egallash , halol mehnat bilan rizq topib yashashga da'vat etish tashkil etadi. « Vasiyatnoma » da keltirilgan hikmatlar Shundan dalolat beradi. Xoja Abduholiq tasavvuf ta'limotini har tomonlama boyitib, amaliyotiga zikri xafiyini olib kirdi. Xojagonlik tariqatining sakkiz qon un - qoidasini shakllantirib berdi. Kelgusida G'ijduvoniyan quyidagi vorislik zanjiri davom etadi: Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjirfag'naviy, Xoja Azizon Ali Romitoni, Xoja Muhammad boboyi Samosiy, Xoja Sayid Amir Kulol Buxoriy, Xoja Muhammad Bahouddin Muhammad Naqshband. Tasavvufning islom ola mida keng tarqalishi va rivojlanishida va ijtimoiy hayotga uyg'unlaShuvida Naqshbandiya tariqatiga asos solgan Bahouddin Balogardon Muhammad Jaloliddin muhim rol o'ynagan. Tariqatning Yuqorida ko'rsatilgan sakkizta rashhasiga u Yana Vuqufi zamon, Vuqufi adadiy, Vuquf i qalbiy kabi uchta shartni ham joriy qilgan. Bu so'fiylik ta'limotiga binoan hayotning mazmunini Haqiqat (Alloh)ga erishish uchun intilishdir va unga erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim tariqat jarayonida yuz beradi. Tariqat inson Haqiqatga erishish uchun inson qanday to'siqlarni engishi lozimligini belgilaydi. Tasavvuf zamirida «O'zini bilgan odam Allohni biladi» degan tamoyil yotadi. O'zini o'zi anglash Allohni bilishning eng qisqa yo'lidir. Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot asosidagi «Dil ba Yoru, dast ba kor», degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no - mohiyatini Yorqin ifodalaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf ahli bilishining falsafiy yo'llarini ayting.
2. Tasavvur, his, mantiqiy tafakkurlarni tushuntiring.

3. Ilohiyot ilmini mohiyatini ayting.
4. Ularning islomga mos kelmasligi sabablarini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Imom G'azzoliy ruh manzillari haqida.
2. Nafs va komillik psixologiyasi.

6 - MAVZU. TARIQATLAR: NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.

Reja:

1. *Tariqatning mazmun mohiyati.*
2. *Tariqatlar tasnifi.*
3. *Ilk botil tariqatlar.*
4. *Ularning islomga mos kelmasligi sabablari.*
5. *Tariqatlarni tasniflashga nisbatan turli xil yondashuvlar.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, tariqat, tasnif, botil, botil tariqat, islom, rasionalizm, mantiq, ontologiya, diniy-hissiy kechinmalar, ortodoksal islom.*

Xorazmlik mashhur Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissalar katta. Qubroviya tariqati, uning ko'p xalqalari Najmiddin Kubrodan boshlanadi. Uning shogird - muridlari qatorida Majididdin Bag'dodiy, Farididdin Attor, Najmiddin Roziy, Kubro so'fiylik maktabining davomchisi Sayfiddin Boharziy kabi alloma Shaxslar bor edi. Shuning uchun ham u el orasida Valiytarosh degan unvonga sazovor bo'lgan. Qubroviya tariqatining qoidalari o'nta – Tavba, Zuhd fid - dunyo, Tavakkul, Qano'a, Uzlat, Mulozimot az - zikr, Tavajju', Sabr, Muroqaba, Rizo, ular musulmon ahlining e'tiqodini tarbiyalash va shakllantirishga qaratilgan. Ushbu qoidalar tasavvuf tariqatlari yo'lga kirgan barcha kishilar uchun zaruriy bo'lib, Solik albatta o'z hayoti davomida rioya qilib borishi zarur.

Qubroviya tariqatidagi bu qoidalar Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarida ham o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyo dan chiqqan buyuk mutafakkir olimlarning tasavvuf ilmiga munosabatlari va ularning ilmiy faoliyati natijalarining bunday ezoterik dunyoqarash taraqqiyotiga ta'siri ochib berilgan. Bobda O'zbekiston hududida etishib chiqqan buyuk olimlarning tasavvuf ilmiga aloqador pozitsiyalari tadqiqi davomida ular har xil bo'lgani aniqlandi. Masalan, Abu Nasr Forobiy Alloh irodasini faqat yaratish faoliyati bilan cheklab, olamning yaratilishida Unga faqat ilk sabab rolini beradi. Keyingi taraqqiyotni esa u ob'ektiv qonunlar harakati bilan bog'lab tushuntirgan. U soxta so'fiylarning fikrlarini «saodatga zid shaharlar» kishilarining fikrlari sifatida misol keltiradi. So'fiylarning tarkidunyochilik g'oyalarini rad etadi, ularni johillar shahriga tegishli deb hisoblaydi. Uning "Aflotun qonunlar mohiyati" (Talqisu navomisi Aflotun) nomli asaridagi fozil odamlar jihatlarini to'g'risidagi fikrlari tasavvuf ta'limoti tamoyillaridan farq qilmaydi .

Tasavvuf ta'limotiga nisbatan munosabat Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ular allomaning dunyoqarashi bilan bog'liq. Panteistik g'oyaning ustuvorligi Ibn Sinoning tasavvuf ramzlariga murojaati, orif so'fiylarning barchasini keng ommaga namoyon qilishi, dunyoqarash sifatida materiyaning ma'naviy jihatdan falsafiy shakllariga ancha yaqinlashganida yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun u so'fiylar ni «haqdagi birodarlar» deb ataydi. Ibn Sino haqiqat izlovchilarni uch toifaga ajratadi: zohidlar – o'z nafsigacha qarshi jihatda e'lon qilgan so'fiylar; obidlar – shariat urf - odatlari va marosimlarini qat'iy mukammal ado etish orqali haqiqatni bilishga intiluvchilar; o'riflar – Allohni intellektual (aqliy) yo'l bilan bilish va unga erishish tarafdorlari – gnostiklar. Ularning umumiy yo'nalishi – hissiy olamdan qutilib, ma'naviy, ruhiy olamga qo'shilishga erishishdir.

Ibn Sinoning tasavvuf ilmiga munosabati naqadar salmoqli bo'lgani uchun uni «shayhur rais» deb atashgan. Uning ilmiy qo'lovalari, qarashlari tasavvuf ilmi, ayniqsa, uning panteistik yo'nalishining rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Buyuk ajdodlarimizdan Yana biri Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati ham tasavvuf ta'limoti taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Beruniy tasavvuf asoslari tadqiqi bilan Hindistonda yashagan vaqtlardan boshlab yaqindan Shug'ullangan. Abu Rayhon Beruniy so'fiylarning xudo, olam, inson to'g'risidagi g'oyalari bilan chuqur tanish bo'lib, hind xalqining diniy qarashlari sufizm bilan aloqadorligini, yoga tizimidagi ko'plab xatti - harakatlar, tamoyillar, hayot kechirish tarzlaridagi o'xshashliklarni o'zining «Kitob patanjali - hindi fi - l - xalas minalal - amsal» asarida tahlil qilib bergan. Mutafakkirning «so'fiy» atamasi «faylasuf»i borasining so'nggi bo'g'inidan olinganligi to'g'risidagi fikrlari ham, keyinchalik fanda rad etilganiga qaramay, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U so'fiylarni «donishmandlar» deb ataydi. Bu esa mutafakkirning falsafiy dunyoqarashni tasavvuf bilan muvofiqlashtirishga intilganidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda yashab, faoliyat ko'rsatgan, asarlarida tasavvuf ta'limotiga o'z munosabatini va qarashlarini ochiq - oydin namoyon qilgan, Markaziy Osiyo ga bevosita aloqador mutafakkirlardan Yana biri Umar Xayyom tasavvuf tafakkuri tarixida chuqur iz qoldirgan.

Umar Xayyomning tasavvufga munosabati qator ruboiylarida o'zining Yorqin aksini topgan. U G'iyosiddin, Yandinga ko'makchi degan taxallusga musharraf bo'lgan. Umar Xayyom - yagona Alloh uchun nazarda tutilgan taqdirga ega bo'lgan Shaxsiy «Men» bilan birga Shaxsiy hayot hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ham ta'kidlovchi panteistdir. Bobda so'fiylar monistik panteizmi - Vahdat al - vujudning bir tomondan, teizmga, ikkinchi tomondan, naturalistik panteizmga muholiflikda shakllangani asoslangan. Panteizm Alloh g'oyasini olam mohiyati ichra singdirib yuborib, ortodoksal islom va tasavvuf ta'limoti o'rtasida bu masalada ixtiloflarni yuzaga keltirgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tariqatning mazmun mohiyatini ayting.
2. Tariqatlar tasnifini keltiring.
3. Ilk botil tariqatlar va ularning islomga mos kelmasligi sabablarini ko'rsating.
4. Tariqatlarni tasniflashga nisbatan turli xil yondashuvlarni ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf ta'limoti va amaliyotining psixologik johanlari.
2. Tariqat yo'lidagi holler va manzillar.

4-MAVZU. TARIQATLARNING INSONIY UNSURLARI.

Reja:

1. *Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishidagi zohidchilik harakatining roli.*
2. *Tasavvuf ta'limotida murshidlarga qo'yiladigan talablar.*
3. *Shayx xalifa, avaliyo tushunchalarining mohiyati.*
4. *Tariqatda Shayx-murid munosabatlari.*
5. *Silsilaning hozirgi zamon tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni.*

Tayanch tushunchalar: *Pir, piri soniy, shayx xalifa, solik, murid, zohiriy, botiniy ilm, aql va naql, obid va orif, vujud va ruh, qalb, qalb ko'zi, Haq tajallisi, ontologik (borliq haqidagi) ta'limot, gnosologik(bilish haqidagi) ta'limot, nafs.*

So'fiylik - islomda insonning ruhiy olamiga bog'lik, qarash va amaliyotlar majmui. Bu atama kelib chiqishi haqida turli taxminlar bor. Lekin aksariyat olimlar nazdida tasavvuf "suf" - "jun", "pustin" so'zidan kelib chiqqan. Shunki, tarkidunyo qilgan zoxid, "o'zini Xudoga bag'ishlagan odam" odatda dagal jundan tuqilgan kiyim Yoki pustin kiyib yurgan. Tasavvufga

asos solgan tarkidunyochilik kayfiyatlari islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi. Muhammad (s.a.v.) atrofidagi Abu-d-Dardo uning ayoli Ummu-d-Dardo, Abu Zarr al-Giforiy, Xuzayfa ibn al-Yamoni, Salmon al-Forisiy kabi ayrim saxobiylarda zoxidona qarash va turmush tarzi "tasavvuf" degan tushunchaning o'zi xali paydo bo'lmasidan ilgari namoyon bo'lgan edi. Zero, "tasavvuf" islohot sifatida IX asrning boshlaridagina Iroq va Suriyadagi zoxidlarga nisbatan qo'llana boshlagan. Manbalarda "nussok", "zuxxod", "ubbod" kabi nomlar bilan keltirilgan bu toifaga muxaddislar, sayyor baxshilar va nasihatguy voizlar (kussos), kori-yu ko'rrolar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashayotgan mujoxidlar, taqvolidor xunarmandlar va savdogarlar, Shuningdek, islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi kiritilgan. Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuko'rg'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlar ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ilk so'fiylar, Yani zoxdqlarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'lgan: Qur'on oyatlari mazmuni ustida uzoq, muddat mushoxada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar hadislaridagi ko'rsatmalarga kat'iy rioya etish, Ko'p nafl ibodatlar qilish, tungi bedorlik, nafl ro'zalar tutish, tarkidunyochilik, har ishda taqvolidor bo'lish, halol va haromni qat'iy ajratish, hukmdorlar bilan hamkorlik qilmaslik, tavakkul qilib, o'z taqdirini Allohga topshirish kabilar bo'lgan. Shuningdek, faqirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va doimiy tavba qilish kayfiyati, berganiga Shukr qilish, azob-uqubatlarga sabr-toqatli bo'lishdan iborat edi. Ular o'z navbatida, Allohdan hakikiy ma'noda ko'rkadigan banda o'tkinchi dunyodan, uning barcha gunoh va ma'siyatlaridan voz kechish kerakligini ta'kidlar edilar. O'z tarkidunyochiliklarining tashqi ifodasi sifatida Ko'pincha dakal pustak kiya boshladilar. Bu bilan ular o'zlarini shoyi va paxta kabi matolardan ishlangan kiyimlar kiyadigan oddiy odamlardan ajratib ko'rsatardilar. Dakal pustak kiyish xristian roxilblarining odati ekaniga ishora qilib, ilk davrlardagi musulmon olimlar bu ko'rinishga salbiy munosabatlarini bildirganlar. "O'zini faqir qilib ko'rsatish - Alloh o'zining taqvolili bandalarini etarli darjada ta'minlamagan", deya da'vo qilish bilan barobar deb, hisoblab pustak kiyishni qoralaganlar. Ammo Shunga qaramay, Suriya va Iroqda tarkidunyochilik kayfiyatidagi kishilar orasida pustak kiyish odati keng tarqaldi.

Asta-sekin so'fiylik ta'limoti asosiy e'tiborni inson qalbi, uning ruhiyati, ko'ngil hollari, nafs tarbiyasi, komil inson, yuksak ma'aviyat, go'zal odob-axlok, ruhiy kamolot kabi mavzularga harata boshladi. Tasavvufning dastlabki davrida ilm sifatida shakllanish jarayonini tobe'iy Xasan al-Basriy (642-768) Shaxsiyati bilan boshaydilar. U manbalarda inson qalbining nozik jihatlari ang'lay oladigan ruhshunos sifatida gavdalanadi. Uning aytgan hikmatlari keyingi davr tasavvufiy adabiyot uchun ulkan ozuka bo'ldi. Tariqat silsilalarining aksariyatida Xasan al-Basriy ismi uchrashi odatiy holga aylangan. Xasan al-Basriyning izdoshlari Rabox ibn Amr, ad-Daroniy (VIII asr oxiri IX asrning boshi)larning da'vatlarida Xudoga muhabbat, ilohiy ishq, mavzulari namoyon bo'la boshladi. Bu mavzu tasavvufga yangi shakl va mazmun bera boshladi. IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bu davrda bir qancha so'fiylik maktablari paydo bo'lib, ular orasida Basra maktabi bilan bir qatorda Bog'dod va Xurosan maktablari ham birmuncha ta'sirga ega bo'ldi. Bu tariqat vakillari asosiy e'tiborni Ko'proq Solikning ichki holatiga, uning botiniy maqom va manzillariga, holiga haratar edilar. Har bir amalda "sidk" va "ixlos"ni birinchi o'ringa kuydilar. Bu esa o'z navbatida Xoris al-Muhosibiy (781-857) tomonidan o'z-o'zini nazorat qilish - "muroqaba" va "muxosaba" usullarini ishlab chiqishiga olib keldi. Bu usullar eng avvalo insonning niyatlari va qalbdagi nozik o'zgarishlarga qaratilgan edi. Zero, ular oxir-okibatda insonning faoliyatini belgilab beradigan omillar hisoblanadi. Al-Muxosibiyning "muxosaba" haqidagi ta'limoti Movarounnaxr va Xurosandagi malomatiylik yo'nalishi shakllanishiga to'rtki bo'ldi. Malomatiylik g'oyalari Ko'plab tariqatlarga, jumladan, Naqshbandiylikka ham ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf o'z taraqqiyoti davomida shialik va undagi oqimlardan biri - ismoiliylik ezoterizmi bilan yaqinlashib, Shu yo'l bilan "xoslar"gina egallashi mumkin bo'lgan "Qur'on oyatlarini ramzlar orqali ta'vil qilish", "botiniy, yashirin ma'nolarni kashf qilish" kabi g'oyalarni o'zlashtirdi.

“Xoslar” uchun muljallangan g’oyalarning keng omma orasiga tarqab ketishi, bu g’oyalar mualliflarini taziyik va ta’qiblarga uchrashlariga sabab Bulardi (Saxl at- Tustariy, al-Haqim at-Termiziy, Abu-l-Xusayn an-Nuriy, Ibn al-‘Arabiy) Mashhur so’fiy Xusay ibn al-Mansur al-Xalloy “Ana-l-Haq” (“Haq menman”) degani uchun 922 yil Bag’dodda qatl etildi. Ba’zi nufu’zi sunniy ulamolarning tasavvufga Shubha bilan munosabatda bo’lishi so’fiylarni extiyotkorlikka, murosali yo’llar izlashga majbur etdi. Ularga doimo Qur’on va sunna ko’rsatmalaridan tashqariga chikmaslik, keskin va “tuturiksiz” fikrlarini oshkor etmaslik lozimligi ta’kidlanar edi. So’fiylar ham o’z navbatida, turli yo’l va usullar bilan o’z maslaklarini niqoblab, shariat me’Yorlariga moyil ekanlarini ko’rsatishga harakat qilar edilar. Shunday maqe’ni egallagan so’fiylardan biri al-Junayd al-Batdodiy (vaf. 910 y.) edi. Aynan u Boyazid al-Bistomiy tomonidan “sukr”ga asoslangan jazavali so’fiylikka ters ularoq “mu’tadil” so’fiylik an’anasini boshlab berdi.

Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar - mayda savdogarlar, xunarmandlar va x.k. tashkil etgan edi. Tasavvufning ilk bosqichidayok murid-Shayx (murshid, pir) raxbarligida so’fiylik nazariyoti va amaliyotini egallash muhim hisoblangan. Muridlar Shayxga barcha diniy va dunyoviy masalalarda butunlay buysunishi shart edi. O’zining taqvolidorligi, bilimi bilan tanilgan yirik so’fiy murshidlarni esa, vaqt o’tishi bilan “valiy”, ba’zan esa “kutb” deb ham atay boshladilar. Muridlarga ergashib, oddiy xalq ham ularning “ma’sumligi”, tayrioddiy karomatlar ko’rsatishi, paytambarga kelgan vaxiyarning “yashirin” ma’nosini izohlab berishga kodirliigi, Xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqidagi islom ta’limotiga zid bo’lgan turli uydirmalarni gapira boshladilar. Bular ham o’z navbatida, xalq og’zaki ijodi namunalari hamda ba’zi tasavvuf nazariyotchilarining asarlarida ifodasini topa boshladi. Tasavvufiy bilimlar va baraka Shayxdan muridga uzoq muddatli ta’lim jarayoni orqali o’tadi, deb hisoblangan. Saboq berish tugagach, Shayx shogirdiga o’ziga xos “guvoxnoma” vazifasini utovchi so’fiylik xirqasini kiydirgan. Bu esa, o’z navbatida muridga mustaqil tartibot olib borish hukukini bergan. Islom olamining turli chekkalaridan kelgan muridlar, ruhsat olganlaridan sung o’z yurtlariga qaytib borib, u erda zoviya, xonoqox va so’fiylik xalqalarini tashkil qilib, o’zlari ham shogird etishtira boshlaganlar. Bu jarayon tasavvufning tez talqalishiga olib kelgan.

X-XI asrlarda tasavvufiy hayot va tafakkur tarzi jamiyatning keng qatlamlarini qamrab oldi. Tasavvuf tarafdorlari soni doimiy ravishda ortib bordi. Bu davrda so’fiylik an’analari shakllanib, tasavvuf asoslarini Yoritib bergan ilk yozma manbalar vujudga keldi. Mazkur kitoblarning asosiy iaqsadi tasavvuf o’z nazariyoti va amaliyoti bilan islom ta’limotlariga batamom muvofiq ekanini ko’rsatib berish hamda tasavvufning og’zaki tarzda etib kelgan merosini tasniflashdan iborat bo’lgan.

X asr oxiri XI asr boshlarida tasavvufning mumtoz yuriknoma asarlari yozildi. Bundan at-Tusiyning (vaf. 988 i.) “al-Luma”, al-Kalabodiyning (vaf. 990 Yoki 995 y.) “at- Ta’arruf”, Abu Tolib al-Makkiyning (vaf. 998 y.) “Kutu-l- kulub”, as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) “Tabaqotu-s-so’fiyya”, al-Kushayriyning (vaf. 1072 y.) “ar-Risola”, al-Xujviriyning fors tilidagi (vaf.1072 Yoki 1076-77 y.) “Kashfu-l-maxjub”, al- Ansoriyning (vaf.1089y.) “Manazilu-s-soiriyn”, Abu Nu’aym Isfaxoniyning (vaf. 1038 y.) “Xilyatu-l-avliyo” asarlari bizgacha etib kelgan. Bu davrda yaratilgan as-Sulamiyning “Haqoiku-t-tafsir” asari Qur’onning ilk tasavvufiy tafsirlari sirasida alohida o’rin egallab, tasavvufiy, ezoterik talqin an’analari namoyon etadi. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar, so’fiylik islohotlarini tushuntirib berdilar hamda tasavvufni islom ta’limotlariga zid emasligini ko’rsatib bera oldilar.

XI-XIV asrlar musulmon jamiyatlarida tasavvufning maqe’i omma orasida kuchayishi bilan belgilanadi. Bu davrda tasavvufning rasmiy ta’limot sifatida e’tirof etilishida al-G’azzoliyning (vaf. 1111 y.) o’rni beqiyos bo’lib, “al-Munkiz min az-zolal” asarida tasavvuf axloki oxirat uchun asosiy zaxira ekani, “Ixyo ulum ad-din”da barcha ilmlarni zikr etib turib, xotimada tasavvufiy bilimni Yuqori quyishini aytib o’tadi. Uning islom olamidagi nufu’zi tasavvufning shariat tomonidan batamom tan olinishiga sabab bo’ldi. Xdnbaliy mazxabiga mansub bo’lgan ‘Abdu-l-Qodir al-G’iloniy (al-Jiloniy, vaf. 1161y.) faoliyati tasavvufiy g’oyalarning ommallaShuvida katta ta’sirga ega bo’lgan. Uning ma’ruzalari turli murakkab va

ziddiyatli masalalardan holi bo'lib, aholi orasida keng Shuhrat qozondi. Umuman, tasavvuf jamiyatda o'z ta'sir doirasini tobora kengaytirib borgan sari, hukmron tabaqalar, zodagonlar ham u bilan hisoblasha borib, ular ham pirlarning maslahatlariga qo'loq osadigan bo'ldilar. Valiy Shayxlarning qabrlari esa, ziYoratgohga aylantirilib, odamlar ularni mukaddaslashtirish darajasiga etdilar. Shuni ham qayd qilish lozimki, bu davrlarda islom dini jahongashta qalandar-darvishlar orqali islomlashmagan mintaqalarga yoyila boshladi. Ular o'zlari borgan joylarda xonoqo va zoviyalar tashkil etib, keyinchalik bunday joylar targ'ibot- tashvikot va diniy turmush tarzi markazlariga aylanib bordi.

XII asr o'rtalari XIII asr boshlarida so'fiylar tashkil etgan zoviyalar atrofida, xususan, shaharlarda tariqatlar shakllana boshladi. Dastlab, Bog'dodda paydo bo'lgan suxravardiya va kodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi. Tariqatlarning shakllanishi tasavvufning ta'siri Yanada kuchayishiga olib keldi. Umuman olganda, so'fiylar xalq ommasi bilan yaqinlashib, ularning diniy extiyojlarini qondirishga yuz tutgan edi. Xunarmandchilik uyushmalarining qarashlarida ham so'fiylik tamoyillari - "futuvva" va "ayYorlik" o'z aksini topa boshladi.

Avliyolar kul'ti omma e'tiqodi va diniy qarashlarida mustahkam o'rin egalladi. Chunonchi, hatto ayrim avliyolar ba'zi kasblarning xomiy pirlariga ham aylanib bordi. Tasavvufning bu yo'sinda rivojlanishi ba'zi nufu'zli mutasavviflar bilan bir qatorda shariat peshvolarini ham tashvishga solar edi. Ibn al-Javziy (116-1201) "Talbisu-l-iblis", Ibn Taymiya (1263-1328) "Fatovo", Ibn Xaldun (1332-1406) "al-Ibar" kabi qat'iy sunniy qarashlar ifoda etilgan asarlarda shariatga zid keladigan, ular "bid'at" deb e'tirof etgan so'fiylikdagi ba'zi jihatlar: juldur kiyinish, uylanmaslik, doimiy ro'zadorlik, avliyolar qabrlarini mukaddaslashtirish, rijolu-l-g'ayb, tinimsiz ibodatlar, avliyolar muxri va boshqa mavzularni keskin tankid ostiga oldilar. Bunday sharoitda Boyazid al-Bistomiy tomonidan kiritilgan "sukr", Yani shatx va jushkin xatti-harakatlarga asoslangan tasavvufdan ko'ra al- Junayd al-Bog'dodiy tomonidan ta'kidlangan hamda "saxv" va "tamkin"ga asoslangan mu'tadil tasavvuf, barcha tarafnlarni qoniqtirar edi. Shu jihatdan ham hozirgacha mavjud bo'lgan aksariyat tariqatlarning poydevori al-Junayd al-Bog'dodiy ishlab chiqqan asosga binoan barpo qilingan. Har qaysi alohida mintaqada so'fiylik tashkilotlarining faoliyati maxalliy xususiyatlar va an'analar, urf-odat va udumlar bilan qorishib ketdi. Shuning uchun ham tasavvuf Ko'p qirrali mintaqaviy ko'rinish kasb etdi.

XI-XIV asrlarda tasavvuf g'oyalarining musulmon jamiyatining turli qatlam va ijtimoiy guruhlarida o'rtasida keng talqalishi natijasida undagi ichki farqlanishlar yakqol namoyon bo'la boshladi. Asosan ommaning ma'naviy extiyojlarini qondirishga qaratilgan "amaliy" tasavvuf bilan bir qatorda tasavvuf ta'limotining ziyoli tabaqalarga qaratilgan ezoterik jihati Yanada rivojlandi. Mazkur "falsafiy" tasavvufning asosiy qoidalarini ishlab chiqishda as-Suhravardiy al-Maktul (vaf. 1191 y.), Ibn al-'Arabiy (vaf. 1240 y.), Ibn Sab'in (vaf. 1268 Yoki 1271 y.), 'Abdu-r-Razzok al- Koshoniy (vaf. 1329 y.), 'Abdu-l-Harim al-Jiliy (vaf. 1428 y.) kabi tasavvuf namoyandalari faol ishtiroq etib, nomusulmon xalqlarning falsafasiy qarashlarini tasavvuf ruhida talqin eta boshladilar. Bularning orasida Ibn al-'Arabiy "vaxdatu-l- vujud" deb nomlangan nazariyaga asos solgani bilan ajralib turadi. Ibn al-'Arabiy o'zidan avvalgi so'fiylarning taxvid va boshqa mavzularga oid qarashlarini tartibga solib, tizimli falsafa holiga keltirgan. Bu falsafa tasavvuf muhitida keng miqyosda qabul qilingan. Vaxdatu-l-vujudni keskin tankid qilib, unga qarshi chiqqan 'Alauddavla as-Simnoniy (1261-1336) va Naqshbandiylik Shayxi Imom Rabboniy nomi bilan mashqo'r Ahmad as-Sirxindiy (1564-1624) "vaxdatu-sh-Shuhud" nazariyasini ilgari surdilar. Ammo "vaxdatu-sh-Shuxud" asosan Naqshbandiya tariqatiga ta'sir ko'rsatdi. "Falsafiy" tasavvuf XIII-XIV asrlarda yuksak chukqilarga ko'tarilgach, asta-sekin o'zining ijodkorlik salohiyatini yo'qota bordi. "Komil inson", "borliqning birligi" ("vaxdatu-l-vujud), "tajalli" kabi g'oyalar baxs va munozaralar manbaiga aylanib, bu baxslar ham Ko'pincha besamarligicha qolib ketdi.

Tasavvuf g'oyalari Ko'plab She'riy asarlarda ham o'z ifodasini topdi. So'fiylik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors She'riyatiga (Jaloliddin Rumi,

Sanoiy, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), Shuningdek, ma'lum darajada arab She'riyati hamda turkiy xalqlarning (Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Alisher Navoiy), Bolkon yarim oroli, shimoliy Xindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va folkloriga singib ketdi.

VIII-IX asrlarda Robia al-Adaviya, Mansur al-Xalloy singari yirik so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiy She'riyat, X-XP asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obraz va timsollar, ramzlar va usullar olami paydo bo'ldi. Tasavvuf adabiyot bilan bir qatorda boshqa badiiy ijod yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatdi. Zero, tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, raqs san'atini, hattoki o'z so'fiy teatrini ham vujudga keltirdi. Chunonchi, samo' majlisleri Ko'pincha sahnalashtirilgan tomoshaga aylanib ketar, ularni tomosha qilgani ayollar ham yigilar edi. Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi mushtaraklik jihatlarini so'fiylar va ijod ahlining ruh,iy yaqinligidan izlash darkor bo'lsa kerak. Zero, ijod zavki va sufiyona zavk inson ruh,iy holati nuqtai nazaridan umumiylikka egadek guyo. Tariqatda ijodga moyil, qalbida Illoh,iy ishq jush o'rgan Soliklar Ko'proq muvaffakiyatga erishganlar. Ibn al-'Arabiy ham so'fiy shoir bo'lib, mashhur "Fususul-hikam" va "al-Futuhotu-l-Makkiyya" asarlarida ba'zi joylarni badiiy bezak berish uchun nazmda ifoda etgan. Shunki, tasavvufning nozik masalalarini akliy-nazariy usullardan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur vositasi bilan ifoda etish samaraliroq bo'lib tuyuladi. She'r va musiqaning inson ruh,iyatiga ta'sir kuchini sezgan tasavvuf Shayxlari honaqolardagi yig'inlarda ulardan keng foydalanganlar. Ayniqsa, samo' yig'inlarida raqs bilan bir qatorda She'r va musiqa Soliklarni o'zini yo'qotib atrof-muhitni anglay olmay qoladigan darajaga borib qolishida ahamiyati katta edi.

Davr o'tishi bilan tasavvuf maxsus islohotlari, ramz va timsollarini ifodalaydigan She'riy adabiyot paydo bo'ldi. Natijada sufiyona yashirin ma'nolarni ifodalovchi maxsus til shakllanib, bu tilda yozilgan g'azal va ruboiylar adabiyotni murakkablashtirib, uni faqatgina "xos kishilar" anglaydigan bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan esa, Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor kabi so'fiylar tomonidan sufiyona pand-nasihatlar juda sodda til va xalqchil usulda ifoda etilgan tasavvufiy She'rlar ham bitildi.

Tasavvufiy adabiyotni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin: tasavvuf tarixi va ta'limotini bayon etgan, so'fiy islohotlar vositasida tushuniladigan asarlar: Abu Bakr al-Kalabodiyning "Ta'arruf", Jomiyning "SHarxi ruboiyot", Sufi Olloyorning "Sabotu-l-objizin", Maxmud SHabistariyning "Gulshani roz", Bedilning "Muhiti a'zam" asarlari. Ikkinchisi tasavvuf g'oyalari kechinma va hayajonlar, siymo va timsollar orqali tavrirlanib talqin qilinadigan adabiyot: Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy-yi ma'naviy", Fariduddin 'Attorning "Ilohiynoma", Alisher Navoiyning "Xayratu-l-abror", "Lisonu-t-tayr" kabi asarlari. Tasavvuf adabiyoti turli adabiy janrlardan unumli foydalandi. Chunonchi, ruboiy, g'azal, kasida, masnaviy kabi janrlar so'fiy adabiyotiga yangi ruh kiritib, o'zgacha talqin bilan rivoj topdi.

Tasavvufning moslaShuvchanligi va tashqi ta'sirlarga "ochiqligi" uni Ko'pyoklamali oqimga aylanishiga olib keldi. Mumin-qobillik, itoatkorlik va dunyo halovatidan voz kechishni targ'ib qilgan tasavvuf, ba'zan isyonkorlik harakatlarining, (Andalusiya'dagi "muridlar isyoni" (XII asr), Antaliyada Shayx Badriddin (1416 y.da uldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiyalar, shoziliylar) keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi ko'rash (sanusiylar, Qodiriylar, SHomil, Dukchi Eshon) mafkurasiga aylandi. Tasavvuf Ko'pchilik musulmon peshvolari tomonidan e'tirof etilgach, uning soyasida turli xil ashaddiy jamoa va oqimlar - hurufiylik, alaviylik, ravshaniylik, axlu-l-haqq va boshqalar faoliyat olib bordilar. Anatoliyadan keyin esa, Bolkon, O'rta Osiyo va Eronda shialik-so'fiylik aralash ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matulloxsiya, kubraviya, xalvatiya, zaxabiya) tarqaldi. XIV- XVII asr shia mutafakkirlari tasavvufning falsafiy merosiga, ayniqsa, vaxdatu-l-vujud konsepsiyasiga murojaat qilib, u erdan o'z ta'limotlari uchun Ko'p qarashlarni o'zlashtirdilar.

XIX-XX asrlar boshida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rolb o'ynashda davom etdi. Musulmon olamining u Yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu holat ham reaksiya, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharqda jamiyatning

yoppasiga dunyoviy lashishga yuz tutishi, iqtisod va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning maqeiga qattiq zarba berdi. Ko'pchilik arab mamlakatlarida tasavvuf diniy-siyosiy doiralari tomonidan keskin tankidga uchradi. Ular islom dinini zamon talablariga muvofiq moslashtirishga yoxud so'fiylik ta'limotlaridan holi bo'lgan ilk islomning "sof ko'rinishi"ni ortga qaytarishni talab qilib chiqar edilar. Arab-islom sosializmi tarafdorlari hamda progressiv yosh avlod o'z mamlakatining qoloqligida bir jihatdan tasavvufni ham ayblab, uni taraqqiyot va yurt gullab-yashnashi yo'lidagi rov, deb bildi. Bir qancha musulmon mamlakatlarida tariqatlar faoliyati qisman Yoki butunlay man qilindi. Garchi tasavvuf o'zining avvalgi obrusini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saklab kelmokda. Ular ruh, iy taskin va madad izlab, so'fiylik tariqatlari safiga kirmokda. XX asrda ham yangi suluklar paydo bo'lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoirdagi al-alaviya, (asoschisi Ahmad al-Alaviy. vaf.1934 y.) Qoxiradagi al-hamidiya ash-shoziliyani (asoschisi - Salama ar-Radiy, vaf. 50-yillar oxiri) kiritish mumkin. Hozirgi davrda so'fiylar orasida birmuncha zamonaviy kasb vakillari - o'qituvchilar, turli darajadagi davlat xizmatchilari va boshqalar ham bor. Ularning suluk yo'lida yurishlari o'z ijtimoiy faoliyatlarini olib borishlariga xalal bermayapti.

Tasavvufning moslashtiruvchanligi va tashqi ta'sirlarga "ochiqligi" uni Ko'pyoklamali oqimga aylanishiga olib keldi. Mumin-qobillik, itoatkorlik va dunyo halovatidan voz kechishni targ'ib qilgan tasavvuf, ba'zan isyonkorlik harakatlarining, (Andalusiyadagi "muridlar isyoni" (XII asr), Antaliyada Shayx Badriddin (1416 y.da uldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiyalar, shoziliylar) keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi ko'rash (sanusiylar, kodiriylar, SHomil, Dukchi Eshon) mafkurasiga aylandi. Tasavvuf ko'pchilik musulmon peshvolari tomonidan e'tirof etilgach, uning soyasida turli xil ashaddiy jamoa va oqimlar - hurufiylik, alaviylik, ravshaniylik, axlu-l-haqq va boshqalar faoliyat olib bordilar. Anatoliyadan keyin esa, Bolkon, O'rta Osiyo va Eronda shialik-so'fiylik aralash ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matulloxiiya, kubraviya, xalvatiya, zaxabiya) tarqaldi. XIV- XVII asr shia mutafakkirlari tasavvufning falsafiy merosiga, ayniqsa, vaxdatu-l-vujud konsepsiyasiga murojaat qilib, u erdan o'z ta'limotlari uchun ko'p qarashlarni o'zlashtirdilar.

XIX-XX asrlar boshida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol o'ynashda davom etadi. Musulmon olamining u Yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu holat ham reaksiya, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharqda jamiyatning yoppasiga dunyoviy lashishga yuz tutishi, iqtisod va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning maqeiga qattiq zarba berdi. Ko'pchilik arab mamlakatlarida tasavvuf diniy-siyosiy doiralari tomonidan keskin tankidga uchradi. Ular islom dinini zamon talablariga muvofiq moslashtirishga yohud so'fiylik ta'limotlaridan holi bo'lgan ilk islomning "sof ko'rinishi"ni ortga qaytarishni talab qilib chiqar edilar. Arab-islom sosializmi tarafdorlari hamda progressiv yosh avlod o'z mamlakatining qoloqligida bir jihatdan tasavvufni ham ayblab, uni taraqqiyot va yurt gullab-yashnashi yo'lidagi rov, deb bildi. Bir qancha musulmon mamlakatlarida tariqatlar faoliyati qisman Yoki butunlay man qilindi. Garchi tasavvuf o'zining avvalgi obrusini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saklab kelmokda. Ular ruhiy taskin va madad izlab, so'fiylik tariqatlari safiga kirmokda. XX asrda ham yangi suluklar paydo bo'lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoirdagi al-alaviya, (asoschisi Ahmad al-Alaviy. vaf.1934 y.) Qoxiradagi al-hamidiya ash-shoziliyani (asoschisi - Salama ar-Radiy, vaf. 50-yillar oxiri) kiritish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tariqatda pir, piri soniy tushunchasi.
2. Shayx xalifa tushunchalarining mohiyati.
3. Tariqatda shayx-murid munosabatlari.

4. Silsila tushunchasi va uning hozirgi zamon tasavvuf taraqqiyotidagi o'ri.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvufda o'zini o'zi anglash psixologiyasi.
2. Meditatsiya va muroqaba: farqlari va psixologik mazmuni.

8-MAVZU. TARIQATLARNING AMALIY UNSURLARI.

Reja:

1. *Zikr va undan ko'zlangan maqsad.*
2. *Zikr turlarining shakllanishi.*
3. *Shaxsiy zikr va jamoaviy zikr.*
4. *Jamoaviy zikrning turlari va ijro vaqtlari.*
5. *Shaxsiy zikr turlari.*
6. *Robita va uning turlari.*
7. *Sayru suluk va uning martabalari.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, zikr, shaxsiy zikr, jamoaviy zikr, zikrning turlari, ijro vaqti, shaxsiy zikr turlari, qalban qilinadigan zikr, xilvat, robita, sayru suluk, hijrat, odob.*

IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tabdir-usullari shakllandi. Tariqat, ma'rifat, haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi – tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So'fiylar dastlabki paytlar tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar (iboraga kelmaydigan ishoratlar) deb hisoblagan bo'lsalar, borabora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so'fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug'ildi. Natijada, tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, olam, odam va Xudo orasidagi aloqa-muomala mohiyati, tavhid – vahdat masalalari munozaralarga sabab bo'ldi. Din arboblari bilan so'fiy Shayxlari, ayniqsa falsafiy tasavvuf tarafdorlari jiddiy mafkuraviy tortiShuvlargacha bordilar. Tasavvuf butun Islom olamini zabt etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar qurildi, yo'llarda rabotlar, azizavliyolarning mazoratida Shayxlar maskan to'tib, ko'plab shogirdlarni tarbiyaga oldilar.

Tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasiga yoyishda Abu Ali al Horis Muhosibiy (781–857), Zunnuni Misriy (796– 861), Abu YAzid Bistomiy (vafoti 875), Junayd Bag'dodiy (vafoti 910), Hakim Termiziy (vafoti IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858–922)larning xizmati katta bo'lgan. Keyinchalik Abu Said Abo'lxayr (967–1049), Abdulloh Ansoriy (1006–1089), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166) YAhyo Suhravardiy (1155– 1191), Ibn Arabiy (1165–1240), Najmiddin Kubro (1145–1221), Bahuoddin Naqshband (1318–1389) kabi shayqo'l mashoyixlar tasavvuf ilmini yangi fikrlar, qarashlar bilan boyitdilar, yangi oqim, silsilalarini vujudga keltirdilar. Tasavvuf haqida bir qancha risola va kitoblar yozildi, tasavvuf g'oyalarini qizg'in targ'ib etuvchi ulkan She'riyat vujudga keldi. Tasavvufga oid nazariy kitob va qo'llanmalardan Abu Nasr Sarroj (vafoti 988 yil)ning "Kitobal luma", Al Kalabodiy (vafoti 990 yil)ning "Kitobat ta'arruf", Abu Tolib Makkiy (vafoti 998 yil)ning "Qutal qulub", Abdurahmon Sulamiy (vafoti 1021 yil)ning "Risolatal malomatiya", Qushariy (vafoti 1072 yil)ning "Risola fit tasavvuf", Al Hujviriy (vafoti 1076)ning "Kashfal mahjub", Abdulloh Ansoriyning "Manozil as-soirin", Farididdin Attor (1119–1222)ning "Tazkiratul avliyo" nomli asarlarini ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari, Rumi, Hofiz SHeroziy, Mahmud SHabistariy asarlariga yozilgan sharhlar ham so'fiyona ishora va tamsillarni anglashda muhim rol o'ynagan.

Tasavvufga oid ilmiy kitoblar va dasturlarda tariqat atamalari, maqomot manzillarini tushuntirishga ko'p e'tibor beriladi. "Tariqat" so'zining ma'nosi yo'l demak. Yani ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo'li. Tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb ta'riflaydilar. Darhaqiqat ham Shunday, Shunki pirmuridlik qoidalari, odobiga rioya etish, Solik (Yani tariqatga qadam qo'ygan yo'lovchi) bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, irodat va ishorat usullari Shu tariqat ichiga kiradi. Tariqat va uning maqomlari, ma'lumotlarga qaraganda, birinchi marta Zunnuni Misriy tomonidan bayon etilgan ekan. Abdulloh Ansoriy yozadiki, Zunnuni Misriyni faqat "karomat bilan sitoyish" qilish kifoya emas, Shunki uning "ilgida maqom va hol suxra erdi"¹². Yani maqom va hol ilmi Zunnun qo'lida o'yinchoqday gap edi, deydi Ansoriy. Navoiy yozadi: «Ul kishikim ishoratni iboratqa kelturdi va bu tariqdin so'z aytdi ul erdi».

Demak, Zunnun birinchilardan bo'lib, so'fiyona holatlar, karomatlarni so'z bilan ifodalagan. Zunnunning o'zi hikoya qilib deydiki, uch safar qildim va uch ilm keltirdim: avvalgi safarda bir ilm keltirdim, xos¹⁴ ham, avom ham qabul qildilar, ikkinchi safarda Yana bir ilm keltirdim, xos qabul qildi, ammo, avom qabul qilmadi, uchinchi safarda Yana bir ilm hosil qildim, na xos qabul qildi va na avom. Zunnun aytdan birinchi ilm shariat ilmidir, Shunki shariat xosga ham avomga ham birday tegishli. Ikkinchi ilm – tariqat yoxud muomalat va muhabbat ilmi, uchinchisi esa – haqiqat, Yani Iloh haqidagi ilmdir.

Agar Zunnun tasavvufdan birinchi bo'lib "so'z aytdan" bo'lsa, Jo'nayd Bag'dodiy "bu ilmga tartib berib, bast qilib (jamlab), kutub bitidi"¹⁵. So'ngra Jo'naydning kichik zamondoshi Shayx Abu Bakr SHibliy bu ilmni minbar ustiga olib chiqib, elga oshkor qildi. Birinchi bo'lib muridlarga rahnamolik qilgan ham Yuqorida nomlari tilga olingan Shayxlar bo'lgan.

Murid – murod, Yani maqsadga intiluvchi odam; murod esa – Alloh Taoloning vasli. Muridning asosiy hislati niyozmandlik, Yani talabg'or bo'lish, murshidi komilning etagini to'tib, aytdanlariga so'zsiz rioya qilishdir. Pirsiz Solik manzilga etolmaydi. Shunki odam o'zini nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi. Hatto eng yaxshi niyatlar ham agar rahnamo bo'lmasa, samara bermay, qalbdagi zavqu shavq noto'g'ri yo'lda sarf bo'lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas.

Shuni e'tiborga olib, tariqatda pirga qo'l berib, iroda-ixtiYorni unga topshirganlar. Shu ma'noda tariqatni irodat ham deydilar. Yani irodani Shayx irodasiga muvofiqlashtirish, Shayx irodasini o'z irodasi deb bilish.k.

Ikkinchi tarafdin, bu muridning irodasi, mardligi himmatini sinashni ham bildiradi (murid, murod, iroda so'zlari o'zakdosh), zero dunyodan kechib, Iloh yo'liga o'zini bag'ishlash ulug' mardlikdir. Muridga rahbarlik qiluvchi piring o'zi ajzu iztirob yo'li – tariqat maqomlarini eson-omon bosib o'tgan, qalbi Iloh ma'rifatiga limmolim orif inson bo'lishi kerak. Pir hamma jihatdan muridga o'rnak bo'lmog'i darkor: ham bilimning chuqurligi, ham tariqat usullarini yaxshi bilishi, ham ko'ngilning pokligi, nafsini mahv etganligi va hokazolar bilan ajralib turishi, salobati, so'zi va harakati bilan, suhbat va nazari bilan, tadbiri va himoyasi bilan muridga ta'sir o'tkazmog'i lozim. "Agar Shayxlik ruknlari nechta, deb so'rasalar, ettita deb aytdan, deb uqtdan Qoshifiy "Futuvvatnomai sultoniyta" asarida. – Birinchidan, Shayx komil ma'rifat egasi bo'lsin. Ikkinchidan, o'tkir farosatli, odamShunos kishi bo'lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg'ay olsin. Uchinchidan, etuk ruhiy-ma'naviy quvvati bo'lsin, toki agar murid tariqat yo'lidan adashsa, unga ma'naviy madad berib, mushkulini oson qila olsin, to'g'ri yo'lga solsin, Yani narsaga muhtojligi bo'lmasin. Beshinchidan, ixlosi mustahkam bo'lib, riyo va tama'ni tark etsin, mol va mansab deb birovga sarg'aymasin, egilmasin. Oltinchidan, rostlik va beg'araz do'stlikni shior qilsin – haq so'zini har erda, har qanday sharoitda ayta olsin, gapirganda ikkiyuzlamachilik qilmasin. Ettinchidan, qalbida shafqat nuri porlab tursin, murid manfaatini va umum manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ysin"¹⁷.

Pir muridning shodligini ham, g'amini ham baham ko'rgan, uni nasihat, tanbeh va ilhombaxsh so'zlar, harqatlar bilan ruhlantirib, quyidan Yuqoriga qarab tarbiyalab borgan. Qoshifiy davom ettirib yozadi: "Agar haqiqat pirlari kim deb so'rasalar, buning alomatlarini quyidagilar deb javob bergil: tunlarni bedor o'tkazish, yomonlar bilan o'tirmaslik, ilm o'rganish,

g'iybat va yolg'ondan saqlanish, odamlar hursandchiligini istash va Shu hislatlarni o'z muridlariga etkazish".

Bizning tariximizda bunday munavvar qalbli najib insonlar kam bo'lmagan. Ular o'z muridlarini farzandlariday yaxshi ko'rganlar.

Pir hech qachon murid moliga ko'z olaytirmasligi, biron-bir yo'sinda tama'ga ishora qilmasligi, aksincha, murid qoshida biror mushkul ish tug'ilganda darrov Yordam berishi, mushkulni hal qilishi kerak. Muridning mushkuli faqat moddiy qiyinchilik emas, Soliklar buni hech qachon e'tiborga olmaganlar. Mushkul deganda tasavvuf ahli ma'naviy muammolar, yuz beradigan holatlar, tug'ilajak savollarni anglaydilar. Pir ana Shularga javob topib, muridlarni qanoatlantirishi shart. Agar qanoatlantirishga ko'zi etmasa, muridni boshqa o'zidan kuchliroq Shayxga tavsiya etadi.

Shuni ham aytish kerakki, Soliklarning iste'dodi xilma-xil bo'lganiday, pirlarning murabbiylik qobiliyati ham turlicha bo'lgan. Ba'zi Shayxlar muridga tariqat odobini o'rgatganlar, Yani uni hokisorlik, taslim va itoatga keltirish, manmanlik, hirsu havo kabi tuyg'ulardan xalos etish bilan Shug'ullanganlar. Ba'zi Shayxlar muridga ruhiy karomati, mo'jizalari bilan ta'sir etganlar. Yana bir qismi Shayxlar shogirdlariga tasavvuf asoslarini o'rgatish, nazariy bilimlar bilan qurollantirishga e'tibor qilganlar.

Solikning ruhiy-ma'naviy kamolotini "sayr" Yoki "safar" so'zlari bilan tushuntirganlar. Sayr va safar to'g'ri ma'noda ham qo'llanilgan. Shunki safar qilish ajzu riyozat turlaridan biri hisoblangan. Ko'p so'fiylar musulmon mamlakatlarini piyoda kezib chiqqanlar, atoqli Shayxlarning suhbatiga etishganlar. Ayniqsa, piyoda haj safariga borish so'fiy uchun katta sharaf deb qaralgan. Lekin tariqat safari deganda aksari ruhiy safar tushuniladi. Safar – ko'ngilning Haq sari tavajjuhi, bu to'rt xil bo'ladi:

1. Sayr illalloh (Olloh tomonga sayr). Bu nafs manzillaridan ravshan ufqlarga etguncha bo'lib, qalb maqomidir va ilohiy ismlar tajalliyotining chiqadigan joyidir. 2. Sayr filloh (Olloh olamida sayr). Uning sifatleri bilan sifatlanish va ismlariga etishish orqali oliy darajalarni topish, ruh maqomi va Vohidiyat huzurining nihoyatini tanish.k.

3. Jam' markazi va Ahadiyat huzuriga taraqqiy etib borish.k. Bu "qoba qovsayn" maqomidir. Ikqilik bartaraf bo'lgach esa, "av adno" maqomiga erishiladi.

"Qoba qovsayn" (ikki qosh orasi) va "av adno" (pastga ham qaramadi) Payg'ambar (s.a.v.) me'rojiga ishora etuvchi so'zlardir. Payg'ambar (s.a.v.) yuzni faqat Alloh sari burib, unga yaqinlashganlar. "Qoba qovsayn" maqomi Ilohga yaqinlashish (qurb) maqomidir.

4. Sayr billoh analloh (Ollohdan Yana o'ziga qaytish).

Jam'dan keyingi farq Yoki fanodan so'ng keladigan baqo maqomi Shudir. Sayr va safar tushunchalarini soddaroq qilib izohlaydigan bo'lsak, quyidagi ma'no hosil bo'ladi: birinchi safar – kasrat (dunyo) pardalarining vahdat (Iloh) yuzidan ko'tarilishi; ikkinchi safar – vahdat pardasini kasrat vujudidan ketkazish va botin orasidagi qaydlarni bartaraf etish, aynan dunyoning o'zida Uni ko'rish; uchinchi safar – zohir (juz')dan jam' sari taraqqiy etish va to'rtinchi safar – haqdan Yana xalqqa qaytishdir. Haqdan xalqqa qaytish deganda so'fiylar orasida: "rasti-rasidi" ("uzilding etding") degan ibora bor. Buning ma'nosi xalqdan uzilsang – Haqqa etasan, demakdir. Ammo bu ibtidodagi niyat, bunga erishgandan keyin esa, endi so'fiy xalqqa Haq nomidan gapira olishi mumkin bo'ladi, Shu bois xalqqa qaytish Yana dunyo mashg'ulotiga qaytish emas, balki dunyoga Olloh no'rini taratishdir.

Tasavvuf ahli bilishning falsafiy yo'llari – tasavvur, his, mantiqiy tafakkur va hokazolarni ham eslab o'tadilar. Biroq ularning fikricha, aqliy-hissiy bilish zohiriy – dunyoviy bilimga kifoya qiladi, holos. Ilohiyotni anglash uchun esa aql ojizdir. Ilohiyot ilmi aqlga sig'maydigan, aql o'lchovlaridan baland turadigan ilmdir. Ibn Arabiy aytadiki, Xudo haqida ham aql tili bilan gapirish mumkin, lekin aql kuchi bilan Uni bilish mumkin emas. Aql isbotni talab qiladi, dalil – tajriba bilan ish ko'radi. Vaholanki, Xudoning borligi, zotu sifatlarini dalil orqali isbotlash mushkul. "Ma'rifat Haq tomonidan yuboriladi. Bu mening fikrim emas, balki ilohiy ilhomdir", deb yozadi Ibn Arabiy. Olloh bilan xilvatda qolgan mard insonda Shunday holat yuz beradiki, unda Ilmlardan ilhom paydo bo'lib, Uning rahmati bilan yuksaladi. Darveshdagi bu holat oddiy

odamlar va isbot-dalil ahli uchun qorong'idir. Bu avliyolarga yuboriladigan laduniy bilim. Boyazid Bistomiy kalom ahliga qarab degan ekan: "Siz o'z ilmlaringizni jonsiz narsalardan olasiz, biz esa abadiy tirik Zotdan olamiz". Boyazid jonsiz narsalar deb moddalar-ashyolarni nazarda tutadi. Laduniy – rabboniy bilim Xo'ja Xizrning bilimiga qiyos etgulik. Xo'ja Xizr hayot suvi – abadiy tiriklik suvini ichgach, u hamma voqeadan, hamma ahvoldan, hamma kechinmalardan xabardor; narsalar hosiyyati va qonuniyatini oldindan biladi, Xudo unga o'z bilimini tuhfa etgan.

Asli Ispaniyada tug'ilib, musulmon olamini kezib chiqqan, o'zining "Futuhoti Makkiya", "Fususul hikam" asarlari bilan tasavvuf falsafasiga ulkan hissa qo'shgan Shayxi kabir Ibn Arabiy (1165–1240) inson bilimlarini uchga bo'lgan: birinchisi – aqliy-hissiy bilimlar, ikkinchisi – hol ilmi (holat, mahol ilmi ham deydi u). Uchinchisi – sirru asror ilmi.

Birinchi ilm zohiriy fanlar bilan Shug'ullanadigan kishilar ilmi bo'lsa, ikkinchi ilm hol martabasiga ko'tarilgan so'fiylar ilmi hisoblanadi, Yani vajd holatida kashf etilgan ilm. Uchinchi ilm – avliyolar ilmi. Bu ilm muqaddas ruhlar orqali keladi, Shu'la – nur ko'rinishida qalbg'a kiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zikr va undan ko'zlangan maqsadni tushuntiring.
2. Shaxsiy zikr va jamoaviy zikrning farqini ayting.
3. Qalban qilinadigan zikrlarning turlarini ayting.
3. Xilvat tushunchasini ayting.
4. Robita va uning turlarini ayting.
5. Sayru suluk va uning martabalarini ayting.
6. Hijrat va uning odoblarini ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Shaxs, o'zini o'zi anglash va tasavvuf.
2. "Men" konsepsiyasi va tasavvuf.

9-MAVZU. TARIQATLARNING FIKRIY UNSURLARI.

Reja:

1. *Tasavvuf va shialik.*
2. *Botiniylik. Ishroqiylik.*
3. *Xurufiylik. Malomatiylik.*
4. *Futuvvat-axiylik. Rijolul-g'ayb.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, shialik, botiniylik, vahdatul vujud, vahdatul Shuhud, botil ta'limotlar, ishroqiylik, xurufiylik, malomatiylik, futuvvat, rijolul-g'ayb.*

So'fiylik - islomda insonning ruhiy olamiga bog'lik, qarash va amaliyotlar majmui. Bu atama kelib chiqishi haqida turli taxminlar bor. Lekin aksariyat olimlar nazdida tasavvuf "suf" - "jun", "pustin" so'zidan kelib chiqqan. Shunki, tarkidunyo qilgan zoxid, "o'zini Xudoga bag'ishlagan odam" odatda dagal jundan tuqilgan kiyim yoki pustin kiyib yurgan. Tasavvufga asos solgan tarkidunyo-chilik kayfiyatlarini islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi. Muhammad (s.a.v.) atrofidagi Abu-d-Dardo uning ayoli Ummu-d-Dardo, Abu Zarr al-Giforiy, Xuzayfa ibn al-Yamoni, Salmon al-Forisiy kabi ayrim saxobiyalarda zoxidona qarash va turmush tarzi "tasavvuf" degan tushunchaning o'zi xali paydo bo'lmasidan ilgari namoyon bo'lgan edi. Zero, "tasavvuf" islohot sifatida IX asrning boshlaridagina Iroq va Suriyadagi zoxidlarga nisbatan qo'llana boshlagan. Manbalarda "nussok", "zuxxod", "ubbod" kabi nomlar

bilan keltirilgan bu toifaga muxaddislar, say Yor baxshilar va nasihatguy voizlar (kussos), kori-yu ko'rrolar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashayotgan mujoxidlar, taqvolidor xunarmandlar va savdogarlar, Shuningdek, islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi kiritilgan. Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuko'r g'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkabla Shuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlar ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ilk so'fiylar, Yani zoxdqlarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'lgan: Qur'on oyatlari mazmuni ustida uzoq, muddat mushoxada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar hadislaridagi ko'rsatmalarga katsiy rioya etish, Ko'p nafl ibodatlar qilish, tungi bedorlik, nafl ro'zalar tutish, tarkidunyochilik, har ishda taqvolidor bo'lish, halol va haromni qat'iy ajratish, hukmdorlar bilan hamkorlik qilmaslik, tavakkul qilib, o'z taqdirini Allohga topshirish kabilar bo'lgan. Shuningdek, faqirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va doimiy tavba qilish kayfiyati, berganiga Shukr qilish, azob-uqubatlarga sabr- toqatli bo'lishdan iborat edi. Ular o'z navbatida, Allohdan hakikiy ma'noda ko'rkadigan banda o'tkinchi dunyodan, uning barcha gunoh va ma'siyatlaridan voz kechish kerakligini ta'kidlar edilar. O'z tarkidunyochiliklarining tashqi ifodasi sifatida Ko'pincha dakal pustak kiya boshladilar. Bu bilan ular o'zlarini shoyi va paxta kabi matolardan ishlangan kiyimlar kiyadigan oddiy odamlardan ajratib ko'rsatardilar. Dakal pustin kiyish xristian roxilblarining odati ekaniga ishora qilib, ilk davrlardagi musulmon olimlar bu ko'rinishga salbiy munosabatlarini bildirganlar. "O'zini faqir qilib ko'rsatish - Alloh o'zining taqvolili bandalarini etarli darjada ta'minlamagan", deya da'vo qilish bilan barobar deb, hisoblab pustak kiyishni qoralaganlar. Ammo Shunga qaramay, Suriya va Iroqda tarkidunyochilik kayfiyatidagi kishilar orasida pustak kiyish odati keng tarqaldi.

Asta-sekin so'fiylik ta'limoti asosiy e'tiborni inson qalbi, uning ruhiyati, ko'ngil hollari, nafs tarbiyasi, komil inson, yuksak ma'aviyat, go'zal odob-axlok, ruhiy kamolot kabi mavzularga harata boshladi. Tasavvufning dastlabki davrida ilm sifatida shakllanish jarayonini tobe'iy Xasan al-Basriy (642-768) Shaxsiyati bilan boshaydilar. U manbalarda inson qalbining nozik jihatlari anglay oladigan ruh Shunos sifatida gavdalanadi. Uning aytgan hikmatlari keyingi davr tasavvufiy adabiyot uchun ulkan ozuka bo'ldi. Tariqat silsilalarining aksariyatida Xasan al-Basriy ismi uchrashi odatiy holga aylangan. Xasan al-Basriyning izdoshlari Rabox ibn Amr, ad-Daroniy (VIII asr oxiri IX asrning boshi)larning da'vatlarida Xudoga muhabbat, ilohiy ishq, mavzulari namoyon bo'la boshladi. Bu mavzu tasavvufga yangi shakl va mazmun bera boshladi. IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bu davrda bir qancha so'fiylik maktablari paydo bo'lib, ular orasida Basra maktabi bilan bir qatorda Bog'dod va Xurosan maktablari ham birmuncha ta'sirga ega bo'ldi. Bu tariqat vakillari asosiy e'tiborni Ko'proq Solikning ichki holatiga, uning botiniy maqom va manzillariga, holiga haratar edilar. Har bir amalda "sidk" va "ixlos"ni birinchi o'ringa kuydilar. Bu esa o'z navbatida Xoris al-Muhosibiy (781-857) tomonidan o'z- o'zini nazorat qilish - "muroqaba" va "muxosaba" usullarini ishlab chiqishiga olib keldi. Bu usullar eng avvalo insonning niyatlari va qalbdagi nozik o'zgarishlarga qaratilgan edi. Zero, ular oxir-okibatda insonning faoliyatini belgilab beradigan omillar hisoblanadi. Al-Muxosibiyning "muxosaba" haqidagi ta'limoti Movarounnaxr va Xurosandada malomatiylik yo'nalishi shakllanishiga to'rtki bo'ldi. Malomatiylik g'oyalari Ko'plab tariqatlarga, jumladan, Naqshbandiylikka ham ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf o'z taraqqiyoti davomida shialik va undagi oqimlardan biri - ismoiliylik ezoterizmi bilan yaqinlashib, Shu yo'l bilan "xoslar"gina egallashi mumkin bo'lgan "Qur'on oyatlarini ramzlar orqali ta'vil qilish", "botiniy, yashirin ma'nolarni kashf qilish" kabi g'oyalarni o'zlashtirdi. "Xoslar" uchun muljallangan g'oyalarning keng omma orasiga tarqab ketishi, bu g'oyalar mualliflarini tazyik va ta'qiblarga uchrashlariga sabab Bulardi (Saxl at- Tustariy, al-Haqim at-Termiziy, Abu-l-Xusayn an-Nuriy, Ibn al-'Arabi) Mashhur so'fiy Xusay ibn al-Mansur al-Xalloj "Ana-l-Haq" ("Haq menman") degani uchun 922 yil Bag'dodda qatl etildi. Ba'zi nufu'zli sunniy ulamolarning tasavvufga Shubha bilan munosabatda bo'lishi so'fiylarni extiyotkorlikka, murosali yo'llar izlashga majbur etdi. Ularga doimo Qur'on va sunna ko'rsatmalaridan

tashqariga chikmaslik, keskin va “tuturiksiz” fikrlarini oshkor etmaslik lozimligi ta’kidlanar edi. So’fiylar ham o’z navbatida, turli yo’l va usullar bilan o’z maslaklarini niqoblab, shariat me’Yorlariga moyil ekanlarini ko’rsatishga harakat qilar edilar. Shunday maqe’ni egallagan so’fiylardan biri al-Junayd al-Batdodiy (vaf. 910 y.) edi. Aynan u Boyazid al-Bistomiy tomonidan “sukr”ga asoslangan jazavali so’fiylikka ters ularoq “mu’tadil” so’fiylik an’anasini boshlab berdi.

Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar - mayda savdogarlar, xunarmandlar va x.k. tashkil etgan edi. Tasavvufning ilk bosqichidayok murid-Shayx (murshid, pir) raxbarligida so’fiylik nazariyoti va amaliyotini egallash muhim hisoblangan. Muridlar Shayxga barcha diniy va dunyoviy masalalarda butunlay buysunishi shart edi. O’zining taqvolidorligi, bilimi bilan tanilgan yirik so’fiy murshidlarni esa, vaqt o’tishi bilan “valiy”, ba’zan esa “kutb” deb ham atay boshladilar. Muridlarga ergashib, oddiy xalq ham ularning “ma’sumligi”, tayrioddiy karomatlar ko’rsatishi, paytambarga kelgan vaxiyarning “yashirin” ma’nosini izohlab berishga kodirliigi, Xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqidagi islom ta’limotiga zid bo’lgan turli uydirmalarni gapira boshladilar. Bular ham o’z navbatida, xalq og’zaki ijodi namunalari hamda ba’zi tasavvuf nazariyotchilarining asarlarida ifodasini topa boshladi. Tasavvufiy bilimlar va baraka Shayxdan muridga uzoq muddatli ta’lim jarayoni orqali o’tadi, deb hisoblangan. Saboq berish tugagach, Shayx shogirdiga o’ziga xos “guvoxnoma” vazifasini utovchi so’fiylik xirqasini kiydirgan. Bu esa, o’z navbatida muridga mustaqil tartibot olib borish hukukini bergan. Islom olamining turli chekkalaridan kelgan muridlar, ruhsat olganlaridan sung o’z yurtlariga qaytib borib, u erda zoviya, xonoqox va so’fiylik xalqalarini tashkil qilib, o’zlari ham shogird etishtira boshlaganlar. Bu jarayon tasavvufning tez talqalishiga olib kelgan.

X-XI asrlarda tasavvufiy hayot va tafakkur tarzi jamiyatning keng qatlamlarini qamrab oldi. Tasavvuf tarafdorlari soni doimiy ravishda ortib bordi. Bu davrda so’fiylik an’analari shakllanib, tasavvuf asoslarini Yoritib bergan ilk yozma manbalar vujudga keldi. Mazkur kitoblarning asosiy iaqsadi tasavvuf o’z nazariyoti va amaliyoti bilan islom ta’limotlariga batamom muvofiq ekanini ko’rsatib berish hamda tasavvufning og’zaki tarzda etib kelgan merosini tasniflashdan iborat bo’lgan.

X asr oxiri XI asr boshlarida tasavvufning mumtoz yuriknoma asarlari yozildi. Bundan at-Tusiyning (vaf. 988 i.) “al-Luma”, al-Kalabodiyning (vaf. 990 Yoki 995 y.) “at-Ta’arruf”, Abu Tolib al-Makkiyning (vaf. 998 y.) “Kutu-l-kulub”, as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) “Tabaqotu-s-so’fiyya”, al-Kushayriyning (vaf. 1072 y.) “ar-Risola”, al-Xujviriyning fors tilidagi (vaf.1072 Yoki 1076-77 y.) “Kashfu-l-maxjub”, al-Ansoriyning (vaf.1089y.) “Manazilu-s-soiriyn”, Abu Nu’aym Isfaxoniyning (vaf. 1038 y.) “Xilyatu-l-avliyo” asarlari bizgacha etib kelgan. Bu davrda yaratilgan as-Sulamiyning “Haqoiku-t-tafsir” asari Qur’onning ilk tasavvufiy tafsirlari sirasida alohida o’rin egallab, tasavvufiy, ezoterik talqin an’analari namoyon etadi. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar, so’fiylik islohotlarini tushuntirib berdilar hamda tasavvufni islom ta’limotlariga zid emasligini ko’rsatib bera oldilar.

XI-XIV asrlar musulmon jamiyatlarida tasavvufning maqe’i omma orasida kuchayishi bilan belgilanadi. Bu davrda tasavvufning rasmiy ta’limot sifatida e’tirof etilishida al-G’azzoliyning (vaf. 1111 y.) o’rni beqiyos bo’lib, “al-Munkiz min az-zolal” asarida tasavvuf axloki oxirat uchun asosiy zaxira ekani, “Ixyo ulum ad-din”da barcha ilmlarni zikr etib turib, xotimada tasavvufiy bilimni Yuqori quyishini aytib o’tadi. Uning islom olamidagi nufo’zi tasavvufning shariat tomonidan batamom tan olinishiga sabab bo’ldi. Xdnbaliy mazxabiga mansub bo’lgan ‘Abdu-l-Qodir al-G’iloniy (al-Jiloniy, vaf. 1161y.) faoliyati tasavvufiy g’oyalarning ommallaShuvida katta ta’sirga ega bo’lgan. Uning ma’ruzalari turli murakkab va ziddiyatli masalalardan holi bo’lib, aholi orasida keng Shuhrat qozondi. Umuman, tasavvuf jamiyatda o’z ta’sir doirasini tobora kengaytirib borgani sari, hukmron tabaqalar, zodagonlar ham u bilan hisoblasha borib, ular ham pirlarning maslahatlariga qo’loq osadigan bo’ldilar. Valiy Shayxlarning qabrlari esa, ziYoratgohga aylantirilib, odamlar ularni mukaddaslashtirish darajasiga etdilar. Shuni ham qayd qilish lozimki, bu davrlarda islom dini jahongashta qalandar-darvishlar orqali islomlashmagan mintaqalarga yoyila boshladi. Ular o’zlari borgan joylarda

xonoqo va zoviyalar tashkil etib, keyinchalik bunday joylar targ'ibot- tashvikot va diniy turmush tarzi markazlariga aylanib bordi.

XII asr o'rtalari XIII asr boshlarida so'fiylar tashkil etgan zoviyalar atrofida, xususan, shaharlarda tariqatlar shakllana boshladi. Dastlab, Bog'dodda paydo bo'lgan suxravardiya va kodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi. Tariqatlarning shakllanishi tasavvufning ta'siri Yanada kuchayishiga olib keldi. Umuman olganda, so'fiylar xalq ommasi bilan yaqinlashib, ularning diniy extiyojlarini qondirishga yuz tutgan edi. Xunarmandchilik uyushmalarining qarashlarida ham so'fiylik tamoyillari - "futuvva" va "ayYorlik" o'z aksini topa boshladi.

Avliyolar kul'ti omma e'tiqodi va diniy qarashlarida mustahkam o'rin egalladi. Chunonchi, hatto ayrim avliyolar ba'zi kasblarning xomiy pirlariga ham aylanib bordi. Tasavvufning bu yo'sinda rivojlanishi ba'zi nufu'zli mutasavviflar bilan bir qatorda shariat peshvolarini ham tashvishga solar edi. Ibn al-Javziy (116-1201) "Talbisu-l-iblis", Ibn Taymiya (1263-1328) "Fatovo", Ibn Xaldun (1332-1406) "al-Ibar" kabi qat'iy sunniy qarashlar ifoda etilgan asarlarda shariatga zid keladigan, ular "bid'at" deb e'tirof etgan so'fiylikdagi ba'zi jihatlar: juldur kiyinish, uylanmaslik, doimiy ro'zadorlik, avliyolar qabrlarini mukaddaslashtirish, rijolu-l-g'ayb, tinimsiz ibodatlar, avliyolar muxri va boshqa mavzularni keskin tankid ostiga oldilar. Bunday sharoitda Boyazid al-Bistomiy tomonidan kiritilgan "sukr", Yani shatx va jushkin xatti-harakatlarga asoslangan tasavvufdan ko'ra al- Junayd al-Bog'dodiy tomonidan ta'kidlangan hamda "saxv" va "tamkin"ga asoslangan mu'tadil tasavvuf, barcha taraflarni qoniqtirar edi. Shu jihatdan ham hozirgacha mavjud bo'lgan aksariyat tariqatlarning poydevori al-Junayd al-Bog'dodiy ishlab chiqqan asosga binoan barpo qilingan. Har qaysi alohida mintaqada so'fiylik tashkilotlarining faoliyati maxalliy xususiyatlar va an'analar, urf-odat va udumlar bilan qorishib ketdi. Shuning uchun ham tasavvuf Ko'p qirrali mintaqaviy ko'rinish kasb etdi.

XI-XIV asrlarda tasavvuf g'oyalarining musulmon jamiyatining turli qatlam va ijtimoiy guruhlarida o'rtasida keng talqalishi natijasida undagi ichki farqlanishlar yakqol namoyon bo'la boshladi. Asosan ommaning ma'naviy extiyojlarini qondirishga qaratilgan "amaliy" tasavvuf bilan bir qatorda tasavvuf ta'limotining ziyoli tabaqalarga qaratilgan ezoterik jihati Yanada rivojlandi. Mazkur "falsafiy" tasavvufning asosiy qoidalarini ishlab chiqishda as-Suhravardiy al-Maktul (vaf. 1191 y.), Ibn al-'Arabiy (vaf. 1240 y.), Ibn Sab'in (vaf. 1268 Yoki 1271 y.), 'Abdu-r-Razzok al- Koshoniy (vaf. 1329 y.), 'Abdu-l-Harim al-Jiliy (vaf. 1428 y.) kabi tasavvuf namoyandalari faol ishtiroq etib, nomusulmon xalqlarning falsafasiy qarashlarini tasavvuf ruhida talqin eta boshladilar. Bularning orasida Ibn al-'Arabiy "vaxdatu-l- vujud" deb nomlangan nazariyaga asos solgani bilan ajralib turadi. Ibn al-'Arabiy o'zidan avvalgi so'fiylarning taxvid va boshqa mavzularga oid qarashlarini tartibga solib, tizimli falsafa holiga keltirgan. Bu falsafa tasavvuf muhitida keng miqyosda qabul qilingan. Vaxdatu-l-vujudni keskin tankid qilib, unga qarshi chiqqan 'Alauddavla as-Simmoniy (1261-1336) va Naqshbandiylik Shayxi Imom Rabboniy nomi bilan mashqo'r Ahmad as-Sirxindiy (1564-1624) "vaxdatu-sh-Shuxud" nazariyasini ilgari surdilar. Ammo "vaxdatu-sh-Shuxud" asosan Naqshbandiya tariqatiga ta'sir ko'rsatdi. "Falsafiy" tasavvuf XIII-XIV asrlarda yuksak chukqilarga ko'tarilgach, asta-sekin o'zining ijodkorlik salohiyatini yo'qota bordi. "Komil inson", "borliqning birligi" ("vaxdatu-l-vujud), "tajalli" kabi g'oyalar baxs va munozaralar manbaiga aylanib, bu baxslar ham Ko'pincha besamarligicha qolib ketdi.

Tasavvuf g'oyalari Ko'plab She'riy asarlarda ham o'z ifodasini topdi. So'fiylik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors She'riyatiga (Jaloliddin Rumi, Sanoiy, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), Shuningdek, ma'lum darajada arab She'riyati hamda turkiy xalqlarning (Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Alisher Navoiy), Bolkon yarim oroli, shimoliy Xindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va folkloriga singib ketdi.

VIII-IX asrlarda Robia al-Adaviya, Mansur al-Xalloy singari yirik so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiy She'riyat, X-XP asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obraz

va timsollar, ramzlar va usullar olami paydo bo'ldi. Tasavvuf adabiyot bilan bir qatorda boshqa badiiy ijod yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatdi. Zero, tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, raqs san'atini, hattoki o'z so'fiy teatrini ham vujudga keltirdi. Chunonchi, samo' majlisleri Ko'pincha sahnalashtirilgan tomoshaga aylanib ketar, ularni tomosha qilgani ayollar ham yigilar edi. Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi mushtaraklik jihatlarini so'fiylar va ijod ahlining ruh,iy yaqinligidan izlash darkor bo'lsa kerak. Zero, ijod zavki va sufiyona zavk inson ruh,iy holati nuqtai nazaridan umumiylikka egadek guyo. Tariqatda ijodga moyil, qalbida Illoh,iy ishq jush o'rgan Soliklar Ko'proq muvaffakiyatga erishganlar. Ibn al-'Arabiy ham so'fiy shoir bo'lib, mashhur "Fususul-hikam" va "al-Futuhotul-Makkiyya" asarlarida ba'zi joylarni badiiy bezak berish uchun nazmda ifoda etgan. Shunki, tasavvufning nozik masalalarini akliy-nazariy usullardan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur vositasi bilan ifoda etish samaraliroq bo'lib tuyuladi. She'r va musiqaning inson ruh,iyatiga ta'sir kuchini sezgan tasavvuf Shayxlari honaqolardagi yig'inlarda ulardan keng foydalanganlar. Ayniqsa, samo' yig'inlarida raqs bilan bir qatorda She'r va musiqa Soliklarni o'zini yo'qotib atrof-muhitni anglay olmay qoladigan darajaga borib qolishida ahamiyati katta edi.

Davr o'tishi bilan tasavvuf maxsus islohotlari, ramz va timsollarini ifodalaydigan She'riy adabiyot paydo bo'ldi. Natijada sufiyona yashirin ma'nolarni ifodalovchi maxsus til shakllanib, bu tilda yozilgan g'azal va ruboiylar adabiyotni murakkablashtirib, uni faqatgina "xos kishilar" anglaydigan bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan esa, Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor kabi so'fiylar tomonidan sufiyona pand-nasihatlari juda sodda til va xalqchil usulda ifoda etilgan tasavvufiy She'rlar ham bitildi.

Tasavvufiy adabiyotni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin: tasavvuf tarixi va ta'limotini bayon etgan, so'fiy islohotlar vositasida tushuniladigan asarlar: Abu Bakr al-Kalabodiyning "Ta'arruf", Jomiyning "SHarxi ruboiyot", Sufi Olloyorning "Sabotul-ojizin", Maxmud SHabistariyning "Gulshani roz", Bedilning "Muhiti a'zam" asarlari. Ikkinchisi tasavvuf g'oyalari kechinma va hayajonlar, siymo va timsollar orqali tavlrlanib talqin qilinadigan adabiyot: Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy-yi ma'naviy", Fariduddin 'Attorning "Ilohiynoma", Alisher Navoiyning "Xayratul-abror", "Lisonul-tayr" kabi asarlari. Tasavvuf adabiyoti turli adabiy janrlardan unumli foydalandi. Chunonchi, ruboiy, g'azal, kasida, masnaviy kabi janrlar so'fiy adabiyotiga yangi ruh kiritib, o'zgacha talqin bilan rivoj topdi.

Tasavvufning moslashtiruvchi va tashqi ta'sirlarga "ochiqligi" uni Ko'pyoklamali oqimga aylanishiga olib keldi. Mumin-qobillik, itoatkorlik va dunyo halovatidan voz kechishni targ'ib qilgan tasavvuf, ba'zan isyonkorlik harakatlarining, (Andalusiya'dagi "muridlar isyoni" (XII asr), Antaliyada Shayx Badriddin (1416 y.da uldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiyalar, shoziliylar) keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi ko'rash (sanusiylar, Qodiriylar, Shomil, Dukchi Eshon) mafkurasiga aylandi. Tasavvuf Ko'pchilik musulmon peshvolari tomonidan e'tirof etilgach, uning soyasida turli xil ashaddiy jamoa va oqimlar - hurufiylik, alaviylik, ravshaniylik, axlu-l-haqq va boshqalar faoliyat olib bordilar. Anatoliyadan keyin esa, Bolkon, O'rta Osiyo va Eronda shialik-so'fiylik aralash ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matulloxiya, kubraviya, xalvatiya, zaxabiya) tarqaldi. XIV- XVII asr shia mutafakkirlari tasavvufning falsafiy merosiga, ayniqsa, vaxdatul-vujud konsepsiyasiga murojaat qilib, u erdan o'z ta'limotlari uchun Ko'p qarashlarni o'zlashtirdilar.

XIX-XX asrlar boshida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol o'ynashda davom etdi. Musulmon olamining u Yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu holat ham reaksiya, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharqda jamiyatning yoppasiga dunyoviylashishga yuz tutishi, iqtisod va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning maqasiga qattiq zarba berdi. Ko'pchilik arab mamlakatlarida tasavvuf diniy-siyosiy doiralari tomonidan keskin tankidga uchradi. Ular islom dinini zamon talablariga muvofiq moslashtirishga yoxud so'fiylik ta'limotlaridan holi bo'lgan ilk islomning "sof ko'inishi"ni ortga qaytarishni talab qilib chiqar edilar. Arab-islom sosializmi tarafdorlari hamda progressiv yosh avlod o'z mamlakatining

qoloqligida bir jihatdan tasavvufni ham ayblab, uni taraqqiyot va yurt gullab-yashnashi yo'lidagi rov, deb bildi. Bir qancha musulmon mamlaqatlarida tariqatlar faoliyati qisman Yoki butunlay man qilindi. Garchi tasavvuf o'zining avvalgi obrusini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saklab kelmokda. Ular ruh,iy taskin va madad izlab, so'fiylik tariqatlari safiga kirmokda. XX asrda ham yangi suluklar paydo bo'lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoirdagi al-alaviya, (asoschisi Ahmad al-Alaviy. vaf.1934 y.) Qoxiradagi al-hamidiya ash-shoziliyani (asoschisi - Salama ar-Radiy, vaf. 50-yillar oxiri) kiritish mumkin. Hozirgi davrda so'fiylar orasida birmuncha zamonaviy kasb vakillari - o'qituvchilar, turli darajadagi davlat xizmatchilari va boshqalar ham bor. Ularning suluk yo'lida yurishlari o'z ijtimoiy faoliyatlarini olib borishlariga xalal bermayapti.

Tasavvufning moslashtirish va tashqi ta'sirlarga "ochiqligi" uni Ko'pyoklamali oqimga aylanishiga olib keldi. Mumin-qobillik, itoatkorlik va dunyo halovatidan voz kechishni targ'ib qilgan tasavvuf, ba'zan isyonkorlik harakatlarining, (Andalusiyadagi "muridlar isyoni" (XII asr), Antaliyada Shayx Badriddin (1416 y.da uldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiyalar, shoziliylar) keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi ko'rash (sanusiylar, kodiriyalar, SHomil, Dukchi Eshon) mafkurasiga aylandi. Tasavvuf ko'pchilik musulmon peshvolari tomonidan e'tirof etilgach, uning soyasida turli xil ashaddiy jamoa va oqimlar - hurufiylik, alaviylik, ravshaniylik, axlu-l-haqq va boshqalar faoliyat olib bordilar. Anatoliyadan keyin esa, Bolkon, O'rta Osiyo va Eron shialik-so'fiylik aralash ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matulloxiiya, kubraviya, xalvatiya, zaxabiya) tarqaldi. XIV- XVII asr shia mutafakkirlari tasavvufning falsafiy merosiga, ayniqsa, vaxdatu-l-vujud konsepsiyasiga murojaat qilib, u erdan o'z ta'limotlari uchun ko'p qarashlarni o'zlashtirdilar.

XIX-XX asrlar boshida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol o'ynashda davom etadi. Musulmon olamining u Yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu holat ham reaksiya, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharqda jamiyatning yoppasiga dunyoviylashishga yuz tutishi, iqtisod va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning maqeiga qattiq zarba berdi. Ko'pchilik arab mamlaqatlarida tasavvuf diniy-siyosiy doiralari tomonidan keskin tankidga uchradi. Ular islom dinini zamon talablariga muvofiq moslashtirishga yohud so'fiylik ta'limotlaridan holi bo'lgan ilk islomning "sof ko'rinishi"ni ortga qaytarishni talab qilib chiqar edilar. Arab-islom sosializmi tarafdorlari hamda progressiv yosh avlod o'z mamlakatining qoloqligida bir jihatdan tasavvufni ham ayblab, uni taraqqiyot va yurt gullab-yashnashi yo'lidagi rov, deb bildi. Bir qancha musulmon mamlaqatlarida tariqatlar faoliyati qisman Yoki butunlay man qilindi. Garchi tasavvuf o'zining avvalgi obrusini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saklab kelmokda. Ular ruhiy taskin va madad izlab, so'fiylik tariqatlari safiga kirmokda. XX asrda ham yangi suluklar paydo bo'lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoirdagi al-alaviya, (asoschisi Ahmad al-Alaviy. vaf.1934 y.) Qoxiradagi al-hamidiya ash-shoziliyani (asoschisi - Salama ar-Radiy, vaf. 50-yillar oxiri) kiritish mumkin.

FUTUVVAT (arab, yigitlik, mardlik) - tasavvufdagi mardonavorlik Yani, boshqalarni o'zidan Yuqori tutish, faqat yaxshilik qilish, ezgu qo'lk-atvorga ega bo'lish, piru ustozlar, do'st-birodarlar sharafini himoya qilishga o'zini bagishlash, eng olijanob odob va xislatlarni o'zida kamol toptirish.k.

Futuvvat g'oyalarining paydo bo'lishi ilk tasavvuf davriga borib takaladi. Futuvvat arabcha "fata" - "yigit" so'zidan olingan. Mashhur so'fiy al-Junayd al-Ba'raqdiyning ta'rifiga ko'ra futuvvat - "Saxovatpeshalik, bировga zarar etkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noShukur bo'lmaslik)". SHia so'fiylarida 'Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayoti hisoblanadi, Shuning uchun ham ularda "Zulfikordan boshqasi qilich emas, 'Alidan boshqasi "fata" emas" iborasi keng tarqalgan edi. Futuvvat ahlini javonmardlar (fors. mard yigit), axiylar (arab. birodar) deb ham ataganlar. Javonmardlar oddiy xalq ichidan chiqqan xunarmandlar, kizikchilar, sipoxiylar va

jamiyatning boshqa a'zolaridan tarkib topgan edi. Ularning har birining o'z jamoasi, piri, yitiladigan joyi bo'lgan. Agiografik manbalarda "javnord" so'zi ko'plab so'fiylarga, ayniqsa malomatiylarga nisbatan keng kullanilgan. Chunonchi, "Malomatiya haqida risola" muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) futuvvatga batishlab alohida bir risola bitgan. Ushbu asarida haqiqiy javnordning 212 ta'rif va sifatini keltiradi. As-Sulamiyga ergashib Yana bir tasavvuf tarixnavisi al-Kushayriy (vaf. 1072y.) o'zining "Kushayriy risolasi" asarining bir bobini futuvvat mavzusiga batishlaydi. Kaykovusning (XI asr) "Qobusnoma"sida 44-bob "Javnordlik zikrida" deb atalib, unda futuvvat odobi, bu tur insonlarga xos go'zal axlok namunalari haqida so'z boradi. Xiroflik atokli olim Xusayn Voiz Qoshifiy (1440-1505) "Futuvvatnomai sultoniy" asarida futuvvatning etmish bir shartini sanab o'tadi hamda "Kimdagi, mazkur shartlardan birortasi topilmasa, u futuvvatdan bebaxradir", deb ta'kidlaydi. Qoshifiy futuvvatni tariqatning tarkibiy qismi, deb qaraydi. Vaholanki, ba'zi manbalarda garchi tariqat va futuvvat o'zaro chambarchas botlik bo'lsada, ammo ular alohida tushunchalar ekani aytilgan. Chunonchi, futuvvat tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbiti sifatida e'tirof etiladi.

Javnordlar xuddi so'fiylar muridga murakka' Yoki xirqa kiydirgani singari o'z saflariga yangi kushilganlarga ajratib turuvchi maxsus shalvor kiydirganlar. Manbalarda sarbadorlar ham futuvvat ahli sifatida e'tirof etiladi.

Abbosiy xalifa Nosir (1180-1225) o'z mavke'ini mustahkamlash uchun birinchi bo'lib futuvvatga rasmiy tashkilot tusini berib, 'Ali ibn Abu Tolibni esa futuvvatning eng Yorkin misoli sifatida tartib qildi. Uning o'zi ham futuvvat shalvorini kiyib, "sayyidu-l-fityon" laqabini oladi. Shu yo'l bilan u Batdod aholisining kullab-kuvvatlashiga erishib, saljukiyularning ta'siridan kutulishga hamda rofiziylarni yo'q qilishni iaqsad qilgan edi. Ushbu iaqsadini amalga oshirishda xalifaga suxravardiya tariqati asoschisi Abu-n- Najib as-Suxravardiyning (vaf. 1168 y.) jiyani Abu Xafs as-Suxravardiy (1145-1234) futuvvat g'oyalari aholidning keng qatlamlari orasida o'zining otashin va'zlari bilan tarkatish orqali Yordam ko'rsatadi. Abu Hafs as-Suxravardiy "So'fiylik yo'li oddiy musulmon uchun mashakkatli va otir bo'lgani sababli omma uchun futuvvat tariqatning bir bo'lagidir" deya e'tirof etdi. Abu Hafs as-Suxravardiy iaqsadli ravishda futuvvatga xos bo'lgan sharaf kodeksini tasavvufning ma'naviy ko'rsatmalari bilan botlashga o'rindi.

Futuvvat konsepsiyasi tasavvufdagi iysor - o'zgalarning manfaatini o'z manfaatlaridan ustun quyish toyasini eng Yuqori chukqilarga olib chiqdi. Futuvvat guruhlari ko'p davrlar mobaynida jamiyatda yuksak axlok, saxovat, mardlik, adolatparvarlikning oliy namunasi sifatida e'tirof etib kelindi. Futuvvat g'oyalari Movarounnaxrda ham keng tarqalgani haqida o'rta asr arab sayyohi ibn Battuta (vaf. 1368y.) "Safarnoma" asarida juda tulkinlanib ifoda etadi. Arab sayyohining yozishicha xonaqoh va zoviyularning aksari javnordlar ixtiYorida bo'lgan. Ayniqsa, Turkiyada javnordlik harakati "axiyar" nomi bilan keng tarqalgan bo'lib, ularning sardorlari sultonlarning xo'zurida ham muayyan obru-e'tiborga ega bo'lgan. X asrlarda paydo bo'lgan "ayYor"lik harakati ham aslida futuvvat bilan botlik. "Ayyor" so'zi usha davrda salbiy ma'noda emas, balki "topkir", "zukko", "dono", "zexnli", "hozirjavob", "xiylagar" kabi so'zlar bilan uytun bo'lgan. Ular turli nayranglarni ishlatib dushmanlarga zarar etkazganlar, do'stlarni otir holatlardan chiqarishga Yordam berganlar. Ammo hech qachon o'z nayranglarini xiyonat va gunoh ishlarga qo'llamaganlar. "Qobusnoma"da ham ayYorlik javnordlikning zakovat jihatdan yuksak namunasi sifatida aks ettiriladi. Futuvvat tasavvuf bilan kushilgandan keyin javnordlarga nisbatan "ayYor" so'zi ishlatilmaydigan bo'lib koldi.

Tariqatlarda piri murshid bo'lganidek, futuvvat tashkilotlarining maslagiga mos ravishda paytambarlardan tanlab olingan pirlari bo'lgan. Chunonchi, hazrati Odam

- dehqonlar piri, hazrati Shis - paxtachilar piri, hazrati Idris - tikuvchi va hattotlar piri, hazrati Nux - savdogarlar, hazrati Solix - tuyakashlar, hazrati Ibroxim

- sutchi va duradg'orlar, hazrati Ismoil - ovchilar, hazrati Isxok, - chuponlar, hazrati Zulkifl - novvoylar, hazrati Lut - tarixchilar, hazrati O'zayr - botbonlar, hazrat Ilyos - tukimachilar, hazrati Dovud - temirchilar, hazrati Lukmon - haqimlar, hazrati Yunus - balikchilar, hazrati Iso - sayyohlar, Muhammad (s.a.v.) - botbon va savdogarlar piri.

- Futuvvat - (arab. *yigitlik, mardlik*)

- tasavvufdagi mardonavorlik Yani, boshqalarni ximmatda o'zidan Yuqori tutish, faqat yaxshilik qilish, ezgu qo'lk-atvorga ega bo'lish, piru ustozlar, do'st-birodarlar sharafini himoya qilishga o'zini batishlash, eng olijanob odob va xislatlarni o'zida kamol toptirishi. Futuvvat arabcha "fata" - "yigit" so'zidan olingani. Junayd al-Batdodiyning ta'rifi: "Futuvvat

- saxovatpeshalik, birovga zarar etkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noShukr bo'lmaslik)". SHia so'fiylarida Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayoti hisoblanib, "Zulfikordan boshqasi qilich emas, Alidan boshqasi "fatiiy" emas" iborasining keng tarqalishi. Futuvvat ahlini javonmardlar (fors. *mard yigit*), axiylar (arab. *birodar*) deb atalishi. Qur'onda "fatiiy" tushunchasi: Ibroxim va Yusuf payambarlar, G'or egalari, Muso paytambarning sherigi YUsha'. Manbalarda "javnomard" so'zi malomatiylarga nisbatan keng kullanilishi. "Malomatiya haqida risola" muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) futuvvatga batishlab aloxdqa bitgan risolasida haqiqiy javonmardning 212 ta'rif va sifatini keltirishi. As-Sulamiyning izdoshi bo'lgan tasavvuf tarixnavisi al-Kushayriy (vaf. 1072 y.). Uning "Kushayriy risolasi" asarida futuvvat mavzusining aks etishi. Kaykovusning (XI asr) "Qobusnoma"sida 44-bob "Javnomardlik zikrida" deb atalishi. Unda futuvvat odobi, bu tur insonlarga xos go'zal axlok namunalari hak,ida so'z borishi. Xirotlik Xusayn Voiz al-Qoshifiy (1440-1505) "Futuvvatnomai sultoniy" asarida keltirilgan futuvvatning etmish bir sharti va "Kimdaki, mazkur shartlardan birortasi topilmasa, u futuvvatdan bebaxradir", deb ta'kidlanishi. Al-Qoshifiy futuvvatni tariqatning tarkibiy qismi, deb qarashi. Ayrim manbalarda tariqat va futuvvat o'zaro chambarchas botlik bo'lsada, ammo ular alohida tushunchalar ekani kayd etilgani. Futuvvat - tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbiti sifatida e'tirof etilishi.

Javnomardlar xuddi so'fiylar muridga murakka' Yoki xirqa kiydirgani singari o'z saflariga yangi kushilganlarga ajratib turuvchi maxsus shalvor kiydirishi. Manbalarda sarbadorlar ham futuvvat ahli sifatida e'tirof etilishi.

Futuvvat konsepsiyasi tasavvufdagi iysor - o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun quyish toyasini eng Yuqori darajaga olib chiqishi. Futuvvat guruhlari - jamiyatda yuksak axlok, saxovat, mardlik va adolatparvarlikning yuksak namunasi sifatida e'tirof etilishi. Umrni do'stlar xizmatiga batishlash, faqat yaxshilikni uylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu qo'lk-atvorga ega bo'lish, borini o'zgalar bilan baham kurib, muxtojlar xojatini chiqarish, piru ustozlar, do'st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zoxiran va botinan poklanib, halol-pokiza insonlar suxbatini kozonish kabi futuvvat g'oyalari. Movarounnaxrda keng tarqalgan futuvvat g'oyalari ibn Battutaning (vaf. 1368 y.) "Safarnoma" asarida tulkinlanib ifoda etilishi.

Qoshifiy kayd etgan futuvvatdagi uch martaba: saxo - bor narsani hech kimdan kiztanmaslik; safo - qalbni kibru xavo, gina-kudrat, qasd-tazabdan holi va pok tutish; vafo - hamma vakt xalq xizmatida bo'lish.k.

Tariqatlardagi piri murshid singari futuvvat tashkilotlarida paytambarlardan pirlar bo'lishi: hazrati Odam - dehqonlar piri, hazrati SHis - paxtachilar piri, hazrati Idris - tikuvchi va hattotlar piri, hazrati Nux - savdogarlar, hazrati Solix - tuyakashlar, hazrati Ibroxim - sutchi va duradg'orlar, hazrati Ismoil - ovchilar, hazrati Isxok - chuponlar, hazrati Zulkifl - novvoylar, hazrati Lut - tarixchilar, hazrati O'zayr - botbonlar, hazrat Ilyos - tukimachilar, hazrati Dovud - temirchilar, hazrati Lukmon - haqimlar, hazrati Yunus - balikchilar, hazrati Iso - sayyohlar, Muhammad (s.a.v.) - botbon va savdogarlar piri ekani.

Navoiyning komil inson konsepsiyasi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan futuvvat (javnomardlik)ga munosabati. Futuvvatning Kichik Osiyo xududidagi o'ziga xos tarmoti - axiylik harakati. Navoiy «Sab'ai sayYor»idagi Axiy obrazining mazmun-mohiyati.

Muruvvat - barcha bermakdur, emak yo'q,

Futuvvat - barcha qilmakdur, demak yo'q.

Alisher Navoiyning axiylik haqida maxsus xikoyasi. Xurosan va Movarounnahrda keng Shuhrat kozongan va shahar xunarmandlarining katta qatlamini kamrab olgan - javnomardlikni chetlab utilganday tuyulsada, shoir asarlarida «futuvvat» va «javnomard» atamalari komil insonlarga xos ijobiy xususiyat sifatida ko'p tilga olinishi.

Fariduddin Attor futuvvatga kuygan 72 talab va Xusayn Voiz Qoshifiy ko'rsatgan 71 ta shartning barchasi mujassam bo'lgan ikki sifat: saxovat va shijoat. Navoiy asarlaridagi ijobiy kaxramonlar faoliyati va barcha muhim sifatlari javonmardlik talablari bilan muvofiqligi.

Alisher Navoiy garchi javonmard nomi bilan maxsus xikoya va obraz yaratmagan bo'lsa ham, Farxod, Mas'ud, Sa'd, Farruh Iskandar, SHopur, Mukbil singari haqiqiy javonmardlar timsolida o'zining bu masalaga doir qarashlarini ifodalashi.

Alisher Navoiy "javonmardlar" sifatida tilga olinadigan "sarbadorlar" harakati bilan temuriylar o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olib, fatiylar mavzusida extiyotkorlik qilishi. Navoiy asarlarini futuvvat nukta nazaridan ko'zatish asosida javonmardlarga nisbatan chuqur muhabbatini anglash mumkinligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf va shialikni tushuntiring.
2. Botiniylikning mazmuni va botilligining isbotini ayting.
3. Tasavvuf ta'limotida har xil qarashlarning mohiyatini tushuntiring.
4. Futuvvat-axiylikning ma'nosini ayting.
5. Rijolul-g'aybning mazmunini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Aqliy va progmatik so'fizm.
2. Fano tushunchasining psixologik mazmuni.

10-MAVZU. TARIQATLARNING MODDIY UNSURLARI.

Reja:

1. *Takya va uning mazmun mohiyati.*
2. *Tariqatning qiyofalari va ularning mistik timsollari.*
3. *Xirqa kiyish an'anasi.*
4. *Kuloh, po'stak, a'lam – tariqat qiyofasi sifatida.*

Tayanch tushunchalar: *Takya, qiyofa, tariqatlar qiyofalari, mistika, timsol, mistik timsol, xirqa, odob, xirqa kiyish, kuloh, po'stak, a'lam, mutarasm.*

So'fiylik haqidagi qarashlarda "suvf" ("sof bo'lmoq") so'zi o'zagidan olingan Yoki "Axlus Sufia" Payg'ambarimiz (SAV)ning Madinadagi uyi yonida yashovchi, yig'iluvchi zohid kishilarga tegishli deb ta'kidlaydilar. Dunyoviy va diniy bilimlarni puxta egallagan Turkiyalik professor Mahmud A'sad Jo'shon hazratlari "Tasavvuf va nafs tarbiyasi" kitobida Tasavvuf – Shayxga (piru murshidga M.M.) bog'lanish, Allohni har on zikr qilish, dunyoga mayl etmaslik, zuhd, yani taqvo sohibi bo'lish, gunoh ma'siyatlardan saqlanishdir, deb ta'riflaydi.

Ayrim tadqiqotchilar (prof. Q.B.Bo'ronov) tasavvuf ta'limotining nazariy va amaliy sohalarini farqlash zarurligini ta'kidlab, bu o'rinda Zahiriddin Muhammad Boburning so'fiylikni mutassavifdan ajratganligiga ishora qiladi. O'zlarini tasavvuf ahliga mansub deb biladigan, tariqat (tasavvufdagi yo'l – yo'riq M.M.) ning muxlisi bo'lgan, eng muhimi - amaliyotini o'tagan kishilarni so'fiylar, deb atagan. Tasavvufning g'oyaviy – nazariy jihatlarini qabul qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o'tamagan odamlarni mutassavif, deb hisoblagan.

Afsuski, sho'rolar davrida dinga va dindorlarga qarshi ko'rashish, diniy e'tiqodlarni ta'qiqlash, repressiya qilish natijasida dinimiz islomdan, tasavvuf ta'limotidan uzoqlashib qoldik. Ko'pchiligimiz, tasavvuf – sufizm haqida jo'yali bilimga, hatto tasavvurga ham ega emasmiz. SHO'rolar davrida rus Sharqshunos olimlari sufizmni tadqiq etishgan. Lekin o'sha davrdagi

hukmron ateistik g'oya, mafkura sinfiylik va partiyaviylik prinqipidan kelib chiqqan holda, sufizmning asl mohiyatini adolatli bayon qilishga monelik qilgan, uni diniy - mistik g'oya deb qoralagan.

SO'FIY - so'fiylik tariqatiga mansub Shaxs, murid; "Tasavvuf" va "so'fiy" so'zlarining o'zagi va mazmuni turrisida olimlar fikri turlicha. Bu so'zlar arabcha "suvf" (jun, pustin) so'zidan kelib chiqqan, degan fikr Ko'pchilik ulamolar tomonidan ma'qullangan. Shunki, tasavvuf yo'liga kirganlarning ko'pchiligi o'zlarini xilvatda tutish bilan birga egnilariga pustin kiyib yurishar edi. Lekin so'fiylar orasida pustin kiyimaydiganlari, ko'roq, xilqa Yoki boshqa xildagi kiyim kiyib yuradiganlari ham bo'lgan. Ammo, pustin kiyishga odat qilgan so'fiylar ko'pchilikni tashkil qilgan.

Tasavvuf amaliyoti bilan mashg'ul kishilar **so'fiylar** deb yuritilgan.

So'fiy - so'zining kelib chiqishi: payg'ambar alayhissalomning muborak masjidlari yonida ba'zi kambag'al sahobalar sufa(supa)da yashaganlar. Shuning uchun ular "ahli suffa" Yoki "ashobi suffa" deyilgan. **Bu tarixiy ta'rif.**

Suf – jun kiyim, so'fiy esa – jun mato kiygan kishi, jandapo'sh degani. So'fiylar, odatda, jundan kiyim kiyib yurganlar. **Bu zohiriy ta'rif.**

Ular qalblarini Alloh zikri bilan pokiza qilganlari, doimo zikr aytib yurganlari uchun, Yani "safo ul-qalb" (qalb sofligi) yo'lida jonbozlik ko'rsatganlari bois ham so'fiy deb atalganlar. **Bu botiniy ta'rif.**

Payg'ambar alayhissalomning muborak sunnatlarini kishilar o'rtasiga yoyish, ularga doimo amal qilish, ashobi sufa odatlariga, jandapo'shlikka va qalb pokizaligiga qattiq e'tibor berganlari uchun so'fiy deb aytilgan. **Bu amaliy ta'rif.**

Biroq so'fiylikning rohiblik (tarkidunyochilik)dan jiddiy farqi bor. Rohiblik Alloh taolo buyurgan amallardan bo'lmay, balki uni kishilarning o'zlari o'ylab chiqarganlar. Bu haqda Qur'oni harimda Shunday marhamat qilinadi:

"Rohiblikni esa ular o'zlari chiqarib oldilar. Biz ularga uni (rohiblikni) yozganimiz yo'q". (Hadid surasi, 27-oyat)

Payg'ambar alayhissalom aytadilarki: "Islomda rohiblik yo'q".

Ateistlarning tasavvufga - so'fiylikka bergan bahosi

So'fiylik o'z mohiyat - e'tibori bilan reaksion ta'limotdir. U kishilarni ijtimoy – foydali mehnatdan,umuman jamiyat hayotidan chetga tortadi. Aktiv faoliyatini so'ndiradi. Inson mohiyati va maqsadlarini buzib ko'rsatishga intiladi. SSSRda so'fiylik harakati XX asrning 20 – yillarida barham topgan. Hozirgi davrda xorijiy Sharq mamlaqatlarining ayrimlarida sufizm g'oyaviy kuch sifatida muayyan rolb o'ynab kelmoqda. Progressiv kuchlar ularga qarshi muntazam ko'rash olib bormoqdalar⁸.

Tariqatning boshlanishidayoq so'fiy ma'naviy ustoz (murshid) rahnamoligida so'fiylik ilmini o'zlashtirishga kirishishi lozim.Ustozsiz murid sog'ligivaaql – hushini yo'qotishi mumkin.Tasavvuf ta'limotiga kirgan har bir Solik mo'min quyidagi bosqichlardan o'tib komillikka erishadi: avval muridlik, darveshlik,olimlik, oriflik yo'llarini bosib o'tgach, piru komil bo'ladi: tariqat Shayxi maqomini oladi.So'ng valiylik darajasiga ko'tariladi.

Undan Yuqori maqom nabiylk bo'lib, valiy qanchalik buyuk bo'lmasin, avliyo payg'ambar deb tan olinmaydi. Muhammad (S.A.V.) oxirgi payg'ambar bo'lib, ulardan keyin payg'ambar kelmaydi.Tasavvufda murid (arabcha iroda qiluvchi)ning ruhiy kamolotga erishishida to'rt bosqich mavjud. Birinchi bosqich - shariat ilmidir. SHariat - arabcha yo'l, ilohiy yo'lni anglatib, musulmonchilikda qonunchilik ma'nosini bildiradi. Islomda shariat hukmlari Qur'oni Harim, sunnat, ijmo va qiyosdan olinadi. Unda sof huquqiy masalalardan tashqari, axloqiy va ma'naviy normalar, amaliy diniy talablar qonun darajasiga ko'tarilgan. Islom shariatining bosh maqsadi dinni, jonni, aqlni,nasl va mulkni asrashdan iborat bo'lib, ularni muhofaza qilish uchun zarur choralar belgilangan. Ilk islom davlati tashkil topganda, jamiyat shariat normalari bilan boshqarilgan. SHariatda dastlab barcha xatti – harakatlar ikki turga: halol va haromga ajratilgan.

⁸ Ateistik ensiklopedik lug'at. T.; 1988y. 363 – bet.

Keyinchalik shariat takomillashib besh kateg'oriya vujudga kelgan. Bular farz bo'lib, bajarilishi majburiy hisoblangan amallar; sunnat – majburiy emas, lekin maqbo'l, lozim bo'lgan amallar; uchinchi, muboh - arabcha ixtiyoriy ish – harakat bo'lib, unga ko'ra qilish va qilmaslik baravar bo'lgan amal (musiqa, qo'shiq tinglash, o'yin – kulgu, bosh kiyimsiz namoz o'qish).

To'rtinchisi, makruh, arabcha rad etilgan, nomaqbo'l ma'nolarini beradi. Qat'iy an ta'qiq qilinmagan, lekin nomaqbo'l hisoblangan amallar makruh hisoblanadi; (isrofgarchilikka yo'l qo'yish, nomozni buzuvchi amallar, bid'at amallar..), beshinchisi harom – arabcha, ta'qiqlangan ma'nosini bildirib, shariatda qat'iy ravishda man qilingan narsa va amallar. So'fiylar, avvalo shariatning zikr qilingan barcha talablarini yaxshi o'rganib, amal qilib, undan keyin, ikkinchi bosqich – TARIQATga ko'tariladi. Tariqat (arabcha -yo'l -usul) so'fiylik yo'lining muayyan bosqichi bo'lib, murid o'z piri murshidiga itoat etishi, Shaxsiy istaklaridan voz kechib, o'zini ustozga topshirishi shart. So'fiylar oldiga qo'yiladigan bir qancha talablar majmuasi mavjud bo'lib unda xilma-xil jismoniy –ruhiy xatti - harakatlar qamrab olinadi, bu bosqichdan o'tganlar, Yuqoriroq, uchinchi bosqichga, ma'rifatga ko'tariladilar.

MA'RIFAT (arabcha - bilish, anglash) - so'fiy ma'naviyati va bilimining ortib borishi, tabiat va jamiyat ilmu hikmatidan voqif bo'lib yurish hisoblanadi. Bu bosqichda so'fiy koinot birligi xudoda mujassam bo'lishini, olam xudoning tajallisi ekanligini, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, qalb bilan anglaydi.

To'rtinchi bosqich - HAQIQAT deb nomlanadi. Bu bosqichda so'fiy" Shaxs sifatida tugab, "men"ligini yo'qotib, "haqiqat" ga, xudoga etishadi. Unga singib, abadiylikka doxil bo'ladi. Bu darajaga so'fiylar maxsus jismoniy va ruhiy sa'yi – harakatlar, ibodat va sig'inishlar bilan erishadilar.

Falsafada inqorni inkor qonuni bor. Buni ular bug'doy doni misolida tushuntiradilar. Bu biologik jarayon. Insonlarda buni "mensiz" tug'ilib," "men"ning shakllanishi va komillikning Yuqori bosqichida " men"dan mosuvo bo'lish bilan tushuntirish mumkin.

So'fiylarning xudoga etishish, unga singib ketish mumkinligi haqidagi qarashlari, ba'zan shariat ahkomlarini bajarishda sustkashlikka yo'l qo'yish, ba'zan ma'murlar va din peshvolari tomonidan tazyiqqa uchrashlariga, hatto qattiq jismoniy jazoga uchrashiga sabab bo'ldi.

Tayfuriya oqimining asoschilaridan biri Tabaristonlik Boyazid Bistomiy 875 yilda qatl etilgan. Bu ta'limotga ko'ra, so'fiy zikr holatida xudo ishq bilan o'zini uno'tadi va pirovardida u Allohga singib ketadi. Bu holatni u fano (mavjudlikni yo'qotish) deb ataydi. Bunda so'fiy o'zligini yo'qotib, ilohiy sifatlarga cho'lg'anadi. Albatta bu xil qarashlar, an'anaviy islom tarafdorlari tomonidan inkor etilib, Bistomiy xudolikni da'vo qilishgda ayblanib, 875 yilda qatl etiladi.

Xuddi Shunday taqdir mashhur so'fiy Mansur Hallojga ham nasib etadi. Uning "Anal Haqq" (Men haq, xudoman) degan so'zi uchun shakkoklikda ayblanib, 922 yili Bag'dodda dorga osiladi. Uning qarashlari mohiyatiga ko'ra, insonda ilohiylik mavjud bo'lib, xudo insonda namoyon bo'ladi. Umuman inson va borliq xudoning tajallisi. Mening o'zligim haqning o'zligidir degan fikri bilan "vahdai vujud"(borliqning bir butunligi) ta'limotini yaratadi. Bu qarashlar shariatning ba'zi qoidalariga zid kelgan.

Mashhur o'zbek shoiri va so'fiy Boborahim Mashrab (1657 – 1711)ning qarashlari ham Mansur Hallojga uyqash bo'lib, behushlik holatga tushgan paytlarda shariat ahkomlariga mos kelmaydigan fikrlarni ham aytib yuborgan. Uning uchun asl mohiyat HAQ vasliga etish, bu yo'lda do'zax azoblariga chidashi, jannat ne'matlaridan voz kechishi mumkinligini bayon etgan. balx hoqimi Mahmud Qatag'on amri va ruhoniylar fatvosi bilan dorga osilgan.

Turonzaminda (Mavora-unnahrda) yirik to'rtta tariqatga e'tiqod qilib kelinadi. Xronologiyaga rioya etsak, birinchisi, 1079-1166 Bag'dodda yashagan "Qodiriya" tariqatining asoschisi, avliyo, buyuk mudarris xalq ichida "Hazrati G'avsil A'zam" (g'avs - madad beruvchi) nomi bilan mashhur Sayyid Abdulqodir G'iloniydir. Nasl – nasablari o'n avlod orqali Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga ota tomondan imom Xasan, ona tomondan imom Xusaynga ulanadi. Sayyid Abdulqodir G'iloniy (roziyallohu anhu) xijriy 471 yilda Eronning

Gilon viloyatida tavallud topganlar. O'n olti yoshlarida ilm istab Bag'dodga borib, u erdagi ulug' ulamolardan ilm va tarbiya oladilar. Bag'dod shahrida madrasa qurib, o'ttiz uch yil davomida ilmi toliblarga o'n uch ilmdan saboq berganlar⁹.

Ul Hazrat ochiq yuzli, shirin so'zli, sahiy qalb sohibi bo'lganlar. Ojizlar va miskinlarga shafqat ko'rgazib, keksalarni izzat - hurmat qilar, yoshlarga ulardan avval salom berar edilar. Hazrat G'iloniy "uvaysiy"dirlar, Yani Payg'ambarimiz sallalohu alayhi vassalamning ruhoniylaridan tarbiya topganlar. Bu o'rinda tarbiyat topish tartibi Shundan iboratki, har bir Payg'ambari Allohning izni bilan bir ulug' farishta tarbiyat qiladi.

Har bir avliyoni bir payg'ambar ruhi tarbiyat qiladi. Har bir ulamoni bir avliyo ruhi tarbiyat qiladi. Har bir solih bandani bir ulamo Yoki o'z ajdodidan bir aziz zot ruhi tarbiyat qiladi. G'avsil A'zam (r.a) ilmda, karomatda, bashoratda o'z zamonasida tengsiz bo'lganlar. Karomatlari zohir, duolari ijobat bo'lib, umrlari davomida kishilarni yaxshilik yo'lida tarbiyalab, yomonlikdan qaytarib, halollik va ezgulik bilan yashashga o'rgatib keldilar. Kambag'al va yo'qsillarga mehr - muhabbat va sahovat ko'rsatgan holda, boylar, amaldorlar oldida tavoze qilmas, ular yig'iniga bormas, taomlarini emas ekanlar.

G'iloniy hazratlari so'fiylarni tavsiflab, "Ularning "tasavvuf ahli" deb nom olishlariga yagona sabab, ichki olamlarini tavhid va ma'rifat nuri bilan oydinlatganlaridir". deb yozadilar¹⁰. Bu yo'lga kirgan " ahli ma'rifat yumshoq tabiatli va nozik didli bo'lishi kerak... " Sunnatga amal qilmoq - ularning asosiy vazifalaridandir"¹¹. Shuningdek, tavbaning o'zi ham " ikkiga ajratiladi: zohiriy va botiniy tavba. Zohiriy tavba uldiki, so'zda, amalda (jism) barcha gunohlar va yomon ishlardan beri qilinib, toatga yo'naltiriladi; is'yon tark etilib, itoat holi qabul qilinadi. Botiniy tavba esa, qalbning poklanishi bo'lib, zohiriy tavbadan farq qiladi va nafs bilan mujodalada (ko'rashda) to'la muvaffaqiyatga etmoqdir".

Nafs tarbiyasi borasida hazrat G'iloniy aytadilarki, ey inson "Bir ochko'z it Yoki yirtqich qush ochko'zligi, o'z tabiatiga qarshi borib ovni saqlashga o'rganganda (o'zi eb qo'ymay egasiga berganida), sening nafsing ham tabiatini tark etib, diningni eb qo'ymaslikni paroqanda etmaslikni hamda Allohning omonatiga xiyonat qilmaslikni o'rganmaydimi?! Holbuki, nafsning ta'lim olishi it va qushdan ko'ra loyiqroq - ku!¹² Tasavvufda darvesh o'zida itdagi besh sifatni tarbiyalashi zarurligi ta'kidlanadi. It doim och.k. Lekin isyon qilmaydi. Uy - joyi yo'q, to'g'ri kelgan joyda yotadi. Avlodiga meros qoldirmaydi. Kechalari xojasini poylab chiqadi. Xojasi qancha haydasa ham ketmaydi. Ta'lim bermasdan turib, nafsni do'st tutma.

Tarixga nazar solinsa, tasavvufga asos bo'lgan tarkidunyochilik kayfiyati deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. So'fiylikning ilk namoyandalari deb Payg'ambarning Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Ammo islomdagi mistik-asketik oqimning shakllanishi VIII asrning o'rtalari - IX asrning boshlariga tegishli. Bu davrda so'fiylar qatoriga muhaddislar, qorilar, qussoslar, kosiblar, tijoratchilar, jumladan, islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda "so'fiy" Yoki "at-tasavvuf" atamallari hali keng tarqalmagan edi: uning o'rniga zuhd (tarkidunyochilik) Yoki zohid, obid so'zlari ishlatilar edi. Islomdagi bu mistik-asketik oqimning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga musulmon jamiyatidagi ilk ikki asr davomidagi siyosiy-ijtimoiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi, uning natijasida kelib chiqqan ma'naviy-g'oyaviy izlanishlar va boshqa dinlarning, xususan, xristianlikning ta'sirini ko'rsatish mumkin. Uning asosida asketizm, Yani bu dunyo lazzatlaridan voz kechish asosida Allohga etishish, uni bilish, u bilan birlashish yo'lini qidirish yotadi. So'fiylik Qur'on va shariat talab etgan diniy aqidalarni, talablarni albatta bajarish, o'zini so'zsiz Allohning quli deb bilish, ma'lum diniy qoidalarga o'z Shaxsiyatini Shubhasiz bo'ysundirishni qabo'l etmaydi, balki Shaxsiy erkinlik, o'z xohishi bilan tozalanib, ruhiy ma'naviylikka singish orqali komil inson darajasiga erishishga asoslanadi.

⁹ Avliyolar sultoni" T.2004.6 - 9 betlar.

¹⁰ Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. Sirrul asror. Maktubot.T.: 2005.76- bet-

¹¹ O'sha asar. 77 - bet

¹² O'sha asar. 77 - bet

So'fiy, tasavvuf so'zlarining etimologiyasi haqida bir necha xil qarashlar bor. O'lkamizning yirik tasavvufshunoslaridan biri N.Komilov Shunday yozadi: «Ba'zilar bu so'z «saf» so'zidan kelib chiqqan deyдилar, Shunki so'fiy, Iloh yo'liga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba'zi olimlar uni «suffa» so'zidan hosil bo'lgan deb aytadilar: ashobi suffa hazrati Payg'ambar tirikligidayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishilar bo'lib, so'fiylar Shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so'fiy so'zi «safo» so'zidan kelib chiqqan, Shunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. Yana ba'zilar so'fiy «sufuh» so'zidan yasalgan, sufuh – biror bir narsaning hulosasidir, bu jamoa xalqning qo'losasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar. So'fiy so'zi «sof» so'zidan chiqqan deguvchilar xam bor. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Osorul boqiya»sida ushbu so'zni yunoncha «so'f» so'zidan yasalgan deb ko'rsatadi. Ammo ko'pchilik so'fiy so'zi arabcha «suf» so'zidan hosil bo'lgan, degan fikrni bildiradilar. «Suf» so'zining lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir. So'fiylar ko'p hollarda jun chakmon Yoki qo'y terisidan tiqilgan po'stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni “jun kiyimlilar” (forschasi “pashminapo'sh”) deb yuritilgan. Bizningcha, Shu keyingi e'timologik ma'no haqiqatga yaqinroqdir, zero, so'fiy so'zining «suf» so'zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi».

Bu atamaning kelib chiqishini johiliyat davrida ko'p ibodat qilishi bilan nom taratgan Sufa ibn 'Udd ibn Tobixa nomidan olingan deguvchilar ham bor. Ammo islomdan boshqa dindagi Shaxslarni o'rnak qilib olish mumkin bo'lmagani sababli bu talqin maqbo'l emas, deb hisoblovchi tadqiqotchilar mavjud.

Yana N.Komilov o'z ta'rifini rivojlantirib aytadi: «Agar «suf» so'zidan so'fiy yasalgan bo'lsa, o'z navbatida, «so'fiy»dan «tasavvuf», «mustasuf», «muttasuf», «mutasavvif» so'zlari hosil bo'lgan. Mustasuf o'zini so'fiylarga o'xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, molu mulkka intilishdan iborat bo'lgan kishilarga nisbatan ishlatilgan so'z bo'lsa, muttasuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so'fiy darajasiga ko'tarila olmagan kishilardir. Qalban so'fiyona g'oyalarga moyil, tasavvufni e'tiqod – maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o'tamagan, rasman so'fiy bo'lmagan odamlar esa mutasavvif hisoblanganlar.

So'fiylarning o'zini ham Husayn Vo'iz Qoshifiy «Futuvvatnomai sultoni» nomli asarida uch guruhga ajratgan: muoshirlar, mutarasmlar, muhaqqiqlar. Muoshirlar – tariqat ahlining muxlislari va do'stlari dirlar. Ular darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, ularning suhbatida ishtiroq etadilar, xizmatlarini bajaradilar va savobga o'zlarini sherik deb biladilar. «Mutarasm» so'zining ma'nosi darveshlarning rasmu rusumlariga ergaShuvchilar, ammo ular darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalarda, botinan hol talabg'oridirlar va Shu toifaga ixloslari tufayli ilohiy fayzdan bahramand bo'lish umidadirlar.

Sufi Alloyor (1644, Kattaqo'rgon bekligi, Minglar qishlogi - 1724, Denov); - turkiy tasavvuf adabiyotining yirik vakili va Naqshbandiya tariqati arbobi, so'fiy shoir. Buxorodagi Juybor Shayxlari madrasasida ta'lim olgan. O'z davrining an'anaviy hisoblangan barcha ilmlarini egallagan, arab va fors tillarini o'rgangan. Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan bojxonaga ma'mur etib tayinlangan. Sufiyona fe'li, shoirona tabiati tufayli bu lavozimdan iste'foga chiqib, mashhur Shayx Navro'zga murid tushgan, uning kulida un ikki yil tarbiya topib, Shayxlik martabasiga etishgan. Mansabdorlik paytidagi qattiqqo'lligi va o'zgalarga etkazgan zulmlaridan qattiq pushaymonligini baytlarida hamda o'g'liga qilgan nasihatlarida aks ettirgan.

Sufi Olloyor turkiy va forsiy tillarda ijod qilib, unda asosan diniy saviyasi pasayib ketayotgan, axloksizlik va tubanlikka yuz tuta boshlagan, akidaviy masalalarda omi bo'lib, turli soxta ta'limotlar ketidan ko'r-ko'rona ergashib ketayotgan, ruhiy-ma'naviy ozukaga muxtoj keng xalq orasida islom ma'rifatini yoyish va tasavvufdagi inson ma'naviy kamoloti bilan botlik toyalarni tartib etdi. U “Maslaku-l-muttakin” (“Taqvodorlar maslagi”), “Murodu-l-orifin” (“Oriflar murodi”), “Mahzanu-l-mute'in” (“Itoatkorlar xazinasi”) asarlarini forsiy, “Sabotu-l-ojizin” (“Ojizlar saboti”), “Favzu-n-najot” (“Najot tantanasi”) masnaviylari-ni turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa She'rlari ham mavjud. “Mevalar munozarasi” nomli manzuma ham unga nisbat beriladi.

Sufi Olloyorning shox asari “Maslaku-l-muttaqin” 12 ming bayt, 135ta katta-kichik boblardan iborat. Bu kitobning yozilish sabablaridan biri shoir yashagan davrlarda islom dinining odamlar hayotidagi o’rni zaiflashuvi, yuzlab soxta Shayx va eshonlarning “karomatlari” tufayli dinga nisbatan e’tiborning susayishi, natijada axloksizlikning kuchayishi edi. Fors tilida yozilgan mazkur asar el orasida mashhur bo’lib, yaqinlari undan turkiy tilda ham Shunday bir qo’llanma yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban, u “Maslaku-l-muttakin”ni birmuncha kishartirib, turkiy tilda nazmiy asar bitadi va unga “Sabot ul-ojizin” deb nom beradi. Bu kitob akida, shariat va tasavvuf ta’limotlari haqida so’z yurituvchi turkiy falsafiy-didaktik adabiyotining etuk namunasi. Umuman olganda, “Maslaku-l-muttaqin” va “Sabotu-l-ojizin” ikki mustaqil asar bo’lsada, ularda toyaviy va ma’naviy tomondan bir-birini tuldiradigan Ko’plab baytlar uchraydi. Asarda akida masalalariga alohida e’tibor aratiladi. Usha davrda Aftonistondan kirib kelayotgan va aholi orasida keng talqala boshlagan botil so’fiy oqim - ravshaniylarning yot mafkurasining islom ta’limotiga zid ekani asoslab beriladi. 1806 yili tatar olimi Tojiddin YO’lchitul ug’li o’zining Aziza ismli kiziga atab “Sabotu-l-ojizin” asariga “Risolai Aziza” nomli sharx yozadi. Bu sharx orqali Sufi Olloyor butun turk dunyosida tanildi. Sufi Olloyor birinchi navbatda yirik ilohiyotchi va fakih Abu Xanifa an’analarini omma orasida talqatishda faol ishtiroq etgan din arbobi edi. Asarlarida islom axkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birma-bir ta’riflab bergan. Xususan, “Maslaku-l-muttaqin” va “Sabotu-l-ojizin” asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida ukitilib kelingan. Uning tasavvufiy ruhdagi pandu hikmatga yo’g’rilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Qashhardan tortib Volga, Ural daryolari xavzalari, Astraxan, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng talqalgan va Ko’p nusxalarda ko’chirilgan. XIX asrning oxirlariga kelib esa, Toshkent, Kozon, Boku, Istanbo’l va boshqa shaharlarda toshbosma yo’li bilan bir necha marta chop etilgan.

Islom dinining keng hududlarga kirib borishi va tarqalishi mahalliy aholi hayotini tubdan o’zgartirdi va o’ziga xos madaniyatning shakllanishiga to’rtki bo’ldi. Turli diniy oqimlar va qarashlar, Shu jumladan, so’fiylar qatlami yuzaga keldi. Bu esa azaldan komil inson tushunchasi asosiy e’tiborda turgan Sharqona urf-odat va qonun-qoidalarni Yanada mustahkamladi.

Islom madaniyatiga yirik tasavvuf allomalarini etkazib bergan Markaziy Osiyo maktabi faoliyati XII asrdan to XX asr boshlarigacha o’lka ijtimoiy hayotida o’zining Yuqori mavqeini saqlab qola oldi, desak xato bo’lmaydi. Bu maktab o’z taraqqiyoti davomida paydo bo’lish, mahalliy madaniyat bilan uyg’unlashish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda etakchilik qilishdek bosqichlarni bosib o’tdi.

Ahmad Yassaviy (1105-1166/67), Abduholiq G’ijduvoni (1103-1179), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389), Alouddin Attor (vaf. 1400), Xoja Muhammad Porso (1345-1420), Pahlavon Mahmud (XIV asr), Xoja ‘Ubaydulloh Ahror (1404-1490), Mir Alisher Navoiy (1441-1501), Maxdum-i A’zam Kosoniy-Dahbidiy (vaf. 1542), Lutfulloh CHustiy (vaf. 1571), Boborahim Mashrab (1640-1711), Dukchi Eshon (vaf. 1898) kabi tasavvuf ilmini nazariy va amaliy jihatdan boyitgan buyuk mutafakkirlarning fikrlari, ularning mamlakat hayotida faol qatnashgan etuk tarixiy Shaxslar sifatidagi diniy, ma’naviy-ijtimoiy va siyosiy qarashlari, albatta, bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

Movarounnahrda islom dini mustahkam mavqega ega bo’lgach, bir tomondan, turli diniy ta’limotlar, xususan, kalom maktablari yuzaga keldi, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda asosiy e’tibor tafsir, hadis va fiqh ilmlariga qaratildi, ikkinchi tomondan esa islomiy ilmlar rivoji mazkur hududda tasavvuf oqimining yuzaga kelishi va keng tarqalishi uchun asosiy omil bo’lib xizmat qildi. Musulmon Sharqi mamlaqatlari ijtimoiy va ma’naviy hayotiga chuqur kirib borgan tasavvuf ta’limoti fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta’sir ko’rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g’oyalaridan ruhlanganlar. Shuni nazarda to’tib, atoqli olim E. E. Bertel’s qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o’rganmasdan turib, o’rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo’lish mumkin emas bu adabiyotdan xabardor bo’lmasdan Sharqning o’zini ham anglash qiyin».

Tasavvuf ta'limoti Movarounnahr madaniyati va adabiyoti ilmi ta'sirida taraqqiy etgan va yangi xalq g'oyalari shakllanishiga to'rtki bo'lgan. Shunga ko'ra, Movarounnahrning islom madaniyatida tasavvufning tutgan o'rni beqiyosdir. Shu paytga qadar tasavvuf ta'limoti, tarixi va ilgari surgan g'oyalari haqida ko'plab mahalliy olimlar samarali mehnat qilganlar. Jumladan, Sharqshunoslar N.Komilov, I.Haqqulov, Orif Usmon, S.G'anieva, B.Nazarov, B.Bobojonov va boshqa bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Takya va uning mazmun mohiyatini ayting.
2. Tariqatning qiyofalari va ularning mistik timsollarini tushuntiring.
3. Xirqa kiyish an'anasi nima?
4. Kuloh, po'stak, a'lam – tariqat qiyofasi sifatida nimani anglatadi?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Bilishning tasavvufiy nazariyasi.
2. Tariqat yo'lidagi holler va manzillar.

11-MAVZU. YIRIK TARIQATLAR VA ULARNING ASOCHILARI.

Reja:

1. *Ilk davr so'fiy tariqatlari.*
2. *Keyingi davrlardagi tariqatlar va ularning asoschilari.*
3. *Qodiriya. Yassaviya. Naqshbandiya. Xilvatiya. Mavlaviya. Kubroviya. Bayramiya.*
4. *Tariqatlarning hozirgi zamon holati.*

Tayanch tushunchalar: *Ilk davr, tariqat, keyingi davr, tariqat asoschilari, Qodiriya. Yassaviya. Naqshbandiya. Xilvatiya. Mavlaviya. Kubroviya. Bayramiya, hozirgi zamon.*

Tasavvuf ta'limoti yaxlit ta'limot sifatida hozirgi arab mamlakatlari hududida vujudga kelgan, Markaziy Osiyo da esa so'fiylik IX - XI asrlarda tarqalgan. Musulmon Sharqida tasavvuf ilmi va harakati muntazam tadrijiy taraqqiyotda bo'lgan. Tasavvuf ilmining negizlari payg'ambar hayotligida paydo bo'lgan va tasavvufning barcha tariqatlari o'zlarini aynan Muhammad payg'ambar bilan bog'laydilar. Muhammad payg'ambar ta'limoti oddiy tilda ilmi safina - kitobiy bilim va ilmi siyna - dildagi bilim deb ataladi. Birinchisi ulamolarning doktrinal ta'limotida bo'lsa, ikkinchisi so'fiylarning qat'iy ezoterik, mistik ta'limotida mujassamlashgan.

Tasavvuf ravnaqini bir necha davrlarga bo'lish mumkin: zohidlik - VIII asr; Obidlik, oriflik – IX asr o'rtalari – X asr; XI - XII asrlar tasavvuf maktablari va silsilalarining tarkib topishi. Islomning ilk davrida «at - tasavvuf» va «as - so'fiy» iboralari keng tarqalmagan. Ularning o'rniga odatda «zuhd» (tarkidunyochilik, faqirlik, dunyoviy orzu - havaslardan voz kechish), «zohid» Yoki Shunga yaqin, «obid» (ibodatchi) so'zlaridan foydalanilgan.

Mistik zohidlik yo'nalishining rivojlanishi VII - IX asrlarda ro'y bergan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan chambarcha bog'liqdir. Shuning uchun, musulmonchilikdagi mistik - asketik yo'nalishning kuchayishini arab kibar urug'lar hoqimiyatiga, ilk ta'limot g'oyalari ning asta - sekin uzoqlashib ketayotganiga, axloqning tubanlaShuviga nisbatan munosabatni ifodaladi.

Hijriy III asr oxiri - IV asr boshlarida Abu Nasr Forobiy tomonidan yaratilgan va keyinchalik islom falsafasi deb nomlangan falsafa ilmining shakllanishigacha tasavvuf o'zining an'anasiga va mustahkam asoslariga ega bo'lib qolgan ta'limot edi. Tasavvuf, shariat va falsafa munosabatlari ma'lum darajada shakllandi va jamiyatning ijtimoiy - siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsata boshladi

VIII asrning ikkinchi – IX asrning birinchi yarmida ilohiyot va tasavvuf o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar XII asrda asosan bartaraf etilgan. Musulmonlar orasida so'fiyona dunyoqa rash kengroq yoyila boshlagan. Shu bilan birga, tasavvufda mo'tadil, keskin ekstatik hamda

panteistik oqimlar yaqqol ko'zga tashlana borgan. Tasavvufning shakllanishida va keyingi nazariy - g'oyaviy takomillaShuvida «xonaqoh», (zoviya, rabot) instituti katta rol o'ynagan. Darvesh so'fiylarni birlashtiruvchi markaz sifatida «xonaqoh» ilk bor Sharq musulmon olamida IX - X asrlar oralig'ida Xurosan va Movarounnahrda, keyinroq G'arbiy Eron, Iroqda, Suriyada va Misrda, Shuningdek, Hindistonda paydo bo'lgan. X asr oxiridan boshlab «ustoz - shogird» (murshid - murid) instituti shakllangach doimiy harakatdagi xonaqohlar paydo bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan Sharqdagi ba'zi xonaqohlar avliyo - pirlarning ziYoratgohlariga aylangan.

IX - XIII asrlar ni tasavvuf ta'limotining mumtoz davri, XIV - XV asrlar ni esa uning oltin davri deb tavsiflash mumkin. Shunki, bu davrga kelib, Mavoraunnahrda va Xurosandada Naqshbandiya keng yoyilib gullagan davr bo'ldi. Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Umuman, XV asrdan keyin tasavvufning nazariy - falsafiy jihati so'na boshladi

Tasavvuf ta'limoti dunyoqarashiga oid murakkab va ziddiyatli bo'lgan jihatlari tadqiq etilgan. So'fiy uchun mutlaq borliq sifatida Allohning mavjudligi isbot talab qilmaydigan (aksioma) haqiqatdir. Masalaning tub mohiyatini nazariy bilish tashkil etadi. O'rta asrlar g'oyaviy - falsafiy hayotida ikkita bir - birini inkor qiluvchi ta'limot mavjud edi: biri aqidaviy kalomga asoslangan ortodoksal islom, ikkinchisi aql imkoniyati va qudratidan kelib chiqadigan dunyoviy bilimga suYanadigan falsafa. Ikkinchi oqim ma'lum darajada tasavvufda rasmiy din me'yorlaridan chiqish mumkinligini hisobga olgan uchun hurfikrlilik manbai edi. Shu boisdan g'oyaviy falsafiy oqimlarning ontologik ildizlari har xil edi.

Tasavvufni mifologik, diniy - irfoniy va ilmiy anglashlar uyg'unlashgan, islom dini tarkibida vujudga kelgan tarafdorlaridan maxsus tayYorgarlikni talab etuvchi alohida ta'limot ekani asoslangan.

So'fiylik amaliyotida muridda (shogird) ro'y berishi mumkin bo'lgan «hol» - o'zligini uno'tish darajasi ustoz (murshid) rahbarligida, ba'zi kishilarda esa kutilmaganda g'ayritabiiy tarzda ham paydo bo'lishi mumkin.

So'fiylik borliq, ong va jamiyat taraqqiyoti muammolarining noan'anaviy echimlarini ijodiy va kreativ izlab topishga intilish sifatida yuzaga kelgan. Olamning yaratilishi masalasida faylasuflar va mutakallimlar orasidagi farqni quyidagicha ifodalash mumkin: faylasuflar Xudoni birinchi sabab deydilar, lekin ulardan ba'zilari bu ta'rifdan chetlab o'tib, xudoni Yaratuvchi deb ataydilar, Shunki, deydi ular, - agar uni birinchi sabab deyiladigan bo'lsa, Shuning o'zi bilan oqibatning mavjudligi tan olingan. Bular edi, bu esa olamning abadiy emasligi g'oyasini tan olishga olib keladi.

IX - XIII asrlarda tasavvufning ontologik konsepsiyasi asosi - vahdat al - vujud, Yani Alloh va olamning birligi to'g'risidagi ta'limot yaratildi. Vahdat al - vujud ta'limoti tanqidi natijasida yuzaga kelgan Vahdat ash - Shuhud ta'limoti asosini Alloh - yagona, abadiy, olam esa U tomonidan yaratilgani g'oyasi tashkil etadi. Bu esa an'anaviy falsafada dualistik dunyoqarash deb ataladi. Undan kelib chiqadigan qo'losa Shuki, Allohning bu olam bilan hech qanday birligi yo'q. Bu ikki ta'limot o'rtasidagi farqlarni Shunday izohlash mumkin: Vahdat al - vujud - zot va vujud bir xil; sifat va zot aynidir; olam - sifatlarning ma'lum bo'lish va yuzaga kelishidan iborat; olam xayoldir, ammo Alloh bor, Yani Alloh olamdir; olam soyadir, lekin soya Allohdur; Alloh - inson munosabatlari yaqinlashish jarayonidir; yaratilish sababi ilohiy ishqdir. Vahdat ash - Shuhudda esa vujud zotdan boshqa narsa bo'lib, u birinchi yaratilgan unsur; sifatlar zotdan farq qilib, zot vujud bilan tashqarida mavjud bo'lib, zotning soyalaridir; olam sifatlarning emas, ularning soyalari tajalliysidir.

Tasavvufning ontologik ildizlari islom zamirida shakllangani uchun ilk o'rta asrlarda u Sharqona tus olgan. Bu esa diniy ta'limot bazasining Sharqda kengayishiga imkoniyat yaratib berdi. So'fiylar jamoadan uzoqlashishga emas, balki jamoa bilan birga bo'lishga, ochko'zlikdan, kibrdan, odatlarga ko'r - ko'rona bo'ysunishdan, Yuqori tabaqadagi Shaxslardan qo'rqishdan xalos bo'lishga chorlar edilar. Odam qancha urinmasin Alloh sifatlarini bilishga qodir emas. Raqionalistlar faqat mantiqqa suyanib haqiqatga erishish mumkin deb o'ylaydilar. So'fiylar esa

bu haqiqatga faqat intuiqiya Yordamida erishish mumkin deb ta'kidlaydilar. Abu Homid G'azzoliy esa bu ikki yonda Shuvni uyg'unlashtirishga intildi.

So'fiylikning turkiy silsilasi asoschisi Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi tarixiy - falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilingan. Uning She'rlarida fano va baqo, harom va halol qayta - qayta tilga olinadi. Yassaviy o'zining hikmatlarida insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo'lida fidoyilik, e'tiqodda sobitlik, hayotda halollik, poklikni tarannum etadi. Uning «Faqrnoma» asariga Yassaviylik tariqati aks etgan nazariy manba deb qaraladi. Risolada darveshlik maqomining 40 ta sharti ko'rsatilgan. «Va ul qirq maqomdin o'n m aqom shariatda turur va o'n maqom tariqatda turur va o'n maqom ma'rifatda turur va o'n maqom haqiqatda turur», deyiladi. Yassaviy hikmatlarining botiniy mazmunida tasavvuf ta'limotining insonni kamolotga chorlovchi g'oyalar mujassamlashgan. Ular barkamol avlod Shaxsi ni shakllantirish siyosatini amalga oshirishda dolzarbligicha qolmoqda. Musulmon Sharqida Xojai Jahon unvoniga sazovor bo'lgan mashhur shayh xojagon tariqatining asoschisi Xoja Abduholiq G'ijduvoni ta'limotining asosini ilm o'rganish, bilimlarni, kasb - hunarni egallash, halol mehnat bilan rizq topib yashashga da'vat etish tashkil etadi. «Vasiyatnoma» da keltirilgan hikmatlar Shundan dalolat beradi. Xoja Abduholiq tasavvuf ta'limotini har tomonlama boyitib, amaliyotiga zikri xafiyini olib kirdi. Xojagonlik tariqatining sakkiz qon un - qoidasini shakllantirib berdi. Kelgusida G'ijduvoniyan quyidagi vorislik zanjiri davom etadi: Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjirfag'naviy, Xoja Azizon Ali Romitoni, Xoja Muhammad boboyi Samosiy, Xoja Sayid Amir Kulol Buxoriy, Xoja Muhammad Bahouddin Muhammad Naqshband. Tasavvufning islom ola mida keng tarqalishi va rivojlanishida va ijtimoiy hayotga uyg'unlaShuvida Naqshbandiya tariqatiga asos solgan Bahouddin Balogardon Muhammad Jaloliddin muhim roly o'ynagan. Tariqatning Yuqorida ko'rsatilgan sakkizta rashhasiga u Yana Vuqufi zamon, Vuqufi adadiy, Vuquf i qalbiy kabi uchta shartni ham joriy qilgan. Bu so'fiylik ta'limotiga binoan hayotning mazmunini Haqiqat (Alloh)ga erishish uchun intilishdir va unga erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim tariqat jarayonida yuz beradi. Tariqat inson Haqiqatga erishish uchun inson qanday to'siqlarni engishi lozimligini belgilaydi. Tasavvuf zamirida «O'zini bilgan odam Allohni biladi» degan tamoyil yotadi. O'zini o'zi anglash Allohni bilishning eng qisqa yo'lidir. Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot asosidagi «Dil ba Yoru, dast ba kor», degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no - mohiyatini Yorqin ifodalaydi.

Xorazmlik mashhur Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissalar katta. Qubroviya tariqati, uning ko'p xalqalari Najmiddin Kubrodan boshlanadi. Uning shogird - muridlari qatorida Majididdin Bag'dodiy, Farididdin Attor, Najmiddin Roziy, Kubro so'fiylik maktabining davomchisi Sayfiddin Boharziy kabi alloma Shaxslar bor edi. Shuning uchun ham u el orasida Valiytarosh degan unvonga sazovor bo'lgan. Qubroviya tariqatining qoidalari o'nta – Tavba, Zuhd fid - dunyo, Tavakkul, Qano'a, Uzlat, Mulozimot az - zikr, Tavajju', Sabr, Muroqaba, Rizo, ular musulmon ahlining e'tiqodini tarbiyalash va shakllantirishga qaratilgan. Ushbu qoidalar tasavvuf tariq atlari yo'lga kirgan barcha kishilar uchun zaruriy bo'lib, Solik albatta o'z hayoti davomida rioya qilib borishi zarur.

Qubroviya tariqatidagi bu qoidalar Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarida ham o'z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyo dan chiqqan buyuk mutafakkir olimlarning tasavvuf ilmiga munosabatlari va ularning ilmiy faoliyati natijalarining bunday ezoterik dunyoqarash taraqqiyotiga ta'siri ochib berilgan. Bobda O'zbekiston hududida etishib chiqqan buyuk olimlarning tasavvuf ilmiga aloqador pozitsiyalari tadqiq i davomida u lar har xil bo'lgan i aniqlandi. Masalan, Abu Nasr Forobiy Alloh irodasini faqat yaratish faoliyati bilan cheklab, olamning yaratilishida Unga faqat ilk sabab rolini beradi. Keyingi taraqqiyotni esa u ob'ektiv qonunlar harakati bilan bog'lab tushuntirgan. U soxta so'fiylarning fikrlarini «saodatga zid shaharlar» kishilarining fikrlari sifatida misol keltiradi. So'fiylarning tarkidunyochilik g'oyalarini rad etadi, ularni johillar shahriga tegishli deb hisoblaydi. Uning "Aflotun qonunlar mohiyati" (Talqisu navomisi Aflotun) nomli asaridagi fozil odamlar jihatlarini to'g'risidagi fikrlari tasavvuf ta'limoti tamoyillaridan farq qilmaydi .

Tasavvuf ta'limotiga nisbatan munosabat Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ular allomaning dunyoqarashi bilan bog'liq. Panteistik g'oyaning ustuvorligi Ibn Sinoning tasavvuf ramzlariga murojaati, orif so'fiylarning barchasini keng ommaga namoyon qilishi, dunyoqarash sifatida materiyaning ma'naviy jihatdan falsafiy shakllariga ancha yaqinlashganida yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun u so'fiylarni «haqdagi birodarlar» deb ataydi. Ibn Sino haqiqat izlovchilarni uch toifaga ajratadi: zohidlar – o'z nafsigga qarshi jihod e'lon qilgan so'fiylar; obidlar – shariat urf - odatlari va marosimlarini qat'iy mukammal ado etish orqali haqiqatni bilishga intiluvchilar; o riflar – Allohni intellektual (aqliy) yo'l bilan bilish va unga erishish tarafdorlari – gnostiklar. Ularning umumiy yo'nalishi – hissiy olamdan qutilib, ma'naviy, ruhiy olamga qo'shilishga erishishdir.

Ibn Sinoning tasavvuf ilmiga munosabati naqadar salmoqli bo'lgani uchun uni «shayhur rais» deb atashgan. Uning ilmiy qo'losalari, qarashlari tasavvuf ilmi, ayniqsa, uning panteistik yo'nalishining rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Buyuk ajdodlarimizdan Yana biri Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati ham tasavvuf ta'limoti taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Beruniy tasavvuf asoslari tadqiqi bilan Hindistonda yashagan vaqtlardan boshlab yaqindan Shug'ullangan. Abu Rayhon Beruniy so'fiylarning xudo, olam, inson to'g'risidagi g'oyalari bilan chuqur tanish bo'lib, hind xalqining diniy qarashlari sufizm bilan aloqadorligini, yoga tizimidagi ko'plab xatti - harakatlar, tamoyillar, hayot kechirish tarzlaridagi o'xshashliklarni o'zining «Kitob patanjali - hindi fi - l - xalas minalal - amsal» asarida tahlil qilib bergan. Mutafakkirning «so'fiy» atamasi «faylasuf» i borasining so'nggi bo'g'inidan olinganligi to'g'risidagi fikrlari ham, keyinchalik fanda rad etilganiga qaramay, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U so'fiylarni «donishmandlar» deb ataydi. Bu esa mutafakkirning falsafiy dunyoqarashni tasavvuf bilan muvofiqlashtirishga intilganidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda yashab, faoliyat ko'rsatgan, asarlarida tasavvuf ta'limotiga o'z munosabatini va qarashlarini ochiq - oydin namoyon qilgan, Markaziy Osiyo ga bevosita aloqador mutafakkirlardan Yana biri Umar Xayyom tasavvuf tafakkuri tarixida chuqur iz qoldirgan.

Umar Xayyomning tasavvufga munosabati qator ruboiylarida o'zining Yorqin aksini topgan. U G'iyosiddin, Yani dinga ko'makchi degan taxallusga musharraf bo'lgan. Umar Xayyom – yagona Alloh uchun nazarda tutilgan taqdirga ega bo'lgan Shaxsiy «Men» bilan birga Shaxsiy hayot hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ham ta'kidlovchi panteistdir. Bobda so'fiylar monistik panteizmi – Vahdat al - vujudning bir tomondan, teizmga, ikkinchi tomondan, naturalistik panteizmga muholiflikda shakllangani asoslangan. Panteizm Alloh g'oyasini olam mohiyati ichra singdirib yuborib, ortodoksal islom va tasavvuf ta'limoti o'rtasida bu masalada ixtiloflarni yuzaga keltirgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilk davr so'fiy tariqatlarini ayting.
2. Keyingi davrlardagi tariqatlar va ularning asoschilari nimadan iborat?
3. Qodiriya. Yassaviya. Naqshbandiya. Xilvatiya. Mavlaviya. Kubroviya. Bayramiyalarning mohiyatini ayting.
4. Tariqatlarning hozirgi zamon holati qanday?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Bilishning tasavvufiy nazariyasi.
2. Tariqat yo'lidagi hollar va manzillar.

12-MAVZU. NAQSHBANDIYA TARIQATI VA UNING ASOSLARI.

Reja:

1. *Xojagon tariqatining paydo bo'lishi.*
2. *Xojagon pirlari.*
3. *Xojagon tariqatining Naqshband tomonidan rivojlantirilishi.*

4. *Rahshalar va ularning o'ri.*

5. *Tariqatning yashovchanligi sabablari.*

Tayanch tushunchalar: *Tavhid masalasi, mavhidning darajalarini, nubuvvat va valoyat, xotamul avliyo, karomat, botiniy ilm, ilmi laduniy.*

Naqshbandiya tariqati ta'limoti nuqtai nazaridan turib masalaning metodologik jihatlariga e'tiborimizni qaratsak. Shu paytgacha biz umumiy metodologik tamoyil va qoidalarga e'tiborimizni qaratgan bo'lsak, endi xususiy Yoki maxsus metodologik tamoyil va qoidalarni ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, mamlakatimizda naqshbandiyagacha mavjud bo'lgan ko'plab tariqatlar (kubraviya, Yassaviya, qodiriya va h.k.) bugungi kunda silsilalari qarayib yo'qolib bormoqda. Naqshbandiya tariqati esa bugungi kunda ham nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Buning sabablari nimada? Bu savolga javoblar ko'p bo'lishi mumkin. Biroq biz metodologik nuqtai nazaridan turib javob beradigan bo'lsak, mazkur tariqatning metodologik tamoyillari aslida to'g'ri qo'yilganida, mazkur tamoyillarning har qanday tuzum va zamonlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmaganida, har qanday davrda ham ularni hayotda qo'llash mumkinligida, qolaversa, "Qur'on" va hadislarda ilgari surilgan g'oyalar bilan mushtarakligida yotadi.

Shu o'rinda muhim bir narsaga e'tiborni qaratmoqchimiz. E'tiqod masalasi islomda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Shu masala mo'minni kofir Yoki munofiqdan ajratib turadi. Islomiy e'tiqodning eng yuksak cho'qqisi tavhididir. Tavhid islomni boshqa barcha diniy e'tiqodlardan ajratib turadi va uning to'g'ri e'tiqod ekanligini isbotlaydi. Umuman aytganda, e'tiqod bo'yicha chiqarilgan har qanday aqidaviy qoidalar tasavvuf psixologiyasini o'rganish uchun metodologik ahamiyat kasb etadi. Bu fikrimizni bitta misol bilan isbotlashga harakat qilamiz. Tasavvufda "hulul" degan tushuncha bor. Ba'zi mutasavviflar Alloh avliyoga hulul etadi, degan fikrni bildirishadi. Ba'zida avliyo ruhi Alloh bilan qo'shib ketadi, deyishadi. Shu o'rinda Turkiyalik professor Ibrohim Ogoh CHubukchining "Halloy" maqolasidagi quyidagi satrlarga e'tiborni qaratish lozim: "Halloyning tasavvufiy qarashlari orasida quyidagi xususlar diqqatga sazovordir. 1. Tangri insonga hulul etadi, Yani insonning ichiga kiradi. Boshqacha aytganda, lohut nosutga kiradi. Bu degani ilohiy zot insoniy zotga kirishi mumkin..."¹³. Agar Shu da'vo to'g'ri bo'lsa, Halloyning e'tiqodiy masaladagi katta xatoga yo'l qo'yganligi ayon bo'ladi. Bunday g'oyalarning barchasi botildir.

Sultonmurod Olimning quyidagi fikriga e'tiborimizni qaratamiz: "...komil insonlar pirovardida, Shubhasiz, Olloh vasliga musharraf bo'ladilar, ruhan tangri bilan birlashib ketadilar, vahdat, Yani birlikka erishadilar"¹⁴. Agar Yuqoridagi gaplar insoniy tasavvurda aytilgan bo'lsa, hululga yaqin holat bo'lib qoladi va u ham botildir.

Bu haqda naqshbandiya tariqatining pirlaridan biri Ahmad Ziyouddin al-Kumushxonaviy hazratlari Shunday deb yozadi: "Tasavvuf ahlining ba'zilarining so'zlaridan hulul va ittihad (birlashish) ma'nosi anglashiladi. Ammo bu xato tushunchadir. Alloh ba'zi do'stlariga (valiy bandalariga) karomatlar beradi, ammo buning na ittihadga, na hulul qilishga va na vahdati vujudga aloqasi bor – hech biriga hech qanday aloqasi yo'q"¹⁵. E'tibor berib qaralsa, muhim e'tiqodiy masala bevosita tasavvuf ta'limot bilan uzviy aloqada ekan. Tasavvuf ta'limotining Shu masaladagi og'ib ketishi uni botil ta'limotga aylantirib qo'yishi mumkin ekan. Demak, bu o'rinda umumiy metodologik holat kuzatilayapti.

Ahmad Ziyouddin al-Kumushxonaviy hazratlari boshqa bir o'rinda mazkur masala to'g'risida bundanda batafsilroq fikr yuritadi: "... ba'zi mutasavviflar ham: "Solik g'oyaga (maqсадiga) etgach, yosh niholga suv hulul etganidek, Alloh ham unga hulul etadi, ajratish

¹³ Chubukchi Ibrohim Ogoh. Halloy./ / "G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar".- T.: "O'zbekiston", 1994. - 335 bet. – 60-bet.

¹⁴ Sultonmurod Olim. Xoja Bahuddin haqiqati. – Namangan. 1994. - 40 bet. – 9-bet.

¹⁵ Ahmad Ziyouddin al - Kumushxonaviy. Jome' ul-mutun. – T.: "Movarunnahr", 2000. - 313 b. – 44-bet.

mumkin bo'lmaydi, Shunda: "Men Uman, U mendir" deyishi mumkin..." deyishadi. Ularning fikricha, bu qo'shiluv, yo ittisol (bog'lanish), yo ijtimoi' (jamlanish), Yoki istihola (holdan qaytish) yo'li bilan bilan bo'ladi. Alloh bu kabi hollardan munazzahdir. Bular da'vo qiladigan ittisol va ijtimoi' kabi hollar aslida Allohning nuri solikning qalbida aks etmog'idan iborat. Ular buni hulul deb (kirib o'rnashish) deb o'ylaydilar. Suvga qaragan bir bola o'zining aksini ko'rganda, "Shu quyosh" degani kabi bu..."¹⁶. Tasavvufdagi hulul masalasini bundanda mukammal qilib tushuntirish qiyin. Darhaqiqat, inson o'zini o'zi tarbiya qilib, lazzat va shahvatlarga berilmay sabr qilsa, aybu nuqsonlaridan poklansa ilohiy nur uning ruhiga singadi. Hululning chegarasi Shu erda tugaydi. Shuning o'zi ham o'ta Yuqori martaba hisoblanadi. Bu o'rinda bizning nasibimiz nimada? Masalan, hulul masalasidagi e'tiqodiy to'g'ri echim metodologik ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, tasavvuf psixologiyasidagi barcha hollar uchun umumiy axloqiy qoida hisoblanib, solik bunday hollarni boshidan kechirganda kufrga yuz tutmasligining oldini oladi, to'g'ri yo'ldan ketish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, e'tiqod masalasini o'rganadigan aqid ilmi tasavvuf psixologiyasi uchun metodologik ahamiyat kasb etadi. Agar solik Yoki tasavvuf psixologiyasini tadqiq etayotgan tadqiqotchi e'tiqodiy qoidalarni metodologik tamoyil sifatida qabul qilsa, Shu tamoyillardan kelib chiqqan holda tasavvufga kirsam Yoki tasavvufning psixologik jihatlarini tadqiq etsam, albatta adashmaydi, yo'lini to'g'rilab oladi.

E'tiqod ilmining tasavvufni tadqiq qilishda metodologik tamoyil bo'lishligi masalasida Xoja Abduxoliq G'ijduvoni o'zining "Vasiyatnoma" risolasida Shunday deb yozadi: "Yuraging g'amgin, tanang salqi va quvvatsiz, ko'zing yoshli, ishing riyodan xoli, kiyiming juldur, diling pok, do'stlaring darvish, xonaqong – masjid, **asosing – e'tiqod ilmi** (ta'kid bizniki – X.A.), ziynating – dunyo ne'matlaridan tiyilish, hamsuhbating mudom Alloh bo'lmog'yi darkor"¹⁷. Bu o'rinda Hazrat Abduxoliq G'ijduvoni tariqatning asosini e'tiqod ilmida ko'rayapti. "Asosing" deganda u kishi tariqat ta'limotining metodologik jihatini nazarda tutmoqda.

Endi naqshbandiya tariqatining yashovchanligi masalasini ko'rib chiqaylik. Mazkur masalani oydinlashtirish barobarida muhim metodologik tamoyillarga etib kelamiz. Ma'lumki, naqshbandiya tariqatining eng muhim talablaridan biri halollikdir. Bu boshqa tariqatlarda ham mavjud. Biroq naqshbandiyada bu masala yuksak darajada tarannum etiladi. Halollik tariqatning keyingi bosqichlari uchun poydevor vazifasini o'taydi. Keyingi barcha qoidalar mana Shu poydevor ustiga quriladi. Bu haqda Amir Kulolning mashhur gaplari bor: "Bilginki, dil va tilning pokligi luqmai haloldandir. Odamning oshqozoni xuddi hovuz kabidir, unga toza suv quymoq lozimdir. Bu pok suv va tuproqdan hosil bo'lgan har bir gul va meva albatta pok va foydali bo'lur"¹⁸. Amir Kulolning mazkur so'zlarini sharhlar ekan, M.Rahmonova Shunday deb yozadi: "... bu erda mutasavvif "dil va tilning pokligi luqmai haloldandir" deb ta'kidlash bilan luqmai halol inson ma'naviy va ahloqiy pokligining belgilaridan biri, deb hisoblamoqda. Ikkinchidan, pok suv va tuproqdan hosil bo'lgan har bir gul va meva foydali bo'ladi, deb halol luqma insonni jismoniy jihatdan ham pokiza etishga ishora qilmoqda. Uchinchidan, faqat luqmai halol iste'moli bilan kun kechirgan insonlardagina qalb ko'zi ochilishi imkoniyati bo'lishini ta'kidlamoqda"¹⁹. Halollik to'g'risida bundanda ziyodaroq qilib gapirish qiyin. Demak, halollik ham metodologik qoida hisoblanadi, Yani Shu qoidani saqlamasdan yo'lga chiqish behuda, nohalollik solikni botil yo'llarga og'ib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan keyingi naqshbandiya tariqatining muhim metodologik qoidalaridan biri mashhur "Dil ba Yoru, dast ba kor" qoidasi. Fikri ojizimizcha, aynan mana Shu metodologik qoida mazkur tariqatni o'zga tariqatlarga nisbatan yashovchan qilib qo'ydi. Bu qoida insonning Shu

¹⁶ O'sha asar, 121-bet.

¹⁷ Xoja Abduxoliq G'ijduvoni. Vasiyatnoma. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – 15 bet. – 15-bet.

¹⁸ Safarova N. Xojagon tariqati. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2003. – 87 bet, 56-bet.

¹⁹ Rahmonova M. Xojagon – Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotida "halol" tushunchasi. // "Orif Deggaroniy – Markaziy Osiyo tasavvuf ta'limotining buyuk valiyi" respublika ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. – Navoiy, 2007. 140 bet, 73-75-betlar.

foniy dunyoda qanday yashamogʻi kerakligi toʻgʻrisidagi “Qurʻon” va hadislarda bayon etilgan qoidalar juda ham mos tushadi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol mehnat qilib, qalbidagi nuqsonlarni yoʻqotib, Allohni unutmasdan, doim Uning zikrida boʻlib hayot kechirishlikni targʻib qilib kelgan. Mutaasibchilik, darvishchilikni, uzlatga chekinib, oila, bola-chaqani boqishdan uzoqlashib yurishlikni tanqid ostiga oladi. Odatda bu qoidani qoʻl mehnatda boʻlishi kerak, dil Alloh yodi bilan boʻlishi kerak, deb joʻn tushunadiganlar ham bor. Aslida bular ikkalasi oʻrtasidagi aloqani hech qachon esdan chiqarmaslik kerak, Yani Allohni yod etib birorta ish qilinadigan boʻlsa, bu ish barakatli boʻladi, rivoj topadi. Tarixchi olim Zokirjon Quttiboevning quyidagi gaplari bilan qoʻshilmasdan ilojimiz yoʻq: “Naqshbandiya tariqatning Yana bir qoidasiga Xoja Ahror doimo rioya qildi. U ham boʻlsa, “Dast ba kuru, dil ba Yor!”, Yani qoʻling ish bilan, qalbing Alloh bilan boʻlsin! tamoyili. Tariqatning mana Shu tamoyili Xoja Ahror tomonidan Yanada rivojlantirildi, Shunki Allohni yod etib qilingan ishda rivoj, baraka va samara boʻladi”²⁰. Darhaqiqat, Allohni dilda saqlagan holda, doimiy yod qilgan holda mehnat qilish naqshbandiya tariqatining eng muhim nuqtasi hisoblanadi. Bunday maqomga oddiy mehnatkashlar ham etishi mumkinligi mazkur tariqatni ommalashtirib yubordi va uning yashovchanligini taʼminladi.

Naqshbandiya tariqatining Yana bir muhim psixologik jihati zikr masalasidir. Maʼlumki, doimiy holda Allohni yodda tutish, Yani zikrda yurish mazkur tariqatning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat tariqat ahli “zikri aloniyani”, Yani jahriy zikrni oʻz amaliyotlarida qoʻllashar edilar. Masalan, Xoja Ahmad Yassaviy tariqatida “zikri arra” qoʻllanilar edi. Bu zikr jahriy zikrning bir koʻrinishlaridan biridir. Qolaversa, baʼzi soʻfiylar samoʻ va hatto zikr qila turib raqsga ham tushardilar. Bunday yoʻlni, masalan, Jaloliddin Rumiy tomonidan asos solingan mavlaviya tariqatida tutishar edi. Ular Alloh ismini Yoki tavhid kalimasini ovozlarining boricha qoʻshiq qilib aytishar va raqsga tushishardilar. Jahriy zikr, raqsu samoʻ har qanday joyda Shugʻillanish imkoniyati nuqtai nazaridan xalq uchun bir qadar qiyinchilik tugʻdirar edi.

Naqshbandiya taʼlimotida esa zikri xufiya joriy qilingan edi. Bahouddin Naqshband hazratlari Shunday der edilar: “Hazrati Azizondan ikki xil zikr naql qilinadi. Unga Allohning rahmati va rizoligi boʻlsin. Biri – jahriy va biri – xufiya. Xufiya zikri kuchli va avlo boʻlgani uchun biz uni ixtiyor qildik”²¹. Murid ismi zot (Alloh)ni va nafyi isbotni (lo iloha illalloh)ni dilida xufiya holda, nafyi isbotni toq sonda aytishi kerakligini Abduxoliq Gʻijduvoni hazratlariga Xizr alayhissalom taʼlim bergan edi. Biroq keyingi pirlarimizda qaytadan zikri jahriyaga oʻtilgan edi. Hatto Bahouddin Naqshband hazratlari oʻz piri Amir Sayyid Kuloldan zikri aloniyadan voz kechishni soʻraganda, rad javobini oladi. Bu haqda filologiya fanlari doktori, professor Hoji Ismatulloh Abdulloh Shunday maʼlumot beradi: “Naqshbandiya amaliyotining asosiy qismi ichida, Yani qalb bilan maxfiy zikr qilish (Alloh nomini eslashi, takrorlash)dir. Bu tariqatning koʻpchiligi afzal hisoblaydigan ovoz chiqarib (jahriy) zikr qilishdan farq qiladi. Maxfiy zikrni paygʻambar gʻorda birga boʻlganlari Abu Bakrga oʻrgatganlar, ovoz chiqarib zikr qilishni esa Hazrati Aliga aytganlar, Shuning uchun naqshbandiyaning baʼzi jamoalarida bu keyingisiga ham yoʻl qoʻyiladi”²².

Bahouddin Naqshband hazratlari oʻz davrida zikri xufiyani joriy qildi. Buning ustun tomonlari Shunda ediki, insonlar mehnat qilayotganda ham, oʻtirganda-turganda ham, bir joyga toʻplanmagan holda ham, shovqin suron koʻtarmasdan, raqsu samoʻ qilmasdan ismi zot (Alloh), nafyi isbot (lo iloha illolloh) ni xufiya aytishi mumkin edi. Boshqacha aytganda, musulmonlar doimiy zikrda boʻlish imkoniyatiga ega boʻldilar. Naqshbandiya tariqatidagi bu qoida ham taʼlimotni yashovchan qilib qoʻydi va omma orasida keng tarqalishiga sabab boʻldi. Zikri xufiya

²⁰ Quttiboev Z. Xoja Ahror Valiy maʼnaviyati. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2007. – 193 bet. – 106-bet.

²¹ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hayʼati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. Soʻzboshi va lugʻat muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum oʻgʻli. – T.: YOZuvchi, 1993. – 208 b. – 84-bet.

²² Abdulloh Ismatulloh Hoji. Bahouddin Naqshband./ “Gʻoyiblar xayliyan yongan chiroqlar” kitobida. – T.: “Oʻzbekiston”, 1994. 335 bet. – 173-bet.

to'g'risida Hazrat Bahouddin Naqshband Shunday deganlar: "Xufiya zikrga mashg'ul bo'lganimda sirrimdan ogohlik hosil bo'ldi. Bu "sirr"ning asli uchun talabda bo'ldim. Mavlono Orif bilan o'ttiz yil mana Shu boradi qidirish va izlanishda bo'ldik. Ikki marta Hijoz safariga borildi. Burchagu go'shalarda kezdik. Kishi bormiki, o'zi tizzama tizza o'tirsa-yu, sayrda osmonlardan o'tsa, zohirda u erda bo'lsa-yu, botinda bu erda mashg'ul bo'lsa!"²³. Xufiya zikrda solik tezroq sirdan ogoh bo'lar ekan. Sirdan ogoh bo'lish maqomi tasavvufda yuksak bosqichlardan biri hisoblanadi.

Xojagon – Naqshbandiya suluki ta'limotining asosini tashkil etadigan rashhalar (fasllar) borki, ular ham tasavvuf psixologiyasida o'ziga xos metodologik tamoyillar bo'lib xizmat qiladi. Mazkur rashhalarni har bir solik o'z amaliyotida qo'llashi lozim. Shundagina u safarga tayyor bo'ladi.

Birinchi rashha "Xush dar dam" deb ataladi va undan ko'zlangan maqsad solikni har bir olayotgan nafasi uchun ogohlikka chaqirishdir. "Hush har dam ul tururkim, har nafasekim, ichkaridin kelur, kerakdurkim, huzur va ogohlik yuzidin bo'lsa va g'aflat onga yo'l topmasa"²⁴. Har bir olingan nafas avvalom bor Allohning inoyati bilan bo'ladi. Agar u bo'lmasa, kirgan nafas chiqmay, chiqqan nafas kirmay qolishi mumkin. Yani har olgan va chiqqan nafasimiz Allohdan. Bas, Shunday ekan, har bir nafasimizda Shu nafasni berayotgan Rabbimizni yodlashimiz, Uning qudratini his qilishimiz lozim. Bir nafasdan ikkinchi nafasga o'tayotganimizda g'ofillik qilmasdan tafakkur bilan bo'lmog'imiz talab etiladi. Bu jarayonda psixologiyadagi tafakkur, xayol, diqqat, xotira, tuyg'ular singari psixologik jihatlar qatnashadi va ular ma'lum bir tizimga solinadi. Shu o'rinda Hazrat Bahouddin Naqshbandning quyidagi so'zlari diqqatga sazovor: "Hazrati Xoja Bahouddin – uning sirlari muqaddas bo'lsin – aytadilarki, bu yo'lda ishning asosini nafas ustiga qurmoq kerakki, zamonning muhim vazifasiga mashg'ul bo'lishda xayolni o'tmishdan va fikrni kelajakdan ozod etsin va har bir nafasni zoe etmaslikka urinsin. Nefasning kirishi, chiqishi va ikki nafas o'rtasini ehtiyot qilsinki, nafas g'aflat bilan kirib chiqmasin"²⁵. Bu satrlarda biz psixologiyaga oid bir qancha holatlarni kuzatamiz. Birinchidan, "xayolni o'tmishdan ozod etmoq" deganda nafas olinayotganda xayolan o'tmishga safar qilmang, degan fikr ilgari surilmoqda. Safar qilishning behudaligi Shundaki, o'tmish ortda qoldi va ilohiy qoida bo'yicha u endi hech qachon takrorlanmaydi. Bizning irodemizga bog'liq bo'lmagan narsaga e'tiborimizni qaratib, umrimizni behudaga sarf etish ne darkor? Xayolning tizginini tortib, diqqatimizni asosiy holatga qaratishimiz lozimligi uqdirilmoqda. Ikkinchidan, "fikrni kelajakdan ozod etmoq" deganda Hazrat nafas olinayotgan paytda fikran kelajakka safar qilish nojoiz demoqchilar. Shunki kelajak ham bizning ixtiyorimizda emas. Ertaga nima bo'lishligini faqatgina Alloh bilar. Demak, umrimizni bu behuda mashg'ulot bilan ham mashg'ul qilmasdan, hozirgi olinayotgan nafasimizga e'tiborni qaratishimiz lozim. O'tmish va kelajak olamlarining o'rtasida "hozir" degan olamimiz ham borki, bu olamda biz erkinmiz va uni boshqarish, o'zimiz xohlagan yo'lga yurgizishimiz mumkin. Pir muridning bu uch holidan ham xabardor bo'lib boradi. Bu haqda Hazrat Bahouddin Naqshband Shunday degan edi: "Murshid tolibning o'tgan, hozirgi va kelajak holidan boxabar bo'lishi kerak, Shundagina uni tarbiya qila oladi"²⁶. Shu uch holning orasida muhimi "hozir"dir. Hozir bilan ishlashda biz ixtiyorlimiz. Hazrat Bahouddin Naqshband aytmoqchilarki, bizning ixtiyorimizdagi holatga diqqatimizni qarataylik. Har bir nafasda diqqatimizni jamlaylik (kontsentratsiya) va ruhiy holatimizni Shu nafasga qarataylik. Shunda biz o'zimizda bir dunyo

²³ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li. – T.: YOZuvchi, 1993. – 208 b. -78-bet.

²⁴Rashahotu aynil-hayot ("Obihayot tomchilari"): tarixiy-ma'rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 38-bet.

²⁵ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li. – T.: YOZuvchi, 1993. – 208 b. - 10-bet.

²⁶ O'sha asar, 79-bet.

zavf-shavq tuyg»usini tuyamiz. Demak, “xush dar dam” qoidasiga ko’ra inson o’zining ruhiy-ma’naviy olamini boshqarishi talab etiladi.

Ikkinchi rashha “Nazar bar qadam”da solikning har bosgan qadamini nazoratda ushlab turmog»i lozimligi tushuniladi. “Nazar bar qadam” uldirki, solikka yurganda va kelgonda shaharu sahroda va barcha erda nazari po’shti poyida bo’lsun, tokim oning nazari parokanda bo’lmasun va durust ermas joyga tushmasun”²⁷. Solik yurganda nazarini oyoqlari ostiga qaratib yursin, nigohini atrofga qaratmasin va muhimi solikning nazari keraksiz joylarga qaratilmasin hamda qadami nojoiz yo’llarda bo’lmasin. Bu o’rinda gap solikning o’z nigohini nazorat qilishligi va bosadigan qadamini boshqarishi lozimligini to’g»risida ketayapti. Ko’z barcha sezgi organlaridan katta ma’lumotni qisqa muddatda olishligi bilan farqlanadi. Eshitish, ta’ m bilish, hid bilish, tuyush organlarining imkoniyatlari ko’rishga nisbatan biroz cheklangan. Bu sezgi organlaridan ko’rish sezgisiga ko’proq ehtiyot bo’lmoq kerak. Demak, solikdan har bosgan qadamini ehtiyot bo’lib bosishi, o’zni chetki qo’zg»atuvchilardan olib qochishi talab etiladi. “Nazar bar qadam” qoidasining Yana bir psixologik jihati Shundaki, nazar orqali turli-tuman keraksiz ma’lumotlar xotiraga o’tadigan bo’lsa, ular solik xotirasida o’rnashib qoladi va uning zikriga xalaqit berishi mumkin. Nafaqat zikriga, balki butun boshli ma’naviy rivojiga ham o’z salbiy ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Bu o’rinda xotirani ham ortiqcha ma’lumotlardan saqlash lozimligi haqida gap ketayapti. Solik nazarini qayoqqa qaratishini va qadamini qayoqqa bosishini bilishi talab etiladi. Bularning bari Yana o’z o’zini boshqarishga borib qolayapti.

Uchinchi rashha “Safar dar vatan” deb ataladi. “Safar dar vatan” ul tururkim, solik tabiati bashariyda safar qilur, Yani sifati bashariydin sifati malakiyga va sifoti zamimadin sifoti hamidaga intiqol etar”²⁸. Bunda ikkita safar haqida gapirilayapti: ham jismoniy safar, ham ruhoni safar. Jismoniy safarning ham o’ziga xos jihatlari bor, masalan, kishi bir yurtdan boshqa yurtga borishi natijasida ko’plab ma’naviyatiga ta’sir ko’rsatadigan hollardan ogoh bo’ladi, ma’lum xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo’ladi. Qisqasi, jismoniy safarni islomda targ»ib qilinadi. Bunday safarlardan eng ulug»i haj safaridir. Haj safarida bo’lgan odamlar musofirchilik nimaligini anglagan, o’z vataniga bo’lgan muhabbati oshgan, uning qadriga etadigan kishiga aylangan insonlardir. Bu safarning ham insonga manfaatli tomonlari juda ko’p.

Endi ruhoni safar deganda insonning odamiylik tabiatiga safar nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, ruhoni safarda solik mamlakatlar aro kezmasada, o’z yurtida bo’lsada, musofirlar kechirgan hollarni boshidan kechiradi. Safar qilmay safar qilishlik. Solik musofir bo’lmasada, o’zidagi yaramas sifatlardan xolos bo’ladi. Vujud mamlakatida joylashgan ruh vodiysiga safar qilish natijasida o’zidagi aybu nuqsonlarni anglash va ulardan poklanish hodisasi sodir bo’ladi. Mana ruhoni safardan ko’zlangan maqsad. Vatanda turib vatanni anglash, musofir bo’lmay musulmon bo’lish – bu juda mashaqqatli bo’lsada, o’ta sharafli hamdir. Jismoniy safarda quvvating va moddiy mablag»ingni sarf qilgan holda bir manzilga etasan. Ruhoni safarda esa na quvvating sarf bo’ladi, na moddiy boyliging kamayadi, biroq undanda saodatli manzillarga etishasan. Buni solikning sulukdagi sayri ham deyishadi. Bu sayrning natijasi o’laroq solik qalbiga YAratuvchining tajalliyoti va ilohiy sifatlari o’rnashadi. Bu sayr muroqaba orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o’z o’zini kuzatish, o’z o’zini nazorat qilish, o’z o’zini cheklash, o’z o’zini tahlil qilish, o’z o’zini tushunish singari o’z o’zini boshqarishning qator elementlari ishtirok etadi.

To’rtinchi rashha “Xilvat dar anjuman” deb ataladi. “Oydilarkim, “xilvat dar anjuman” bazohir boxalq va babotin bohaq. ...oydilarkim, nisbati botiniy bu tariqada ondog»u tuShubdurkim, dilning jam’iyati maloda va suvrati tafriqa ko’broq ondin tururkim xilvatda”²⁹. Bunda tariqat ta’limotining eng muhim kategoriyalaridan “xilvat” yoki “uzlat” hamda “anjuman” masalalarini tushuntirib beradi. Tashqi jihatdan qaraganda bu ikkita so’z bir-biriga qarama qarshidek tuyuladi. Xilvat bu odamlardan ayro yashash bo’lsa, anjuman odamlar orasida

²⁷Rashahotu aynil-hayot (“Obihayot tomchilari”): tarixiy-ma’rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 39-bet.

²⁸ O’sha asar, 40-bet.

²⁹ O’sha asar, 41-42-betlar.

bo'lishdir. Ular orasida qanday aloqa bor? Bu masalada turli xil qarashlar mavjud. Shulardan biriga to'xtalib o'tamiz. Filologiya fanlari doktori, professor Botirxon Akram o'zining "Hazrati Naqshband va Navoiy" maqolasida bu haqda Shunday deb yozadi: "Xilvat" – botiniy-ruhiy dunyoni bildirsa, "anjuman" zohiriy – suvratdagi moddiy va ijtimoiy dunyo. Har ikki istiloh mazmunan bir-birini to'ldiradi: xilvat Alloh yodi-la band ko'ngilning xos holatidan ogoh etsa, ko'ngil chirog»isiz anjuman benuru besamardir"³⁰. Bu o'rinda xilvat va anjuman bir-biri bilan bo'ladigan aloqalari inobatga olingan holda talqin qilinayapti.

Shayx Sayyid Abdulqodir G»iyloniy hazratlari Shunday deb yozadi: "Xilvat ham, uzlat ham ikki shaklda ko'riladi: zohiriy va botiniy.

Xilvat holining zohirdagi ma'nosi Shuki, inson (o'z) nafsini o'rgangan narsalaridan ayirib, ma'naviy tuyg»ularning ochilishiga yo'l beradi; o'rinsiz fe'llari bilan xalqqa aziyat etkazmasligi uchun o'zini chekka bir joyga olib, odamlardan uzoqlashadi"³¹.

"Botiniy xilvat – qalb (sohasi)ga nafs va shaytonga oid har qanday fikrning kirmasligi; emoq, ichmoq, kiymoq kabilarning bunga (Yani qalb uchun muhim qilib) qo'yilmasligi; bola-chaqa, uy-ro'zg»or va chorva mollari (ot, sigir, qo'y va h.k.) kabi maxluqot sevgisining ham undan uzoq tutilmog»i ila mumkin bo'ladi"³². Shayx Sayyid Abdulqodir G»iyloniy bu ikki holning qo'shilishini targ»ib qiladi: "Bu holni qozona bilgan kishining tavbasi komil bo'ladi. O'rganganlari foyda beradi. YOmonlikka mayli qolmaydi. Unutib, adashgan joyi bo'lib qolsa ham kechiriladi. Zeroki, bunday vaziyatda istig»for qilib, pushmon (bo'lgandir). Va tom (ma'noda) yaqinlik ichradir"³³.

"Xilvat" yoki "uzlat" Xojagon tariqatigacha bo'lgan davrda dunyodan uzilib, tog»u toshlarda, g»orlarda muroqabaga kirishish tushunilar edi. Xojagon tariqati vakillari uzlatni qoralashdilar Bu haqda, masalan, Bahouddin Naqshband hazratlari quydagilarni aytadi: "Xilvatda Shuhrat bor, Shuhrat esa ofatdir. Jamiyatda xayriyat bo'ladi, jamiyat esa suhbatda bo'ladi"³⁴. Hazratning xilvatga bergan ta'rifi sof psixologik ta'rifdir. Xilvatdagi odamga uning jamiyatdan tashqaridaligi psixologik ta'sir ko'rsatadi, Yani u o'zini boshqalardan ayroday tutib boshlaydi. Qolaversa, xilvatda bo'lgan odamga xilvatdan chiqqanidan keyin alohida munosabat ko'rsata boshlashadi va natijada bu holatlar unda Shuhratni paydo qilishi mumkin. "Janobi payg»ambarimiz (s.a.v.) hadisi shariflarida Shunday marhamat qilganlar: "Shuhrat va uning natijasi ofatdir; Shuhratni tashlab qochish va uning oqibati esa rohatdir"³⁵. Bu xavf solikning Shu paytgacha erishgan yutuqlarini puchga chiqarishi aniq. Jamiyatda bo'la turib, ma'navan-ruhan xilvatda bo'lishlik juda yuksak maqom. Bunda, birinchidan, odamlar uning xilvatdaligini bilishmaydi va unga salbiy psixologik ta'sir o'tkazmaydi. Ikkinchidan, Shunchaki xilvatda bo'lishdan ko'ra anjumanda, Yani odamlar orasida bo'la turib, xilvat holatini o'zida shakllantirish katta quvvatni va mahoratni talab etadi.

Naqshbandiya tariqatida suhbatga katta o'rin ajratiladi. Bu erda murshid bilan murid o'rtasidagi, tasavvuf ahli o'trasidagi so'fiyona suhbat nazarda tutilayapti. Ma'lum ma'noda aytsak, suhbatning o'zi, ilohiy muhabbat yo'g»rilgan suhbatning o'zi aslida xilvatdir. Bunday "xilvat"da xayr bor, barakot bor, uzlatdagiga nisbatan kuchliroq muhabbat bor. "Anjuman" deyilganda aynan mana Shu suhbat nazarda tutilayapti. Qolaversa, jismonan dunyoviy davralarda bo'lgan holda ruhan Alloh bilan bo'lishlik ham bu erda nazarda tutilayapti. Ikkala holda ham naqshbandiya tariqatining boshqa tariqatlardan fazilatli jihati ko'zga tashlanib turibdi.

³⁰ Akram Botirxon. Hazrati Naqshband va Navoiy. / "G»oyiblar xaylidan yongan chiroqlar" kitobida.- T.: "O'zbekiston", 1994. 335 bet. -203-bet.

³¹ Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. "Sirrul-asror", "Maktubot"/ Tarjimon, so'zboshi va lug»at-izohlar muallifi Otabek Jo'raboev. – T.: "Movarounnahr" nashriyoti, 2005 yil. - 226 bet. – 125-bet.

³² O'sha asar, 127-bet.

³³ O'sha asar, 130-bet

³⁴ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug»at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g»li. – T.: YOzuvchi, 1993. – 208 b. – 77-bet.

³⁵ Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. "Sirrul-asror", "Maktubot"/ Tarjimon, so'zboshi va lug»at-izohlar muallifi Otabek Jo'raboev. – T.: "Movarounnahr" nashriyoti, 2005 yil. - 226 bet, - 127-bet.

Hazrat bu haqda Shunday yozadi: "Agar bu yo'l toliblaridan bir guruhi bir-birlari bilan hamsuhbat bo'lsalar, bu suhbatda xayru baraka ko'p bo'ladi. Umid borki, bu ishga doimo amal qilinsa, oxiri haqiqiy iymon bilan yakunlanadi"³⁶. Darhaqiqat, har qanday dunyoviy ilm ham, har qanday suhbat ham oxir-oqibat insonni YAratuvchisiga olib bormas ekan, u botildir. Bu axloqiy qoidani qisqa qilib tushuntirsa, xalq ichida Haq bilan bo'lish, deya aytsa bo'ladi. Xalq ichida Haq bilan bo'lganlarning ruhoniy nurlari atrofdaqilarning qalblarini ham nurafshon etgusidir.

Beshinchi rashha "yodkard" deb ataladi va til Yoki dil zikri bilan bog'liq masaladir. "Zikrdin maqsad uldirkim, ko'ngil hamisha muhabbat va ta'zim vaz'i bila Haq suhonahu va ta'ologaga ogoh bo'lsun"³⁷ (Hazrati Eshon Ubaydullohi Ahror). Bu rashha haqida Mavlono Sa'diddin Koshgariy Shunday fikrni bildirgan ekanlar: "Zikr ta'lim berishning yo'li Shuki, Shayx avval dili bilan "lo iloha illallohu Muhammadur rasululoh" deydi. Murid esa diqqatini jamlab, ko'nglini Shayxning ro'parasida tutadi, ko'zini ochib, og'zini mahkam yumadi, nafas olmay, ehtirom va ehtiros bilan Yuqoridagi zikrni aytishga boshlaydi. Bu zikrni tili bilan emas, balki ko'ngli bilan aytadi. Hibi nafas (nafas olmasdan)da chidasin va bir nafasda nafas olmasdan uch marta aytsin, toki zikr halovati ko'ngliga etsin..."³⁸. Mazkur rashhada ikkita muhim psixologik jihat kuzatilayapti. Birinchisi diqqat kontsentratsiyasi bo'lsa, ikkinchisi ehtiros. Zikr aytilayotganda diqqatimiz atrofga sochilmasligi, kalimai toyyiba ma'nosida jamlanishi lozim. Diqqat kontsentratsiyasi sof psixologik tushuncha bo'lib, unga tasavvufiy ma'no singdirilayotganligining guvohi bo'layapmiz. Diqqatni bir nuqtada jamlash malakasini har bir solik o'zida shakllantirishi va rivojlantirishi lozim. Bu murshidning ko'rsatmalari va doimiy mashq orqali qo'lga kiritiladi. Diqqatning o'zi aslida butun ruhiy holatni bir nuqtaga jamlagan holda ma'lum maqsadga yo'naltirishdir. Tasavvuf psixologiyasida bu masala hali chuqur o'rganilmagan.

Keyingisi ehtiros masalasi. Bu ham sof psixologik masala. Har qanday inson o'zi bajarayotgan amalga nisbatan emotsional-hissiy munosabatini bildirmasdan qolmaydi. Ba'zi amalga nisbatan salbiy, ba'zisiga ijobiy munosabat ko'rsatadi. Zikrni ehtiros bilan aytish deganda zikrga nisbatan katta ijobiy munosabat bildirgan holda zavq-shavq bilan aytish nazarda tutiladi. Bu holat solik o'zining emotsional-hissiy olamini ham tarbiyalamog'i lozimligini anglatadi. Solik emotsional-hissiy olamining tarbiyasi tasavvuf psixologiyasining markaziy muammolaridan biridir.

Bu erda Yana bir masalaga e'tibor qaratish lozim. U ham bo'lsa, ma'lum amaliyotni bajarish miqdorlari bilan ixlos o'rtasidagi aloqa masalasi. Bu tasavvuf psixologiyasidagi tadqiq qilinmagan muammo hisoblanadi. 3, 7, 40, 99, 100, 777, 76000 va h.k. miqdorlarni doimiy takrorlash inson e'tiqodida ma'lum holatlarni chaqirishi muammosi kelajakda o'rganilishi lozim bo'lgan muammolardan biridir.

Oltinchi rashha "bozgasht" deb atalib, bunda "yodkard"dan keyin, Yani kalimai toyyiba zikr etilgandan so'ng "Parvardigorim, mening maqsudim sensan" degan so'zni aytib qo'yishdir. "...bu kalimai bozgasht nafiy etguvchidirhar xovotirenikim, yaxshi va yamondin kelur, to aning zikri xolis bo'lsun va oning sirri mosuvodin forig» oylanur. Va agar muftadiy badoyati zikri kalimai bozgashtda o'zidin sidq mavjud topmasa, kerakkim, oni tark etmasun, oning uShunkim, daraja-badaraja sidqning asarlari zohir bo'lur"³⁹. Bundan ko'zlangan murod to'g'risida Shunday deyilgan: "Bu bozgasht kalimasi yaxshi Yoki yomon fikrlarni odamdan haydovchidir, u zikrni xolis qiladi, zikrni o'zga narsalardan ozod etadi. Zikrni boshlovchi bu bozgasht so'zlarini

³⁶ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li. – T.: YOzuvchi, 1993. – 208 b. - 78-bet.

³⁷ Rashahotu aynil-hayot ("Obihayot tomchilari"): tarixiy-ma'rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 42-bet.

³⁸ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li. – T.: YOzuvchi, 1993. – 208 b. -13-bet.

³⁹ Rashahotu aynil-hayot ("Obihayot tomchilari"): tarixiy-ma'rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 43-bet.

aytayotgan paytda chin dildan bo'lmayotganini sezsa ham, biroq uni aytishni tark etmasin, bora-bora u haqiqatga aylanib, ta'sir zohir bo'ladi..."⁴⁰. Bozgashtda kamida ikkita psixologik holat ko'zga tashlanadi: birinchidan, yodkardning mustahkam va mukammal bo'lishligi uchun, ikkinchidan, fikrni ortiqcha o'ylardan tozalash uchun. "Bozgasht" Shunday bir usulki, buning Yordamida zikr aytilayotganda diqqatni jamlanadi, fikrda o'zga narsalar qolmaydi. Bu o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish (samovnushenie) hisoblanadi. Yana bir psixologik jihati Shundaki, "bozgasht" ixlos bilan aytilmayotganligini solik sezib qolaganda ham, zikrni to'xtatmaslik qoidasining mavjudligi. Miqdorning o'zi agar takrorlayvergach, ma'lum ruhiy holni chaqirishi mumkin.

Etinchi rashha "nigohdosht" bo'lib, ("Nigohdosht" – ul iboratdur muroqabayi xovotirdin, ondog»kim, bir damda necha martaba "kalimai toyyiba"ni oyturkim, xovotiri g»ayrig»a tashqari ketmas") kalimai toyyibani bir nafasda necha marta aytsa ham, Shu davr mobaynida xayolni boshqa narsalarga yubormaslik tushuniladi. Bu rashha haqida Sa'dudin Koshg»ariy Shunday deb yozadi:"...bu kalimaning ma'nosida aytadiki, bir soat, ikki soat Yoki undan ko'p vaqt, imkoni boricha, o'zini xayolu fikrlardan asrasin, Shundan so'nggina boshqa narsa haqida fikrlasin"⁴¹. Xayol inson diqqatini boshqa tomonga chalg»itadigan jarayondir. Zokir esa imkon qadar tashqi muhitdan ajralishi, diqqatini kalimada jamlashi, turli tuman dunyoviy narsalardan xolos etishi lozim bo'ladi. Xayolni boshqa narsalardan saqlash malakasini mashq orqali rivojlantirish mumkin. Aytishlaricha, Xoja Ubaydulloh Ahrorning do'stlaridan biri mavlono Qosim kun chiqishdan to choshgohgacha ko'nglini o'zga narsalardan pok tuta olar ekan.

Soliklarning shaytoniy va nafsoniy xayollardan qutilishda turli xil toifalarga bo'linishligi to'g'risida Hazrat Bahouddin Naqshband Shunday degan:"...ba'zilari Shunday bo'ladilar, Yani xayolga kelayotgan narsani kelmasidan avval ko'radilar va qaytara oladilar. Ba'zilari esa xayolga kirgach, hali u mahkam o'rnashmay turib, quvib yuboradilar. Bu esa unchalik foyda bermaydi. Agar uning chiqayotgan manbai va oqib kelayotgan sababini aniqlasalar foydadan xoli bo'lmaydi"⁴².

Sakkizinchi rashha "yoddosht" bo'lib, "... undan maqsad Haq subhonahu va taoloni doimo zavqu shavq bilan yodda tutib, ogoh bo'lishdir"⁴³. Ma'lum ma'noda, bu holat "Ba'zi haqiqat ahlining nazarida u Shunday bir mushohadadurki, Haq subhonahu muhabbati ko'ngilni tamoman o'ziga qamrab oladi"⁴⁴. Bu yoddoshtning hosil bo'lishining belgisidir. Bu inson o'z diqqatini boshqara boshlaganini ko'rsatadigan muhim psixologik holat.

"...yoddosht iboratdur zikrda takalluf etmakdin; va bozgasht iboratdur Haq subhonahu ta'olo(g»a) ruju' etmakdinul vajah bilakim, har martaba kalimai toyyibani oytur, oning izidin ko'ngulda andisha qilur"⁴⁵ (Hazrati eshon Ubaydullohi Ahror).

Tasavvufshunos olim, filologiya fanlari doktori Orif Usmon keyingi rashhalar haqida Shunday deb yozadi:"... Yana quyidagi qo'shimcha qoidalar ham hazrati shoh Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan va naqshbandiya sulukiga asos bo'lgan: vuqufi adadiy, vuqufi zamoniyy va vuqufi qalbiy"⁴⁶.

To'qqizinchi rashha "vuqufi adadiy" bo'lib ("Zikri qalbda adadni rioya etmak parokanda bo'lg»an xovotirlarni jam' etmak uchun turur" (Hazrat Bahouddin Naqshband), bu haqda Naqshband hazratlari Shunday deganligi ma'lum:"Vuqufi adadiy" (toq aytish) ilmi laduniyning

⁴⁰ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So'zboshi va lug»at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g»li. – T.: YOZUVCHI, 1993. – 208 b. - 13-bet.

⁴¹ O'sha asar, 13-bet.

⁴² O'sha asar, 87-bet.

⁴³ O'sha asar, 14-bet.

⁴⁴ O'sha asar, 14-bet.

⁴⁵ Rashahotu aynil-hayot ("Obihayot tomchilari"): tarixiy-ma'rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 44-bet.

⁴⁶ Usmon Orif. Shayx Abduxoliq G»ijduvoniyy. (Mas'ul muharrir S.Rafiddinov). Ilmiy-ommabop risola. – T.: "Movarounnahr", 2003. – 68 bet. – 10-bet.

boshlang»ich pog»onasidir»⁴⁷. Orif Usmon yozadi:»Vuquf» – tasavvufiy istiloh bo’lib, »bilim», »ta’limot» ma’nolarini anglatadi»⁴⁸. Bunda ma’lum sanoqlarda zikr qilinishi qoidasi nazarda tutilayapti. Ma’lum adaddagi zikr sanog»i aytilganda solik ruhida kutilmaganda o’zgarish yasaydi. Nima uchun aynan bu miqdorda o’zgarishning paydo bo’lishini tushuntirish qiyin. Bu erda falsafadagi »Miqdor o’zgarishlarining sifat o’zgarishlariga o’tish» qonuni ishga tushadi, Yani sanoqlarning miqdori ma’lum chegaraga etgach, insonda sifat o’zgarishi kuzatiladi. U boshqacharoq odamga aylanib qoladi. Tasavvuf ahli adadga rioya qilish solikni parishonxotirlikdan saqlashligini aytishgan.

O’ninchi rashha »vuqufi zamoniy» deb nomlanadi va undan murod solik har doim o’z holidan xabardor bo’lib turishi lozim. »...vuqufi zamonikim, yo’l yurguvchilarning korguzorandasi turur, ul tururkim, banda o’z ahvolig»a voqif bo’lsunkim, har zamonda oning sifati va holi ne turur: mujibi Shukr tururmu yo mujibi uzr (Bahouddin Naqshband)»⁴⁹. Bunda kalimani bir nafasda uch marta aytish sharti qo’yiladi. Agar hisob yigirma birdan oshganda ham birorta sifat o’zgarishi kuzatilmasa, ishni yangidan boshlashga to’g»ri keladi. »Nafas olmaslik shartlardan biridir. »Lo iloha illalloh»ni o’ng tomondan boshlaydi, dilgacha etkazadi va chap tomondan chiqarib yuboradi. Subhdan avval, shomdan so’ng xilvatda va xalqdan uzoqda mashg»ul bo’linadi» (Bahouddin Naqshband)⁵⁰. Bu qoidada solik o’z umrini mushohada qiladi: foydali ishlar bilan o’tdimi Yoki zararli ishlar bilan o’tdimi? Yani solik umr deb atalgan ne’matdan qanday foydalanganligi to’g»risida tafakkur qilishi nazarda tutiladi. Bunday tafakkur sof psixologik hodisadir.

O’n birinchi axloqiy qoida »vuqufi qalbiy» deb ataladi. »...vuqufi qalbiy iborat turur ko’ngulning janobi Haq subhonahu ta’olog»a ogoh va hozir bo’lmag»idin, bir vajhekim, ko’ngulda Haq subhonahu ta’olodin boshqa hech boyisti va xosti bo’lmasun»⁵¹ (Hazrati eshon Ubaydullohi Ahror). »Vuqufi qalbiy jazaba ta’sirini o’zida his qilish va bu ta’sirning qalbdan o’rin olishi uchundir. Zikrda adadga rioya qilish diqqatni jamlash uchundir, Shunki nazar parishondir»⁵². Bu erda ham diqqat deb atalgan psixologik hodisa haqida gap ketayapti. Ma’lumki, diqqatning uchta turi bor. Birinchisi, solikning ixtiYorisiz, tashqi muhitning ta’sirida paydo bo’ladigan diqqat. Ikkinchisi – solikning inon-ixtiYori bilan sodir etiladigan diqqat. Bunda solik o’z iroda kuchiga tayanib, diqqatini majburan ma’lum ob’ektga qaratadi. Uchinchisi – (bu eng Yuqori darajadagisi) diqqatdan keyingi diqqat bo’lib, bunda solik kalimaning mazmuni mushohadasi bilan dunyodan uzilib, o’zini majburlamasdan, ob’ektga singib ketadi. Fikrimizcha, gap aynan mana Shu so’nggi darajaga etish haqida fikr yuritilayapti. Bahouddin Naqshband hazratlari Shunday deb yozadi:»...nafy (inkor) paytida bashariyat vujudi unitiladi, isbot paytida esa Ilohiyat jazabasidan hosil bo’lgan tasarruflar ta’siri Yorqin his etiladi»⁵³. Bu o’rinda esa xotiraning unitilish va eslab qolish jarayonlari haqida fikr yuritilayapti.

Shunday qilib, biz Yuqorida tasavvuf psixologiyasiga xos bo’lgan muhim maxsus metodologik qoidalar to’g»risida o’z fikrlarimizni bayon etdik. Mazkur psixologik qoidalarga tayangan holda tasavvuf olamiga kirilsa Yoki tasavvuf ta’limoti tadqiq qilinsa bu yo’llarda xato ketishlar bo’lmasligi aniq.

⁴⁷ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay’ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So’zboshi va lug»at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o’g»li. – T.: YOZuvchi, 1993. – 208 b. – 84-bet.

⁴⁸ Usmon Orif. Shayx Abduxoliq Gijduvoni. (Mas’ul muharrir S.Rafiddinov). Ilmiy-ommabop risola. – T.: »Movarounnahr», 2003. – 68 bet. – 18-bet.

⁴⁹ Rashahotu aynil-hayot (»Obihayot tomchilari»): tarixiy-ma’rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 45-bet.

⁵⁰ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon/Tahrir hay’ati: A.Rustam va boshq. Forsiydan tarj. So’zboshi va lug»at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o’g»li. – T.: YOZuvchi, 1993. – 208 b. 86-bet.

⁵¹ Rashahotu aynil-hayot (»Obihayot tomchilari»): tarixiy-ma’rifiy asar.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 bet. – 47-bet.

⁵² O’sha asar, 86-bet.

⁵³ O’sha asar, 86-bet.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xojagon tariqatining paydo bo'lishi.
2. Xojagon pirlari.
3. Xojagon tariqatining Naqshband tomonidan rivojlantirilishi.
5. Rahshalar va ularning o'rni.
6. Tariqatning yashovchanligi sabablari. Bular nima?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Bilishning tasavvufiy nazariyasi.
2. Tariqat yo'lidagi holler va manzillar.

13-MAVZU. TARIQATNING MUAYYAN MASALALARI.

Reja:

1. *Tavhid masalasi.*
2. *Tavhidning darajalari.*
3. *Nubuvvat va valoyat.*
4. *Xotamul avliyo masalasi.*
5. *Karomat. Botiniy ilm. Ilmi laduniy.*

Tayanch tushunchalar: *Tavhid masalasi, mavhidning darajalarini, nubuvvat va valoyat, xotamul avliyo, karomat, botiniy ilm, ilmi laduniy.*

Tasavvufning ontologiyasida ong, qalb, ibodat haqidagi bilimlar muhim o'rin tutadi. So'fiylar uchun haqiqiy bilim – qalbni ilohiylashtirish, botiniy ibodat – Allohga yaqinlashish vositasidir. Tasavvufda borliqni bilish mumkin emasligi g'oyasi olamni ilohiy hodisa deb biladigan ontologik talqinga mos keladi. Ellinistik falsafaning kuchli ta'siri ostida, ayniqsa Plotinning emanaqiya to'g'risidagi ta'limoti mistik so'fiylarni oldindan his qilish, anglash to'g'risidagi o'z fikrlarini aniq ifodalashga olib keldi : olam bu ilohiy mohiyat aks etadigan ko'zgu, ammo u faqat ko'rinish holos. Haqiqatni bilish uchun bu ko'rinishdan uzoqlashish lozim. O'zining xususiy borlig'idan ozod bo'lish kerak. YAgona haqiqat bo'lgan Alloh bilan birlashish uchun o'z Shaxsini yo'q qilishi lozim. Bu ma'noda Xudo doim noma'lumligicha qolaveradi.

So'fiylar doim Allohda erib unga singib ketishni orzu qiladilar. Ular hissiy – aqliy bilimning noaniqligi, sarobligini Aflotunning «g'origa» o'xshash timsollari misolida fikr yuritadilar. Tasavvufning ontologik konsepsiyasida Alloh, olam va odam muammosi birinchi o'rinda turadi. Unda Xudo o'z - o'zligi zamirida, o'z zamiridagi namoyon bo'lmagan mohiyat sifatidadir. Shuning uchun uning borligi quyi darajadagi boshqa mohiyatlardan farq qiladi. So'fiylar Allohning YAgonaligi, Abadiyligi va Mutl aqligi, Shu bilan birga Xudo mutlaq transqendent bo'lib qolmay narsalarda, jumladan, odamda mavjud, - degan g'oyani targ'ib etadilar. Tasavvufning diniy - falsafiy manbalari da bu dunyoqarash islom dini arkonlari asosida shakllanganligi bilan bir qatorda unda bir qancha boshqa mistik ta'limotlar elementlari ham mavjudligi aniqlandi. Ba'zi mualliflarning tasavvuf mustaqil emasligi to'g'risidagi konsepsiyalari uning vujudga kelishi sabablarini neoplatonizmdan, otashparastlikdan, buddaviylikdan, umuman tashqi omillardan izlashlari uchun asos bo'ldi. Neoplatonizm ta'limotining asoschisi Plotinning tajalli to'g'risidagi ta'limoti mistiklar his - tuyg'ularining aniq ifodasini berardi. Olam ilohiy mavjudlik aks etayotgan faqat bizning nazarimizdagi ko'zgu holos. Demak, bu voqelikka, haqiqatga erishish uchun tasvirdan uzoqlashish lozim. YAgona mavjudlik hisoblanadigan Allohga o'z Shaxsini yo'qotish - fano yo'li bilan Allohda erib ketish uchun o'z xususiy mavjudligidan quto'lish, ozod bo'lish kerak. Dastlabki so'fiylarga xos mistik, ekstatik intilishlarning mantiqiy yakuni Shundan iborat edi

Falsafaning asosiy mavzularidan biri bo'lgan olamning yaratilishi masalalari tasavvufda o'zgacha, o'ziga xos ravishda echiladi. Bu echim an'anaviy diniy tasavvurdan ham farq qiladi. Mutasavv iflar bu muammoni «sudur» iborasi bilan ifodalaydilar. Sudur o'z - o'zidan zaruriy voqelikdir. Ibn Sino neoplatonizmning emanaqiya to'g'risidagi nazariyasini Ptolemeining kosmologiyasi va Arastuning zaruriy va ehtimolli borliq to'g'risidagi ta'limoti bilan birlashtirdi. Bu ta'limotga binoan olam Alloh dan yaralgan, lekin Allohning mustaqil ijodiy irodasi natijasida emas. Olamning Allohdan «oqib chiqishi», «ravshanlashishi» tabiiy zaruriy hosilasi, ilk manbaning to'lib borishi natijasidir.

Emanasiya - tajallining keyingi qatlamlari: olamiy aql, g'oyalar olami, olamiy ruh, odamlarning Shaxsiy joni, birlamchi materiya va moddiy olam kabilardan iborat. Ancha keyinroq, islom Hindistonga kirib kelgandan so'ng, mutaassib tasavvufning ba'zi bir yo'nalishlarida hind panteistik falsafasi - vedaning ta'siri namoyon bo'la boshladi. Ammo, bizningcha, buddaviylikning tasavvuf taraqqiyotining qaysi bosqichida bo'lmasin sezilarli ta'sir o'tkazishi to'g'risidagi mulohaza e'tirozlidir. Shu bilan birga, dinga oid ko'p g'oyalar umumbashariy qadriyatlarga aylangani kabi buddaviylik ta'limotida shakllangan «to'rtta yaxshi haqiqat» Yoki boshqa asosiy qoidalarning tasavvufda ham ma'lum darajada e'tirof etilishi tabiiydir. Tasavvufning diniy - falsafiy omillarini muayyan tariqatlar faoliyati ta'rifi orqali aniqlash mumkin.

Tasavvuf tariqatlari shariat talablari doir asidan chiqmay, Qur'oni karim va hadisi sharifga asoslangan va barchasining umumiy g'oyasi bir bo'lgani bilan amaliyotda va diniy - falsafiy qarashlarida bir - biridan farq qiladilar. E'tiqod, borliq va uni bilish masalalarini Yoritishda ham ular orasida ixtiloflar mavj ud.

Tasavvuf tarixida xilma - xil tariqatlar paydo bo'lib, hayot sinovlaridan o'ta olmay tarqab ketganlari Yoki boshqa progressivroq tariqatga qo'shilib ketganlari ham ko'p. Shu bilan birga, o'zining tizimli diniy - falsafiy dunyoqarashlari, o'z tarafdorlarining intilishlar i, orzu - havaslarini qondirib kelayotgan, islom dini talablariga og'ishmay amal qilgan holda jamiyat e'tirofiga sazovor bo'lganligi sababli asrlar davomida taraqqiy etib, saflari kengayib borayotgan tariqatlar Shu kunlarda ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

So'fiylikning vujudga kelishi, qaror topishi, tiklanishi va rivojlanishi davomida tarixiy davrlar, hududlarning ijtimoiy - siyosiy va madaniy - ma'naviy xususiyatidan kelib chiqib, har x il shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'ldi. Shu davrlarda tasavvuf ilmi mukammal va ravon bir ta'limotga aylandi. Jamiyat hayotida u diniy aqidaparastlikka zimdan qarshilik ko'rsatishga xizmat qilgan, hurfikrlilikning kuchayishiga ko'maklashgan, bosqinchilik siyosatiga qarsh i ko'rashda undan keng foydalanilgan. Islom fanatizmining aksi sifatida so'fiyona hurfikrlilik asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: so'zsiz amal qilinishi shariat tomonidan talab qilinadigan ortodoksal islom aqidalari va urf - odatlarni mutlaqlashtirmaslik; boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik; fanatik kayfiyatdagi ulamolarning qoralanishi. Tasavvufda idealistik metafizikani psixologik mashqlar tizimi bilan uyg'unlashtirish - zuhd, o'z e'tiqodini, barcha jismoniy va ruhiy, ma'naviy kuch - g'ayratini safarbar etish, i lmi laduniy to'g'risidagi ta'limotga rioya qilish har bir muriddan qat'iy talab qilinadi. Sadoqat bilan tariqatga kirishgan odamning asta - sekin muttasil tarzda mistik bilish, ishq - muhabbat va so'fiylik tariqatlari vositasida Allohga yaqinlashish va pirovard natijada Uning visoliga erishish kabi xususiyatlari, olamni mantiqiy - aqliy bilishni inkor etadigan *intuitiv bilishga*, tajalliga, vajdiy holatlarga, g'ayriaqliy hodisalarga intilish i borliqni so'fiyona his qilish belgilarni bildiradi. O'tgan davrda din va fan munosabatlarid a voqelikning mantiqiy ta'rifi bilan tasavvufning ilmi ladun va unga ega bo'lish usullari, inson ruhiyatida yuz berishi mumkin bo'lgan hol darajasi to'g'risidagi aqidalari o'rtasidagi tafovut ni bartaraf qilish mumkinligi inkor etilardi.

So'nggi yillarda *Sinergetika* fanining o'ziga xos tamoyillarini ijtimoiy fanlarga ham joriy etish vositasida borliq va uni anglashda diniy va falsafiy dunyoqarashlarning ancha yaqinlashganini kuzatish mumkinligi.

Sinergetikaning o'z - o'zini tashkillashtirish nazariyasi yangi dunyoqarashdir, u o'z - o'zini tashkillashtirish, nochiziqlilik, global evolyuqiya, xaos orqali tartiblanish fenomenlarini

o'rganish bo'yicha tadqiqotlar bilan bog'langan bo'lib, bifurkatsion o'zgarishlar, vaqt qaytmasligi, beqarorlikning evolyutsiya jarayonlari asosiy xarakteristikasi sifatida namoyon bo'lishini aks ettiradi.

Sinergetika har bir narsani sistema deb qaraydi va u, o'z navbatida, yopiq va ochiq sistemalarga ajraladi. Olamdagi jonsiz sistemalar yopiq, jonli sistemalar ochiq deb hisoblanadi. Bunga ko'ra, ochiq sistema sifatida tasavvuf ta'limotini sine rgetika tamoyillari vositasida talqin qilish uning falsafiy mohiyatini teranroq anglashda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tasavvuf ilmi ochiq sistema sifatida Allohga yaqinlashuvning undagi o'ziga xos usullar, amaliyot keng tarqalgani jamiyatdagi diniy dunyoqarashning tarkibiy qismiga aylangan.

Sinergetika fanining asosiy tamoyillaridan biri - Attraktor deb, vaqt o'tishi bilan dinamik sistema intiladigan harakat rejimi va tartibotiga aytiladi. Attraktor holati ruhiy olamda ham kuzatiladi.

Tasavvuf ta'limoti bunga Alloh o'zi munosib ko'rgan bandalariga bergan ne'mati deb ta'riflaydi. So'fiylikda diniy dunyoqarash jarayonida Allohning visoliga etishish to'g'risidagi g'oyaga musulmonlarning ma'lum bir qismi ergashishini ham e'tiqodda attraktor tamoyili vositasida teranroq anglash mumkin. Sine rgetikaning Yana bir tushunchasi bifurkatsiya. Bifurkatsiya nuqtasida sistema «tanlov» imkoniyatiga ega bo'ladi, Shunki unda tasodif unsurlari mavjud, u sistemaning keyingi rivojini bashorat qilib bo'lmaydigan holatga olib keladi. Tasavvuf ilmida ham tariqatni tanlagan murid ham o'z amaliyotida shariat ahkomlarini, sayri sulukni, nafsni o'ziga bo'ysundirish kabi talablarni sidqidildan o'tagan bo'lsa - da komillikning aynan qaysi maqomiga erisha olishi tayin emas. Bizningcha, Qur'oni harimning « Balad» surasi 10 oyatida Va xadaynaxun najdayn, Yani, va biz uni (insonni) ikki: yaxshi va yomon yo'lga yo'llab qo'ydik, - deyilgani bilan bifurkatsiya holatini asoslash mumkin. Fluktuatsiya tushunchasi fizik kattaliklarning o'rtacha holatidan tasodifiy og'ishlar, u ko'p sonli qismchalarga ega sistemani karakter laydi. Bifurkatsiya nuqtasi tevaragida fluktuatsiyalar salmog'i qo'qqisdan orta boshlaydi va ular ma'lum bir vaqtda hech qanday tartibsiz ravishda umuman kutilmagan yo'nalishda tizim evolyusiyasining taraqqiyotini ta'minlashi mumkin. Tasavvufda ta'kidlanishicha, ibodatga astoydil berilish – zikr, sam'o va boshqa bir holatlarda tashqi muhitga hech qanday aloqasi bo'lmagan bir holatga – oliy hol darajasiga tushgan so'fiyga, Alloh nasib etsa, ilhom vositasida ma'lum bir ilm kashf etishi mumkin. Hozirda sinergetikaning uch darajasi : xususiy ilmiy nazariya sifatidagi ob'ektlilik, tajribali bilim darajasi, umumilmiy nazariya sifatidagi metanazariya ekanligi, dunyoqarash ma'nosidagi falsafiy darajalari alohida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun umumilmiy asosga ega bo'lgan sinergetika bir vaqtning o'zida metanazariya hamdir. Uning dunyoqarash Yoki falsafiy darajasi ham murakkab harakterga egadir. Shunki bu erda ilm – fan unsurlari diniy e'tiqod unsurlari bilan birlashadi.

Sinergetika «O'zaro hamkorlik, ma'naviy birodarlik davrning mohiyatini ifodalovchi tamoyil bo'lib bormoqda. Shunki « yo ki - Yoki » falsafasi, idealizmi yoki materializm, dialektikami Yoki metafizikami, degan falsafa o'z umrini tugatdi. Dunyo xalqlarining o'zaro do'st - birodar bo'lib yashash falsafasi tantana qilgandagina bu tahlikali dunyoni saqlab qolish mumkin. Terrorizm, turlicha ekstremistik, xudbinlik aqidaparastlik singari balo qazodan dunyoni holi qilish mumkin », deb bergan ta'riflarini tasavvuf ilmi ni tadqiq qilishga ham joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, sinergetika fanining ma'lum tizimga so'lingan paradigmalari insonning o'z - o'zini anglash orqali so'fiylarning oliy maqsadi – komillikka erishish jarayoniga doir noan'anaviy, Yani tasavvufiy qarashlar bilan uyg'unligi ham e'tirof etilishi lozim. Ayni paytdagi jahon fani yutuqlarini, xususan, yangi fan sinergetik ilmiy metodologik qo'llosalarni tasavvuf ta'limoti tadqiqotiga tatbiq qilinishi natijasida so'fiyona tafakkur xususiyatlari sinergetik tamoyillar bilan solishtirilganda ularning naqadar o'xshashliklarini kuzatish qilish mumkin. YAqin k elajakda fan olamni anglashga so'fiyona yondashuvlar ham haqli ekanligini isbotlaydigan jiddiy dalillarga ega bo'lishi mumkin. G'arbning taniqli olimlaridan biri Xalqaro nazariy va amaliy fizika instituti direktori, Rossiya tabiatshunoslik fanlari akademiyasi a'zosi A.E. Akimovning «olamni bilishning yo'llaridan biri Sharqona usul bo'lib, bunda bilim ezoterik yo'l bilan, masalan, meditatsiya holatida olinadi. Bu yo'l nima sababdandir unutilib ketgan edi va

Shuning uchun ham boshqa - favqulodda murakkab va haqiqatga juda sekin olib boradigan g'arb yo'li shakllandi. Biz ming yil mobaynida Shu keyingi yo'l bilan borib, Sharqda uch ming yil oldin ma'lum bo'lgan bilimlarga etib keldik», deb tan olayotgani ham voqelikka sinergetik, boshqacha aytganda, so'fiyona yondashishni bildirib, Yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Bobda mutasavvifi flarning Oliy Haqiqatga yaqinlashishda aqlgagina emas, ruhiy intuiqiya va YoriShuvga hamda ruhiy tajribaga suyan ish va ongni o'z oliy hol maqomiga etkazadigan o'ziga xos yo'llariga ega bo'l ish va Allohni raqional tafakkur orqali emas, balki faqatgina individ o'z boshidan kechiradigan ichki tajriba vositasida yuz beradigan ekstatik holda bilish mumkin degan qo'losa lari tadqiq etilgan. Bunda tushunish - ishonish dialektikasining ikkinchi qismi - ishonish - predikat vazifasini bajaradi. Tasavvuf ta'limotida uchta asosiy yo'nalish ajratiladi: sub'ektiv idealizm, (Boyazid Bistomiy, Halloj, Imomiddin Nasimiy); ob'ektiv idealizm (Abu Homid G'azzoliy, Fariduddin Attor, ibn Arabiy, Ahmad Yassaviy); panteizm (Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Mirza Bedil). Sub'ektiv idealizm so'fiyning reflektiv kechinmalarini, Allohga so'zsiz itoatni birinchi o'ringa qo'ygan. Ob'ektiv idealizmda ijtimoiy hayot masalalariga e'tibor qaratilgan, ammo ular islom aqidalariga muvofiq talqin etilgan. Panteizmda esa materialistik yondaShuv ustundir. So'fiylar islom shariati talablarini ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilganlar. Tasavvufda sabab qonuniyatdan, tabiat taraqqiyotidan emas, Allohning irodasidan kelib chiqsagina haqiqiy bo'lishi ta'kidlangan va u islom aqidalarini asoslashga, qaror toptirishga xizmat qilgan.

XII - XIII asr oralig'ida Abu Homid G'azzoliy ta'limoti nafaqat musulmonlarning teologik qarashlariga, Shuningdek, o'rta asr yahudiylari va nasroniylarning ham dunyoqarashiga kuchli ta'sir qilib, keng tarqalgan bo'lsada, Eron va Markaziy Osiyoda Ibn Arabiyning panteistik falsafiy tizimi Yana ham ko'proq ommaviylashib ketgan. Allomaning Alloh va olamning birligi to'g'risidagi panteistik g'oyalar ini «yaratilmishning borligi YAratuvchi borligining mohiyatidir» degan formula bilan ifodalash ham mumkin. Vahdat al - vujud ta'limotiga ko'ra, haqiqat faqat Allohda mujassam, moddiy olam esa Allohning nuri, Shu'lasini. Xudo butun borliqni yaratib turadi. Vahdat al - vujudning Ilohiy nur, Allohning namoyon bo'lishi - tajalli to'g'risidagi g'oyalari Hakim at - Termiziy tomonidan IX asrdayoq aytilgan edi. Muhiddin al - Arabiy «so'fiylik qomusi» deb atalgan «Futuhot al - makkiya» asarini yaratishda mashhur mutasavviflar va ilohiyotchilar qatori at - Termiziy asarlaridan ham foydalangan. Buni Dj.Trimingem ham qayd etadi.

Tasavvuf an'analarini davom ettirib kelayotgan aksariyat ulamolar, Shayxlar, muridlar shariat talablarini asosida tariqatda mumtoz tasavvuf talablariga rioya qilib kelmoqdalar. Ularning asosiy qismi davlat ichki va tashqi siyosati doirasida rasmiy diniy tashkilotlar tarkibida jamiyatda yuksak ma'naviyat ko'nikmalarini shakllantirish uchun muqaddas dinimiz ahkomlarini oqilona tarzda ommaga etkazib, diniy e'tiqodimiz musaffoligini ta'minlashda oldingi saflarda turib, islom tartib - qoidalarini buzayotganlarga qarshi og'ishmay ko'rash olib bormoqdalar. Shu bilan birga, hozirgi zamonda tariqatchilikda yuz berayotgan jarayonlar o'rganilib, Shunday qo'losa qilindiki, demokratik islohotlar va diniy faollikning rivoji davomida «soxta so'fiylar» ning tarkib topishi jarayoni kuzatilmoqda. Bu tarkiblarning ba'zilari oxir - oqibat o'z tashkilotchilarining g'arazli niyatlariga Yoki ochiqdan ochiq dinda adashishga borib taqalayotgan ildizlari va manbalari tadqiq qilingan.

«Tariqatchilik» nomi ostida ko'proq ularning rahnamolari moddiy manfaatlari, o'z tarafdorlarining safini Yanada kengaytirish kabi maqsadlar yashiringan. Ularning ba'zilari etarli diniy bilimga ega bo'lmaganli klari sababli o'z nuqtai nazarlari, hislatlarini, yangiliklarini asoslash uchun Qur'oni harim matnidan, hadislarning mohiyatidan atayin ajratib olib talqin qilayotganlari aniqlandi va ilmiy ishda jamiyat a'zolarining bunday ko'rinishlarga tegishli munosabatini shakllantirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi. Zamonaviy tariqatchilikda buyuk so'fiylar tomonidan qattiq tanqid qilingan kamchilik va tushunmovchiliklarning ba'zi pirlar, muridlar tomonidan Yana qaytarilayotgani qayd qilindi. O'z Shayx va pirlari Shaxsini haddan tashqari ko'klarga ko'tarib maqtash, ularning ma'naviy, vajdiy qobiliyatlari to'g'risida

mubolag'a qilish Allohga emas Shaxsga sig'inishga olib kelib, islomda eng og'ir gunoh – shirkka sabab bo'lishi mumkin. Ularning ba'zi diniy masalalarda adashayotganliklari, kibrga berilib ketayotganlari Yoki ular tutgan yo'l hech qanday diniy asosga ega emasligi rasmiy diniy tashkilotlar, mutaxassislar tomonidan aniqlanib, tegishli hujjatlarga suyanilgan holda to'g'ri yo'l bilan Haqqa etishish mumkinligi tushuntirib borilmoqda.

Rasmiy diniy idoralar, dinshunos olimlar tomonidan mumtoz tasavvuf mohiyatini to'g'ri tushuntirish, ba'zi mutaxassis bo'lmagan Shaxslarning islom ahkamlari va arkonlarini o'z - o'zicha talqin qilishlarining oldini olish uchun tegishli targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Bunda naqshbandiya - mujaddidiya - husayniya, nursafardiya, «qorasallalilar», «ma'rifatchilar» faoliyatidan tegishli misollar keltirilmoqda. Ular tadqiq qilinib, yosh yigit - qizlarning bunday uyushmalarga kirib qolishining oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bobda tasavvuf ta'limotining diniy bag'ri kenglik g'oyalari quyidagilarda namoyon bo'lishi asoslangan: birinchidan, diniy, Shuningdek, so'fiyona qadriyatlar jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga Yordam beradi; ikkinchidan, O'zbekistonda din davlatdan ajratilgan, din davlat ishlariga aralashmaganidek, davlat ham diniy idoralar, tashkilotlar ichki ishlariga aralashmaydi. Ammo bu din va diniy idoralar, e'tiqod qiluvchilar istagan ishini qilishi, davlat siyosatiga va jamiyat hayotiga zid munosabatda bo'lishi mumkin degan fikrga olib kelmasligi zarur; uchinchidan diniy bag'rikenglik destruktiv guruhlariga, fundamentalizm va terrorizmga xushomad, yon bosish emas, u muayyan xatti - harakatlar hamda g'oyaviy qarashlarni ijobiy Yoki salbiy harakterga ega ekanini ajrata olishga xizmat qilishi lozim; to'rtinchidan, millatlararo munosabatlarda dinga, diniy qadriyatlarga tayanish vijdon erkinligi orqali ta'minlanadi.

Qaysi dinga e'tiqod qilish, qanday diniy qadriyatlarni e'zozlash, targ'ib etish va qo'llab - quvvatlash Shaxsning konstitutsion huquqidir; beshinchidan, din va mumtoz tasavvuf tariqatlari erishgan tarixiy - madaniy, ijtimoiy - axloqiy tajribalardan foydalanish konstruktiv ahamiyatga ega. Lekin dinda konservativ va dogmatik unsurlar ham borligini, ulardan destruktiv kuchlar ham foydalanishi mumkinligini nazarda tushish zarur.

Davlatni rivojlantirish strategiyasi va ma'naviyat bir - biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisini taqozo etadi. Ularni puxta o'rganib, har tomonlama tahlil qilib, yaratuvchi g'oyalarni buzg'unchilaridan ajrata bilib, birini o'ziga singdirish, ikkinchisiga qarshi ko'rashish, bugungi murakkab sharoitda yoshlar adashmasliklari uchun to'g'ri tarbiyalash jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

O'sib kelayotgan avlodni Imom Buxoriy, Naqshbandiy va Yassaviylar ta'limoti asosida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etilgan islom dini bilan islom niqobi ostidagi g'arazli guruhlarining tub maqsadlarini ajrata oladigan darajada bilimlar bilan ta'min etish zarur. Faqat moddiy manfaatlarni ko'zlash maqsadi bilan yashash, Yani pragmatizmni mutlaqlashtirish jamiyat norasoligining belgisidir. Diniy e'tiqodning muhim majburiyatlardan biri – bu har bir kishi uchun jamiyat hayotida mavjud muammolarini hal qilishga faol bag'rikenglik his - tuyg'ularining kundalik hayotimizda odatiy ehtiyojga aylanishini ta'minlashdir. Insonning bu masalaga mas'uliyat bilan yondashib, uni hal qilishga faol ishtiroqiga erishilsa, jamiyatning ezgulik sari intilishiga va qadimdan so'fiylarning oliy maqsadi bo'lmish komillikka davlatning barkamol avlod Shaxsini shakllantirish siyosatini amalga oshirishning tarkibiy qismiga aylanadi. Vatanimizda buning uchun xalqaro hujjatlar talablaridan kelib chiqib, barcha tegishli huquqiy - me'voriy hujjatlar qabul qilingan va ular og'ishmay amalga oshirilmoqda. Natijada, o'zbek xalqi, barcha millatlar, dinlar vakillari O'zbekistonda osoyishta hayot kechirib, demokratik tamoyillar asosida yangi – fuqarolik jamiyatini yaratishga bahamjihat intilmoqdalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tavhid masalasini tushuntiring.
2. Tavhidning darajalarini ayting.
3. Nubuvvat va valoyat nima?

4. Xotamul avliyo masalasini tushuntiring.
5. Karomat. Botiniy ilm. Ilmi laduniy. Bular nima?

Mustaqil ish mavzulari:

1. Mistik hollarni chaqirish yo'llari.
2. Tasavvufda o'zini o'zi anglash yo'llari.

14-MAVZU: SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA TASAVVUF G'OYALARI VA ULARNING PSIXOLOGIK MAZMUNI.

Reja:

1. *Sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf g'oyalarining kirib kelishi.*
2. *She'riyat va tasavvuf. Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g'oyalarining talqini.*
3. *Tasavvuf arab, fors va turkiy tillardagi adabiyot orqali Sharqda keng tarqalishi.*
4. *Tasavvuf bilan adabiyotning yaqinlashishi sababi, so'fiylikda o'z ichki holatlari va hissiyotlarini namoyon etishda She'riy uslublaridan hamda shoirlar qo'llaydigan ramz va timsollardan unumli foydalanish.*

Tayanch tushunchalar: *Sharq mumtoz adabiyoti, She'riyat, ramz, timsol, ramziy timsollar, tasavvuf g'oyalari, hol, holat, hissiyot, ilhom, She'riy uslub, aruz, talqin, ilohiy g'oyalar.*

Tasavvuf arab, fors va turkiy tillardagi adabiyot orqali Sharqda keng talqalishi. VIII-XI asrlarda Robiya al-Adaviya, Mansur al-Halloj singari so'fiylar ijodi bilan boshlangan sufiyona She'rlar X-XII asrga kelib ulkan bir adabiyotga aylanishi. O'ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllanishi. Tasavvuf bilan adabiyotning yaqinlashishi sababi - so'fiylar ham o'z ichki holatlari va hissiyotlarini namoyon etishda She'riy uslublaridan hamda shoirlar qo'llaydigan ramz va timsollardan unumli foydalanishi. Ramz va timsollar bilan nazm orqali nasr ifodalashi kiyin bo'lgan tasavvufdagi nozik hislarni, yashirin holatlarni ifoda etish kulayligi. Nasr mantiqiy yakunlanganlikni talab etsa, nazmda his-tuyvular birlamchi bo'lishi. Nazm matni turli talqinlar qilish imkoniyatini o'zida mujassam etishi tufayli, tinglovchilar bir iborani turlicha qabul qilishi. Tasavvuf Shayxlari ham muridlarga ta'sir etish uchun masnaviy, ruboiy va vazallardan unumli foydalanishi. Tasavvuf adabiyotdan o'zini ifoda etish vositasini topgan bo'lsa, adabiyot tasavvuf bilan yaqinlashishdan o'zi uchun bitmas- tunganmas mavzular, ramz va timsollar maxzanini kashf etishi.

Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlik so'fiylar va ijodkorlarning ruhan yaqinligida ekani. So'fiylik iste'dodi - «jazba» - bu ishq, ilodiy junun. Kishi qalbida ilodni bilish mudabbati, Unga etishish zavki Shu kadar kuchli bo'lishi, u o'zini tuxtatib turolmasligi. Hamma narsani uno'tib, Madbuba jamoliga talpinishi. Bu - ulur va muharram bir dard - jazba tushunchasi darveshlik bilan shoirlikni, keng ma'noda esa, tasavvuf bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtirishi. Darveshlik iste'dodi, g'ayritabiiy hislatga molik bo'lish shoirlarga dam xos ekani.

Sufiyona zavku surur, vajdu samo' ijod adlining ildomli damlari, yaratish zavki kaynab toshgan davriga uxshab ketishi. Tariqatda ijodga moyil, qalbida ilodiy ishq jush o'rganlar Ko'proq muvaffakiyat kozonishi. SHoirlik iste'dodiga ega Soliklarda tasavvuf g'oyalari She'r ko'rinishida namoyon bo'lishi. Jaloliddin Rumi tarikat sulukini bekamukust bajarsa- da, lekin yoshi qirqqa yaqinlashganda SHams Tabriziy bilan uchrashib, sudbat ko'rmagunga kadar She'r yozmagani. SHams Tabriziy ta'sirida Rumiyning qalb ko'zi ochilib, buyuk shoir va buyuk so'fiyga aylanishi. Yassaviy, Attor, Mashrab dam jazba tekkan, Yani ilodiy «devonalik»dan nasibador odamlar bo'lgani. Ularning g'ayriodiyat qo'lq-atvori atrofda g'ilarni dayratga solishi (Mashrabning «devona» laqabini olgani Shundan). Tasavvufni sof nazariyotchi olim va

Shayxlardan ko'ra, shoirlar chuqurroq idrok etishi. Ibn al-Arabiy yaxshi shoir bo'lgani, u «Fusus al-dikam» («Hikmat gavdarlari») va «al-Futudot al-Makkiyya» («Makka ochilishlari») nomli mashhur asarlarining ko'p qismini She'r bilan bitgani, o'z nazariy fikrlarini falsafiy istilodlar orqali tushuntirishga kiynalib qolganda asosiy muddaoni She'riy satrlar Yordamida izdor etgani. Robiya al-Adaviya, Mansur al-Xalloy, Abdullod al-Ansoriy, Abu Said Abo'l Xayr, Padlavon Madmud dam nazmdan keng foydalanganliklari. Xayyom, Rumi, Jomiy, Bedil, Ikbol tasavvufning juda ko'p nozik nazariy masalalarini jadonShumul She'riy asarlar vositasida bayon etgani. Tasavvuf royalarini akliy-nazariy mushodadadan ko'ra, dissiy-obrazli tafakkur bilan tushuntirish oson ekani.

Tasavvuf ta'sirida san'atning rivojlanishi. Sufiyona majlislar bagrida Ko'plab iste'dodli mutrib va muganniylar tarbiyalanishi, yangi-yangi kuy-ohanglar yaratilishi. Tasavvuf maqomotining holatlarini ifodalaydigan o'zbek va tojik xalqlarining mumtoz shashmaqomi ham Shu zaminda shakllangani.

So'fiy shoirlar asarlarida uchraydigan ishq, may, mayxona, harobot, soki, sogar, qadah, xum, maxbub singari timsollar, ramziy ma'noli so'zlar o'ziga xos mazmun kasb etishi. Masalan, may - ilohiy ishqning ramziy ifodasi, xum, xumxona, jom va mayda - orifning qalbi, harobot - qanoat, fakr yo'liga kirib, hayvoniy xirslardan, yomon qo'lq-odatlardan ozod bo'lish, hokisorlik, soki - pir, Jonona - Parvardigor va boshqalar. Ramz va timsollar tasavvufdagi ommaga oshkor qilinmaydigan jihatlarni ifoda etishda qo'llanilishi.

Tasavvufning Sharqda keng tarkdlishiga bois, uning arab, fors va gurkiy tillarda buyuk bir She'riyatni vujudga keltirganidir. VIII—XI aarlarda Robia Adaviya, Mansur Xalloy singari yayF so'fiylar ijodi bilan boshlangan sufiyona ash'or X—XII aarlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obrazlar, timsollar olami, aloxida ramzlar, uslub va usullar shakllandi. Olimlar tasavvufning adabiyot bilan yaxinlashish sabablarini ko'proq so'fiylarning raqsu samo' majlislari bilan bog'laydilar. Birok, aytish kerakki, sabab faqat Shundan iborat emas. TyFpH, tasavvuf Shayxlari muridlariga ta'sir etish uchun ruboiy, g'azal kabi kichik She'riy janrlardan foydalanganlar. Ba'zan ualari sufiyona royalariga mos asarlar ijod kilib, aksar holda esa xalx orasida yurgan ogeaki ijod namunalari va mashxur shoirlarning She'rlarilari foydalanib, suxbatlarini kizitganlar, so'zlarga yangi ma'no berib, sufiyona royalar ruxida talkin va tafsir qilib, eshituvchilarni xayajonga solganlar. Bu — masalaning bir tomoni, Yani tasavvufning adabiyotga intilishi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Gap Shundaki, adabiyot ham tasavvuf tomonga kdrab intilgan. Tasavvuf royalar keng tarkalgandan keyin u gumanist shoirlarning kdlbini rom etdi. Tasavvufning pok ilohiy ishq Xaqidagi, Xaq va xaqiqat, najib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish Haqidagi goyalari She'riyat royalariga aylandi — shoirlar kuchli bir ruh ko'ngil amri bilan irfoniy goyalarni kuyladilar, xisobsiz lirik She'rlar, jaxonga mashxur dostonlar, kissalar yaratildi. Tasavvufning bexudlik va ishk; koniepqiyasi, sofli, adolat va haqiqat timsoli — Mutlaq Illohga muhabbat zavki, ijod ahliga qattik ta'sir etdi, insoniyat rami bilan xo'bi dardga tulgan isyonkor ruxaagi shoirlarni bir oxanraboday o'ziga tortib, urtanishli, xis xayajonga serob ajoyib She'riyatni vujudga keltirdi. Bu She'riyatning markaziy kdxramoni — rindi bebok, Mansur Xalloy e'tiqodiga imon keltirgan, o'zini barka- mollik chukxisida ko'rgan, ruxan ozod kishi edi. Uning zano'i, iztirob-kechinmalari, xayoliy romantik olamga intilishi maxsus ifodalar va kup ma'noli ramziy iboralar bilan tasvirlanadigan bulli.

Sufiyona adabiyotning tasvir mavzui (ob'ekti) tarikdt nuli bilan poklanayotgan va tinmay komillik sari tarakkiy etayotgan Inson bo'lgani uchun ana Shu solik — yulovchi Insonning lunyo- kdrashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tasavvufiy adabiyotning barcha ko'rinishlari, janrlarila ana Shu solik Insonning tuygulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Xax'i va o'zligini tushuntirish, turli ri- voyat va hikoyatlar keltirish, ugit-nasihatlar qilish bilan uning ongi va qalbiga yul topish bosh masala xilib olinadi.

Tasavvuf o'zi Buyuk bir romantik olamdir. Olamni Mutlaq Parvardigorning ijodi deb qarash, dunyoni Illohning ko'zgusi deb tushuntirish va barcha gO'zalliklar, qo'lratni Illohdan deb hisoblash, Borlixni romantik ranglarda, shoirona xayoliy surat — timsollar tarzida, ilohiy nurning porlashklan doimiy xarakterda va ijodda deb tasavvur etish — o'zi bir Buyuk Poeziya.

Jami gO'zalliklar, yaxshiliklar, ezguliklar manbai Mutlax Illoh.k. Kudrat va kuch, xarakter va faoliyat ham Undan. Dunyodagi jami xusnu jamol — Uning jamolining aksi. Inson go'zalligi Uning jamo- lining jilvasi, bu Jamol olamda kdncha kup jilo etgan bulsa, u Shuncha gO'zal bula oladi. Inson ruxining gUeallikka, nafasatga tashnaligi Illoh go'zalligiga tashnalik oxibatidir. Yana buning ichida moddiy go'zallik va ma'naviy go'zallik, goya va fikr go'zalligi ham ajralib, e'tiborga olinadi. Qo'llas, go'zallikdan maqsad tafakkur go'zalligi, ma'naviy go'zallikni anglamok, oliy jav- xar—Ruxiy azaliga monand narsalarning go'zalligi ni xabul xil- mokdir...

Go'zallik ideali, qudrat ideali, poklik ideali, abadiylik ideali — jami ideallar ideali Uning O'zi. Xayrat ham Ushandan, g'ayrat va shijoat ham, hayot nafasati ham Undan. Jonli va jonsiz Xar bir narsada, xayotning o'zila Illoh XUDratini mushoxada etish, Uning go'zalligidan xayratlanib, jushib, olam-olam zavx olish, Illohni Yori aziz, dust deb bilib, Unga siginish, suyanish, Unga rozi dil aytish — mana so'fiy shoirning estetik dunesi, xayot mazmuni!

Ko'rinadiki, so'fiylarda real moddiy dunyo go'zalligi inkor etilmaydi (garchi dunyo va uning boyligiga bo'lgan salbiy munosabat sezilib tursa-da), balki real moddiy dunyo o'z-o'zicha ximmatli emas, deb xaraladi. Kddriyat va arzirlil narsa, so'fiy nazarida, bu — rux bilan, Illoh bilan bogliq narsadir. Xayot ham ruxning faoliyatidan iborat. Ruxsizlik — xunuklik, o'tkinchilik, foniylil Xar xanday o'tkinchi narsa ximmatga molik emas, jumladan, dunyo ham. Abadiy narsa ruxdir va Shu sabab u ximmatlidir, go'zaldir.

Tasavvuf va baliy ijod deganda faqat so'z san'atini nazarda tutmaymiz. Tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, rake san'atini ham yaratdi va, hatto, sufiyona teatrlar paydo bo'ldi. Birgina samo'ning o'zida ham She'riyat, ham rake, ham qo'shik, musiqqa ishtirok etadi. Kupgina samo' majlislari teatrlashgan tomoshaga aylanar edi, fakat so'fiylarning o'zi emas, atrof javonibdagi kishilar ham bu tomoshalarni yiptishib ko'rganlar. Masalan, «Nafaxot ul-uns» asarida ShayxAbu Said Abul Xayr majlis - lariga xatgo xotinlar kelib, tomlarga chikib tomosha kilgani yoeiladi.

Tasavvuf bilan baliy ijod orasidagi yaqinlikni so'fiylar va ijodkorlarning ruxan yaqinligidan ham izlasa buladi. Bnz yukorida so'fiylik iste'dodi — «jazba» haqiD^a gapirgan edik. «Jazba» — bu ishk, Illohiy junun. Kishi kalbida Illohni bilish muhabbati, Unga etishish zavki Shu kadar kuchli buladiki, u o'zini tUxtatib turolmaydi. Hamma narsani uno'tib, Maxbuba jamoliga talpinadi. Bu — ulut va mukarram bir ard ekanini ham ta'kidladik. Ana Shu dard — jazba tushunchasi darveshlik bilan shoir- likni, keng ma'noda esa, tasavvuf bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Yanikim, darveshlik iste'dodi, gayritabiyl xislatga molik bulish shoirlarga ham xosdir, demok,- chimiz.

Tyg'ma iste'dodli har bir shoir qalbida orif insonning e'tiqodi, pok niyatining sham'i yoqiq va xar bir Illohsevar, riyosiz haqiqiy darveshning yuragi shoirona xayajon, ilhomu vaxiylik extirosi bilan xarakterda. Orif darvesh paygambarona ruhi bilan Xayr va Egulikni elga tuhfa etsa, shoir buni toza tuygular, otashin suei kuchi bilan amalga oshiradi. «Haqiqiy dindor shoir so'fiy bulishi kerak», — deb yozgan edi tariqat axni xayotini O'rgangan arab olimi Al-Joxiz (vafoti 869 yil). Buning barobarida mashxur Shayxlarning aksari ajoyib ruboiy va g'azallar yozgani, She'riy devonlar meros koldirgani ham tarixdan biega ma'lum. Alisher Navoiyning fikricha, shoirida darveshlik xislati bulmasa, uning iste'dodi ulug iaqsadga xizmat kilolmaydi, balki Shu uchundir u shoirlik va darveshlik iste'lodini mujassam etgan kishilarning kUpini “Majolis un-nafoyis” asarida keltirib, maxsus ta'kidlab utgan. Uning yozishicha, xar bir ziyoli zoxiriy ilmlar (dunyoviy fanlar) bilan birga, botiniy ilm (tasavvuf)ni ham egallashi lozim, bu uning fazlu kamolini oshiradi, xushax- lok, xalim va odamshavanda bulishga kumaklashadi. Buni u Paxlavon Muhammad, Sayyid Xasan, Mukimiy, Mavlono Burujiy, Xoja Yusuf Burxon, Xoja Xazar Xizrshox va boshka bir Kancha darveshvasl fakir odamlar misolida kursatib Utgan. Bu odamlar so'fiylik bilan nom chikargan bulsalar-da, ammo yaxshigina tablari ham bo'lgan. Chunonchi, Xoja Yusuf Burxon «fakr va fano tarikida suluk kilur erdi jamiki ahli turukning (*tariqatning* — N.K.) soxibtariki erdi va musiqiy il mni ham yaxshi bilur erdi, kuproxO'z She'riga musikry boglar erdi». Amir Kosim Anvor bo'lsa, «rutbasi shoirlik poyasidan yuk, orirok”, yani valiylar eumrasiga mansub, ammo ayni Shu xususiyat uning «ravishini pok va

ash'orini otashnok» etgan. «Er farishtasi» deb e'zoelangan Abul Vafo Xorazmiy «kibor avliyodandur», Shu bilan birga u tasavvufga oid kitob ta'lif etgan, ajoyib kuylar chalgan. ruboiylar yozgan. «Turk va sort orasida» fakr u fanoda tengsiz Sayyid Xasan xasida: «Tasavvufda tab'i xub erdi», — deb yozadi Navoiy. U Xoja Xofiz, Xusrav Dehlaviy, Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiyning ueining ash'oridan yuzlab baytlarni ed bilgan, nozik va latif tabiatli kishi bo'lgani, kungli yumshokdi- gidan «dardmandona so'z din va nazmdin va narmadan mugaassir» bo'lib, atrofdagilarni hayajonga keltirgan. Alisher Navoiy so'fiy qalbi bilan shoir qalbining bir-biriga yuldosh va hamroz ekanini kup ko'zatgan, so'fiylarning tabiati, botiniy dunyosi She'ru narma, kuy-musik,aga tashnaligini ko'rgan. «Baso axdullox- kim, arrunun unidin dayrga kirdi va dinu islom nakdin murbacha- larra boy berdi», — leya qo'losalaydi u ko'zatishtlarini «Maxbub ul-kulub» asarida. Buning ajablanadigan joyi yo'q, shekilli, Shunki tario'at o'z aqidalari bilan rux ilmi ekanligi jixztilan *ijod psixologiyasiga* yaqindir. So'fiyning xolga kirish laxzasini ijodkorlardagi «ilhom tashrif buyurishi» hodisasi bilan tenglashtirsa buladi. Sufiyona zavxu surur, vajdu samo' ijod ahlining ilhomli damlari, yaratish zavki, i kaynab toshgan davriga uxshab ketadi Darhaqiqdt, ijod zavki va sufiyona zavk inson ruxiy holati nuktai nazaridan bir xil narsa Bejiz emaski, tariqatda ijodga moyil, kalbida Illohiy ishk, jush o'rganlar kuproq muvaffaqiyat qozonganlar SHoirlik iste'dodi bilan soliklarda bu dard She'r bo'lib kuyilib kelgan — xaxikiy valiylik yuz bergan. Jaloliddin Rumiyning xayotini eslang: utarikdtsulukini bekamu ko'st bajargan bulsa-da, lekin to Shams Tabriziy bilan uchrashib, suxbat kurmagunga kdaar She'r yozmagan, xolbuki uning yoshi k,irk,kd yaqinlashgan edi. SHams Tabriziy ta'sirida uning k,alb ko'zi ochilib, buyuk shoir va buyuk so'fiy ga aylandi. Yassaviy, Attor, Mashrab ham aslida jazba tekkan, Yani Illohiy «devonalik»dan bonasib odamlar edilar. Ularning gayriodatiy, majnunona qo'lk,- atvori atrofdagilarni xayratga solardi (Mashrabning «devona» lakdbini olgani Shundan), buning ustiga ular pirga kul berib, ruxiy chinikish aziyatlaridan ham xabardor edilar.

Yana bir hodisani ta'kidlab o'tmoq, chimiz: tasavvufni sof nazariyotchi olimdan va Shayxlardan kura, shoirlar chuqurrok idrok etganlar, ular ma'rifat asrori, «ilm ul-gayb»ning mushoxada va mukoshifasida mu'jizalar kursatganlar. E'tibor kdling, vaxdat ul-vujud ta'limotining asoschisi Shayx Ibn al-Arabiy yaxshi shoir ham edi, u «Fusus ul-xikam» («Xikmat gavharlari») va «Futuxot al-Makkiya* («Makkaning ochilishi») nomli mashxur asarlarining kup kismini She'r bilan bitgan, Yani o'z nazariy fikrlarini falsafiy istilohlar orkali tushuntirishga kiynalib kol ganda asosiy muddaoni She'riy satrlar Yordamida izxor etgan. Robia Alaniya, Mansur Xalloy, Abdulloh Ansoriy, Abu Said Abul Xayr, Paxpavon Maxmud ham Shu usuldan foydalanganlar. Xayyom, Rumi, Jomiy, Bedil, Ik, bol tasavvufning juda kup noeik nazariy masalalarini jaxonShumul She'riy asarlar vositasida sharxu bayon etganini yaxshi bilamiz. Shunki tasavvuf goyalarini aqliy-nazariy mushoxadadan kura xissiy-obrazli tafakkur bilan tushuntirish oson. Vokean, tasavvuf akl bilan dunyoni bilish mumkinligi, mantiliy tafakkurni tan olsa-da, ammo uning asosiy quroli — savki tabiiy, Yani intuiqiya. Ma'rifat ko'ngilga nur bo'lib kuyiladi, deydi ahli dil. Shunga uxshash shoirlik ham gaybdan keladigan ne'mat, pokiza kalb ilhomidan tugiladigan ko'ngil kalomi. Toki dil Illohiylarddan gulg'ulaga kelmasa, nokislikdan larzaga tushib isyon kelmasa, Illohiy lison — She'r tug'ilmaydi. Xoja Xofiz bir g'azalida: «Men She'ryat o'qiimayman, men Illohning tili bo'lib kuylayman», — deganda, Shu holatni ko'zda tutmadi- mikin? Balki Shuning uchun bu shoirni «lison ul-gayb» — gayb tili deb uluklagandirlar?! Va Shunga binoan, tasavvufdagi «bedorlik», «bexudlik», «xilvat», «uzlat» tushunchalari ham barchadan ko'ra ijod ahliga yaqin va tushunarlidir.

So'fiy darveshlar, Shu tariqa, ijod ahliga yaqinlashib bordilar va, ikkinchi tarafdin, ijod ahli ham tasavvuf tomon intildilar. So'fiy jamoalari orasida «rindlar, zoxiran o'zlarini bexud, beparvo qilib kursatuvchi, botinan esa muta- fakkir va zakiy bo'lgan, dunyoning nobarobarligidan, adolatsiz- liklardan zada kishilar aloxida ajralib turardi, ular bir- biriga rozi dil aytish, xasratlashish uchun yig'inlar uyushtirar- dilar. Bunday yig'inlarda il mu alab axay ham ishtirok etardi, rindlar odatiga muvofik me'Yorida sharob ichib, sarxushlik qilish, erkin-ozod xolla tuygular tieginini quyib yuborib, kuy- qo'shiq, She'rxonlik «bazmi jamshid»ini tuzish rayom bo'lgan. Alisher Navoiy «Maxbub ul-kulub» asarila «rindi bodaparast»- larning axlokini

bayon etib, ularni Xudo oshiqdari, Haqning sevgan bandalari, deb ta'riflaydi. Rindlar davrasining o'z shoirlari, hikoyachi latifaguylari, sozanda-yu mutriblari bo'lgan. She'r va musiqaning inson ruxiga ta'sir etish kuchini sezgan tasavvuf Shayxlari xonaqohdardagi yig'inlarda bundan foydalanishga intilganlar. Aynixsa, samo' yig'inlarini ko'zitishla She'r va musiqa juda qo'l kelardi. Ma'lumki, jamoa-toifa bo'lib yashash, pir-murillik odobini sakdab, tongotar suxbatlar ko'rish, Illohiyot asrori haqidagi bahsu munozara musulmon SHarxining butun qadimiy madaniy markazlarida ko'rilgan kup sonli xonaqox va zoviyalarda to'plangan fakru fano ahli xayotining mazmunini belgilardi. Xonak,ohlarda «samo'» (arabcha: eshitish) majlislari uyushtirish, She'r va raxs bazmini tashkil etish odat tusiga kiradi. Xususan, sukra — bexudlik konsepsiyasini yoqlagan so'fiylar bunga uch edilar. Ular: so'fiy uchun asosiy narsa vujudning borligini unutish, hol maqomini egallashdir, samo' Shu ruxiy ijtixod qiyomini kuchaytiradi, deb hisoblardilar. Susa shahri so'fiylari majlisida ishtirok etgan tarixchi Al-Muxaddasiy yozadi: «Ba'zan so'fiylarga qo'shilib qichqirardim, ba'zan ularga Xasidalar o'qib berardim» (*Adam Mes.* Islom o'yg'onishi. 234-bet). Xonakodlardagi kuy-qo'shix sadolari atrofga taralib, odamlarni o'ziga jalb etgan. Muxaddasiyning aytishicha, xotin-xalaj uylar- ning tomi ga chiqib, so'fiylar bazmini tomosha etganlar.

Tasavvufning bu rujui Shubhasiz ijobiy hodisa edi, uning ta'sirida islom dini xush kurmagan san'at rivojlandi. Sufiyona bazmlar bagrida kup miqdorda iste'dodli mutrib va muganniylar tarbiyalandi, yangi-yangi kuy-ohanglar yaratilib, el orasiga yoyildi Jumladan, tojik va o'zbek xapklarining mumtoz shashmaqomi ham Shu zaminda shakllanib, tasavvuf maqomotining holatlarini ifodalaydi.

Ammo She'rxonlik faqat samo' majlislariga xos emas edi; oyat, xadis va She'riy xikmatlar bilan nutxni bezab, mazmunli va ta'sirchan qilish samo'ni yoxtirmaydigan Yoki unga beparvo Xaraydigan xilvatnishin Shayxlar suxbatida ham raem bo'lgan. Shayxlar o'z atroflarida to'plangan muridpariga tariqat maqomi va hol manzillari, no'zuliyat siru asrorini kashf etishning fazilati va mushkuloti xususida va'z-nasihatlari xilayotib, ma' - rifatni tushuntirar ekan, ora-orala She'riy parchalar o'qib Yoki ixcham hikoyatlarni misol keltirib ugar, tinglovchilar esa bundan ruxlanib, Shayxning fikrini chuxurroq anglar edilar. Tazkira va manoxiblarda xikoya qilinishicha, Robiya Adaviya (713— 801), Mansur Xalloy (857—922), Boyazid Bistomiy (vaf 874), Abu Said Abul Xayr (957—1049), Abdulloh Ansoriy (1006—1088), Abul Xasan Xaraxoni (vaf. 1034), Najmiddin Kubro (1 145—1226), Baxouddin Naxshband (1318—1389) va boshxa bir qancha atoqli Shayxlar o'z suxbatlarida kuplab She'riy parchaparni istifoda etganlar. Baxouddin Naxshbanddan sizning samo'ga munosabatingiz Xanday deb surashganda, ular: «Moinkor nakunem, vale inkor nakunem» (Biz Shu ishni xilmaymiz, ammo inkor ham etmaymiz) deb javob qaytargan ekanlar. Shuni ham aytish kerakki, tariqat Shayxlari dastlabki davrlarda dunyoviy mazmundagi She'rlarga sufiyona ma'no berib, o'z roylariga xiemat kildirgan bo'lsalar, bora-bora ular uchun tasavvufning maxsus istilloh-tushunchalari, ramz-tamsollarini ifodalaydigan asarlar yozila boshlandi. Natijada She'riyatda yashirin ma'nolar, tasavvuf tushunchalariga mo'ljallangan maxsus til paydo bo'ldi, «lison ul-rayb» usulida yozilgan razal va ruboiylar ko'paydi. Endi adabiyot tasavvufga xizmat kiladigan illyustrativ material bo'lib kolmay, balki o'zi tasavvuf roylarini baralla tarrib kila boshladi, anikrori, tasavvuf roylari She'riyat roylariga aylandi. Ramziylik, sufiyona til bilan yozish adabiyotni bir kanar murakkablashtirdi, natijada «xos kishilar» anglaydigan She'ru g'azallar yaratildi. Ammo, qizig'i Shundaki, ikkinchi tomondan, tasavvufiy She'riyat orasida bag'oyat sodda tilda yozilganlari ham ko'p. Bu jihatdan, masalan, Ahmad Yassaviy ijodi, So'fiy Alloxyor asarlari yaxshi misol bo'la oladi. Bu shoirlar diniy-sufiyona roylarni xalkchil bir usulda bayon etadilar, ularning ugit-nasihatlari, tashbex-istioralari ham sodda va tushunarlidir. Shunki iaqsad tasavvufni va islom Haqiqatlarini keng savodsiz omma kdpgiga etkazish edi. Darveshlik sulukini el orasiga yoyish, darveshlarni mukarram va maxzub qilib ko'rsatish edi. Ayniqsa, turkiy tildagi sufiyona adabiyot O'zining orzaki ijodga yaqinligi, bevositaligi bilan ajralib turadi. Bejiz emaski, Movarounnaxrning O'zbeklar bilan birga yashaydigan tojiklari ham «Qissai Mashrab», «Bobo Ravshan», «Qissai Xasan-Xusan» singari o'zbekcha asarlarni ko'proq mutolaa qilganlar.

Endi sufiyona adabiyotning murakkabligi haqida gap ketganda, Shuni aytish kerakki, shoirlar bunga majbur edilar. Zero tasavvufni She'r bilan bayon etish — falsafani, IllohShunoslikni She'rga solib chiqish demak. Shu bois biz tasavvufiy adabiyotni tom ma'nodagi falsafiy adabiyot deymiz. Fariddin Attor, Jaloliddin Rumi, Ibn al-Arabi, Jomiy, Bedillar Sharqning buyuk faylasuflari, lekin ularning barcha irfoniy asarlari She'r bilan yozilgan. Irfoniy asarlarni ham ikki kiem ga ajratish mumkin: bir kismi tasavvuf ta'limotini bayon etgan, sufiyona istillohlar bilan fikr yuritadigan asarlar. Chunonchi, Abulmajid Sanoiyning «Haqiqat ul-Haqoyik», Maxmud SHabustariyning «Gulshani roz», Jomiyning «SHarxi ruboiyot», Bedilning «Muxi- ti a'zam», Sayyid K,osimiyning «Haqiqatnoma», So'fiy Allohyor- ning «Sabot ul- o'jizin», Bobojon Sanoiyning «Kanz ul-maorif» asarlari bunga misoldir. Bu asarlarni tasavvuf darsliklari sifatida qabul kilsa buladi. Shunki mualliflar ushbu ta'limotni nazm orkali tushuntirishni iaqsad qilib olganlar.

Ikkinchi kiem adabiyotda tasavvuf goyalari kechinma va xayajon- lar, timsol va tamsillar orkdli tasvirlanib, talqin qilinadi. Bu asarlarni tasviriy talkin Yoki badiiy tafeir (interpretaqiya) deyish mumkin. Abulmajid Sanoiyning «Sayr ul-ibod», Faridid- din Attorning «Illohiynoma», «Bulbulnoma», «Ushturnoma», Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy», Xusrav Dexpaviyning «Matla' ul-anvor», Navoiyning «Xayrat ul-abror» va «Lison ut-tayr» asarlari Shu xildagi asarlardir. Bu asarlarda sufiyona-falsafiy ma'nolar She'riy satrlar, badiiy-ifodali til bilan talkin etilishdan tashkari Yana juda kup masal va hikoyatlar, ramziy tashbehlar keltirilib, kitobxonga sharxlab berilgan. «Mantiq ut-tayr» va «Lison ut-tayr» kabi dostonlarda ishtirok etuvchi personajlar ham ramziy: Xudxud — pir timsoli bo'lsa, o'ttiz qush solik muridlar timsolidir. Attor va Navoiy tasvirlagan etti vodiy esa solik ruxining etti xil tovlanuvchi manzarasi — Illohga vosil bulish bosqichlari, ma'rifat zinalarini bildirib keladi.

«Lison ut-tayr»da oltmishdan ortiq har xil hikoyatlar bor. Ularda tariqat va shariat, irfoniy bilish masalalari bilan bog'liq bo'lgan, Shuningdek, inson axlokiga oid masalalar ustida fikr yuritiladi. Hikoyatlar xapk ijodiyoti xazinasidan olingan. Ammo ulardan kelib chikaaigan ibratli qo'losalar («kissadan Xissa») sufiyona ma'nolar tapkiniga moslashtiriladi. Masal va hikoyatlar axloqiy mavzular, Chunonchi, nafening yomonligi, dunyoga mexr kz'yishning arzimligi, xasislik fapokati, saxiylik sharofati, sadokat, vafo va hokozolar haqida baxs etadi. Umuman, sufiyona adabiyotda ugut oxangi, pandu nasihat etakchilik kiladi. Bu tabiiy. Shunki Shayxpar o'z muridlarini suxbatorkali, nasihat qilish bilan tarbiyalaganlar. Aynan ana Shu suxbatlarda hikoyatlar, She'riy parchalardan foydalanilgan. Nasihat adabiyotining o'ziga xos jozibasi, ta'sir kuchi va uslubi bor. Tasavvufiy adabiyotning «manokib», «kissa», «makomot» kabi janrlari ham shakllangan edi. «Manokib»ning ma'nosi birovni ta'rif-tavsif etish demak. Yani bunday asarlarda nom chikargan Shayxi murshidlarning karomat va holatlari, muridlarga munosabati ta'riflanadi, aniqrog'i, badiiyashtirib, mubolarali qilib tasvirlanadi. Natijada, Shayxning o'ziga xos obraz-timsoli gavdalanitirilgan. Iaqsad — Shayxning faoliyati, so'zi va ishlarini boshkalariga ibrat qilib kursatish edi. Bunda nakd, rivoyat va hikoyatlar kel- tirish usulidan keng foydalaniladi. Ba'zi hikoyatlaru rivoyat larni turli «manokib»larda uchratish mumkin (kuchib yuruvchi rivoyatlar). Rivoyatlar tarixiy vokealar bilan qo'shib yuborilgan manokiblar ham bor. Masalan, «Manokibi xazrati Xoja Baxouddin Nakshband» (Muhammad Bokir asari) nomli manokib turt kismdan iborat: 1) Shayxning tavalludi va tarbiyasi, pirlari; 2) faoliyati, so'zlari, nasihatlari; 3) karomatlari; 4) murid tarbiya- lashdagi usuli. Asarda real tarixiy vokealar ham, qo'shimcha badiiy tukimaga xizmat kiluvchi hikoyatlar ham aks etgan. Ammo tarixiy vokealar ham badiiy usulda bayon etilgan. Natijada, asarda xazrat Bahouddin Nakshbandning go'zal siymosi, ulugvor ruxoniy raxbar sifatidagi xislatlarini ko'rit mumkin.

Kissalar xalk kitoblari ruxida bitilgan. Bunga «Kissai Mashrab», «Bobo Ravshan», «Ibroxim Adham» nomli asarlarni misol qilib kursatish mumkin. Yana Shuni ham aytish kerayusi. sufiyona hikoyat kitoblari ham anchagina. Shu kabi tazkiralarda ham nandu rivoyatlar kup keltiriladi. Muhim jihatlardan Yana biri x^aR bir Shayx xislatlariga karab nakd va rivoyatlarning guruxlantirilganidir. Masalan, Robiya Adaviya haqida gap ketganda ishk-

muhabbat mavzusida, Ibroxim Adhamga nisbatan taqvodor-likka oid, Boyaeid Bistomiy haqida soʻz borsa, beqoʻllik haqida rivoyatlar keltiriladi.

Tasavvuf adabiyoti oʻzigacha boʻlgan shakl va janrlardan ham keng foydalandi, Chunonchi, lirik janrlardan ruboiy, gʻazal, xigʻa, tarjeʻband, kasida; epik janrlardan masnaviy tasavvuf adabiyotining ham asosiy janrlariga aylandi. Soʻfiy shoirlar bu janrlarni rivojlantirib, ularga yangi rux bagishladilar. Kup shoirlarda dunyoviylik bilan Illohiylik, Yani irfon qoʻshilib zuxur etadi. Xofiz SHeroziy, Saʻdiy SHeroziy, Kamol Xujandiy, Abduraxmon Jomiy va Alisher Navoiy shkodila dunyo goʻzalligi il oxi y xusnu jamolning davomi va moddiy ifodasi sifatida olib xaraladi. Shuning uchun ulardan sof diniy goyalarni yoxud sof dunyoviy goyalarni qidirish, asarlarini bir-biriga zil kuyish notutri. Bu shoirlar uchun olam va odam yagonadir, rux va jism, vujud va maʼni birgadir. Ular kuylagan reallik Illohiy sifatlarning mazxari va jilosi. Illohiy mazxardan Illohiy manbaga qarab boradigan rux ular uchun eng goʻzal ruxdir. Shu bois ham mazkur shoirlarning asarlarini soʻfiylar oʻz makomida, oddiy kitobxonlar Oʻz maqomida anglaganlar. Shuning uchun ham ularning asarlari kup maʼnoli, xar bir ifoda etti qavat parda ichiga yashiringan. Masalan, maxhub deganda Xudoni, Paygambarni, Pirni va sevgan kishisini anglash, soqiy de ganda ham ayni Shu turt tushunchani eʼtiborga olish, lab deganda pirning soʻzini, Illohiy fayzni, qosh deganda Illohiy olam bilan moddiy olam chegarasini, bel deganda komil inson xayolini, ingichka bel deganda komil inson xayolining nozikligini, koʻz deganda komil insonning oʻzini nazarda tutish mavjud. Bu timsollarni batafsil anglamay, sufiyona Sheʼrni anglash mumkin emas. Ana Shu timsollar orkdli Navoiy va Mashrab lirikasida solik obrazi gavalantiriladi. Tariqat yulidagi musofir, Yani solikning kechinma va hayajonlari, Maxhub yodilagi talpinish, sarxushligi va xumori, vasl damlaridagi shodligi tasvirlanadi. Umuman Navoiyda insonning Illoh tomon kutarilishi (uruj) asosiy goyadir. SHoir Shu yul iztirobi va martabalarini turli vositalar bilan tasvirleydi. «Hamsa» dostonlari, «Lison ut-tayr» ham uruj-meʼrojni tasvirlovchi asarlardir. Oddiylikdan murakkablikka, dagallikdan yumshomikka, nodonlikdan donolikka, oddiy imonlilikdan yuksak irfoniy imonga usib chiqish.k. Boshqacha aytganda, kamolot kasb etish.k. Navoiyning ijodida mutlaqiylik hukmron: mutlaq yaxshilik (ezgulik) va mutlaq yomonlik (yovuelik)ni kuradi u. Uning uchun yomon — bu mutlaq kora rangda koʻrinadigan yomonlik. YAxshi — mutlaq yaxshilik, u nurli ranglar bilan jilolanadi. Shoirning hayotga munosabati ham ana Shunday. Uning uchun yomon shox barcha yomon xislatlarni jamlagan odam, yaxshi shox esa barcha ijobiy xislatlarni jamlagan Shaxs. YAxshi odam — xushaxlok, odil va oqildir. Yaxshilarning yaxshisi — eru koʻkni bir nazar bilan kamrab olgan Baxouddin Nakshband yoki oriflar orifi Abduraxmon Jomiy. Bular il oxi y uruj darajalaridan ildamlashib ketgan valiy insonlar. Komillik timsoli. Ular Navoiy nazarida reallik bilan noreallik yoxud dunyo bilan tayb olami orasidagi kishilardir. Ikki olamni bogʻlovchi komil insonning bir necha tipini Navoiy «Hamsa» asarida kursatib beradi.

Voqean, adabiyotning oʻzi komillik belgisi, komil soʻz, komil maʼno va komil tafakkur ifodasi. Bularni egallagan inson komil xilkat boʻla oladi. Demak, ulugʻ Alisher Navoiyning oʻzi komil insonning Yorkin timsolidir. Komil xilkat boʻlgan inson barcha narsada takomilni, etuk muntazamlik va moʻzayyanlikni koʻrmokchi boʻladi. Uning oliy orzusi — olamni ham, oʻzini ham nuksonlardan xoli holda tasavvur etish, insonni nuksonlardan xalos etish.k. Inson ruxi komillikka tashna, sanʼat va adabiyot esa Shu chankokni bostirish uchun xizmat qilib kelgan. Inson ruxining muʼjiza mavjlarini, farax va xurramligini ifodalagan. Inson ruxi sanʼatdan ozikdanib yayraydi va barcha kudratini sanʼatda kursata oladi.

Ulugʻ mutafakkir shoirlar ijodi buni asrlar davomida isbotlab kelmokda. Din, mifologiya, badiiy ijod birga, bakdmti rivojlandi, bir-birini tuldirib, bir-biriga madad berdi. Barchasining muddaosi Inson edi, Insonni oʻrganish va poklash edi. Garchi Illohiy goyalar kuylansa ham, lekin adabiyot inson kdlbining ifodasi boʻlib keldi. Zero, Illoh ham Inson qalbidadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf gʻoyalarining kirib kelishi.

2. She'riyat va tasavvuf.
3. Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g'oyalarining talqini.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Mistik hollarni chaqirish yo'llari.
2. Tasavvufda o'zini o'zi anglash yo'llari.

15-MAVZU. TASAVVUF PSIXOLOGIYASI PSIXOLOGIYANING YANGI TARMOG'I SIFATIDA.

Reja:

1. *Tasavvuf psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o'rni.*
2. *Tasavvuf psixologiyasi: metodologik muammolar va echimlar.*
3. *"Azvoj" – ziddiy juftlik tasavvufni o'rganishning metodologik tamoyili sifatida.*
4. *Tasavvuf metodologiyasi va aqoid.*
5. *Tasavvuf psixologiyasining tadqiqot predmeti bo'yicha turli xil qarashlar.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, psixologiya, tasavvuf psixologiyasi, metodologiya, metodlar, azvoj, fan predmeti, psixologik fanlar, psixologik fanlar tizimi, tamoyil, aqoid, ilohiylik, sinergetika, markscha-lenincha metodologiya, ochiq va yopiq tizimlar.*

Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida qadimgi odamlar tabiiy hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ibtidoiy jamoa a'zolarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ulardan Shaxslararo munosabatlarda oqilona foydalanish, o'zining xatti-harakati, shaxsiy faoliyati va muomalaga kirishishida ularni hisobga olishga intilib yashab kelganlar. Ko'p ming yillik ijtimoiy hayot tajribalariga asoslangan ravishda odamlar Shaxsning individual (lotincha "individuum" "alohida", "yakka hol", "odam" degani) xususiyatlarini jon bilan bog'lashga va uning ta'siri bilan izohlashga harakat qilishgan.

Qadimgi odamlarning tasavvurlariga qaraganda, inson tanasida jon joylashgan bo'lib, u Shaxsga oid xususiyatlar, xislatlarni vujudga keltirish imkoniyatiga ega emish.k. Qadimgi ajdodlarimizning "jon" to'g'risidagi tasavvurlari Shunga bog'liq, mutanosib tushunchasini keltirib chiqardi va buning natijasida animizm (lotincha anima "jon" degan) ta'limoti insoniyat tomonidan kashf qilinadi. Ibtidoiy xalqlarning tasavvurlarida ruh insonning tanasi bilan uzviy bog'liq holda hukm suradi, go'Yoki yashaydi. CHuning uchun ijtimoiy hodisalar, hatto ong, Shuningdek, real voqeliklar (o'lim, uyqu, bexush bo'lish, betoblik) kabilarni sodda tarzda moddiylik (mavjudlik) nuqtai nazaridan talqin qilishga uringanlar.

Sodda tafakkur shakllari bilan qurollangan qadimgi odamlar atrof-muhit to'g'risidagi rang-barang holatlar, hodisalar mohiyatini ilmiy jihatdan dalillash imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sababli idrok qilingan narsani uning haqiqiy mohiyati tarzida aks ettirishgan. Ularning tasavvurlarida quyidagicha talqinlar keng o'rin egallagan:

- 1) O'lim - uyquning bir turi, lekin ruh ba'zi bir sabablarga ko'ra tanaga qaytib kelmaydi?
- 2) tush ko'rish- uyqudagi tanani tark etib yurgan harakatdagi ruhning taassurotidir?
- 3) ruh - insonning aynan o'zidir?
- 4) ruhning eshtiyohlari, turmush haroitlari tirik odamnikidan tafovutlanmaydi?
- 5) marhumlarning ruhlari muayyan mashg'ulotlar tizimiga, ijtimoiy qonun- qoidalarga rioya qiluvchi hamjamiyatni yaratar emish?
- 6) tirik insonlar bilan marhumlarning ruhi bir-biriga bog'liq bo'lib, moddiy jihatdan o'zaro aloqadordirlar.

Qadimgi insonlar tabiatning qudrati (kuch-quvvati) oldidagi zaifligi tufayli yakka Shaxs ham, jamoa ham ruhga itoatkor tarzida tasavvur etilishi natijasida din, ibodat tushunchalari paydo bo'ladi. Insoniyatning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davomida mehnatni rejalashtirish,

ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari va ularning tabaqalaShuvi, odamlar tafakkurining rivojlanishi tufayli jonning (ruhning) moddiylikdan tashqari xususiyati, ko'rinishi yuzasidan g'oyalar vujudga keladi. Buning natijasida animistik tasavvurlar o'rnini ruhni borliqning naturalistik (lotincha "natura" -tabiat ma'nosini anglatuvchi) falsafiy manzarasi tarzida izoshlash namoyon bo'la boshladi:

1. Ruh olamining ibtidosini tashkil qiluvchi narsalar (suv, havo, olov)ning insonlar va hayvonlarga jon bag'ishlovchi shakli (Fales eramizdan oldingi VI – VII asrlar, Aneksimon asr, Geraklit VI-V asrlar)?

2. Eramizdan oldin ijod qilgan yunon faylasuflarining ilmiy izlanishlari natijasida materiyaning jonliligi, Yani gilozozizm (yunoncha "hule" – modda, "zol" - hayot ma'nosi) to'g'risidagi g'oya yuzaga keladi?

3. Materiyaning jonliligi haqidagi g'oyani rivojlantirgan atomizm (yunoncha "atomos"- bo'linmas degani) namoyandalari (Demokrit eramizdan avvalgi V-IV asrlar, Epikur IV-VIII asrlar, Lukresiy VI asr) bir qancha fikrlarni ilgari surdilar, jumladan:

A) Ruh tanaga jon bag'ishlovchi moddiy jismlar?

B) Moddiy asos sifatidagi aql?

V) Hayotni boshqaruvchi idrok vazifasini bajaruvchi a'zo?

G) Ruh bilan aql tana a'zolari, binobarin, ularning o'zi ham tanadir?

D) Ular harsimon, kichik harakatchan atomlardan iboratdir.

Atomistlarning fikrlari tahlili Shuni ko'rsatdiki, unda tananing (jonli narsaning) aks ettirishidan tortib to psixikaga (yuksak aql idrokgacha) jonliligi xususiyatining materiyaga xos xususiyat ekanligining e'tirof etilishi o'sha davr uchun buyuk ilmiy voqelik edi.

Yuqoridagi psixolog olimlarning mulohazalari organizmning anatomik- fiziologik uzilishi, miyaning tarkibi singari moddiy asoslarga suyangan holda real voqelikni tushuntirish imkoniyatiga ega emas edi. Xuddi Shu omildan kelib chiqqan holda insonning tafakkuri, Shaxsiy fazilatlarini, uning maqsad ko'zlashi, g'aybani idora etishga qobilligini dalillash to'g'risida fikr yuritish murakkab ruhiy jarayon hisoblanadi. Jumladan, Aflotun (eramizdan avvalgi 428 -347 yillar) jonning tarkibiy qismlari to'g'risidagi tushunchani psixologiyaga olib kiradi:

a) aql-idrok, b) jасorat, v) orzu-istak kabilardan iborat bo'lib, ular bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'iga joylashgandir. Aflotun psixologiyada dualizm (lotincha "dualis" ikki mustaqil ma'no bildiradi) ta'limotini ruhiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil narsa deb izohlaydi. Aflotunning shogirdi Arastu (eramizdan oldingi 384-322 yillar) o'zining ta'limotida psixologiyani tabiiy- ilmiy asosga qurib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'lab tushuntirishga erishgan. Arastuning "Jon" to'g'risidagi kitobi ma'lum bir davr uchun taraqqiyparvar manba vazifasini bajaradi. Unda odamlarning va hayvonlarning kundalik hayotiy lahzalarini kuzatish orqali yaqqol voqelikni tasvirlash, tahlil qilish jarayonlari mujassamlashgandir. Arastuning ta'kidlashicha, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda ro'yobga chiqadi. Uning mulohazasicha, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati, u tasavvur shaklida iz qoldirishi mumkin.

Qadimgi dunyoning keyingi rivojlanishi pallalarida psixologik g'oyalar mukamallashib, unga oid tayanch tushunchalar vujudga kela boshladi, hatto ruh hozirgi zamon psixikasi kabi qo'llanish ko'lami kengaydi. Psixika kateg'oriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, rumolik shifokor Galen (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumiyashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarni Yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari "ong" tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVIII asr biologiya va psixologiya fanlari taraqqiyoti uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan, fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan qo'lq- atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligi tushuntirilishi muhim

ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, refleks (lotincha “reflexus” aks ettirish) organizmning tashqi ta’sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinish, asab-mushak faoliyatini ob’ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi, sezgi, assosiasiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588- 1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta’kidladi. Uning negizida epifenomenalizm (yunoncha “epi” - o’ta, “phainomenon” g’ayritabiiy hodisa) vujudga keldi, Yani psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ro’y beradigan ruhiy hodisalar to’g’risidagi ta’limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko’lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, yani yaqqol narsa deb tushuntirdi. U determinizm (lotincha “determinara” - belgilayman) prinsipining, Yani tabiat, jamiyat hodisalarining, Shu jumladan, psixik hodisalarning ob’ektiv sabablari bilan belgilanishi haqidagi ta’limot targ’ibotchisi edi. Nemis mutafakkiri Leybnis (1646- 1716), ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704), ingliz tadqiqotchisi Gartli (1705- 1757), fransuz Didro (1713-1784) kabilar g’oyalari assosiasiyasi (bog’lanishi) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo’lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim ta’limotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo’shdilar.

XXI asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka), buning natijasida psixika miyaning funksiyasi ekanligi haqidagi ta’limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yozuvchi va harakat nervlari o’rtasidagi tafovut ochib berildi, uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha psixologiya fanida paydo bo’ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi. Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta’sirida rus olimi I. M. Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasi ro’yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o’ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo’ldi. Psixologiya fanining eksperimental, psixanalitik, bixevioristik, empirik, epifenomenalistik, geshtalt, assosiativ, vyursburg, psixogenetik, reduksionizm, solipsizm, gumanistik, biogenetik, sosiogenetik kabi yo’nalishlari tomonidan to’plangan ma’lumotlar hozirgi zamon psixologiyasini vujudga keltirdi. Xuddi Shu yo’nalishlarning rang-barang metodikalari, metodlari umumiy psixologiya fanining predmetini va uning tadqiqoti prinsiplarini aniqlab berdi.

Tasavvuf psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o’rni. Tasavvuf psixologiyasi: metodologik muammolar va echimlar. “Azvoj” – ziddiy juftlik tasavvufni o’rganishning metodologik tamoyili sifatida. Tasavvuf metodologiyasi va aqid. Tasavvuf psixologiyasining tadqiqot predmeti bo’yicha turli xil qarashlar. Tasavvuf psixologiyasining tadqiqot metodlari.

Ma’lumki, mustaqilligimiz sharofati bilan bugungi kunda buyuk yurtdoshlarimizning Shaxsiyatiga, qarashlariga, jahon fan va madaniyatiga qo’shgan hissasiga e’tibor kuchaydi. Darhaqiqat, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Hakim Termiziy, Imom Buxoriy, Abdulxoliq G’ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Burhonid-din Marg’inoniy, Mirzo Ulug’bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari yuzlab ulug’larimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon fan va madaniyatining peshqadamlari hisoblanishadi.

Xursand bo’ladigan bir holat Shundan iboratki, psixologiyaning turli xil yo’nalishlarida ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarimiz o’z mavzulari nuqtai nazaridan turib buyuk mutafakkirlarimizning asarlarini psixologik jihatdan tadqiq va tahlil qilmoqdalar. Bu millat, xalq buyuklarini ijobiy ko’rinishda o’rganishga ma’lum ma’noda qarshilik qilinib kelingan yaqin kelajakka nisbatan fanda tezlik bilan ildamlab ketish hisoblanadi. Bu tom ma’noda Mustaqilligimiz sharofatidir.

Biroq amalga oshirilayotgan psixologik tah-lillarning sifat va samarasiga diqqatimizni qaratsak, odamni ranjitadigan holatlar ham ko’zga tashlanib qolmoqda. Yuqorida nomlari zikr

etilgan buyuklarimizning asarlari, ta'limot va qarashlari psixologik jihatdan tahlil qilingandagi soxtaliklar, bir yoqlamaliklar, "xo'jako'rsinga" amalga oshirilgan tahlillar, birinchi manbadan foydalanmasliklar, tahlilda ko'proq muallifning emas, o'zining Shaxsiy xulosalarini ilgari surishlari, asosan, sobiq ittifoq davri olimlari asarlariga tayanishlari kabi salbiy holatlar kishi ko'nglini ranjitadi.

Fikrimizcha, bunday holatlarning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri – Islom Sharqi muta-fakkirlari qarashlarini o'rganish uchun maxsus metodologik tamoyilning ishlab chiqilmaganligidir. Ma'lumki, Shu paytgacha fanda u qanday yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar, materialistik yondaShuv asosiy metod hisoblanar edi. Albatta, fan taraqqiyotida uning o'rni bor. Biroq fanda Shunday sohalar borki, ularni sof materialistik yondaShuv bilan tadqiq qilib bo'lmaydi. Bu, ayniqsa, Islom Sharqi mutafakkirlarining asarlariga taalluqli gapdir. Shunki Markaziy Osiyodagi sivilizasiya VIII–XVI asrlar orasida kechdi. Ma'lumki, bu davr-da ilm-fan taraqqiyotini islomsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, masalan, Imom Moturidiyning qarashlarini o'rganmoqchi bo'lsak, materialistik yondaShuv Yordamida uni tushuntirib berolmaymiz. Qachonki, tadqiqot avvalida Allohning borligini, birligini, uning yaratuvchi Xoliq ekanligini, "Haq va xalq" munosabatlari, "Xoliq va maxluq" munosabatlari mavjudligini tan olmas va ularni tadqiqot mohiyatiga singdirmas ekanmiz, bu buyuk yurtdoshimiz qarashlarini psixologik jihatdan tahlil qila olmaymiz. Demak, bu o'rinda sobiq ittifoq davrida qo'llanilgan, aslida mazmun jihatdan o'sha davrdagiga nisbatan boshqacharoq mazmunga ega bo'lgan idealistik yondaShuv zarur bo'lib qolayapti. Fikrimizcha, bu yondaShuvdan qo'rqmaslik kerak. Shunki Prezidentimizning o'zi Islom dinining rivojlanishi uchun keng yo'l ochib bergan bo'lsa, Qur'oni karim muqaddas kitob deb tan olinib turgan bo'lsa, Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) hadislariga tayanib turilgan bo'lsa, idealistik yondaShuvni fanga kiritsak bo'ladi. Bu fikrlarimiz Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi so'zlariga hamohang bo'layapti: "Muqaddas Islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, Islom madaniyatining ezgu g'oyala-rini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda".⁵⁴

Hech bo'lmaganda muhim metodologik tamoyil sifatida maxsus olingan ayrim fanlar uchun qo'llasak bo'ladi, degan fikrdamiz. Aks holda, fa-qat materialistik yondaShuv orqali tadqiqot o'tka-zilsa, mutafakkirlarimizning falsafiy-psixologik qarashlari Shu darajada soddalashtiri-ladiki, hatto, masalan, Abu Ali ibn Sinoday islomiy e'tiqoddagi zotlar dahriy darajasiga tushirib qo'yilishi mum-kin. Misol keltiramiz. A.A. Xismatulinning "So'fiy-lik" deb nomlangan kitobi 2003 yilda Sankt-Peter-burgda chop etil-di. So'fiylikka, umuman, Islom diniga sof mate-rialistik yondoshgan muallif Muhammad (alayhis-salom)ga payg'ambarlik maqomi berilishini qu-yidagicha sharhlaydi: "Payg'ambarlikka chaqiriq motivasiyasi, uning hayotga tatbiq etilishi sababi, bir tomondan, Muhammadning merosxo'rga ega bo'lishdek tabiiy istagi bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur merosxo'ring (Yoki merosxo'rlarning) bo-lalikda vafot etib ketganligidadir".⁵⁵ Pay-g'am-barlik maqomatini agar YAratuvchi yo'q deyilgan holdagina Shunday tushuntirish mumkin.

Boshqa misol. Kim SHilin tomonidan yozilgan va 2007 yilda chop etilgan "Rus so'fiylari: YAngi in-soniyat va kelajak obrazi" degan kitobda Marks, V. Solov'ev, F. Dostoevskiy, Vernadskiy, Pushkin-lar Muso, Iso va Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) kabi ulug' payg'ambarlar darajasiga qo'yi-ladi. Mazkur xulosalar ham masala-ga materialis-tik yondaShuvning natijasi hisobla-nadi.⁵⁶

Yoki yana bir misol. V. Irvingning "Jizнь Muxammeda. Kniga o proroke" degan kitobiga M.B. Piotrovskiy so'ngso'z yozgan. Unda u Shunday deb yozadi: "Iloh bilan Payg'ambarning "muloqoti" ekstatik trans holatida sodir bo'lgan. Bu holatning psixologik tabiati hali ilmiy jihatdan tushun-ti-rib berilmagan. Shu bilan birga shaxsiy g'oyalarning tashqaridan

⁵⁴ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. 37-bet.

⁵⁵ Xismatulini A. A. Sufizm. – SPb.: "Peterburgskoe Vostokovedenie", 2003. – S. 28.

⁵⁶ Shilin Kim. Russkie sufii: Novoe chelovechestvo i obraz budushogo. – M.: Belovodse i dr., 2007. – S. 96.

kelayotgandek tasavvur etilishi hodisasi psixologlar tomonidan etarli dara-jada aniq qayd etilgan va bunga turli xil sivi-lizasiyalarning mistik tajribasida ko'plab misol-lar mavjud".⁵⁷ E'tibor qilinsa, M.B.Piotrovskiy vahiyni gallyusinasiya bilan tushuntirmoqda. Bunday talqin vahiylar hodisasiga sof materialistik yondashilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Nemis olimasi Annemarie SHimmel o'zining "Jonon mening jonimda" kitobida Shunday deb yozadi: "O'g'il farzand tug'ilganligini xursandchilik bilan ma'lum qilish, qiz tug'ilganida esa hafsalasi pir bo'lib, ruhi tushib, "ha, qiz ko'rdik" deb aytish ko'pgina qavmlarda o'ziga xos odat tusiga kirib qolgan. Shu sababdan, Islom avliyolari mo'jiza ko'rsatib, yangi tug'ilgan qiz bolani o'g'il bolaga aylantirib berishgan".⁵⁸ Bu endi hammasidan oshib tushgan. Agar Shunday bo'lganda edi, olamni o'g'il bolalar bosib ketgan bo'lmasmidi?! Bunday gapni tasavvufdan xabari bo'lmagan kishigina yozishi mumkin. Birinchidan, mo'jizani Alloh taolo payg'ambarlari vositasida ko'rsatadi, avliyolar emas. Avliyolar Allohning inoyati bilan karomat ko'rsatishgan, xolos. Shunda ham bunday ishni qilishmagan. Ikkinchidan, olima nimaga va qan-day manbaga asoslanib bu gapni aytganligini bi-lib bo'lmaydi. Fikrimizga ko'ra, bu uning Shaxsiy fikridir. Shaxsiy fikr ham mantiqqa to'g'ri kelishi kerak-ku!?

O.B. Frolova o'zining "Neizvestnye rukopisnye traktaty pervoy poloviny XVIII veka, posvyashchennye Ibn Arabi i ego filosofii" maqolasida ispan oli-mi A.G. Palensianing monografiyasidagi ma'lu-motga tayanib Shunday yozadi: "Uning (Ibn Arabiy-ning – X.A.) tushlariga o'zida xristian payg'ambari Ilyos va muqaddas Georgiyning xususiyatlarini mujassamlashtirgan payg'ambar Xizr kirar edi".⁵⁹ Bu ma'lumotni o'qib ensangiz qotadi. Nahotki, Xizr (alayhissalom) muqaddas Georgiyning xusu-siyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa?!

Budapesht universitetining professori I. Gol'dsigerning "Islom haqida ma'ruzalar" risolasi-da materialistik kayfiyatdagi quyidagi ho-latni kuzatsa bo'ladi: "Etnografik sharoitdan tashqari aziz-avliyolarga sig'inishga psixologik ehtiyoj ham yordam beradi: kundalik turmushi bilan bog'liq xilma-xil tashvishlarga va xohishlarga ega bo'lgan oddiy dindor bilan Alloh o'rtasida mislsiz masofa bor – uni nima bilandir to'ldirish ehtiyoji juda katta. Uni Shunday vositachi kuchlar bilan to'ldirmoq kerakki, bu kuchlarga oddiy dindorning ishonchi bo'lsin, hamma odamlardan, zaminu osmondan Yuqorida, hududsiz yuksaklikdagi Allohdan ko'ra ana Shu vositachi kuch dindorga yaqinroq bo'lmog'i, uning aqliga sig'mog'i lozim. Xalq Allohni butun koinotning hukmdori sifatida tan oladi va undan qo'rqadi. Alloh koinotdagi eng ulkan, eng ulug' voqea-hodisalarni boshqaradi. Shunday bo'lgach, u tor doiradagi odamlarning Yoki ayrim olingan bitta Shaxsning mayda-chuyda ehtiyojlari bilan Shug'ullana olmaydi-da! Bunaqa fikrni xayolga ham keltirib bo'lmaydi".⁶⁰

"Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va ama-liyotda namoyon bo'lishi" kitobidagi quyidagi chiqa-rilgan xulosalar ham masalaga nisbatan bir yoqla-ma va o'ta materialistik chiqarilgan xulosadir: "...tasavvuf ilmining bilimdoni G'azzoliy ta'li-motida yangi davr falsafa va psixologiyasiga mu-him hissa qo'sh-gan Z. Freyd ta'limoti – psixoanalizi aks etgan edi".⁶¹

Qanday qilib tavhidga asoslangan tasavvuf ta'limotida ateistik ta'limot hisoblangan psi-xoanaliz aks etishi mumkin!? Keyin paydo bo'lgan ta'limot qanday qilib o'zidan oldingisini o'zida aks ettirishi mumkin? Bu xulosa ham tasavvufni o'rganishda tegishli metodologik tamoyillarning ishlab chiqilmaganligi sababli chiqarilayapti.

Ko'rib turganingizdek, Islom Sharqi mutafak-kirlarining psixologik qarashlarini tadqiq qilishda sof materialistik yondaShuv fan uchun noto'g'ri, hatto bir qadar xavfli xulosalar yasalishiga olib kelar ekan.

⁵⁷ Piotrovskiy B. M. Posleslovie. – V kn.: Irving V. Jizn Muxammeda. Kniga o proroke. – Alma-Ata: Jazushi, 1990. – S. 304.

⁵⁸Shimmel Annemarie. Jonon mening jonimda. Islom olamida xotin-qizlar siymosi. – T.: "SHarq", 1999. 64-bet.

⁵⁹ Sufizm v kontekste musul'manskoy kul'tury. – M.: "Nauka". 1989. – S. 341.

⁶⁰Gol'dsigier I. Islom haqida ma'ruzalar /Tarj.:O.SHarafiddinov. – T.: "Akademiya", 2001. 14.

⁶¹Sinergetika:mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi. (Mas'ul muharrir: prof. Karimov B. R.). – T.: "Navro'z". 2017. 188-bet.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, alohida olingan fan sohalari uchun alohida maxsus metodologik yondaShuv zarurati ko'zga tashlanib turibdi. Aniqroq qilib aytganda, ongning turli xil darajalarini tadqiq qilish metodlarini ishlab chiqish uchun ham metodologik yo'l ochilishi lozim. Bu haqda pokistonlik mashhur shoir va faylasuf Muham-mad Iqbol Shunday deb yozadi: "Hatto Ibn Xaldun ko'rsatilgan darajalarni (ong darajalari – X.A.) tadqiq qilish uchun samarali ilmiy metodga bo'l-gan ehtiyojni his qilgan. Hozirgi zamon psixolo-giyasi yaqindagina Shunday metodning zarurligini anglab etdi, biroq Shu paytgacha ongning mistik darajalarining xarakterli xususiyatlarini kashf etish bo'yicha Yanada ilgarilab keta olmadi".⁶²

Nihoyat, muammoni ko'rsatish bilan birga biz o'z taklifimizni bermoqchimiz. Birinchidan, biz ilmiy psixologik tadqiqotlarda materialistik yondaShuvdan voz kechishni targ'ib qilayotganimiz yo'q. Aksincha, mazkur yondaShuv ham ayrim o'rinlarda, ayniqsa, tabiiy fanlarda zarurligi, Shubhasiz. Ikkinchidan, Islom Sharqi tafakkuri namunalarini sof idealistik yondaShuv Yordamida tadqiq qilish zarur, degan fikrni singdirmoqchi ham emasmiz. Idealistik yondaShuvni esa o'z o'rnida ilohiylik tamoyili orqali amalga oshirish mumkin. Bizningcha, masalaga o'rtadan kelib chiqqan holda yondashsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Xuddi inson ruh va tanadan tashkil topganidek, materialistik va idealistik yondaShuvlarni ham o'zaro hamkorlikda-gi yondaShuv sifatida qo'llasa bo'ladi. Ularni bir-biriga qarshi qo'ymasdan, har bir qismga alohida vazifa yuklab, tadqiqotlarda foydalanish Yuqorida zikr qilingan holatlarning kelib chiqishining oldini olgan bo'lar edi.

Shuningdek, "Psixologicheskie aspekty buddizma" kitobida ma'lum bir diniy ta'limotni tarixiy-psixologik jihatdan o'rganish uchun ikkita muhim narsani e'tiborga olish zarurligi ta'kidlanadi. Birinchi jihati dindorlarning inson psixikasi to'g'risidagi, uning elementlari va psixikaning ijtimoiy va biologik tomonlarining mushtarak-ligi haqidagi tasavvurlarning mohiyatini tadqiq qilish bilan bog'liq. Mazkur kitobda ikkinchi jihat to'g'risida Shunday deb yoziladi: "Ikkinchi jihat Shunday bir ta'sirni inobatga olish zarurati bilan bog'liqki, bunda dindorlarning ongi va xulq-atvoriga buddistlar madaniyatining barcha diniy-falsafiy kompleksi ta'sir ko'rsatadi".⁶³ Diniy ta'limotni o'rganishning mazkur ikki jihati, Yani "bu o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan buddizm psixologiyasini va buddistlar psixologiyasini o'rganishni taqozo qiladi, Shuning uchun ularni tadqiq etish faqatgina kompleks xarakterga ega bo'lishi mumkin"⁶⁴. Bu o'rinda diniy ta'limotni tadqiq qilishda kompleks yondaShuv zarurligi ta'kidlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, parapsixologik va diniy masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar uchun maxsus metodologik tamoyillar ishlab chiqilishi payti etib keldi. Mazkur masalaning ijobiy hal etilishi ma'lum fan tarmoqlarining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jaloliddin Rumiy: "Inkor qilinmagan nar-sa-ni isbot etish – zavqsiz, isbot inkorga qarshi qilinsagina xush bo'ladi"⁶⁵, deb yozadi. Rumiy hazratlari bu o'rinda Alloh yaratgan azvoj "**Biz sizlarni juft-juft qilib yaratdik**) "Naba' surasi-8 ,oyat ,⁶⁶ (juftlik ,albatta ,qarama-qarshilik , zidlik ko'rinishida bo'lishi zarurli-gi-ni ta'kidlaydi .Shunki qarama-qarshiliklar zamiridagina estetik zavq tuyish mumkin ,xush bir holga kelish mumkin .Qarama-qarshiliklar kurashi zamiridagina inson haqiqiy zavq tuyg'usini tuyadi .Demak ,Alloh bu olamni juft-juft qilib yaratish bilan birga olamning zavqu lazzatini ham Shu ziddiyat ichiga singdirib yuborgan .

Shu o'rinda falsafadagi " Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi "qonuniga qisqacha to'xtalib o'tmasak bo'lmas .Ma'lumki ,dialektikada uchta qonun mavjud bo'lib ,ularga " Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi " , "Miqdor o'zgarishlarining si-fat o'zgarishlariga o'tishi " va "Inkorni inkor etish "qonunlari kiradi " .Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi "qonuni bilan azvoj tushunchasi o'rtasida ko'zga ko'rinmas nuqtalarda mushtaraklik bor .Mazkur qonun voqelikning ,Shuningdek ,uni bilishning umumiy qonuni hisoblanadi va dialektikaning mohiyatini ifodalaydi .Voqelikdagi har qanday ob'ekt qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi .

⁶²Ikbal Muxammad. Rekonstruksiya religioznoy mysli v islame. – M.: Vostochnaya literatura, 2002. – S. 200.

⁶³Psixologicheskie aspekty buddizma. – Novosibirsk, "Nauka", 1986. – S. 158.

⁶⁴O'sha asar, 6-bet.

⁶⁵Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.: "YAngi asr avlodi", 2003. 144-bet.

⁶⁶Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolari tarjima va tafsiri". TIU matbaa birlashmasi, 2014 yil. Keyingi o'rinlarda shu manbadan foydalaniladi.

Dialektikada qarama-qarshiliklarning quyidagi uchta muhim tomoni ajratib ko'rsatiladi : birinchisi – qarama-qarshiliklar o'zaro chambarchas birlikda bo'ladi ;ikkinchisi – o'zaro bir-birini istisno qiladi ;uchinchisi – o'zaro bir-biriga o'tib turadi“.Birliksiz qarama-qarshiliklar ham bo'lmaydi ,qarama-qarshiliklarsiz birlik ham bo'lmaydi .Qarama-qarshiliklar birligi nisbiy , vaqtlidir ,qarama-qarshiliklar kurashi absolyutdir .Bu qonun har qanday harakatning ob'ektiv , ichki“ manbai”ni tushuntirib beradi ,hech qanday chetdagi kuchlarga murojaat qilmasdan , harakatni o'z-o'zicha harakat deb tushunishga imkon beradi ⁶⁷.”Hayotning ,tiriklikning asosida aynan mana Shu qarama-qarshiliklar yotadi .Bu Islom falsafasida azvoj deb ataladi .Biz quyida azvojning mazmuniga kirib boramiz.

Darhaqiqat ,bizning hayotimiz ham“ istash va istamaslik ”degan ziddiy juftlik zamirida yotadi .Mana Shu zidlar ichida qanchadan-qancha his-tuyg'ularimiz ,ehtiroslarımız ,alamu shod-lik-larimiz ,zavqu noxushliklarimiz singib ketgan .Istagan narsamizga etishib ,bir dunyo zavq-shavq olamiz .Istagan narsamizga etisha olmay g'am-qayg'uda qolamiz .Istamagan narsamiz sodir bo'lmasa ,Yana xushvaqt bo'lamiz .Istamagan narsamiz ro'yobga chiqsa ,Yana azob chekamiz .Demak“ ,istash va istamaslik ”degan ziddiy juftlik ichida bizning hayotimizning hissiy-emosional tomonlari singdirib yuborilgan .Junayd Bag'dodiydan“ :Sen nimani istaysan ”? deb so'rashganlarida“ ,Hech narsani istamaslikni istayman ”deb javob bergan edi“.Hech narsani istamaslikni istash ”maqomi Shunday yuksak ma-qomki ,bunda odam“ istash va istamaslik ” ziddidan yuksaklikka ko'tariladi .Bu maqomda rabboniy xislatlar odamning ruhiyatiga mehmon bo'lib keladi .Bu Shunday yuksak darajadagi YAratganga tavakkulki ,bunda odam g'amni ham , shodlikni ham ;baxtni ham ,baxtsizlikni ham ;topishni ham ,yo'qotishni ham – hammasini Undan deb biladi ,his qiladi .Bu Shunday yuksak darajadagi zuhdki ,odam tirikchilik g'ami deb yuguradi-eladi ,topadi ,hatto o'ta boyib ketishi ham mumkin ,ammo bularning hech biridan zavq-shavq tuymaydi .Yani“ kambag'allik va boy bo'lishlik ”degan ziddan Yuqori bo'ladi .Kambag'al bo'lsa ,g'amga botmaydi ,boyib ketsa ,kibrga bormaydi .U o'zida yolg'iz oxirat sarxushligini va ahadiyat mastligini) bu mutlaqo boshqacha zavq (tuyadi ,xolos .

Yoki“ man va amr ”ziddiy juftligini kuzataylik .Bu ham Allohning bizga jo'natgan azvojidir .Bu juftlikda ham qarama-qarshiliklar kurashi va birligi yotadi .Man qilingan narsa amr qilingan narsaning inkori bo'lsagina ,u asl mohiyatiga mos keladi .Man bilan amrning orasida bir olam insoniy his-tuyg'ular ,tushunchalar yotadi .Agar man bilan amr biri ikkinchisining inkori , ziddi bo'lmasa ,bu his-tuyg'ular ,ehtiroslar mutlaqo kuzatilmaydi .Masalan ,shakarni eng ,degan amr .U insonda biror ehtiros ,ruhiy kechinma chaqirmaydi .Shunki inson Shundoq ham shakarni iste'mol qiladi .Yoki siz najas tekkan suvga tahorat qilmang .Yoki qusib tashlangan narsani qayta emang .Bular ham insonni qiynoqqa soladigan ,o'zgacha bir ruhiy holat chaqiradigan taqiq emas .Shunki Yuqoridagi ishlar man qilinmasa-da ,odamlar bunday qilishmaydi .Demak ,amr qilingan amalning inkorini ,aksini qilish insonda ma'lum ruhiy iztirobni chaqiradi.Yoki man qilingan ishni qilish ham insonni azoblaydi. Masalan ,aroq ichmang ,u – harom ,deyildi .Aroq ichish inson nafsining xohishi bo'lishi mumkin .Shundagina man qilingan amalni o'z nafsingiz uchun qilmasligingiz sizda ma'lum zavq tuyg'usini chaqiradi .Shunki siz manni o'z nafsingiz uchun ham man qildingiz .Yoki amrdan bir misol .Uylanganingizda qizlarning nasabiga ,mol-davlatiga Yoki husniga qarab emas ,balki imoniga qarab uylaning .Sizning aynan imonli qizga uylanishingiz amrga itoat etga-nin-gizdir .Nafsingizning xohishi qizning nasabi ,mol-davlati Yoki husnidir .Siz amr qilingan narsani bajardingiz va siz bundan bir olam zavq olasiz.

Allohning ko'plab oyatlari va Payg'ambarimiz) sollallohu alayhi va sallam(ning hadislarini mohiyat e'tibori bilan amr va manlardan iboratdir .Ularni bajarib bir dunyo lazzat olamiz ,ruhan yuksalamiz.

Demak, amr bilan man azvoj bo'lsagina ,Yani bir-birini taqozo qiluvchi zidlik bo'lsagina (zid zidni yaratadi) “Yuqoridagi sifatarga ega bo'lar ekan. Aslida taqiq bu uning ziddini qilish uchun amrdir .Man va amr zidligida asl tushuncha amrdir .(Shu o'rinda yapon yozuvchisi Kobo

⁶⁷ Filofofiya lug'ati. – T.: “O'zbekiston”, 1976. 639-bet.

Abening“ jazolash xavfi bo'lmasa ,qochish shodligi ham bo'lmaydi ,”degan fikri yodimizga tushadi .Bu – o'ziga xos azvojning obrazli sharhidir ⁶⁸ .

Bu olamning ziddiy juftlari biri ikkinchisi-siz tushunilmaydi ,birisiz ikkinchisiga etishilmaydi .Masalan“ ,unutish va topish .”YAratilmishni unutib – YAratuvchini topasan , YAratuvchini unutib yaratilmishni topasan .YOxud yo'qlik va borliq .Bunda ham xuddi Shunday dialektik munosabat mavjud .O'zingni o'zingda yo'q qilib ,buyuk borliqqa ega bo'lasan“ .O'lim va hayot ”azvoji .Bu dunyoda o'z nafsingni) o'z“ Men”ingni (o'ldirish bilan mangu hayotga ega bo'lasan .YOxud aksincha ,dunyoviy tirikli-ging uxroviy o'limingdir.

Xulosa Shuki, Shu ziddiy juftlikdan bizning dunyoviy hayotimizning ma'nolari tug'iladi. Bamiso-li erkak va ayol degan ziddiy juftlikning o'zaro munosabatlaridan farzandlar dunyoga kelishgani-dek. O'sha farzandlar dunyoviy hayotimizga ma'no va Shu-kuh bag'ishlaydi, naslimizni (demak, taraqqiyot-ni) ta'minlaydi. Ular keyingi ziddiy juftlik-ni paydo qilishadi va Yanagi taraqqiyot zanjiri tug'iladi va hokazo. Eng muhimi, bu dunyoga ma'-ni va tarovat bag'ishlagan farzandlar qiyomatda, Yani Ahadiyat qonunlari hukm surgan holatda ahamiyatga ega bo'lmay qolishadi. Shunki **“o'sha kuni kishi o'z birodaridan qochur. Yana onasi va otasidan ham, xotini va o'g'illaridan ham** (qo-chur)⁶⁹ (Bu jumla oyatning ham mazmunidir (Abasa su-rasi, 34–36-oyatlar).

Yana bir muhim xulosa Shundaki, bu ziddiy juftliklarda ziddiyatli (itaruvchi, inkor qiluvchi) kuchni aniq ko'ramiz-u, biroq ular orasidagi joziba (tortiShuv, bir-birini zarur qilib qo'yuvchi) kuchni har doim ham ko'ra bilmaymiz. Har qanday kuchlardan biri asl bo'lgani singari (masalan, “ezgulik va yovuzlik” ziddiy juftligida asl-ezgulik, “kufr va din”da asl-din va h.k.) itaruvchi va tortuvchi kuchlarda tortuvchi kuch asldir. Qiyomatda zidlik bo'lmagani sababli mazkur kuchlar ham, tabiiyki, yo'q bo'ladi. Mana nimaga

“O'sha kuni kishi o'z birodaridan qochur. Yana onasi va otasidan ham, xotini va o'g'illaridan ham (qochur)”, Yani hamma o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi.

Hatto kalimai tavid ham ziddiy juftlik aso-sida qurilgan. Ma'no jihatdan inkor va isbot birligi Shu kalimada mujassam. “La ilaha” – inkor qismi, Yani “Hech qanday iloh (Xudo) yo'q” ma'nosida. Demak, Allohdan o'zga ilohlar inkor qilinayapti. “Illalloh” – isbot (tasdiq) qismi, Yani “faqatgina Alloh bor” ma'nosida. Demak, Allohning borligi tasdiq qilinayapti. E'tibor qilinsa, bu ma'naviy zidlikda asl qismi isboti. Shunki inkorning o'zi Allohning borligini tasdiqlab turibdi. Biz o'zimizda aslni noasldan farqlash ko'nikmasini shakllantirishimiz zarur.

Qur'oni karimning Mulk surasi, 2-oyatida Shun-day deyiladi: **“U o'lim va hayotni sizlarning qaysilaringiz amalda yaxshiroq ekaningizni sinash uchun yaratgandir. U Aziz (qudratli) va G'afur (kechirimli)dir”**. Bu o'rinda “o'lim va hayot” ziddiy juftligi haqida gap ketayapti. Mazkur oyatni Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning “O'lishingizdan oldin o'ling” hadisi bilan tushuntirsa bo'ladi. Inson bu dunyodan voz kechibgina oxirat abadiyatiga sazovor bo'ladi. Inson fiziologik o'lim kelgunicha, Yani o'zining biologik organizm sifatidagi ko'rinishi-ni yo'qotgunicha nafsini o'ldirishi kerakligi nazarda tutilgan. Shunki bu hayot aslida ro'yodir. Uyqu engil o'limdir. O'lim esa og'ir uyqudir. Insonning bu hayotining o'zi asli mohiyatiga ko'ra ekin-tikin qilishimiz mumkin bo'lgan bir maydondir. Ertaga daladagi hosilimizni o'rib olib, asl uyimizga har kim har xil xirmonni ko'tarib ravona bo'lamiz. Uy esa oxirat diYoridir. Demak, bu boqiy umrimiz foniq umrimiz bilan uzviy bog'liq va u “fano va baqo” ziddiy juftligida aks etadi. Fanoda “o'lgan” odam baqoda abadiyatga etishadi. Bu haqda Najmiddin Kubro Shunday deb yozadi: “Shuurli o'limdan keyingi bu hayotga “Hayoti haqqoniya” deb nom berilgan. Bunda foniq nechog'lik erib, oqib ketsa, boqiy Shunchalik ustuvorlashadi. Va bundan keyin boqiyning hukmi vojib bo'ladi”.⁷⁰

Demak, Alloh taboraka va taolo o'lim va hayotni insonni sinash uchun yaratgan ekan, bu dunyoda “o'l-gangagina” u dunyoda abadiyat hayotiga (saodatiga) etishishi ta'kidlanayapti. O'z

⁶⁸ Kobo Abe. Женина в песках. СHujoe liso: Романы. /Per. s yap. V.Grivnina: Predisl. G. Zlobina. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1988. – S.350.

⁶⁹ Jiyloniy Abdulqodir. Rabboniylikni anglash. Ikkinchi kitob. – T.: “Movarounnahr”, 2006. – B.127.

⁷⁰ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. 79-bet.

nafsini o'ldirgan odamga nafaqat oxirat saodati, balki Shu dunyoning o'zidayoq bir go'zal hayot ato qilinajak.

Qur'oni karimning ko'plab oyatlarida ziddiy juftliklar haqida fikr yuritiladi. Masalan, Fotir surasining 19–21-oyatlarida Shunday deyiladi: **“Ko'r bilan ko'ruvchi barobar bo'lmas, zulmatlar bilan nur ham, soya bilan jazirama ham** (barobar bo'lmas)”.

Abduqodir Jiyloniy hazrat-lari ham bir qancha azvojlari to'g'risida Shunday deb yoza-di: “...siddiq bilan zindiqni farqlamaysizlar. Shuningdek, halol bilan haromni, zaharlangan bilan zaharlanmaganni, mushrik bilan mu-vah-hidni, muxlis bilan munofiqni, osiy bilan toatdagini, Haq taoloni xohlovchi odam bilan xalq-ni xohlovchi odamni farqlamaysizlar”.⁷¹

“Odobni odobsizdan o'rgan” maqolining zamirida ham ziddiy juftlik o'rtasidagi dialektik aloqa ko'rsatilgan. “Odoblilik va odobsizlik” ziddiy juftligida odobning manbai aynan odobsizlik zamirida yotganligi ta'kidlanayapti. Odobsizlik sifatlarining ziddini qilish or-qali odobga etishish mumkin. Yoki aksincha, odob sifatlarining ziddi odobsizlikni keltirib chiqaradi. Demak, biri ikkinchisiz tushunil-maydi ham, paydo bo'lmaydi ham. Bu erda eng muhimi, asl matohni ajrata bilishdadir. Masalan, yong'oqni bir-biriga urishtiri bo'ynab o'tirgan bolaga: “Ey bola, yong'oqni chaqsang, mag'zi bor, mag'izni siqsang yog'i bor. O'shalarni esang maza qi-lasan” desang, bola: “Mayiz Yoki yog'ni bir-biriga urishtirsam, mana Shunaqangi ovoz chiqadimi?” deb so'raydi. “Yo'q” desang, bola: “Unda menga mag'iz ham, yog' ham kerak emas”, deydi. Demak, bola yong'oqni urishtirishdan chiqadigan ovozga ishqiboz. Bolada aslni noasldan farqlash qobiliyati shakllanma-gan. Aslida aslni noasldan farqlash qobiliyati imon deb ataladi.

Ziddiy juftlik dialektikasining muhim bir tomoni Shundaki, ziddiy juftlikning bir tomonining taqdiri ikkinchi tomonga bog'lab berilgan. Masalan, kufri inkor qilish orqali inson dinga kirib boradi. Yoki aksincha, dinni inkor qilgani sari inson kufri tuta boradi. Jaloliddin Rumi Shunday deb yozadi: “Ashyo” qiymati ziddi bilan ayon bo'ladi. Ziddi bo'lmagan narsani ta'rif etmoq imkonsizdir. Alloh nurning oshkor bo'lishi uchun qorong'u etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi”.⁷²

“Ziddiy juftlik” so'zining ma'nosidanoq ikki qarama-qarshi tushunchalarning bir o'ringa keltirilganligining guvohi bo'lamiz. “Ziddiy”, Yani juftlar o'zaro bir-biriga zid, qarama-qarshi degani. Demak, ular bir-birini itarib turadi. “Juftlik”, Yani juftlar bir-birini taqozo etadi. Demak, ular bir-birini tortib turadi. “Ziddiy juftlik” dialektikasining muhim tomoni Shundaki, juftlikni tashkil qiluvchi tomonlar bir-birini bir vaqtning o'zida ham itaradi, ham tortadi. Bu haqda Najmiddin Kubro o'zining “Favoyih ul-jamol” asarida Shunday deb yozadi: “Xumud va jumud bir-birini izlovchi ikki holdir. Otash o'chishi bilan ustini kul qoplar. Joy va narsa bor ekan, albatta, uning ziddi ham mavjud. Bu ikki hol doimiy o'laroq, to SayYor sovuq va issiqdan zarar ko'rmaydigan holga etishguncha unga hamroh bo'ladilar”.⁷³

Fan tabiatda tortishish va itarishish kuchlari-ning mavjudligini isbotlab berdi. Har qanday jismlar bir-birini itarib va tortib turishligi oqibatidagina biz ko'rib turganimiz moddiy olam mavjuddir. Masalan, atomlarni olaylik. Atomning tuzilishi quyidagicha: o'rtada yadro, yadroning atro-fida elektronlar (manfiy zarrachalar) aylanib turadi. YAdro esa pozitron va neytronlardan tashkil topgan. YAdrodagi pozitronlarning miqdori uning atrofida aylanib yurgan elektronlar miqdoriga teng. Eng muhimi Shundaki, elektronlar yadro atro-fi-da muayyan troektoriya bo'yicha aylanadi. Buni esa elektronlar bilan yadro o'rtasida aniq o'rnatilgan itarish va tortish kuchlari ta'minlab turadi. Agar faqat itarish kuchlari bo'lganida, elektronlar o'z mehvaridan chetga uchib chiqib ketgan bo'lardi. Agar faqat tortishish kuchi bo'lganda edi, elektronlar yadroga kelib urilgan va qo'shilib ketgan bo'lardi.

Xuddi Shunday misolni Quyosh sistemasida ham kuzatsa bo'ladi. Bu endi astronomiyaga xos misol. Ma'lumki, Quyosh atrofida sayYoralar aniq bir traektoriyada va aniq bir tezlik bilan harakatlanadi. Shu jumladan, kurrai zaminimiz ham. SayYoralarning muayyan bir traektoriyada

⁷¹ Jiyloniy Abdulqodir. Rabboniylikni anglash. Ikkinchi kitob. – T.: “Movarounnahr”, 2006. 39-bet.

⁷² Rumi Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.: “YAngi asr avlodi”, 2003. 76-bet.

⁷³ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. 160-bet.

muayyan bir tezlik bilan harakatlanishi asosida ham itarish va tortish kuchlarining mutanosibligi yotadi. Hatto Isaak Nьyuton butun olam tortishish qonunini kashf qildi. Ma'lum bo'lishicha, olamdagi barcha jismlar bir-birini massalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsional, o'rtasidagi masofa kvadratiga teskari proporsional kuch bilan tortar ekan.

Yuqoridagilardan bir qancha xulosalar chiqarsa bo'ladi. Birinchidan, itarish va tortish kuchlari o'rtasidagi mutanosiblik moddiy olamni muayyan ko'rinishda saqlab turadigan murvat bo'lib, bu murvatning buralishi mutlaqo odamga bog'liq emas ekan. Bu murvatni harakatlantiruvchi manba ilohiyatga xosdir. Ikkinchidan, bu kuchlarning asli tortish kuchidir (jazbadir, ishqdir). Uchinchidan, mazkur kuchlarning mutanosibligi Alloh yaratgan azvoj – ziddiy juftlikning mavjudlik sharti-dir. Kamondagi paykonni tortib otmoqchi bo'lga-nin-gizda, tortish kuchiga mos holda paykonni itarish kuchi ham paydo bo'ladi. Bu olamdagi jami-ki yaratilmishlar juft-juft ko'rinishida yaratildi va bu juftlarning hammasiga itarish va tortish kuchlari xosdir.

Ziddiy kuchlarga xos bo'lgan itarish va tortish kuchlari haqida Qur'oni karimda juda ko'p ibratli oyati karimalar mavjud. Masalan, Nahl surasining 12-oyatida

“U sizlar uchun kecha va kunduzni, Quyosh va Oyni bo'yin sundirib qo'ydi. Yulduzlar ham Uning amriga bo'yinsundirilgandir. Albat-ta, bunda anglaydigan kishilar uchun (Uning qudratiga dalolat qiluvchi) alomatlar bordir”. Bu erdagi “bo'yinsundirilgan” lafzining ma'-no-si Shundaki, butun olamning tarqab ketmasligi Yoki bir butun bo'lib qolmasligi uchun itarish va tortish kuchlarini yaratib qo'yganligi nazarda tutilayapti. Isro surasining 12-oyatida Shunday deyiladi:

“Biz kecha va kunduzni (qudratimizni ko'rsatib turadigan) ikki belgi qilib qo'ydik. Kecha-ning belgisini o'chirdik. Kunduz alomatini esa, Rabbingizdan fazl (rizq) istashlaringiz uchun hamda yillar sanog'ini va hisobini bilishin-giz uchun Yorug'lik qilib qo'ydik. Barcha narsani batafsil bayon qilib qo'yganmiz”. Olamning Alloh tomonidan o'rnatilgan ilohiy uyg'unligi naqadar go'zal holda ta'riflangan!

Umuman aytganda, butun moddiy olamni tartib-ga solib turadigan itarish va tortish kuchlari biz-ning turmush tarzimizda va hatto ma'naviy-ruhiy olamimizda ham o'z tartibini o'rnatadi. Masalan, ma'naviy-ruhiy olamdagi ziddiy juftliklar-dan biri “mehr va qahr” ziddiy juftligidir. Biz mehrdan qay darajada uzoqlashganimiz sari qahr-ga boramiz. Qahrdan uzoqlashib mehrga kelamiz. Ular bir-birini tortib va itarib turadi.

Mazkur itarish va tortish kuchlari haqida X. Nurboqiyning “Qur'oni karimning ilmiy mo'jizalari” kitobida ham keltiriladi. Muallifning yozishicha, itarish va tortish kuchlari butun olamni biz ko'rib turgan holda tartibli ushlab turgan ilohiy kuch hisoblanadi.

Ma'lumki, Qur'oni karimning ko'plab oyatlarida azvojlarning turli xil ko'rinishlari to'g'risida aytiladi. Masalan,

Balad surasining 10-oyatida:“**Yana uni ikki balandlikka (ikki xil yo'lga) yo'llab qo'ydik-ku!**” – “ikki balandlik” tushunchasi;

An'om surasining 1-oyatida:“**Hamd osmonlar va Erni yaratgan ,zulmatlar va nurni paydo etgan Allohga) xos(dir .So'ng-ra kofir bo'lganlar) soxta ma'budalarni (Par-vardigorlariga tenglashtirmoqdalar“ – ”zulmat va nur ”tushunchasi ;**

3-oyatda :“**U osmonlarda ham, Erda ham Allohdir. Sir tutganu oshkor qilgan narsalaringizni bilur. Qilayotgan ishlaringizni (ham) bilur” – “sir va oshkor” tushunchasi;**

13-oyatda:“**Kecha va kunduzda sokin turuvchi narsalar (ham) Unikidir. U Same' (eshituvchi) va Alim (biluvchi)dir” – “kecha va kunduz” tushunchasi;**

Anfol surasining 37-oyatida:“(Bu) **Allohning nopokni pokdan ajrim eti-shi va nopok (kimsa-kofir)larni birbirlariga qo'shib, qalashgan hollarida hammasini jahannamga tashlashi uchundir. Ana o'shalar zi-yon ko'ruvchilardir!**” – “nopok va pok” tushunchasi;

Hijr surasining 23-oyatida:“**Albatta, Biz (barcha jonzotni) tiriltirur-miz va o'ldirurmiz. Biz – vorislardirmiz” – “hayot va o'lim” tushunchasi va hokazolar bunga mi-sol bo'la oladi.**

Endi ziddiy juftliklarning tortish va itarish kuchlari to'g'risidagi fikrlarimizdan chiqaradigan eng muhim xulosaga o'tamiz. Bu qiyomat masalasiga borib taqaladi. Qur'oni

karimning Zuho surasining 4-oyatida Shunday deyilgan: **“Albatta ,Siz uchun oxirat)** saodati (**dunyo**) farog’ati(**dan yaxshiroqdir .”**.Alloh Shu moddiy olam-ni – dunyoni yaratarkan ,uning ziddiy juftini yaratmog’i zarur edi .Shunday qilib ,Yuqoridagi oyatdan dunyoning ziddiy jufti oxirat ekanligi ma’lum bo’lmoqda .Demak“ ,dunyo va oxirat ”ziddiy juftligi mavjud ekan . Ziddiy juftlikni tashkil qiluvchi unsurlar) elementlar ,(albatta ,o’zaro dialektik munosabatda bo’ladi“ .Nur va zulmat ”ziddiy juftligida nur zulmatga ,zulmat esa nurga“ homilador ” hisoblanadi .Bu“ ho-miladorlik”ning“ tug’ish ”chegarasida nur zulmatga ,zulmat esa nurga aylana boradi .Demak ,ziddiy juftlik unsurlarining biri ikkinchisiga o’tishida miqdor o’zgarishlarining sifat o’zgarishlariga o’tishi qonu-ni kuchga kiradi .Masalan“ ,baxillik va saxiylik ”ziddiy juftligida baxil xayr-ehsonni miqdor jihatdan ko’paytira boradi va bir chegaraga borganda hamma uni saxiy inson deya atab boshlaydi .Demak ,miqdor o’zgarishlari sifatning o’zgarishiga olib keladi“ .Kecha va kunduz ”ziddiy juftligida ham kecha Yorisha borib ,Shunday chegaraga keladiki ,endi odamlar uni kunduz deb atab boshlaydilar .Demak ,Yorug’likning miqdori osha borib ,Shunday chegaraga keladiki ,bu chegaradan endi mutlaqo boshqa sifat ,Yani kunduz dunyoga keladi .Savol tug’iladi“ :Dunyo va oxirat ”ziddiy juftligida ham Shunday chegara mavjudmi ?Ha ,mavjud .Bu chegarani qiyomat deb atashadi .Qiyomat Shunday bir chegaraki ,bu chegaradan boshlab sifat o’zgarishlari kuzatiladi .Qiyomatgacha sodir bo’ladigan miqdor o’zga-rish-lariga qiyomatning kichik va katta alomatlari kiradi .Ularning miqdori osha borib ,ma’lum chegaraga etgach ,dunyo oxiratga aylanadi .Bu dunyoda hukm surgan qonun-qoidalar oxiratda o’zga-cha qiyofada bo’ladi .Qiyomat haqida Qur’oni karim-dagi oyatlarga nazar tashlaylik .Ular quyidagilar :Qiyomat surasining-10–7 oyatlari: **«Bas, (qiyomat dahshatlaridan) ko’z qamashganda, Oy ham tutilganda, Quyosh va Oy birlashtirilganda, ana o’sha kunda inson: “(Jazodan) qochadigan joy qaerda?” – deb qolur»**.

Mursalot surasining 8, 9 va 10-oyatlari:**“Bas, qachonki, yulduzlar (nurlari) so’ndirilgach, osmon (qobig’i) ochilgach, tog’lar (qumlar kabi) sochilgach (qiyomat qoyim bo’lur)”**.

Naba’ surasining 20-oyati:**“Tog’lar ham (joylaridan) to’zitib yuborilur. Bas, u sarobga aylanib qolur”**.

Infitor surasining 4-oyati: **“Qabrlar ag’darilganida (Yani qiyomat qoyim bo’lganida)”**.

Qoria surasining 4-oyati:**“U kuni odamlar to’zitib yuborilgan ko’r-sha-palaklar kabi bo’lurlar”** va h.k.

Shunday suralardan Takvir surasining 1–3 va 11-oyatlarini tahlil qilaylik: **“Quyosh o’rab qo’yilganida, yulduzlar ham (o’z fa-laklaridan) to’kilganida, tog’lar ham (o’z joy-laridan) jildirilganida; Osmon (Er ustidan) sidirib olinganida”**.

Agar e’tibor qilib qaralsa, mazkur oyatlarda gap qiyomatda itarish va tortish kuchlarining olib tashlanishi holati haqida borayapti. Qoria surasining 5-oyatida: **“Tog’lar esa titilgan yung kabi (havoda uchib yuradigan) bo’lur”**, deyilayapti. Bunday holga tog’lar faqatgina itarish va tortish kuchlari olib tashlanganda kirishi mumkin. Duxon surasining 41-oyatida: **“U kunda do’st do’stga biror narsada asqot-mas va ularga Yordam ham berilmas”**, deyilayapti. Bu erda do’stlik deb atalgan tortish kuchining qiyomatda olib tashlanishi haqida gap bormoqda. Demak, qiyomat Shunday bir chegaraki, bu chegarada barcha ziddiy juftliklarga xos bo’lgan qonun-qoidalar (tortish va itarish kuchlari) Allohning irodasi bilan kun tartibidan olib tashlanadi. Buni Qur’oni karimdagi bir qancha oyatlar isbot-lab turibdi. Infitor surasining 19-oyatida: **“U kunda hech bir jon (boshqa) bir jon uchun biror narsa qilishga (Yordamga) ega bo’lmas! U kuni barcha ish Allohga (havola qilinuvchi) dir”**. E’tibor berilsa, “bir odam bilan ikkinchi odam” o’rtasidagi ziddiy juftlik qonuni – tortish va itarish kuchlari yo’qolganligi ma’lum bo’layapti. **“U KUNda kishi o’z og’a-inisidan ham, onasi va otasidan ham, xotiniyu bola-chaqasidan ham qochur”**. Bu oyatdan Shuni xulosa qilish mumkinki, odamlar o’rtasidagi tortish va itarish kuchlari oxiratda Allohning irodasi bilan yo’qolar ekan. Odiyot surasining 10-oyatiga e’tiborni qaratamiz: Qiyomat haqida aytila turib, uning bir belgi-si sifatida quyidagi holat keltirilayapti: **“Va dillardagi sirlar oshkor qilinganida”**. “YAshi-rilganlik va oshkoralik” ziddiy juftligidagi

tortish va itarish kuchlarining yo'qolganligi bois hamma narsa oshkor bo'layapti, Yani ziddiy juftlik o'z-o'zidan mohiyatini yo'qotayapti. Hamma o'zi bilan o'zi qoladigan oxiratda ziddiy juftlik tushunchasi yo'qolayapti. Dunyoda "savob va gunoh" ziddiy juftligi biri ikkinchisiga uzviy bog'liq holda mavjud bo'lsa, oxiratda ular uzilgan, bir-biri bilan bog'lanmagan, alohida-alohida holda kelayapti. Bu nima degani? Bu qiyomat miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishining Shunday bir chegarasi deganiki, bundan keyin endi dunyoda hukm surgan ziddiy juftlik qoidalarining o'rniga ahadiyat (yakkalik) qoidalari hukm suradi.

Anfol surasining 37-oyatlarida: "(Bu) **Allohning nopokni pokdan ajrim eti-shi va nopok (kimsa – kofir)larni bir-birla-riga qo'shib, qalashgan hollarida hammasini jahannamga tashlashi uchundir. Ana o'shalar zi-yon ko'ruvchilardir!**" deyilayapti. Bu oyat ham qiyo-matning muhim bir belgisini aniq-ravshan ko'r-satib turibdi, Yani "nopokni pokdan ajratish" deyilayapti. Bu degani "poklik va nopoklik" ziddiy juftligidagi tortish va itarish kuchlari yo'-qolib, yakkalik holati boshlanadi.

Boshqacha aytganda, ziddiy juftlik qonun-qoi-dalari hukm surgan bu dunyoda odamlar o'zlarida jannatiylik va jahannamiylik sifatlarini bir vaqtning o'zida tashib, bemalol yurishi mum-kin bo'lsa, u dunyoda (oxiratda) esa odamlardagi jahannamiylik va jannatiylik sifatleri aj-ratiladi, Yani ular qaysidir biriga doxil bo'-lib qoladi. Odamlar jismonan, ruhan va ma'nan yakkalanadilar. Odamlar fardoniyat (tanholik) va ahadiyat (yakkalik) qonunlari hukm suradigan hayot-ga qadam qo'yadilar.

Ta'kidlash joizki, "dunyo va oxirat" ziddiy juftligidagi qiyomat boshqa barcha ziddiy juftligidagi holatlardan keskin farq qiladi. Boshqa barcha ziddiy juftliklar dunyoga taalluqli bo'lgani sababli qiyomatga o'xshagan biridan ik-kinchisiga o'tish chegarasi mavjud bo'ladi-yu, ammo mazkur chegaralar ziddiy juftlikni ajratib yubo-ra olmaydi. Ularni ajratadigan chegara – qiyomat-dir. Boshqacha aytganda, faqat qiyomatgina dunyodagi barcha ziddiy juftliklarni ajratib yuborish qudratiga egadir. Qur'oni karimning Duxon sura-si, 40-oyatida Shunday deyiladi: "**Ajrim kuni (qiyomat kuni) barchalarining (hisob-kitob) vaqtidir**".

Yana bir misol. "Dunyo va oxirat" ziddiy juft-li-gi-da ular o'zaro bog'langan. Qur'oni karimning Zal-zala surasining 7–8-oyatlari buni tasdiqlab tu-ribdi: "**Bas, kimki (dunyoda) zarra miqdorida yax-shi-lik qilgan bo'lsa, (qiyomat kuni) uni ko'rar. Kimki zarra miqdorida yomonlik qilgan bo'l-sa ham, uni ko'rar**".

Bu dunyo oxirat umrining ekinzoridir. Bu dunyoda ekan ekiningning hosilini oxiratda yig'ib olasan.

"Dunyo va oxirat" ziddiy juftligidagi qaysi tomonni tutganligiga qarab odamlar to'rt toifa-ga bo'linishadi. Birinchi toifa ahli ko'nglini faqatgina Shu dunyoga beradi. Ularni na oxirat, na Allohning farzlari, na Payg'ambarning sun-natlari qiziqtiradi. Ular o'zlarining maxluq (yaratilgan) ekanliklarini, Xoliq (YAratuvchi) oldi-da qul va banda ekanliklarini mutlaqo unutish-gan. Ular bu olamda Alloh, Xoliq, Rabb borligini bilishmaydilar Yoki ongli holda inkor etadilar.

Ikkinchi toifa odamlari esa "dunyo va oxirat" ziddiy juftligida oraliq holni tutishgan, Yani dunyoni ham unutishmagan, Shu bilan birga oxirat uchun baholi qudrat qayg'urishgan. Ular Allohning huzurida gunohlari qadar azob, savoblari, solih amallari qadar mukofot olishadi.

Uchinchi toifa odamlari esa faqat oxirat uchun, oxiratda Allohning solih bandalariga va'da qil-gan ajr-mukofotlaridan umid qilib yashaydigan zuhd ahlidir. Ular Allohning suygan bandalaridir.

Shu o'rinda zohidlik masalasiga qisqacha to'xta-lib o'tamiz. Tasavvufning kelib chiqishi zohidlik ta'limoti bilan bog'liq. Bu haqda SHamsiddinxon Ziyovuddinxon o'g'li Boboxonov va Abdulaziz Man-surlar Shunday deb yozadilar: "Tasavvuf lafzi hijratning ikkinchi asrida paydo bo'lgan bo'lsa-da, lekin Shu mazmunni ifoda etuvchi "zohidlik", "zuhd" kabi lafzlar orqali bu yo'nalish Islomdan oldingi davrlarda ham mavjud edi. Masalan, masi-hiy (xristian) dinidagi "rohiblik" Islom dinidagi "so'fiylik" tushunchasiga yaqin kela-di. Rohiblik bilan zohidlik o'rtasidagi asosiy farq-lardan biri Shuki, zohidlikda (Yoki islomiy tasav-vufda) tarkidunyochilik,

xilvatda va uzlat-da yashash, oila qurmaslik kabi xususiyatlar shart qilinmaydi, balki rad etiladi”.⁷⁴ Zuhd ahli tasavvuf ta’limotining asosini qurib bergan kishilardir.

Ammo Yana Shunday to’rtinchi toifa odamlari ham borki, ularni na dunyo qiziqtiradi, na oxirat qiziqtiradi, balki Shu “dunyo va oxirat” ziddiy juftligini yaratgan Allohning o’zi qiziqtiradi. Bular ahli tasavvufdirlar, Yani so’fiylardir, avliyolardir. Zuhd ahli Qur’oni karimning A’lo surasining 17-oyatiga:

“Holbuki, oxirat yaxshiroq va boqiyroqdir” oyatiga mos holda umrguzaronlik qiladiganlar Allohning xos bandalaridir. Ular haqda Yana Qur’oni karimning Voqea surasi, 10-oyatida Shunday deyiladi:)“Uchinchi toifa ezgu ishlarda (**o’zib-o’zib ketgan zotlardir .**” Darhaqiqat **“ ,Albatta ,kuldorgan ham ,yig’latgan ham Uning o’zidir) (”Najm surasi-43 ,** oyat.)

Ammo tasavvuf ahli zohidlikni tanqid qilib ,zuhd ahlini manmanlik va tamagirlikda aybla-ganlar .

Shu o’rinda Xoja Orif Revgariyning“ Orif-noma ”asaridan bir misol keltirib ,fikrimizga oydinlik kiritaylik“ .Vaqtiki ,Robiyai Adaviya qattiq bemor bo’ldi .Hasan ,Molik ,SHAHIQ⁷⁵ uni ko’rmoqqa bordilar va bemorligi sababini so’radilar .Dediki ,men jannatga qaradim . Parvardigorim Shu bois menga nazar etmadi .Va bu bemorligim do’st) Alloh(ning itobidandir . Hasan dedi :o’z da’vosiga sodiq emas ul kishikim ,Parvardigori urganda sabr etmasa!

Robiya dedi :Suxaningdan manmanlik hidi kel-moqda.

SHAHIQ dedi :O’z da’vosiga sodiq emas ul kishi-kim ,Mavlosi) Alloh (urganda – Shukr etmasa!

Robiya dedi :Sendan manmanlik hidi battarroq kelmoqda.

Molik dedi: O’z da’vosiga sodiq emas ul kishi-kim, Mavlosi urganda – lazzat olmasa!

Robiya dedi: Bundan-da ortiq manmanlik bo’lur-mi?!

Alar dedilarki: Sen o’zing ayt!

Robiya dedi: O’z da’vosiga sodiq ul kishikim, Mavlosi urganda azbaroyi uning muShohadasidan urganini sezmasin, dard-alamini tamoman faro-mush etsin”.⁷⁶

E’tibor berilsa, zuhd ahliga xos bo’lgan sabr, Shukr, lazzat tushunchalarini (sifatlarini) Robiya manmanlik deb baholayapti va uning ehtiyoji yol-g’iz Allohga qaratilgan. Uning quyidagi so’zlari fikrimizga Yanada oydinlik kiritadi: “Har neki menga Shu dunyoda qismat etgan bo’lsang, o’z dushmanlaringga ber va har uqbo (oxirat)ga men uchun qismat etgan bo’lsang, do’stlaringga ber. Zero, men uchun bu dunyoda ham faqat O’zing keraksan!”⁷⁷ Bu zohidlik maqomidan ancha Yuqori martaba bo’lib, agar e’tibor berilsa, ziddiy juftlik orasiga Robiyai Adaviya sig’mayapti. Uning uchun ziddiy juftlik ho-lati zerikarli, g’arib. Uni ziddiy juftlik orasida-gi eng Yuqori maqomlar ham qiziqirmaydi. Agar qiziqirganda edi, yarim tunlari yig’lab Allohga quyidagicha nido qilmagan bo’lardi: “Xudovando! Agar senga qo’rqanim uchun sig’insam – meni do’zaxingda kuydir va agar jannating umidida sig’insam – jannatni menga harom et! Va agar diydoring umidida bo’lsam – jamolingni mendan darig’ tutma, Parvardigorim!”⁷⁸ Qarang, Robiyai Adaviya “qo’rquv va umid” (“xavf va rajo”) ziddiy juftligiga sig’mayapti. U “qo’rquv va umid” ziddiy juftligini yaratganning o’zini – YAratuvchini talab qilayapti, demakki, ahadiyat olamiga intilayapti.

Rumiy hazratlari yozadi: “Rizo ahliga ko’ra lutf va qahr bir narsa. Ikkalasi ham mahubdan kela-di. O’rtadagi to’sig’u pardalar ko’tarilishi bilan har ikkalovining g’ami bir narsa ekanligini ko’rish mumkin”.⁷⁹

⁷⁴Shamsiddinxon Ziyovuddinxon o’g’li Boboxonov, Abdulaziz Mansur. Naqshbandiyya tariqatiga oid qo’lyozmalar fihristi. – T.: “Movarounnahr”, 1993. 5-bet.

⁷⁵ Bu o’rinda gap Hasan Basriy, Malik ibn Dinor va Shaqiq Balxiy haqida ketayapti.

⁷⁶Xoja Muhammad Orif Revgariy. Orifnoma. – T.: Navro’z, 1994. 9-bet.

⁷⁷ O’sha asar, 9-bet.

⁷⁸Rumiy Jaloliddin.Ichindagi ichindadir.–T.:“YAngi asr avlodi”, 2003. 9–10-betlar.

⁷⁹ O’sha asar, 29-bet.

Endi e'tiborimizni muddaoga qaratamiz. "Dunyo va oxirat" ziddiy juftligiga Yana bir bora nazar tashlaylik. Zid zidni yaratadi, degan qoidaga aso-san aytish mumkinki, dunyoning ziddi oxirat ekan, demak, dunyoga xos bo'lgan alomatlarining ziddi oxiratga xos bo'ladi. Bu dunyoga xos bo'lgan juftlik holatining ziddi yakallik oxiratga xosdir. Bu dunyoga xos bo'lgan cheklilik holatining ziddi cheksizlik oxiratga xosdir. Bu dunyoga xos bo'lgan vaqtning cheklilik holatining ziddi cheksizlik (abadiyat) oxiratga xosdir. Va hokazo. Demak, ahadiyat, abadiyat, cheksizlik singari sifatlar oxiratga xos. Mana nima uchun sabr, Shukr, lazzat tuyg'ularini Robiyai Adaviya manmanlik deb baholayapti. Shunki ular bu dunyoning ziynatlaridir. Ahadiyat olami bular-dan xalos bo'lgan olamdir.

Yuqoridagi fikrlarimizdan xulosa qilib Shuni aytishimiz mumkinki, oxiratda bu dunyoga xos bo'lgan ziddiy juftlik holati abas bo'lib, o'rniga ahadiyat olami boshlanadi. Ziddiy juftlikka xos bo'lgan tortish va itarish kuchlari yo'qoladi. Masalan, bu dunyoga xos bo'lgan "qo'rquv va umid" ("xavf va rajo") ziddiy juftligi parchalanib, ahadiyat va abadiyat olamida odamlarda yo umuman qo'rquv bo'lmaydi, yo umuman umid bo'lmaydi.

Oxiratning dunyodan yaxshiligini o'zlarida his qilgan odamlarga tasavvuf ahli deyishadi. Allohning inoyati bilan oxiratning bu dunyodan afzalligini anglagan odamlar undan ko'ngli sovib qolishadi. Bu dunyo ularning ko'ngliga sig'maydi. Oxirat vasli orzusida yashab boshlashadi. Ular uchun g'arib va aftodahol ko'rinishga kelib qolgan bu dunyodan etak silkib yashashadi. Oxiratdagi ahadiyat tuyg'usi (Allohning diydori) uchun boru yo'g'ini nisor qilishga tayyor turishadi. Alloh – asl Yordir, Yor esa diloromdir. Biz bu dunyoda ko'p narsalarga ko'ngil berib yashaymiz. Birovni sevib qolamiz. Qalbimiz oromi buziladi. Sevgilimizga etishgach, ko'nglimiz boyluk istab qoladi. Boylikka etishsak, ko'nglimiz mansab istab qoladi. Mansabga etishsak, ko'nglimiz shon-Shuhrat istab qoladi va hokazo. Bu dunyoda istagan narsalarimizga etishganimiz bilan ko'nglimiz haqiqiy orom, xotirjamlik topmaydi. Asl mukammal – Hay, Rahmon, Rahim, Malik, Sobir, Hakim, Musavvir, Ahad, Somad, Jabbor, Qahhor, Mutakabbir, Rauf va h.k. Yorga etishgach esa, barcha dunyoviy istaklar o'z-o'zidan abas bo'lib, yo'qlikka ketib, dil haqiqiy orom topadi. Haqiqiy Yorga etishib, dili orom topgan kishi uchun bu dunyo qadrsiz-qiymatsiz bo'lib qoladi.

Shu dunyoda yashab, oxirat bilan nafas oladigan kishilar avliyolardir. Savol tug'iladi: qanday qilib, Shu dunyoda yashab, oxirat o'lchamlarini o'zida mujassamlashtirish mumkin? Avvalambor, Allohning inoyati bilan bo'ladi bu ish.k. Qolaversa, inson o'zining ma'naviy-ruhiy olamiga xos bo'lgan ziddiy juftlikning tortish va itarish kuch-larini yo'qotish bilan bunday holatga erishish mumkin. Boshqacha aytganda, bunday holatga qiyomat-ni ruhan, ma'nau o'zida amalga oshirib etishish mumkin. Jaloliddin Rumi yozadi: "Qiyomat qadah singari bo'lgan vujudlardagi sharobdir va bu sha-robni ichgan kishi uning o'lmas, yaxshi narsa ekan-ligini biladi".⁸⁰ Avliyo Shu sharobdan ichgan va sarxush bo'lgan, endi Shu sarxushlikdan boshqasi-ni ko'ngli tusamaydi. Darhaqiqat: **"Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning va-liylari (do'stlari)ga xavf yo'qdir va ular tash-vish ham chekmaslar"** (Yunus surasi, 62-oyat).

Qiyomatni ruhan, ma'nau qanday qilib amalga oshirish mumkin? Ma'lumki, qiyomat butun insoniyat uchun bir holatdan ikkinchi holatga o'tish chegarasi bo'lsa, yakka olingan inson uchun dunyoviy o'lcham-lardan uxroviy o'lchamlarga o'tish chegarasi o'lim-dir. Demak, qiyomatni o'zida ruhan amalga oshirish degani "o'lmay turib o'ling" degani. Mana, nihoyat, Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning "o'lim kelishidan oldin o'ling" hadisiga etib kel-

dik. Rumi hazratlari ta'kidlaganidek, «Haqiqatni esa "O'lmasdan oldin o'lmaguncha" ko'rish mumkin emas».⁸¹ Ochig'ini aytganda, Yuqoridagi barcha yozganlarimiz mazkur hadisning tasavvufiy tahlili desak, xato qilgan bo'lmaymiz. Bu o'rinda o'lim deganda dunyoviy muhabbatni o'ldirish nazar-da tutilayapti. Dunyoviy muhabbatning zami-rida esa insoniy nafsning xohish va ehtiyojlari yotadi.

⁸⁰ O'sha asar, 59-bet.

⁸¹ O'sha asar, 109-bet.

Bu haqda Rumiylarning hazratlari Shunday deb yozadi: “Uning yoniga ikki “men” sig‘maydi. Shunki sen ham “men” deyapsan, U ham “men”. YO sen o‘l, yo U o‘lsinki, ikkilik qolmasin. Ammo Uning o‘lishi mumkin emas. Bu na zohirda, na zehnda mumkin bo‘ladi. **“O‘lmaydigan, hamisha Barhayot zotga tavakkul qiling hamda Uning hamdi bilan tas-beh ayting! U O‘z bandalarining gunohlaridan etarlicha xabardordir”** (Furqon surasi, 58-oyat).

U Shunday lutfkordirki, imkon bo‘lganda edi, sen uchun o‘lardi. Biroq, modomiki, Uning o‘limi imkonsiz ekan, u holda ikkilikning yo‘q bo‘li-shi uchun va Uning senda tajalli etmog‘i uchun sen o‘l”.⁸² Hayotning ziddiy juftlik ko‘rinishidagi holatida, albatta, faoliyat talab qilinadi. Sababi, bizga ziddiy juftlikning u qutbidan bu qutbiga o‘tishimiz uchun harakat erkinligi zarurdir. Odobsizlik holatidan odoblilik holatiga o‘tish uchun, baxillikdan saxiylikka o‘tish uchun, qahrdan mehrga o‘tish uchun, albatta, ma‘lum xatti-harakat zarur. Harakat o‘z-o‘zidan ikki unurni talab qi-ladi: biri – fazo (moddiy va ma‘naviy ko‘ri-nishda), ikkinchisi – vaqt. Boshqacha aytganda, makon va zamon. Ular Allohning Shunday bir ne‘matlariki, bu ne‘matlardan foydalanish Yoki foydalanmaslik ma‘nosida iroda erkinligi yotadi. Moturidiy ta‘limotining mag‘zi ham Shundadir. Alloh o‘zi bergan makon va zamon ne‘matlaridan foydalanib, iroda erkinligining ma‘nosini tushunib, ziddiy juftlikning salbiy qutbidan ijo-biy qutbiga o‘tishi barobarida insonni sinaydi, imtihon qiladi. Vaqt deb atalmish ne‘matdan unumli foydalanadiganlarning ajri Allohning huzu-rida juda baland bo‘ladi. Endi behuda o‘tkazilgan vaqt qachon dushman bo‘ladi? Oxiratda. Oxiratda ziddiy juftlik ajratiladi hamda makon va zamonga hojat qolmaydi. Qiyomatdan abadiyat boshlanadi. Bu dunyoda esa tanazzulga tushish Yoki kamolotga eri-shish degan tushunchalar mavjud. Tanazzul va kamolot uchun so‘zsiz vaqt zarur. Oxiratda esa vaqt o‘tishi degan tushuncha yo‘qoladi, Yani abadiyat boshla-na-di. Abadi-yat esa vaqt oqimining (o‘tishining) to‘xtatilishi bilangina sodir bo‘lishi mumkin. Oxiratda itarish va tortish kuchlari o‘rtadan olib tashlanganda, ziddiy juftliklar ajralganda, abadiyat boshlanganda inson na tanazzulga tusha oladi, na kamolotga etisha oladi. Demak, behuda o‘tkazilgan vaqt oxiratda dushmanga aylanadi. Demak, harakatimizni Shu dunyoda qilib qolmog‘imiz zarur. Biz uchun muhimi bu emas. Biz uchun muhimi Shu dunyoda turib qiyomatni ruhan-ma‘nan amalga oshirish.k. Buning uchun esa Shu dunyoda turib abadiyatni o‘zida mujassamlashtirmoq kerak bo‘ladi. Valiylar vaqt hukmida bo‘lgan Shu dunyodayoq aba-di-yatni o‘ziga singdirgan odamlardir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ma‘lum xulosalar chiqarish payti etdi. Birinchidan, “azvoj” – ziddiy juftliklar olamning yaratilishidagi muhim xususiyat hisoblanadi. Har qanday yaralmishning asosida ziddiy juftlik yotadi. Ikkinchidan, in-sonning iroda erkinligini Alloh taolo mana Shu az-vojlar ichiga joylashtirgan, Yani ulardan birini tanlash barobarida bizning xulq-atvorimizga baho beriladi, hukm chiqariladi. Uchinchidan, Alloh taolo ularning ichiga odamlarning psixik olamidagi barcha kechinmalar, his-tuyg‘ular, aqlu zakovatini mujassamlashtirgan. Psixologiya fanining nasiba-si aynan Shu erga joylashtirilgan. To‘rtinchidan, odamlarga ikkiliklar orasida o‘ralashib qolmas-dan, undan chiqish va asosiy e‘tiborni ularning YAratuvchisiga qaratish tavsiyasi beriladi. Bu tavhidga tomon yo‘ldir. Rumiylarning hazratlari ta‘kidlagandek, “Xush narsalar noxush narsalardan bo‘lak emasdir. Shunki noxush narsa bo‘lmaguncha, xush narsaning bo‘lishi imkonsizdir. Sevilgan sevimlaganning zavoli hisoblanadi. Sevinch kadarning barham topishidir. Kadar ham o‘z navbatida sevinch bilan yo‘q bo‘ladi. Demak, foil (qilgan, bajargan) birdir, parchalar ayrilmasdir”.⁸³ Tasavvuf ahli ikkiliklardan chiqib, Shunday bir maqomga etishadiki, bunda ular uchun lutf ham, qahr ham bir xil bo‘lib qoladi. Shunki ularning ikkalasi ham Mahbubdandir. Najmiddin Kubro o‘zining “Tasavvufning o‘n asosi” kitobida Shunday deb yozadi: “Biror narsani istashda ikkilik – istagan va istalgan mavjud. Vahdat ahli esa bu ikkilikni qabul qilmaydi”.⁸⁴ Darhaqiqat: **“U Avval, Oxir, Zohir va Botindir. U barcha narsani biluvchidir”** (Hadid surasi, 3-oyat). Beshinchidan va bu

⁸² O‘sha asar, 31-bet.

⁸³ O‘sha asar, 112-bet.

⁸⁴ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. 72-bet.

eng muhimi – azvojni anglash, salbiy sifatlar-dan (botildan) ijobiy sifatlarga (haqqa) o'tish va undan chiqib, YAratganni topish – tasavvuf yo'li hisoblanadi. Bu yo'l metodologik ahamiyatga ega. Tasavvuf ta'limoti va amaliyotini o'rganishda Shu yo'ldan borish va uni psixologik tahlil qilish eng yaxshi samara beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o'rnini ko'rsating.
2. Tasavvuf psixologiyasining metodologik muammolari va ularning echimlarini ayting.
3. "Azvoj" – ziddiy juftlik tasavvufni o'rganishning metodologik tamoyili sifatida ko'rsating.
4. Tasavvuf psixologiyasining tadqiqot predmeti bo'yicha turli xil qarashlarni keltiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Mistik hollarni chaqirish yo'llari.
2. Barkamol avlod va komil inson mushtarakligi.

16-MAVZU. TASAVVUF PSIXOLOGIYASINING METODOLOGIK JIHATLARI.

Reja:

1. *Tasavvuf tushunchasi va ilk sufizmning psixologik asoslari.*
2. *Tasavvufning psixologik mohiyati.*
3. *Asosiy tasavvufiy tushunchalar va ularning psixologik sharhi.*
4. *Ruh muammosi va uning psixologik echimi..*
5. *Imom G'azzoliy ruh manzillari haqida.*
6. *Nafs va komillik psixologiyasi.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf tushunchasi, ilk sufizm, psixologik mohiyat, asosiy tasavvufiy tushunchalar, ruh muammosi, psixologik echim, ruh manzillari, nafs, komillik psixologiyasini.*

“Dunyo va oxirat” ziddiy juftligidagi qiyomat boshqa barcha ziddiy juftligidagi holatlardan keskin farq qiladi. Boshqa barcha ziddiy juftliklar dunyoga taalluqli bo'lgani sababli qiyomatga o'xshagan biridan ikkinchisiga o'tish chegarasi mavjud bo'ladi-yu, ammo mazkur chegaralar ziddiy juftlikni ajratib yubora olmaydi. Ularni ajratadigan chegara – qiyomatdir. Boshqacha aytganda, faqat qiyomatgina dunyodagi barcha ziddiy juftliklarni ajratib yuborish qudratiga egadir. Qur'oni karimning Duxon (44) surasi, 40-oyatida Shunday deyiladi: “(Haq bilan botilning) ajralish KUNi (Yani qiyomat kuni) barchalarining (insonlarning hisob-kitob) vaqtidir”.

Yana bir misol. “Dunyo va oxirat” ziddiy juftligida ular o'zaro bog'langan. Qur'oni Karimning Zalzala (99) surasining 7-8-oyatlari buni tasdiqlab turibdi: “7. “Bas, kim (hayoti dunyodalik paytida) zarra misolichalik yaxshilik qilsa, (qiyomat kunida) o'shani ko'rur. 8. Kim zarra misolichalik yomonlik qilsa, uni ham ko'rur”.

Bu dunyo oxirat umrining ekinzoridir. Bu dunyoda ekan ekiningning hosilini oxiratda yig'ib olasan.

“Dunyo va oxirat” ziddiy juftligidagi qaysi tomonni tutganligiga qarab odamlar to'rt toifaga bo'linishadi. Birinchi toifa ahli ko'nglini faqatgina Shu dunyoga beradi. Ularni na oxirat-u, na Allohning farzlari-yu, na Payg'ambarning sunnatlari qiziqtiradi. Ular o'zlarining maxluq (yaratilgan) ekanliklarini, xoliq (yaratuvchi) oldida qul va banda ekanliklarini mutlaqo unitishgan. Ular bu olamda Alloh, Xoliq, Rabb borligini bilishmaydilar Yoki ongli holda inkor etadilar. Bunday odamlar jahannam o'tining o'tinlaridir.

Ikkinchi toifa odamlari esa “dunyo va oxirat” ziddiy juftligida oraliq holni tutishgan, Yani dunyoni ham unitishmagan, Shu bilan birga oxirat uchun baholi qudrat qaygʻurishgan. Ular Allohning huzurida gunohlari qadar azob, savoblari, solih amallari qadar mukofot olishadi.

Uchinchi toifa odamlari esa faqat oxirat uchun, oxiratda Allohning solih bandalariga vaʼda qilgan ajr-mukofotlaridan umid qilib yashaydigan Zuhd ahlidir. Ular Allohning suygan bandalaridir.

Shu oʻrinda zohidlik masalasiga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz. Tasavvufning kelib chiqishi zohidlik taʼlimoti bilan bogʻliq. Bu haqda SHamsiddinxon Ziyovuddinxon oʻgʻli Boboxonov va Abdulaziz Mansurlar Shunday deb yozadilar: “Tasavvuf lafzi hijratning ikkinchi asrida paydo boʻlgan boʻlsa-da, lekin Shu mazmunni ifoda etuvchi “zohidlik”, “zuhd” kabi lafzlar orqali bu yoʻnalish Islomdan oldingi davrlarda ham mavjud edi. Masalan, masihiy (xristian) dinidagi “rohlik” Islom dinidagi “soʻfiylik” tushunchasiga yaqin keladi. Rohlik bilan zohidlik oʻrtasidagi asosiy farqlardan biri Shuki, zohidlikda (Yoki islomiy tasavvufda) tarki dunyochilik, xilvatda va uzlatda yashash, oila qurmaslik kabi xususiyatlar shart qilinmaydi, balki rad etiladi”⁸⁵. Zuhd ahli tasavvuf taʼlimotining asosini qurib bergan kishilardir.

Ammo Yana Shunday toʻrtinchi toifa odamlari ham borki, ularni na dunyo qiziqtiradi, na oxirat qiziqtiradi, balki Shu “dunyo va oxirat” ziddiy juftligini yaratgan Allohning oʻzi qiziqtiradi. Bular ahli tasavvufdirlar, Yani soʻfiydirlar, avliyodirlar. Zuhd ahli Qurʼoni Karimning Aʼlo (87) surasining 17-oyatiga: “Xolbuki oxirat yaxshiroq va boqiyroqdir” oyatiga mos holda umrguzaronlik qilishadigan Allohning xos bandalaridir. Ular haqda Yana Qurʼoni karimning Voqea (56) surasi, 10-oyatida Shunday deyiladi: “(Uchinchi toifa boʻlmish barcha yaxshi amallarga) peshqadam boʻlguvchi zotlar (jannat neʼmatlariga erishishda ham) peshqadam boʻluvchi zotlardir”. Darhaqiqat, “Albatta kuldirgan ham, yigʻlatgan ham uning Oʻzidir” (Van-najm (53) surasi, 43-oyat).

Ammo tasavvuf ahli zohidparastlikni tanqid qilib, zuhdparast ahlini manmanlik va taʼmagirlikda ayblaganlar.

Shu oʻrinda Xoja Orif Ar-Revgariyning “Orifnoma” asaridan bir misol keltirib, fikrimizga oydinlik kiritaylik. “Vaqteki Robiyai Adaviya qattiq bemor boʻldi. Hasan, Molik, SHaqiq⁸⁶ uni koʻrmoqqa bordilar va bemorligi sababini soʻradilar. Dediki, men jannatga qaradim. Pavardigorim Shu bois menga nazar etmadi. Va bu bemorligim doʻst (Alloh) ning itobidandir. Hasan dedi: oʻz davosiga sodiq emas ul kishikim, Parvardigori urganda sabr etmasa!

Robiya dedi: suxaningdan manmanlik hidi kelmoqda.

Shaqiq dedi: oʻz davosiga sodiq emas ul kishikim, Mavlosi (Alloh) urganda – Shukr etmasa!

Robiya dedi: sendan manmanlik hidi battarroq kelmoqda.

Molik dedi: oʻz davosiga sodiq emas ul kishikim, Mavlosi urganda – lazzat olmasa!

Robiya dedi: bundanda ortiq manmanlik boʻlurmi?!

Alar dedilarki: sen oʻzing ayt!

Robiya dedi: oʻz davosiga sodiq ul kishikim, Mavlosi urganda azbaroyi uning mushohadasidan urganini sezmasin, dard-alamini tamoman faromush etsin”⁸⁷.

Eʼtibor berilsa, zuhd ahliga xos boʻlgan sabr, Shukr, lazzat tushunchalarini (sifatlarini) Robiya manmanlik deb baholayapti va uning ehtiyoji yolgʻiz Allohga qaratilgan. Uning quyidagi soʻzlari fikrimizga Yanada oydinlik kiritadi: “Har neki menga Shu dunyoda qismat etgan boʻlsang, oʻz dushmanlaringga ber va har uqbo (oxirat) ga men uchun qismat etgan boʻlsang, doʻstlaringga ber. Zero men uchun bu dunyoda ham faqat Oʻzing keraksan!”⁸⁸. Bu zohidlik maqomidan ancha Yuqori martaba boʻlib, agar eʼtibor berilsa, ziddiy juftlik orasiga Robiyai Adaviya sigʻmayapti. Uning uchun ziddiy juftlik holati zerikarli, gʻarib. Uni ziddiy juftlik orasidagi eng Yuqori maqomlar ham qiziqtirmaydi. Agar qiziqtirganda edi, yarim tunlari

⁸⁵ Shamsiddinxon Ziyovuddinxon oʻgʻli Boboxonov, Abdulaziz Mansur. Naqshbandiyya tariqatiga oid qoʻlyozmalar fihristi. –T.: “Mavoraunnahr” nashriyoti, 1993. – 127 bet. – 5-bet.

⁸⁶ Bu oʻrinda gap Hasan Basriy, Malik ibn Dinor va Shaqiq Balxiy haqida ketayapti.

⁸⁷ Xoja Muhammad Orif Ar-Revgariy. Orifnoma. – T.: Navroʻz, 1994. -16 b. – 9-bet.

⁸⁸ Oʻsha asar, 9-bet.

yigʻlab Allohga quyidagicha nido qilmagan boʻlardi: “Xudovando! Agar senga qoʻrqqanim uchun sigʻinsam – meni doʻzaxingda kuydir va agar jannating umidida sigʻinsam – jannatni menga harom et! Va agar diydoring umidida boʻlsam – jamolingni mendan darigʻ tutma, Parvardigorim!”⁸⁹. Qarang, Robiyai Adaviya “qoʻrquv va umid” ziddiy juftligiga sigʻmayapti. U “qoʻrquv va umid” ziddiy juftligini yaratganning oʻzini – YAratuvchini talab qilayapti, demakki, ahadiyat olamiga intilayapti.

Rumiy hazratlari yozadi: “Rizo ahliga koʻra lutf va qahr bir narsa. Ikkalasi ham mahubbdan keladi. Oʻrtadagi toʻsigʻu pardalar koʻtarilishi bilan har ikkalovining gʻami bir narsa ekanligini koʻrish mumkin”⁹⁰.

Endi eʼtiborimizni muddaoga qaratamiz. “Dunyo va oxirat” ziddiy juftligiga Yana bir bora nazar tashlaylik. Zid zidni yaratadi, degan qoidaga asosan aytish mumkinki, dunyoning ziddi oxirat ekan, demak, dunyoga xos boʻlgan alomatlarining ziddi oxiratga xos boʻladi. Bu dunyoga xos boʻlgan juftlik holatining ziddi yakkalik oxiratga xosdir. Bu dunyoga xos boʻlgan cheklilik holatining ziddi cheksizlik oxiratga xosdir. Bu dunyoga xos boʻlgan vaqtning cheklilik holatining ziddi cheksizlik (abadiyat) oxiratga xosdir. Va hokazo. Demak, ahadiyat, abadiyat, cheksizlik singari sifatlar oxiratga xos. Mana nima uchun sabr, Shukr, lazzat tuygʻularini Robiyai Adaviya manmanlik deb baholayapti. Shunki ular bu dunyoning zeblaridir. Ahadiyat olami bulardan xolos boʻlgan olamdır.

Yuqoridagi fikrlarimizdan xulosa qilib Shuni aytishimiz mumkinki, oxiratda bu dunyoga xos boʻlgan ziddiy juftlik holati abas boʻlib, oʻrniga ahadiyat olami boshlanadi. Ziddiy juftlikka xos boʻlgan tortishish va itarishish kuchlari yoʻqoladi. Masalan, bu dunyoga xos boʻlgan “qoʻrquv va umid” ziddiy juftligi parchalanib, ahadiyat va abadiyat olamida odamlarda yo umuman qoʻrquv boʻlmaydi, yo umuman umid boʻlmaydi.

Oxiratning dunyodan yaxshiligini oʻzlarida his qilgan odamlarga tasavvuf ahli deyishadi. Allohning inoyati bilan oxiratning bu dunyodan afzalligani anglagan odamlar undan koʻngli sovib qolishadi. Bu dunyo ularning koʻngliga sigʻmaydi. Oxirat vasli orzusida yashab boshlashadi. Ular uchun gʻarib va aftodahol koʻrinishga kelib qolgan bu dunyodan etak silkiib yashashadi. Oxiratdagi ahadiyat tuygʻusi (Allohning diydori) uchun boru-yoʻgʻini nisor qilishga tayYor turishadi. Alloh – asl Yordir, Yor esa diloromdir. Biz bu dunyoda koʻp narsalarga koʻngil berib yashaymiz. Birovni sevib qolamiz. Qalbimiz oromi buziladi. Sevgilimizga etishgach, koʻnglimiz boylik istab qoladi. Boylikka etishsak, koʻnglimiz mansab istab qoladi. Mansabga etishsak, koʻnglimiz shon-Shuhrat istab qoladi va hokazo. Bu dunyoda istagan narsalarimizga etishganimiz bilan koʻnglimiz haqiqiy orom, xotirjamlik topmaydi. Asl Mukammal, Hay, Rahmon, Rahim, Malik, Sobir, Hakim, Musavvir, Ahad, Somad, Jabbor, Qahhor, Mutakabbir, Rauf va h.k. Yorga etishgach esa barcha dunyoviy istaklar oʻz-oʻzidan abas boʻlib, yoʻqlikka ketib, dil haqiqiy orom topadi. Haqiqiy Yorga etishib, dili orom topgan kishi uchun bu dunyo qadrsiz-qiymatsiz boʻlib qoladi.

Shu dunyoda yashab, oxirat bilan nafas oladigan kishilar avliyolardir. Savol tugʻiladi: qanday qilib, Shu dunyoda yashab, oxirat oʻlchamlarini oʻzida mujassamlashtirish mumkin? Avvalom bor, Allohning inoyati bilan boʻladi bu ish. Qolaversa, inson oʻzining maʼnaviy-ruhiy olamiga xos boʻlgan ziddiy juftlikning tortishish va itarishish kuchlarini yoʻqotish bilan bunday holatga erishish mumkin. Boshqacha aytganda, qiyomatni ruhan, maʼnan oʻzida amalga oshirib etishish mumkin bunday holatga. J. Rumiy yozadi: “Qiyomat qadah singari boʻlgan vujudlardagi sharobdir va bu sharobni ichgan kishi uning oʻlmas, yaxshi narsa ekanligini biladi”⁹¹. Avliyo Shu sharobdan ichgan va sarxush boʻlgan, endi Shu sarxushlikdan boshqasini koʻngli tusamaydi. Darhaqiqat, “Ogoh boʻlinglarkim, albatta Ollahning doʻstlariga (oxiratda) biron xavf-xatar yoʻqdir” (Yunus (10) surasi, 62-oyat).

Qiyomatni ruhan, maʼnan qanday qilib amalga oshirish mumkin? Maʼlumki, qiyomat butun insoniyat uchun bir holatdan ikkinchi holatga oʻtish chegarasi boʻlsa, yakka olingan inson

⁸⁹ Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.:”YAngi asr avlodi”, 2003. – 199 b. - 9-10 – bet.

⁹⁰ Oʻsha asar, - 29-bet.

⁹¹ Oʻsha asar, - 59-bet.

uchun dunyoviy o'lchamlardan uxroviy o'lchamlarga o'tish chegarasi o'limdir. Demak, qiyomatni o'zida ruhan amalga oshirish degani "o'lmay turib o'ling" degani. Mana nihoyat Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning "o'lim kelishidan oldin o'ling" hadisiga etib keldik. Rumiylarning hazratlari ta'kidlaganidek, "Haqiqatni esa "O'lmasdan oldin o'lmaguncha" ko'rish mumkin emas"⁹². Ochig'ini aytganda, Yuqoridagi barcha yozganlarimiz mazkur hadisning tasavvufiy tahlili, desak xato qilgan bo'lmaymiz. Bu o'rinda o'lim deganda dunyoviy muhabbatni o'ldirish nazarda tutilayapti. Dunyoviy muhabbatning zamirida esa nafs yotadi.

Bu haqda Rumiylarning hazratlari Shunday deb yozadi: "Uning yoniga ikki "Men" sig'maydi. Shunki sen ham "Men" deyapsan, U ham "Men". YO sen o'l, yo U o'lsinki, ikkilik qolmasin. Ammo Uning o'lishi mumkin emas. Bu na zohirda, na zehnda mumkin bo'ladi.

"O'lmaydigan, hamisha Barhayot zotga tavakkul qiling hamda Uning hamdi bilan tasbeh ayting! U O'z bandalarining gunohlaridan etarlicha xabardordir" (Furqon surasi (25), 58-oyat). U Shunday lutfkordirki, imkon bo'lganda edi, sen uchun o'lardi. Biroq madomiki, Uning o'limi imkonsiz ekan, u holda ikkilikning yo'q bo'lishi uchun va Uning senda tajalli etmog'i uchun sen o'l"⁹³. Hayotning ziddiy juftlik ko'rinishidagi holatida albatta faoliyat talab qilinadi. Sababi bizga ziddiy juftlikning u qutbidan bu qutbiga o'tishimiz uchun harakat erkinligi zarurdir. Odobsizlik holatidan odoblilik holatiga o'tish uchun, baxillikdan saxiylikka o'tish uchun, qahrdan mehrga o'tish uchun va h.k. albatta ma'lum xatti-harakat zarur. Harakat o'z-o'zidan ikki unsum talab qiladi: biri – fazo (moddiy va ma'naviy ko'rinishda), ikkinchisi – vaqt. Boshqacha aytganda, makon va zamon. Ular Allohning Shunday bir ne'matlariki, bu ne'matlardan foydalanish Yoki foydalanmaslik ma'nosida iroda erkinligi yotadi. Moturudiy ta'limotining mag'zi ham Shundaydir. Alloh o'zi bergan Makon va Zamon ne'matlaridan foydalanib, iroda erkinligining ma'nosini tushunib, ziddiy juftlikning salbiy qutbidan ijobiy qutbiga o'tishi barobarida insonni sinaydi, imtihon qiladi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning "Vaqtningni zoe ketkizdingmi, bas, u sening dushmaningdir" (Man zayya'a vaqtahu fa vaqtuhu maqtun) hadisidagi vaqt tushunchasining ma'nosi ham aynan Yuqoridagi fikrimizni tasdiqlab turibdi. Vaqt deb atalmish ne'matdan unumli foydalanadiganlarning ajri Allohning huzurida juda baland bo'ladi. Endi behuda o'tkazilgan vaqt qachon dushman bo'ladi? Oxiratda. Oxiratda ziddiy juftlik ajratiladi hamda makon va zamonga hojat qolmaydi. Qiyomatdan abadiyat boshlanadi. Bu dunyoda esa tanazzulga tushish Yoki kamolotga erishish degan tushunchalar mavjud. Tanazzul va kamolot uchun so'zsiz vaqt zarur. Oxiratda esa vaqt o'tishi degan tushuncha yo'qoladi, Yani abadiyat boshlanadi. Abadiyat esa vaqt oqimining (o'tishining) to'xtatilishi bilangina sodir bo'lishi mumkin. Oxiratda itarishish va tortishish kuchlari o'rtadan olib tashlanganda, ziddiy juftliklar ajralganda, abadiyat boshlanganda inson na tanazzulga tusha oladi, na kamolotga etisha oladi. Demak, behuda o'tkazilgan vaqt oxiratda dushmanga aylanadi. Demak, harakatimizni Shu dunyoda qilib qolmog'imiz zarur. Biz uchun muhimi bu emas. Biz uchun muhimi Shu dunyoda turib qiyomatni ruhan-ma'nan amalga oshirish. Buning uchun esa Shu dunyoda turib abadiyatni o'zida mujassamlashtirmoq kerak bo'ladi. Valilar vaqt hukmida bo'lgan Shu dunyodayoq abadiyatni o'ziga singdirgan odamlardir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ma'lum xulosalar chiqarish payti etdi. Birinchidan, "azvoj"– ziddiy juftliklar olamning yaratilishidagi muhim shart hisoblanadi. Har qanday yaralmishning asosida ziddiy juftlik yotadi. Ikkinchidan, insonning iroda erkinligini Alloh taolo mana Shu azvojlar ichiga joylashtirgan, Yani ulardan birini tanlash barobarida bizning xulq-atvorimizga baho beriladi, hukm chiqariladi. Uchinchidan, Alloh taolo ularning ichiga odamlarning psixik olamidagi barcha kechinmalar, his-tuyg'ular, aqlu-zakovatini mujassamlashtirgan. Psixologiya fanining nasibasi aynan Shu erga joylashtirilgan. To'rtinchidan, odamlarga ikkiliklar orasida o'ralashib qolmasdan, undan chiqish va asosiy e'tiborni ularning YAratuvchisiga qaratish tavsiyasi beriladi. Bu tavhidga tomon yo'ldir. Rumiylarning hazratlari ta'kidlagandek, "Xush narsalar noxush narsalardan bo'lak emasdir. Shunki noxush narsa bo'lmaguncha, xush narsaning bo'lishi imkonsizdir. Sevilgan sevilmaganning zavoli hisoblanadi. Sevinch kadamning barham topishidir.

⁹²O'sha asar, - 109-bet.

⁹³ O'sha asar, 31-bet.

Kadar ham o'z navbatida sevinch bilan yo'q bo'ladi. Demak, foil (qilgan, bajargan) birdir, parchalar ayrilmasdir"⁹⁴. Tasavvuf ahli ikkiliklardan chiqib, Shunday bir maqomga etishadiki, bunda ular uchun lutf ham, qahr ham bir xil bo'lib qoladi. Shunki ularning ikkalasi ham Mahbubdandir. Najmiddin Kubro o'zining "Tasavvufning o'n asosi" kitobida Shunday deb yozadi: "Biror narsani istashda ikkilik – istagan va istalgan mavjud. Vahdat ahli esa bu ikkilikni qabul qilmaydi"⁹⁵. Darhaqiqat, "Avval ham, oxir ham, zohir ham, botin ham uning O'zidir" (Hadid (57) surasi, 3-oyat). Beshinchidan va bu eng muhimi – azvojni anglash, salbiy sifatlardan (botildan) ijobiy sifatlarga (haqqa) o'tish va undan chiqib, Yaratganni topish, uning borligida tajalliy etish – tasavvuf yo'li hisoblanadi. Bu yo'l metodologik ahamiyatga ega. Tasavvuf ta'limoti va amaliyotini o'rganishda Shu yo'ldan borish va uni psixologik tahlil qilish eng yaxshi samara beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf tushunchasi va ilk sufizmning psixologik asoslarini ko'rsating.
2. Tasavvufning psixologik mohiyatini ayting.
3. Asosiy tasavvufiy tushunchalar va ularning psixologik sharhini keltiring.
4. Ruh muammosi va uning psixologik echimini toping.
5. Imom G'azzoliy ruh manzillari haqida ayting.
6. Nafs va komillik psixologiyasini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Mistik hollarni chaqirish yo'llari.
2. Barkamol avlod va komil inson mushtarakligi.

17-MAVZU. TASAVVUF PSIXOLOGIYASI: QARASHLAR RANG BARANGLIGI.

Reja:

1. *Tasavvuf tushunchasi va ilk sufizmning psixologik asoslari.*
2. *Tasavvufning psixologik mohiyati.*
3. *Asosiy tasavvufiy tushunchalar va ularning psixologik sharhi.*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf, ilk sufizm, psixologik asoslar, psixologik mohiyat, tasavvufiy tushunchalar, psixologik sharh, ruh, psixika, qiyosiy tahlil, ruh manzillari, nafs, martaba.*

Tasavvuf to'g'risida yozilgan aksariyat kitoblar, Shu jumladan tasavvuf ahlining o'zlari yozgan manbalarda ham "so'fizm" atamasining etimologik kelib chiqishi tahlil qilinadi. Biz quyida ulardan ayrimlariga qisqacha to'xtalamiz.

"Koranicheskiy sufizm" kitobida leksikograflarning to'rt xil sharhi keltiriladi.⁹⁶

1. "So'fiy" so'zi "sof" so'zidan, Yani so'fiylar qalbining va amalga oshirayotgan ishlarining sofliigi ma'nosidan kelib chiqqan, degan qarash mavjud. Bishr ben Al-Xoris so'fiylar haqida Shunday degan edi:"So'fiy Allohga nisbatan qalbida samimiyati bo'lgan kishidir". "So'fiy" so'zining zamirida qalbning sofliigi va samimiyligi yotadi. Qalbi sof va pokiza insonning amali ham sof va pokiza bo'ladi. So'fizm inson qalbini sof va pokiza qilish usullari, yo'l-o'yo'riqlari hamda nazariy asoslari to'g'risidagi ta'limotdir.

Bu ko'rinishdagi sharhda asosiy e'tibor inson qalbining sofliigiga qaratilayapti. Islomda inson qalbi Allohning nazari tushadigan makon deb hisoblanadi. Ehtimol bunday sharhning paydo bo'lishiga aynan Shu tushuncha sabab bo'lgandir. Biroq "so'fiy" so'zi "sof" so'zidan olinganda uning to'g'ri qo'llanilishi "sofiy" degan so'zni keltirib chiqargan bo'lar edi.

⁹⁴ O'sha asar, - 112-bet.

⁹⁵ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b. – 72-bet.

⁹⁶Mir Validdin. Koranicheskiy sufizm. / Per. s angl. – SPb.: "Izdatel'stvo "DILYA", 2004 –S224 -7-bet.

2. “So’fiy” termini “saf” (qator) so’zi bilan mazmunan bog’liq deb hisoblashadigan olimlar ham bor. Ularning fikricha, “so’fiy” Iloh yo’liga kirganlarning birinchi safida turuvchidir”.⁹⁷ Biroq “so’fiy” so’zi “saf” so’zidan olinganda “saffiy” degan so’zni keltirib chiqargan bo’lar edi.

3. Boshqa bir guruh olimlar “so’fiy” so’zi “supadagi odamlar” (“asxab as-suffa”) so’zidan kelib chiqqanligini ta’kidlashadilar. Supadagi odamlar, Yani ashobi suffa Payg’ambarimiz (s.a.v.) davrida yashagan odamlar bo’lib, ular bu dunyodan yuz o’girgan. O’z uylari va hamfikrlaridan uzoqlashgan kishilardir. Dunyo ne’matlaridan ular o’zlariga keragicha olgan kishilardir. Shu kishilardan biriga “so’fiy kim?” deb so’rashganlarida, Shunday deb javob bergan ekan: “So’fiy – hech narsaga ega bo’lmagan va uning ustidan hech kim hukmronlik qilmaydigan kishidir”. Bu javobning zamirida So’fiyning o’z xohish-istaklarining quli emasligi ma’nosi yotadi.

Biroq “so’fiy” so’zi “as-suffa” so’zidan olingan bo’lganda edi, “suffiy” degan so’zni keltirib chiqargan bo’lar edi.

4. Yana bir toifa olimlari “so’fiy” so’zi “so’f”, Yani “jundan tikilgan mato” ma’nosini berishligini yozib qoldirishgan. “So’fiylar ko’p hollarda jun chakmon Yoki qo’y terisidan tikilgan po’stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni “jun kiyimlilar” (forschada pashminapo’sh), Yani so’fiy deb yuritganlar”.⁹⁸

N.Komilov yuqoridagi “so’fiy” so’zining etimologik ma’nolariga o’shimcha holda Yana bir qancha variantlarni ko’rsatib o’tadi. Olim Shunday deb yozadi: “Yana bir guruh olimlar so’fiy so’zi “safo” so’zidan kelib chiqqan, Shunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar”.⁹⁹ O’zbek tilida “kayfu safo” so’zi mavjud. Bu shirakayflikning Yuqori maqomlaridan biri hisoblanadi. Ma’lum kishilar Allohga nisbatan sadoqat va taqvo borasida Shunday maqomga etishadilarki, ular bundan o’ziga xos yuksak darajadagi zavqlanish hissini tuyadilar.

Olim yuqoridagi fikrlarga qo’shimcha holda Yana bir fikrni ilgari suradi: “Yana ba’zilar “so’fiy” “sufuh” so’zidan yasalgan, “suhuf” – biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xulqning xulosasi bo’lganligi sababli ularni so’fiy deganlar, deb yozadilar”.¹⁰⁰ Darhaqiqat, so’fiylar jamoasi Allohga ibodat borasida Shunday yuksak maqomlarga erishganlarki, ularni beixti Yor xalq turmush tarzining so’ngi yuksak xulosasi sifatida baholash mumkin.

N.Komilov, Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy tomonidan ilgari surilgan fikrni keltiradi. Abu Rayhon Beruniy o’zining “Osori boqiya...” asarida so’fiy so’zining yunoncha suf, Yani faylasuf so’zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko’rsatadi. Darhaqiqat, so’fizmning o’zi ma’lum bir dunyoqarash, e’tiqod, maslak sifatida falsafa faniga bevosita aloqador hisoblanadi.

A.D.Knish “Musul’manskiy sufizm” kitobida so’fiy so’zining Yuqorida zikr qilingan ma’nolaridan uchtasiga, Yani “sof”, “ahl as-suffa” va “so’f” larga asosiy e’tiborini qaratgan. Olimning fikriga ko’ra, ularning orasida etimologik jihatdan haqiqatga yaqini “so’f, Yani “jun” so’zi hisoblanadi”.¹⁰¹

A.A.Xismatuln o’zining “Sufizm” kitobida so’fiy so’zining etimologik ma’nolariga to’xtalib o’tib, yozadi: “Mualliflar tomonidan turli xil etimologik sharhlar, jumladan, “jun kiyimini taShuvchi” (“suf”dan – “jun”), “donishmandlik” (sophos dan “donishmandlik”), “suv”(suvdan olingan), “supa” (suffadan – “supa”), “sofa” (“sofadan – “sof”), “saff” (safdan - qator, saf) sharhlar taklif qilinadi”.¹⁰²

E’tibor berilsa, yuqorida keltirilgan sharhlar ichida yangi sharh, yani suv so’zidan so’fiy so’zi kelib chiqqanligi ko’zga tashlanadi. Suv so’zi bilan so’fiy so’zi o’rtasidagi mushtarakligini,

⁹⁷ O’sha asar, 7-bet

⁹⁸ O’sha asar, 7-bet

⁹⁹ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil in-son axloqi. K.1. – T.: “YOZuvchi”, 1996. – 272-b. -7 b.

¹⁰⁰ O’sha asar, 7-bet

¹⁰¹ Knish A. D. Musul’manskiy mistisizm: kratkaya istoriya / A.D. Knish; per. s angl. M.G. Romanov. – SPb.: Izdatel’stvo «DILYA», 2004 –S464. 10-bet.

¹⁰² Xismatuln A.A. Sufizm. – SPb.: “Azbuka-klassika”; Peterburgskoe Vostokovedenie, 2003 –S224. -16-bet.

fikrimizcha, quyidagicha izohlash mumkin:”islomda tahorat, yani poklanish uchun asosiy vosita suv hisoblanadi. Suv bo’lmagan holda tayammumga ruxsat beriladi. Islomda suv poklash vositasi hisoblanar ekan, tabiiyki, so’fizm ham ma’lum ma’noda axloqiy-ma’naviy poklanish vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan suv so’zi bilan so’fizm o’rtasidagi aloqani tushuntirish mumkin.

E’tiborli tomoni Shunndaki, A.A.Xismatulin ham so’fiy so’zining “jun” (“so’f”) so’zidan kelib chiqqanligini alohida ta’kidlaydi. “Dastavval sof tashqi belgini angatgan atama keyinchalik odatda kuzatilgandagidek (masalan, “nemes” “nemoy”dan, “russkiy” “rusiy”dan kelib chiqqanidek) funksional ahamiyat kasb etadi va kiyib yuradigan kiyiminig materialiga bog’liq bo’lmagan holda musulmon jamoasida ruhiy izlanishlar bilan Shug’illanadigan odamlarga nisbatan ishlatiladi”.¹⁰³

Shayx Al-Kolobodiy o’zining “Tasavvuf sarchashmasi” kitobining “Nima uchun so’fiylikni so’fiy deb nomlanadi?” bobida Yuqorida zikr qilingan barcha holatlar keltiriladi va ularga sharh beriladi. Shayx Al-Kolobodiy bergan sharhlarda so’zlarning ma’nosi juda go’zal ko’rinishda ochib berilishini nazarda tutgan holda uni to’liq berishga jazm qildik.

“Bir toifa so’fiylarning so’zlari bo’yicha so’fiylikning so’fiy deb onmlanishi, uning sirru asrorlari va asarlari nihoyatda toza, musaffo bo’lganligi uchundir.

So’fiy Bishr ibn Xoris dedi: ”Insonning qalbi Alloh taologa nisbatan musaffo bo’lganligi uchundir”.

Yana bir so’fiylar dedilar: Kimningki muomalasi Alloh taologa nisbatan sof bo’lsa, Alloh taolo tarafidan unga berilgan karomati ham sof bo’lgay.

Yana bir qavm dedi: So’fiylar Alloh taoloning borgohida (qo’l ostida) birinchi safdadurlar, ularning himmatlari nihoyat darajada baland bo’lganliklari uchun, ular o’z qalblari bilan astoydil berilganliklari uchun va Yana ular Allohning huzurida tutgan sirru asrorlari uchundir.

Yana bir qavm nima uchun so’fiylik deb nomlanishi borasida Shunday deyishadi: Shunki ularning hamma sifatleri Rasululloh sollollohu alayhi vassallamdavrlaridagi sifatlik kishilarga yaqmn bo’lganliklaridandir.

Yana bir boshqa qavm dedi: Ular junlik ust-bosh kiyganliklari uchundir. Ammo bu ularning sifat ahllariga nisbat berilganligidir. Suf deyishlari ularning zohiriy ahvollaridan ta’birlanganidandir”.¹⁰⁴

Husayn Voiz Koshifiy o’zining “Futuvvatnomai Sultoniy” kitobida “so’fiy” so’zining kelib chiqishi haqida Shunday deb yozadi: “Agar mazkur toifani nega “so’fiy” deb ataydilar, deb so’rasalar, buning ham javobi beshta deb ayt: Avval Shuki, so’fiylar birinchi safdadirlar, Yani barcha soliklar oldingi safda turuvchilardir. Ikkichidan, ular ashobi suffaga tavallo qilgan zotlardir. Ashobi suffa esa dunyo ishlaridan yuz o’girib, oxiratni iqbol deb bilgan kishilar edilar, ularning yuzi g’amdan sarg’ayib, sahardan shomgacha xudoga nola qilib, zikr tushirganlar. ... Uchinchidan, mazkur so’zning kelib chiqishi safo so’zi bilan bog’liq, Yani bu toifa kishilarining ko’ngli safoga to’liq bo’lgani uchun ularni so’fiy deb ataganlar. To’rtinchidan, so’fiy so’zi safux so’zidan paydo bo’lgan deguvchilar ham bor. Safux biror bir nasaning xulosasidir. Bas, bu jamoani Shuning uchun so’fiy deydilarki, ular xalqning xulosasi (qaymog’i)dirlar. Beshinchidan, ... “suf” (so’fiy) deb lug’atda junni aytadilar va ular aksarjun chakmon kiyib yurganlari uchun so’fiy deyilgan”.¹⁰⁵

Husayn Voiz Koshifiy “so’fiy” so’zining kelib chiqishiga bog’liq Yana bir yangi fikrni bildiradi:””Unsul so’fiya” kitobida birinchi bo’lib “so’fiy” degan nomni olgan odam Odam ato farzandlaridan biri – SHish edi, deb naql qilinadi. ... Uning kiyimi yashil sufdan (suf – jun, mato) ekan va SHishdan keyin jun matodan kiyim kiyib yuruvchilarni “So’fiy” deyidigan bo’ldilar”.¹⁰⁶

¹⁰³ O’sha asar, 16-17-betlar.

¹⁰⁴ Shayx Kalobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. (At-ta’arruf – tasavvufni tanishtirish kitobi). – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002. – 144-b.

¹⁰⁵ Komil inson haqida to’rt risola: Farididdin Attor, Sulton Valad, Aziziddin Nasafiy, Husay Voiz Koshifiy ijodidan namunalalar/ Fors-tojik tilidan N.Komilov tarj. – T.: “Ma’naviyat”, 1997, 280 b.-186-bet.

¹⁰⁶ O’sha asar, 184-bet.

Imom Abu Abdurahmon as-Sullamining “Taaqoti sufiyya” kitobiga so’zboshi yozgan olim M.Nuriddinov so’fiy so’zini “ahlu-s-suffa”dan kelib chiqqanligini ta’riflaydi. Uning fikricha, axlu-s-suffa saodat asrida, Yani Payg’ambarimiz (s.a.v.) davrlarida yashagan muhojir fuqarolardir. Muhojirligi sabab ularning yashaydigan uylari, Shuhillanadigan kasbu korlari bo’lmagan. Madinadagi masjidning chodir tortilgan qismida, soyali joyda yashab yurganlar. Islom tarixida aynan mana Shu soyali joy “suffa” deb atalgan. M.Nuriddinovning yozishicha, Ibn Asir o’zining “Al-qomusul-muhit” kitobida axlu-s-suffa haqida yozadi va ularni islomning mehmonlari, deb ataydi. So’fiylarning avlodi axlu-s-suffaga mansub bo’lib, ular hayot mashaqqatlarini engishda barchaga namuna bo’lganlar. At-Tusiyning xabar berishicha, ularning soni uch yuzga yaqin bo’lgan, na erga, na molga, na tijorat ishlariga ega bo’lganlar.

“Al-la’m” kitobida yozilishicha, “Suratul Baqarada (273-oyat) da zikr etilgan faqirlar aynan o’sha ahlu-s-suffadir. Bundan tashqari, ular haqida Kahf (28-oyat), An’om (52-oyat) suralarida ham Alloh taoloning marhamatli so’zlari bor.¹⁰⁷

Ahlu-s-suffa dunyo havaslaridan kechib, qashshoqlik bilan kun kechirishlariga qaramay, hamisha toat-ibodatda mukammal bo’lishgan, qalblari esa doimo Alloh zikri bilan band bo’lgan va din yo’lida har qanday ishga tayyor turishgan.

A.N.Romanin o’zining “Prikticheskaya psixologiya i religii” kitobida so’fiy so’zining kelib chiqishidagi ikkita versiyaga to’xtaladi. Birinchisi – “so’f” “jun” so’zidan kelib chiqqanligi bo’lsa, ikkinchisi – grekcha “sofiya” “donishmandlik” so’zidan kelib chiqqanligidir. Shu o’rinda A.N.Romanin yozadi: “Sharq mutafakkirlari yunon madaniyati va falsafasini yaxshi bilganlar va ular Suqrotga (uni so’fiylar o’zlariga yaqin deb bilganlar), Platonga, Aristotelga va o’zgalarga ta’zim bajo keltirganlar”.¹⁰⁸

Lin Vilklks o’zining “Sufizm i psixologiya” deb nomlangan kitobida ham Abu-l-Hasan Ali ibn Usmon al-G’aznaviy al-Jullobiy (XI-asr) tomonidan ilgari surilgan fikrlarga to’xtalib o’tadi. “So’fiy” so’zi “suf” so’zidan kelib chiqqan bo’lishi mumkin. Bu so’z “jun”ni anglatadi, Yani so’fiylar kiyib yurgan jundan tayyorlangan kiyimni. Yoki ashob as-suffa – “supadagi odamlar” so’zidan. Payg’ambarimiz (s.a.v.) ning masjidida yashovchi kambag’al musulmonlar Shunday deb atalar edi. Yoki “sof” so’zidan kelib chiqqan. “Sof” tozalikni, pokizalikni anglatadi. Balki to’g’ri javob bularning barchasidir.¹⁰⁹

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o’zining “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida tasavvufning ma’nosining besh xil versiyasini keltiradi. Ulardan to’rttasi Yuqorida zikr qilingan holatlarga mos tushadi. Bittasi yangi bo’lib, unga ko’ra, “so’fiy” so’zi Sufa ibn Udd ibn Tlobixaga nisbatan aytilgan emish.k. Qadimda o’ta ko’p ibodat qilganlar haqida gapirganda sho’a kishiga qiyoslash odat bo’lgan. Muallif mazkur fikrning haqiqatdan yiroq ekanligini tasdiqlaydi va Shunday deb yozadi: “Ammo bu talqin ham qabul qilinmagan. Shunki islomda boshqa dindagilarni o’ziga o’rnak qilib olish mumkin emas. Sufa ibn Udd johiliyat davrida faoliyat ko’rsatgan”.¹¹⁰

Shayx hazratlari “so’fiy” so’zining ma’no jihatdan to’g’risini arabcha suvf – jun so’zidan olinganida ko’radi. Bu haqda muallif quyidagicha yozadi: “Avvalo lug’at jihatdan bu ism juda to’g’ri keladi. Qolaversa, ko’p ibodat qilishga berilgan kishilar kiyimni ham juda sodda kiyganlar. Odatda ularning kiyimlari faqat jundan iborat bo’lgan, deyishadi ular. Jun mayin bo’lmagani uchun ham barcha asrlarda obidlarning xos kiyimi hisoblangan. Payg’ambar (s.a.v.) obidliklari haqida so’z borganda ham “U zot jun kiyim kiyar edilar” degan rivoyat keltiriladi”.¹¹¹ Muallif Shu holatni haqiqatga yaqin deb hisoblaydi.

¹⁰⁷ Imom Abu Abdurahmon as-Sullami. Tabaqoti suffiyya. – T.: “Fan” nashriyoti. 2004. – 91 b. -4-bet.

¹⁰⁸ Romanin A.N. Prikticheskaya psixologiya i religii: uchebnoe posobie/A.N.Romanin. – M.:KRONUS, 2006. – 344 s. -305-bet.

¹⁰⁹ Lil Vilko. Sufizm i psixologiya. – M. – SPb.: “DILYA”, 2005. – S. 254.

¹¹⁰ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 255-b.- 30-31 betlar.

¹¹¹ O’sha asar, 31-bet.

Biz Shu paytgacha “so’fiy” so’zining kelib chiqishi bilan bog’liq mulohazalarga to’xtalib o’tdik. Barcha mualliflarda ham asosiy mulohaza “so’fiy” so’zining “suvf” – “jun” so’zidan kelib chiqqanligi mulohazasiga borib taqaladi. Demak, nisbatan haqiqatga yaqin mulohaza aynan “jun” so’zi bilan bog’liq bo’layapti.

Usmon Turarning “Tasavvuf tarixi” kitobida “so’fiy” so’zining kelib chiqishi bo’yicha eng mukammal sharh beriladi. Bu kitobda “so’fiy” so’zining sakkiz xil sharhi uchraydi. Biz ulardan Yuqorida kelganlariga to’xtalib o’tamiz.

“g) So’fiy kalimasining asli”safoviy” bo’lib, talaffuzi qiyin bo’lgani uchun ”vov” bilan “fa” o’rin almashgan. Bu qarash ham e’tiborga loyiq emas.

d) So’fiy so’zi “safo” Yoki “savf”dan kelib chiqqan deb aytiladi. Bu qarashga ko’ra, “so’fiy” dunyoviy kirlardan qalbi tozalanib, poklangani uchun bu nomga sazovor bo’lgan. Imom Qushayriy ushbu qarash tarafdori. Bu davo kelib chiqish qoidasiga muvofiq emas”.¹¹²

“e) Tasavvuf bir yoqlama bo’lish, yuz o’g’irish ma’nolarini bildiruvchi “savf” so’zidan olingan deyiladi. Allohga erishganlar mosuvodan yuz o’g’irganlari uchun ularga so’fiy, yurgan yo’llariga tasavvuf deyilgan”.¹¹³

Usmon Turar ham “so’fiy” so’zining kelib chiqishida “jun” Yoki “yung” ma’nosidagi “so’f” so’zining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikriga ko’ra, rangsiz, dag’al jundan tikilgan libos kiyimoq sho’a davrdagi gunoh qilgan kishining pushaymonligining alomati hisoblanar ekan. Shuningdek, junli libos kibrni o’ldirib, tavozeni kuchaytirar ekan (Muhosibiy). O’z davrining valiylari hisoblangan Malik ibn Dinor, Utba va So’fiyoni Savriylar ham junli libos kiyganligi to’g’risidagi ma’lumotlar saqlangan. Payg’ambarimiz (s.a.v.) ham junli libos kiyib yurganligi rivoyat qilinadi.

Usmon Turarning fikriga ko’ra, hijriy III-asridan boshlab oq rangli junli libos kiyish so’fiylar tomonidan rasmiy libos sifatida qabul qilingan.

Shu o’rinda yana bir fikrni ilgari surmoqchimiz. Yuqorida “so’fiy” so’zi bilan bog’liq bo’lgan barcha mulohazalar ham qaysidir jihatdan “so’fiy” so’zini ma’no to’ldiradi, unga xos bo’lgan qaysidir jihatni o’zida mujassamlashtiradi. Ma’lum ma’noda aytish mumkinki, biz “so’fiy” so’zining har xil tushunchalarini batafsil berdik. Sababi – har xil tushuncha so’fiyga xos bo’lgan sifatni o’zida aks ettiradi va albatta ularning yig’indisi “so’fiy” so’zining umumiy sharhini yaratishga xizmat qiladi. Demak, so’fiy o’zida ahlu-s-suffaga xos bo’lgansifatlarni mujassamlashtirgan, qalbi sof va amali pokiza bo’lgan, e’tiqod masalasida o’ziga xos falsafiy ta’limotga ega ega bo’lgan, suvgv shxshab nafvqat o’zlari pok bo’lgan, balki o’zgalarni ham poklaydigan, Ilohga nisbatan muhabbat va itoatda peshqadam bo’lgan, ixlos va ehson egalaridir.

Shunday qilib, biz Shu paytgacha “so’fiy” so’zining (Shu jumladan “so’fizm” so’zining ham) kelib chiqishi, uning tarixiy ildizlari, mohiyatan ”so’fiy” so’ziga berilgan to’g’ri sharhlar masalalariga e’tiborimizni qaratdik. Endi “tasavvuf so’zi qaerda kelib chiqqanligi masalasiga to’xtab o’tishni maqsadga muvofiq deb bildik. Bu haqda N.Komilov Shunday deb yozadi:”Agar “so’f” so’zidan “so’fiy” yasalgan bo’lsa, sho’ navbatida “so’fiy”dan “tasavvuf”, “mustasuf”, “mustassuf”, “mutasavvuf” so’zlari hosil bo’lgan. Mustasuf o’zini so’fiylarga o’xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, molu mulkka intilishdan iborat bo’lgan kishilarga nisbatan ishlatiladigan so’z bo’lsa, mutassuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so’fiy darajasiga ko’tarila olmagan kishilardir. Qalban so’fiyona g’oyalarga moyil, tasavvufni e’tiqod, maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o’tamagan, rasman so’fiy bo’lmagan odamlar esa mutasavvuf bo’lib hisoblanganlar”.¹¹⁴

¹¹² Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180-b.-21-bet.

¹¹³ O’sha asar, 21-bet.

¹¹⁴ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil in-son axloqi. K.1. – T.: “YOzuvchi”, 1996. – 272-b. -7-8-betlar.

O.F.Akimushkinning fikriga ko'ra, "tasavvuf atamasi ilmiy jihatdan qo'llanishga 1821 yilda teologiya bo'yicha nemis professori F.A.D. Toluk (1877 yilda o'lgan) tomonidan kiritilgan: Tholuck F.A.D/ Sufismus sive theosophia persarum pantheistica. B., 1821. ".¹¹⁵

Tasavvuf so'zi qadimgi lug'at ilmi ustalari tomonidan o'rganilganligini Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ta'kidlaydi va "Al-mo'jam al-vasiy" nomli lug'at kitobida bu haqda kiritilgan fikrlarni yozadi:"Savvafa fulonan – falonchini so'fiylikdan sanadi degani. Tasavvuf suluk tarzi bo'lib, uning asosi nafs pok va ruh oliy bo'lishi uchun sodda hayot va fazilatlar ila ziynatlanib yashamoqdir. Tasavvuf ilmi – so'fiylar e'tiqod qiladigannarsalar va o'z jamolarida hamda yolg'iz qolganlarida ushlaydigan odoblaridir. So'fiy – tasavvuf yo'lga kirishgan odamdir".¹¹⁶

Linn Vilokskning yozishicha, "so'fiy" so'zi ilk bora IX-asrda yozma manbalarda uchraydi. Ilk bora mazkur atamani XI-asrda al Xujviriy tomonidan qo'llanilgan degan fikr ham mavjud. Bu olim so'fizm bo'yicha fors tilida ilk kitob yozgan va unda so'fiylikning tarixi, mohiyati to'g'risida, so'fiylarning dunyoqarashi va amaliyoti haqida tizimli ma'lumotni bergan olim hisoblanadi.¹¹⁷

"Koranicheskiy sufizm" kitobida Imom al-Qushayriyning mazkur masaladagi fikri keltirilgan. Imom al-Qushayriyning aytishicha, "so'fiy" so'zi hijratdan keyingi ikkinchi asrlarning oxirlarida ham (Yoki 822 yillar) iste'molga kirmagan edi. Shunday bo'lsada ta'kidlash joizki, diniy qonun-qoidalar ko'r-ko'rona, yuzaki bajarilayotganidan qoniqmagani Payg'ambarimiz (s.a.v.) va uning ayrim sahobalari ayrim tasavvufga taalluqli adabiyotlarda ilk so'fiylar sifatida talqin qilinadi. Biroq boshqa bir talqin ham haqiqatga yaqin hisoblanadi. Mazkur talqinga ko'ra, tasavvuf atamasi hijriy III-hijriy, IX- milodiy asrning birinchi yarmiga kelib keng qo'llanila boshlandi. Bu atamani Iroqdagi, Suriyadagi va hatto Misrdagi musulmon zohidlarga nisbatan qo'llanila boshlangan.

A.D.Knish o'zining "Musul'manskiy mistisizm" kitobida yozishicha, "Abu Zarr (32\652 y.v.e.), Abu Dordo (32\625 y.v.e.), uning xotini Umm ad-Dordo, Solmoni Forsiy (35\655 Yoki 37\657 y.v.e.), Huzayfa b. Al Yaman (37\ 672) va Imron b. Al-Husayn al-Huzayya (53\672 Yoki 54\673 y.v.e.) – bular Payg'ambar (s.a.v.)ning bevosida qurshovidan chiqqan ilk zohidlar bo'lib, ularda avant la letter, Yani "so'fiy" tushunchasining o'zi paydo bo'lgungacha so'fiylik an'analari shakllangan edi".¹¹⁸ O'zlarining diniy majburiyatlarini Shunchaki shaklan bajarish bilan chegaralanmagan bunday kishilar o'z xulq-atvorlari asosida yotgan motivlarni tahlil qilishga asosiy e'tiborlarini qaratgan va o'z hayotlarini chuqur ruhoniylar ma'no bilan to'ldirishga g'arakat qilishgan. Buni amalga oshirish uchun ular Allohning mo'jizasi hisoblangan "Qur'on"ning ma'nosini chuqur tahlil qilishganlar, Payg'ambarimiz (s.a.v.) go'zal turmush tarziga to'liq taqlid qilishganlar, o'z-o'zini takomillashtirish harakatida bo'lishganlar, o'zlari xohlagan holda faqirlikni afzal ko'rishganlar va dunyo muhabbatini so'ndirishganlar.

Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy hazratlari o'zining "Tasavvuf sirlari" kitobida¹¹⁹ ta'kidlanishicha, tasavvufning kelib chiqishini unchalik murakkablashtirish kerak emas. Masalan, nomozni olaylik. Nomoz beshta islom arkonlaridan biri bo'lib, uni xuShu va huzu bilan o'qish buyuriladi. Aynan mana Shu xuShu va huzudan tasavvuf boshlanadi. Yoki islomda biror ishni amalga oshirishda u haqda ilmga ega bo'lishlik buyuriladi. Ilmga ega bo'lgan kishidan amal talab qilinadi. Amal qilganda ham ixlos bilan amal qilish so'raladi. Aynan mana Shu ixlos nuqtasidan tasavvuf boshlanadi. Yoki biror ishni (masalan, ibodatni, xayru sadoqatni

¹¹⁵ Akimushkin O.F. Sufiyskie bratstva: slojnyy uzal problem. /Trimingem Dj.S.Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A.Staviskoy, pod redaksiyey i s predisl. O.F.Akimushkina. –M.:Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1989. – 328 s. kitobida, 3-bet.

¹¹⁶ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 255-b.- 33-bet.

¹¹⁷ Lil Viloksk. Sufizm i psixologiya. – M.- SPb.: "Dilya", 2005. – S. 254.

¹¹⁸ Кныш A.D. Musul'manskiy mistisizm: kratkaya istoriya /A.D.Кныш; per. s angl. M.G.Romanov. – SPb.: "Izdatel'stvo «DILYA»", 2004. – 464 s. -11-bet.

¹¹⁹ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b.

va h.k.) xolis Alloh uchun qilish buyuriladi. Alloga nisbatan xolislikdan tasavvuf boshlanadi. Boshqacha aytganda, olimning fikriga ko'ra, tasavvuf ichki fiqhdur.

Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi haqida Usmon Turar Shunday deb yozadi: "Fiqh, tafsir, kalom va boshqa zohiriy ilmlar kabi tasavvuf ilmi ham hijriy II va III-asrlarda paydo bo'ldi".¹²⁰ Ibn Xoldun "Muqaddima" asarida Shunday deb yozadi: "Bu ilm islom jamiyatida paydo bo'lgan shar'iy ilmlardandir. Uning asli budir: tasavvuf ilmining yo'li, sahoba va tobeindan bo'lgan salaflar nazarida Haq va hidoyat yo'li edi. Tasavvuf yo'lining asosi dunyoning zeb-ziynatiyu go'zalliklaridan yuz o'girmoq, o'tkinchi dunyo zavqlaridan ko'ngilni ayirib, Haqqa yo'nalmoq va toat-ibodatga astoydil bel bog'lamoqdir".¹²¹

Shunday qilib, VIII-asrning oxiriga kelib xalifalikda so'fiylik deb atalgan alohida toifa musulmonlari paydo bo'ldi va ularning zohidlik va ruhoniyligi o'z o'zini tahlil bilan Shug'illanishlari xarakterli holat sifatida qaraladi. Ilk davrlarda "so'fiylar" deb atalishdan tashqari boshqa joylarda boshqacha atala boshladi. Masalan, Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda so'fiylar "hakimlar" Yoki "oriflar" ("Allohni bilganlar") deb atalgan bo'lsa, xalifalikning Sharqiy hududlarida, Shuningdek, Iroqda va Suriyada "faqirlar", "darvishlar" Yoki "zohidlar" deb atalgan.

So'fiylar o'z ta'limoti asosiga ma'lum g'oyalar singdirganligi bilan xarakterlidir. Tasavvuf tarixining ilk davrida zohidlik psixologiyasi asosida ibodat qilinar edi. "Zuhd" so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'risida Usmon Turar Shunday deb yozgan edi: "zuhd (zohidlik) – "voz kechish, nazarga ilmay tark etish, qiziqmaslik va e'tibor bermaslik" kabi ma'nolarni bildiradi. Tasavvufda esa Allohdan tashqaridagi boshqa hamma narsalar, Yani mosuvoga ko'ngil qo'ymaslik ma'nosini bildiradi"[40].

Ilk zohidlarning aksariyati sadoqatga, axloqiy poklikka, Allohdan qo'rqishga va ilohiy majburiyatlarni mukammal ado etishga asosiy e'tiborlarini qaratishganlar. Tasavvuf ta'limoti va amaliyotining asoschilari hisoblangan zohidlar nafl ro'zalarini tutish, qo'shimcha ibodatlarni doimiy qilish, tunlari uxlamasdan nomozlar o'qish, Qur'on oyatlarining botiniy ma'nolarini muShohada qilish, Shuningdek, Alloh g'oyasi ustida to'liq fikrlash va ruhiy jamlanish Yordamida Allohga ruhoniyligi yaqinlik qilishga erishganlar. O'zlarining ilk tasavvufona fikrlari va amaliyotini Qur'oni karim oyatlari bilan asoslashga urinishgan. Masalan, Qur'onning Olimron surasidagi 31-oyatda Shunday deyiladi: "Ayting (Ey Muhammad): "Agar Allohni sevsangiz, menga ergashinglar. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag'firat qiladi. Alloh (gunohlarni) mag'firat qiluvchi, mehribondir". Buruj surasining 14-oyatida Shunday deyiladi: "U (mo'minlarga) mag'firatli, muhabbatli zotdir" singari oyatlar Yuqoridagi holatga misol bo'ladi.

Bundan tashqari, Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan kelgan hadislar orqali ham zuhd ahli o'zlarining hayot tarzlarini tushuntirishga urinishgan.

Yuqoridagi oyatlar va hadislarga tayangan holda Payg'ambrimiz (s.a.v.)ning hayot tarzi va fe'lu atvoridan o'rnak olgan holda ilk so'fiylar o'ziga xos xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqisha boshlashdi. Bu qonun-qoidalarga tavba tazarru, dunyoviy lazzatlardan voz kechish, sabr, Shukr, faqirlik kirishini ta'kidlash joiz. Shu o'rinda ayrim tasavvuf to'g'risida yozilgan manbalarda faqirlik to'g'risida noto'g'ri tushunchalar mavjudligini aytish maqsadga muvofiq bo'lardi. Masalan, A.D.Knish faqirlikni "ba'zi bir ilk zohidlar ongli holda daromadli kasb-korlaridan voz kechdilar Yoki hatto meroslaridan ham voz kechdilar".¹²² Qabilida tushuntiradi. Xolbuki, bu faqirlikning tub mohiyatini zohiriy tushunishdir. N.Komilov faqirlikni noto'g'ri tushuntirganlarga qarshi Shunday deb yozadi: "faqirlikni mol-mulkning bo'lmasligi deb tushunish bir tomonlama talqindir. Faqirlik ko'proq dunyoga, mol-mulkka egalik hissining

¹²⁰ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180-b.- 23-bet.

¹²¹ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180-b.-23-bet.

¹²² Кнѣш А.Д. Мусульмансий мистисизм: краткая история /А.Д.Кнѣш; per. s angl. М.Г.Романов. – SPb.: "Izdatel'stvo «DILYA»", 2004. – 464 s. -14-bet.

yo'qligidir, Yani agar mol-mulk bo'lsa ham, bunga ega emasman, bu Tangrimizning mulki deb bilish va hamisha ko'ngilda Shu fikr bilan yurish".¹²³

Robert Freyjer va Jeyms Feydimenlarning kitobida faqirlikka to'g'ri baho berilgan. Makur kitobda faqirlik "qalbning hech narsaga bog'liq emasligi" sifatida¹²⁴ sharhlanadi. Shu kitobda Xujviriyning faqirlik to'g'risidagi fikri ham keltiriladi; "Agar qalb ozod bo'lsa (Allohdan boshqa barcha narsadan), faqirlik boylikdan afzal bo'lmaydi, boylik faqirlikdan afzal bo'lmaydi".¹²⁵ Darhaqiqat, faqir bir tomondan moddiy boylikka intilishdan voz kechishi zarur, ikkinchi tomondan mavjud mulkni yo'qotishga intilmasligi ham kerak. Faqirning qalbi bu dunyoga bog'liq bo'lmaydi, Allohga ochiq bo'ladi va Alloh bilan to'yinishga tayyor bo'ladi.

Demak, ilk zohidlarga xos bo'lgan sifatlardan biri faqirlik bo'lib, u ham Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning "Faqirlik faxrimdir" degan hadisi sharifiga amal qilishning natijasi o'laroq yuzaga chiqadi. Faqirlik sof psixologik tushuncha hisoblanib, bunda zohid o'zi boy bo'lsa ham qalbidagi moddiy olamga nisbatan muhabbatini so'ndirgani bois o'sha boyligini yo'qdek his qilish.k. E'tibor qiling, gap o'zini yo'qday qilib ko'rsatish haqida emas, balki his qilish haqida borayapti. Demak, faqirlikning asosida insonning emosional-hissiy olamidagi ma'lum holat yotar ekan. Bu holatni "hol" deb atashadi. Ibrohim Haqqul o'zining Najmiddin Kubroning "Tasavvufiy hayot" kitobiga yozgan so'zboshisida bu haqda Shunday deydi: "Tasavvuf tarixidan yaxshi ma'lumki, qadim davrlardan e'tiboran so'fiylar psixologik tuyg'ulari va erishilgan ruhiy holatlarini "hol" deb ataganlar".¹²⁶

Zohidlik haqida Jaloliddin Rumi Shunday deb yozadi: "Zuhd nimadir? Dunyodan yuz o'girmoq, toat va ibodatga tavajjuh (yuzlanish – tarj.) etmoqdir. Buning uchun inson dunyoni, uning chirkinligini, vafosizligini va oxirat go'zalligini, uning doimiy va boqiy ekanligini bilishi kerak".¹²⁷ E'tibor berilsa, zuhdga xos sifatlarning uchtasi bu erda alohida ko'rastilmoqda, Yani dunyodan yuz o'girmoq (faqirlik), toatga tavajjuh qilish va oxiratga tavajjuh qilish.k.

Zohidlik davrining o'ziga xos tomonlaridan biri Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga amal qilgan holda ilohiy muhabbatni o'zlarining ta'limotiga asos qilib olganligidir. Qur'onning Oli Imron surasining 31-oyatida "Ayting (ey Habibim): "Agar Allohni sevsangizlar, menga (Yani Rasululohga) ergashingizlar, Shunda Alloh sizlarni sevgaydir". Allohning o'z bandasiga muhabbati bo'lishligi sharti ko'rsatilayapti. Bir sahih hadisi sharifda Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat etadilar: "Nafsim (jonim) qudrati qo'lida bo'lgan Allohga qasamki, sizlardan har bittangiz meni otangizdan ham, farzandlaringizdan ham, butun insonlardan hamko'proq yaxshi ko'rmaguningizcha, haqiqiy mo'min bo'la olmassiz". Shunga o'xsha oyat va hadislardan ilhomlangan ilk zohidlar o'zlarining ilohiy muhabbatlarini o'z badiiy asarlarida ifodalashdilar. Bugungi kungacha o'sha asarlar insoniyat qalbini to'lqinlantirib keladi.

Tasavvuf haqida yozar ekan, Mahmud As'ad Jo'shon Shunday deydi: "Tasavvufning asosi – qullarga Allohni, Allohga qullarni sevdirmoqdir. Tasavvuf buni juda zarif, juda nozik, juda teran usullar bilan ta'minlagay; qulni oshig'i sodiq va muhibbi Xoliq holiga keltirgay".¹²⁸

Bunday ilohiy muhabbatga ilk zohidlik davrida sadoqat bilan o'lpon to'lanishligi ta'kidlanar edi. Sadoqat – ilohiy muhabbatning isboti hisoblanadi. Zohid ahli harakatlarda va fikrlarda gunoh qilish, hatto qisqa muddatli Ilohiy ne'matni "unitish" (zohid ahli bu holatni "g'aflat" deb ataydi) ma'Shuqning jazolanishiga olib keladi.

D.Nurbaxsh o'zining "Семь esse o sufizme" kitobida tasavvufdagi "ishq" va "muhabbat" tushunchalarini farqlaydi. Ishq lug'atlarda cheksiz muhabbat va yuksak sadoqat ma'nolarini anglatishligini ta'kidlaydi. U Shunday yozadi: "muhabbatning yuksak darajasi ishq deb ataladi.

¹²³ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. – T.:YOzuvchi, 1996. – 272 b. – 96-bet.

¹²⁴ Freydjer R., Feydimen D. Bol'shaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freydjer, Djeys Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s.-500-bet.

¹²⁵ O'sha asar, 500-bet.

¹²⁶ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b. -10-bet.

¹²⁷ Rumi Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.: "YAngi asr avlodi", 2003. – 199 b. -51-bet.

¹²⁸ Mahmud As'ad Jo'shon. Haqiqiy sevgi. – T.: "Movarounnahr", 1999. -96 b. -4 b.

Ishq –bu muhabbatning oliy darajasi va nisbatan ehtirosli turidir. Har qanday muhabbat ishqdir, biroq har qanday ishq muhabbat emas”.¹²⁹

Zohidlikdagi ishq aynan sadoqat bilan kelishi alohida ta’kidlash kerak bo’lgan holat. Shunki ilk zohidlar muhabbatning isboti albatta bo’lishi lozim, Ma’Shuqaga yoqishi mumkin bo’lgan Oshiqdagi sifat sadoqatdir, sadoqat esa Ma’Shuq talablarini qondirishdan iboratdir, degan fikrlarni ilgari surishganlar.

Ilk zohidlar ta’limotining Yana bir muhim elementi Alloh bilan uning bandalari o’rtasidagi “ilohiy shartnoma” g’oyasi bilan bog’liq. Bu “alast” shartnomasi deb ham ataladi. Alast - (“emasmanmi?”) ”alast bi Robbikum” – “Rabbingiz emasmanmi?” oyatining qisqarma ishorasi. Allohning azalda ruhlarni yaratgandan keyin ularga :”Men sizlarning Rabbingiz emasmanmi?” shaklida xitob etishiga io’ratdir. Ilk tasavvuf nazariyotchilarining fikriga ko’ra, ilk ruh pok va musaffo. Biroq insoniy ruh moddiy vujudga kirgandan so’ng u gunohlarga to’la olamda yashab boshlaydi. Natijada mana Shu dunyoda ruh o’zining YAratuvchisi oldida bergan va’dasini unitadi va dunyoviy hayot aldovlarining qurboniga aylanadi. Zohidning maqsadi inson ruhini Rabbisiga bergan va’dasiga sadoqat holatiga iboratdir. Bu ruhga YAratuvchi bilan shartnoma tuzilgan kunni yangidan his etish imkoniyatini beradi. Bu maqsadga etishish yo’lida zohid dunyoviy jilvalardan qochishi, Shuningdek, o’z nafs bilan kurashishi hisoblanadi. Nafs, ilk zohidlarning fikriga ko’ra, egoistik istaklarning omboridir, demak, Allohga tomon boradigan yo’lda to’siq bo’ladi.

“Alast” shartnomasi to’g’risida Qur’onning A’rof surasi, 172-oyatida Shunday deyiladi: “Parvardigoringiz Odam bolalarining bellaridan (Yani pushti kamarlaridan to qiyomat kunigacha dunyoga keladigan barcha) zurriyotlarini olib: “Men Parvardigoringiz emasmanmi?” deb, o’zlariga qarshi guvoh qilganida, ular:”Haqiqatdan ham Parvardigorimizsan, bizlar bunga Shohidmiz” deganlarini eslang! (Sizlardan bunday guvohlik – ahd paymonni olishimiz) qiyomat kunida: “Bizlar bundan bexabar edik” demasliklaringiz uchundir”. Ilk zohidlarning fikriga ko’ra, “inson ruhlar olamida Alloh bilan uning uluhiyatini tasdiqlab, ahdu paymon qilgan. Ammo dunyoga kelgach, bu moddiy olam tashvishlari orasidako’pchilik insonlar ”bazmi alast”da Allohga bergan va’dalarini unitib, qalblarida mosuvoga – Allohdan boshqa narsalarga mehr-muhabbat qo’yib, yashirin va ochiq shirkka yo’l qo’ymoqdalar”.¹³⁰ Insonlarning o’sha almiyoqdan qolgan va’dasiga amal qilishga intilishi ham ilk zuhd davriga xos bo’lgan xususiyatlardan biri edi.

Shunday qilib, ilk zohidlik davrida zohidning asosiy vazifasi o’z o’zini tahlil qilishdan, uning elkasiga yuklatilgan “yuk”larni to’liq ado etishdan iboratdir.

Biz tasavvuf to’g’risida ilk tasavvurga ega bo’ldik, Yani bu so’zning mohiyati, kelib chiqishi to’g’risidagi turli xil qarashlar, tasavvufning ilk paydo bo’lish holatlari, zohidlik va uning dunyoga kelish asoslari masalasiga to’xtalib o’tdik. Tasavvufning mohiyatiga chuqurroq kirib borish uchun uning asosiy g’oyalarini bilish talab etiladi. Ma’lumki, har qanday ta’limot ham ma’lum maqsad uchun dunyoga keladi. Masalan, yaratuvchi Xoliqning o’z bandalari hayoti faoliyati uchun dasturulamal sifatida yuzaga chiqdi. Hazrati Payg’ambarimiz (s.a.v.) hadislarining birida o’zining go’zal axloqni ado etish uchun yuborilganligini ta’kidlaydi. Boshqacha aytganda, rasolat insonlarga go’zal axloqni ko’rsatish (ular o’rnak olishlari uchun) maqsadida paydo bo’ldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Usmon Turarning fikri diqqatga sazovordir: “Tasavvufning g’oyasi ham axloqning kamol martabasiga erishmoq uchun har sohada Rasululloh (s.a.v.) ko’rsatgan yo’ldan yurib, botiniy va zohiriy yotuklik jihatidan uning haqiqiy vorisi bo’lmoq yo’lini ko’rsatishdir. Tasavvufning g’oyasi – Janobi Haqning roziligiga erishmoq uchun nafsni poklab, go’zal axloq egasi bo’lishga intilmoq, Yani Alloh va Rasulining xulqi bilan axloqlanishdir”.¹³¹

¹²⁹ Nurbaxsh Dj. Taverna sredi Ruin: Semъ esse o sufizme / Per. s angl. L.M.Tiraspol’skogo. – M.: Izd-vo “NBR, 1992. – 136 s.-27-28 b

¹³⁰ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180-b.-20-bet.

¹³¹ O’sha asar, 19-bet.

D.Nurbaxsh bu haqda shunday deb yozadi: "So'fizmning mohiyati haqiqatdir".¹³² Shu o'rinda Shayx SHibliyning quyidagi mashhur so'zi misol keltiriladi: "Moddiy olamga muhabbat bilan o'ladigan kishi xudbin holda o'ladi, qabrdan keyingi hayotiga muhabbati bilan o'ladigan kishi zohid holda o'ladi" Biroq haqiqatga muhabbati bilan o'ladigan kishi so'fiy holda o'ladi".¹³³ Shayx SHibliyning mazkur fikridan ikkita muhim xulosani chiqarish mumkin: birinchidan, tasavvufning asosiy g'oyasi haqiqatga intilish ekanligi ma'lum bo'layapti; ikkinchidan, tasavvufdagi ikkita maqomat ajratib ko'rsatilmayapti, Yani zohidlik va tasavvuf maqomatlari. Shuningdek, ularning sifatlari (oxiratga muhabbat va haqiqatga muhabbat) farqlanayapti.

Demak, tasavvufning g'oyalariidan birinchisi – nafsni poklash va go'zal axloq egasi bo'lishga intilish bo'lsa, ikkinchi g'oyasi – haqiqatga nisbatan muhabbatni shakllantirish hisoblanar ekan.

Tasavvufning g'oyalari to'g'risidagi masalaga Mahmud As'ad Jo'shon ham to'xtalib o'tadi: "tasavvufda ikki g'oya mavjud: birinchisi, YAratuvchimiz Alloh taoloni tanish- bilishga qaratilgan g'ayratlar bo'lib, kishidagi o'z Parvardigori haqidagi bilimining, Yani ma'rifatullohning ziyodalaShuvi – ortishiga qaratilgan xatti-harakatlar. Ikkichisi, kishining o'ziga, nafsiga qaratilgan g'ayratlari. Demak, tasavvuf, bir tomondan, Allohni bilmoq va tanimoqqa yo'naltirilgan jiddu jahdni, ikkinchi tomondan, kishining o'z nafsini tarbiyalashi, ruhiy-axloqiy jabhasini tuzatishni maqsad qilib olgan. Birinchi xususga "ma'rifatulloh" deyilsa, ikkinchisiga "tazhibi axloq" Yoki "tazkiyai nafs" (nafsni poklash) deyiladi".¹³⁴

Demak, tasavvufning birinchi g'oyasi – ma'rifatulloh bo'lsa, ikkinchi g'oyasi esa nafsni poklash hisoblanar ekan.

Mohir Iz o'zining "Tasavvuf" deb nomlangan kitobida tasavvufning Yana bir g'oyasi haqida Shunday deb yozadi: "inson kamoloti faqatgina ruhning sofligini muhofaza qilishorqali mumkinligida, ruhning badan ustidan g'alaba qozonishi uchun chora-tadbirlar ko'rish – tasavvufning g'oyasidir".¹³⁵ Muallifning fikrini sharhlashga harakat qilamiz. Ma'lumki, inson ikki narsadan – ruh va tanadan iborat mavjudot hisoblanadi. Ruh Allohning ilohiy qudrati bilan tanaga hali inson onasining vujudida paytida kiritiladi. Ruh – "ilohiy ruh" va "rabboniy amr" dan tashkil topgan, tana esa "tuproq" va "balchiq" dan tarkib topgan. Toza va sof ruh tana zulmatiga kirgandan so'ng, moddiy unsurlar ruhga ta'sir ko'rsatadi. Tasavvufning g'oyalariidan biri – ruhning sofligini himoya qilishdan iboratdir. Bu haqda ilmiy ishimizning keyingi boblarida batafsil ma'lumot beramiz.

Tasavvufning g'oyalariidan Yana biri Payg'ambarimiz (s.a.v.) dan keyin uning diniy va mistik rahbarligining chinakam vorislari aziz avliyolar, tasavvuf ahli hisoblanadi. Tasavvufning maqsadlaridan biri Rasululloh (s.a.v.) dan keyingi diniy va mistik rahbarlik silsila ko'rinishida avloddan avlodga, nasldan naslga o'tish an'anasini saqlab qolishdan iboratdir. Vahiylik eshiklari yopilgani bilan ilhom eshiklari ochiq. Alloh o'zining ilhom eshiklari orqali tasavvuf ahlitga to'g'ri yo'lni (tariqat ko'rinishida) o'rgatib borishi ma'lum ilohiy mantiqning samarasidir. Tasavvufning mavjudligi shartlaridan biri aynan Allohning to'g'ri yo'lini (sirotim mustaqim) o'z bandalariga ilhom orqaliavliyolariga ko'rsatishini ta'minlashdir.

Yashar Nuri O'zturk o'zining "Qur'oni karim va sunnatga ko'ra tasavvuf" kitobida tasavvufning Yana bir g'oyasi to'g'risida Shunday deb yozadi: Qur'on insonni "ilohiy va ruhoniyl sirlarni kashf etishga chaqirarkan, insonni "lubb" egasi sifatida eslaydi. Lubb (Yani qalb) haqiqatni bilishda aql dan ham yuksakroq vositadir. ... Shuning uchun ham tasavvufning g'oyasi inson ruhida yashiringan mazkur ilohiy sirlarni kashf qilib, yuzaga chiqarmoqdir".¹³⁶ YAshar Nuri O'zturkning Yuqoridagi fikrlarini sharhlashga harakat qilamiz. Ma'lumki, insonda

¹³² Djovad Nurbaxsh. Psixologiya sufizma (Del va nafs: serdse i dusha). Per. s angl. L.M.Tiraspol'skogo. – M.1998. – 176 s.

¹³³ O'sha asar, 7-bet.

¹³⁴ Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – T.: "CHO'lpon", 1998. – 80 b.

¹³⁵ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180-b.-18-bet.

¹³⁶ O'sha asar, 20-bet.

biologik va fiziologik, genetik va psixologik xususiyatlardan tashqari ilohiy sirlar ham saqlangan. Mazkur sirlarni kashf etish har bir insonga buyruqlanligi Qur'on oyatlari va hadislar orqali bizga ma'lum. Insonga taalluqli bo'lgan moddiy va ruhiy unsurlarni aql Yordamida aniqlash, bilish mumkin. Biroq aqlning kuchi etolmaydigan sarhadlar ham mavjudki, ular ilohiy sirlar deb ataladi va ularni faqatgina qalb (dil) Yordamida aniqlash mumkin. Tasavvuf insonning o'zida yashiringan ilohiy sirlarni kashf etishi usullarini belgilab beradigan ta'limot va amaliyotdir.

Usmon Turar tasavvufning yana bir g'oyasini Shunday ta'riflaydi: "...insonga Alloh bilan qilgan ahdu paymonini eslatib, uning zarurati va sirlaridan xabar berib, inson fitratidagi mavjud bo'lgan Allohga erishmoq orzusini bu dunyodayoq ro'yobga chiqarpmoq yo'llarini ko'rsatishdan iboratdir". Eslatib o'tamiz, Yuqorida zikr etilna "ahdu paymon" biz oldingi paragrafda yozganimiz "alast shartnomasi" haqidagi fikrdir. Savol tug'iladi: inson qanday qilib o'lmasdan turib Allohning visoliga etishishi mumkin? Boshqacha aytganda, o'limdan oldin o'lib etishiladiganhollarni o'zida mujassamlashtirish haqida gap ketayapti buo'rinda. Yuqorida zikr etilayotgan hol Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan vorid bo'lgan "O'lmasdan turib o'ling" hadisi bilan bog'liq. Darhaqiqat, o'limdan keyingi hayot sirlarini Shu dunyoda kashf etish va o'lmasdan burun erishmoqlikning yagona chorasi "o'lmasdan turib o'lishdir". "O'lmasdan turib o'ling" hadisining sharhini ilmiy ishimizning keyingi qismlarida batafsil bayon qilamiz. Shuning uchun bu masalaga to'xtalib o'tirmaymiz. Faqat Shuni ta'kidlamochimizki, tasavvuf insonga tasavvuf insonga "o'limdan oldin o'lish"ning sirini, yo'l-yo'rig'ini o'rgatadi va uning amaliyotini puxta ishlab chiqadigan ta'limot hisoblanadi.

Shunday qilib, biz yuqorida tasavvufning g'oyalari masalasigato'xtalib o'tdik. Ma'lum bo'lishicha, tasavvufning asosiy g'oyalarini qisqacha quyidagicha ta'riflash mumkin: a) tasavvuf – inson axloqini kamolot darajasiga etkazish; b) tasavvuf – haqiqatga intilish, haqiqatga nisbatan muhabbatni shakllantirish; v) tasavvuf – diniy va mistik rahbarlik silsilasini davom ettirish; g) tasavvuf – inson ruhida yashirilgan ilohiy sirlarni kashf etish; d) tasavvuf – insonga Alloh bilan qilgan ahdu paymonini (alast birobbikum) eslatish, uning sirlaridan xabar berish va inson fitratidagi Allohga erishish orzusini Shu dunyoda amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish.k.

Tabiiyki, tasavvufning bundan boshqa ham g'oyalari mavjud bo'lib, biz Yuqorida ularning asosiylariga to'xtalib o'tdik. Endi tasavvuf ta'limoti va amaliyotiga berilgan ta'riflar masalasini ko'rib chiqishga o'tamiz. Bundan ko'zlangan maqsad – tasavvuf – tasavvuf ta'limoti va amaliyoti to'g'risidagi tushunchalarni chuqurlashtirish, oydinlashtirish va tartibga solishdan iboratdir. Quyida ayrim tasavvuf ahlining tasavvufga bergan ta'riflariga to'xtalib o'tamiz.

Ma'ruf Karxiy: "Tasavvuf haqiqatlarni qabul etmoq, insonlarning qo'llaridagi narsalarga ko'ngil bog'lamaslikdir". Shayx SHibliy: "Tasavvuf barcha yaratilganlardan uzilish va Haq bilan bog'lanishdir". Mansur Xalloj: so'fiy "o'z mavjudligida hamisha yolg'iz: u hech kimni qabul qilmaydi va uni hech kim qabul qilmaydi". Sirri Saqotiy: "Tasavvuf go'zal axloqdir".

Tasavvuf uch xil ma'noni o'z ichiga olgan atamadir: a) ma'rifatning nuri vara'ning nurini so'ndirmaydi; b) botin ilmiga oid biror so'zni kitob va sunnatga qarshi ishlatmaydi; v) karomatlarini, sirlarni, Alloh bilan o'zining orasidagi sirlarni elga bildirmaydi.

Junayd Bog'dodiy: "Tasavvuf haqning sendagi "sen"ni o'ldirishi va seni o'zining nazdida tiriltirishdir". Yana bir joyda aytadi: "tasavvuf ko'ngilni pok aylamoq, Haq muvofaqati uchun xalqdan ayrilmoq, insonlik sifatidan o'zini o'ldirmoq, nafs istaklaridan yiroq bo'lmoq, kasofatdan ruhoniy sifatga kelmoq, Haq ilmi bilan darajasi yuksalmoq va butun ummatga so'z – nasihat aytmoq, vafoni kutmoq, Payhambarimiz (s.a.v.) shariatiga mutobaat aylamoqdir".¹³⁷ (F.Attor)

Abul Hasan Nuriy: "Tasavvuf nafsning barcha istaklarini va zavqlarini tark etmoqdir". Imom G'azzoliy: "Tasavvuf qalbni faqaigina Allohga yo'naltirib, mosivo – Allohdan boshqa

¹³⁷ Attor Farididdin. Tazkiratul avliyo.

barcha narsalardan butkul aloqani uzishdir”. Abulhakim Arvosiy: “Tasavvuf shariatning botinidir”.

Tasavvufga taalluqli ta’riflar Shu darajada ko’pki, masalan, Muhammad Yusuf Musoning “al-Aqiyda vash-SHariy’a fil Islom” kitobida zikr qilinishicha, Nikol’son hijriy beshinchi asrgacha bitilgan asarlardan tasavvufning etmish beshta ta’rifina topgan.

Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ma’lumotlariga ko’ra: “Abdul Qodir al-Bog’dodiy ishonchli tasavvuf qutblarining ta’lifotlaridan mingga yaqin ta’riflarini topgan. ”Qavoidut Tasavvuf” kitobida zikr qilinishicha, mashhur tasavvuf Shayxi Ahmad Zarruq rahmatullohi alayh ikki mingga yaqin ta’rifni keltirgan. Ularning hammasida Alloh taolaga sodiq tavajjuh qilish ma’nosidadir”.¹³⁸ Tasavvufga berilgan ta’riflarning ko’pligi va ulardagi ixtiloflar masalasiga kelsak. Bu haqda zamondaosh tariqat Shayxlaridan Muhammad Zakiy Ibrohim hazratlarining fikriga ko’ra, har bir ta’rif ta’rif bergan kishilarning suluk darajalaridagi martabalariga bog’liq. Ularning har biri o’z ehtiroslarini bayon qilishganlar va ma’lum maqomatni ta’riflashganlar. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, hech bir ta’rif boshqasiga qarshi chiqqan hisoblanmaydi. Shunki ularning har biri haqiqatning ma’lum tomonlarini o’zida aks ettiradi. Boshqacha yatganda, haqiqatga olib boradigan yo’llarturli xil bo’lishiga qaramasdan, ular bitta manzilga, Yani haqiqatga olib boradi. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari o’zining “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida tasavvufga berilgan besh xil ta’rifni keltiradi. Ularning ayrimlarini quyida keltiramiz.

“Shar’iy odoblar ila zohirda turib uning hukmini botinda ko’rish.k. Shuningdek, shar’iy odoblari va botinda turib uning hukmini zohirda ko’rishdir. Shunda odoblanuvchi uchun ikki hukm ila kamol hosil bo’lur”.¹³⁹

”Tasavvuf nafsni axloqiy jihatdan taraqqiy ettiradiganhayotiy falsafa bo’lib, u muayyan amaliy riyozat vositasida haqiqatga aylanadi va ba’zi vaqtlarda oliy haqiqatga singish hissiga olib boradi. Shuningdek, undan zavq va aql ila ma’rifat hosil qilishga olib boradi”.¹⁴⁰

“Tasavvuf – har bir yomondan holi bo’lish, har bir yaxshidan ibrat olishila qurbatga va visolga erishishdir. U insonni qayta bino qilish va uni har bir fikr, so’z, ish, niyatdan Robbisi ila bog’lashdir”.¹⁴¹

Muallif Shayx SHaxobiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad as-Suhravardiy rahmatullohi alayh tomonidan so’fiyga bergan ta’rifinikltiradi. Fikrimizga ko’ra, bu ta’rif, bir tomondan, sodda va aniq qilibso’fiyga xos bo’lganxususiyatlarni o’zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan, tasavvuf ta’limoti va amaliyotining muhim jihatlarini ko’rsatib beradi. Shuning uchun ushbu ta’rifni quyida to’liq keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik: “So’fiy har bir narsani o’z joyiga qo’yadigan, vaqtlar va ishlarni ilm va tadbirini qiladigan, xalqni o’z maqomiga qo’yadigan Haqning amrini o’z maqomiga qo’yadigan, berkitilishi lozim bo’ladigan narsani berkitadigan, ochilish lozim bo’ladigan narsani ochadigan va ishlarni huzuri qalb ila, sihhati tavhid ila, kamoli ma’rifat ila, rioyati sidqu ixlos ila o’z o’rnida ado etadigan Shaxsdir”.¹⁴²

Tasavvufga berilgan ta’riflardan biri Usmon Turarga taalluqli bo’lib, unda ko’plab ta’riflar mujassamlashganligi bois biz quyida uni keltiramiz: “Tasavvuf inson qalbidagi yomon sifatlardan xolos bo’lish choralarini o’rgatuvchi, ma’naviy martabalarini bosib o’tib, eng yuksak martaba bo’lmish”komil inson” maqomiga erishmoq qoidalarini o’rgatuvchi va nihayat, tavhid sirlarini bayon etuvchi bir ilmdir”.¹⁴³

¹³⁸Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 255-b.-32-bet.

¹³⁹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 255-b.-32-33-betlar.

¹⁴⁰ O’sha asar, 33-bet.

¹⁴¹ O’sha asar, 33-bet.

¹⁴² O’sha asar, 34-bet.

¹⁴³Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180-b.-18-19-betlar.

Mahmud As'ad Jo'shon tasavvufga quyidagicha ta'rif beradi: "Tasavvuf – Shayxga bohlanish, Allohni har on zikr qilish, dunyoga mayl etmaslik, zuhd sohibi bo'lish, gunohma'siyatlardan saqlanish, taqvo va hokazodir".¹⁴⁴

Tasavvufga berilgan ta'riflar orasida nisbatan mukammal ta'rifni Husayn Voiz Koshifiy beradi. U tasavvufning etti xil jihatini ajratib ko'rsatadi: "Birinchidan, tasavvufni taxliya, Yani xoli bo'lmoq, qalbni bo'shatmoq va yaxshi, maqtalagan axloqdir, deydilar. Ikkinchidan, tasavvufni tasfiya, Yani ruhni ag'Yor-begonadan tozalashdir, deb aytadilar. Uchinchidan, tasavvuf xuzu', Yani nafsni jilovlash, xoksorlik va jonsaraklik namunasini ko'rsatishdir, deydilar. To'rtinchidan, tasavvuf da'vonitark etish va ma'nolarni xalqdan yashirishdir, deguvchilar bor. ...Beshinchidan, tasavvufni (Yana) ibodat husniga ishorat, deb ta'riflaydilar. Oltinchidan, tasavvuf nafsni xor tutish va amrni aziz tutishdir. Ettinchidan, tasavvuf barcha adabdir va kimki faqr (darvishlik) odobidan biriga o'zini vobasta etmasa, tasavvufdan faqat nomgina biladi, xolos, deydilar".¹⁴⁵ E'tibor berilsa, bu ta'rifda tasavvufning ettita qirrasini alohida-alohida ko'rsatib o'tilgan va ularning har biri bu ta'limot va amaliyotning muhim sifatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Tasavvufga berilgan ta'riflardan O.F.Akimushkinning ta'rifini alohida e'tiborga molik. U mashhur Dj.S.Trimingemning "Sufiyskie ordeny v Islame" kitobining so'zboshisida Shunday deb yozadi: "Sufizm – islom doirasidagi alohida ilohiy, diniy-falsafiy dunyoqarash bo'lib, uning vakillari Shaxsiy psixologik tajriba vositasi orqali insonning Ilohiyot bilan bevosita ruhiy muloqot qilish mumkin, deb hisoblashadilar".¹⁴⁶ O.F.Akimushkin tasavvufni dunyoqarash deb hisoblaydi va uning Shaxsiy psixologik tajribaning uzatilishi sifatidaboholaydi. Bu tajriba Yordamida (u albatta pir-murshidning ko'rsatmalari asosida amalga oshiriladi) Ilohiyot bilan murid o'rtasida bevosita muloqot sodir bo'ladi.

Shunday qilib, biz Yuqorida bir qancha ta'riflarga alohida to'xtalib o'tdik. Mazkur ta'riflarga xos bo'lgan mushtarak xususiyatlarni ajratib ko'rsatmoqchimiz: a) dunyodan yuz o'girib, Allohga yo'naltirish; b) shar'iy amallarni ham zohirda, ham botinda bajarish orqali kamol hosil qilish; v) Qur'on va sunnat ko'rsatgan yo'lda astoydil ibodat qilib, ruhiyatni soflash; g) nafsni axloqiy jihatdan taraqqiy ettirish; d) ibodatlarni huzuri qalb ila, sihhati tavid ila, kamoli ma'rifat ila, rioyati sidqu ixlos ila o'z o'rnida ado etish; e) insonning har bir so'zi, fikri, ishi va nihoyati Robbisi bilan bog'lanish; j) ibodat, zikr, tafakkur, riyozat va mujohadaorqali nafsning orzularini nazorat ostiga olish; z) ma'naviy martabalarni bosib o'tib, "komil inson" maqomiga erishish; i) haqiqat bilimini qo'lga kiritib, Allohga etishmoq uchun hayrat ko'rsatish; k) Allohni faqat Alloh bo'lganligi uchun sevish, o'z bolig'ini Allohning borlig'ida fano qilish va Shu orqali Allohning jamoliga erishish.k.

Biz Yuqorida tasavvufga berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tdik. Endi tasavvufning manbalari masalasini ko'rib chiqamiz. Tasavvufning manbalari deganda tasavvuf qaerdan kelibchiqqanligi to'g'risidagi fikrlar nazarda tutiladi. Tasavvuf kalimasining kelib chiqqani tahlil qilinganida, tarixchilar tasavvuf jarayonining qaerdan paydo bo'lganligi to'g'risida har xil fikrlarni ilgari surishadi.

Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning keltirishicha¹⁴⁷, mazkur masala yuzasidan besh xil qarash mavjud.

1. Ayrim Sharqshunoslarning fikriga ko'ra, tasavvuf yunoncha "sufis" so'zidan olingan bo'lib, go'Yoki qadimgi yunon donishmandchilik maktabi keyinchalik islom olamida tasavvufni keltirib chiqargan emish.k. Boshqacha aytganda, tasavvuf yunon madaniyatining mahsuli

¹⁴⁴ Mahmud As'ad Jo'shon. Islom, tasavvuf va axloq. – T.: "Istiqlol", 2000. 240-b.-24-bet.

¹⁴⁵ Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy. "Komil inson haqida to'rt risola" kitobida. – T.: "Ma'naviyat", 1997. – 166–275-betlar.-184-bet.

¹⁴⁶ Akimushkin O.F. Sufiyskie bratstva: slojnyy uzal problem. "Trimingem Dj.S. Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A. Staviskoy, pod redaksiyey i s predisl. O.F. Akimushkina. – M.: Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1989. – S. 328.-4-bet.

¹⁴⁷ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 255-b.

hisoblanar ekan. Muallif bu fikrga quyidagicha e'tiroz bildiradi: "Ammo bu fikrni nafaqat musulmonlar, balki boshqa Sharqshunoslar ham rad etadilar. Shunki yunoncha "sufis" sin harfi bilan boshlanadi, so'fiy esa "sod" harfi bilan".¹⁴⁸

2. Yana bir qarashga ko'ra, tasavvuf ta'limoti va amaliyoti masihiylikdan (xristianlik) paydo bo'lgan emish.k. Bu fikrning asossizliginitasavvufni chuqur bilganlarning barchasi inkor qilishadi. Bu ayrim tasavvufni chuqur bilmagan, unga zohiriy (tashqi tomondan) munosabatda bo'lgan g'arb olimlarining fikri hisoblanadi.

3. Boshqa bir guruh olimlar musulmonlarga tasavvuf majusiylik (otashparastlik) va buddizmdan kirib kelgan, degan fikrni ilgari suriladi. Ular o'z fikrlarini ba'zi ko'zga ko'ringan tasavvuf ahlining kelib chiqishi majusiylardan (Eronidan) bo'lganligi bilan isbotlamoqchi bo'lishadi. Bu tabiiyki asossiz fikr hisoblanadi. Shunki aksariyat islomiy ilmlarva mazhablarning ko'zga ko'ringan namoyondalari arab bo'lmagan xalqlarning vakillari hisoblanishadi.

4. Tasavvufga qarshi bo'lgan toifa ham mavjud bo'lib, ularning fikriga ko'ra, tasavvuf uchinchi hijriy keyin chiqqan bid'at, avvalgi davrda mutlaqo bo'lmagan, Qur'oni karimda ham, hadisi sharifda ham tasavvuf so'zi biror mara ham zikr qilinmagan. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf bu toifa olimlariga e'tiroz bildirib, Shunday yozadi: "Shunki Qur'oni karim bilan hadisi shariflug'at qomusi ham, ilmlarning ta'rifini keltiradigan ta'rifnoma ham emas. Qolaversa, boshqa islomiy ilmlarning nomi ham bu ikki masdarda kelmagan. Qur'on va sunnatda nomi kelmagan narsani inkor qilaversak, juda ko'p narsadan voz kechishimizga to'g'ri keladi".¹⁴⁹

5. Ahli tasavvuf va ularning tarafdorlari ham alohida qavmni tashkil etadi va ular tasavvuf barcha islomiy ilmlar qatori Qur'on va Sunnatdan olingandir, degan fikrni ilgari suradilar. Bu toifaga qarshi bo'lganlar Qur'on va Sunnatga xilof ish qilayotgan "tasavvufchilarni" ko'rsatadilar. Bu masalani oydinlashtirish maqsadida "Ashirai Muhammadiya" tariqati Shayxi Muhammad Zakiy Ibrohim Shunday deb yozadi: "Ushbu aqiyda va shariatga begrna bo'lgan falsafalarning ahli qibla tasavvufiga hech aloqalari yo'q. Ularni bizga qarshi hujjat qilib keltirishhaqni botil ila aralashtirishdir. ...Mazkur falsafiy qarash ila mashhur bo'lganlar va tasavvufga nisbat berilganlar o'ntadan oshmaydi".¹⁵⁰

Usmon Turar tasavvufni Qur'on va Sunnatdan olinganligini, uning manbalari, kelib chiqishi islomdan olinganligini ta'kidlaydi. O'zining fikrini isbotlar ekan, tasavvufning islomiy manbalariga batafsil to'xtalib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, butun insoniyat tafakkurini o'ziga qaratgan tasavvufning asl manbai – Islom dinidir. Ammo tasavvufni yuzaga keltirgan islomiy manbalar bir qancha bo'lib, ulardan to'rtta manbani alohida ajratib ko'rsatish mumkin: Qur'oni kerim oyatlari va hadislar, Muhammad mustafo (s.a.v.) va sahobalarning hayot tarzi, payg'ambarlarning fazilatlar, fitriy va ijtimoiy unsurlar.

Biz quyida ularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Usmon Turar tasavvuf ta'limoti va amaliyotida qo'llaniladigan, hatto uning asosini tashkil etuvchi tushunchalarni oyat va hadislar Yordamida isbotlab beradi. Shunday tasavvufona tushunchalarga quyidagilar kiradi: a) ladun ilmi; b) zikr; v) valiylik; g) olamning yaratilishi; d) tavba; e) zuhd; j) tavakkul; z) riyozaat – mujohada.

2. Muallif Yuqoridagi tasavvufiy tushunchalarning mazmun mohiyati asli Qur'on va Sunnatdan olinganligini isbotlaydi. Shulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. a) Ladun ilmi. Bu ilmning kelib chiqishini, mazmunini Qur'oni karimning Kahf surasi 65-oyatidagi "Biz unga (Xizrga) ilmi ladun berdik" ma'no bilan tushuntirishga harakat qiladi muallif. tasavvuf ahli ilmlarni ikki toifaga ajratadi: zohiriy ilm va botiniy ilm. Shundagibotiniy ilm ilmi ladundir, deyishadi. Zohiriy bilimlarimiz asosida sezgilarimiz yotsa, botiniy ilmning asosida esa ilhom yotadi. (Mutasavviflar ilm olish yo'llarini uchga ajratishadilar: vahiy, ilhom va sezgi a'zolarimiz Yordamida olinadigan ilm. Vahiylik – payg'ambarlarga xos bo'lgan, ilhom - valiyilarga xos bo'lgan, sezgilar esa bandalarga xos bo'lgan ilmdir).

¹⁴⁸ O'sha asar, 35-bet.

¹⁴⁹ O'sha asar, 31-bet.

¹⁵⁰ O'sha asar, 37-bet.

Mutasavviflar kimlarga ilmi ladun berilishini Qur'onning Baqara surasi, 282-oyati ma'nosi bilan bog'laydilar: "Allohdan qo'rqing, Alloh sizga o'rgatadi". Alloh o'z ta'qiq va amrlariga rioya qilgan va taqvoda bo'lganlarga ilmi ladun beradi, degan ishorat bor bu oyatda. Qur'onning Anfol surasi, 29-oyatida "Agar taqvo uzra bo'lsangiz, Alloh sizga bir furqon (nur) beradi" degan satrlar bor. Buni mutasavviflar "furqon" deganda ma'rifat, Yani o'z dargohidan ilohiy bilimlar (ilmi ladun) beradi, degan ma'no bilan bog'lashadilar.

Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning bir qancha hadislarini Yordamida ilmi ladunning (tasavvuf ilmi tushunchasining) ma'nosi tushuntiriladi. Yani ilmi ladunning manbasi ma'lum hadislar ekanligi ko'rsatib berilayapti. Masalan, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning quyidagi hadislarini tasavvufning ilm sifatida ajralib chiqishiga turtki bo'lgan, deb hisoblasa bo'ladi: "Boshqalar qaysi yo'lda fatvo bersa bersinlar, sen fatvoni qalbinngdan so'ra, vijdoningga quloq sol!", "Gunoh – qalbda dog' qoldirib, vijdonni kasal qiladigan illatdir". Bu hadislarida "vijdon" atamasibevosita tasavvufiy so'z hisoblanib, Shu nuqtadan (vijdondan) ruhiy muShohada, mujodala singari tasavvuf holatlarikelib chiqadi.

b) Zikr. Tasavvufiy hayotning tajribaviy unsurlaridan biri zikr ham ko'plab oyat va hadislar bilan tasdiqlanadi. Masalan, Muzammil surasi, 8-oyatda: "Parvardigoringizning nomini (mudom) yod eting va Unga butunlay berilib, (chin ixlos bilan bandalik qiling!)". Azhob surasining 41-oyatida: "Ey mo'minlar, Allohni ko'p zikr qilinglar!", Baqara surasi, 152-oyatida "Bas, meni eslasangiz, men ham sizlarni eslayman va menga Shukr qilingiz va Meni inkor qilmangiz!", Zumar surasi, 22-oyatda: "Bas, dillari eslashdan qotib qolgan (Yani Allohni eslashni tark qilgan) kimsalarga halokat bo'lg'ay!".

Shuningdek, qator hadislarida ham Shu mavzu qamrab olinadi: "Parvardigorini zikr qilmagan tirik bilan o'lik olasidadir", "Bir qavm o'tirib Allohni zikr qilsa ularni farishtalar o'rab oladi, rahmat qoplaydi, ular uzra huzur, fayz inar va Alloh ularni o'z huzurlaridagilar yonida zikr qiladi", "Yo'llarda kezib, zikr ahlini izlab yuruvchi Allohning farishtalari bor, ular zikrilloh bilan band bo'lganlarni ko'rganlarida, "bir-birlariga "biz izlayotganlar bu erda ekan!".

v) Tavba. Ma'lumki, tavba tasavvufdagi muhim kategoriya hisoblanib, ma'nosi gunohdan qaytish, voz kechish demakdir, o'tmishdagi xato-kamchiliklardan pushaymon bo'lishdir. Ko'pgina oyatlarda bu haqda bayon qilingan. Jumladan, "Barchalaringiz Allohga tavba qilinglar, ey mo'minlar o'oyadki (Shunda) najot topsangizlar" (Nur surasi, 31-oyat) "Bas, agar tavba qilsangizlar, bu o'zingiz uchun yaxshiroqdir" (Tavba surasi, 3-oyat), "Parvardigoringizdar mag'firat so'ranglar, so'ngra Uning o'ziga tavba qilinglar" (Hud surasi, 3-oyat). Hadislarida ham tavbaning muhimligi, tasavvuf ahli uchun qo'lanmaligi ko'rsatiladi: "Gunohlariga tavba qilgungunohsiz kabidir", "Alloh bir bir bandasini sevdimi, gunoh unga zarar etkazmaydi. Shunki unga tavba qilishni ham nasib qiladi", "Allohga qasamki, bir kunda etmishdan ziyod marta Allohga tavba-istig'for qilaman" va h.k.

g) Tavakkul. Tavakkul tasavvuf ta'limoti va amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadigan hol hisoblanib, ma'nosi Allohga ishonib, unga suyanish va Undan boshqasiga ehtiyojmand bo'lmaslikholatlari bilan tushuntiriladi. Quyidagi oyatlarda tavakkul haqida yoziladi: "Va uni o'zi o'ylamagan tomondan rizqlantirur. Kim Allohga tavakkul qilsa, bas, (Allohning) o'zi unga etarlidir" (Taloq surasi, 3-oyat), "YOlg'iz Allohga tavakkul qiling! Allohning o'zi etarli vakil - saqlaguvchidir", (Azhob surasi, 3-oyat), "Ayting, bizga faqat Alloh biz uchun yozib qo'ygan narsagina etur. U bizning Xojamizdir. Bas, iymonli kishilarfaqat Allohgagina suyansinlar" (Tavba surasi, 51-oyat) va h.k.

Quyidagi hadislar ham tasakkulning ahamiyatini ochib beradi: "Agar Allohga haqiqatan (haqini berib)tavakkul qilsangiz edi, Alloh o'ushlarga rizq bergani kabi sizlarni rizqlantirar edi. Qushlar och qorin bilan tongda uyalaridan chiqib, oqshom qorni to'q holda qaytadilar".

3. Islom tasavvufining kelib chiqishi islomdan tashqarida bo'lishi mantiqan mumkin emas. Uning manbai – Qur'oni karim va hadisi sharif hisoblanadi. Islom tasavvufining Yana bir manbalaridan biri Muhammad alayhissalom va sahobalarning hayot tarzi bo'lib, buni ko'pchilik olimlar tasdiqlaydilar. Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hayot tarzidan o'rnak olgan sahobalarning ko'pchiligi keyinchalik tasavvuf ahliga aylanishdi. Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning so'fiyona xulq-

atvori, turmush tarzi haqida Aliyyul Qori Shunday deb yozadi: “Muhammad alayhissalom payg’ambarlikdan oldin botiniy ibodatlar qilardi. Qalbiy zikr – Allohning sifatleri haqida, ofoqiy va anfusiy yaratilishleri haqida tafakkur, go’zal axloq, zaiflarga mehru shafqat, baloyu musibatga sabru bardosh, ne’matlarga Shukr, qazoga rozilik, eru ko’k Parvardigoriga taslimiyat, Unga tavakkul kabi ibodatlar bo’lib, ular avliyo va sara bandalarning hollaridir”.¹⁵¹

3. Muhammad A.S. umri davomida riyozat va tafakkur hayotini boshidan kechirdi, sodda, kamtarona hayot kechirdi, el qatori yashadi, faqirlikni iftixor deb bildi, Suf – junli kiyim kiyganlar, xizmatkor bilan bir dasturxon atrofida o’tirganlar, liboslariga yamoq solganlar, dushmanlarini qarg’amaganlar, qattiq erda yotib kun kechirardilar, dunyo ne’matlariga iltifot etmadilar, hech qachon to’yib ovqat emadilar, nafl ibodatlarini muttasil bajaodilar, zikr, tavakkul, sabr va tavba bilan mashg’ul edilar, ehsonni doimiy amalga oshirar edilar. Yuqoridagi fe’l-atvordan keyingi avlod vakillari tasavvuf ahli dunyoga keldi.o’rnak oldilar va tasavvuf ahli dunyoga keldi.Islom tasavvufining paydo bo’lish manbalaridan Yana biri - sahobalarning turmush tarzlaridir. Hazriti Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, sahobalardan Abdulloh ibn Mas’ud, Abu Hurayra, Abu Zar G’iforiy, Solmon Forsiy, Abu Dordo, Abu Muso Ash’ariy kabilarning turmush tarzlaridam Masjidi Nabaviyning suffasidayashab, ko’p vaqtini toat ibodat bilan o’tkazishardilar.

Sahobalardan zuhdu taqvosi bilan mashhur bo’lganlar haqida, ularning fazilatleri haqidako’plab kitoblar yozilgan, rivoyatlar keltirilgan, She’ru dostonlar yaratilgan.Muhammad a.s. bilan uning yaqin do’stlari – sahobai kiromlarning ham hayotleri, holu harakatlari, ibodatu zikrlari, dunyoga nisbatan munosabatlari ahli tasavvuf uchun o’rnak bo’lib kelgan.

4. Tasavvufiy tafakkur, tajriba va holu harakatlarning Yana bir manbai – boshqa payg’ambarlarning fazilatlaridir. Bu haqda Junayd Bog’dodiyning mashhur gapleri bor: “Tasavvuf Shu sakkiz xislat uzra barpo etilgan: saxovat, rizo, sabr,ishorat, g’urbat, suf-jun kiymoq, sayohat, faqr. Saxovat – Ibrohim a.s., rizo – Ishoq a.s., sabr – Ayyub a.s., ishorat – Zakariyyo a.s., g’urbat – YAhyo a.s., suf – Muso a.s., sayohat – Iyso a.s., faqr – Muhammad a.s.ga oiddir”.

E’tibor berilsa, har bir payg’ambarga xos bo’lganfazilatni o’zida mujassamlashtirgankishi o’zida komil insonlikka va so’fiylikkaintila boradi va tasavvufona hayot tarziga kira boradi.

5. Fitriy va ijtimoiy unsurlar. Tasavvufning paydo bo’lishidafitriy va ijtimoiy unsurlarning o’rni ham mavjud. Insonlarning fitriy xususiyatlari (tabiiy mayllar, istaklar, ruh yo’nalishi va h.k.) va bu xususiyatlarga jamiyatning muayyan yo’nalish va shakl berishiham muhim ahamiyat kasb etadi.Ma’lumki, insonlar ruh va vujudan tashkil iopgan. Ruh inson fitratini dunyoga keltiradi va bolalikda sof bo’ladi.Mana Shu sof fitratning keyingi irvojiyaxshi muhitga tushib qoladiganbo’lsa, bunday fitrat sohibiqaysi irqqa, millatga mansub bo’lishidan qat’iy nazar tasavvufiy maylni o’zida his etadi. Munosib sharoit va muhit mazkur tasavvufiy maylni harakatlantiradi va qalb halovatini o’sha yo’nalish tomon buradi.

Tasavvufning paydo bo’lishining ijtimoiy sabablari ham mavjud bo’lib, bu sabablar Muhammad (s.a.v.) vafot etganlaridan so’ng aksariyatmusulmonlar ichida ichki va tashqi dushmanlarta’siri ostida turli tuman ixtiloflarning paydo bo’lishi bilan bog’liq. Hazrati Ali xalifaligi davrida, abbosiylar davridako’plab musulmonlar oxiratni unitib, dunyoga mayl etishlarimolu davlat, mansab sevgisigamubtalo bo’lishdilar.Bu harkatga nisbatan aksil amal sifatida dunyodan yuz o’girib, o’zini taqvoga , toat ibodatga bag’ishlagan va Shu orqali Payg’ambarimiz (s.a.v.) davrlaridagi saodatli kunlarni tiklashga uringan zohid darveshlar paydo bo’la boshladi. Aynan o’shalar islom tasavvufining asoschilari sifatida e’tirof etiladi. Bu haqda Usmon Turar Shunday deb yozadi: “tasavvufning yuzaga kelishida tobein davrimusulmonlardan ba’zilarining dunyoviy mashmashalar orasida oxiratni va asl g’oyalarni unitmaslik tushunchasi bilan o’zlarini zuhd va ibodatga bag’ishlaganlari va atrofdaagi musulmonlarni ham bu yo’lga chaqirishleri buyuk ahamiya kasb etgan”.¹⁵²

¹⁵¹Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqloq”, 1999. – 180-b.- 42-bet.

¹⁵² Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqloq”, 1999. – 180-b.-49-bet.

Shunday qilib, tasavvufning paydo bo'lishi sof islomiy kelib chiqishga ega bo'lib, uning manbalari Qur'oni karim va hadislariga, Muhammad a.s. va uning sahobalarining hayot tarziga, barcha payg'ambarlarning fazilatlariga Shuningdek, fitriy va ijtimoiy unsurlarga borib taqaladi. Bu holat tasavvuf ilmida batafsil ko'rib chiqilgan va manbalari Yuqoridagilardan boshqa bo'lgantasavvuf yo'llari (tariqatlar) jahon islom ulamolari tomonidan botil deb e'lon qilingan. Bu haqda keyinchalik batafsilroq ko'rib chiqamiz. Endi tasavvuf ta'limot va amaliyot (tajriba) sifatida o'z oldiga qanday psixologik vazifalarni bajarishni qo'yganligi masalasiga e'tiborimizni qaratamiz.

Tasavvuf ilmiga nazar tashlasak, tasavvufning psixologik vazifalari ko'p ekanligining guvohi bo'lamiz. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o'zining "Tasavvuf haqida tasavvur" kitobida tasavvuf vazifalaridan sakkiztasini alohida ajratib ko'rsatadi. Biz quyida ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Biz tasavvufga ta'rif berganimizda Abulhakim Arvosiyning ta'rifini ham keltirgan edik. U tasavvufga shariatning botini sifatida baho bergan edi. Bu haqda Mahmud As'ad Jo'shon ham o'zining "Tasavvuf sirlari" kitobida tasavvufni botiniy fiqh deya qaraydi. Darhaqiqat, tasavvuf nomozdagi xuShu va huzudan boshlanadi. Shu o'rinda Hazrati Shayx Xotami Asomning nomluzga bergan tasavvufona ta'rifini keltiramiz: "Avval tahorat ol, sirtini suv bilan, ichingni tavba bilan pokla. Undan keyin masjidga bor. Ka'bani ikki qoshing orasida, Azroilni orqangda, jannatni o'ng tomoningda, do'zaxni chap tomoningda, sirot ko'prigini oyog'ingning ostida deb faraz qil. Hammadan ham ko'ra ko'nglingni Haqqa ber va Haqni hozir deb bil. Uning azamati ila takbir ayt, qo'rquvi ila o'tir, haybati ila Qur'on o'qi, tazarru' va ruku qil, tavoze ila sajda et va zorliq ila tahiyyat o'qi va Allohga salom ayt".¹⁵³ Bu satrlarda namozning tasavvufona sharhi berilgan, namozning suvrati va siyrati yaqqol ko'zga tashlanib turibdi, namozning joni, ruhi his qilinayapti. Tasavvuf aslida o'sha siyrat, o'sha ruhdur.

Xullas, muhaqqiq ulamolalar tasavvufni botiniy, Yani ichki fiqh deb qarashadilar. Ularning fikriga ko'ra, fiqh ikki qismga, Yani tashqi va ichki fiqhga bo'linadi. Tashqi fiqh shar'iy amallarning tashqi qonun-qoidalarini bayon qiladi. Ichki fiqh esa ularning ichki qonun-qoidalarini tavsiflaydi. Masalan, shariat nomozning zohiriy masalalarini oyat va hadislar, ijmo va qiyos asosida bayon qilib bersa, uning xuShu va huzudan, Yani namoz o'qiyatganda qalbni qanday tutishqonun-qoidalarini oyat va hadislar hamda ijmo' va qiyos asosida tariqat bayon qilib beradi.

Bu haqda Mahmudxo'ja Nuriddinov Imom Abu Abdurahmon as-Sullamining "Tabaqati sufiyya" kitobiga yozgan so'zboshisida Shunday deb yozadi: "Birinchi bosqich – shariat Islomning barcha diniy-huquqiy me'yorlariga rioya qilish va bo'ysinlikni talab etadi. SHariat ahkomlarini o'zlashtirib bo'lgandan keyingina uning oldida ikkinchi bosqich – tariqat, Yani mustaqil yo'l o'z eshigini ochadi. Shu ma'noda har bir so'fiy birinchi galda faqihdir. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, shariatni o'zlashtirish bilanuni sidqidildan e'tirof etish so'fiyni Islomga yaqinlashtiradi va tasavvuf ta'limotini o'rganish sari yo'l ochadi. Shuning uchun ham shariat ta'limot yo'lidagibirinchi bosqich hisoblanadi".¹⁵⁴ Shunday qilib, Islomdagi barcha shar'iy amallarning ruhiy-albiy jihatdan bajarilishi qonun-qoidalarini botiniy fiqh – tasavvuf o'rganadi. Demak, tasavvufning psixologik vazifalaridan biri islom ahli bajarayotgan amallarning botiniy tomonlariga e'tiborni qaratishdan va Shu orqali ibodatlar va amallarni mukammal ado etishdan iboratdir.

2. Tasavvuf e'tiqod masalalarini ham o'z ichiga qamrab oladi va aqoid ilmiga taalluqli bo'lgan bosh masalalar haqida bahs-munozara yurgizadi. Ma'lumki, aqoid oyat va hadislar bilan ishlaydi, tasavvuf ilmi eas his-tuyg'ular, zavq-shavq, qalbiy masalalarga bog'liq ilm hisoblanadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi: "Aqoid kitoblarida iymon

¹⁵³ Attor Farididin. Tazkirat-ul avliyo. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 1997. – 175 b. -63-bet.

¹⁵⁴ Nuriddinov Mahmudxo'ja. So'fiylik haqida qisqacha ma'lumot (Muqaddima o'rnida). – Imom Abu Abdurahmon as-Sullamining "Tabaqoti suffiyya" kitobida. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti, 2004. -3-14 betlar, 7-bet.

haqida, kufr va uning turli ko'rinishlari haqida, Shuningdek, nifoq va uning belgilari haqidabahs yuritiladi. Tasavvuf kitoblarida esa iymonning amaliy ravishdagi haqiqatga aylantirish yo'llari, kufrdan chetlashish va nifoqdan qutilish yo'llari batafsil bayon qilinadi".¹⁵⁵

3. Tasavvufning bajaradigan psixologik vazifalaridan Yana biri Shundaki, tasavvuf Qur'on va Sunnat haqiqatiga etib, unga amal qilishni yo'lga qo'yishga o'rgatadi. Albatta, Qur'on va Sunnatlarni tushunish boshqa narsa, ularning botiniy ma'nolarini uqish va jismi, qalbi va ruhi bilan amal qilish boshqa narsa. Darhaqiqat, oyat va hadislarining mohiyatini anglab etish, ularga butun vujud ila amal qilishni yo'lga qo'yishga o'rgatadi. Bu haqda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi: "mujdahid ulamolarimiz Qur'on va Sunnatdagi ma'nolarni bizlarga to'g'ri tushuntirib berganbo'lsalar, muhaqqiq so'fiylarimiz o'sha ma'nolarning ruhiyatini anglatib berganlar".¹⁵⁶

4. Tasavvufning keyingi psixologik vazifasi to'g'risida Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi: "Tasavvuf qalb, ruh, aql va nafs kabi ma'nolarni alohida ehtimom ila tushuntiradi va ularning har biriga musulmon banda qanday munosabatda bo'lish zarurligini bayon qilib, o'sha bayonni tadbiiq qilinishini ham yo'lga qo'yadi".¹⁵⁷

Tasavvufda bu to'rtta unsur – qalb, ruh, aql va nafslar muhim tushunchalar hisoblanib, ularning ma'nosini tushuntirish tasavvufning psixologik vazifalaridan biridir. Ular tasavvufning muhim tushunchalaridan bo'lganligi sababli qisqacha sharh berib o'tamiz.

a) Qalb. Qalb lafzi ikki xil ma'noni anglatadi. Birinchisi, insonning chap ko'krigidagi konus shaklidagi bir pacha go'sht. Bizda uni yurak deyiladi. U inson organizmining biologik biologik organi hisoblanadi. Tasavvufda qalb deyilganda bunarsa nazarda tutilmaydi.

Ikkinchisi – qalb rabboniy, ruhoniy va latif makonni anglatadi. Ta'kidlash joizki, qalbning yurak bilan aloqasi bor. Ularning o'rtasidagi aloqani Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Shunday ta'riflaydi: "Ularning o'rtasidagi aloqa xuddi sifatning sifatlangan narsabilan bo'lgan aloqasiga o'xshaydi. Ana Shu latif narsa insonning haqiqatidir".¹⁵⁸

b) Ruh.k. Ruh ham xuddi qalbgaga o'xshab ikki xil ma'noni ifodalaydi. Birinchisi – jismoniy qalb ichidagi latif jism bo'lib, nerv sistemasi orqali butun tanaga taraladi. Bu psixologiya fanining ob'ekti hisoblangan psixika degani, Yani inson bosh miyasi va uning po'stloq qismi faoliyatining mahsuli hisoblangan psixika haqida so'z borayapti. Bu ruh bilan tasavvuf ahlining aloqasi mavjud emas. Tasavvufda davolanadigan, shifo qilinadigan ruh biluvchi va idrok qiluvchi latif sha'ydir. Uning haqiqatini esa Allohdan o'zga bilmaydi. Bu haqda Qur'oni karimning Isro surasi, 85-oyatida ruh ilmi inson aqli zakovati bilano'rganib bo'linmaydigan ilm, deb tushuntiriladi.

v) Nafs. Uning ma'nolari ko'p. Tasavvufda nafs ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, nafs – insonning g'azab va shahvat quvvatini jamlagan unsurdir. Tasavvuf ahli nafsni salbiy ma'noda, odamlarni yomonlikka undaydigan bir narsa sifatida qarab, unga qarshi kurash, uni jilovlash, nafsqa qarshi mujodala qilisolatlari tasavvufiy tushuncha hisoblanadi. Bunday nafs "an-nafsulAmmoratul Bissu'i" (yomonlikka amr qiluvchi nafs) deb ataladi.

Nafs masalasi tasavvufda eng ko'p o'rganilgan. Keyingi boblarimizda bu masalaga batafsil to'xtalamiz va Shuning uchun fikrimizni Shu o'rinda muxtasar qilamiz. Faqat Shuni ta'kidlamoqchi edikki, tasavvufning psixologik vazifalaridan biri insonlarga nafslarining holatlarini aniqlash, uni muolaja qilish barobarida ma'naviy-ruhiy jihatdan yuksalish yo'l-yo'riqlarini tizimli holda o'rgatishdan iboratdir.

g) Aql. Tasavvufda aql ikki xil ma'noda ko'riladi. Birinchisi, aql narsalarning haqiqatini idrok qilish bo'lib, u birlamchi bilimlarni anglash imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, aql ilmlarni idrok etuvchi bilimdir.

Tasavvufning psixologik vazifalaridan keyingilarini qisqaroq qilib bayon etamiz.

¹⁵⁵Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 255-b.-53-bet.

¹⁵⁶ O'sha asar, 53-bet.

¹⁵⁷ O'sha asar, 53-bet.

¹⁵⁸ O'sha asar, 53-bet.

1. Tasavvuf tahziybi axloqni – axloqni sayqallashni yo'lga qo'yadi.
2. Tasavvuf tazkiyatun nafsni – nafsni okizalashni ham yo'lga qo'yadi.
3. Tasavvuf tavba, istig'for, duo, zuhd, taqvo, vara' va Shunga o'xshash holatlar haqiqatini nglab etishga Yordam beradi.
4. Tasavvuf mo''min-musulmonlarga nvfl ibodatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha ham saboqlar beradi.

Shunday qilib, biz Yuqorida tasavvufning psixologik vazifalarini ko'rib chiqdik. Ularning bajarilishi natijasi o'laroq xalqning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishi kuzatiladi.

Hijriy I –II – asrlarga kelib umumiy islom t'limotidan fiqh, tafsir, hadis va kalom kabi ilmlar mustaqil ilm sifatida ajralib chiqdi. Har bir ilmiy yo'nalishda etuk olimlar, fozillar etishib chiqdi va o'z sohasini jahon andozalari darajasiga ko'tardi. Shu ilmlar qatorida tasavvuf ilmi ham paydo bo'ldi va rivojlanib boshladi. Bu ilmning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

1) Tasavvuf ilmi Qur'oni karim oyatlari va hadislar asosida shakllangan ilmdir. Tasavvuf ilmiga asos solgan olimu oriflar bu ilmga taalluqli bo'lgan har bir holatni oyati karimalar va hadisi shariflar bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Agar oyatu hadislariga zid tasavvufiy psixologik holatlar paydo bo'lgan bo'lsa, ularni inkor etganlar, ulardan voz kechganlar. Tasavvuf pirlari o'z muridlariga (shogirdlariga) shariatni mustahkam egallashni, uni tariqatning har qanday maqomlariga etigsalarda, unitmasliklarini muttasil ta'kidlab kelishganlar. Hijriy IV va V-asrlarga kelib turli xil tashqi ta'sirlar, masalan, yunon falsafasining, turli tuman musuomon bo'lmagan xalqlaretnik urf-odatlarini tasavvuf ilmiga, uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Biroq tasavvuf ilmining peshvolari tag'in oyatu hadislariga asoslangan holda ularga qarshi kurashdilar va natijada tasavvufga ziyon etmadi. Mazkur tashqi ta'sirlarga berilgan tariqatlar esa botil bo'ldi va ularning asl mohiyatlari fosh etildi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf islomdan paydo bo'lgan va o'ziga islomiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan ilm sohasi hisoblanadi.

2) Tasavvufda nazariy va amaliy bilimlarning mushtarakligikuzatiladi. U ham ta'limot, ham amaliyot hisoblanadi. Tasavvufda bu ikki holat, Yani nazariylik va tajribaviylik dialektik yaxlitlikda mavjud bo'ladi. Bu haqda J.Rumiy Shunday deb yozadi: “Haqiqiy tasavvuf aytmoq emas, topmoqdir. Kimlarki so'ylamishdir tasavvuf haqiqati emas, uning odobi haqida so'ylamishlar”.¹⁵⁹ Buning ma'nosi Shundaki, tasavvuf ma'lum tushunchalar va bilimlarinibilish emas, balki amal qilish orqali ham qo'lga kiritiladi. Boshqacha yatganda, tasavvuf maqomiga faqatgina amal qilish orqali etishiladi. Bu erda amal deyilgandafaqat ibodat emas, hayotning har bir daqiqasida ma'lum bir niyat va maqsadga ko'ra qilingan faoliyatdir. Bu haqda Usmon Turar Shunday deb yozadi: “Tasavvuf hayotni batamom fe'lan Qur'on va sunnatga ko'ra belgilashni talqin etadi. Koinotdagi va insonning ichki olamidagi sirlarini kashf etmoq va ilohiy haqiqatni anglamoq faqatgina amal qilish orqali mumkin bo'ladi. Imon ham faqatgina Shu orqali kamol topadi. Tasavvufiy imon – amaliy imondir”.¹⁶⁰

Boshqa ilmlar (kalom, falsafa va h.k.)da iymon nazariy tadqiqotlar ob'ekti sifatida qaralsa (aqliy va naqliy jihatlariga asosiy e'tibor qaratilsa), tasavvufda esa iymon axloqiy turmush tarzi sifatida (psixologik holat, Yani hol) baholanadi. Tasavvufda iymon turg'un (statik) emas, faol (dinamik) kategoriya deb baholanadi.

3) Tasavvuf bilish manbalari sifatida sog'lom fikr va aqlni inkor etmaydi, biroq Shu bilan birgalikda bilim olishning sof tasavvufiy manbalariga ham o'rin ajratadi. Bularga: ilhom, kashf va sezgi kiradi. Tasavvuf ahlining fikriga ko'ra, sof tasavvufiy bilimlar kashfu ilhom bilan, Yani sezgi orqali hosil qilinadi. Biz quyida ushbu manbalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

“Ilhom ilohiy fayz yo'li bilan qalbdan paydo bo'ladigan ma'no Yoki haqiqatdir”.¹⁶¹ Mazkur ta'rifda uchta muhim tushuncha mavjud: ilohiy fayz, qalb va ma'no Yoki haqiqat. Ilohiy

¹⁵⁹ Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.: “YAngi asr avlodi”, 2003. – 199-b. 27-bet.

¹⁶⁰ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqloq”, 1999. – 180-b.-27-bet.

¹⁶¹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263-b.-223-bet.

fayzning ma'nosi Shundaki, insonning bilish yo'llari uchta hisoblanadi: vahiy, ilhom va aql. Vahiy yo'li payg'ambarlarga xos bo'lib, bunda Alloh Jabroil Yordamida o'zi tanlagan payg'ambarlarga bilim beradi. Ilhom yo'li valiylarga xos bo'lib, bunda endi Jabroil vositachilik qilmaydi. Shunki oxirzamon payg'ambari Muhammad alayhissalomdan keyin vahiy bilim berish eshiklari yopildi va to qiyomatgacha bu bilim olish usulidan hech kim fodalana olmaydi. Ilhomda ilohiy bilimlar valilarga to'g'ridan to'g'ri etkaziladi. Bu yo'l kashf orqali amalga oshiriladi. "Kashf – his va aql yo'li bilan idrok etish mumkin bo'lmagan haqiqatlarni qalb ko'zi bilan ko'rish".¹⁶² Bu maqomat mukoshafa deb ataladi. Mukoshafa – kashf yo'li bilan bilim o'rganish, valilarning qalbida g'aybiy sirlarning ochilishidir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iohomni "intuisiya", "irrasional bilish" singari psixologik tushunchalar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Shunki ulardagi tashqi o'xshashlikka qarab xulosa chiqarish noto'g'ri holatdir. Ilhomda ham ilohiy bilimlar vali qalbiga to'satdan, kutilmaganda ilohiy iroda ta'sirida dunyoga keladi. Intuisiyada ham xuddi Shunday hol yuz beradi, Yani, masalan, biror olimning ko'p yillar davomida o'rgangan ilmiy jumbog'i bir necha soniyada hal bo'ladi-qoladi. Bulardagi farq Shundaki, paydo bo'ladigan ilmning makonlariturli xil joyda bo'ladi. Ilhomda bilimlar ilohiy fayz Yordamida qalbda paydo bo'lsa, intuisiya aqlda paydo bo'ladi. Boshqacha yatganda, intuisiya uchinchi bilim olish yo'li – aqlga taalluqlidir. Ilohiy fayzga esa quyidagicha ta'rif beriladi: "Haq taolodan etuvchi fayz. Ikki qismga ajratilgan: biri fayzi aqdas, ikkinchisi - fayzi muqaddas. Dastlabkisiga ilm martabasi orqali erishilur. Keyingisiga haqiqat va oliy mohiyat tufayli etishilur".¹⁶³

Ilhomning ikkinchi muhim elementi qalb hisoblanadi. Qalbning ta'rifi quyidagicha: "qalb – ko'ngil, dil, yurak, vijdon. Qalb kalimasining lug'aviy ma'nosi"biror narsaning shakl va ma'no jihatidan o'rtasi, asosi demakdir" (Najmiddin Kubro). So'fiy va mutasavviflar bu "o'rtaliq"ni inson tirikligi va ma'naviy hayotining bosh manbai, ma'rifat va irfon markazi, kashf va ilhom oynasi, Haq va haqiqat sirlarining tajalligohi, Allohning taxti deb belgilashgan".¹⁶⁴

E'tibor berilsa qalbni "kashf va ilhom oynasi"deb baholashayapti. Yani kashfu ilhomning natijasi qalbda aks etadi. Qalb bu makon bo'lib, bu makonda ilohiy fayz orqali haqiqatlar paydo bo'ladi. Eng muhimi mana Shu haqiqatlaridir. Shunki Shu haqiqatlar ta'sirida inson qalbi musaffolashadi.

Biz keyinchalik bu masalalarga batafsilroq to'xtalib o'tishimizni inobatga olgan holda so'zimizni muxtasar qilamiz. Faqat ta'kidlamoqchimizki, tasavvuf bilim olishning alohida yo'llari va vositalariga egaki, bu olingan bilimlar ilohiy fayz mahsuli bo'lganligi bois, bilim egasini valiylik maqomiga ko'taradi. Demak, ilhom ilohiy inoyat mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun u kasbiy emas.

Shu o'rinda Usmon Turarning bilishning bu yo'lga so'fiylar qanday nom berishini aytganligini keltiramiz: "Bu yo'l orqali erishilgan bilimga so'fiylar ilm emas, "ma'rifat", "irfon", "ilmi mukoshafa", "ilmi ladun", "ilmi vahbiy" kabi nom berganlar".¹⁶⁵ Shu o'rinda olim Yana ta'kidlaydiki, "botiniy tajriba va ma'naviy muShohadaga asoslangan bevosita ma'lumot – "irfon, diniy hujjatlarning rivoyat qilinishi Yoki aqliy qiyos va hujjat keltirishga asoslangan ma'lumotlardan, Yani ilmdan muhimroq va qadrliroqdir".¹⁶⁶

5. Tasavvufiy bilimlarning yangiligi, aslligiva originalligi – uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. YAngiligining boisi Shundaki, tasavvuf ahli oyatu hadislarni sharhlaganlarida hali Shu paytgacha ma'lum bo'lmagan ma'nolar olamiga kishini boshlaydi. Bu yangi ma'nolar tasavvuf ta'limoti va amaliyotiga o'zgacha sayqal beradi. Islom tarixida Shuning uchun ham mutasavviflarga qarshi kurashlar bo'lganligi ma'lum. Shu o'rinda haqiqatdan ham chetga og'ishlar bo'lganligini ta'kidlash kerak. Bu oqim botiniylik deb ataladi. Ular oyatu hadislarni sharhlashda haddan oshib ketishlikda, ularning ma'nolarini o'ta chuqurlashtirish orqali

¹⁶² O'sha asar, 225-bet.

¹⁶³ O'sha asar, 248-249-betlar.

¹⁶⁴ O'sha asar, 256-257-betlar.

¹⁶⁵ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180-b.-27-bet.

¹⁶⁶ O'sha asar, 28-bet.

islomiy qoidalarga zil fikrlarni bildirishlikda ayblanadi. Imom G'azzoliy botiniylarga qarshi kurashib, ularning noislomiy qiyofalarini fosh qilgan.

Tasavvuf ahli shariatni mahkam ushlaganligi bois bu masalada mo'tadillikni tutganlar va oyatu hadislarini sharhlashda sunniy chegaralardan chiqmadilar. Shuning uchun ham ularning bilimlari asliy, Yani oyat va hadislariga tayangan bilimlar hisoblanadi.

Tasavvuf ahlining bilimlari zamon va fan o'zgarishlariga mos holda va shariat ahkomlariga tayangan holda o'zgaruvchan edi. Shuning uchun ular fundamentalizmga qarshi bo'ldi, bu g'oyani o'ziga singdirmadi. Ular islomning t'mal o'lchovlariga muvofiq islomiy qarash tizimiga yangi va original uslub qo'shganlar.

5. Tasavvuf o'zida asosan ikki xil psixologik usullardan foydalanadi: qalbni poklash metodi va sho'ini o'zi anglash metodi. Mazkur metodlar haqida alohida to'xtalamiz.

a) Qalbni poklash metodi ham nazariy, ham amaliy metod hisoblanadi. Qalb haqida umumiy tushunchaga egamiz. Biroq qalbni poklash haqida endi quyida yozamiz: So'zimizni hadisdan boshlaymiz. "Nabiy (s.a.v.) Shunday deganlar: Albatta bu qalblar zanglagandir, uning tozalanishi esa Qur'on qiroati, o'limni eslash va zikr majlislariga qatnashish orqalidir".¹⁶⁷ Qalbni poklash sof tajribaviy metod hisoblanadi. Qalbni poklash kitob o'qish bilan Yoki qalbni poklashning yo'l-yo'riqlarini bilish bilan amalga oshmaydi. Qalbni poklash uchun albatta bevosita amaliy harakatni amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu haqda Usmon Turar Shunday deb yozadi: "Qalbni poklash haqiqiy ixlos bilan amal qilish, ibodatga berilish, dinning buyruqlarini bajarish, man etilganlardan qaytishdir. Shu orqali qalb soflashib, tiniqlashadi va ilohiy bilimlar tajalli etuvchi makonga aylanadi. Bunday holga kelgan qalblarga Alloh taolo ba'zi bilimlarni ehson etadi. Shu bois tasavvufiy bilimga "vahbiy ilm" ham deyiladi".¹⁶⁸ Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qilingan amal va mujohada – intilishlar qalbni poklashda tayYorgarlik bosqichi hisoblanib, qalbni poklash ilmini o'zlashtirishni osonlashtiradi. Biroq bu ilm o'zlashtirish orqali amalga oshadimi, Yani u kasbiymi Yoki ilohiy taqdir orqali beriladimi, Yani u vahbiymi degan dilemma aolimlarning ikki toifaga ajratilishiga olib keldi.

Birinchidan, qalbni poklash ilmi kasbiy deydiganlarning fikriga ko'ra, har qanday odam bu yo'lni o'zlashtirib, bilib o'z qalbini poklashi mumkin. Ikkinchidan, qalbni poklash ilmi vahbiy deganlarning fikriga ko'ra, Alloh taolo tomonidan tanlangan odamgina qalbini poklashi va ulug' maqomlarga musharraf bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, qalbni poklash ilmi har anday odamga taalluqli bo'lishi kerak. Shunki tasavvuf ilmi mazmun mohiyatiga ko'ra, har qanday oddiy kishi ham egallashi mumkin bo'lgan (albatta piri murshid ko'rsatmalariga amal qilgan holda) ta'limot va amaliyot hisoblanadi. Tasavvuf xalqchil ta'limot bo'lib, uning bir ko'rinishi hisoblangan futuvvat xalqimiz orasida tarqalgan ta'limot va amaliyot hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, Amir Timur saltanati hukmronligi davrida arab sayyohi Ibn Batutaning guvohlik berishicha, Movarounnahr hududida oddiy xalq, har xil kasb-kor egalari futuvvatni o'zlarining turmush tarziga aylantirgan ekanlar. Bu haqda N.Komilov Shunday deb yozadi: "Juvonmardlar (futuvvat ahli – X.A.) oddiy xalq ichidan chiqqan hunarmandlar, sipohiylar, ko'chalarda tamosha ko'rsatuvchi xalq teatri vakillari, pahlavonlar, qiziqchilar, dorbozlar va boshqa toifalardan tashkil topgan. Ularning har birining piri, o'z jamoasi, ta'lim beruvchi ustozlari, yig'iladigan joylari bo'lgan".¹⁶⁹

Bundan xulosa Shuki, tasavvuf qandaydir alohida olingan kishilarga mo'ljallangan ta'limot emas, aksincha hamma amal qilishga da'vat etiladigan ta'limot va amaliyot hisoblanadi. Faqat har kim har xil maqomlarga etishadi, xolos. Ta'kidlash joizki, tasavvuf bilan Shug'illangankishilar uning ma'lum shartlarini, qonun-qoidalarini mukammal bajarishlari shart. Ulardan ayrimlarigina eng yuksak maqomatlarga erishib valilik darajasiga etishishi mumkin.

Shunday qilib, biz asosiy masalaga qaytamiz. Qalbni poklash haqida Imom G'azzoliy o'ziga xos yondashadi. U qalb xastaliklari haqida yozadi va Shu xastaliklarni davolash borasida

¹⁶⁷ Abdulqodir Jiyloviy (G'avsul A'zam). Rabboniylikni anglash va Rahmoniy fayzni qozonish. Ikkinchi kitob. – T.: "Movarounnahr", 2006. – 127-b.-47-bet.

¹⁶⁸ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180-b.-28-bet.

¹⁶⁹ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil in-son axloqi. K.1. – T.: "YOzuvchi", 1996. – 272-b. 140-bet.

ma'lum muolajalarni qilish shartlarini bayon qiladi. Boshqacha yatganda, Imom G'azzoliy qalbni poklash borasida o'ziga xos yondaShuvni taklif qiladi. Bunda qalb xastaligini tuzatuvchi xoziq tabibga muhtojlik bor. Bu haqda Bahovuddin Naqshband hazratlari Shunday deb yozadi: "IxtiYor bizda, agar xohlasak, tolibga jazaba orqali ta'sir qilamiz. Murshid (pir) bu – xoziq tabib muridning holiga muvofiq bo'lgan davoni qiladi".¹⁷⁰

Abduqodir Jiyloniy (G'avsul A'zam) qalbni poklash haqida Shunday deb yozadi: "Qalblaringizni isloh qilinglar, Shunki qalb to'g'ri bo'lsa, qolgan barcha holatlar to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun Payg'ambar alayhissalom: "Odam bolasida bir parcha go'sht bor. Agar u to'g'ri bo'lsa, jasadning qolgan a'zolari ham to'g'ri bo'ladi. Agar u buzilsa, butun jasad buziladi. Ogoh bo'ling, u qalbdir, deganlar" (Imom Buxoriy rivoyati)". Qalbning islohi taqvo, Allohga tavakkul. Uni bir deb bilish, amallarda ixlos qilish bilan bo'ladi. Aks holda qalb buziladi".¹⁷¹ E'tibor qilinsa, Jiyloniy hazratlari qalbni poklashning yo'l-yo'riqlarihaqida yozadi va unga amal qilishorqali qalbni poklash mumkin, degan fikrni ilgari suradi.

Biz Yuqorida qalbni poklashda "tibbiy" yondaShuv haqida yozgan edik, Yani qalbni poklashda uning xastaliklarini davolash usulidan foydalanish mumkinligi haqida fikr bildirilgan edi. Bu nuqtai nazar Muhammad Sodiq Muhammad Yusufda ham uchraydi. Olim o'zining "Ruhiiy tarbiya" kitobining birinchi qismidaqalb xastaligi va uningtuzalish alomatlarahaqida batafsil bayon qiladi. Bunga, Yani qalbni kasalliklardan davolashga "Tibbul qulub" deb ataladi, Yani "qalblar tabobati" deb. Ma'lumki, tib ilmi ikki qismga bo'linadi: badan tabobati (medisina) va qalb tabobati (tasavvuf). Qalb tabobatida inson qalbining tuzilishi, uning turli xil holatlari, buzilish holatlari va xastalikning oldini olish hamda ularni davolashjihatidan o'rganiladi.

Olimning fikriga ko'ra, har qanday inson tanasining a'zosi xastalansa, u o'zining asosiy funksiyalarini bajara olmay qoladi. Qalb ham ma'lum ishlarni bajaradi, jumladan, qalbning bajaradigan ishlariga - ilm, hikmat, ma'rifat, Alloh taoloning muhabbati, ibodati va undan hosil bo'ladigan lazzatlanish va h.k.lar kiradi. Qalb xastalansa, demak, u Yuqoridagi ishlarni bajara olmay qoladi. Insonning dunyodagi barcha narsalar to'g'risida ma'lumotga egaligi – "uning axborotga egaligi" degan tushuncha bilan baholanadi. Biroq inson hamma narsani bilsa-yu, Alloh taoloni va uning buyruqlarini bilmasa, unday kishini ma'rifatsiz inson deb ataladi. Bu haqda Shayx Muhammad Muhammad Yusuf quyidagicha yozadi: "Ma'rifatning alomati muhabbatdir. Alloh taolo haqida ma'rifati bor odam u zotga muhabbat qo'yadi. Alloh taologa muhabbati bor qalb sog'lom, U Zotga muhabbati yo'q qalb xastadir".¹⁷²

Qalb xastaligining o'ziga xos tomoni Shundaki, u yashirin bo'ladi va bemor kasal ekanliginibilmasligi ham mumkin. Uni davolashning bir qancha shartlari bor: a) xastalikni davolashda sabr qilish kerak; b) havo nafsga xilof ish tutishga to'g'ri keladi; v) xoziq tabib (pir, murshid) topish kerak bo'ladi va h.k.

Masalan, qalb xastaliklarining biri baxillik hisoblanadi. Uni davolashning yo'llaridan biri – xastalikning aksi bo'lgan holatni (saxovatni) bemorga qildirish va bu odatni uning hayot tarziga aylantirishdan iborat. Shu o'rinda masalaning ehtiyot bo'lishimiz lozim bo'lgan nozik jihati bor, Yani saxovat haddidan oshsa, isrof darajasiga o'tib ketishi mumkin. Bu ham qalb xastaliklaridan biridir. Shuning uchun har bir ishda, xususan qalb xastaliklarini davolashda ham mo'tadillik tamoyiliga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar ekan. Biz keyinchalik nafs masalasini ko'rib chiqayotganimizda mo'tadillik psixologiyasiga batafsil to'xtalib o'tamiz. Shu bois biz nafsni poklashning keyingi usuliga o'tamiz.

b) Shunday qilib, o'zini o'zi anglash metodini ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, inson vaqtini Shunchaki o'tkazish uchun Yoki engil eli hayot uchun bu dunyoga kelmagan. Uning zimmasiga ulug' vazifalar yuklatilgan, buyuk ishlar buyrilgan. U vujudan azaliy emas, biroq abadiy yashash

¹⁷⁰ G'azzoliy Abu Homid. Kimyoi saodat: (Ruh haqiqati). – T.: "Adolat", 2005. – 412-b. -77-bet.

¹⁷¹Jiyloniy Abdulqodir (G'avsul A'zam). Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish (Ikkinchi kitob). – T.: "Movarounnahr", 2006. – 127-b.-15-bet.

¹⁷² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsof. Ruhiiy tarbiya. Poklanish. 1-juz. – T.: "SHarq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2007. – 447-b.-204-bet.

uchun kurashishi zarur. Uning tanasi tuproq va loyqadan yaratilgan bo'lsada, uning ruhi ilohiydir.

Inson borlig'ining javhari hayvoni, vahshiy va shaytoniy sifatlar bilan ifloslangan bo'lsada, u ruhiy kurash Yordamida (katta jihod) va nafsni poklash orqali o'z ruhini, mohiyatini musaffo qila boradi. Buning uchun inson o'zida Yuqoridagi sifatlar qay darajada mavjudligini aniqlashi zarur. Aniqlash esa o'z o'zini anglash orqali amalga oshiriladi. Shu o'rinda J.Rumiy hazratlarining quyidagi yozganlariga e'tiborimizni qaratamiz: "Inson buyuk bir mo'jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar borki, ular yozuvlarni o'qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli tuman mashg'ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va ko'ngilning so'ngsiz orzularidir. Zulmat va pardalarning bo'lishiga qaramay inson ichidagi bir narsani o'qiy oladi. Endi qara, o'rtadan pardalaru qorong'ulik ko'tarilsa, u nimalarni bilib olmaydi, deysan".¹⁷³

O'zini o'zi anglash orqali Rabbisini bilish mumkinligini Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning hadisidan ma'lum. Shuning uchun o'zini anglash yo'li najot yo'li deb ataladi. Qolaversa, Qur'oni karimning qator oyatlarida ham insonning o'zini o'zi anglashi qolgan barcha yo'nalishdagi bilimlarining asosida yotishi keltirilgan.

Imom G'azzoliyning "Osnovy duxovnosti" degan kitobida har qanday inson quyidagi savollarga javob axtarishi zarurligi yoziladi: "Shunday qilib, quyidagi bilimlarni izlash kerak: sen kimsan? Va sen nimasan? Qaerdan kelgansan? Va qayoqqa borasan? Bu olamga nima uchun kelgansan? Va seni nima uchun yaratishdi? Sening baxting nimada? Va unga qanday erishish mumkin? Sening baxtsizliging nimada? Va undan qanday qochish mumkin?".¹⁷⁴

Imom G'azzoliyning fikriga ko'ra, insonda yashirin sifatlar bir qancha ko'rinishlarda bo'ladi: hayvoni sifatlar, vahshiy sifatlar, jinlarga xos sifatlar va farishtalarga xos sifatlar. Inson Shu sifatlardan qay biri o'zidga kerakligini, qay biri kerak emasligini bilishi kerak. Inson Shularni bilmasa, o'z baxtini topolmaydi.

G'azzoliy hazratlarining yozishicha, har bir kategoriya sifatlarining o'ziga xos ozuqasi va baxti bor. Hayvonning baxti ovqat eyishda, uyquda va shahvatda yashirilib yotadi. Vahshiy hayvonlarning baxti o'zgalarga o'z g'azabini sochish bilanularni halokatga uchratishda yotadi. Jinlarning baxti – yaramasliklarni, xiyonatni, ay Yorlikni va aldovlarni amalga oshirishda yotadi. Farishtalarning baxti Ilohiy jamolni ko'rishda hisoblanadi.

Tasavvuf masalalari psixologik jihatdan tahlil qilinarkan, so'zsiz ruh muammosini hal etish talab qilinadi. Shunki Shu paytgacha psixologiya fani bilan insoniy ruh masalasi o'rtasidagi aloqalar mukammal ko'rib chiqilmagan. Boshqacha aytganda, bu aloqa atrofida javoblardan ko'ra savollar ko'p. Ular o'zlarining javoblarini kutayapti. Buning uchun esa, tabiiyki, tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Tasavvuf Shunday bir muhtasham qasrki, bu qasrda hamma narsa mujassam: din ham, falsafa ham, mantiq ham, pedagogika ham, fiqh ham, tafsir ham, fiziologiya ham, etika ham, estetika ham va h.k. Shu jumladan, psixologiya ham. Fikrimizcha, tasavvuf ta'limoti va amaliyotida psixologiyaning o'rni juda katta. Shunki tasavvufning markaziy tushunchalaridan biri nafs bilan mujodala – psixologiya fanining predmetlaridan biridir. Shu o'rinda aytish joizki, tasavvufda amal asosiy hodisalardan ikkitasi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: "O'lmasdan oldin o'ling" va "O'zini anglagan robbisini anglaydi". Bu hadislar ma'no – mazmuni jihatidan psixologik masalalarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan tasavvuf ta'limoti va amaliyoti psixologik tahlilga muhtoj.

Tasavvuf ta'limoti va amaliyoti masalasida o'tgan asrning boshida yashagan K.Kazanskiyning asari ayniqsa diqqatga sazovor. U o'zining asarida "pragmatik mistisizm psixologlar, etnopsixologlar va medik-psixiatrlarning har tomonlama tadqiqotlarining predmeti bo'lishi lozim. Ma'lumki, "mistik bilish yo'lining" amaliyoti qandaydir ma'lum tizimga keltirilgan turli xil psixotexnik, ruhiy-diniy va jismoniy mashqlarning variativ to'plamidan iborat. Mazkur tizim o'zida majburiy komponentlar sifatida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

¹⁷³ Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.: "YAngi asr avlodi", 2003. – 199-b. -54-bet.

¹⁷⁴ Osnovy duxovnosti. – SPb.: «Izdatel'stvo «DILYA», 2007. – 192 s. Seriya «Uroki Imama al-Gazali»)

o'z o'ziga singish (muShohada), pozisiyalarni anqlashtirish (jalsa), nafasni nazorat qilish (habs-an-nafs, hibs-i-dam), koordinasiyalashgan ritmik harakatlar va teomnemniya formulalarini ma'lum takrorlash (zikir). Maqsad bitta – inson psixikasiga, uning nozik nuqtalarigacha ta'sir qilish”¹⁷⁵.

Muhammad Iqbol Shunday deb yozadi:”Butun insoniy hayot kelib chiqishi bo'yicha ruhoni bo'lsagina insoniy borliqning sof psixologik poydevorini qidirish mumkin bo'ladi”.¹⁷⁶ Muallif bu bilan aytmoqchi bo'layaptiki, Alloh o'zining ruhidan Odam tanasiga pufladi va ruh kirdi. Demak, uning qolgan barcha umri ruh bilan birga kechadi va Shu ruh psixologiya fanining tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin.

Biz Yuqorida savollar ko'p dedik. Ular Shunday savollarki, ularning barchasiga javob topish bugungi psixologiya fanining vazifasi bo'lib qolayapti: Ruh – psixologiya fanining tadqiqot predmeti bo'la oladimi? Ruh va psixika o'rtasidagi aloqa nimadan iborat? Ruhoniyat tushunchasi bilan ruh tushunchasi o'rtasida qanday farq mavjud? Insoniy “Men” bilan nafs o'rtasidagi aloqalar qanday? Nafs bilan ruh o'rtasidagi aloqalar qanday? Psixologiya fanining ruhni o'rganishdagi nasibasi qanday? Ruhni tadqiq qilish uchun bugungi psixologiya fanidagi metodologik tamoyillar etarlimi va h.k.?

Mazkur savollarga javob berishdan oldin ruh haqida, uning tasavvufona sharhi haqida, uning psixologik jihatlari haqida yozamiz.

Avvalom bor, Qur'oni karimga murojaat qilamiz. Qur'oni karimning Isro (17) surasi 85-oyatida ruh to'g'risida Shunday deyiladi: “ (Ey Muhammad), sizdan ruh – jon haqida so'raydilar. Aytg: “Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardir. Sizlarga juda oz ilm berilgandir”. Shu oyatga amal qilgan holda, Yani ruh Allohning amri ekanligi va biz uni o'rganishga chuqur kirishib ketmasligimiz zarurligi haqida shariat ko'rsatma beradi hamda uni chuqur o'rganishga ruxsat bermaydi.

Darhaqiqat, inson tanasining tuzilishi, uning sir-sinoati hozirgi zamon biologiya, anatomiya va fiziologiya fanlari tomonidan batafsil o'rganilgan. Biroq tana bilan birga yashayotgan ruh haqida ma'lumotlar juda kam. Buning sababi balki shariat ahlining ruhni o'rganishga qarshi bo'lganligidadir. Shunday bo'lsada, tasavvuf ilmi bu masalaga to'xtalib o'tadi va o'zining munosabatini bildiradi.

Shu o'rinda nafs-badan bilan bog'liq tushuncha bo'lgani bois ruhning badan ichidagi holati tasavvuf ahlini qiziqtirib kelganligini ta'kidlamoqchi edik. Shu nuqtai nazardan nafs bilan ruh o'rtasidagi aloqa juda muhim hisoblanadi va bu aloqani ko'rib chiqish ruh masalasiga oydinlik kiritadi.

Fikrimizni Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Xislatli hikmatlar sharhi” kitobida ilgari surilgan fikrlardan boshlaymiz. Uning ta'kidlashicha, insonning asli qora balchiq loydan iborat edi. Alloh O'z qudrati bilan uni inson shakliga keltirdi va ichiga O'z ruhidan puflagandan keyin insonga aylandi. Demak, ruhning kelib chiqish manbai rabboniy. Bu haqda Alloh taolo marhamat qiladi (Hijr surasi (15), 28-29 – oyatlar): (Ey, Muhammad!) Eslang, Rabbingiz farishtalarga: «Men (asli) qora balchiqdan (olib) quritilgan loydan inson yaratuvchiman.

Bas, uni tiklab, ichiga O'z (dargohimdagi) ruhimdan kiritganimda, sizlar unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz!» – dedi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf yozadi:”...insonning qadr-qiymati ruh bilan bog'liq. Inson qancha ruhoni bo'lsa, Shuncha qiymati ortadi. Ruhoniylikni yo'qotgan sari qadr-qiymatini yo'qotib boradi. Ruhoniylikni inkor etsa, insonligini ham inkor etib, hayvon

¹⁷⁵ Trimingem Dj.S.Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A.Staviskoy, pod redaksiy i s predisl. O.F.Akimushkina. –M.:Nauka. Glavnaya redaksiya vostochnoy literatury, 1989. – 328 s. -209-bet.

¹⁷⁶ Ikkal Muxammad. Rekonstruksiya religioznoy myсли v islame. – M.: Vostochnaya literatura, 2002. – 200 s.- 141-bet.

darajasiga, balki undan ham past darajaga tushib qoladi”¹⁷⁷. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ruhni qalb bilan bog’lagan holda tushuntiradi. “Qalb tabiblar nazdida hayotni, ulamolar nazdida aqlni va mashoyixlar nazdida ma’naviy sezgilarning markazini ifoda qiladi. Bu uch sir jamlanib, ruh deb nomlanadi. Ruh esa sirlarning siri deb ham ataladi”¹⁷⁸. Ruh inson tanasidagi jarayon qilish o’rniga qarab turli xil ataladi. Bu haqda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi:”Agar ruh insonning jasadidagi hujayralarda jarayon qilsa, hayot deb nomlanadi. Agar ruh insonning miyasidagi hujayralarda jarayon qilsa, aql, idrok deb nomlanadi. Agar ruh insonning yuragidagi hujayralarda jarayon qilsa, qalb deb nomlanadi”¹⁷⁹.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf masalani tasavvuf ta’limoti nuqtai nazaridan turib sharh ham qilgan. U kishi Shunday deb yozadi:”Tasavvuf ilmida aql, nafs, ruh va sir kabi narsalarning barchasi bir narsa deb anglanadi. Ular bir narsa bo’lgani bilan idrok qilinadigan narsaning turiga qarab ism ham turlanadi. SHar’iy hukmlarni idrok qiluvchi narsaga aql deyiladi. SHahvatga oid narsalarni idrok qiluvchini nafs deyiladi. Tajalliyotni idrok qiluvchini ruh deyiladi. Tahqiqot va tamakkunotlarni idrok qiluvchini sir deyiladi”¹⁸⁰. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf boshqa bir o’rinda bularning barini ruhning ismlari deb ataydi. “... ruh gunohlar, ma’siyatlar, shahvatlar va ayblar zulmatida qolgan bo’lsa, nafs deyiladi. Agar ruh g’aflat va hushyorlik orasida almashib tursa, qalb deyiladi. Agar u xotirjam va sokin bo’lsa, basharlik charchoqlaridan dam olgan bo’lsa, ruh deyiladi. Agar u hissiyot kirlaridan musaffo bo’lsa, sir deyiladi”¹⁸¹. Biz Yuqorida zikr etilgan fikrlardan Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ruhning ta’riflari turlicha ekan. Biroq ularning barchasida ham mushataraklik mavjudligi sezilib turibdi.

Shu o’rinda Shayx hazratlarining Yuqorida bildirgan fikrlaridan “ruh” va “psixika” tushunchalari to’g’risida bir qacha xulosalarni ilgari surmoqchimiz. Ruh bilan psixika bitta narsami degan savolga javob topishda Yuqoridagi fikrlarga tayansak bo’ladi. Ma’lumki, psixika bosh miyaning funksiyasi (xususiyati) hisoblanadi. Ruh esa ilohiy ibtido ega. Hatto ularning kelib chiqish manbai bo’yicha ham farqi kuzatilmoqda. Qolaversa, psixikaning bir bo’lagi hisoblangan aqliy faoliyat dunyoni anglash va idrok etishdan iboratdir. Agar aqliy faoliyat amalga oshmay qolsa, tabiiyki inson anglayolmay, idrok eta olmay qoladi. Aqliy faoliyat Yordamida inson aql bovar qilmas kashfiyotlar, ixtirolar qilishi mumkin. Biroq yolg’iz miyaning o’zi bilan, aniqrog’i uning aqliy faoliyati bilan YAratuvchisini tanimay o’tganlar qancha. Demak, inson psixikasi insonni inson qilib turgan yagona manba emas ekan. Insonni inson qilib tugan narsa undagi ruh bo’lib chiqayapti. Ularning farqi ham Shundadir. Bu haqda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi:”Shuning uchun ham ilm va ma’rifatning Yuqori cho’qqisiga chiqqan barcha olimlar ham, ulkan ilmiy kashfiyotlarni qilishiga qaramay, qalblari qulfli bo’lgani uchun, mog’or bosgan bo’lgani uchun Alloh taoloni tanish va U Zotning hidoyatiga yurish baxtiga muyassar bo’lmaydilar”¹⁸². Demak, psixika insonning borliqni anglash va idrok etishiga xizmat qilar ekan-u, biroq Alloh taoloni tanish darajasiga uni chiqarib qo’ya olmas ekan. Bu ishni ruh bajaradi. Shunki ruhning manbai rabboniy va u O’z Rabbisiga intiladi. “Ruhdan qalbgga o’tadigan his-tuyg’ularning barchasi Alloh taologa qaratilgandir, ularda U Zotga nisbatan shavq, muhabbat va ulug’lash bordir. Ammo Shu bilan birga, insonning qalbi atrofida havo nafs ham bor. Ana o’sha nafs tarbiya ko’rmagan, iymon suvi ila sug’orilmagan bandaning nafi bo’lsa, unda aks etgan shavq, muhabbat va intilish Alloh taolodan boshqa tarafga burilib ketadi. Oqibatda mazkur banda o’ziga o’xshagan

¹⁷⁷ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar sharhi. 4-juz. – T.: “Hilol-Nashr”, 2014. – 271 bet. – 112-bet.

¹⁷⁸ O’sha asar, 110-bet.

¹⁷⁹ O’sha asar, 110-bet.

¹⁸⁰ O’sha asar, 111-bet.

¹⁸¹ O’sha asar, 111-bet.

¹⁸² O’sha asar, 114-bet.

bandalarga va dunyoning zebu ziynatiga muhabbat qo'yadi"¹⁸³. Psixikaning manbai miya esa "qora balchiq loydan" kelib chiqadi.

Shu o'rinda mavzumizga bevosita aloqasi bo'lmasada, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning quyidagi satrlarini yozishni ma'qul ko'rdik. Bu satrlar bugungi kun olimlari uchun ham o'ta ibratlidir. "Alloh taoloni unitib, shaytonga ergashgan ilm egasidan zinhor yaxshilik kutib bo'lmaydi. Iymonsiz ilm egasining ilmi ham, o'zi ham koni zararga aylanadi. Ilm va aqlu idrok ularning egasi iymonli bo'lgandagina xayru baraka va yaxshilik manbasiga aylanadi. Qalbi iymonga to'la ilmi kishidan bu dunyo va oxirat uchun manfaatlar chiqadi"¹⁸⁴. Shu gaplardan keyin ruhning inson uchun naqadar muhimligi kelib chiqadi.

Tadqiqotchi olim Ibrohimjon Usmonov o'zining "Al-Hakim at-Termiziyning tasavvufda tutgan o'rni" maqolasida Al-Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" kitobidan olib quyidagilarni yozadi: "Al-Hakim at-Termiziyga ko'ra ruhning qarorgohi insonning bosh qismida bo'lib, Shu erdan u insonning tanasi bo'ylab yoyilgan. Nafsning qarorgohi esa qorinda, Shu joydan u tana bo'ylab yoyilgan. Al-Hakim at-Termiziy o'z sharhlarida ruhni "samoviy" va nafsni "ardiy" (erga mansub) deb, ruh sovuq, nafs esa issiq deydi. Agar inson "puf" deb puflasa, sovuq havo chiqadi, bu ruhning sovuqligi. Agar "hah" deb og'zidan havo chiqarsa, issiq havo chiqadi, bu nafsning issiqligi. Birinchi sovuq havo – *nafsa*, ikkinchi sovuq havo esa *nafxa*. Ruhning odati itoatkorlik, nafsning odati esa shahvatga berilish"¹⁸⁵. Al-Hakim at-Termiziy ruhni nafs bilan qiyoslay turib, ruhning muhim o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Usmon To'rar o'zining "Tasavvuf tarixi" nomli kitobida bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Insonda to'rt xil nafs mavjud:

1. Tabiiy nafs - jismdagi zarrachalarning aralashmasligini ta'minlaydi.
2. Nabotiy nafs – badanning o'sib-ulg'ayishi, hazm faoliyati va hakazo biologik funksiyalarni ta'minlaydi.
3. Hayvoniy nafs insondagi his-harakatlarning manbai bo'lib, sezgi organlari bu nafsning xizmatini qiladilar.
4. Insoniy nafs Yoki "Nafsi notiqa" - Parvardigorning amridan bo'lgan bu nafs - badandan ayri, mujarrad - tanho, yolg'iz bir gavhar bo'lib, inson badanining asl sultonidir. Ammo badandagi tasarrufni hayvoniy nafs vositasida ijro etadi"¹⁸⁶.

Abu Hamid G'azzoliy ham ruh haqida o'z fikrini ilgari suradi Uning fikriga ko'ra, eni, bo'yi va miqdori bor har qanday narsa xalq olamidani, Yani yaratilgan olamdan hisoblanadi. Ruhning esa bunday sifatlari mavjud emas. Demak, yo'q bo'lish qismatiga ham ega emas. Alloh taolo ruhni abadiy yo'qolmaslik, o'lcham va miqdorga ega bo'lmaslik sifatlari bilan yaratgan.

Ruhga badan tobe hisoblanadi. Insoniy ruhga xos Yana bir sifat ma'rifat bilan bog'liqligidir, Yani ruh - ma'rifatga ega bo'lish imkoniyatiga ega. Latif ruh jism ham emas, o'zicha mavjud ham bo'lmaydi, balki javhardir (substansiyadir). Mana Shu latif ruh ma'rifatga erishish uchun ma'rifatga ega bo'lishi zarur. Bu esa riyozatsiz amalga oshmaydi. O'z riyozatini kamolga etkazgan kishigina ma'rifatga ega bo'ladi, demak, ruh haqiqatini tushunadi.

Ruhning Yana bir sifati - uning o'zini ham, Parvardigorini ham bilishligidir. Shuningdek, u aql bilan topib bo'lmaydigan yuksak masalalarni ham idrok eta oladi. Ruh – o'zgaruvchan. U rivojlanadi, yuksaladi, biroq foniy emas. Shu o'rinda bir narsani inobatga olish zarur, Yani hayvoniy ruh foniy, o'tkinchi va u to o'tib ketgunicha insoniy ruh bilan birga hayot kechiradi. Agar insoniy ruh hayvoniy ruh ustidan hukmron bo'lsagina inson o'zligini bilish va tanish darajasiga ko'tariladi. Buning uchun solik o'z ruhiga Allohning maliklik sifatini singdirishi talab etiladi. Insonning o'z axloqini tuzatishi sof psixologik hodisa hisoblanadi va u o'zida o'zi bilan kurash, o'zini tahlil qilish, o'zini nazorat qilish, o'zini boshqarish singari psixologik sifatlarni mujassamlashtiradi.

¹⁸³ O'sha asar, 116-bet.

¹⁸⁴ O'sha asar, 115-bet.

¹⁸⁵ Usmonov Ibrohimjon. Al-Hakim at-Termiziyning tasavvufda tutgan o'rni. //Al-Hakim at-Termiziyning "Nodir masalalar" kitobi. – T.: "Mavoraunnahr", 2007. – 86 bet. -18-bet.

¹⁸⁶ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqol", 1999. – 180 b.- 88-bet.

Ruhning sifatlari ko'paygani sari uning tasavvurdagi obrazi jonlanayapti. Biz unga ta'rif berganimizda ruhning muhim bir sifatini har qachon yodda tutishimiz lozim bo'ladi, Yani ruh xalq olamidanda emas, amr olamidanda ekanligini ("Qul ir ruhi min amri rabbi").

Shayx al-Kolobodiy ruh to'g'risida aytgan o'tmish mashoyixlarning so'zlarini bayon etadi. Biz ul bayonlarni beramizki, tokim ruhning yangi sifatlarini bilib olaylik. Masalan, Junayd Bog'dodiy Shunday degan ekan: "Ruh bir narsadurki, Alloh taolo o'z ilmi bilan egallab olgandur. O'zining xalqlaridan birortasiga bildirmagandur. Ruh to'g'risida uning borligidan ko'proq ta'bir qilishlik joiz emasdur"¹⁸⁷.

Abu Abdulloh Nabbojiy esa ruhni jism deb, u his qilganda muloyim bo'lishligini, tegilsa kattalashishini ta'kidlaydi. Ibn Ato esa Alloh jasadlardan oldin ruhni yaratganini aytadi. Bu Qur'oni Karimning A'rof surasi (7), 11-oyatdagi "Biz ruhlarni yaratdik, so'ng jasadlarni barpo qildik" holatiga to'g'ri keladi.

Shayx al-Kolobodiy ruhni muloyim deb hisoblaydi va jasad ruh bilan tirikligini aytadi. Shunki ruh tirikdir. Tiriklik esa hayot beruvchining sifati hisoblanadi. Bu tiriklikdan ruh jasadning ichida degan ma'noni uqmaslik kerak.

Ruh so'zining ma'nosi to'g'risida Shayx Hakim Mounuddin CHishtiyning "Sufiyskoe selitel'stvo" kitobida Shunday deb yozadi: "Ruh" so'zi odatda "jon" deb tarjima qilinadi. Bundan tashqari, u quyidagi ma'nolarda ham ishlatiladi: ilohiy nafas, Jabroil alayhissalom, Qur'on, kashf Yoki payg'ambarlik. So'fiylar uchun "Ruh bu hayotning ma'nosi. Bu - jismoniy tana ham, fikr ham, xotira ham emas; bu hayotiy jarayon ham emas. Ruh o'zicha mavjud. U Allohdan keladi va to'liq Unga taalluqlidir"¹⁸⁸.

Chishtiylar hazratlarining fikricha, insoniy ruhga uning vujudda yuzaga chiqish uchun ritm va motiv zarur. Agar nafas bilan qiyoslasak, nafas Shunday bir ilohiy kuch bo'lib tanani, hatto psixik jarayonlarni faollashtiradi. Nafasda ritm bor, Yani u ma'lum ritm asosida (nafas olish va nafas chiqarish) tanani faollashtiradi. Nafasdagi motiv aynan tanani (Shu jumladan psixikani) faollashtirishdan iboratdir. Ruhning ishi ham nafasga o'xshaydi. Faqat uning farqi Shundaki, ruh nafasga nisbatan yuksak darajadagi mavjudotdir. Ruhning ham ritmi va motivi bor, dedik. Uning ritmi tana bilan bo'ladigan, aniqrog'i nafs bilan bo'ladigan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Uning motivi esa Shaxsni to'xtovsiz takomillashtirishdan iboratdir.

Xoja Yusuf Hamadoniy o'zining "Rutbat ul-hayot" kitobida ruh haqida Shunday deb yozadi: "Ruh asllarning aslidir. Inson badani va a'zolari ruh bilan tirik. Ruhning borlig'i soyasida badan ko'radi, biladi, eshitadi, ushlaydi, yuradi. Ruhning xususiyat va fazilatlarini tufayli donolikda qat'iyat, nazarda farosat va ibrat, eshitishda hikmatni anglash, ergashishda itoat, yurishda xizmat yuzaga keladi. Jo'mardlik yo'li, muShohada joyi, fazl mavzesi, karam makoni, yaqinlik qarorgohi, qudsiyat maskani, hayot mahali, unsiyat bo'stoni, sevgi-do'stlik vodiysi, muhabbat dengizi, sukunat maydoni va mukoshafat yo'li ruhdur"¹⁸⁹.

Xoja Yusuf Hamadoniy ruh kirgan borliqlarni doimo harakatda deb biladi. Demak, tana aslida o'lik narsa bo'lib, unga ruh tiriklik bag'ishlaydi. Odamni faoliyatga keltiruvchi barcha a'zolar ruh tufayli harakatlanishini ta'kidlayapti muallif. Ruhning muhim xususiyati - Haqqa bo'ysinishdan iboratdir. Xoja Yusuf Homadoniy ta'kidlaganlaridek, "Ruh ko'rishda ko'zdir va ko'zda ko'rishdir va ko'radigan ko'zning ko'ruvchisidir. Ruh ko'rishni ham ko'radi. Shuningdek, eshitish va eshitilgan, so'zlashuv va so'zlashilgan, hidlash va hidlangan, totish va totilgan, anglash va anglashilganning eshigi ham ruhdur"¹⁹⁰.

Ruhning yana bir sifati iroda va ixtiyorning unda yashiringanligidir. A'zolarini ruh harakatga keltirdi va a'zolar bilan harakatlantiruvchi bir biriga o'xshamaydi. Harakatlanuvchi - o'ladi va o'lik narsa. Harakatlantiruvchi ruh bo'lib, u o'lmaydi.

¹⁸⁷ Shayx al-Kolobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. (At – ta'arruf – tasavvufni tanishtirish kitobi). - G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. - 144 b.

¹⁸⁸ Shayx Xakim Mounuddin Chishti. Sufiyskoe selitel'stvo. - SPb "Dilya", 2002. -208s.

¹⁸⁹ Xoja YUSuf Homadoniy. Hayot mezoni (Rutbat ul-hayot) – T.: "YAngi asr avlodi", 2003. – 63 bet. - 49-bet.

¹⁹⁰ O'sha asar, 50-bet.

Ma'lumki, Alloh taolo Odam alayhissalomni loydan (tuproqdan) yaratib, so'ngra unga ruhni pufladi va nihoyat odam dunyoga keldi. Shundan so'nggina Alloh farishtalarga qarata odamga sajda qilishga buyuradi. Odamning ruhdan boshqa barcha narsalari o'lik edi va ruh kirib unga tiriklik kirdi. Demak, farishtalar ruhga sajda qilishganlar. Bu haqda Xoja Yusuf Homadoniy Shunday deb yozadi. "Agar ruh javhar va zot jihatidan farishtalardan ko'ra pokroq, tozaroq va sofroq bo'lmaganda, Haqqa yaqinlik va makon jihatidan ulardan ilg'orroq bo'lmaganida ... farishtalar ruhga sajda qilmagan bo'lardilar"¹⁹¹.

Najmiddin Kubro uzlat haqida yozganida Shunday degan edi: "Uzlat inson ruhini sinovchi turli ofat, fitna-yu balo bilan quvvatlanishni, yomon xususiyatlarning tarbiyasini va nazoratga olinmog'ini ta'minlaydi"¹⁹². Shu o'rinda ruhning muhim sifati nafs tarbiyasi va nazorati bilan shug'ullanishi ekanligini angladi. Shuningdek, ruh va vujud birligining Yana bir sababi ham aniq bo'ladi. U ham bo'lsa, ruh badanga tegishli bo'lgan barcha ishlarda mas'uldir. Shuning uchun inson ruhiga tayangan holda nafsga ta'sir ko'rsatmog'i zarur, aksincha emas.

Aziziddin Nasafiyning ruh to'g'risidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Uni alohida qarab chiqishimiz zarur deb hisoblaymiz. Shunki ruh to'g'risidagi bilimlarimizni to'ldiradi. Aziziddin Nasafiy o'zining "Zubdat-ul haqoyiq" asarida ruhning yaratilishi to'g'risida Shunday deb yozadi: "Tangri subhonahu taolo ilk daf'a bir javhar yaratdi. Uning nomi nafi avval (Ruh avval)dir. Tangri subhonahu taolo mulk va malakut olamlarini yaratishni iroda etib, javharga nigoh tashladi, ul javhar qaynab eriy boshladi va ko'pirdi. Neki o'shal javharning mohiyati (mag'zi) va qaymog'i pastga cho'kdi. Xalloqi olam o'sha javharning qiyomidan ruhlar olamining darajalarini yaratdi, quyqasidan esa jismlar olamini vujudga keltirdi"¹⁹³.

Aziziddin Nasafiyning fikriga ko'ra, ruhlar olami o'n uch darajada yaratilgan. Shunga mos holda jismlar olami ham yaratilgan. U ham boshqa tasavvuf ahllariga o'xshab ruhni javhar deb qaraydi. Ruh jismni (badanni) harakatlantiradi. Ruh tabiatda o'simlik darajasida, iroda (harakat) ga muvofiq hayvon darajasida, aqlga muvofiq inson darajasida yuzaga chiqadi. Alloma Shunday deb yozadi: "Ruh latif javhar, u maydalanmaydi va a'zolariga bo'linmaydi. Shunki ruh amr olamidandir, hatto o'zi amrdir. Jism qattiq va dag'al javhar, u maydalanadi va qismlar (a'zolar)ga bo'linadi. Jism maxluqot olamidandir"¹⁹⁴.

Shundan so'ng Tangri taolo nigohini shaffof qiyomga qaratdi va u qiyom eriy boshlaydi. Shu qiyomning qaymog'idan payg'ambarlar Xotami (xulosasi) ruhini yaratdi. Ish Shu tariqa davom etib, nihoyat quyidagi ruhlar yaratiladi: ululazm payg'ambarlar ruhi, mursal payg'ambarlar ruhi, avliyolar ruhi, ahli ilmu ma'rifat ruhini, zohidlar ruhini, taqvo ahli ruhini, ahli iymon ruhini, odamlar ruhini, hayvonlar ruhini, o'simliklar ruhini, ma'danlar va ashyolar ruhini. Shuningdek, farishtalarni yaratadi va Shu tariqa malakut olami dunyoga keladi.

Shundan so'ng Tangri taolo o'z nigohini quyqaga qaratadi va quyqa erib, mag'zi va qaymog'i ajralib chiqadi. Undan Arshni yaratadi. Shu yo'nalishda davom etadi va quyidagi jismlar yaratiladi: kursi, ettinchi osmon, oltinchi osmon, beshinchi osmon, to'rtinchi osmon, uchinchi osmon, ikkinchi osmon, birinchi osmon, olov, havo, suv, tuproq, boshqa jismlar. Mulk olamining yaratilishi Shu bilan tugallandi. Mulk va malakut olamida jami yigirma sakkizta narsa yaratildi.

Aziziddin Nasafiyning yozishicha, ruh darajalari va jism darajalarining har biri o'z o'zidan maqom topdi: Arsh – payg'ambarlar ruhining maqomi, kursi – ululazm payg'ambarlar ruhining maqomi, ettinchi osmon – mursal payg'ambarlar ruhining maqomi, oltinchi osmon – avliyo ruhi maqomi, beshinchi osmon – hakimlar ruhi maqomi, to'rtinchi osmon – zohidlar ruhi maqomi, uchinchi osmon – taqvo ahli ruhi maqomi, ikkinchi osmon – taqvo ahli ruhi maqomi, birinchi osmon – iymonlilar ruhi maqomi. Allomaning aytishicha, osmonning to'qqiz darajasi Shu erda tugaydi va qolgan – odamlar, hayvonlar, o'simliklar hamda jismlar ruhlari erda qolishadi.

¹⁹¹ O'sha asar, 51-bet.

¹⁹² Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b. -62-bet.

¹⁹³ Nasafiy Aziziddin. Zubdat-ul haqoyiq - / Haqiqatlar qaymog'i / N.Komilov tarj. – T.:Kamalak, 1996. - 56 b. – 7-bet.

¹⁹⁴ O'sha asar, 7-bet.

Aziziddin Nasafiy Shu o'rinda "uruj va nuzul" konsepsiyasini ilgari suradi. Unga binoan, har qanday kishi o'zini va o'zliginitanish, Robbisini anglash barobarida ruhan uruj qilishi, Yani ko'tarilishi mumkin. Biroq har qanday odamning o'z manzili-maqomi borki, u aslo bu maqomdan Yuqoriga ko'tarila olmaydi. Har qanday odamning eng Yuqori maqomi beshinchi osmongacha bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, jiddu jahd bilan, Allohning inoyati bilan beshinchi osmongacha ruhan ko'tarilish mumkin. Shunki oltinchi maqom payg'ambarlar maqomi hisoblanib, bilamizki, dunyoga boshqa payg'ambar kelmaydi. Bu degani kishi harakat qilib o'zining asl maqomigacha borishi mumkin, Shu bilan xalqa yopiladi. Xalqa yopilgach, ko'tarilishning iloji yo'q. Inson intilar ekan, yo'lda to'xtab qolishi mumkin, biroq o'z maqomidan yuksakroqqa chiqolmaydi.

Ruhlar va jismlar olami (mulk va malakut) yaratilgach, ma'dan, o'simlik, hayvon yaratildi va nihoyat Odam yaratildi.

Shu o'rinda Imom Abu Hanifa mazhabining e'tiqodiga ko'ra, bu maqomlar kasbiy emas, Yani ularni sa'y-harakatlar bilan egallab bo'lmaydi. Bu maqom har bir kishi yaratilganda taqdir etilgan ulushi hisoblanadi. Biroq Nasafiy bu fikrni munozarali deb biladi. Uni shariat ahli aytishini ta'kidlagan holda, hikmat ahlining fikrini ham ta'kidlab o'tadi, Yani, masalan, bilim va boylikka ega bo'lish odamning sa'y-harakatiga bog'liq.

Nasafiyning "uruj va nuzul" ("ko'tarilish va tushish") konsepsiyasining tasavvufga taalluqli joyi borligi uchun biz bu masalaga batafsilroq to'xtalmoqchimiz. Demak, inson ruhi (agar u iymonli bo'lsa) o'zining maqomiga ko'tarilishi va Yana qayta pastga tushishi mumkin ekan. Bu o'rinda tabiiy o'lim sodir bo'lgach, marhumning ruhi uchib boradigan maqomat nazarda tutilayapti. Biroq allomaning yozishicha, "anbiyo va avliyolarning uruji tabiiy o'lim yuz berganga qadar sodir bo'ladi. Boshqalar tabiiy o'limdan keyin ko'radigan narsalarni ular tabiiy o'limigacha ko'radilar. ...Modomiki, odamlarning pardasi ularning jismi ekan, ruh jismdan chiqqan paytda uning oldida hech bir parda – to'siq turmaydi. ...Avliyolarning uruji esa bir xildir – ular faqat jismdan ajralgan ruh orqali ko'tarila oladilar"¹⁹⁵.

"O'lmasdan turib o'lish" hadisining sharhlaridan biriga to'qnash keldik, Yani solik Shunday bir ruhiy-psixologik holatga tushadiki, uning ruhi ma'lum muddatga tanadan chiqib, yuksaklikka uruj qiladi va boshqalar o'lgandan keyin ko'radigan narsalarni ko'radi. Bu holat Allohning ulug' bir ne'mati hisoblanadi va buni odamlar bilganlarida edi, ular tun-kun ibodatda bo'lishardilar, jiddu-jahd qilgan bo'lardilar.

Aziziddin Nasafiy solikka uchta narsaga ahamiyat berishi kerakligini ta'kidlaydi. Ular – suluk (tariqat yo'li), jazba (ishq) va uruj (ko'tarilish). Sulukka xos narsa harakat, intilish bo'lsa, jazbaga xos narsa – tortilish, zavqu-shavqdir. Nihoyat urujga xos narsa – karam, sahovat deb hisoblaydi alloma. Bundan tashqari, solikning ruhi tanadan chiqib, ko'p narsalarni bilib, Yana qayta tanaga kirishini solikning ilmal yaqiy martabasidan aynal yaqiy martabasiga o'tishi deb baholasa ham bo'ladi.

Shunday qilib, biz Yuqorida Aziziddin Nasafiyning ruh to'g'risidagi fikrlarini tahlil qildik. Uning fikrlaridan ikki xil holatni farqlash mumkin: birinchisi, solikning tirikligida ruhi tanasidan chiqib, ma'lum muddat davomida ko'plab ma'lumotlarni qo'lga kiritib, Yana qayta tanaga kirish (xuddi Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning me'rojidek), ikkinchisi, har qanday kishining tabiiy o'limidan keyin to'qiyomatgacha ma'lum makonda bo'lib, tag'in qiyomatda tanaga kirishi. Ikkala holatda ham ruhning alohida sifatleri namoyon bo'layapti.

Aziziddin Nasafiyning "uruj va nuzul"konsepsiyasi bevosita tasavvufdagi "sayru-suluk" nazariyasi bilan bog'liq holat bo'lganligi bois biz Shu o'rinda qisqacha Shu masalaga e'tiborimizni qaratamiz.

"Sayr" va "suluk" so'zlari lug'atda ketmoq, bormoq, yurmoq, kirmoq degan ma'nolarni bildiradi. Tasavvuf ta'limoti va amaliyotida solik tanlagan yo'lning boshidan to so'ngigacha, Yani visol maqomigacha (bu yo'l har xil tariqatda har xil berilgan) bo'lgan chegaragacha solikning ruhoni bosib o'tgan yo'lga (ruh safariga) sayru-suluk deb ataladi. Solik o'zi tanlagan

¹⁹⁵ O'sha asar, 12-bet.

tariqat asoslari doirasida ibodat, duo, riyozat, mujohada, xilvat, tafakkur, tazakkur (zikr) va hokazo amaliy unsurlar Yordamida o'z ruhini tadrijiy holda haqiqatga qarab elta boradi. Bunda qalbning soflashishiga xalaqit beruvchi va ilohiy haqiqatga erishishga to'sqinlik qiluvchi pardalarni yirtib, o'z ruhini asliy o'zligiga etkazishga intiladi.

Sayru suluk ruhning ruhoniyl safari bo'lganligi bois uni his qilish mumkin, xolos, aslo ta'riflab bo'lmaydi. Ma'lum ma'noda, bu ruhiyl safari individual xarakterga ega, Yani har bir solikning o'ziga xos yo'li bo'lishi mumkin. Shunki bu ruhiyl safarda har bir solikning individual psixologik xususiyatlari ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Dj.S.Trimingem Shunday deb yozadi: solikning ruhiyl safari "aksariyat hollarda u individuumning temperamenti va tug'ma e'tiqodi bilan belgilanadi va bu safari tanlanganlar uchun mavjud"¹⁹⁶. Demak, ruhiyl safarda solikning individual psixologik xususiyatlari (xakteri, temperamenti, nerv sistemasining tipi, qobiliyati va h.k.) muhim ahamiyati kasb etadi va ruhiyl safarga yo salbiyl, yo ijobiyl ta'sir ko'rsatadi.

Sayru sulukning har bir tariqat uchun ham turli xil bo'lishligini ta'kidlab o'tishni joiz deb bildik. Ruhiyl safarning bunday o'ziga xosligi solik tomonidan qanday tariqat yo'lining tanlanishiga bog'liq.

Shunday qilib, ruhiyl safarning individual xakterda bo'lishiga qaramasdan uning umumiy sifatleri, qonun-qoidalari to'g'risidagi tasavvuf arboblari o'z fikrlarini berib borishgan. Ularga tayangan holda biz quyida ruhiyl kamolotning bosqichlarini ko'rsatib o'tamiz. Ruhiyl safari chog'ida solik to'rtta martabaga ko'tariladi. Quyida so'zimiz Shu haqda bo'ladi.

1. Sayr illalloh martabasi (Alloh tomonga sayr). Bu martabada solik nafs istaklarining razilligini anglab, ulardan yuz o'giradi va haqiqiyl taslimiylatni qo'lga kiritadi. Bu qanday kechadi? Birinchidan, Allah buyurmagan ishlardan qochiladi va buyurgan ishlarga mutlaqo yuz buriladi. Ikkinchidan, solik Allahning haqiqatini to'sib turuvchi pardalarni ko'tarib, Allahga tavajjuh etadi. Bunda ruhiyl safarning so'nggida "ufuqi mubiyn" maqomiga erishiladi, Yani oliyl ilmlarga ega bo'linadi, go'zal xulqlar bilan bezaniladi va "fanofilloh" maqomiga erishiladi. Bu martabaning o'ziga xos tomoni Shundaki, solik ruhida ilohiyl ismlar tajalli etadi.

2. Sayri filloh (Alloh olamiga sayr). Bu martabada ruh Allahning sifatleri bilan sifatlanadi, ilohiyl axloqlari bilan axloqlanadi. Bu maqom "ufuqi a'lo" deb ataladi, Yani ruhda bashariyl sifatlar yo'qolib, yolg'iz ilohiyl fayz qoladi. Laduniyl ilm ham Shu martabada qo'lga kiritiladi. Bu martabaning Yuqori darajasi "baqo" maqomiga to'g'ri keladi.

3. Sayr ma'olloh (Alloh bilan sayr). Bu martabada zohir-botin, obid-ma'bud ikkiliklar barham topadi va solik qalbi "ahadiylat" maqomiga erishadi. Bunga "qoba qavsiyni av adno" maqomi ham deyiladi. Bu maqomda solik qalbida turli tuman ziddiylatlar bartaraf etiladi, u valiylik bosqichiga ko'tariladi va solikda aynul jam holi paydo bo'ladi.

4. Sayr anilloh (Allohdan sayr). Bunda solik ruhi vahdat olamidani kasrat olamiga qaytadi. Maqsad – endi solikning ruhi Shunday martabaga erishadiki, bunda u ilmi toliblarga tarbiya va irshod qilish huquqini qo'lga kiritadi. Haq olamidani tag'in xalq olamiga qaytishi ham Shu maqsadda bo'ladi. Bunda solik ruhi "baqo ba'dal fano" maqomida bo'lib, vahdatda kasratni, kasratda vahdatni ko'ra boshlaydi.

Shu o'rinda ruhiyl safarning o'ziga xos talablari mavjudki, ularga quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Birinchidan, bu ruhiyl safari garchi u faqat solikka xos individual bo'lsada, komil rahbarning nazoratisiz amalga oshmaydi. Ikkinchidan, solik bu ruhiyl safarni amalga oshirishda ilohiyl ishqqa ega bo'lishi shart. Ishqsiz, muhabbatsiz bu safarga chiqib bo'lmaydi. Solik qalbida ixlos va ehson mujassamlashgan iymon nuri porlamog'i shart. Bu Shu deganki, ruh safari ilm bilan emas, psixik hollar bilan amalga oshiriladigan safari.

N.Komilov o'zining "Tasavvuf" kitobida solik ruhi to komillikka erishganча ma'lum bosqichlar va pog'onalardan o'tib boradi, degan fikrni ilgari suradi. Bu ruhoniyl-ma'naviyl safari natijasida solik mutlaqo boshqa odamga aylanishini ta'kidlaydi olim. Shu bilan birga misol tariqasida Abdulloh Ansoriylning "Manozil us-soirin" asaridan olingan haq yo'liga kirgan soliklar bosib o'tadigan manzillar to'g'risida ma'lumot beradi: "Abdulloh Ansoriyl nazdida o'nta

¹⁹⁶Trimingem Dj.S.Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A.Staviskoy, pod redaksiyei i spredisl. O.F.Akimushkina. – M.:Nauka. Glavnaya redaksiya vostochnoy literatury, 1989. – 328 s.-164-bet.

holatdan iborat bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: 1. Ibtido (boshlanish). 2. Bob (eshik). 3. Muomala. 4. Hamida (maqtagan) axloq. 5. Usul. 6. Avdiya (Vodiylar). 7. Ahvol. 8. Valoyat (valilik). 9. Haqoyiq (haqiqatlar). 10. Intiho (yakun) Yoki visol¹⁹⁷.

E'tibor berib qaralsa, Yuqoridagi maqomlar (manzillar) ruh holatlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Abdulloh Ansoriy o'zining asarida har bir holatda solik bajarishi zarur bo'lgan yumushlarning o'ntasini tartib bilan yozadi: Masalan, Ibtido manzili quyidagilarni o'z ichiga oladi: “yaqzo (uyg'oqlik), tavba, muhosib (hisobga olish), inobat (tazarru'), tafakur, tazakkur (zikir tushish), e'tisom (gunohdan saqlanish), firor (halqdan qochish), riyozat, samo¹⁹⁸, “huzn (hazinlik), xavf, shafqat, xuShu' (taslim), ixbot (sirlilik), zuhd, vara', tabattal (go'shanishinlik),umid, rag'bat holatlarini qamraydi¹⁹⁹. Xuddi Shunday har bir har bir manzilga o'nta sifat, jami yuzta sifat sanab o'tiladi. Solikning ruhi mana Shu o'nta manzildan o'tadi va har bir manzilda keyingisiga o'tguncha o'ntadan holdan holga sakraydi. Shu taqlid solik ruhi tadrijiy rivojlanadi. N. Komilov bu haqda Shunday deb yozadi: “Bora-bora solik ruhi alohidalikka ruju' etib, farqdan ja'mga qarab intiladi va nafsni unitib, butkul Rabbi bilan mashg'ul bo'ladi. Oxir oqibat esa haqiqatlarni kashf etish martabasiga ko'tariladi va vasl maqomiga etadi²⁰⁰.

Shunday qilib, biz Yuqorida ruh haqida, unga xos bo'lgan sifatlar haqida, ruhning darajalari haqida, ruhning ruhoniyyat-ma'naviy safari va h.k.lar haqida Yoritilgan manbalarni qisman ko'rib chiqdik hamda ruh to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ldik. Endi ruhning o'zining tuzilishini (ierarxiyasini) va uning solikning ma'naviy-ruhiy taraqqiyotida tutgan o'rni masalasini ko'rib chiqamiz. Buning natijasida umid qilamizki, ruh to'g'risida Yanada muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritamiz.

Ma'lumki, jismoniy tana hayoti yo'lining ma'lum bosqichlari mavjud: bolalik, o'smirlik, yoshlik, etuklik va keksalik. Shunga o'xshash inson ruhining ham ma'lum tadrijiy bosqichlari mavjud bo'lib, ular tasavvuf ta'limoti va amaliyotida manzillar deb ataladi.

Arab tilida bunday manzillar “maqom” (ko'plikda maqomat) deb ataladi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi “to'xtash Yoki dam olish joyi” degan ma'noni beradi. Biroq bu so'z ishlatilishiga qarab, kontekstdan kelib chiqqan holda Yana ko'plab ma'nolarni beradi: yashash joyi, xonadon, uy, to'xtash, o'zini hurmat qilish, lavozim, holat, musiqaviy ton, savol va h.k. Ruhning ma'lum maqomda bo'lishligi Yuqoridagi ma'nolarni va Yana boshqa ma'nolarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Inson tug'ilgan paytida ma'lum maqomda tug'iladi va umri davomida boshqa maqomatlarga ham o'tishi mumkin. Biroq inson ruhi birorta ham maqomda bo'lmasligi mumkin emas. Biz ruh maqomlarini o'sib borish tartibida quyida keltiramiz:

- “1. Maqom an-Nafs – egotizm manzili.
2. Maqom al-Qalb – qalb manzili.
3. Maqom ar-Ruh – sof ruh manzili.
4. Maqom as-Sirr – ilohiy sirlar manzili.
5. Maqom al-Qurb – Allohga yaqinlik manzili.
6. Maqom al-Visol–visol (etishish) manzili²⁰¹.

Biz doimiy holda ruhimizni rivojlantirishga harakat qilamiz. Qaysi manzilda ruhimiz turganligiga bog'liq holda biz qay darajada ruhimizni takomillashtirganligimiz ayon bo'ladi. Shunday qilib, biz quyida ruhimizning safari manzillarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Har qanday odam tug'ilganda nafs maqomida tug'iladi. YAngi tug'ilgan chaqaloq to'liq jismoniy ehtiyojlar ta'sirida bo'ladi. Bolani asosan birlamchi ehtiyojlar, aniqrog'i, biologik

¹⁹⁷ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. – T.: YOZuvchi, 1996. – 272 b.- 33-bet.

¹⁹⁸ O'sha asar, -33-bet.

¹⁹⁹ O'sha asar, -33-bet.

²⁰⁰ O'sha asar, -34-bet.

²⁰¹ Shayx Xakim Mounuddin CHishti. Sufiyskoe selitel'ystvo. - SPb “Dilya”, 2002. -208s.- 41-bet.

ehtiyojlarning qondirilishi qiziqtiradi²⁰². Egotizm bosqichida bolada mustaqil fikr yuritish uncha shakllangan bo'lmaydi. Bu qobiliyat ota-onalar va jamiyat tomonidan rivojlantiriladi.

Ta'kidlash joizki, inson bir umr yashab, bu maqomdan Yuqoriga ko'tarilmasdan o'tishi mumkin. Biroq bu maqomda uzoq vaqt qolib ketishlik insonni turli xil ruhiy va jismoniy kasalliklarga olib keladi. Shayx Hakim Mo'inuddin Chishtiy har qanday insonning bu bosqichdan o'tib, keyingi bosqichga borishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning e'tiroficha, "Egotizm manzilidan chiqish uchun inson o'zining egosini va uning junjushlarini toblash va intisoga solish kerak bo'ladi. Bu o'zida iroda kuchini, mas'uliyatni, o'zgalarga hurmat qobiliyatini, hamdardlikni, xushmuomalalikni va Shunga o'xshash sifatlarni rivojlantirishni anglatadi. Inson o'z nafsini nazoratga ola bilsa va bu maqomdan voz kechsa, u Qalb maqomiga o'tadi"²⁰³.

Qalb maqomidagi kishilar saxovat va marhamat bilan ajralib turishadi: ular o'zlariga ham, o'zgalarga ham marhamatlidir. Biroq ular baribir o'zlarida psixik va jismoniy muammolar bilan yashaydilar. Ulardagi muammolarga diqqatni jalb qilish qobiliyatining sustligi, xotiraning zaifligi, omadsizliklardan qo'rqish, hissiy jihatdan o'zini boshqara olmaslik, o'zgalarning his-tuyg'ulariga e'tiborsizlik va h.k.

Shu o'rinda ta'kidlamoqchi edikki, nisbatan Yuqoriroq manzillarga ko'tarilish uchun albatta ustoz (shayx murshid) zarur. Agar inson Qalb maqomidan Yuqoriroq maqomga ko'tarilsa, ruh maqomiga ko'tariladi. Buning uchun u maxsus tajribalar Yordamida o'zida hamdardlikni, bag'rikenglikni va oldindan ogoh bo'lishni takomillashtirganlar. Bu bosqichda o'z o'zini nazoratga asosiy e'tibor qaratiladi. Solik zikrga ko'p berilishi va ilohiy haqiqatga intilishi zarur.

Sir maqomidagi holat buyuk ilohiy sirni o'zida mujassamlashtiradi. Bu maqomga o'tgan soliklar insoniy egoizmdan foniy bo'ladi. Ularni dunyoviy narsalar mutlaqo qiziqirmaydi. Bu bosqichda hol asosiy rolb o'ynaydi.

Qurb maqomida solik Allohning ilohiy fayziga yaqinlashadi. Bu maqomda solik "majub" holiga tushadi. Bunday holdagi odamlar odatda dunyoga bo'lgan qiziqishlarini butunlay yo'qotadilar. Ular ilohiy fayzda sarxush va ularning e'tibori ilohiy Ma'Shuqa bilan band.

Visol maqomida solik ilohiy tajallini o'z qalbida his etadi. Bu maqomga mashq va intilishlar bilan etib bo'lmaydi. Bu – ilohiy inoyat va lutfning natijasidir. Bunday kishilarni valiy deb atashadi. Ularga inson hayotidagi barcha hodisalarga bevosita ta'sir qilish va ularni nazorat qilish mexanizmlari ma'lum. Bunga ular Allohning ilhomi Yordamida erishadilar.

Ruhning martabalari bo'yicha Yana bir o'ziga xos tasavvufona yondaShuv mavjud bo'lib, unga ham alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Biz Yuqorida nafslarning to'rt xili haqida yozganimizda to'rtinchi nafsni – insoniy nafs deb atagan edik. Yoki nafs notiq ham degan edik. Bu insonlarga berilgan nafs bo'lib, uni Allohning amr olamidan deb atagan edik. Mana Shu nafs notiqaning botinini – ruh deyishadi. Ruhning martabalari haqida Usmon Turar Shunday deb yozadi: "Nafsi notiqaning botini "ruh", ruhning botini "sir", sirning botini "sirrus sir", uning botini "xafiy", uning botini "axfo"dir. So'fiylar ruhga oid bo'lgan bu martabalarning har biriga "latifa" (iltifot, latif tuyg'ular) deya nom berganlarva qalb (nafsi notiq), ruh, sir, sirrus-sir, xafiy, axfolardan iborat bo'lgan bu latifalarning barchasi umumiy "latoifa sitta" (etti latiflik) deyiladi"²⁰⁴.

Shayx Muhyiddin Urgutiy latifalar to'g'risida Shunday deb yozadi: "Bilginki, Hazrati Imomi Rabboniy, mujaddidi alfi soniy quddisa sirruhu nazdida iymon o'n latifadan tarkib topgan. Olami amrdan – besh latifa. Olami amr latifalari: Qalb, Ruh, Sir, Xufo, Axfodan iborat"²⁰⁵. Allomaning fikriga ko'ra, bu latifalar Alloh taoloning lomakon olamidan hisoblanadi va ular insonga omonat ko'rinishida berilgan. Tana va nafs istaklari insonni aslidan

²⁰² Ba'zi chaqaloqlar bundan mustasno, masalan, Muso (a.s.)ning och bo'lsada hech kimning emmasligi va h.

²⁰³ O'sha asar,-44-45-betlar.

²⁰⁴ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqloq", 1999. – 180 b. – 88-bet.

²⁰⁵ Urgutiy, Shayx Muhyiddin. Maktubot. – T.: "Movarounnahr", 2006. – 187 b. – 104-bet.

uzoqlashtiradi va u o'z aslining pok va musaffo bo'lganligini unitadi. Shunda inson o'z asliga qaytish uchun bir piri komilga robita qilishi, Yani bog'lanishi zarur.

“Olami xalq latifasi nafs va to'rt unsurdan iborat: Bu latifalarning manbai ham oldingi manbadir. Nafs bilan qalb asl (manba)ga sherikdir: Havo – ruh latifasi bilan, Suv – sir latifasi bilan, O't – xufo latifasi bilan, Tuproq – axfo latifasi bilan birga. Xufo va axfo (latifasi) Haqning xoslariga maxsusdir”²⁰⁶. Shu o'rinda bir narsaga e'tiboringizni qaratishingizni so'rar edik. Tuproq xalq olamida eng quyida tursa-da, amr olamining eng yuksak martabasiga to'g'ri kelayapti. Bu haqda Shayx Muhyiddin Urgutiy Shunday sharh beradi: “Tuproq olami xalqning quyisi. Uning pastligi olami amrda, uning kamoli uluhligi Shundandir”²⁰⁷.

Biz quyida har bir latifaning mohiyatiga alohida to'xtalib o'tamiz. Olami amrning beshta latifasidan birinchisi latifai qalb deb ataladi. U barcha latifalardan avvali va undan ko'zlangan maqsad – nafsdir. Bu latifani asl latifa deb atasa bo'ladi. Bu latifa Odam alayhissalomga mansubdir.

Qalbni biz odatda Alloh taoloning ilohiy nuri tushadigan makon deb hisoblaymiz. Shuning uchun uni poklash va tozalash lozim. Bunday ishni amalga oshirishning psixologik tajribasi mavjud bo'lib, bu haqda Urgutiy hazratlari Shunday deb yozadi: ”Solik nafasini ichiga olib, tilini komiga yopishtirib, his-a'zolarini tashqari dunyoning narsalarini his etishdan saqlab, uni Alloh qudratlarini mulohaza etish ila mosuvodan yuz o'girib, o'z qalbini oynasini Sayidi Bashar Muhammad (s.a.v.) qalblarining ro'baro'sida tutib, Allohning muborak ismi mafhumini bilmoqlikka rioya qilsinlar. U zoti bobarakotning o'xshashi yo'q, tengi yo'q sifatlarga mavsum va nuqsonlardan pokligini xotirlarida mulohaza aylasunlar”²⁰⁸. Biz atayin mazkur sitatani berdik. Sababi Urgutiy hazratlari ta'riflagan ishlar - psixologik tajriba hisoblanib, unda quyidagi psixologik jarayonlarning solik tomonidan boshqarilishi nazarda tutilayapti: nafasni boshqarish, his-tuyg'ularni boshqarish, xotirani boshqarish, tafakkurni boshqarish, tasavvurni boshqarish va h.k. Shuningdek, solikdan xulq-atvorni ham boshqarish talab qilinadi:”Solik bu maqomda o'zini Xudoning nazdida nihoyatda ojiz, faqir-u, notavon tutib, qalbi ila xuShu' aylab” ibodatda bo'lsin”²⁰⁹.

Bu maqomda qalb fanosi holi kuzatiladi. Bunda solik qalbida ilohiy ishlar tajalliysi paydo bo'ladi. Bunday holni boshidan kechirayotgan solikning qalbida dunyodagi barcha ishlarning haqiqiy foili, Yani harakatga keltiruvchisi tanho Alloh taolo ekanligi muShohada qilinadi.

Bu ishlarning natijasi o'laroq qalbdagi paydo bo'ladigan hol “jazb” deb ataladi. Bunday Haq taolo fe'llarining solik qalbida tajalli etishi bu solikning Odam alayhissalom valoyatiga vosil bo'lganidan darak beradi va uni “Odami-yul-mashrab” deb ataydilar. Bu maqomda solik qalbida paydo bo'lgan jilo “tajallii af'ol” deb ataladi.

Shundan so'ng solik “Latifai Ruh” maqomiga o'tadi va bu maqomda solik biz ko'radigan va biladigan hech bir maxluqot Allohga o'xshash emas va o'xshatilmaligini mulohaza etadi. Shuningdek, solik tazarru' qiladi. Natijada solik qalbini ilohiy muhabbat istilo qiladi. Ruh Allohning sifati subutiyatida fano bo'lgan solikning barcha sifatlari mahv bo'ladi, undagi barcha narsa Alloh taologa mansub bo'lib qoladi. Latifai Ruhning bu holini “Mukoshafa” deyiladi va bu solikning Ibrohim alayhissalom valoyatiga vosil bo'lganidan darak beradi.

Shundan so'ng solik “Latifai Sir” tomon yuzlanadi va u o'zini ojizu-notavon tutib, Alloh taologa iltijolar qiladi. Bunday ibodatdan paydo bo'ladigan natija “Sukr” deb ataladi. Bunda aslga fano bo'lish holati kuzatiladi va solik qalbida Alloh taoloning ilohiy zot shavkati va azamatlari jilolanadi. Bu bosqichda solik ilm-ul-yaqiyndan ayn-ul-yaqiynga o'tadi.

Bunday martabaga ko'tarilgan solik Muso valoyatiga vosil bo'ladi va u “Musavi-yul-mashrab” deb nomlanadi.

²⁰⁶ O'sha asar, 104-bet.

²⁰⁷ O'sha asar, 104-bet.

²⁰⁸ O'sha asar, 133-bet.

²⁰⁹ O'sha asar, 133-bet.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, solik qalbida paydo bo'ladigan tajallii sifat maqomlari kasbiy hisoblanadi, Yani solikning jiddi jahdi, mehnatu harakati bilan erishishi mumkin. Qolgan maqomlar vahbiy, Yani ilohiy inoyat orqali qo'lga kiritiladi.

Shundan keyin solik "Latifai Xufo" maqomiga o'tadi va hol tili va minglab tazarru' bilan Alloh taolodan eng katta dushmani – nafsning xatarlaridan panoh so'raydi. Natijada "Istig'roq" deb atalgan hol dunyoga keladi. Bu maqomda Allohning ahadiyat sifati namoyon bo'ladi. Bunday martabaga erishgan solik Iyso valoyatiga vosil bo'ladi va unga "Iyso-yul-mashrab" deb nom beriladi.

Nihoyat solik, Alloh nasib etsa, o'z tavajjuhini "Latifai Axfo"ga qaratadi. Bunda solik Alloh taoloning muqaddas zotini barcha ayblardan pok ekanligini mulohaza etadi. Natijada nur to'liq solik qalbini egallaydi. Solik bu maqomda Alloh taoloning sifatlari bilan axloqlanadi. Bunday nasibaga ega bo'lgan solik Muhammad (s.a.v.) valoyatiga vosil bo'ladi va u "Muhammadi-yul-mashrab" nomi bilan nomlanadi.

Shundan so'ng bu ruhiy safarga so'nggi nuqta qo'yiladi, Yani solik kamoli himmat va inoyat bilan, o'zini gunohlar qilishdan tiyib, muhofaza qilib "Latifai nafs" tomon yuzlanib, zikr qiladi va Alloh taoloning ulug' zotini tafakkur qiladi. Buning natijasi o'laroq solikda "Mahviyat" deb nomlangan hol paydo bo'ladi. Bu eng oliy maqom hisoblanib, bundan Yuqori maqom bo'lmaydi. Solik his qilgan maqom faqat unga ayon, u buni his qiladi, xolos, u ta'rif qilinmaydi.

Mana biz ruh to'g'risidagi ma'lumotlarni qisman ko'rib chiqdik va bizda ruh to'g'risida ma'lum tasavvur uyg'ondi. Endi bevosita biz Shu paytgacha sharhlaganimiz ruh bilan psixologiya fani o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqishga o'tamiz.

Ma'lumki, ruh inson tanasiga hali u ona qornidagi paytidayoq kiritilayotgan ilohiy substansiya ekan. Ruh Shu paytdan boshlab to inson o'ladigan kungacha vujud qo'rg'onida yashashga mahkum etilgan "mahbus" ekan. Uning Shu hayoti dunyodalik paytlarida vujud (tana, badan) bilan mujodalasi amalga oshar ekan. Ruh bir umr oxirat safariga otlangan holda yashaydi. Vaqti etgach, badan o'lgach, u o'lmaydi, u go'yo zindondan ozod bo'lgan mahbusdek ozodlikka chiqadi va to qiyomatda tanaga qayta kirguncha o'zining ilohiy manzilida yashaydi. Bu haqda Abu Homid G'azzoliy shunday deb yozadi: "Bilg'ilki, insoniy ruhning haqiqati qolipsiz, zotida qoyimdir. O'z zotining qiyomi va xos sifatlari aslida qolipga hojati yo'qdir. Va o'lim ruh haqiqatini nobud qilolmas. Balki o'lganning ma'nosi – insoniy ruhning qafasdan chiqishidir"²¹⁰.

Biz endi psixologiya fani haqida fikrlarimizni izhor etamiz. Psixologiya eng murakkab fanlardan biri hisoblanib, uning o'rganadigan predmeti psixikadir. Psixika esa bosh miya faoliyatining funksiyasi. Bosh miya o'z o'rnida tuzilishi va faoliyati qonuniyatlari bo'yicha dunyodagi eng murakkab organizm hisoblanadi. Psixologik hodisalarning o'zi ham ko'p qirrali bo'lib, psixikaning ko'plab qonunlari hali o'rganilmagan, kashf etilmagan. Psixikaga psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar, psixik tuzulmalar va ijtimoiy psixologik hodisalar va jarayonlar kiradi. Ma'lumki, insonda o'lim hodisasining belgilaridan biri bosh miyaning o'z faoliyatini to'xtatishidir. Demak, bosh miya "o'lar" ekan, tabiiyki uning faoliyati ham "o'ladi". Bu haqda Abu Homid G'azzoliy Shunday deb yozadi: "Va lekin his va harakat va sezgilarkim, dimog' va a'zolar vositasi birla edi, bular botil bo'lur"²¹¹. G'azzoliy hazratlari aytgan hislar, sezgilar, ichki (psixik) harakatlar (ular ma'lum a'zolar vositasida amlaga oshiriladi) botil ekan (foniy bo'ladi, o'ladi). Demak, psixologiya fanining predmeti ruh emas ekan. Shu nuqtai nazardan, psixologiya fani bilan ruh o'rtasidagi aloqa bevosita emas, balki bilvosita ekan. Demak, psixologiya fanining predmeti ruh emas. Shu nuqtai nazardan, psixologiya fani bilan ruh o'rtasidagi aloqa bevosita emas, balki bilvosita kechadi. (Bizning fikrimizcha, ruhShunoslik deb atash mantiqan noto'g'ri. Ikki vajhdan noto'g'ridir: Birinchidan, psixologiyaning predmeti ruh emas psixika ekan. Shuning uchun ham fanning "psixologiya" deb atalishi to'g'riroqdir. Shunki bu nomlanishda psixologiyaning predmeti fan nomida bo'rtib chiqib turibdi. Ikinchidan, ruh Qur'oni karimda chuqur tahlil qilish, o'rganish taqiqlangan soha hisoblanadi. ("Qul ir-ruhi min

²¹⁰ G'azzoliy Abu Homid. Kimyoi saodat: (Ruh haqiqati). –T.: "Adolat", 2005. - 412 b. - 100-bet.

²¹¹ O'sha asar, 102-bet.

amri rabbi”) Agar “ruhShunoslik” deb nomlanadigan bo’lsa, mazkur ilohiy taqiqni buzgan bo’lamiz).

Ma’lumki, tana va nafs – hayvoniy ruh deb ataladi, ilohiy ne’mat hisoblangan ruh esa insoniy ruh deyiladi. Ularning halok bo’lishi haqida Abu Homid G’azzoliy Shunday deb yozadi:”Va lekin g’oyib bo’lmoq ikki tariqatda bo’lur. Biri hayvoniy ruh o’lmak birla, Yana biri insoniy ruhning sayr etmog’i birladur”²¹². Abu Homid G’azzoliy fikrlariga tayangan holda aytishimiz mumkinki, psixologiya fani ruhni bevosita o’rganmaydi. Savol tug’iladi: ular o’rtasida qanday aloqa bor? Biz Yuqorida aytdikki, psixologiya fani ruhni bilvosita o’rganadi. Bu holatni quyidagicha tushuntirish mumkin: iroda psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Sabr esa psixologik tushuncha emas, etik-axloqiy tushuncha hisoblanadi. Sabrning asosida esa iroda yotadi. Irodali odam – sabrli odamdir. Demak, ruh hodisalari psixologik hodisalar asosiga qurilar ekan. Soliklar (tariqat yo’liga kirganlar) haqida gapirdik. Ularning tariqat yo’lidagi harakatlari, jiddu jahdlari, ma’lum maqomlarga qanchalik tez ko’tarilishlari Shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga ham bog’liq holda kechadi. Tasavvufdagi ruhiy safarda solik psixologiya fanining tushunchasi bo’lgan o’z o’zini anglashga taYanadi. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Shu o’rinda yana bir masalaga e’tiborimizni qaratmoqchimiz. Radiy Fish o’zining “Jaloliddin Rumi” deb nomlangan kitobida yozadi:”Sovet olimlari, ayniqsa taniqli eronShunos E.E.Bertel’s tadqiqotlari Shuni ko’rsatadiki, so’fiy Shayxlar aslida eksperimental psixologiya bilan Shug’ullanishgan. O’z-o’zini qat’iy cheklash – muroqaba va o’z-o’zini kuzatish – muhosaba yo’li bilan maqsadga muntazam intilish orqali ular o’zlarida bukimas iroda, o’limga ham tik kulib boquvchi jasorat kabi sifatlarni, boshqalarning “o’y-xayollarini o’qiy olish”, o’zida va o’zgalarda gipnotik holatlarni yuzaga keltirish malakasini tarbiyalashgan”²¹³. Darhaqiqat, so’fiylar foydalangan usullar psixotexnik usullar hisoblanadi. Biroq psixotexnik usullarning ham, o’z-o’ziga ta’sirning ham, psixologiyaning ham ta’siri ma’lum chegaragachadir. Agar e’tibor bersangiz, ruh safarining beshta latifalaridan uchtasini kasbiy, ikkitasini vahbiy dedik. Bu degani ruh safarining uchtagiga psixotexnik usullar yordamida erishish mumkin. Lekin qolganlarini Alloh o’zining lutfi bilan beradi. Demak, mazkur fikrdan ikkita xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, ruh psixologik qonun-qoidalarga bo’ysinmaydi va uning o’ziga xos qonun-qoidalari mavjud; ikkinchidan, bugungi psixologiya fanining metodologik arsenali ruh bilan psixika o’rtasidagi munosabatlarni Yoritib berish imkoniyatiga ega emas. Psixologiya fanida mazkur munosabatlarni yoritib bera oladigan, dunyoning o’ta murakkab tuzilishga ega ekanligini, hali ruh to’g’risida bilimlarimiz etarli emasligini va nihoyat biz yashab turgan olamda ilohiylikni inkor qilgan holda fanning rivojlanishi mumkin emasligini nazarda tutgan metodologik tamoyillar ishlab chiqilish vaqti etib keldi.

Tasavvuf ta’limoti va amaliyotida kuzatiladigan ruhoniy hodisalarni bugungi kundagi mavjud psixologik metodikalar va tahlil uslublari Yordamida o’rganib ham bo’lmaydi. Masalan, solikdagi fano holini oling. Unga psixologik ta’rif berish mumkin. Biroq har qanday psixologik ta’rif ham (barcha psixik faollikning bir nuqtaga jamlanishi, tafakkur va xayol jarayonlarining to’xtatilishi, his-tuyg’ularning jumbushga kelishi natijasida mantiqiy va ilmiy tafakkurlarning foniy bo’lishi, inson ongi va anglanmaganligi o’rtasidagi chegaralarning olib tashlanishi, solik dunyoviy va uxroviy tajribalarining qorishib ketishi va h.k.) uning mazmun-mohiyatini ochib bera olmaydi. Shunki bu holning bir uchi ilohiyotga borib taqalib qoladi. Bu haqda Jaloliddin Rumi Shunday deb yozadi: ”Shayx “men” va “biz” da’vosidan voz kechdi va uning “men”ligi fano topdi. Borlig’idan hech narsa qolmadi. “O’lishdan oldin o’lingiz” (hadis) hikmati Olloh nurida halok bo’ldi. Endi uning o’zi Ollohning nuri bo’ldi”.²¹⁴ Balki mashq va harakatlar bilan inson o’z borlig’ida hech narsa qoldirmasligi mumkin, biroq uning o’rniga Ollohning nurining kirishi chegarasidan ilohiyot boshlanadi. Xolbuki bu nursiz fano fano bo’lmaydi. Agar Shu talab

²¹² G’azzoliy Abu Homid. Kimyoi saodat: (Ruh haqiqati). –T.: “Adolat”, 2005. - 412 b. – 103 bet.

²¹³ Fish Radiy. Jaloliddin Rumi: tarixiy biografik roman. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. -282 b. -143-bet.

²¹⁴ Rumi Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. – T.:”YAngi asr avlodi”, 2003. – 199 b. – 22-bet.

(shart) bo'lmaganda olamni avliyolar bosib ketgan bo'lar edi. Umuman aytganda, asosida tavhid yotmagan "fano" Yoki ko'zbo'yamachilik hisoblanadi, Yoki jamiyat uchun zarar keltiradigan holga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, ruh nafaqat psixologiya, balki qator fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Bularga-teosofiya, dinShunoslik, tarix filosofiya, etika, estetika, adabiyotShunoslik va h.k. Har bir fan bu ilohiy ne'matni u Yoki bu jihatdan o'rganadi. Asosiy tadqiqot yo'nalishlari ruh bilan tana o'rtasidagi munosabatlarga borib taqaladi va bu munosabatlar inson hayotining mazmunini tashkil etgani bois o'ta muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur munosabatlarni turli xil fan sohalari turli qirralardan turib tahlil qilmoqdalar.

Tomas X.Elmore "Sufizm i psixologiya" kitobida psixologiya fani kamchiliklari va kelajagi haqida Shunday deb yozadi:"Fan sifatida an'anaviy psixologiya asosan o'z intilishlarini sub'ektiv tajribaga emas, balki kuzatilayotgan xulq-atvorga qaratdi. Shu bilan u ixtiyoriy holda o'zining tadqiqot maydoni chegaralarini chekladi. U kvant fizikasida yaqinda topilgan kashfiyotlardan ko'zini yumdi. Bunda Shu narsalar aniqlangan ediki, tadqiqotchining ishtiroki tadqiq qilinayotganning tabiatini o'zgartirib yuboradi. ...So'fizm psixologiyasi o'zida fizikani, metafizikani, epistemologiyani va oliy hayotiy maqsad hisoblangan o'z-o'zini realizasiya qilish uchun texnologiyalar to'plamini mujassamlashtiradi"²¹⁵. Olimning e'tirofiga ko'ra, psixologiya o'z e'tiborini sub'ektiv tajribaga qaratganda ancha keng imkoniyatlarga ega bo'lar edi. Sub'ektiv tajribaga, masalan, so'fiy tajribasi kiradi. Bu – birinchi xulosa. Doktor Tomas X.Elmorening so'zlaridan chiqadigan ikkinchi xulosa Shundaki, tadqiqotchining ishtiroki fizikaviy hodisalar tabiatiga ham ta'sir qilar ekan. Psixik hodisalarni tadqiq qilishda bu ta'sirning qudrati qay darajada bo'ladi? Demak, psixologik tadqiqotlarda mazkur holni inobatga olib qo'yish zarur.

Umumiy xulosa Shundan iboratki, psixologiya hali sub'ektiv tajribani tadqiq qilishning metodologik va metodik arsenaliga ega emas. Psixologiya fani kelajakda Shu muammoni hal qilmas ekan, "psixika ob'ektiv borliqning in'ikosidir" degan, bundan yuz yillar oldin chiqarilgan xulosa doirasida qolib ketishligi kunday ravshan bo'lib qoldi.

Bugungi kunda g'arb (hatto ba'zi Sharq) psixologlari tomonidan tasavvuf ta'limotini Z.Freydning psixoanalizi bilan bog'lashga urinish kuzatilayapti. Bu ham tasavvuf psixologiyasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Radiy Fish Shunday deb yozadi:"G'ayriShuuriy hodisalarni o'rganishda hissiy hayot negizlaridan biri bo'lmish shahvoniyatga ham suyanuvchi hozirgi zamon psixoanalitiklariga o'xshab, so'fiy Shayxlar shariatda rahnamo aql bo'lsa, tariqatda rahnamo muhabbatdir, deb qarashardi. So'fiylar haqiqatni - mahbub, ma'Shuqa, o'zlarini oshiq deb atashlarini eslasak, ularning hissiyotining ma'naviyatga o'tishga imkon beruvchi psixofiziologik hodisa – sublimasiyadan naqadar samarali istifoda etganliklari ma'lum bo'ladi"²¹⁶.

Yuqoridagi fikrlardan to'rtta xulosa berishimiz mumkin. Birinchidan, tasavvuf deb atalgan va minglab yillar davomida shakllangan psixologik ta'limot bilan Z.Freydning Shaxsiy kuzatishlari mahsuli hisoblangan konsepsiyasini qiyoslash mantiqan to'g'ri emas, deb hisoblaymiz. Shunki tasavvuf ta'limoti tayangan sub'ektiv tajriba bilan psixoanalizdagi tajriba bir-biriga mutlaqo mos tushmaydi. Ikkinchidan, psixoanaliz asosida Freydning dahriyona qarashlari yotadi. Tasavvuf asosida esa buning aksi – tavhid yotadi, Yani bu ta'limot tavhid asosida qurilganligi sababli ham qutbning boshqa tarafida turadi. Uchinchidan, Freyd shahvoniyatni tasavvufdagi nafs ammora darajasida o'rganadi va undan zarracha ham chiqib ketmaydi. Tasavvufda nazarda tutilgan muhabbat ilohiy xarakterda bo'lib, konkret bir Shaxsga emas, balki Allohga yo'naltirilgan. Bu nafs komila bosqichidagi nafs xususiyati hisoblanadi. To'rtinchidan, ilohiy muhabbatni sublimasiya deb ta'riflash, ishqning bu ko'rinishiga, ma'lum ma'noda, haqorat deb hisoblasa bo'ladi.

Sharq psixologiyasining asoschilari avvalom bor tasavvuf ahli, so'fiylar edi. Hatto aytish mumkinki, har bir avliyo o'ziga xos psixolog, psixoterapevt, psixokonsultant, psixoanalitik edi.

²¹⁵ Lil Vilokks. Sufizm i psixologiya. – M.- SPb.: "Dilya", 2005. – S. 254. – 6-bet.

²¹⁶ Fish Radiy. Jaloliddin Rumi: tarixiy biografik roman. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. -282 b. – 146-bet.

Ular chiqaradigan xulosalar, ular foydalanadigan muolaja usullari, ular beradigan maslahatlar, ular qiladigan ruhiy tahlillar ruh bilan psixika, ruh bilan tana, psixika bilan tana o'rtasidagi uch yoqlama munosabatlarni inobatga olish nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. G'arb psixologiyasining kamchiligi ruhning inson psixologiyasidagi va fiziologiyasidagi o'rnini ko'ra bilmassligidadir. Doktor Tomas X.Elmor bu haqda Shunday deb yozadi: "G'arb psixologiyasi tana, ego va madaniyat bilan chegaralanish tendensiyasiga ega"²¹⁷.

R.Freydjer va Dj.Feydimen Sharq va G'arbda yaratilgan Shaxs nazariyalarini qiyoslagan holda Shunday xulosa chiqarishadi: "Bu sistemalar (Shaxsning Sharqona nazariyalari – X.A.) haqiqatdan ham ko'plab Shaxsning g'arbone nazariyalaridan qadriyatlarga va axloqiy masalalarga qiziqishning oshishi va ma'lum ma'naviy-ruhiy normalar bilan mos holda hayot kechirish maqsadga muvofiq ekanligiga e'tiborni qaratishi bilan farqlanadi"²¹⁸.

Bugungi kunda sihat-salomatlik asosiy qadriyatlardan biri hisoblangan va barcha psixologik nazariya va kosepsiyalarning e'tibori inson salomatligiga yo'naltirilgan g'arb psixologiyasidan farqli o'laroq Sharq psixologiyasi birinchi o'ringa axloqni qo'yadi. Axloqni inson salomatligining asosida yotadigan unsur sifatida baholaydi. Sharq psixologiyasida axloqiy o'sishning barcha psixik va psixologik muammolarini echish imkoniyatini beradi, degan g'oya ilgari surilsa, "g'arb psixologlari odatda o'sishni egoni mustahkamlash nuqtai nazaridan qaraydi: ko'proq mustaqillikka, mustaqil sa'y-harakatga, o'zini o'zi realizasiya qilishga erishish, nevroitik jarayonlardan qochish va psixikani sog'lomlashtirish"²¹⁹ degan g'oya ilgari suriladi.

Bu o'rinda gapni muxtasar qilib, mashhur psixolog Karl YUngning yozganlari bilan cheklanishni maqsadga muvofiq deb bildik. U Shunday deb yozgan edi: "Sharq psixologiyasini bilish.k... g'arb psixologiyasining tanqidiy va ob'ektiv ko'rib chiqilishi uchun zarur asosni shakllantiradi"²²⁰.

Biz quyida Abu Homid al-G'azzoliyning ruh va uning manzillari to'g'risidagi qarashlarini ko'rib chiqamiz.

Ruh bilan badan boshqa-boshqa narsalardir. Badan muddat va yosh o'tishi bilan tanazzulga yuz tutadi. Ruh esa, aksincha, yosh oshishi va muddat o'tishi bilan takomillasha hamda rivojlana borishi mumkin.

Ruh bilan badan o'rtasida o'zaro dialektik aloqa mavjud, Yani ruh badan Yordamida harakatlanadi, o'zgaradi, rivojlanadi. Mana islomda nima uchun badaniy amallar muhim ro'lb o'ynaydi. Shunki ruhning o'zi amallarsiz, aniqrog'i, badan amallarisiz yuksala olmaydi. Shuning uchun ham tasavvuf ahli shariatsiz tariqat yo'q deb hisoblashadi.

Ruh badanga o'zining asl vatanidan kelib kiradi va badan kemasida safarga chiqadi. Vaqti kelib u tag'in o'zining asl vataniga qaytadi. Biroq endi u ilk ruh emas. Bu ruh safar taassurotlari bilan to'yingan ruh hisoblanadi. Shu safar davomida u badan kemasidan foydalangan holda bir qancha manzillarni bosib o'tadi. Abu Homid G'azzoliyning fikricha, bu manzillar to'rttadir. Ruh manzildan manzilga yuksala boradi. Bu manzillar haqida allomaning o'zi Shunday deb yozadi: "Bas, ruhning avvalgi manzili olami mahsusotdir (hissiyotlar olami), andin keyin taxayyulot, andin keyin mavhumot, andin keyin ma'qulot (aqliy olam)dur. Bas, ma'qulot ruhoniyl ruhning to'rtinchi manzilidurki, (odamning ruhi) o'zga manzillarda xabar topmagan nimarsalardan olami ma'qulotda xabardor bo'lg'usidur"²²¹.

G'azzoliyl hazratlari ruhning manzillarini qiyos bilan tushuntirishga harakat qiladi. Ruhning ilk manzili maxsusot olami (hissiyotlar olami) hisoblanadi. Bu olamda odamning martabasi parvona martabasida bo'ladi. Bu hashorot o'zini chiroqqa – Yorug'likka uradi. Shunki unda ko'rish sezgisi bo'lsa-da, biroq xotirasi yo'q. Ular to kuyib kul bo'lgunicha o'zlarini Yorug'likka uraveradilar. Sababi ularda eslab qolish qobiliyati bo'lmaydi. Agar Shu qobiliyati

²¹⁷ Lil Vilokks. Sufizm i psixologiya. – M.- SPb.: "Dilya", 2005. – S. 254. – 6-bet.

²¹⁸ Freydjer R., Feydimen D. Bol'shaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freydjer, Djejms Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s. – 21-bet.

²¹⁹ O'sha asar, 22-bet.

²²⁰ O'sha asar, 22-bet.

²²¹ G'azzoliyl Abu Homid. Kimyoi saodat: (Ruh haqiqati). –T.: "Adolat", 2005. - 412 b. -117 b.

bo'lganda edi, ikkinchi marta parvona o'zini o'tga urmagan bo'lar edi. Hayvonlar martabasida esa xotira bo'lganligi bois bir marta kaltaklangan hayvon keyingi safar tayoqni ko'rsa qochadi. Shunday qilib, maxsusot ruh safarining ilk manzili hisoblanadi.

Yuqorida aytilgandek, ruh safarining keyingi manzili – tahayyulot olamidir. Bu darajani G'azzoliy hayvonlar martabasi bilan bog'laydi. Bu martabada insonga birorta sitam etsa, o'sha sitam keltiruvchi narsadan qochadi. Bunda xotira asosiy rol o'ynashligini Yuqorida yozdik.

Ruh safarining uchinchi manzili – mavhumot olami hisoblanadi. G'azzoliy hazratlarining fikricha, bunda ruh ot Yoki tuya martabasiga etadi. Bunda endi hayvon dushmanning rejasini ko'rmasdan burun qochadi. Masalan, qo'y bo'rini ko'rsa qochadi, ot yo'lbarsni ko'rsa qochadi. Qo'yga fil, tuya Yoki ot ko'rinsa qochmaydi. Bu qo'yda dushmanlar to'g'risidagi xotira ilgaridan kiritib qo'yilgan.

Ruh safarining to'rtinchi manzili ma'qulot olami hisoblanadi. Bu aqliy olamdir. Bu martabada ruh barcha hayvonlarning martabasidan Yuqori bo'ladi. To aqli va fahmi kamolga etishmaguncha ularda hayvoniy ruhning quvvati saqlanib qoladi. Bu martabada inson kelajakda bo'ladigan ishlarni oldindan fahmlaydi, har qanday ish haqiqatini anglaydi.

E'tibor berib qaralsa, ruhning badandagi taraqqiyotidagi darajalariga mos holda turli xil toifadagi kishilar shakllanar ekan. Agar ruhning badandagi rivojlanishi birinchi martabada qolib ketsa, u ha deb xatoliklar qilaveradigan, xatolardan xulosa chiqara olmaydigan, "hassasini qayta-qayta yo'qotadigan" ko'zi ochiq odamdur.

Agar ruhning badandagi rivojlanishi ikkinchi martabada bo'lsa, bunday kishi xato va gunohlarni bir qilib, keyin qayta qilmaydigan kishidir.

Mavhumot olami martabasidagi kishilar esa ma'nau pokiza insonlardir. Ular birovlariga yomonlik qilishni eplay olmaydigan, yolg'on gapira olmaydigan, o'zini emas, faqat o'zgalarni o'ylaydigan, oliyjanob, sahoovatpesha, kamtarin kishilardir.

Abu Homid G'azzoliy ma'qulot manzilini anbiyo-yu avliyolar va tasavvuf ahlining maqomi va martabasi deb hisoblaydi.

Ko'rinib turibdiki, ruhning safari idrok olamidan boshlanib, farishtalar darajasiga ko'tarilishi mumkin ekan. Olimning fikriga ko'ra, masalaning muhim tomoni Shundaki, inson qiyomatda ma'lum manzilga chiqqan ruh bilan hisob-kitob qilinadi.

Imom G'azzoliyning Yuqorida zikr etgan manzillarini umr davrlariga qiyoslasa ham bo'ladi. Inson murg'akligida o'z axlatini nandan farqlay olmaydi. U umr pillapoyalaridan Yuqoriga yuksala borar ekan, shaklan va ma'nau rivojlana boradi. SHakliy rivojlanish ma'lum chegarada to'xtaydi, biroq ma'naviy taraqqiyot o'lguncha davom etadi. Insonning maqsadi o'z ruhini yuksaltirishdan iboratdir. U parvona, hayvonlar, ot Yoki tuya martabalaridan yuksalib, farishtalar martabasiga intilishi lozim.

Biz ruhning martabalariga insonlarning xulq-atvoridan kelib chiqqan holda baho berdik. Demak, insonning xulq-atvori ruh manzillari to'g'risida xulosa berishimiz mumkin bo'lgan mezon hisoblanar ekan.

Shunday qilib, ruh inson badaniga tushgach, to'rtta manzilni boshidan kechirishi mumkin ekan. Aytilganlardan uchta muhim xulosaga kelsa bo'ladi: birinchidan, psixologik kategoriyalar – hissiyot, xayol, tasavvur, aql va h.k. lar ruhga, uning yuksalishiga xizmat qiladi va bundan psixologiya fanida ruhni o'rganishda foydalanish mumkin bo'ladi; ikkinchidan, ruhning badanda rivojlanishining manzillarini ta'lim-tarbiya jarayonida inobatga olmoq lozim; uchinchidan, ruhni pok, go'zal xulqlarga ega, savoblarga to'yingan holda asl vataniga kuzatmoq zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf tushunchasi va ilk sufizmning psixologik asoslarini ayting.
2. Asosiy tasavvufiy tushunchalar va ularning psixologik sharhini ayting.
3. Ruh muammosi va uning psixologik echimini ayting.
4. Nafs va komillik psixologiyasini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o'rne.
2. Barkamol avlod va komil inson mushtarakligi.

18-MAVZU. RUH MUAMMOSI VA UNING PSIXOLOGIK ECHIMI.

Reja:

1. *Ruh muammosi va uning psixologik echimi.*
2. *Ruh va psixikaning qiyosiy tahlili.*
3. *Imom G'azzoliy ruh manzillari haqida.*

Tayanch tushunchalar: *Ruh muammosi, psixologik echim, ruh va psixika, Imom G'azzoliy, ruh manzillari.*

Tasavvuf masalalari psixologik jihatdan tahlil qilinarkan, so'zsiz ruh muammosini hal etish talab qilinadi. Shunki shu paytgacha psixologiya fani bilan insoniy ruh masalasi o'rtasidagi aloqalar mukammal ko'rib chiqilmagan. Boshqacha aytganda, bu aloqa atrofida javoblardan ko'ra savollar ko'p. Ular o'zlarining javoblarini kutayapti. Buning uchun esa, tabiiyki, tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Tasavvuf shunday bir muhtasham qasrki, bu qasrda hamma narsa mujassam: din ham, falsafa ham, mantiq ham, pedagogika ham, fiqh ham, tafsir ham, fiziologiya ham, etika ham, estetika ham va h.k. Shu jumladan, psixologiya ham. Fikrimizcha, tasavvuf ta'limoti va amaliyotida psixologiyaning o'rne juda katta. Shunki tasavvufning markaziy tushunchalaridan biri nafs bilan mujodala – psixologiya fanining predmetlaridan biridir. Shu o'rinda aytish joizki, tasavvufda amal asosiy hodisalardan ikkitasi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: “O'lmasdan oldin o'ling” va “O'zini anglagan robbisini anglaydi”. Bu hadislar ma'no – mazmuni jihatidan psixologik masalalarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan tasavvuf ta'limoti va amaliyoti psixologik tahlilga muhtoj.

Tasavvuf ta'limoti va amaliyoti masalasida o'tgan asrning boshida yashagan K.Kazanskiyning asari ayniqsa diqqatga sazovor. U o'zining asarida “pragmatik mistitsizm psixologlar, etnopsixologlar va medik-psixiatrlarning har tomonlama tadqiqotlarining predmeti bo'lishi lozim. Ma'lumki, “mistik bilish yo'lining” amaliyoti qandaydir ma'lum tizimga keltirilgan turli xil psixotexnik, ruhiy-diniy va jismoniy mashqlarning variativ to'plamidan iborat. Mazkur tizim o'zida majburiy komponentlar sifatida quyidagilarni mujassamlashtiradi: o'z o'ziga singish (mushohada), pozitsiyalarni aniqlashtirish (jalsa), nafasni nazorat qilish (habs-an-nafs, hibs-i-dam), koordinatsiyalashgan ritmik harakatlar va teomnemniya formulalarini ma'lum takrorlash (zikr). Maqsad bitta – inson psixikasiga, uning nozik nuqtalarigacha ta'sir qilish”²²².

Muhammad Iqbol Shunday deb yozadi: ”Butun insoniy hayot kelib chiqishi bo'yicha ruhoni bo'lsagina insoniy borliqning sof psixologik poydevorini qidirish mumkin bo'ladi”²²³. Muallif bu bilan aytmoqchi bo'layaptiki, Alloh o'zining ruhidan Odam tanasiga pufladi va ruh kirdi. Demak, uning qolgan barcha umri ruh bilan birga kechadi va Shu ruh psixologiya fanining tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida savollar ko'p dedik. Ular Shunday savollarki, ularning barchasiga javob topish bugungi psixologiya fanining vazifasi bo'lib qolayapti: Ruh – psixologiya fanining tadqiqot predmeti bo'la oladimi? Ruh va psixika o'rtasidagi aloqa nimadan iborat? Ruhoniyat tushunchasi bilan ruh tushunchasi o'rtasida qanday farq mavjud? Insoniy “Men” bilan nafs o'rtasidagi aloqalar qanday? Nafs bilan ruh o'rtasidagi aloqalar qanday? Psixologiya fanining

²²² Trimingem Dj.S.Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A.Staviskoy, pod redaktsiey i s predisl. O.F.Akimushkina. –M.:Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1989. – 328 s. -209-bet.

²²³ Iqbal Muxammad. Rekonstruktsiya religioznoy mysli v islame. – M.: Vostochnaya literatura, 2002. – 200 s.- 141-bet.

ruhni o'rganishdagi nasibasi qanday? Ruhni tadqiq qilish uchun bugungi psixologiya fanidagi metodologik tamoyillar etarlimi va h.k.?

Mazkur savollarga javob berishdan oldin ruh haqida, uning tasavvufona sharhi haqida, uning psixologik jihatlari haqida yozamiz.

Avvalom bor, Qur'oni karimga murojaat qilamiz. Qur'oni karimning Isro (17) surasi 85-oyatida ruh to'g'risida Shunday deyiladi: “(Ey Muhammad), sizdan ruh – jon haqida so'raydilar. Ayting: “Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardir. Sizlarga juda oz ilm berilgandir”. Shu oyatga amal qilgan holda, Yani ruh Allohning amri ekanligi va biz uni o'rganishga chuqur kirishib ketmasligimiz zarurligi haqida shariat ko'rsatma beradi hamda uni chuqur o'rganishga ruxsat bermaydi.

Darhaqiqat, inson tanasining tuzilishi, uning sir-sinoati hozirgi zamon biologiya, anatomiya va fiziologiya fanlari tomonidan batafsil o'rganilgan. Biroq tana bilan birga yashayotgan ruh haqida ma'lumotlar juda kam. Buning sababi balki shariat ahlining ruhni o'rganishga qarshi bo'lganligidir. Shunday bo'lsada, tasavvuf ilmi bu masalaga to'xtalib o'tadi va o'zining munosabatini bildiradi.

Shu o'rinda nafs - badan bilan bog'liq tushuncha bo'lgani bois ruhning badan ichidagi holati tasavvuf ahlini qiziqtirib kelganligini ta'kidlamoqchi edik. Shu nuqtai nazardan nafs bilan ruh o'rtasidagi aloqa juda muhim hisoblanadi va bu aloqani ko'rib chiqish ruh masalasiga oydinlik kiritadi.

Fikrimizni Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Xislatli hikmatlar sharhi” kitobida ilgari surilgan fikrlardan boshlaymiz. Uning ta'kidlashicha, insonning asli qora balchiq loydan iborat edi. Alloh O'z qudrati bilan uni inson shakliga keltirdi va ichiga O'z ruhidan puflagandan keyin insonga aylandi. Demak, ruhning kelib chiqish manbai rabboniy. Bu haqda Alloh taolo marhamat qiladi (Hijr surasi (15), 28-29 – oyatlar): (Ey, Muhammad!) Eslang, Rabbingiz farishtalarga: «Men (asli) qora balchiqdan (olib) quritilgan loydan inson yaratuvchiman. Bas, uni tiklab, ichiga O'z (dargohimdagi) ruhimdan kiritganimda, sizlar unga sajda qilgan holingizda yiqilingiz!» – dedi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf yozadi:”...insonning qadr-qiymati ruh bilan bog'liq. Inson qancha ruhoni bo'lsa, Shuncha qiymati ortadi. Ruhoniyligini yo'qotgan sari qadr-qiymatini yo'qotib boradi. Ruhoniylikni inkor etsa, insonligini ham inkor etib, hayvon darajasiga, balki undan ham past darajaga tushib qoladi”²²⁴. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ruhni qalb bilan bog'lagan holda tushuntiradi. “Qalb tabiblar nazdida hayotni, ulamol nazdida aqlni va mashoyixlar nazdida ma'naviy sezgilarning markazini ifoda qiladi. Bu uch sir jamlanib, ruh deb nomlanadi. Ruh esa sirlarning siri deb ham ataladi”²²⁵. Ruh inson tanasidagi jarayon qilish o'rniga qarab turli xil ataladi. Bu haqda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi:”Agar ruh insonning jasadidagi hujayralarda jarayon qilsa, hayot deb nomlanadi. Agar ruh insonning miyasidagi hujayralarda jarayon qilsa, aql, idrok deb nomlanadi. Agar ruh insonning yuragidagi hujayralarda jarayon qilsa, qalb deb nomlanadi”²²⁶.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf masalani tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan turib sharh ham qilgan. U kishi Shunday deb yozadi:”Tasavvuf ilmida aql, nafs, ruh va sir kabi narsalarning barchasi bir narsa deb anglanadi. Ular bir narsa bo'lgani bilan idrok qilinadigan narsaning turiga qarab ism ham turlanadi. SHar'iy hukmlarni idrok qiluvchi narsaga aql deyiladi. SHahvatga oid narsalarni idrok qiluvchini nafs deyiladi. Tajalliyotni idrok qiluvchini ruh deyiladi. Tahqiqot va tamakkunotlarni idrok qiluvchini sir deyiladi”²²⁷. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf boshqa bir o'rinda bularning barini ruhning ismlari deb ataydi. “... ruh gunohlar, ma'siyatlar, shahvatlar va ayblar zulmatida qolgan bo'lsa, nafs deyiladi. Agar ruh g'afolat va hushyorlik orasida almashib tursa, qalb deyiladi. Agar u xotirjam va sokin bo'lsa,

²²⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar sharhi. 4-juz. – T.: “Hilol-Nashr”, 2014. – 271 bet. – 112-bet.

²²⁵ O'sha asar, 110-bet.

²²⁶ O'sha asar, 110-bet.

²²⁷ O'sha asar, 111-bet.

basharlik charchoqlaridan dam olgan bo'lsa, ruh deyiladi. Agar u hissiyot kirlaridan musaffo bo'lsa, sir deyiladi"²²⁸. Biz Yuqorida zikr etilgan fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ruhning ta'riflari turlicha ekan. Biroq ularning barchasida ham mushataraklik mavjudligi sezilib turibdi.

Shu o'rinda Shayx hazratlarining yuqorida bildirgan fikrlaridan "ruh" va "psixika" tushunchalari to'g'risida bir qacha xulosalarni ilgari surmoqchimiz. Ruh bilan psixika bitta narsami degan savolga javob topishda yuqoridagi fikrlarga tayansak bo'ladi. Ma'lumki, psixika bosh miyaning funktsiyasi (xususiyati) hisoblanadi. Ruh esa ilohiy ibtido ega. Hatto ularning kelib chiqish manbai bo'yicha ham farqi kuzatilmoqda. Qolaversa, psixikaning bir bo'lagi hisoblangan aqliy faoliyat dunyoni anglash va idrok etishdan iboratdir. Agar aqliy faoliyat amalga oshmay qolsa, tabiiyki inson anglayolmay, idrok eta olmay qoladi. Aqliy faoliyat Yordamida inson aql bovar qilmas kashfiyotlar, ixtirolar qilishi mumkin. Biroq yolg'iz miyaning o'zi bilan, aniqrog'i uning aqliy faoliyati bilan Yaratuvchisini tanimay o'tganlar qancha. Demak, inson psixikasi insonni inson qilib turgan yagona manba emas ekan. Insonni inson qilib tungan narsa undagi ruh bo'lib chiqayapti. Ularning farqi ham Shundadir. Bu haqda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Shunday deb yozadi: "Shuning uchun ham ilm va ma'rifatning Yuqori cho'qqisiga chiqqan barcha olimlar ham, ulkan ilmiy kashfiyotlarni qilishiga qaramay, qalblari qulfli bo'lgani uchun, mog'or bosgan bo'lgani uchun Alloh taoloni tanish va U Zotning hidoyatiga yurish baxtiga muyassar bo'lmaydilar"²²⁹. Demak, psixika insonning borliqni anglash va idrok etishiga xizmat qilar ekan-u, biroq Alloh taoloni tanish darajasiga uni chiqarib qo'ya olmas ekan. Bu ishni ruh bajaradi. Shunki ruhning manbai rabboniy va u O'z Rabbisiga intiladi. "Ruhdan qalbg'a o'tadigan his-tuyg'ularning barchasi Alloh taologa qaratilgandir, ularda U Zotga nisbatan shavq, muhabbat va ulug'lash bordir. Ammo shu bilan birga, insonning qalbi atrofida havo nafs ham bor. Ana o'sha nafs tarbiya ko'rmagan, iymon suvi ila sug'orilmagan bandaning nafsi bo'lsa, unda aks etgan shavq, muhabbat va intilish Alloh taolodan boshqa tarafga burilib ketadi. Oqibatda mazkur banda o'ziga o'xshagan bandalarga va dunyoning zebu ziynatiga muhabbat qo'yadi"²³⁰. Psixikaning manbai miya esa "qora balchiq loydan" kelib chiqadi.

Shu o'rinda mavzumizga bevosita aloqasi bo'lmasada, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning quyidagi satrlarini yozishni ma'qul ko'rdik. Bu satrlar bugungi kun olimlari uchun ham o'ta ibratlidir. "Alloh taoloni unitib, shaytonga ergashgan ilm egasidan zinhor yaxshilik kutib bo'lmaydi. Iymonsiz ilm egasining ilmi ham, o'zi ham koni zararga aylanadi. Ilm va aqlu idrok ularning egasi iymonli bo'lgandagina xayru baraka va yaxshilik manbasiga aylanadi. Qalbi iymonga to'la ilimli kishidan bu dunyo va oxirat uchun manfaatlar chiqadi"²³¹. Shu gaplardan keyin ruhning inson uchun naqadar muhimligi kelib chiqadi.

Tadqiqotchi olim Ibrohimjon Usmonov o'zining "Al-Hakim at-Termiziyning tasavvufda tutgan o'rni" maqolasida Al-Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" kitobidan olib quyidagilarni yozadi: "Al-Hakim at-Termiziyga ko'ra ruhning qarorgohi insonning bosh qismida bo'lib, Shu erdan u insonning tanasi bo'ylab yoyilgan. Nafsning qarorgohi esa qorinda, Shu joydan u tana bo'ylab yoyilgan. Al-Hakim at-Termiziy o'z sharhlarida ruhni "samoviy" va nafsni "ardiy" (erga mansub) deb, ruh sovuq, nafs esa issiq deydi. Agar inson "puf" deb puflasa, sovuq havo chiqadi, bu ruhning sovuqligi. Agar "hah" deb og'zidan havo chiqarsa, issiq havo chiqadi, bu nafsning issiqligi. Birinchi sovuq havo – *nafsa*, ikkinchi sovuq havo esa *nafx*. Ruhning odati itoatkorlik, nafsning odati esa shahvatga berilish"²³². Al-Hakim at-Termiziy ruhni nafs bilan qiyoslay turib, ruhning muhim o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot beradi.

Usmon To'rar o'zining "Tasavvuf tarixi" nomli kitobida bu masalaga quyidagicha yondashadi: "Insonda to'rt xil nafs mavjud:

²²⁸ O'sha asar, 111-bet.

²²⁹ O'sha asar, 114-bet.

²³⁰ O'sha asar, 116-bet.

²³¹ O'sha asar, 115-bet.

²³² Usmonov Ibrohimjon. Al-Hakim at-Termiziyning tasavvufda tutgan o'rni. //Al-Hakim at-Termiziyning "Nodir masalalar" kitobi. – T.: "Mavoraunnahr", 2007. – 86 bet. -18-bet.

1. Tabiiy nafs - jismdagi zarrachalarning aralashmasligini ta'minlaydi.
2. Nabotiy nafs – badanning o'sib-ulgayishi, hazm faoliyati va hakazo biologik funksiyalarni ta'minlaydi.
3. Hayvoniy nafs insondagi his-harakatlarning manbai bo'lib, sezgi organlari bu nafsning xizmatini qiladilar.
4. Insoniy nafs Yoki “Nafsi notiq” - Parvardigorning amridan bo'lgan bu nafs - badandan ayri, mujarrad - tanho, yolg'iz bir gavhar bo'lib, inson badanining asl sultonidir. Ammo badandagi tasarrufni hayvoniy nafs vositasida ijro etadi²³³.

Abu Hamid G'azzoliy ham ruh haqida o'z fikrini ilgari suradi Uning fikriga ko'ra, eni, bo'yi va miqdori bor har qanday narsa xalq olamidani, Yani yaratilgan olamdan hisoblanadi. Ruhning esa bunday sifatleri mavjud emas. Demak, yo'q bo'lish qismatiga ham ega emas. Alloh taolo ruhni abadiy yo'qolmaslik, o'lcham va miqdorga ega bo'lmaslik sifatleri bilan yaratgan.

Ruhga badan tobe hisoblanadi. Insoniy ruhga xos Yana bir sifat ma'rifat bilan bog'liqligidir, Yani ruh - ma'rifatga ega bo'lish imkoniyatiga ega. Latif ruh jism ham emas, o'zicha mavjud ham bo'lmaydi, balki javhardir (substantsiyadir). Mana Shu latif ruh ma'rifatiga erishish uchun ma'rifatga ega bo'lishi zarur. Bu esa riyozatsiz amalga oshmaydi. O'z riyozatini kamolga etkazgan kishigina ma'rifatga ega bo'ladi, demak, ruh haqiqatini tushunadi.

Ruhning Yana bir sifati - uning o'zini ham, Parvardigorini ham bilishligidir. Shuningdek, u aql bilan topib bo'lmaydigan yuksak masalalarni ham idrok eta oladi. Ruh – o'zgaruvchan. U rivojlanadi, yuksaladi, biroq foniy emas. Shu o'rinda bir narsani inobatga olish zarur, Yani hayvoniy ruh foniy, o'tkinchi va u to o'tib ketgunicha insoniy ruh bilan birga hayot kechiradi. Agar insoniy ruh hayvoniy ruh ustidan hukmron bo'lsagina inson o'zligini bilish va tanish darajasiga ko'tariladi. Buning uchun solik o'z ruhiga Allohning maliklik sifatini singdirishi talab etiladi. Insonning o'z axloqini tuzatishi sof psixologik hodisa hisoblanadi va u o'zida o'zi bilan kurash, o'zini tahlil qilish, o'zini nazorat qilish, o'zini boshqarish singari psixologik sifatleri mujassamlashtiradi.

Ruhning sifatleri ko'paygani sari uning tasavvurdagi obrazi jonlanayapti. Biz unga ta'rif berganimizda ruhning muhim bir sifatini har qachon yodda tutishimiz lozim bo'ladi, Yani ruh xalq olamidani emas, amr olamidani ekanligini (“Qul ir ruhi min amri rabbi”).

Shayx al-Kolobodiy ruh to'g'risida aytgan o'tmish mashoyixlarning so'zlarini bayon etadi. Biz ul bayonlarni beramizki, tokim ruhning yangi sifatleri bilib olaylik. Masalan, Junayd Bog'dodiy Shunday degan ekan: “Ruh bir narsadurki, Alloh taolo o'z ilmi bilan egallab olgandur. O'zining xalqlaridan birortasiga bildirmagandur. Ruh to'g'risida uning borligidan ko'proq ta'bir qilishlik joiz emasdur²³⁴.”

Abu Abdulloh Nabbojiy esa ruhni jism deb, u his qilganda muloyim bo'lishligini, tegilsa kattalashishini ta'kidlaydi. Ibn Ato esa Alloh jasadlardan oldin ruhni yaratganini aytadi. Bu Qur'onni Karimning A'rof surasi (7), 11-oyatdagi “Biz ruhlarni yaratdik, so'ng jasadlarni barpo qildik” holatiga to'g'ri keladi.

Shayx al-Kolobodiy ruhni muloyim deb hisoblaydi va jasad ruh bilan tirikligini aytadi. Shunki ruh tirikdir. Tiriklik esa hayot beruvchining sifati hisoblanadi. Bu tiriklikdan ruh jasadning ichida degan ma'noni uqmaslik kerak.

Ruh so'zining ma'nosi to'g'risida Shayx Hakim Mounuddin CHishtiyning “Sufiyskoe tselitel'stvo” kitobida Shunday deb yozadi: “Ruh” so'zi odatda “jon” deb tarjima qilinadi. Bundan tashqari, u quyidagi ma'nolarda ham ishlatiladi: ilohiy nafas, Jabroil alayhissalom, Qur'on, kashf Yoki payg'ambarlik. So'fiylar uchun “Ruh bu hayotning ma'nosi. Bu - jismoniy tana ham, fikr ham, xotira ham emas; bu hayotiy jarayon ham emas. Ruh o'zicha mavjud. U Allohndan keladi va to'liq Unga taalluqlidir²³⁵.”

²³³ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180 b.- 88-bet.

²³⁴ Shayx al-Kolobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. (At – ta'arruf – tasavvufni tanishtirish kitobi). - G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. - 144 b.

²³⁵ Shayx Xakim Mounuddin Chishti. Sufiyskoe tselitel'stvo. - SPb “Dilya”, 2002. -208s.

Chishtiy hazratlarining fikricha, insoniy ruhga uning vujudda yuzaga chiqish uchun ritm va motiv zarur. Agar nafas bilan qiyoslasak, nafas Shunday bir ilohiy kuch bo'lib tanani, hatto psixik jarayonlarni faollashtiradi. Nafasda ritm bor, Yani u ma'lum ritm asosida (nafas olish va nafas chiqarish) tanani faollashtiradi. Nafasdagi motiv aynan tanani (Shu jumladan psixikani) faollashtirishdan iboratdir. Ruhning ishi ham nafasga o'xshaydi. Faqat uning farqi Shundaki, ruh nafasga nisbatan yuksak darajadagi mavjudotdir. Ruhning ham ritmi va motivi bor, dedik. Uning ritmi tana bilan bo'ladigan, aniqrog'i nafs bilan bo'ladigan munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Uning motivi esa shaxsni to'xtovsiz takomillashtirishdan iboratdir.

Xoja Yusuf Hamadoniy o'zining "Rutbat ul-hayot" kitobida ruh haqida Shunday deb yozadi: "Ruh asllarning aslidir. Inson badani va a'zolari ruh bilan tirik. Ruhning borlig'i soyasida badan ko'radi, biladi, eshitadi, ushlaydi, yuradi. Ruhning xususiyat va fazilatlarini tufayli donolikda qat'iyat, nazarda farosat va ibrat, eshitishda hikmatni anglash, ergashishda itoat, yurishda xizmat yuzaga keladi. Jo'mardlik yo'li, mushohada joyi, fazl mavzesi, karam makoni, yaqinlik qarorgohi, qudsiyat maskani, hayot mahali, unsiyat bo'stoni, sevgi-do'stlik vodiysi, muhabbat dengizi, sukunat maydoni va mukoshafat yo'li ruhdur"²³⁶.

Xoja Yusuf Hamadoniy ruh kirgan borliqlarni doimo harakatda deb biladi. Demak, tana aslida o'lik narsa bo'lib, unga ruh tiriklik bag'ishlaydi. Odamni faoliyatga keltiruvchi barcha a'zolar ruh tufayli harakatlanishini ta'kidlayapti muallif. Ruhning muhim xususiyati - Haqqa bo'ysinidandan iboratdir. Xoja Yusuf Hamadoniy ta'kidlaganlaridek, "Ruh ko'rishda ko'zdir va ko'zda ko'rishdir va ko'radigan ko'zning ko'ruvchisidir. Ruh ko'rishni ham ko'radi. Shuningdek, eshitish va eshitilgan, so'zlashuv va so'zlashilgan, hidlash va hidlangan, totish va totilgan, anglash va anglashilganing eshigi ham ruhdur"²³⁷.

Ruhning Yana bir sifati iroda va ixtiyorning unda yashiringanligidir. A'zolarini ruh harakatga keltirdi va a'zolar bilan harakatlantiruvchi bir biriga o'xshamaydi. Harakatlanuvchi - o'ladi va o'lik narsa. Harakatlantiruvchi ruh bo'lib, u o'lmaydi.

Ma'lumki, Alloh taolo Odam alayhissalomni loydan (tuproqdan) yaratib, so'ngra unga ruhni pufladi va nihoyat odam dunyoga keldi. Shundan so'nggina Alloh farishtalarga qarata odamga sajda qilishga buyuradi. Odamning ruhdan boshqa barcha narsalari o'lik edi va ruh kirib unga tiriklik kirdi. Demak, farishtalar ruhga sajda qilishganlar. Bu haqda Xoja Yusuf Hamadoniy Shunday deb yozadi. "Agar ruh javhar va zot jihatidan farishtalardan ko'ra pokroq, tozaroq va sofroq bo'lmaganda, Haqqa yaqinlik va makon jihatidan ulardan ilg'orroq bo'lmaganida ... farishtalar ruhga sajda qilmagan bo'lardilar"²³⁸.

Najmiddin Kubro uzlat haqida yozganida Shunday degan edi: "Uzlat inson ruhini sinovchi turli ofat, fitna-yu balo bilan quvvatlanishni, yomon xususiyatlarning tarbiyasini va nazoratga olinmog'ini ta'minlaydi"²³⁹. Shu o'rinda ruhning muhim sifati nafs tarbiyasi va nazorati bilan Shug'ullanishi ekanligini angladi. Shuningdek, ruh va vujud birligining Yana bir sababi ham aniq bo'ladi. U ham bo'lsa, ruh badanga tegishli bo'lgan barcha ishlarda mas'uldur. Shuning uchun inson ruhiga tayangan holda nafsga ta'sir ko'rsatmog'i zarur, aksincha emas.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ruh muammosi va uning psixologik echimini ayting.
2. Ruh va psixikaning qiyosiy tahlilini keltiring.
3. Imom G'azzoliy ruh manzillari haqida ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Barkamol avlod va komil inson mushtarakligi.

²³⁶ Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezoni (Rutbat ul-hayot) – T.: "Yangi asr avlodi", 2003. – 63 bet. - 49-bet.

²³⁷ O'sha asar, 50-bet.

²³⁸ O'sha asar, 51-bet.

²³⁹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b. -62-bet.

19-MAVZU. NAFS PSIXOLOGIYASI VA UNING MARTABALARI.

Reja:

1. *Nafs tushunchasi va uning tasavvufiy mazmuni.*
2. *Nafs bilan ichlach usullari.*
3. *Nafs va komillik psixologiyasi.*
4. *Nafs va uning martabalari.*

Tayanch tushunchalar: *Nafs tushunchasi, tasavvufiy mazmun, nafs bilan ichlach usullari, komillik psixologiyasi, nafs va uning martabalari.*

Tariqatga kirgan har bir solik tanlagan yo'lining boshidan to vuslat maqomiga erishganga qadar bosib o'tadigan qalbiy va ma'naviy safarida asosiy e'tiborini nafsiga qaratadi. U o'z nafsidagi o'zgarishlarga nazarni qaratishi zarur. Shuningdek, solik nafsini engish safarida kamolot sari intilar ekan, boshidan kechiradigan darajalar tartibga solinganligini ta'kidlamochi edik. Bu darajalar bosqichlar deb ataladi va ularning miqdori ettitadir. Bu bosqichlarni bosib o'tadigan solikning qalbidan kechadigan holatlar, bu bosqichlarning xususiyatlardan biri ikkinchisidan farq qiladi. Muhimi, ular rivojlanish, yuksalish ko'rinishida bo'ladi. Bu maqom-martabalarining har birining nomi Qur'oni karimdagi Shu maqom-martabaga mos oyatlardan kelib chiqqan holda nomlangan. Biz quyida har bir maqom-martabaga alohida to'xtalib o'tamiz va Shu maqom-martabalarga mos tasavvufiy sifatlar va psixologik xususiyatlarni ta'riflab beramiz.

1. Nafsi ammora.

Nafsi ammora Qur'oni karimning, Yusuf surasidagi (12) 53-oyatida: "Va o'z nafsimni oqlmayman. Albatta, nafs, agar Robbim rahm qilmasa, yomonlikka ko'p undovchidir. Albatta, Robbim mag'firatli va bilguvchidir", dedi. Bu erda nafs "yomonlikka ko'p undovchidir" nazarda tutilgan nafsdur. Bu haqda Najmiddin Kubro o'zining "Ko'ngil ko'zi bilan ko'rganlarim" risolasida shunday deb yozadi: "Misol suratda ko'p emoq, ko'p uxlamq, ko'p kulmoq, oshqlik qissalarini tinglamq, dunyoni sevmq, boylikni tanlamq, takabburlik, hasad, g'iybat, yomonlik bilan Shug'illanmoq, ichimliklar ichib gunohga qo'l urmoq, turli o'yinlarga berilib, foydasiz ishlarga urinish, mol-mulk yig'ib, istaklar va orzular ipini cho'zish, yomonlikka buyurib, yaxshilikdan voz kechirish, istak va havas va surur (xursandchilik), imorat va tijorat (uy-joy qurish va savdo) ga ko'ngil bog'lab yomonni yaxshilash, boshqalar sir-asrorlarini fosh etish, chegaradan (axloq va odob chegarasidan) chiqish, botildan Yordam so'rab, Haqni inkor etish, dunyoparastlarga hurmat bildirib, oxirat ahlini haqorat qilish Shular jumlasidandir. Bularning hammasi yomonlikka boshlovchi nafs (nafsi ammora) ning sifatleri hisoblanadi"²⁴⁰. Biz Najmiddin Kubroning nafsi ammoraning sifatleriga bergan ta'rifini to'liq berdik. Tokim bu nafs turining asl qiyofasi yuzaga chiqsin. Endi solik bu nafs turiga qarshi kurash olib borish uchun albatta bir ustoz, yo'l boshchi tanlab olishi zarur bo'ladi. Bu bosqichda Shayx asosan ibodat shartlarini, Yani istig'for, salotu-salom, nafl ibodatlari, tasbeh, zikr va h.k. larni qo'yadi va ularning qanday ma'naviy-axloqiy va psixologik holatda boshqarish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. Bu bosqichda solik "la ilaha illalloh" zikriga o'tashi shart va unga "la ma'buda illalloh" ma'nosini beradi.

Endi bu bosqichni psixologik jihatdan sharhlaymiz. Bu bosqichdagi nafs "ustun ego" ("dominiruyuchee ego") deb ataladi Yoki "yovuzlikka boshlovchi ego" ham deb nomlanadi. Ustunlikka intiluvchi nafs insonning ustidan, uning fikr o'ylari va xatti-harakatlari ustidan hukmronlik qilish imkoniyatlarini axtaradi. Shuningdek, u insonning ruhiy-ma'naviy olamini o'z nazoratiga oladi. Bu bosqichga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilar: egoizm (xudbinlik), o'zgalar dardini tushunmaslik, salbiy axloqiy sifatlar va h.k.

²⁴⁰ Najmiddin Kubro. Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim. /Juzjoniy Abdulhakim SHa'riy. Tasavvuf va inson. – T.: "Adolat", 2001. -78-96 betlar. - 88-89-betlar.

Qiyoslaydigan bo'lsak, nafsi ammora psixoanalitik kontseptsiyadagi shaxs strukturasi Id, Ego va Super Ego komponentlaridan Idga o'xshaydi. Ma'lumki, Id shaxs strukturasi komponentlarining biri bo'lib, u biologik jihatdan aniqlangan shaxsning barcha faoliyatining energiya manbai hisoblanadi. "Ongning boshqa sohalari Id dan kelib chiqqan holda rivojlanishiga qaramasdan o'z o'zicha Id sodda, jo'n va tashkillashmagan. "Tafakkurning mantiqiy qonunlarini Id ga qo'llab bo'lmaydi" (Freyd). ... Id hayotiy tajriba ostida o'zgarmaydi, Shunki u tashqi muhit bilan kontaktga kirishmaydi"²⁴¹.

A.Azizqulov o'zining "Xojagon tariqati va psixoanalitika (tarbiya masalasiga komparativistik yondaShuv)" maqolasida tasavvuf ta'limoti bilan psixoanalizni qiyosiy tahlil qiladi, Yani komparativistik yondaShuvni amalga oshirgan. Ma'lumki, psixoanalizda inson ruhiyati aqliy-ratsional va ongsiz-irratsional ko'rinishlarda faoliyat ko'rsatadi. Bu ta'limot psixoanalizgacha mavjud edi, biroq keyinchalik Z.Freyd mazkur ta'limotni rivojlantira tarib, uni uchta qatlamga bo'lib tashladi: "U" ("Id"), "Men" ("Ego") va "Oliy Men" ("Super Ego"). Freydning fikricha, "U" ongsiz-irratsional jarayonlar makonidir. "Men" esa ratsional, mantiqiy tafakkur faoliyati qatlami hisoblanib, "bu qatlam ruhiyatning quyi ong ostida kechadigan noratsionallikni, noonglilik bilan bog'liq bo'lgan hirsiyotni ham nazorat qiladi, jamiyatdagi axloqiy me'yorlar bilan mutanosibligini ta'minlaydi"²⁴². Muallif Shunday deb yozadi-yu, biroq birozdan so'ng o'z fikriga mutlaqo teskari bo'lgan fikrni ilgari suradi. U "U" qatlami to'g'risida yoza turib, Shunday deydi:"insonda biror bir ongli ijtimoiy faoliyat davomida hirsiyotga bo'lgan maylni bartaraf etib ham, tarbiyalab ham bo'lmaydi". Bir tomondan, "Men" hirsiyotni nazorat qiladi, deydi, ikkinchi tomondan, ong ostini tarbiyalab bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Qay biri to'g'ri? Qolaversa, muallif inson ruhiyatining "Oliy Men" qatlamini muallif "shaxsni jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda ideal xususiyatlarini namoyon etadigan "vijdon tsenzurasidir"²⁴³ deb baholaydi. Aslida "Oliy Men" faqatgina "vijdon tsenzurasini" bilan chegaralanmaydi. Unga madaniyat, umuminsoniy qadriyatlar, turli-tuman tabular va h.k.lar kiradi. Bundan tashqari, muallif vijdon tsenzurasini haqida yozar ekan, Shunday deb ta'kidlaydi:"Insonni komillik darajasiga intilishi ruhiyatning ana Shu qatlamida sodir bo'lar ekan"²⁴⁴. Bu fikr bilan kelishib bo'lmaydi. Shunki insonning komillik darajasiga intilishi faqatgina vijdon tsenzurasiga bog'liq emas. Umuman komillik juda ko'plab omillardan tashqari insonning dinga nisbatan munosabatiga ham bog'liq holda kechadi. Shunki din ham "Oliy Men"ning tuzulmasiga kiradi. Biroq Z.Freydning dinga munosabati ateistik bo'lganligi bois, uning insonning komillikka intilishidagi rolini xuddi madaniyatga o'xshab salbiy deb baholagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda vijdon tsenzurasini bilan komillik o'rtasidagi aloqa zo'rma zo'raki o'rnatilganligi ayon bo'lmoqda. Tasavvufdagi komillikni insonning dinga bo'lgan munosabati belgilab beradi.

Shu o'rinda Z.Freydning dinga bo'lgan munosabatini aniqlashtirib olsak. Bu juda ham muhim. Sababi Yuqoridagi misolda ham ko'rinib turibdi bu holat, Yani umuman so'nggi paytlarda ayrim psixolog olimlar tomonidan psixoanalizni tasavvuf bilan sun'iy holda bog'lab tushuntirish tendentsiyasi kuzatilayapti. Z.Freydning diniy masaladagi qarashlarini yaxshilab tushunib etilsa, hech qachon ularni bir biriga bog'lashga urinilmasligiga ishonchimiz komil.

Freyd o'zining "Bir illyuziya kelajagi" asarida dinni miyadan ketmaydigan holatlarning (navyazchivye sostoyaniya) jamoaviy nevrozi deb tushuntiradi. Bu holatni tibbiyotda Shunday tushuntirishadi: miyadan ketmaydigan nevrozda bemorda o'ta serjahillik, o'ta charchaganlik, haddan oshiq uyqusizlik, ish qobiliyatining susayishi holatlari kuzatiladi. Kasallikning miyasida o'rnashib qolgan holatlar uch xil ko'rinishda bo'ladi: a) fikrlar ko'rinishida: bemorning miyasiga birorta fikr keladi-yu, umuman undan qutila olmaydi (Odamning miyasida Xudo obrazi turib

²⁴¹ Freyjdjer R., Feydimen D. Bolshaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freyjdjer, Djejms Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s.- 36-bet.

²⁴²Azizqulov A. Xojagon tariqati va psixoanalitika (tarbiya masalasiga komparativistik yondashuv). // "Orif Deggaroniy Markaziy Osiyo tasavvuf ta'limotining buyuk valiyisi" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. 2007 yil 29 may. – Navoiy: 2007. - 140 bet. - 75-bet.

²⁴³ O'sha asar, 75-bet.

²⁴⁴ O'sha asar, 75-bet.

qoladi va u muttasil holda faqat Shu haqda o'ylaydi, chetdan keladigan turli tuman fikrlarni g'am faqat mana Shu obraz prizmasidan o'tkazadi); b) harakatlar ko'rinishida: bemor ma'lum bir harakatni to'xtovsiz amalga oshiraveradi (mas., beto'xtov qo'lini yuvadi, sochini kesadi va h.k. Odam qandaydir stereotip va ma'nisiz harakatlarni majburan takrorlaydi. Ibodatlar va turli xil rituallar Shular jumlasiga kiradi); v) vahima ko'rinishida: bemor doimo qandaydir vahima bilan yashaydi (mas., uni o'ldirib qo'yadigandek bo'laveradi. Yoki odam Xudoning oldida qachondir hisob-kitob qilinishi vahimasi bilan yashaydi). Freydning fikriga ko'ra, din – bu insonning miyasida ketmaydigan bo'lib qotib qolgan fikr ko'rinishidagi nevrozdir²⁴⁵.

Psixoanaliz insonning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, nafsning istaklariga, mayllariga qarshi boradigan har qanday narsani, jumladan madaniyatni, dinni inkor qiladi. Madaniyat va din inson mayllariga to'siq bo'lib, uning qondirilish yo'llariga to'g'on uradi va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan g'oya ilgari suriladi.

Id aslida insonning nafs, uning ichidagi bir borliq, uning ichki "Men"idir. Nafs masalasi Sharqda, xususan islom ta'limotida Freyddan ming yillar oldin ko'tarilgan va o'zining eng mukammal echimini topgan. Bu sohada ayniqsa tasavvuf vakillari jonbozlik ko'rsatganlar. Ular nafsdan voz kechib bo'lmasligini anglaganlaridan keyin uni tarbiyalash yo'lini tutdilar. Nafsning eng quyi darajasi "nafsi ammora" bo'lsa, uni tarbiyalab, bosqichma bosqich yuksaltirib "nafsi komila" darajasiga etkazish mexanizmini ishlab chiqishgan. Ular nafaqat nazariy jihatdan ishlab chiqishganlar, balki o'zlarining hayotlarida sinab ko'rishganlar. Freyd aytgan nafs "nafsi ammora" bo'lib, uning istaklarini qondirish zarurligi mazkur ta'limotning asosida yotadi.

S.Jimbinov psixoanaliz to'g'risida Shunday degan edi: "Psixoanaliz – yarim badiiy, yarim ilmiy ta'limot. Shaxsning asosi hisoblangan ilk bolalik, unitilgan kechinmalar va alamlar, ushalmagan orzular – bularning ichida qanchalar She'riyat va donishmandlik bo'lishi mumkin edi! Biroq Freydning qovoq uygan materializmi va xira ateizmi uning mifologiyasini buzuq va cho'loq qilib qo'ydi"²⁴⁶.

Imom G'azzoliy nafsni cho'chqalarga va itlarga o'xshatadi: hissiy nafs o'zini cho'chqalardek tutadi, qattiqqo'l nafs itlarga o'xshaydi. Nafsning bu bosqichi uchun g'azab, baxillik, ehtiros va hasad singari sifatlar xos bo'lib, bunda dunyoviy va egoistik istaklar hukmronligi kuzatiladi.

Bu darajadagi nafsga ega bo'lgan kishilar giyohvandlarga o'xshaydilar. Shunki ular o'zlarini giyohvand hisoblamaydilar. Shunga o'xshash nafs ammoriga ega bo'lgan kishilarni negativ istaklar boshqaradi va lekin ular buni tan olishni istamaydilar. Bu nafs ruhiyatini egallagan kishilarda nafsni o'zgartirishga nisbatan xohish ham, istak ham bo'lmaydi.

Nafsning vasvasasi to'g'risida Al-Hakim at-Termiziy Shunday deb yozadi: "Agar nafs vasvasa qilsa, u shahvat va lazatlari bilan vasvasa qiladi. Shu tufayli ham uning masalasi qiyinroq va og'irroq. U endi o'limni yodga olish bilan haydaladi. Zero o'lim bardavom ravishda nafsga eslatib turilsa, undagi shahvatlar barham topadi. Nafsga doimiy ravishda zavol topishi, ahvoli tang bo'lishini yodga solaverish, uni xorlaydi, uni zabun etadi"²⁴⁷. Al-Hakim at-Termiziy nafs vasvasasi haqida gapira turib, birato'la uni bartaraf etishning yo'llarini ham ko'rsatib ketadi.

Nafsi ammoraning vasvasalari to'g'risida M.A.Jo'shon Shunday deb yozadi: "SHayton vasvasasi bilan nafs vasvasasi orasidagi farqni mutasavviflar Shunday farqlaydilar: SHayton o'yindan o'yinga o'taveradi, nafs esa bir narsani qaysarlik bilan talab qilib turaveradi. SHayton mohir yolg'onchi va hiylakor bo'lgani bois, insonni Alloh roziligidan chalg'itish maqsadida bir gunohga undolmasa, boshqa bir gunohni "taklif qiladi": bir o'yinda insonni laqqilatolmasa, ikkinchi bir o'yinni tatbiq etadi. Ammo nafs – qaysar yosh boladek yopishib olgan narsasini xohlab taraveradi. Vasvasaning nafsdan ekanligi Shu tariqa anglashiladi"²⁴⁸. Mazkur ta'rifda vasvasaning manbalarini farqlash haqida batafsil ma'lumot berilmoqda. Bu - o'z nafs bilan

²⁴⁵ Z.Freyd. Budumee odnoy illyuzii. // Sumerki bogov/ Sos. I obit. Red.A.A.YAkovleva: Perevod. – M.: Politizdat, 1990. - 398 s.

²⁴⁶ Zigmund Freyd YA i Ona–M: MPO "METEM", 1990.-S.54.–6-bet

²⁴⁷ Al-Hakim at-Termiziy. Nodir masalalar. – T.: "Movarounnahr", 2007. – 86 bet. – 49-bet.

²⁴⁸ Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: "Cho'lpon", 1998. - 80 b. - 9-bet.

kurashayotgan kishi uchun nihoyatda muhim. Shunki inson o'z raqibini aniq bilib olsa, unga qarshi kurashish oson kechadi.

Nafsi ammora to'g'risida al-Jazariy Shunday deb yozadi: "Moddiy tabiatga va shahvatlarga mayl qiluvchi bu nafs barcha yomonlik va axloqsizliklarning o'chog'i sanaladi. Kibr, hirs, shahvat, hasad, kin, g'azab, baxillik va xasislikning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi"²⁴⁹.

Shunday qilib, nafsi ammora yovuzlikka boshlovchi nafs hisoblanib, u ma'lum muolaja Yordamida yo'l boshlovchining ko'rsatmalari bilan riyozat chekish orqali yaxshilana boradi va natijada "nafsi lavvoma" deb ataladigan keyingi bosqichga o'tadi.

2. Nafsi lavvoma.

Nafsning bu bosqichi Qur'oni karim Qiyomat surasining (75) 2-oyatidagi: "Va men malomatgo'y nafsga qasam ichurmanki, (hech shak-Shubhasiz qayta tirilib, hisob-kitob qilinursizlar)" ma'noga borib taqaladi. Bu bosqichda solik yomonlikdan, yovuzlikdan, gunoh ishlardan va niyatlardan yaxshiliklarga qaytish niyati tug'iladi. Bu davrga kelib solik endi o'zini ilgari qilgan gunohlari uchun qoralaydi, malomat qiladi va pushaymon chekadi. Shuningdek, bunday noma'qulchiliklarni minba'd qilmaslikka ahdi-paymon etadi. Bu martabaga kelib solik "Alloh" ismi bilan zikr qilinadi va kalimai tavhidga esa "la maqsudu illalloh" ma'nosini beradi.

Agar nafsi ammora darajasida inson o'zining xulq-atvoridagi kamchilik va nuqsonlarni, nafsining cheksiz istaklarini anglamasa, bu bosqichga kelib inson o'ziga ilk bora tanqidiy baho bera boshlaydi. Bu undagi egoizmning susayib borayotganidan, o'zini sevishning to'nib borayotganidan darak beradi. O'z-o'zini tanqid bosqichidan o'z nuqsonlaridan, o'z nafsi ammorasining sifatlaridan nafratlanish boqichiga o'tilishi inson ruhidagi ruhoni inqiloblardan biri desak xato qilmaymiz.

Abduqodir G'iyuloni hazratlari bu bosqichda nafsga qarshi qanday kurash olib borish lozimligini quyidagi satrlarida bayon etadi: "O'z nafsingni o'tkir tig'li tavhid bilan ur, unga tavfiq dubulg'asini kiygaz. Nafsing goh yaralanib, goh kaltak esin. Bu to nafsing senga xor bo'lib, uning jilovidan ushlab minib olguningcha davom etsin"²⁵⁰.

Biroq ta'kidlash kerakki, hali bu bosqichda nafs ehtiyoj va istaklarining ta'siri ostida bo'ladi. Eng muhim psixologik jarayon – ehtiyojlar nisbatan yuksakroq ko'rinishlarda paydo bo'la boshlaydi. Masalan, nafsi ammorada biologik ehtiyojlar (jinsiy ehtiyojlar) va xavfsizlikka nisbatan ehtiyojlar asosiy ehtiyojlar bo'lib hisoblanishsa, bu bosqichga kelib qandaydir guruh qadriyatlarini olish va muhabbat ehtiyojlari paydo bo'ladi (Abraaxam Maslou).

Shu o'rinda ehtiyoj haqida qisqacha to'xtalamiz. Shunki u insonni faoliyatga undovchi kuch bo'lib, ehtiyojning mohiyati faoliyatning strukturasi va mazmunini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan nafsning yo'nalishini belgilab berishda ham ehtiyojning o'rni katta hisoblanadi. Bu o'rinda Jalodiddin Rumiy Shunday deb yozadi: "Erda bir hayvoncha (qurt) mavjuddir. U er ostida zulmatda yashaydi. Ko'z va quloqsiz. Aslida uning ko'z va quloqqa ehtiyoji ham yo'q. Madomiki muhtojlik yo'q ekan, unga nechun ko'z va quloq bersinlar? Tangri oz bo'lgani uchun Yoki xasisligi sababli uni ko'z va quloqsiz qoldirdimi? Yo'q! U bularni ehtiyojiga qarab berdi. Ehtiyoji bo'lmagan kishiga berilgan har qanday narsa ortiqcha yukdir. Biroq Tangrining lutfi, karami va hikmati yuk bo'ladi emas, balki kishi zimmasidagi yukni tushiradi. ... Shuning uchun ham narsani ehtiyojiga ko'ra beradilar. Qurt er ostida, qorong'ulikda yashaganidek, ba'zi bir odamlar ham bu dunyoning zulmati bilan kifoyalanadilar. Bular u olamga ehtiyoj bo'lmagani kabi Alloh diydoriga ham mushtoq emaslar. Ular ko'zlari bilan dunyoning ishinigina ko'radilar. Shunday ekan, oxirat saodatini ko'rishga yaraydigan ko'zlar bularga nechun?"²⁵¹.

Ehtiyoj to'g'risida bundanda o'tkazib gapirish qiyin. Biz nafs haqida gapirar ekanmiz, uning yuksalishida, musaffolaShuvida ehtiyojning o'rni kattaligini his qilamiz. Shuning uchun

²⁴⁹ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b. – 84-85-betlar.

²⁵⁰ Abdulqodir Jiyloni (G'avsul A'zam). Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish. Ikkinchi kitob. – T.: "Movarounnahr", 2006. – 127 bet. – 55-56-betlar.

²⁵¹ Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindir. – T.: "YAngi asr avlodi", 2003. – 199 b.

ehtiyoji bo'lmagan odam nafsning keyingi yuksakroq bosqichlariga ko'tarilmasligini ta'kidlamoqchimiz, xolos.

Bu bosqichda insonda yuksak ideal intilishlar yuzaga chiqadi va eng muhimi – bu bosqich boshidan oxirigacha ichki kurash bilan kechadi.

Bu kurash haqida hadis bor. “Paygʻambarimiz alayhissalom jihoddan qaytayotgan qavmiga qarata dedilar:

- Marhabo, kichik jihoddan ulugʻ jihodga keldingiz!
- YO rasululloh, ulugʻ jihod qaysi? – soʻradilar ashoblar.
- Nafs bilan jihod, - dedilar rasuli akram” (“Ibn Moja rivoyati”)²⁵². Bu hadisda nafs bilan olib borilayotga kurash “jihod” maqomida talqin qilinayapti.

Bu kurash haqida Oʻzak Shunday deb yozadi: “Nafs, Yani quyi “Men” bilan ruh oʻrtasida kurash davom etadi. Bu kurash butun umr davom etadi. Masala kim kimni tarbiyalashida kimning xoʻjayin boʻlishida yotadi. Agar ruh gʻalaba qozonsa, siz musulmonsiz, siz haqiqat ochiladigan odamsiz. Agar ruhning ustidan sizning quyi “Men”ingiz hukmron boʻlsa, siz haqiqatni inkor qiladiganlardan biriga aylanasiz”²⁵³.

Al-Jazariy nafsning bu bosqichi haqida Shunday deb yozadi: “Bu maqomdagi nafs batamom kamolga etmagan, bir muncha tozalangan nafsdur. Baʼzan isyon qiladi, baʼzan esa pushaymon boʻlib, egasini qilib qoʻygan yomonliklari uchun tanqid qiladi. Qisqasi, undan pushaymonlik va nadomat, hirsu-havo ketmagan boʻladi”²⁵⁴.

Nafsning bu bosqichidagi mazmuni psixoanalitik nazariyadagi Super Ego mazmuniga mos tushadi. “Super Ego sudʼya vazifasini oʻtaydi Yoki Ego xatti-harakatning va fikrlarning tekshiruvchisi hisoblanadi. Bu shaxs uchun tahqiqlarni shakllantiradigan tuzulmalarning va xulq-atvor standartlarining, axloqiy normalarning omboridir. Freyd Super Egoning uchta funksiyasini yozadi: vijdon, oʻzini oʻzi kuzatish va ideallarning shakllanishi”²⁵⁵.

Bu bosqichda solik oʻzini oʻzi ayblaydi, oʻzini oʻzi pastga urish va oʻz oʻzini himoya ham qiladi. Bu bosqichda oʻzini oʻzi hurmat qilishga nisbatan ehtiyoj paydo boʻladi va yuksakroq ideallar dunyoga keladi. Solik Shu yuksakroq ideallarga intila boshlaydi. Bu bosqichda solik hali oʻz hayotining mazmun mohiyatini tushunib etmaydi. Biroq u oʻz xato-kamchiliklarini, nuqsonlarini aniq koʻra boshlagani sari undagi afsus –nadomat orta boradi va oʻzini oʻzi oʻzgartirishga mayl osha boradi. Shuningdek, bu bosqichda solikning tavbasi cheksiz pushaymonlik koʻrinishini oladi.

Agar masalani giyohvandlar bilan qiyoslasak, bu bosqichdagi holat goʻyo giyohvand oʻzining giyohga muteligini angelaydi oʻzgalarga va oʻziga keltirayotgan musibatini tushunib etadi. Biroq afsus bilan ish bitmaydi. Bu darddan forigʻ boʻlish uchun nisbatan kuchliroq dori – darmonlar kerak boʻladi.

3. Nafsi mulhima.

Nafsi mulhima bosqichi Qurʼoni karim SHams surasining (91) 9,10-oyatlarida: “Oʻz nafsini – jonini imon va taqvo bilan poklagan kishi najot topdi va u jonini fisq-fujur bilan koʻmib xorlagan kimsa nomurod boʻldi” degan maʼno bilan bogʻliq hisoblanadi. Solik bu bosqichda qilgan zikri, riyozati va mujohadasi natijasida yangi manzillarga etishadi. Endi solikda qilingan ibodatlarining zavqi his qilinadi va uning qalbidan ilohiy ishq oʻrin oladi. Nafsi mulhimaning oʻziga xos xususiyati Shundaki, agar nafs lavvoma bosqichida solik dunyodan, dunyoga boʻlgan muhabbatdan voz kechsa, bu bosqichda solik uxroviy manfaatlardan ham voz kechadi va uning vujudi hamda qalbini faqat Alloh sevgisi qamrab oladi. Solikda zikr Shunday darajaga etadiki, uning butun aʼzoi badani Alloh zikri bilan band boʻladi. Shuningdek, u butun borliqning Alloh zikri bilan nafas olayotganini ham his etadi, anglay boshlaydi.

²⁵² Abu Homid Gʻazzoliy. Riyozatun-nafs (Nafs tarbiyasi), (arab tilidan tarjima). Tarjima va soʻzboshi muallifi filologiya fanlari nomzodi Rashid Zohid. – T.: “Movarounnahr”, 2006. 80 b.– 47-bet.

²⁵³ Freydjer R., Feydimen D. Bolʼshaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freydjer, Djejms Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s. – 504-bet.

²⁵⁴ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: “Movarounnahr”, 2000. – 100 b. – 85-bet.

²⁵⁵ Freydjer R., Feydimen D. Bolʼshaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freydjer, Djejms Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s.-37-bet.

Murshid – ustozlar kuzatiladigan xavfdan solikni ozod etadilar. Shunki bu bosqichda solik holning Shukuhidan o'zini maqsadga etishdim deya his etadi. Aslida bu nafs va shaytonning aldovlari natijasidir. Solik Allohndan bo'lgan lutf va in'omlardan sarmast bo'lib, o'zini yo'qotib ham qo'yishi mumkin. Shuning uchun solik o'zidagi ruhiy holatlar to'g'risida ustoziga xabar berib turishi lozim. Piri murshid undagi bu holni muolaja qiladi.

Bu maqom-martabada solik Allohni "hu" ismi bilan zikr qiladi. Agar yaqiyin darajalari nuqtai nazaridan turib tahlil qilsak, nafs lavvoma - "ilmal yaqiyin" maqomiga to'g'ri keladigan bo'lsa, nafs mulhima "aynal yaqiyin" maqomiga to'g'ri keladi. Kalimai tavhidning ma'nosi "la mahbuba illalloh" ma'nosida bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, solikning o'z nafs bilan bo'ladigan mujodalasining bu bosqichida solik ilohiy ilm va fayzni ilhom yo'li bilan oladi va bosqichning alomatlarini quyidagilar: foydali ilm, tavoze', tavba, sabr, Shukr, saxovat, qanoat va tahammuldir.

Al-Jazariy nafsning bu bosqichi haqida Shunday deb yozadi: "Alloh (j.j.) uning sohibiga ilm, tavoze', qanoat va mardlikni ilhom etgan. Bu nafs sabr, tahammul va Shukrning bulog'idir"²⁵⁶.

Nafs mulhima bosqichiga etishgan solik ibodatlardan haqiqiy qoniqish hissini tuyadi, ibodatlarni "ehson" (xuddi Allohni ko'rib turgandek) darajasida bajarayotgan bo'ladi. Solik ruhiy hayotning turli xil ko'rinishlarini, jumladan muroqaba (YAratuvchiga doimiy nazar qilish bilan odamlarni unitish) ni tajribada sinab ko'radi. Bu holatda solikda o'zgalarni his qilish (empatiya), o'zgalarga Yordam berish va Yana ko'plab axloqiy qadriyatlar shakllanganligi kuzatiladi. Agar Shu bosqichgacha bo'lgan davrda solikning ruhoniyligida unchalik chuqur tushunmaslik va diniy talablarni hamda ustozning topshiriqlarini mexanik bajarish holatlari kuzatilgan bo'lsa, bu bosqichda ular "ixlos" va "ehson" bilan bajarila boshlanadi. Aytish mumkinki, aynan Shu bosqich tasavvufning ilk bosqichi hisoblanadi.

Nafs tarbiyasining bu bosqichi to'g'risida Hakim at-Termiziy Shunday deb yozadi: "Bu manzildagi bandalarning qalbi nafs buyrug'i v ko'rsatmasiga itoat qilib, ularga ergashib ketishdan o'ta himoyalangan. Shuning uchun nafs ular ustidan hukmronlik qilishdan mahrum bo'lib qolgan. Ularda qalb o'z Arshiga chiqib olgan shohga, ruh uning tarjimoniga, aql uning vaziriga, amru ma'ruf va nahiy-munkar (ezgulikka chorlash, yomonlikdan qaytarish shohni tayin etuvchiga aylanib qolgan). Sulton – ruh, tadbirkor – aql bo'lib qolgan. Ilgari esa nafs itoatgo'y qalb ustida turgan shoh edi. Endi bo'lsa Allohning tavrifiq hidoyati bilan nafs ularga itoat qiladigan, zaif va notavon qulga aylanib qolgan"²⁵⁷.

Nafs mulhima bosqichining psixologik sharhi quyidagicha: solik hali kuchli bo'lgan Egoning ta'siri va boshqaruvi asosida bo'lsada, biroq endi solikdagi kamolotga intilish va etishish motivatsiyasi Shunchalik kuchliligidan Egoning ta'siri keskin pasayadi. Bu bosqichda solik psixologik jihatdan yangi qadriyatlarni qabul qilishga tayyor turishi lozim, aks holda ularni, Yani erishilgan yutuqlarni butunlay yo'qotib qo'yishi mumkin bo'ladi.

Ehtiyoj nuqtai nazaridan fikr bildiradigan bo'lsak, bu bosqichga xos bo'lgan ehtiyoj o'zini o'zi aktuallashtirishga (samoaktualizatsiya) nisbatan ehtiyoj hisoblanadi. "O'zini o'zi aktuallashtirish – to'nib qolgan holat emas. Bu harakatdagi jarayon bo'lib, bunda individning qobiliyati to'liq, ijodiy va shodon hayotga tatbiq etiladi"²⁵⁸.

Shunday qilib, nafs mulhima solikning bevosita ruhiy-ma'naviy rivojlanishidagi muhim bir zanjir bo'lib, u o'zidan keyingi bosqich uchun poydevor sifatida xizmat qiladi.

4.Nafsi mutmainna.

Qur'oni karimning Fajr surasi (89) 27-oyatidagi: "Ey xotirjam – sokin jon (nafs)" oyati aynan nafs mutmainnaga doxildir, Yani bu bosqichda nafs xotirjamlashadi, tinchlanadi, sokinlashadi.

²⁵⁶ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b. – 85-bet.

²⁵⁷ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim at-Termiziy. Munozil ul-ibod min al-iboda. –T.: "Movarounnahr", 2003. - 52 b. -12-13 betlar.

²⁵⁸ Freydjer R., Feydimen D. Bol'shaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freydjer, Djeym Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s.-405-bet.

Bu oldingi maqomdan yuksakroq maqom hisoblanib, bunda solik o'z qalbida ilohiy ishq tuyg»usini tuyadi. U dunyodan voz kechadi, mosuvoni ko'ngildan chiqaradi va har bir narsada Allohning mavjudligini, uning tajallisini mushohada qiladi. Bu Shunday maqomki, ilohiy tajalliydan solik qalbida vajah paydo bo'ladi. Bu vajhdan qalbi taskin topadi va halovatga to'lib toshadi. Shuningdek, imon xotirjamligiga etishadi. Uning vujudini odamlarga xizmat qilishga, saxovat ko'rsatishga moyillik, istak egallab oladi. Endi bu bosqichda ba'zi soliklarda kashfu-karomatlar kuzatiladi. Bu o'ta ehtiyot bo'ladigan holat hisoblanib, Shunday kashfu-karomatlarni solik o'zida tuydimi, birdaniga Shayxiga (pirga, murshidga) murojaat qilib, uning ko'rsatmalariga amal qilishga to'g'»ri keladi. Bu bosqichda solik oldida ikkita xavf paydo bo'ladi: birinchisi – nafs va shaytonning yo'ldan adashtirishi, ikkinchisi - kashfu-karomatlarning ta'sirida tanosux ta'limotiga (e'tiqodiga), Yani ruhning bir odamdan boshqa odamga ko'chib yurishi haqidagi e'tiqodga ishonib qolishi mumkin.

Bu bosqichga xos bo'lgan xususiyatlar, amallar quyidagilardir: solikning ilmiga amal qilishi, tavakkul, ochlik, riyozat, ibodat va tafakkur. Solik “bu martabada “Haq” ismini zikr qiladi. Kalimai tavidga “la mavjuda illalloh” ma'nosini beradi”²⁵⁹.

Al-Jazariy bu bosqich haqida Shunday deb yozadi: “Poklanish davom etsa, nafs mutmainnaga o'tiladi. Bu yomon sifatlardan tozalangan, karomat ostonasiga etgan (xotirjam bo'lgan) nafsdur”²⁶⁰. Shuningdek, bu bosqichdagi nafs haqida G»avsul A'zam Abdulqodir Jiloniy o'zining “Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish (Ikkinchi kitob)” kitobida Shunday deb yozadi: “Nafs bilan to uni o'ldirguningcha kurash, keyin boshqa xotirjam nafs yuzaga chiqadi. U shahvatlar eshigini yopadi. SHahvatlar yo'lini to'sadi. SHahvatlar yo'l topmagach, ruhing yo'l ochadi. Qattiq jihoddan keyin qalbgaga aylanadi”²⁶¹.

Bu bosqichda ilgarigi kurash kuzatilmaydi, u endi tugagan bo'ladi. Uning o'rmini tinchlik va xotirjamlik egallagan. Solikni ilgarigi istaklar va ehtiyojlar bezovta qilmaydi. Bu qondirilgan nafs, xotirjam nafs, ishonch va tan berish bosqichi hisoblanadi. Ego-“men”solikka ilohiyotga yaqinlashish imkoniyatini beradi va u mohiyatan o'zgaradi. Solik bu maqomda qiyinchilikni ham, engillikni ham bir xil qabul qila boradi, Yani solik tavidning yangi pog»onasiga ko'tariladi. Unda ikkiliklarning birini tanlash emas, balki ularning YAratuvchisining O'zini tanlash holati uyg»onadi. Bu bosqichning eng Yuqori martabasi “fano” hisoblanadi.

5. Nafsi roziya.

Qur'oni karimning Fajr (89) surasi 28-oyatidagi: “(Ato etilgan ne'matlardan) rozi bo'lgan (va Alloh tomonidan) ham rozi bo'lingan holingda, Rabbing (huzuri)ga qaytgin!” mazmundan “(Alloh ato etgan ne'matlardan) rozi bo'lgan” jummlalar nafs roziyaga taalluqli deb hisoblashadilar. Bu bosqich nafs mutmainnadan ham yuksakroq bosqich bo'lib, bu bosqichda endi solikda bashariy sifatlari yo'qoladi. Bu bosqichning asosiy fazilati solikning “baqo” maqomiga ko'tarilishidir. “Baqo” maqomining o'ziga xos tomonlari to'g'»risida to'liq ma'lumot berilgan. Usmon Turar bu bosqich to'g'»risida Shunday deb yozadi: “Bu martabada solik “hayy”, “somad” Yoki “sabor” ismi bilan (bu tariqatlarga ko'ra o'zgarishi mumkin) zikr qiladi. Kalimai tavidga esa “la mavjuda va la maqsuda va la mahbuba illalloh” ma'nolarini beradi. Bu martabadagi solikning sifatlari: ixlos, behuda so'zlarni so'zlamaslik, doimiy zikr, vara' va karomatlardir”²⁶².

Al-Jazariy nafsning bu bosqichi bo'yicha Shunday deb yozadi: “Bu nafs Alloh (j.j.) ga taslim bo'lish, buyruqlariga va sunnati saniyyaga chin ko'ngildan bo'ysinishning boshlanishidir”²⁶³.

Bu bosqichda solik ma'lum psixologik holatlarni boshidan kechiradi. Solik bu bosqichda nafaqat o'z taqdiridan rozi bo'ladi, balki Allohdan keladigan barcha qiyinchilik va sinovlardan

²⁵⁹ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180 b.-84-bet.

²⁶⁰ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: “Movarounnahr”, 2000. – 100 b. – 85-bet.

²⁶¹ Jyloniy Abdulqodir (G»avsul A'zam). Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish (Ikkinchi kitob). – T.: “Movarounnahr”, 2006. – 127 b. – 51-bet.

²⁶² Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180 b.-85-bet.

²⁶³ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: “Movarounnahr”, 2000. – 100 b. – 85-bet.

rozi bo'ladi. Ma'lumki, oddiy odamga lazzat va og'riqdan, g'am-anduhdan qochish holatlari xos bo'lsa, bu bosqichda istiqomat topgan solikka sadoqat xislati xos bo'ladi.

6. Nafsi marziya.

Qur'oni karim Fajr surasidagi (89) 28-oyatning "(Ato etilgan ne'matlardan) rozi bo'lgan (va Alloh tomonidan) ham rozi bo'lingan holingda, Rabbing (huzuri)ga qaytgin!" mazmundan "...(va Alloh tomonidan) ham rozi bo'lingan holingda, Rabbing (huzuri)ga qaytgin!" jummalari nafsi marziyaga taalluqli bo'lib, bu bosqichda solik Allohdan rozi bo'lganidek, Alloh ham undan rozidir. Nafsi mutmainnada solik barcha ashyoda Haqning tajallisini mushohada etgan bo'lsa, bu bosqichda solik Yuqoridagi "af'ol tajallisi"dan farqli o'laroq asmo (Allohning ismi sifatleri) va Haq tajallilariga noil bo'ladi. "YAqiyin" martabalaridan "haqqal yaqiyin" martabasi bu bosqichga xos hisoblanadi. Bu bosqichda solik "Qayyum" ismini zikr qiladi. "Solik Allohning lutfi bilan bu maqomda ushbu xususiyatlarga erishadi: Allohdan boshqa hamma narsani tark etadi, maxluqotga lutf bilan muomala qiladi. Allohga yaqinlashadi, uning san'atlarini tafakkur etadi, uning qismatiga rozi bo'ladi va ma'rifatullohi kuchayadi. Bu maqomga erishgan komil zot ashyoning haqiqati va sirlaridan voqif bo'ladi"²⁶⁴.

Al-Hakim at-Termiziy nafsning mazkur bosqichi to'g'risida Shunday deb yozadi:"Agar qalb Allohga etishsa, Alloh bunday qalbni tiriltiradi. Agar qalbni tiriltirsa, nafs ham qalb hayoti kuchi – Alloh nuri bilan yashay boshlaydi. Qalb shahvat va xursandchilik girdobida qolib, o'lib bo'layotgan edi. Ammo qalb sohibi uni o'z qo'liga olib, xursandchilikdan to'ssa, Rabbisi undan rozi bo'ladi"²⁶⁵. Agar e'tibor berilsa, Al-Hakim at-Termiziy aynan "marziya" haqida fikr yuritmoqda va mazkur so'zni qo'llamoqda. Muhimi Shundaki, mutasavvif bu o'rinda nafsni qalb bilan birgalikda tushuntiradi. Darhaqiqat, nafs inson ma'naviy hayotining ko'plab qirralari bilan aloqada faoliyat ko'rsatadi. Bu o'rinda Al-Hakim at-Termiziy nafsning dunyodan to'silgandagi holatini ko'rsatib beradi va Shu bilan birga to'silishning qalbgaga ko'rsatadigan ta'sirini ham ochib bermoqda. Bundan tashqari, nafsning holati Alloh rozi bo'ladigan darajaga kelishi uchun qalb sohibi o'zining ustida muttasil ishlashi lozimligini ta'kidlamogda.

Al-Jazariy nafsning bu bosqichi to'g'risida Shunday deb yozadi:"Bu Alloh (j.j.)ning roziligi, panohidagi nafs. Bu rozilikning ko'rinishi Shulki, qalbda ixlos, ma'rifat fe'llarining tajalliysi va Alloh (j.j.) yodini bir lahza ham unitmaslikni, g'afolatga tushmaslikni tug'diradi"²⁶⁶. Bu bosqichga erishganlar sanoqli soliklardir va ular qanday xatti-harakat ko'rsatishmasinlar barchasi Allohdan ekanligini his etadilar, o'zlari esa hech narsa qila olmasligini tan olishadi. Ular Allohdan boshqa hech narsa so'ramaydilar ham, Undan boshqa hech kimdan qo'rqmaydilar ham. Bu bosqichdan istig'roq holati xos bo'lib, u quyidagi ma'noni beoadi: "istig'roq – g'arq bo'lish, biror narsani boshdan oxirigacha egallash, ishg'ol etish. So'fiylikda Allohdan boshqa hamma narsa bilan aloqani uzib, vujud va holga taslim bo'lishdir"²⁶⁷.

Bu bosqichda solik haqiqiy ichki yaxlitlikka va birlikka erishadi. Odamlar bu dunyo bilan yashaganlarida, bu dunyoning mohiyati ko'p qirralidir. Tasavvur qilingki, dunyo go'yo siniq oyna. Oynaning har bir bo'lagida dunyoning bir mohiyati aks etadi. Agar oyna tiklansa, dunyo (predmet) yaxlit obrazga ega bo'ladi. Xuddi Shunga o'xshab, solik qalbidagi turli tuman nizolar yo'qolib, u endi olamni yaxlit va butun ko'ra boshlaydi.

7. Nafsi komila.

Bu nafs tarbiyasining eng Yuqori bosqichi hisoblanib, solik komillik maqomiga etishadi. Bu maqomga etishgan solik o'zida barcha go'zal sifatlarni mujassam qiladi, asmoi husnoni qalbiga joylaydi. Uning vujud va ruh ikkiligida ruh tomonni tanlagan va vujudi talablarini ruh talablariga bo'ysindirgan. Bunday kishilar Shunday maqomatga erishadilarki, bunda solik uchun riyozat va mujohadaga hojat qolmaydi. Solikning butun vujudini Alloh taoloning inoyatidan qalbi zavq-shavqqa to'lib, faqat hasanot va ibodat bilan mashg'ul bo'ladi. U kirgan davrada ilohiy fayz his qilinadi, u misoli ko'zgu bo'lib, atrofdagilarning nafsini o'zida aks ettiradi. U

²⁶⁴ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqol", 1999. – 180 b.-85-bet.

²⁶⁵ Al-Hakim at-Termiziy. Nodir masalalar. – T.: "Movarounnahr", 2007. – 86 bet. – 25-bet.

²⁶⁶ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b. – 85-bet.

²⁶⁷ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b.-224-bet.

ilohiy sirlar olamiga musharraf bo'ladi, ulardan voqif bo'ladi. Aniqrog'ini aytganda, "vuslat" sirini bilishga muyassar bo'ladi. Nihoyat nafsning bu bosqichida solikning o'zi murshidlik xirqasiga ega bo'ladi va irshod qilish huquqini qo'lga kiritadi. Bu maqomda solik "qahhor" ismini zikr etadi.

Al-Jazariy nafsning bu bosqichi to'g'risida Shunday deb yozadi: "Bu nafsda komillik tamoman tabiiy va sajjiiyya (fe'l-atvor, tabiat) holiga kelgan bo'ladi. Nafsi komila martabasida to'xtamay kamolot sari yuksalinada. Bu nafsga qullarni irshod va kamolga etkazishlik buyurilgan. O'rni asmo va sifati ilohiyyaning tajalli maqomi. Nafslarning eng go'zali bo'lgan bu nafs Alloh (j.j.) bilan qoladi. Alloh (j.j.) ga ketadi. Allohdan (j.j.) boshqa suyanilgani yo'q. Uning go'zal i ilm va ma'rifati Allohdan (j.j.) keladi. Qur'oniy haqiqatlar bilan bezanadi. Muhammadiy (s.a.v.) nurlar bilan nurlanadi, insoniy ma'nolarning kamolotiga qarab yuksaladi. Sohibi ham Shu bois insoni komil bo'ladi"²⁶⁸.

Bu maqomatni psixologik jihatdan tahlil qilganda Shuni ta'kidlash joizki, solik o'z "Men"ining chegaralaridan to'liq chiqqa oladi. Bu maqomda na Ego qoladi, na alohida "Men" qoladi, balki solik o'z qalbida Allohning tajallisini ko'radi. Bu bosqich tavhidning eng yuksak darajasi hisoblanadi va "la ilaha illalloh" kalimasining haqiqiy mohiyatini tushunib etadi, haqiqatga erishadi. Solik o'zidagi har qanday individuallik Yoki mustaqillik tuyg'usining mavhum narsa ekanligini his etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nafs tushunchasi va uning tasavvufiy mazmuni.
2. Nafs bilan ichlach usullari.
3. Nafs va komillik psixologiyasi.
4. Nafs va uning martabalari.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf psixologiyasining psixologik fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Azvoj – ziddiy juftlik tasavvufni o'rganishning metodokogik tamoyili sifatida.

20-MAVZU. TASAVVUF TA'LIMOTI VA AMALIYOTINING PSIXOLOGIK JIHATLARI.

Reja:

1. *Tariqat yo'lidagi psixologik hollar va manzillar.*
2. *Mistik hollarni chaqirish usullari.*
3. *Tasavvufda o'zini o'zi anglash psixologiyasi.*
4. *Meditasiya va muroqaba: farqlari va psixologik mazmuni.*

Tayanch tushunchalar: *Tariqat, psixologik hollar, manzillar, mistik hollar, chaqirish usullari, o'zini o'zi anglash psixologiyasi, meditasiya, muroqaba.*

Tariqat yo'li ma'lum so'fiyona hollar va manzillar bilan tushuntiriladi. Shuningdek, u ma'lum bosqichlarga ham bo'linadi. Tariqatning bosqichlari turli xil so'fiylarda turli xil ko'rinishda beriladi. Masalan, Muhyiddin Ibn-al Arabiy tasavvuf amaliyoti to'g'risida yoza turib, uning to'rtta bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: shariat, tariqat, haqiqat va ma'rifat²⁶⁹. Ularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

²⁶⁸ Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. – T.: "Movarounnahr", 2000. – 100 b. – 86-bet.

²⁶⁹ Freydjer R., Feydimen D. Bol'shaya kniga psixologii. Teorii, uprajneniya, eksperimenty / Robert Freydjer, Djejms Feydimen/ Per. s angl. – SPb.: Praym-EVROZNAK, 2008. – 704 s.- 496-bet.

Birinchi – shariat – barcha bosqichlarning asosi hisoblanib, u axloqiy qonun-qoidalar va normalardan tashkil topgan. Ularga shak-Shubhasiz ishonish va amal qilish orqaligina keyingi bosqichlarga kirib borish mumkin. SHariat degani arab tilida “yo’l” degan ma’noni beradi.

Ikkinchi bosqich – tariqat – amaliy so’fiylik hisoblanib, u ham “yo’l” degan ma’noni beradi. Biroq bu o’rinda u sahrodagi so’qmoq bo’lib, u orqali arablar bir vodiya ikkinchi vodiya o’tishganlar. SHariatdagi “yo’l” yo’nalishi aniq, manzili aniq bo’lgan, hech qiynalmay o’tiladigan “yo’l”dir. Tariqatdagi “yo’l” esa aniq yo’nalishi yo’q bo’lgan, hatto uncha ko’zga tashlanmaydigan “yo’l”dir. Bu yo’ldan adashmay manzilni topish uchun yo’ o’sha joyni aniq bilish zarur, yo’ yo’lni yaxshi biladigan yo’l boshlovchi kerak bo’ladi. Agar shariat dinning tashqi tomonlariga e’tiborni qaratsa, tariqat dinning ruhiy mohiyatini aks etdiradi. Yo’l boshlovchi bu erda biror vali Yoki Shayx bo’lishi mumkin. SHariat va tariqat bir-birisiz mavjud bo’lmaydi.

Uchinchi bosqich – haqiqat – shariat va tariqatda mavjud bo’lgan amaliy va nazariy maslahatlar ruhiy ahamiyatining inson tomonidan Shaxsan tushunilishidir. Haqiqatni anglagan pir (ustoz)ning ortidan ko’r-ko’rona ergashgan kishi bu bosqichga etisha olmaydi.

To’rtinchi bosqich – ma’rifat – ruhiy bilimning chuqur darajasi bo’lib, bunda bilimlar haqiqat chegarasidan chiqib ketadi. Bu alohida kishilar – payg’ambarlar, Shuningdek, ayrim valilar tomonidan qo’lga kiritiladigan, beriladigan bosqich hisoblanadi.

Ibn-al Arabiy mazkur to’rtta bosqichni quyidagicha tushuntiradi: shariat bosqichida “meniki” va “seniki” degan tushunchalar mavjud. SHariat insonning huquqlarini himoya qiladi va odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning axloqiy jihatlarini boshqaradi. Tariqat bosqichida “meniki – bu seniki, seniki – bu meniki” degan tushunchalarga rioya qilinadi. Darvishlar bir-birlariga birodar, aka-ukalardek, opa-singillardek munosabatda bo’lishlari shart. Haqiqat bosqichida “meniki ham emas, seniki ham emas” tushunchalari kuchga kiradi. Inson barcha borliq Allohdan ekanligini tushunadi va u Shu borliqdan foydalanib odamlarga foyda berishi zarur. Ma’rifat bosqichida “men ham, sen ham yo’qsan” tushunchasi hukmron bo’ladi. Bu so’nggi bosqichda kishi “hamma narsa Alloh va Allohdan boshqa hech narsa yo’q” degan fikrga keladi. Bu tasavvufning so’nggi maqsadidir²⁷⁰.

Shayx Sayyid Abdulqodir G’iyloviy ilmlarni to’rt qismga ajratadi va ularga quyidagicha ta’rif beradi: “Birinchi: shariatning zohirdagi amallari, ta’qiqlari va (inson oldiga) qo’yilgan boshqa hukmlar; Ikkinchi: bu ahkomning ichki hukmlaridirki, uni “botin ilmi” Yoki “tariqat ilmi” nomini berdik; Uchinchi: botinning aynan o’zi, uni “ma’rifat ilmi” nomini bermoqdaman; To’rtinchi: botindan ham botin. Bunga esa “haqiqat ilmi” nomini beraman”²⁷¹. Bu o’rinda ham Shayx Sayyid Abdulqodir G’iyloviy tasavvufiy bosqichlarni to’rtta ekanligini ta’kidlamoqda va zohirdan botinga qarab harakat ko’rinishida ta’riflamoqda.

Mazkur holda Payg’ambarimiz (s.a.v.) janob payg’ambarimiz (s.a.v.)ning quyidagi hadisini eslash maqsadga muvofiq: “SHariat bir daraxt; tariqat uning shoxlari, ma’rifat yaproqlari, haqiqat esa mevasidir. Qur’on ta’vil jihatidan ham, tafsir nuqtai nazaridan ham hammasini jam’ qilgandir”²⁷².

Ba’zi tasavvufiy manbalarda bu uchta bosqichni e’tiqodning turli darajalari bilan tushuntiriladi: islom, iymon va ehson bilan.

Islom deganda Qur’onda va Payg’ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlarida ifodalangan ilohiy irodaga to’liq, shak-Shubhasiz bo’ysinish, iymon deganda esa ularning chuqur botiniy ma’nolarining anglanilishi tushiniladi. Tasavvuf yo’lovchisi betakror ichki xotirjamlik va ishonchga ega bo’ladi, taqdir tomonidan unga jo’natilgan sinov va qiyinchiliklarni bosib o’tib, ehson bosqichiga ega bo’linadi. Ehson Allohni ko’rib turgandek unga xizmatda bo’lishdir. Bu ishonchning juda Yuqori bosqichi hisoblanadi va haqiqat bosqichiga to’g’ri keladi. Tasavvuf ahlining tushuntirishiga ko’ra, diniy-ruhoniylarning ongning bu bosqichi barcha diniy haqiqatlarni va o’zining bu dunyodagi o’rnini to’liq bexato anglashni

²⁷⁰ O’sha asar, 4-bet.

²⁷¹ Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloni. “Sirrul-asror”, “Maktubot”/ Tarjimon, so’zboshi va lug’at-izohlar muallifi Otabek Jo’raboev. – T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2005 yil. - 226 bet, - 61-bet.

²⁷² O’sha asar, 61-bet.

nazarda tutadi. Bunda sayYor hayotining har bir daqiqasida Allohning bevosita ishtirokini his qiladi, Alloh esa uning har bir fikrini va xatti-harakatini ko'rib, bilib turadi.

Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai sultoniyy" asarida Shunday deb yozadi: "Agar tariqatning ma'nosi nima, deb so'rasalar, degilkim, tariqat deb lug'atda to'g'ri yo'lni aytadilar. Istiloh (termin) sifatida esa suluk manzillari (ma'naviy-axloqiy poklanish bosqichlari)ni bosib o'tish va bu maqomatda (daraja - martabalarda) taraqqiy etish xislati, yo'l-yo'rig'ini bildiradi"²⁷³.

N.Komilov tariqat haqida Shunday deb yozadi: "tariqat ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo'li. Tariqatni tasavvufning amaliy qismi deya ta'riflaydilar"²⁷⁴.

Hujjatul Islom Abu Homid al-G'azzoliy rahmatullohi alayh "Miyzonul amal" kitobida quyidagilarni yozadi: "Bilki, Alloh taoloning yo'lidagi soliklar juda ozdir, ammo uni da'vo qiluvchilar juda ko'p. Biz senga doimiy ravishda ko'z o'ngingda saqlashing uchun ikkita alomatini bildiramiz: Birinchi alomat – uning barcha ixtiyoriy ishlari shariat tarozisi ila tortilgan bo'lmog'idir. ... Ikkinchi alomat – solikning qalbi takallufsiz ravishda Alloh taolo bilan doimiy ravishda hozir bo'lmog'idir"²⁷⁵.

"Molik rahmatullohi alayh "Kim so'fiy bo'lsayu, faqih bo'lmasa zindiq bo'libdir. Kim faqih bo'lsayu, so'fiy bo'lmasa fosiq bo'libdir. Kim ikkalasini jamlasa, muhaqqiq bo'libdir"²⁷⁶.

Husayn Voiz Koshifiy fikriga ko'ra, "tariqat so'zidagi har bir harf solik zimmasiga: talab qilmoq (T), rozi bo'lmoq (R), yaqin bo'lmoq (Y), qurb ko'rsatmoq (Q) va butkul tavajjuh (T) kabi majburiyatlarni yuklagandir"²⁷⁷.

Xulosa qilib aytganda, tariqat – insonlarning maxsus ta'lim-tarbiya bilan go'zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxir-oqibat esa Allohga yaqinlikni ta'minlaydigan o'ziga xos maslak va mafkura yo'lidir"²⁷⁸.

Aksariyat so'fiylarning fikriga ko'ra, haqiqat ruhoniy yo'lning so'nggi maqsadi hisoblanadi, biroq ruhiy ma'rifatning bu darajasiga etishish usullari mualliflarda turli xil tushuntiriladi. Bundan tashqari, ular manzillarning miqdori masalasida ham har xil fikr bildirganlar. Biroq haqiqatga borishda albatta tariqat bosqichini boshidan kechirish sharti eng muhim shart hisoblanadi. Tariqat Shunday konseptual va axloqiy zaruriy talablardan iboratki, ruhoniy yo'lovchi psixik, axloqiy va ma'naviy takomillashish jarayonida bu talablarni bajarishi shart. Bu psixik jarayon hamisha o'z nafi bilan olib boriladigan ruhiy kurash (mujohada), o'z ichki botiniy olamining ahvolini anglash (kashf) va ruhiy "hol"larning almashinishi ko'rinishida sodir bo'ladi. Yuqorida aytilgan holatlar islomdagi so'fiyona turmush tarzining asosini tashkil etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sayyor har bir manzilga xos bo'lgan talab va qoidalarni bajarish barobarida ruhan-ma'nan yuksala boradi. Biroq bunda har bir yo'l boshlovchining (murshid) mazkur talab va qonun-qoidalar bo'yicha o'z qarashlari va tushunchalari mavjud. Shu nuqtai nazardan tariqat deganda "ruhoniy yo'l" tushuniladi va bu yo'l ma'lum bir Shayxga (piri komilga, valiga) Yoki silsilaga xos ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun "tariqat" termini ruhiy va psixologik tayyorgarlikning o'ziga xos usuli sifatida ta'riflana boshlandi. Bugungi kungacha "yo'llarning" Yoki usullarning miqdori 160 dan oshib ketgan. Aksariyat hollarda bu usul Shu usulning asoschisi nomi bilan ataladi. Masalan, "Yassaviya metodi", "Naqshbandiya metodi", "Shoziliya metodi" va h.k. Tasavvuf tarixining ma'lum bosqichiga kelib bu termin ma'lum tashkilotga Yoki institutga nisbatan aytiladigan bo'ldi.

²⁷³ Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy. – "Komil inson haqida to'rt risola" kitobida. – T.: "Ma'naviyat", 1997. 166-275 betlar. - 179-bet.

²⁷⁴ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. – T.: YOZuvchi, 1996. – 272 b. -21-bet.

²⁷⁵ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad YUsof. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: "Movarounnahr", 2004. - 255 b. – 59-bet.

²⁷⁶ O'sha asar, 63-bet.

²⁷⁷ Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniyy. – "Komil inson haqida to'rt risola" kitobida. – T.: "Ma'naviyat", 1997. 166-275 betlar.- 243-bet.

²⁷⁸ O'sha asar, 244-bet.

Bizning maqsadimiz ruhoniy, so'fiyona yo'lining "hollari" va manzillari to'g'risida fikr yuritish edi. E'tiborimizni Shu masalaga qaratamiz.

Tasavvuf yo'lining o'ziga xos ikkita tomoni mavjud bo'lib, ulardan birinchisi "ruhoniy holat" deb ataladi va u tasavvuf ta'limoti va amaliyotida "hol" deb nomlanadi. Ikkinchisi esa "manzillar" deb ataladi va u tasavvuf ta'limoti va amaliyotida "maqom" deb nomlanadi. Demak, "hol" va "maqom". Bu ikki terminga ilk marotaba Zunnun Misriy va Horis al-Muhosibiylar tomonidan klassik ta'rif berilgan."Hol, holat – ahvol, holat, vaziyat, ayni paytda vaqt, zamon. Muayyan damda tug'ilib, so'ng o'tib ketayotgan his-tuyg'u, hayajon, ehtiros, shavq, zuhur, vajd, haybat, huzur kabi hollardir. Hol haq tuhfası va hadyasi erur. Shuning uchun hol insonning irodasi va harakatiga tobe emas"²⁷⁹. Olimlarning fikriga ko'ra, xavf, rajo, huzun, muroqaba, ubudiyat, istiqomat, sidq, hayo, hurriyat – bular tasavvufiy hollardir. Shu ma'noda holga ruhiy-psixologik hodisa sifatida qarash uni tadqiq qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sharqshunos olimi O.F.Akimushkin bu haqda Shunday deb yozadi: "Musulmon mistiklarining bir umr intilgani va o'z oldiga qo'ygan maqsadi ilohiyotni ruhan, intuitiv, bevosita bilishdir. Ularning barcha o'y-fikrlari mazkur diniy idealga bo'ysindirilgan. Ularning mistik "yo'l" konsepsiyasi asosida insonning takomillashishi va axloqiy poklanishi ("ma'naviy jihat" - mujohid) g'oyasi yotadi. Bu g'oyaning ichiga turg'un etik-axloqiy (maqomat), va qisqa muddatli, to'satdan paydo bo'ladigan, Yorug'likning lahzalik porlashiga o'xshash, psixik (hol) holatlar kiradi"²⁸⁰. E'tibor berib qaralsa, bu o'rinda maqomat deganda turg'un etik-axloqiy holat tushunilayapti, hol deganda esa qisqa muddatli, to'satdan paydo bo'ladigan psixik holat nazarda tutilayapti.

N.Komilov holga Shunday ta'rif beradi:"Hol (ko'pligi ahvol) - o'ziga xos qisqa muddatli kayfiyat, qalbning porlashi, chaqmoq chaqnaganday yarqiragan farog'on nurni tuyish lazzati. U bir lahzada paydo bo'lib, Yana g'oyib bo'lishi mumkin. Hol ilohiy rahmat va barakatning nuzul bo'lishi, quyilib kelishidir"²⁸¹. Shu o'rinda N.Komilov Sayyid Ja'far Sajjodiyning hol tushunchasiga bergan ta'rifini keltiradi. Biz ham unga to'xtalmoqchimiz. Shunki unda holning turlari ham alohida ko'rsatilgan. "Haq tarafidan solikning pok diliga nuzul bo'ladigan va uning ruhini takomilga olib boradigan fayzning darajasini hol deydilar. Hol bir lahzalik, o'tkinchi va doimiy bo'lishi mumkin. Doimiy hol – holning yuksak darajasidir"²⁸². Holga beriladigan Yuqoridagi ta'riflardan bir qancha xulosalar chiqarish mumkin:

a) Hol – ruhiy-psixologik hodisa hisoblanib, u ma'lum bir muddatda solikda kuzatiladigan kayfiyatdir.

b) Hol Haqning inoyati bilan sodir bo'ladi. Shuning uchun solik ilohiy inoyatni Uning O'zidan so'rashi kerak.

v) Holning turlari ko'p bo'lib, ularning har birini solik ketma-ket o'z boshidan kechiradi.

g) Solik holdan holga o'tish evaziga takomilga erisha borar ekan.

d) Holning solik ruhida kechishi muddatiga ko'ra uch xil turi mavjud ekan.

e) Holda ortga qaytish yo'q. Holdan holga o'tish oldinga qarab bo'ladi va h.k.

Shu o'rinda holni kayfiyat dedikki, u quvonch, tarab, surur, zavq va h.k. Yoki aksincha sog'inch, toriqish, mahzunlik va h.k. singari hissiyotlarni boshidan kechiradi. Buni holning insonning emosional-hissiy olami bilan aloqadorligidan deb tushunmoq zarur. Shuning uchun holning tili yo'q, kechinmasi mavjud, Yani uni ta'riflab bo'lmaydi, balki tuyush mumkin, ruhan boshdan kechirish mumkin. Shuning uchun hol solik ruhiyati bilan bog'liq bo'lganligi bois tasavvufda "ilmi hol" deb yuritiladi. Ma'lumki, ikkita ilm bor: "ilmi qol" va "ilmi hol". Ilmi qol so'z orqali ifodalab berish mumkin ilm hisoblanadi. Ilmi holda esa ruhiy kechinmalar,

²⁷⁹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b. – 260-bet.

²⁸⁰ Akimushkin O.F. Sufiyskie bratstva: slojnyy uzal problem. "Trimingem Dj.S.Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A.Staviskoy, pod redaksiyey i s predisl. O.F.Akimushkina. –M.:Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1989. – 328 s." kitobida, 3-bet

²⁸¹ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. – T.:YOZuvchi, 1996. – 272 b. – 29-bet.

²⁸² O'sha asar, 29-bet.

favqulodda harakatlar, g'aroyib xislatlar namoyon bo'ladiki, ularni so'z bilan ifodalab berish qiyin. Shu bois hol turli kayfiyat va kechinmalar bilangina ta'riflanadi.

“Hol” tushunchasi albatta tasavvufiy hol dunyoga kelmasdan oldin ham bor edi. Bu termin arab tilshunosligida, tibbiyotida va huquqshunosligida ham ishlatiladi. Al-Muhosibiy bu termini medisina fanidan olganligini ta'kidlaydi. O'sha zamonda bu termin inson organizmiga taalluqli bo'lgan fiziologik funksional balans sifatida ta'riflangan. Al-Muhosibiyning fikriga ko'ra, “ruhiy hol solik ruhining ilohiy reallik bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnash kelishi (vajd – ta'kid bizniki – X.A.) natijasida paydo bo'ladi. Natijada solik xotirjamlik va osoyishtalik hissini tuyadi Yoki aksincha zavq-shavq hissini boshidan kechiradi. Oxir-oqibat undagi o'ziga, o'zining Allohga va dunyoga munosabat to'liq o'zgaradi”²⁸³. (“Vajd – ishq va muhabbat. Oshiq qalbida tabiiy bir ravishda tug'iladigan ilhom, surur va tajalliydir”²⁸⁴. “Vajd – bu qalbdan tasodifan paydo bo'lib, qoladigan xursandchilik Yoki g'am, Yoki boshqa bir holat ma'nolarini ko'rish, Yoki Alloh bilan banda o'rtasidagi holatlarning kashf qilinishi kabi holatdir”²⁸⁵. Nuriy: “Vajd – bu olovdur. U shavq – muhabbatdan chiqadi va tanani azob va xuzn (xafalik) bilan qiynoqqa soladi”²⁸⁶.

Najmiddin Kubro hol haqida Shunday deb yozadi: “Kuch-quvvatga erishmasdan safarga chiqish haromdir. So'fiylar nazdida kuch-quvvat va toqat esa molu hol ila bo'lur. Hol shahvat, nafs, qalb yoxud ruhning quvvati. Mol esa, ma'lumki, faqat nafs va shahvatni taqviya qilguvchi narsadir. Tabiatiga ko'ra hol Yanada quvvatli bir kuch va toqat hisoblanadi. Shunki hol boqiy bo'lgandan boqiy bo'lganda va boqiy bo'lgancha, mol esa foniy bo'lgandan foniy bo'lganda va foniy bo'lgancha beriladigan bir quvvatdir. Bunday boqiy bo'lgandan degani Haq bo'lgandan demakdir. ...”Boqiy bo'lganda” ifodasidan esa qalb va ruhni nazarda tutmoqdamiz. ...Agar nafs buni o'ziga maqsad eta olsa, tazkiya qilinadi, poklanadi. Poklangan esa o'zini malomat aylar (nafsi lavvoma), malomat qilguvchi zikr etar, sokinlashar va qalbgaga aylanar. SHahvat ham Shunga o'xshaydi:boqiydan boqiyga inarkan, qalbdan shavq, sog'inch va rag'bat holiga do'nar. ...Nafsga taqvoning ilhom qilinishi va shaytonning musulmon bo'lishidagi sir ana Shudir”²⁸⁷.

Kubroning Yuqoridagi fikrlaridan bir qancha xulosalar chiqarishi mumkin: birinchidan, so'fiy safarga chiqar ekan (suluk sayrga) u quvvatli bo'lishi kerak va unga bu quvvatni hol beradi; ikkinchidan, hol o'z quvvatini shahvatga, nafsga, qalbgaga va ruhga beradi; uchinchidan, hol Haqdan beriladigan ne'mat bo'lib, u qalb ruhga beriladi va solik baqo maqomiga erishadi.

N.Komilov holning quyidagi bosqichlarini keltiradi: ”1. Qurb. 2. Muhabbat. 3. SHavq. 4. Uns. 5. Mujohada. 6. MuShohada. 7. Mukoshafa”²⁸⁸. Biz bu bosqichlarga alohida to'xtalib o'tirmaymiz. E'tiborimizni “hol” tushunchasining “maqom”, “vaqt” va “tamkin” tushunchalari bilan aloqasini ko'rib chiqishga qaratamiz. Tasavvufiy adabiyotlarda “hol” va “maqom” tushunchalarining qiyosiga alohida e'tibor qaratilgan. “Maqom – manzil, marhala, ma'naviy mavqe, martaba, to'xtam. Qushayriyning yozishicha, maqom, qulning takror asosida sifat holiga etkazgan odobi va axloqidir. Maqomga riyozat, mujohada ila erishilur”²⁸⁹.

N.Komilov Shunday deb yozadi: “Maqomat” – maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, solihning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Abu Nasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan: 1.Tavba. 2. Vara'. 3. Zuhd. 4. Faqr. 5. Sabr. 6. Xavf. 7. Rajo. 8. Tavakkul. 9. Rizo”²⁹⁰. Najmiddin Kubro hazratlari yozadi:”Maqom saqar horg'inligidan xolos aylaydigan istirohat va qarorgoh erur. Hol – sayru safar sabablariga, maqom esa yo'ldagi

²⁸³ Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / А.Д.Кныш; пер. с англ. М.Г.Романов. – СПб.: “Издательство «DILYA»”, 2004. – 464 с.- 352-бет.

²⁸⁴ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263 b. – 214-бет.

²⁸⁵ Shayx al-Kolobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. (At – ta'arruf – tasavvufni tanishtirish kitobi). – T.:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. – 144 b. – 95-бет.

²⁸⁶ O'sha asar, 95-бет.

²⁸⁷ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263 b. – 147-148-бетlar.

²⁸⁸ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. – T.:YOzuvchi, 1996. – 272 b. – 30-бет.

²⁸⁹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263 b. – 227-бет.

²⁹⁰ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K.1. – T.:YOzuvchi, 1996. – 272 b. – 25-бет.

bekatlarga mengzar. Boshqacha qilib aytganda, hol – qushning ikki qanoti, maqom esa oshiyoni yanglig’dir”²⁹¹.

Yuqoridagi ta’riflardan bir qancha xulosalar chiqarish mumkin: birinchidan, maqom – bu manzil bo’lib, solik safar chog’ida dam olib oladigan, so’ngra Yanada yuksakroq maqomlarga intiladigan joy; ikkinchidan, maqomdan maqomga ko’tarilish ma’lum tartib bilan amalga oshadi va bu tartibot yo’l boshlovchi (pir, murid, ustoz) tomonidan belgilanadi; uchinchidan, maqomlar aniq ko’rinish va sifatlariga, makonga va vaqt jihatdan davriylikka ega; to’rtinchidan, ma’lum maqomga etishish uchun solik mashaqqat chekishi, riyozat kursatishi zarur va har bir maqomning o’ziga xos xulqi-odobi mavjud; beshinchidan, hol bilan maqom uzviy o’zaro bir-biriga bog’liq tushunchalar ekan.

Shunday qilib, hol qisqa muddatlilik tez o’tishlilik bilan xarakterlansa, maqom aksincha doimiylik va o’zgarmaslik sifatlariga ega bo’ladi. Maqomat ilohiy safarda kuzatiladigan maqomlardan iborat bo’lib, ularning har biri bir bosqichni tashkil etadi. Solik ruhan o’zini o’zi takomillashtirish va dunyoviy zanjirlardan xolos bo’lish va o’z nafsini jilovlash jarayonida mazkur bosqichlarni bosib o’tadi. Har bir bosqichga (maqomga) etishish uchun solikda qat’iy o’zini o’zi nazorat mavjud bo’lishi kerak va u maxsus meditasiya mashqlaridan foydalanishi hamda zohidona hayot kechirishi zarur bo’ladi.

Hol esa Alloh tomonidan beriladi va bunda Solikning ruhiy va aqliy intilishlari inobatga olinmaydi. Boshqacha aytganda, maqomga mashaqqatlar chekib erishiladi, hol ilohiy inoyat mahsulidir. Holning darajasi maqomdan Yuqori turadi, Shunki Alloh bergan narsa har doim harakat qilib qo’lga kiritiladigan narsadan yuksakolqdir. Biroq “maqom” bilan “hol” o’rtasidagi farq sezilarli emas va u so’fiyning Shaxsiy tajribasiga bog’liq.

Maqom solikning oshiyoni deb ataladi va unga Solik istalغان payti qaytishi mumkin. Boshqacha aytganda, kunlardan birida qo’lga kiritiladigan “maqom” Solikning bir umrlik “mulk”ga aylanishi mumkin. Yangi maqomga -etishish ilgarigisini soddalashtirmaydi, hol esa o’zining qisqa muddatliliği sababli o’zga holat Yoki sezgilar bilan birgalikda kelishi mumkin. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, hol bilan ishg’ol qilingan qalb to’liq uning hukmida bo’ladi, ba’zida uning o’rnida boshqa hol paydo bo’ladi -va u Yoki mukammallikka etkazadi, Yoki uni siqib chiqaradi. “Hollar” odatda juft-juft holda keladi: “qo’rquv” ortidan “umid” keladi, “samastlik” ortidan “hushyorlik” keladi, “yo’qlik” ortidan “abadiylik” keladi va h.k.

Hol Yoki maqom ma’lum psixologik fenomen hisoblanadimi Yoki hisoblanmaydimi degan savolga javob berish bo’yicha yagona fikr yo’q. Shu masala yuzasidan ilgari surilgan har xil dunyoqarash “muhabbat” tushunchasiga borib taqaladi. Shu o’rinda “muhabbat” tushunchasiga bildirgan tasavvuf ahlining fikrlarini keltiramiz: Junayd Bog’dodiy: “Muhabbat – bu qalbning istagi”, Muhammad ibn Ali Kattoniy: “Muhabbat – bu Mahbubga yumshoqlikdir”, Abu Abdulloh an-Nabojiy: ”Muhabbat – bu maxluqdan lazzatlanish va Xoliq yo’lida o’zini qurbon qilish”, Sahl ibn Abdulloh at-Tustariy: “Kimmiki Alloh sevgan bo’lsa, u o’shaning hayoti, kimki Allohni sevgan bo’lsa, uning hayoti yo’q”, Ibn Abdussamad: ”Muhabbat – bu Mahbubdan boshqa narsa uchun sen ko’r va soqov bo’lishing, sevgan, tilagan narsangdan boshqasini ko’rmasligingdir”²⁹². Muhabbat to’g’rida fikrlar serob bo’lsada, ularning barchasida u insoniy bir hol sifatida baholanadi. Ammo Al-Kolobodiyda “muhabbat” so’nggi maqom sifatida qaralsa, al-Ansoriyda ilk hol sifatida baholanadi²⁹³. Shuning uchun “hol” va “maqom” tushunchalari turli xil tasavvuf ta’limotida turli xil baholanadi.

Maqomlar borasida Najmiddin Kubro quyidagi tartibni taklif qiladi: 1. Tavba. 2. Zuhd. 3. Allohga tavakkul. 4. Qanoat. 5. Uzlat. 6. Doimiy zikr. 7. Tavajjuh.k. 8. Sabr. 9. Muroqaba. 10. Rizo. Maqomlar tartibotini bergan aksariyat so’fiylar ularni ma’lum tartib bilan beradiki, bu tartibda ular nazarda tutgan mantiq yotadi.

²⁹¹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263 b. – 149-bet.

²⁹² Shayx al-Kolobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. (At – ta’arruf – tasavvufni tanishtirish kitobi). – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002. – 144 b.- 91-93-betlar.

²⁹³ Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / А.Д.Кныш; пер. с англ. М.Г.Романов. – СПб.: “Izdatel’stvo «DILYA»”, 2004. – 464 s.

Hol haqida gapirganimizda ularda aniq tartib-intizomning (ierarxiyaning) yo'qligi kuzatiladi va u solik o'zining ruhoniyo' lida boshidan kechiradigan qator hissiy kechinmalardan tashkil totopadi. Hollarning yuzaga chiqishi solikning ruhiy kamoloti darajalariga ham, uning tajribasiga Yoki yoshiga ham bog'liq bo'lmaydi. Holning mezonlariga uning kuchi va chuqurligi (glubina) kiradi va Shu mezonlar har xil darajada ifodalangan holda ham murshidda, ham muridda kuzatilishi mumkin. Har qanday holning kuchi va chuqurligi uni boshidan kechirayotgan solikning ruhiy kamoloti darajasiga bog'liq.

A.D.Knishning "Musul'manskiy mistisizm" kitobida keltirilishicha, "Abu Nasr as-Sarrojning fikricha, asosiy hollar o'nta: kuzatish, Allohga qurb, Allohga muhabbat, qo'rquv, tinchlanish, umid, ehtirosli istak, oshnolik, guvohlik va nihoyat ishonch"²⁹⁴. Ochig'ini aytish kerakki, hol va maqomlarning tartibi, tarkibi va miqdori turli xil so'fiylarda turli xil beriladi. Bu ham tariqatlardagi o'ziga xoslikning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda hol va maqom tushunchalarining o'zaro aloqasiga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Ba'zi holatlarda ilohiy inoyatning mahsuli hisoblangan hol ma'lum shart-sharoitlar ta'sirida solikning "mulki"ga aylanadi va Shu bilan birga uning maqomiga aylanadi. Shunda hol qisqa muddatli bo'lmasdan ma'lum muddatga inson ruhida mustahkamlanib qoladi. Holning maqomga aylanishi solikning ruhiy kamolotiga va etukligiga bog'liq holda kechadi, Yani so'nggi holatlar qanchalik Yuqori darajada bo'lsa, holning maqomga aylanish ehtimoli ham Shunchalik katta bo'ladi. Shu o'rinda al-Xujviriyning mashhur gapini ishlatish o'rinli: "Allohning do'stining" qisqa muddatli "holi" – Payg'ambarning (s.a.v.) uzoq muddatli maqomidir". Masalan, uns holini kuzataylik. "Zunnuni Misriydan uns haqida so'ralganda: "Uns - bu sevuvchi (Oshiq)ning seviluvchi (Ma'Shuq)dan rozi bo'lishidir"²⁹⁵. Rozilik holi psixologik holat bo'lib, u ba'zi so'fiylarda ruhoniyo' safarda ma'lum muddat kuzatilib, so'ngra yo'qoladigan holatdir. Solik xotirasidan o'chadi. Biroq payg'ambarimiz (s.a.v.)da uns "maqom" darajasiga ko'tarilgan va umrining so'ngigacha Shu maqom zoti sharifni tark etmagan.

Endi solikning ruhiy safarida "hol", "maqom"lar bilan birgalikda ishtirok etadigan "vaqt" tushunchasini ko'rib chiqaylik. Bu tushuncha ham xuddi "hol" va "maqom" singari solikning ilohiy seviluvchi (Ma'Shuq) bilan to'g'ridan to'g'ri aloqasining mahsulidir. Biz "vaqt" deganda vaqt o'tishining o'lchov birligini nazarda tutayotganimiz yo'q, balki unga o'ziga xos tasavvufiy ma'no yuklanganligini ta'kidlamochimiz. "Vaqt – moziy bilan istiqbol orasidagi zamon. Qulning qalbida vorid bo'ladigan ilohiy voridot va rahmoniy tajalli vaqti. Solik ustidan hokimlikka etishgan ma'naviy hol. So'fiy ibnul vaqtdir. U o'z ichida yashayotgan holdan boshqasiga ahamiyat bermas"²⁹⁶. Bu ta'rifda vaqt "hol" deb qaralayapti. Aslida unday emas, deb ta'kidlashadilar ba'zi olimlar. Vaqt go'Yoki zamondan tashqarida mavjuddir, Alloh bilan so'fiy o'rtasidagi ruhoniyo' "uchraShuv" intensivligining psixik o'lchash birligidir. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, vaqt zamonning ruhiy, aniqrog'i psixologik jihatidir. "Vaqt" hol emas, biroq u bilan uzviy aloqadadir. "Vaqt" o'z o'zicha mavjud bo'lmaydi, u holning ichida yashaydi va go'yo ruh tanani bezaganday holni ham bezaydi. Solik aynan hol boshlab beradigan ruhoniyo' lahzani mahkam tutib, uni cho'zish haqida o'ylashi zarur. Shu bilan birga solik qalbi aynan vaqt Yordamida ma'lum holni qo'lga kiritish mumkin. Solikning ruhoniyo' tajribasining to'liqligi darajasiga bog'liq holda solik goh vaqtga, goh holga e'tiborini qaratadi. Tasavvuf ahli aytgan rivoyatlarga ko'ra, YAhyo alayhissalom vaqtning egasi, Ibrohim alayhissalom esa holning egasi bo'lgan, Yani Ibrohim alayhissalom Allohni bilishda nisbatan Yuqoriroq maqomda bo'lgan. Psixik holat sifatida "hol"ni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, u faqat his qilinadi, xolos. Shunday bo'lsada, ayrim so'fiylar bunga o'zlaricha ta'rif berishga urinishgan. Masalan, Najmiddin Kubro o'zining "Favoyi ul-jamol" asarida vaqtni Shunday ta'riflaydi: "Vaqt keskir bir qilichdir. Agar keskir bo'lmaganida edi, holdan holga o'tganingga qadar seni kutgan bo'lardi. ... So'fiy ibnul vaqt, Yani vaqtning o'g'li, u bilan barobar yurur. U o'tmishga ham, istiqbolga ham nazar

²⁹⁴ O'sha asar, 354-bet.

²⁹⁵ Shayx al-Kolobodiy. Tasavvuf sarchashmasi. (At – ta'arruf – tasavvufni tanishtirish kitobi). – T.:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. - 144 b. – 89-bet.

²⁹⁶ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263 b. – 215-bet.

tashlamas. Shunki uning moziyga Yoki mustaqbalga boqmog'i yoxud kelajakni o'ylab ayni ondagi vaqtini behuda ketkazmog'i demakdir, buning takrori esa ko'p vaqtni zoe' etar. Sog'lom muroqabaning sharti ham muhofazai vaqtdir"²⁹⁷. E'tibor berilsa, Najmiddin Kubro vaqt masalasida yangi bir fikrni bildirayapti, Yani vaqt bu holdan holga o'tish oralig'i emas, vaqt holning ichida, botinida yashirib yotibdi, deyapti. Yoki holdan oldingi va keyingi paytlar ham uni qiziqtirmaydi. Vaqt so'fiyning o'zidir, uning holidir, degan fikr ilgari surilayapti. Bu – vaqtga nisbatan tasavvufona ta'rifdir.

Solikning ruhoniyligini safarida “hol” va “maqom”ning o'ziga xos sifatleri ham yuzaga chiqadi. Masalan, bu safarning boshida ma'lum hol tez oquvchan va noturg'un bo'ladi. Biroq Solikning maqsad sari intilishi barobarida hol nisbatan uzoq muddatli va turg'un ko'rinish oladi. Ruhii holning bunday mustahkamlanishiga tamkin deb ataladi va u “turg'unlik” va “davomiylik” xususiyatlariga ega bo'ladi. “Tamkin – bir manzilda qaror topmoq, vazminlik va ruhiy ulug'vorlikka erishmoq ma'nosini anglatadi”²⁹⁸. Davomiylikka erishilgan bo'lsada, tamkin hech qachon “hol” Yoki “maqom” darajasiga ko'tarilmaydi, balki ularning psixologik sifati ko'rinishida mavjud bo'ladi. Tamkin juftlik ko'rinishida mavjud bo'lib, uning ziddiy jufti talvin deb ataladi. Talvin o'zida noturg'unlik, o'zgaruvchanlik va tez oquvchanlik ma'nolarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday hol ham, maqom ham tamkinga ega bo'lishi zarur. Suluk sayriga chiqqan yangi solik uning ruhiga “mehmon” bo'lib kelgan “hol”ni ushlab tura olmaydi. Hol kutilmaganda qalbni ishg'ol etadi. Biroq qanday tez kelgan bo'lsa, Shunday tez yo'qoladi va o'rnini boshqa bir “hol”ga beradi. Bu talvindir. Tamkin sifatiga ega bo'lgan solikning qalbi tashqi ta'sir va o'zgarishlarga berilmaydi va o'z holini uzoq muddat davomida ushlab turishi mumkin bo'ladi. Al-Ansoriyning quyidagi so'zlari Shu so'zlarni Yorqin aks ettiradi: Shunday mustahkamlangan ruhiy hol vaqti kelib “Allohning do'stlariga” xos bo'lgan sifatlarga aylanadi (valoyat), so'ngra haqiqatga (haqiqat) va oxir oqibat ruhiy izlanishlarning istalgan maqsadiga aylanadi (nihoyat)”²⁹⁹.

Shunday qilib, biz Yuqorida solikning sayri sulukda bosib o'tadigan ruhoniyligini yo'lida qatnashadigan “hol”, “maqom”, “vaqt”, “tamkin”, “talvin” tushunchalariga to'xtalib o'tdik. Endi ruhoniyligini safarning so'nggi maqsadiga erishish yo'lida solik saqlashi lozim bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarga e'tiborimizni qaratsak. Bu masala tasavvuf adabiyotida mukammal ko'rib chiqilgan. Bu shartlar “hol” va “maqom”larning sifati va samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. SHartlardan eng muhimlaridan ikkitasi (sidq va ixlos) alohida nazoratda turadi. Shunki bu shartlar solikning ruhiy taraqqiyotining darajasiga bog'liq bo'lmagan holda har bir solik bajarishi zarur shartlar hisoblanadi. Sodiqlik va ixlosning tasavvuf axloqi etikasining asosiy konsepsiyasi sifatida tanlab olinishi Qur'on va Sunnatdan olinganligini ta'kidlash zarur. Horis al-Muhosibiy, Junayd Bog'dodiy, Mansur Halloj singari yirik tasavvuf ta'limoti va amaliyoti namoyondalari ham so'fiyning o'zini o'zi intizomga olishining asosida sodiqlik va ixlos yotishligini aytib o'tganlar. Siddiqiyat va ixlos doimiy holda yolg'on (kizb)ga qarama-qashi qo'yiladi. Abu Said al-Xarrozning fikriga ko'ra, (bu so'fiy Shayxi sodiqlikka bag'ishlab alohida kitob – “Kitob as-sidq”ni yozgan), Sodiqlik tasavvuf yo'llaridan muvaffaqiyatli o'tish uchun zarur bo'lgan quyidagi boshqa ijobiy sifatlar bilan uzviy aloqada keladi: ixlos, rizo va sabr.

Aksariyat valilar sodiqlik va ixlosni insonning niyati bilan amali o'rtasidagi to'liq mutanosiblik deb baholashadi va bu holat haqiqiy so'fiyni soxta so'fiydan ajratib turadigan belgi hisoblanadi. Sidq va ixlos sayri sulukdagi har qanday “hol” va “maqom”ning poydevorini tashkil etadi, Yani sidq va ixlosning ustiga qurilgan “hol” va “maqom”gina solikni maqsadga etkazuvchi quvvatga ega bo'ladi.

A.D.Knish bu masalada Sahl ibn Abdulloh at-Tustariy hamda Abu Nasr as-Sarrojlarning bildirgan fikrlari haqida yozadi:”Ilk so'fiy muallif Sahl at-Tustariy sidqni tasavvufiy o'zini o'zi intizomga olishning quyidagi asosiy ustunlaridan biri sifatida ko'radi: maqsadga etishishdagi

²⁹⁷ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263 b. – 157-158-betlar.

²⁹⁸ O'sha asar, 243-bet.

²⁹⁹ Кнѣш А.Д. Муслъmansiy mistisizm: kratkaya istoriya / A.D.Кнѣш; per. s angl. M.G.Romanov. – SPb.: “Izdatel'stvo «DILYA»”, 2004. – 464 s. – 356-bet.

qat'iyat, Allohdan qo'rquv, himmat, mo'tadillik va ovqat eyishda hushyorlik. Sidq va ixlosga Abu Nasr as-Sarroj ham katta e'tibor qaratadi. U ularga yaqin, imon, ma'rifat, tawhid bilan birgalikda "e'tiqodning ildizlari" deb qaraydi"³⁰⁰.

Muhyiddin Ibn al-Arabiy sidqni solikning ruhoniyligi uchun zarur bo'ladigan o'nta shartlar ro'yxatiga kiritadi. Ularga sidqdan tashqari nafl (ixtiyoriy) ro'za, tungi bedorlik, sukut, uzlat, zikr, sabr, qat'iyat va ishonch singari holat va sifatlar kiradi³⁰¹. Shayxning ta'kidlashicha, bu sifat va holatlar barcha yaxshi narsalarning onasi hisoblanadi.

Tasavvuf namoyondalaridan sidq va ixlosni sabot va barqarorlik sifatleri bilan qiyoslashni taklif qilganlar bor. Bu psixologik sifatlar ruhiy – ma'naviy kamolotga erishishda samarali hujum quroli va shaytoniy vasvasalarga qarshi "ishonchli qalqon" hisoblanishadi.

Tasavvuf psixologiyasida sidq va ixlos puxta ishlab chiqilgan. Imom G'azzoliy, masalan, o'zining "Ihyou ulumid din" asarida sidq va ixlos masalalariga alohida boblarni bag'ishlagan. U o'z asarida sidqning oltita har xil turlari haqida yozadi: so'zlarda, niyatlarda va istaklarda, qat'iyatda, ishqibozlikda va nihoyat tariqat talablarini bajarishda sidq.

Shunday qilib, biz Yuqorida ruhoniyligi safarda solik ruhoniyligi va qalbida kechadigan "hol" va "maqom" lar, ularning psixologik o'ziga xosligi va sifatleri masalalarini ko'rib chiqdik. Endi tasavvufning markaziy masalalaridan hisoblanadigan "fano" va "baqo"ga o'tamiz. Tasavvuf psixologiyasida bu masalalar jiddiy va har tomonlama ko'rib chiqilgan. Biz uni tartiblashtiramiz va hozirgi zamon psixologiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Sir odatda yashirin bo'ladi. Oshkora narsa sir deb atalmaydi. Hammaga ma'lum narsa sirlilik maqomidan oshkoralik maqomiga o'tgan bo'ladi. Demak, sir yashiringan, zohiriy ko'zlardan pardalan-gan bo'ladi. Sirdan ogoh bo'lish uchun pardani ko'ta-rish kerak. Masalan, hali hech qachon ko'rmagan qizga uylanayotgan yigitni oling. U chimildiqqa kirishi bilan birinchi parda ko'tariladi va qizning qaddi-qomati, jussasi, sochlari to'g'risidagi sirlar yigitga oshkor bo'ladi. Birga yashay boshlaganlari sari yigit endi qizning qalbiga, husni odobiga taalluqli pardalarni ocha boradi. Sirlarning ochilishi hodisasida kamida uchta narsaga e'tibor-ni qaratmoq kerak. Birinchidan, e'tibor berilsa, yigit qizning suratidan siyratiga qarab intilyapti. Bu o'rinda asl matoh siyratdir (qalbdir, husni odobdir). Darhaqiqat, yigit qizning jussasi yoki go'zal chehrasi uchungina yashay olmaydi. Boshqacha aytganda, yigitning baxtini qizning suvrati ta'minlamaydi, balki siyratigina uni haqiqiy baxtli qila olishi mumkin.

Qizning yuz-qoshi, suvrati bilan chegaralanib, suvrati bilan faxrlanib umrini o'tkazayotgan yigitlarimiz kammi? Bundaylar suvratning gadoylari va asli baxtsiz odamlardir. Bundaylar suvrat pardasidan boshqa pardani ochib, Yanada go'zalroq sirlardan voqif bo'lish baxtidan benasib odamlardir. Demak, biz bolalarimizda siyratga nisbatan ehtiyojni shakllantirishimiz zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu bizning zamonamizda o'ta dolzarb bo'lib qoldi.

Uchinchidan, haqiqiy mard yigit pardalarni ochib, sirlardan voqif bo'la borgan sari uni sir saqlaydi. Ko'chaga chiqib, uchragan kaska "mening xotinim go'zal, xulqi undan-da go'zal" deb maqtanib yurmaydi. Uni o'zida saqlaydi. Sababi, sirlar oshkor bo'lgandagi bilimlar o'ziniki va ularni Alloh unga in'om etdi. Endi mard va diyonatli yigit Alloh in'om etgan ne'matga o'zgani sherik qilmaydi. (Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, Mansur Xalloyning o'limi unga Alloh bergan sirni oshkor qilganligining jazosi ekan.)

Butun olam sirlardan iborat. Sirlarni to'sib turuvchi parda suvratdir. Suvratlarning ham foydasi katta, biroq suvratlar olamida yashab qolgan inson haqiqiy baxtli bo'lolmaydi. Haqiqiy zavqni faqat sirdan voqif bo'lganda, Yani siyratga o'tganda tuyish mumkin. Siyratlarning ham darajalari behad ko'p. Siyratlar pog'onama-pog'ona, oxir-oqibat, sirlarning va pardalarning Yaratuvchisiga eltadi. Shu ma'noda siyratlar yo'li tariqat yo'lidir. Sirlardan voqif bo'la borishi-miz barobarida biz ham Xoliqimizga yaqinlasha boramiz. Xoliqimizni anglab borishimiz barobarida esa o'zligimizni anglab boramiz. Payg'am-barimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning

³⁰⁰ Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / А.Д.Кныш; пер. с англ. .G.Romanov. – СПб.: "Издательство «DILYA»", 2004. – 464 с. – 357-бет.

³⁰¹ O'sha asar, 357-бет.

“O’zini anglagan Rabbisini anglaydi” hadisining ma’no-si ham Shunda. Shunday qilib, o’zini o’zi ang-lash – masalalarning masalasi, vazifalarning vazifasi ekan.

O’zlikni anglash Shunday bir kalitki, bu kalit Yordamida bir qancha eshiklarni ochish mumkin.

O’zini anglagan odam o’zgalarni anglaydi, o’zgalarni anglagan odam olamlarni anglaydi, olamlarni anglagan esa ularning YAratuvchisini anglaydi. Demak, o’zlikni anglash yo’li yo’llarning boshi, asli najot yo’lidir.

Endi o’zlikni anglash degan psixologik tushunchaga aniqlik kiritsak. O’zlikni anglash uchun, avvalam-bor, unga nisbatan ehtiyoj bo’lishi kerak. Ehti-yojni esa imon yaratadi. Imonsiz odamga yaxshini yomondan, dinni kufrdan, halolni haromdan, savob-ni gunohdan ajratishga ehtiyoj bo’lmaydi. Ehtiyoj ta’-siridagina u bularni farqlay boshlaydi. Zarurat bo’lma-gan joyda inson o’z-o’ziga e’tibor qaratmaydi. Deylik, mazkur ehtiyoj (imon) bor. Xo’sh, unda odam o’zligi-ni anglashni nimadan boshlay-di? O’zlikni anglash degan ruhiy jarayonning boshi o’zlikni bilish-dan boshlanadi. O’zlikni bilish jarayoni esa o’zida: a) o’z-o’zini kuzatish; b) o’z-o’zini tahlil qilish; v) o’z-o’zini tushunish degan komponentlarga ega bo’ladi. O’z-o’zini kuzatish orqali inson o’zidagi nuqson va fazilatlarini anglay boshlaydi. O’z-o’zini tahlil qilish orqali esa nuqson va fazilatlarining saragini sarakka, puchagini puchakka ajratadi. Bu jarayonning oxiri o’z-o’zini tushunish bilan yakun topadi. Eng muhimi – bularning oqibatida inson o’zi haqida ma’lum bilimlarga ega bo’ladi. Bilimlar esa o’z o’rnida sovuq va quruq, toza bilimlar ko’rinishida yashamaydi. Ular, albatta, ma’lum hissiy-emosional holatni chaqiradi. Masalan, o’zining katta nuqsoni – ezmiligini bilib qolgan insonda qanday hissiyot chaqiriladi? U ezmilik qilgan sari o’zini o’zi yomon ko’ra boshlaydi. Demak, inson nuqsonlarini angla-gan sari o’zidan nafratlanadi, fazilatlarini anglagan sari esa o’zini hurmat qila boshlaydi.

Demak, o’zligini anglashning ikkinchi muhim komponenti – hissiy-emosional holatdir. Bu holat insonning Shu nuqson va fazilatlariga munosabatini aks ettiradi. Bu holat o’zida: a) o’z-o’zini his qilish (kayfiyat), b) o’z-o’zini hurmat, v) o’z-o’zi-dan nafrat va hokazolarni mujassamlashtiradi.

Inson o’zini bilgach, bilimlari ma’lum hissiy-emosional qobiqqa o’raladi. Shunda o’z-o’zini anglashning eng muhim uchunchi bosqichiga o’tiladi. Bu – baholash va irodaviy bosqich.k. Baholash deganda o’zi-dagi sifatlarni ijobiy yo salbiy deb baho-lashga aytiladi. Irodaviy holat esa qarorga borib taqaladi, Yani bilgan, o’zi nafratlangan, salbiy, deb baholagan sifatini o’zgartirishga qaror qabul qilish.k. Qaror bo’lmasa, uni o’zgartirishga harakat bo’lmaydi. Demak, o’z-o’zini anglash – bu insonning faoliyatdan oldingi Shunday holatidirki, bu holatda inson o’zligiga nisbatan bilish (kognitiv), hissiy-emosional va baholi – irodaviy (kanitiv) munosabatlarni o’z boshidan kechiradi. O’zligini anglagan insonnigina o’zgalari anglaydi. “El netib topgay menikim, men o’zimni topmasam” (Alisher Navoiy). O’zlikni anglash va o’zlikni o’zgartirish yo’ligina haqiqiy najot yo’lidir. Boshqacha aytganda, sening baxting, saodating – o’zingda, o’zingning ichingda, ruhingda. Faqat o’sha baxtni ko’ra oladigan ko’z, his qila oladigan qalb va o’zgartira oladigan iroda kerak. Bunday ko’z, bunday qalb va bunday iroda insonda ma’lum tasavvufiy amali-yot Yorda-mida shakllantiriladi. Bu – oriflarning yo’lidir.

Tasavvufda, bundan tashqari o’z-o’zini anglashning oshiq-lik yo’li ham mavjud. Bu yo’l haqida ta-savvuf ahlining o’zi bunday deydi: suvrat, suvratlar, butun olam, hatto odam ham, umuman, yaratilmish narsalarning barchasi, Alloh ishqining nurlaridir. Ishq bu jazbadir, tortishishdir. Erkak bilan ayol o’rtasida ham ishq mavjud, Yani jazba, tortishish kuchi bor. Shu kuch borki, ular bir-biriga talpinadi. Talpinish va qo’shilish mahsuli-farzandlardir. Ishq bo’lmaganda yaqinlashish ham yo’q edi, taraqqiyot ham bo’lmasdi. Demak, biz Alloh ishqining nu-rimiz. Allohdan suratga yo’nalgan ishq tushish ishq bo’lsa, Yana bir ishq borki, u ko’tarilish ishqidir. Bu degani suvratning (odamning) Allohga bo’lgan ishqidir. Shu ishq ban-dasini Egasiga etkazadi. Shu ishq Egasi haqi-qiy oshiqdir. Oshiq – ishq sohibi, Ma’Shuq esa sevilgandir, sevimlidir. Oshiq – sevuvchi, Ma’-Shuq – seviluvchi. Ishq go’zallikni yaratadi, go’zallik ishqni emas. Sevimlilik “oshiq-ma’shuq” munosabatlaridagi eng go’zal nuqtadir. Sevilgan kishi go’zaldir, qaddi-qomati chiroyli kishi emas. Hamma go’zallar ham sevilavermaydi. Sevimlilik

bo'lmagan joydagi go'zallik o'tkinchidir. Sevilgan abadiy go'zaldir. Go'zallik sevimlilikning bir juz'idir. Sevimli bo'lmoq asldir. Bu bo'lgandan keyin go'zallik ham mavjuddir. YAratuvchimiz Xoliq esa haqiqiy sevimli bo'lishga arziydigan Zotdir.

Bandasining Egasiga bo'ladigan ishqigina haqiqiy ishq hisoblanadi. Bunday ishqda oshiq uchun ishqdan boshqasi harom. Oshiqni ishqqa aloqador bo'lmagan hamma narsa zeriktiradi. Oshiqning yolg'iz maqsadi – Ma'Shuq. Ma'Shuq esa Shunday bir ilohiy xilqatki, unga etishilgani sari Yanada jozibaliroq bo'la boradi. Dunyoviy ma'Shuqlarda buning aksi. Unga etishilgach, joziba kuchi zaiflashadi.

Oshiqlar yo'lida insonning o'zligini anglashi hissiy-emosional yo'l orqali amalga oshiriladi. Bu yo'l tuyg'ular va kechinmalar yo'li, jazba yo'lidir.

Shunday qilib, bandani o'z YAratuvchisiga eltuv-chi yo'l ikki xil va ularning har biri to'g'ridir. Bu boradagi fikrlarimizni Yanada oydinlashtiramiz.

Alloh bizga tafakkur qudratini, avvalambor, o'zini tanitish uchun bergan va o'zini tanitish yo'lini ham ko'rsatgan. Bu o'zlikni anglash yo'lidir. So'fiylarning fikriga ko'ra, inson Allohni tanishda ikki xil yo'ldan borishi mumkin: oriflar yo'li va oshiqlar yo'li. Oriflar yo'li ko'proq taaq-qulga (aqlni ishlatishga) tayansa, oshiqlar yo'li ishq muhabbatga asoslanadi. Oshiq haqiqiy Mahbubning ishqiga muhtalodir. Oshiq Mahbubini sevadi, Mahbub oshiq'ini sevishi mumkinmi? Qur'oni karimning Oli Imron surasi, 31-oyatida: **»Aytng ey Muhammad(!Agar Allohni sev-sangiz ,menga ergashingiz .Shunda Alloh silarni sevadi va gunohlaringizni mag'firat etadi .Alloh kechiruvchi va rahmlidir»**», deyi-ladi. Bu oyatning hikmati juda chuqur. Bu oyatning hikmatidan ilhom olgan oshiqlarning muhabba-ti yuz chandon bo'ladi. Allohning sevgani bo'lish martabasi nihoyat-da yuksak martaba hisoblanib, unga ko'proq toat-ibodatga berilish, axloqu ruhni poklash va riyozat chekish orqali etishish mumkin. Bu ham Allohning inoyati bilan amalga oshadi. Bular payg'ambarlar, valiylardir. Boshqa kishilar ham qalbiy va ruhiy toat orqali, ibodat orqali ma'rifatga etishishlari mumkin. Dunyoning yaratilishidan maqsad ham xuddi Shu ma'rifatdir.

Shu o'rinda dunyoviy muhabbat bilan rahmoniy muhabbatning farqlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz. Shunki bu qiyosda rahmoniy muhabbatning sifatleri ochiladi. Mazkur farq to'g'risida Xoja Yusuf Hamadoniy Shunday deb yozadi: "Nafsoniy va shaytoniy sevgi bilan rahmoniy sevgi orasidagi farq Shunday: maxluqot sevgisida o'zidan ketish va devonalik yuzaga keladi. Haq taoloni sevishdan esa ko'ngilda farosat, hikmat va ma'rifat hosil bo'ladi. Shunki shaytonning yo'lida tikan va xas-xashaklar uchrasa, Haq taoloning yo'lida faqat nar-gisu lola ro'para keladi".³⁰² Rahmoniy muhabbat haqida bundan-da go'zal qilib aytish qiyin.

Biroq Shu o'rinda tasavvuf ta'limotining, ay-niqsa, naqshbandiya ta'limotining muhim jiha-tiga e'tiborni qaratamiz. Bu ham bo'lsa "Dil ba Yoru dast ba kor" tamoyilidir. Sa'diy SHeroziy Shunday degan edi: "Toat-ibodat tasbeh tutib, jundan eski libos kiyib, namoz o'qib yashash bilan bo'lmaydi, u Xoliq va xalqning xizmatidan boshqa narsa emas". Abu Ali ibn Sino ham Shu ma'noda quyidagi satr-larni yozib ketgan: "Haqiqiy so'fiya tariqasi o'z egasini – Xudo zotini tanib olishga erishtiradi. Lekin bu aqliy qiyosga asoslangan aqliy tariqa emas, balki nafs (ruh) ko'zgisida aks etgan nur or-qali bo'ladi".

Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (sollallo-hu alayhi va sallam): "Tarkidunyochilik islomda yo'q", deganlar. Demak, Haqning sevgisi yo'lida faqatgina riyozat chekkanga emas, balki Yana bunga qo'shimcha holda xalqqa xizmat qilganga nasib etadi. Hazrat Bahouddin Naqshbandning mashhur "Dil ba Yoru dast ba kor" deb aytgan hikmatining ma'nosi ham Shundadir. Oshiq bo'lish degani tunu kun xonaqohga kirib olib "Xudo" deyish bilan belgilanmaydi, balki xalqning ichida bo'lib, unga xiz-mat qilib, qalban ibodatda, riyozatda bo'lib va, eng muhimi, bularni sir tutish bilan belgilanadi. Tariqatning eng muhim sharti oshiqning o'z Mahbubiga bo'lgan muhabbatini, chekayotgan riyozat-tini, qilayotgan ibodatini va xalqqa xizmatini sir tutish.k. Shunda Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (sollallohu alayhi va sallam)ning sunnatiga amal qilgan bo'linadi: "Oltiningni, yo'lingni va mazhabingni sir tut".

³⁰² Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezoni (Rutbat ul-hayot) – T.: "YAngi asr avlodi", 2003. 36-bet.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, haqiqiy oshiq ko'cha-ko'yda uchragan har kasga Mahbubi haqida gapirib yurmaydi. Sir tutishning hikmati juda chuqur. Birinchidan, sir tutishlik riyodan saqlaydi. Ishq-ning faqat Mahbubga atalgani ma'lum bo'ladi. Ikkinchidan, Jaloliddin Rumiylar hazratlari aytganiday:

Bir bayt o'qib erdim, malagim ranjidi:

"Bayt ichra band aylash meni lozimmi edi?"

Aytsam: "Nega baytimni buzarsan, ey Jon",

"Men baytga sig'armanmi, o'zing o'yla?" dedi.

Yani, Mahbub hech qachon sening ishqingga, agar u qancha ulkan bo'lsa-da, sig'maydi. Har qanday so'z o'zi aytmqchi bo'lgan ma'noni to'liq qamrab ololmasa, u botildir. Ishq ham Shunday. Shuning uchun ishqni so'zga chiqarib yurish shart emas. Aytlsa, bu sir tutmaslikka kiradi va sunnatga xilofdir. Uchinchidan, har qanday sir, ayniqsa, qalbni junbishga keltiradigan ishqiy sir oshkor qilinsa, uning ruhga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan quvvati va shiddati susayadi. Boshqacha aytganda, ishq deb atalmish ruhiy quvvat tashqariga chiqarilgani sababli zaiflashadi. Sir yashirin saqlansa, uning quvvati va shiddati oshadi va nafsga qarshi kurashda katta Yordam beradi.

Sir saqlashning yo'llaridan biri ramziylikdir. Ramzlar haqiqatni ochiq-oydin ko'rsatmasdan, uni tushuna oladiganlarga taklif ko'rinishi-da yuza-ga chiqadi. Yaratilgan butun borliqning o'zi aslida ramzdir. Ramzni tushunganlar uchun uning ortida buyuk Yaratuvchining san'ati yashirinib yotgani ayon bo'ladi. Bu haqda Xoja Yusuf Hamadoniy Shunday deb yozadi: "Har bir yaratiqda Rahmonning yaratuvchilik va yagonaligiga alomat va hujjat bor. Har bir tabiiy rangda yangi bir sinoat toza til bilan Subhonning yagonaligini ramz yo'li bilan ifodalamoqda (Yoki xilqat bo'yog'iga belangan tabiat yangi til va ramz orqali Haq taoloning yagonaligini so'zlamqda)".³⁰³

Shu o'rinda tasavvuf adabiyotidagi ramziylikni ham sirni oshkor qilmaslikka urinish, deb baholasa bo'ladi. Shunki so'fiy shoir o'z ishqini ramziy-majoziy ma'no tashiydigan "may, "mayxona", "soqiy", "jonon" vositalar bilan ifodalaydi. Ma-joz haqi-da falsafa fanlari doktori Abdumalik Orif o'zining "Navoiy so'fiymi Yoki mutasavvi-fimi?" maqola-sida Shunday yozadi: "Ular (mutasavvif shoirlar – X. A.) haqiqat tariqini majoz tariqi bilan maxlut qilganlar (aralash tirganlar). ...Majoz dunyoviy ishlarda poklik va ma'naviy kamo-lot orqali haqiqatga erishish yo'lidir. Shunga ko'ra, mutasavvif shoirlarda majoziy ishq bilan haqiqiy (ilohiy) ishq uzviy bog'langan holda ifodalanadi".³⁰⁴ Ular majozlar orqali o'z ilohiy ishqini kuylashgan. So'fiy shoirlarning She'riyatidagi ilohiy muhab-batni faqat haqiqiy oriflarga, oshiqlargina tushunishgan va zavq-shavq olishgan. Avom uchun esa asl ma'no sirligicha qolavergan.

Shu o'rinda tasavvuf ahlining shath masalasi-da-gi qarashini ko'rib chiqamiz. SHath va uning Moturidiy ta'limoti nuqtai nazaridan turib talqin qilinishi bo'yicha Ahmad Ziyouddin Kumush-xonaviy hazratlarining quyidagi fikrlari diq-qatga sazovordir: "SHath – ba'zi so'fiylar o'ylab topgan ikki xil so'zlashuv tarzi. Allohga oshiq bo'lmoq, vuslatdan (etishgandan) keyin ibodatga ehtiyoj tuymaslik, Alloh bilan ruhan birlashmoq va Alloh bilan banda orasidagi parda ko'tarilib, yuzma-yuz so'zlashmoq mumkin, deb iddao qiladilar. Bu va'z tarzlarining birinchisidir.

Ikkinchisi esa ma'nosini tushunib bo'lmaydi-gan yaltiroq so'zlar. Bu ham gapirgan kishi nima deyayotganini bilmaganidan Yoki aytmqchi bo'lgan gapini tushuntira olmaganidandir. Bu tarzdagi so'zlashuv zehnlarni chalkashtirishdan boshqa nar-saga yaramaydi".³⁰⁵ SHathning She'riyat masalasiga aloqasi bor. Ba'zi so'fiy shoirlar hadlaridan oshib, Yuqoridagi ma'nolarni

³⁰³ O'sha asar, 37-bet.

³⁰⁴ Orif Abdumalik. Navoiy so'fiymi yoki mutasavvifmi? // "G'oyiblar haylidan yongan chiroqlar" kitobida. – T.: "O'zbekiston", 1994. 222-bet.

Shu o'rinda Navoiyning "Xamsat ul-mutahhayirin" risolasidagi mashhur "Majoz haqiqat ko'prigidir" (Al-majozu qantaratul-haqiqat) gapi yodga tushadi.

³⁰⁵ Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy. Jome' ul-mutun. – T.: "Mova-rounnahr", 2000. 166-bet.

o'z She'rlarida ifodalaydi va bu bilan aqidaviy xatolarga yo'l qo'yadi. She'riyat-ga islomiy munosabat Qur'oni karimda berilgan: **“SHoirlarga yo'ldan ozganlar ergaShurlar. Ularning har vodiyda (mavzuda) daydishlarini o'rmadingizmi?! O'zlari qilmaydigan narsalarni gapirishlarini ham?! Ammo imon keltirgan va ezgu ishlarni qilgan hamda doim Allohni yod etgan va (ilgari) mazlum bo'lganlaridan keyin (Islom ravnaq topgach) g'olib bo'lgan kishilar”** (*Shuaro surasi, 224–227-oyatlar*) She'r yozsalar, adashib ketmay-dilar degan fikr ilgari surilmoqda.

Oshiqlikning boshi tavhid. Shunki oshiq bu olamdagi seviluvchi narsalardan (olam, dunyo, ayol, mol-mulk, farzandlar, mansab-martaba va h.k.) haqiqiy Ma'Shuqasini ajratib ola bilmog'i lozim. U o'z Ma'Shuqasining o'zgalardan farqli tomoni-ni aniq ajratib ola bilsa, uning ishqiga shirk deb atalmish zahri qotil aralashmaydi. Demak, oshiqlikning boshi Allohni yakalashdan va Uni iloji boricha bilishdan boshlanadi. Oshiq qal-biga jo bo'ladigan haqiqiy tavhid ham inoyatdan. Bu esa, o'z o'rnida, solikning o'z-o'zini anglashdan boshlanadi.

Shunday qilib, biz Yuqorida solikning o'z-o'zini anglashi masalasini ko'rib chiqdik va o'z-o'zini anglash jarayoni psixologiya fanining ham markaziy masalalaridan biri ekanligini ko'rdik. Shunki nafaqat tasavvuf psixologiyasi, balki umu-man psixologiyaning asl maqsadi insonda o'z-o'zini anglash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Meditasiya – botinga jadal kirib boradigan fikrlash, predmetga, g'oyaga aql bilan singish va hokazo. Bu holat ma'lum ob'ektda e'tiborni jamlash va diqqatni chetga tortadigan barcha tashqi (tovush, Yorug'lik) va ichki (jismoniy, emo-sional va boshqa zo'riqish) omillarni yo'qo-tish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Meditasiya – madaniy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda turli shakllar ko'rinishini oladigan psixik mashg'ulot usuli. Meditasiya usullari haqida-gi ma'lumotlar, asosan, Hindiston va Xitoyda saqlanib qolgan. Meditasiyaning Sharqona tipi (Hindistonda barcha ko'rinishdagi yogalar, Xitoydagi daosizm) individual ongning Shaxssizlikka, ummonmonand mut-laqqa diniy-ilohiy singib ketishni o'zida mujassamlashtiradi. Buni quyidagi obrazli vaziyatlar bilan ifodalash mumkin: sham alangasi atrofida aylanayotgan va o'zini olovga urib qurbon qilayotgan parvona Yoki dengiz suvida erib ketayotgan tuzdan yasalgan qo'g'irchoqlar. Meditasiyaning Yana bir diniy-ilohiy yo'nalishi xristianlik bo'lib, unda meditasiya ikki Shaxsning qo'shilishi (insoniy va ilohiy) sifati-da talqin qilina-di. Islom dinida tasavvuf ahli tomonidan bu masala atroflicha o'rganib chiqilgan. Islomda tasavvuf ahli meditasiyani «muroqaba» degan ibora bilan almashtirishadi. Bu ma'lum ma'noda, Yani lug'aviy ma'nodagina to'g'ridir. G'arb olimlari nuqtai nazaridan meditasiya tasavvufiy ma'nodagi muroqabadan ham mazmunan, ham shaklan tubdan farq qiladi. Mazmun jihatdan farqi Shundaki, muroqabada banda bilan uning YAratuvchisi o'rtasida munosabat vositasiz (turli tuman sanamlar va butlar ko'rinishida) Yoki vositachilarsiz (turli Shaxslar, masalan, xristianlikdagi Iso (alay-hissalom)dek) to'g'ridan-to'g'ri amalga oshadi. SHakl jihatdan esa farq Shundaki, muroqabaning shartlari, amalga oshirish odoblari, holatlari, harakatlari va undan ko'zlangan foydalar G'arb ta'limotida va tasavvufda turlichadir.

Muroqaba ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: Allohdan yaratilgan olamga qarab va yaratilgan olamdan Allohga qarab.

Insonning o'zini o'zi anglashi uning ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. O'zini anglagan inson o'zgalarni ham tushunadi, atrof-muhitga ham boshqacha munosabatda bo'ladi. O'zini o'zi anglash o'zini o'zi takomillashtirish bilan birga kechmas ekan, tabiiyki, insonning ma'naviy-ruhiy taraqqiyoti haqida gapirma ham bo'ladi. Shunday ekan, o'zini o'zi takomillashtirish, so'zsiz, ma'naviyatning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi.

O'zini o'zi takomillashtirish jarayoni qadimdan olimu fozillarning diqqat markazida bo'lgan. Sharqda bu jarayonning har bir bosqichi, me-xanizmlariga alohida to'xtalgan asarlar talaygina.

Ta'kidlash joizki, o'zini o'zi takomil-lashti-rishning komil insonni shakllantirishdagi o'rni masalasiga tasavvuf ahlichalik ko'p e'tiborni qaratgan qavm bo'lmasa kerak. Tasavvuf ta'limotida insonning komil inson darajasiga etishigacha

bo'lgan amallar mukammal ishlab chiqilgan. Bu amallardan biri tasavvufda muroqaba deb atala-di. Bizning keyingi bildiradigan fikrlarimiz mana Shu amal, Yani muroqaba haqida bo'ladi.

Muroqaba – dunyoviy har qanday narsadan uzoq-lashish va butun vujud bilan Allohda jamlanish-dir. Ulug' Shayxlardan Ibrohim Xavvos bu haqda Shunday degan edi: «Muroqaba – yolg'izlikda ham, odamlar orasida ham Allohga nisbatan botiniy soflikni saqlashdir».

Muroqaba to'g'risida Hazrat Bahouddin Naqshband Shunday yozgan edi: «Muroqaba “nisyonu ru'ya-til maxluqi bi davomin nazari ilal xoliqi” (“YAratuvchiga doimiy nazar qilish bilan odamlarni unutish”)dir. Yoki aytamiz “davomun nazari ilal-xoliqi bi-nisyonu ru'yatil-maxluqi” (“Odamlarni ko'rishni unutish bilan YAratuvchiga doimiy nazar qilish”), Yani bu yo'lda yuruvchi doimo Tangri ja-moliga nozir (nazar qiluvchi) bo'lishi kerak. Unu-tish, yo'qlik va fano raqamini barcha maxluqotlar-ning peshonasiga chekishi lozim. Muroqabaning davomiyligi nodir holdir. Biz buning hosilini topganmizki, bu nafsga qarshilikdir».³⁰⁶

Hozirgi zamon hind Islom olimi va faylasufi Mir Validdin Shunday deb yozadi: “Endi Allohning botinda va zohirda mavjudligini doimiy anglash uchun inson Shunday bir mukammal nazar-ni o'zida takomillashtirishi lozimki, bu nazarni “Muroqa-bai nazar” deb atashadi. Nazarning bu turi ikki xil bosqichga ega”.³⁰⁷ Bularning birinchisi, fenomenal narsalarni anglash, bunga “muro-qabai xalq” deyiladi. Ikkinchisi, ilohiylikni o'ylash bo'lib, bunga “muroqabai Haq” deyiladi.

Boshqa ayrim manbalarda muroqaba ikki yo'-nalishda amalga oshiriladi: Allohdan yaratilgan olamga qarab va yaratilgan olamdan Allohga qarab.

Allohdan yaratilgan olamga qarab yo'nalgan muroqaba

A. Butun borliqqa nisbatan ilohiy muroqaba.

Substansiyalar olami hodisalar tomonidan qo'llab-quvvatlanganicha yashaydi. Substansiyaning mavjudligini ta'minlab turuvchi hodisa yo'qolgach, bu substansiyaning o'zi ham yo'qoladi. Ertami-kechmi har qanday hodisa o'z mavjudligini tu-gatar ekan, Alloh doimiy holda er va osmon sub-stansiyalarini kuzatib turadi. Shunday qilib, birorta hodisaning yo'qolishi uning o'rniga maz-kur substansiyaning mavjud bo'lib qolishi uchun Shunga o'xshash Yoki uning aksi bo'lgan substansiyaning dunyoga keltiradi. Aynan Shunda Allohning yaratilgan olamga nisbatan muroqabasi mujas-samlashadi. Bu haqda Shayx Ro'zbehon Shunday degan edi: «Muroqaba – YAratuvchining o'zi yaratgan olamning Arshi a'losidan tortib, to har bir may-da-chuydasigacha xabardorligidir».

B. Din tomonidan ma'qullangan ishlarga undov-chi ilohiy muroqaba.

Bu – Allohga sodiq bo'lgan zotlarga nisbatan ilohiy muroqabadir. Bunday kishilar shariat qo-nun-qoidalariga amal qiladilar: ma'qullanganini qiladilar, taqiqlanganidan yuz o'giradilar.

V. Tanlanganlarga nisbatan ilohiy muroqaba.

Bunda Alloh e'tiborini o'z do'stlari hisoblangan tanlangan zotlarga qaratadi. Tanlangan zotlarga nisbatan muroqaba faqatgina Allohning o'zigagina ayon. Uning do'stlari bunday muroqabadan farog'at va osoyishtalik topadilar.

Yaratilgan olamdan Allohga qarab yo'nalgan muroqaba

A. Shariat muroqabasi

Bu muroqabada inson tomonidan Allohning har daqiqada uni kuzatayotganligini anglash yotadi. Shuning uchun inson doimo ehtiyot bo'lib yurmog'i darkor. Shunki u har soniya Allohning nazaridadir.

Abu Homid G'azzoliy o'zining «Kimyoi saodat» asarida Shunday yozadi: «Fikrlar muroqabasida Allohdan keladigan fikrlarni ushlab qolish va o'z «Men»ingdan keladiganlaridan esa uzoqlashish kerak. Faoliyat muroqabasida esa o'z xatti-hara-katlarini kuzatish zarur bo'ladi: xoh u savob ish bo'lsin, xoh u gunoh ish bo'lsin. Savob ishni amalga oshirayotganda sadoqat va qalbning ishorati bilan harakat qilmoq lozim bo'ladi. Gunoh ishlarni qilayotganda esa ulardan

³⁰⁶ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali // Bahouddin Balogardon. – T.: “YOZuvchi”, 1993. 87–88-betlar.

³⁰⁷ Mir Validdin. Koranicheskiy sufizm / Per. s angl. – SPb.: Iz-datel'stvo “DILYA”, 2004. – S. 142–143.

uzoqlashish maqsadida o'zida uyat hissini tuyushi kerak. Savob va gunohga aloqador bo'lmagan ishlarda mehribon bo'lmoq va Ilohiy ne'matlarning Etkazuvchisini ko'ra bilmoq joiz bo'ladi. Shunki U har doim sen bilandir».³⁰⁸

Xoja Abdulloh Ansoriy shariat muroqabasi-ni «xizmat qilish» muroqabasi deb ataydi. Uning fikricha, bu muroqaba uchta elementdan tarkib topadi: a) ilohiy buyruqlarga bo'ysunish; b) mu-qaddas yozuvlarni va urf-odatlarini bilish; v) o'z xudbinligini anglash.k.

B. E'tiqod muroqabasi

Bu muroqaba Allohga bo'ysunish muroqabasidir. Uni o'zida sinaganlar tashqi olamda ham, o'z «Men»i olamida ham faqat Uning ishtirokini his etadi. U Allohni har qanday ishning boshida ko'radi.

Bir kuni bir odam Ibn Muborakdan maslahat so'ragan edi, u «Allohdan kut», deb javob berdi. Shunda haligi odam bu maslahatning ma'nosini tushuntirib berishni so'radi. Ibn Muborak javob berdi: «Sen har doim Allohni ko'rganingdagidek holatda bo'lg'in».

Xoja Abdulloh Ansoriy muroqabaning bu turini «vaqt muroqabasi» deb ataydi va unga etishish uchta unsur Yordamida bo'ladi deydi: a) barcha istaklarning yo'qo-li-shi; b) barcha fikrlardan tozalanish; v) sa-xovatli bo'lish.k.

V. Ilohiy muroqaba

Bu muroqaba Alloh tomonidan tanlangan alohida zotlarga nasib etadi. Bunday kishilar botinida ham, zohirida ham, yolg'izlikda ham, odamlar orasida ham faqat Allohni ko'radi.

Xoja Abdulloh Ansoriy muroqabaning bu turi-ni «sirlar muroqabasi» deb ataydi va unga etishish uchta unsur Yordamida bo'ladi, deydi: a) o'zlikni unu-tish; b) o'zlikdan voz kechish; v) Allohga yaqinlik bilan to'yinish.k. Bu muroqaba «siddiqlar muroqabasi» deb ataladi. Bu holatda qalb faqat Allohga bog'langan bo'ladi va Undan boshqasini sezmaydi. Ba'zida ular Shu darajada bog'lanadilarki, hatto atrofidagilarning borligini sezmaydilar ham.

Abdulloh ibn Zayddan bir kuni dunyoga emas, Allohga haqiqiy bog'langan odamni bilasizmi, deb so'rganlarida, u o'sha paytda kelib qolgan Ibod G'ulomdan: «Sen yo'lda birortani ko'rdingmi?» deb so'raydi. Shunda u: «Hech narsani ko'rmadim», deb javob beradi. Ibn Zayd uning odamlar bilan to'la bozor orqali kelayotganligini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, so'fiylarda muroqaba-ning ikki xil ko'rinishi mavjud ekan: tashqi va ichki.

Tashqi muroqaba qismning (Yani odamning) Butunga (Yani Allohga) bog'lanishidir. So'fiy bu ho-latda hamma narsada Allohni ko'radi. So'fiy nima qilsa ham Uning uchun qiladi. So'fiy o'z boshiga tushadigan har bir ishni Undan deb biladi.

Ichki muroqaba esa Butunning Butunga bog'liqlikligi ko'rinishida bo'ladi. Bunda so'fiy Borliq-ning qismlarini emas, balki Alloh o'z qudratini namoyish qilib turgan yaxlit Borliqni ko'radi. Bu muroqabaning eng yuksak bosqichidir.

Biz yuqorida insonning o'z-o'zini takomillash-tirish jarayonida ahamiyatli hisoblangan, tasavvuf ahli tomonidan taklif qilingan muroqaba hodisasini ko'rib chiqdik. Barkamol avlodni tarbiyalashda diniy qadriyatlarimizdan foydalanishimiz bizga faqatgina foyda beradi, xolos. Muqaddas dinimiz haqida Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o'zining «YUksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida Shunday degan: «Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifati-da odamzodning ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning mustahkam bir tizimidir».³⁰⁹

Bu so'zlarga qo'shimcha qilgan holda ta'kidlash joizki, o'zini o'zi takomillashtirish har qanday davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Shuning uchun ham bu yo'nalishda tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

³⁰⁸ G'azzoliy Abu Homid. Kimyoi saodat (Ruh haqiqati). – T.: «Adolat», 2005. 217-bet.

³⁰⁹ I.A. Karimov. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: «Ma'naviyat». – T.: 2008. 176-bet.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tariqat yo'lidagi psixologik hollar va manzillarni ayting.
2. Mistik hollarni chaqirish usullarini ko'rsating.
3. Tasavvufda o'zini o'zi anglash psixologiyasini tushuntiring.
4. Meditasiya va muroqaba: farqlari va psixologik mazmunini ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf metodologiyasi va aqid.
2. Azvoj – ziddiy juftlik tasavvufni o'rganishning metodologik tamoyili sifatida.

21-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANIDA KOMIL INSON MUAMMOSI.

Reja:

1. *Tasavvuf ta'limotida komil inson konsepsiyasi*
2. *Tasavvufga ta'limotida kamolot yo'li haqidagi qarashlar*
3. *Komil insonni tarbiyalashning islomiy va dunyoviy ilmlardagi tavsifi*

Tayanch tushunchalar: *Tasavvuf ta'limot, komil inson, komil inson konsepsiyasi, kamolot yo'li, komil insonni tarbiyalash, islomiy va dunyoviy ilmlar.*

Har jihatdan etuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa etishgan (Yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh komil insonda o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek kurib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihati: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga kushadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favkulotda ahamiyati ana Shundan kelib chiqadi, u - Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va iaqsadidir. Komil inson haqidagi ta'limot so'fiy faylasuf Ibn al-Arabi tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa tasavvuf arboblari tomonidan rivojlantirilgan. O'zbekistan mustaqillikka erishgach, komil insonni voyaga etkazish milliy istiklol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib quyildi. tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan etuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa etishgan (Yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh komil insonda o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek kurib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihati: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga kushadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favkulotda ahamiyati ana Shundan kelib chiqadi, u - Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va iaqsadidir. Komil inson haqidagi ta'limot so'fiy faylasuf Ibn al-Arabi tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa tasavvuf arboblari tomonidan rivojlantirilgan. O'zbekistan mustaqillikka erishgach, komil insonni voyaga etkazish milliy istiklol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib quyildi.

Komil inson muammosi insoniyat tarixida hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan va bu mavzuga doir ko'p izlanishlar amalga oshirilgan. Bu maqolada fikr yuritmoqchi bo'lgan muammomiz ruhiy kamolat bilan bog'liq.

Biz XXI asrni intellektual, har tomonlama rivojlangan yoshlar asri deymiz. Bosh maqsadimiz komil inson tarbiyasi Bular ekan, ruhiy kamolat bilan bog'liq ma'naviy jihati, nafs tarbiyasi va qalb orqali mutloq xaqiqatni idrok etish masalasi ilmiy nuqta nazardan jiddiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan jumboq ekanligi ma'lum.

Shu o'rinda: Komil inson muammosiga maxsus e'tibor beradigan ta'limotlardan biri- «Tasavvufdir».

Biror ta'limot, fan Yoki hunarni yoshlar ongiga singdirishda avval mazkur, yo'nalishlar xaqida atroflicha tushuncha berish zarur. Demak, tasavvufdan butun olamni bilish uchun inson, avvalo o'zini o'zi anglashi muhimligi ta'kidlanadi. Bu ta'limotda har bir Shaxs o'zini angalay bilishi, boshqara olishi olamni anglash jaroyonini muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Tasavvufda ilg'or fikrli kishilarni oriy, so'fiy, valiy deb qaralgan. Bularni bir-biridan farqlanishi ichki, botiniy imkoniyatlar bilan o'lhangan. Komillik haqida so'z yuritsak, demak bu payg'ambarlik sifatlaridan biri sifatida tushunsak bo'ladi.

O'quvchi yoshlarga Yanada tushunarliroq bo'lishi uchun insonlarning sifatleri Yanada soddalashtirib tushuntirish lozim.

Aql-kishilar jamiyat va davlat taraqqyoti va muammolarni kamida o'n yil oldin idrok etuvchilar.

Dono kishilar kamida 25 yil oldin anglovchilar.

Fozil kishilar kamida 50 yil oldin anglovchilar.

Komil kishilar 100 yil oldin anglovchilar deya tushuntirishimiz mumkin.

Tasavvuf-mutlaq haqiqatga olib borishni ko'zda tutgan diniy falsafiy xususiyatga ega ta'limot bo'lib, insonning ma'naviy kamolotiga, komil inson bo'lishiga oid diniy hamda falsafiy bilimlarni o'z ichiga oladi va insonni o'zini anglash vositasi bilan oliy hadgacha barkamol etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida tasavvufdan foydalanishimizga omil bo'ladigan qator omillar mavjud. Shu omillardan biri tasavvufning ta'limot ekanligi.

Tasavvufga ta'limot deb, ta'rif berilishiga sabab Shuki, u vujudga kelishidan hozirgi kungacha insonlarga kamolot yo'li haqida ta'lim berib kelmoqda.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda tasavvuf ta'limotidan foydalanish dinni targ'ib qilishga Yoki bo'lmasa Islom diniga urg'u berishga olib kelmaydimi? Degan savol tug'ilishi tabiiy. Tasavvuf mohiyatan Qur'onga va hadislarga asoslangan bo'lsada, lekin umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan ta'limotdir. Tasavvuf diniy ta'limot bo'lishi bilan birga, tajribadan yuzaga chiqadigan amaliy bilim hamdir.

Kalom va falsafada iymon ruhiy aqliy bir hodisa sifatida baholansa, tasavvufda axloqiy turmush tarzi-ma'naviyat, Yani o'zaro hamjihatlik, mehr-muhabbat va hol sifatida baholanadi.

Tasavvufda bilim manbai sog'lom fikr deya talqin etiladi. Shu talqinning o'zi ham bugungi kun ta'lim jaroyoni to'la mos kelishini kuzatishimiz mumkin.

Tasavvufda sog'lom fikr bilan bir qatorda ilhom, kashf va sezgiga ham o'rin berilgan. Tasavvufiy bilimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning yangiligi, asl va o'ziga xosligidir.

Tasavvufiy bilimga ega bo'lish uslubi qalbning poklanishi ekanligini o'quvchi yoshlarga anglatishimiz zarur. Bu ish faqat kitob o'qish, yodlash bilangina amalga oshmaydi, aqliy xujjatga egalik bilan ham amalga oshmaydi, Shunki bu ish nazariya emas amaliydir. Shuning uchun mutasavvuflar «Tasavvuf qol (so'z) bilimi emas hol (amaliyot) bilimidir» deya ta'kidlaydi.

IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqilib so'fiylarning amaliy va ruhiy (psixologik) mashqlari, (o'zini o'zi) tarbiyalash va chiniqtirish tadbir usullari shakllanadi, tariqat, ma'rifat, xaqiqat, muhabbat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu qismlariga oid qarashlar majmui tuzildi-tasavvuf alohida ilm va amaliyot sifatida qaror topadi.

«Tariqat»-so'zining ma'nosi yo'l demakdir, Yani ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lash kishining ruhiy-axloqiy kamolat yo'li, uslubi, metodikasi: Tariqat tasavvufning amaliy qismi deya ta'riflanadi.

Tariqatga pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, Solik bajarishi kerak bo'lgan barcha yo'riqlar, ibodat va ishorat usullarini o'z ichiga oladi.

Ma'rifat va haqiqat

O'z-o'zini anglashga kirishgan har bir kishi oxir oqibat ma'rifatga botiniy bilimga erishadi deya qaraladi. Ma'rifat fikrdan oldin keladigan va Shubhaga zarra asos qoldirmaydigan bilimdir. Haqiqat o'z tanada sinab ko'rgan biror bir moddiy Yoki nomoddiy xususiyatlarga ishonishdir deya talqin etiladi.

Muhabbat- tasavvufning asosiy ruknlaridan biri tasavvufni oddiy qilib ilohiy muhabbat holida bilimlar majmui deyish mumkin. Tasavvufda bandaning ilohga muhabbati bilan birga ilohning bandalari muhabbati xam e'tirof etiladi.

Komil inson hislatlarini quyidagicha belgilasak bo'ladi:

Komil inson- insonlarning eng mukammali, eng aqlli va donosi, Yani eng oliysi.

Komil inson- Iloh bilan odamlar o'rtasidagi vositachi, ilohiy amr, ayb asrorini odamlarga etkazuvchi ulug' xomiydir.

Komil inson- Martabada Aqli avvalga teng; Ollah avval Aqli qulni, Yani komil insonni yaratdi, keyin u tufayli boshqa maxluqotlar yaratildi.

Komil inson- ruhi azaldan ma'lum, u tangri taolo yaratgan eng qudratli ruhdur.

Komil inson- Shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy hislatlarni jamlagan qayxoniy mavjudlikdir, u oddiy inson suratda ko'rinsa ham lekin ma'nau koinotni qamrab olgan, hamisha bedor va xamma narsadan xabardor bir zotdir.

Komil inson- kishilik jamiyati ichidan etishib chiqadigan mo'tabar zotdir.

O'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda, ayniqsa ijtimoiy bilimlarni o'rgatishda tasavvuf ilmidan kengroq foydalanish yoshlarning ichki dunyosining etukligiga Shu orqali komil inson tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazgan Bular edi.

Tasavvufga oid manbalarni mutolaa qilgan odam, Shubhasiz, maqom, marshala, martaba, manzil, daraja kabi atamalarga bot-bot duch keladi. Ular inson zotining takomilla Shuvi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, avvalgi sifatidan Yuqoriroq, mukammalroq sifatga yuksalishini anglatadi. Yani, ruhning manzildan manzilga safar qilib (Shu bois so'fiylar sayr, safar so'zlarini ham ko'p qo'llaganlar), bir maqom — bekatdan ikkinchi maqomga taraqqiy etib, martabalar sari ko'tarilib-yuksalib borishi, kuvvatlanishini bildiradi. Chunonchi, tariqatdagi maqomot bosqichlarini yodga oding: tavba, zuxd (taqvo), vara' (parhez), fakr, sabr, xanf (qo'quv), rajo (umid), tavakkul, rizo. Murid (Solik ham deyiladi) pir kulida ana Shu ruhiy-ma'naviy bosqichlarni bosib o'tishi kerak. Bu maqomlarning har biri insonning \$z-o'zi bilan jang qilishi, o'z nafsini engish jarayonini ifoda etadi. Har bir maqom — bir imtixon, bir o'lug' dovonlir. Ayni vaqtda muayyan ruhiy holat ham. Bir holatda kamol topmagan odam ikkinchi holatga o'tolmaydi. Agar Solik egallagan darajasi bilan qanoatlanasa, usha holatda qolib ketadi. Ammo insonning insonligi Shundaki, u erishgan darajasi bilan hargiz qanoatlanmaydi. U bilim olish, usish, o'lg'ayishdan charchamaydi; kishi naqadar bilimli bo'lsa, ma'naviyati naqadar yuksak bo'lsa, Shu qadar yayraydi, g'alaba uni bakuvvat qiladi, qalbiga jasorat, kuch bag'ishlaydi. Buning uchun u riyoeat va ajzga ham chidaydi, Shunki bu ajzu azob ortida musaffolashish, nur bilan to'lishib, huzurlanish borligini biladi. Bu xususiyat sof nurdan iborat farishtala ham, jism extiyoji bilan yashayligan hayvonda ham yo'q- Bu fazilatni Alloh faqat farishta va hayvon orasidagi mavjudot bo'lg'an insonga ato etgan. Shunki inson ruhi Raxmoni Rahimning nuridandir (amri- dandir) va Shu bois bu ruh o'z asli — mutlaq ruh olami sari tinimsiz intiladi, hayvoniylikni tark etmoq uchun ko'rashadi. Tariqat yo'li, Shunday qilib, taraqqiyot yo'lilir. Tariqat yo'liga kirgan Solik esa bunga o'zini ongli ravishda bag'ishlaydi, bu jarayonni tezlashtirmokchi bo'ladi, o'zligidan, o'z nafekdan golib keladi, yangi-yangi maqomlarga ko'tarilaveradi, uniig xalbidagi Illohga mushtoq, ilhom bo'loqlari ko'z ochaveradi. Shu tariga diqqat qilsangiz, tariqat maqomlari insonning Illoh sari, Mutlaq ruh sari, Haq sari tavajjuxi va safarining zinalari — me'rojdir.

Buyuk so'fiy shoir Jaloliddin Rumiyning fikricha, faqat soliklar emas, odamzotning barchasi ham uzluksiz taraqqiy etishi kerak. Shunki odam — tabiat taraqqiyotining natijasi, Yani Parvardigor avval jonsiz jismlarni, o'simliklarni, hayvonlarni, so'ngra odamlarni yaratdi, odam esa yangi-yangi maqomlarga ko'tarilaveradi, uniig qalbidagi Allohga mushtoq, ilhom bo'loqlari ko'z ochaveradi. Shu tarifga diqqat qilsangiz, tariqat maqomlari insonning Illoh sari, Mutlaq ruh sari, haq sari tavajjuxi va safarining zinalari — me'rojdir.

Buyuk so'fiy shoir Jaloliddin Rumiyning fikricha, faqat soliklar emas, odamzotning barchasi ham uzluksiz taraqqiy etishi kerak. Shunki odam — tabiat taraqqiyotining natijasi, Yani

Parvardigor avval jonsiz jismlarni yaratdi, undan o'simliklar vujudga keldi, o'simlik taraqqiy etib, hayvonga aylandi, hayvon taraqqiyotidan odam paylo bo'ldi.

Yani jismlikdan kechib, o'simlik bo'ldim, o'simlikdan kechib, hayvonga dundim. Hayvonlikdan kechib, odam bo'ldim. Bas, nega qo'rqayin, axir, baridan kechib (o'lib) kam bo'lganim yo'q-ku! Endi odamlikdan ham butkul kechmoqchiman (odam sifatida o'lmoqchiman), toki farishtalarday qanot chiqarayin. Ammo farishtalikdan ham sakrab o'tishim kerak, (Shunki): «Bor mavjudot Haloqatga yuz tutadi» (deyilgan Qur'onda). Yana bir marta farishtali klan parvoz etayin, xayol bovar qilmaydigan ne narsa bo'lsa, ushanga aylanayin. Keyin kuy kabi g'oyib bo'layin yo'qlik qadriga, Shunda Tangrim desin: «Albatta biz Unga qaytuvchilarmiz».

Mavlono Rumiyning bu satrlarila olamning aylanishi, odam va tabiat, odam va Illoh orasidagi bog'liqlik va munosabatlarning buyuk bir falsafasi aks etgan. Avvalo «ulmox» so'zi Haqkla. Shoir bu so'z vositasida bir shakldan ikkinchi shaklga, bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayonini bayon etadi. YA'ii jonsiz jismlar — bir moddiy shakl; o'simlik — ikkinchi moddiy shakl; hayvon — uchinchi moddiy shakl; inson - to'rtinchi moddiy shakl. Ammo Bular bir-biri bilan vobasta: jonsiz jismlar, narsalar bo'lmasa, hayvon yo'q; hayvoniy shakl yuzaga kelmasa, insoniy shakl ham bo'lmas edi. Inson — jamiki mavjudotning gulto'ji, qaymogi, degan fikr Shunga asoslanali. Insonda o'zgacha taraqqiy etgan moddiy shakllar — ma'danlik, o'simlik, hayvonlik mujassam. Shunday qilib, inson — tabiiy taraqqiyot mahsuli.

Rumiy materializmni targ'ib etgan emas. Kunglingiz xotirjam bo'lsin. Mavlono bus-butun olam taraqqiyoti haqda gapirgan, holos. Ul zot tasavvurida moddiy olam taraqqiyoti RUH taraqqiyotidan ayri holda emas. Boshqacha aytganda, ma'danlar Yoki to'rt unsur — oloa, havo, suv, tuprovdan iborat jismlarning O'simlikka, o'simlikning hayvonga, hayvonning insonga aylanish jarayoni ruhning ishtiroki va boshharuvi ostida sodir bo'ladi. Shu bois ruhning ham darajalari bor, deyiladi. Ruhning eng quyi darajasi — ma'danlar ruhi; so'ngra — hayvon ruhi; keyin — inson ruhi, Yani ruhi notiq (gapiruvchi ruh) turadi. Demak. ruh taraqqiy etgani bois xayot boshlangan, xayotning turli shaklda takomilla Shuvi esa ruhning tobora yangi martabalarga kjsalishi(urji) natijasidir. Mavlono Rumiy aynan ruh taraqqiyotini nazarda tutganlari bois «Ulish»dan, Yani bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishdan qurqmaslik kerak, Shunki bu «ulish»lar ruhni tubanlik sari emas, aksincha, yuksaklik sari etaklaydi, leya ta'kidlaganlar. Oddiylikdan — murakkablikka; zohirdan — botinga; sayozlikdan — teranlikka; ko'ringan vujudan — ko'rinmas, g'aybiy vujud mohiyatiga qarab borish — yuksalish jarayoni ana Shudir.

Ruh qadimgi faylasuflarimiz va mashoyixlarimiz nuqtai nazaricha, bir latif (NOZIK) javhar, balki oliy bir biologik xuviat, amr olamidan no'zul boltan Raxmoniy nafas. Tiriklik, xayot jism va ruh tanosubiyatidan hosil bo'lg'an. Miya esa ana Shu murakkab tananing nozik va murakkab a'zosi. Inson Illoh yaratgan eng murakkab xilxat bo'lg'ani bois Yanada murakkablashish, Yani taraqqiy etishga moy il, Shunga extiyojmand.

Mavlono Rumiy nazarida, ruhning boqiyiligi va falaklar o'zra parvozi muhim. Buyuk mutafakkirning fikricha, inson farishta va hayvon orasidagi vujud bo'lsa-da, u usha holila holi b ketmasligi kerak. U azobdan xalos bo'lishi, farishtalik maqomiga etishishi, hatto bundan ham yuksalib, ilohiy olam saodatiga musharraf bo'lishi mumkin. Mavlono: «Neki moddiydir — xalok bo'ladi»,—degan oyati karimani zikr etib utar ekan, jismoniy ulimdan qo'rqmaslik kerak, Shunki o'lim ruhni xalos etadi, taraqqiyot uchun unga Yana qanot bag'ishlaydi, deydi. *Inson kamoloti, ruhining parvozi poyonsiz.* Bu kamolot miqyosini hatto xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, ruh tadrijiy taraqqiyotga sababchi omil ekan, uning rivojlanish chegarasi bormi? Ruh bilan birga jism ham taraqqiy etadimi? Nega ruh avval pastga qarab tushib, keyin Yana Yuqori ga yuksaladi? Inson vujudida ruh va jism birdan yaratiladimi Yoki birin-ketinmi? Hamma odamlarning ruhi ham birdek takomilla Shuv qobiliyatiga egami, yo'kmi? Bunga uxshash savollar paydo bo'lishi tabiiy. Kddimgi faylasuflarimiz, mashoyixlarimiz ham bu masalalar haqila bosh qotirganlar. Ruhning mabdai(chiqish joyi), maodi(qaytishi), ruh manzillari va darajalari haqda ham turlicha qarashlar bo'lg'an.

Masalan, XIII asrda yashab utgan Shayx Aziziddin Nasafiyning fikriga ko'ra, bu masalada to'rt xil qarash bor. Birinchisi — ahli kalom, Yani shariat ahli qarashlari; ikkinchisi — ahli hikmat, Yani faylasuflarning qarashlari; uchinchisi — ahli vaxlatning birinchi toifasi, Yani vaxdatul vujud ta'limoti tarafdorlarining qarashlari; to'rtinchisi — ahli vaxdatning ikkinchi toifasi, Yani vaxdatul mavjud tarafdorlarining kdrashlarilir. Nasafiy tasavvuf ta'limotida Shu to'rt toifaning qarashlari omuxta bir ko'rinishda ifodalangan, deb hisoblaydi. Shu bois u «Zubdat ul-Haqoyiq» («Haqiqat qaymog'i») risolasida ruh darajalari, ruhning no'zul (tushish) va uruj (ko'tarilish) xossalari haqi da fikr yuritganda, shariat, hikmat va vaxdat ahli qarashlarini o'zaro solishtirib chiqadi va Shu asosda tariqat ahli niyatini ham bayon etadi. SHariat ahli ham, hikmat ahli ham, vaxdat (tasavvuf) ahli ham odam ruh va jismdan iborat ekanini, ruh Parvardigori olamning Rahmoniy nuri — nafasi ekanini tan oladi, ruh muayyan darajalarga ega va Shu darajalari bilan no'zul etadi, deb o'qtiradi. Shunday ekan, ularning qarashlari nimasi bilan farq qiladi?

Farq Shundaki, shariat ahli ta'limoti bo'yicha, har bir odamning ruhi taqdiri azalda belgilangan daraja-martabada turadi, Shu darajada no'zul etadi va kdyta ko'tarilganda ham o'zi no'zul etgan paytdagi manzil-martabagacha boradi, undan Yuqoriga ko'tarilolmaydi.

Hikmat ahli va so'fiylar ta'limoti bo'yicha esa odam ruhi taraqqiy etib, avvalgi maneil-martabasidan oshib ketishi mumkin. Buning ustiga, so'fiylar deydilarkim, agar odam Iloh sari tavajjuh etib, uning vasliga musharraf bo'lsa, tirikligidayox ruhi jismlan ajralib chixib. barcha olamlarni, jannatu do'zaxni aylanib xaytib kelib, Yana jismiga kirishi mumkin.

Nasafiy tasnifiga binoan, olamlar Parvardigorning zot va sifatlaridan iborat bo'lib, sifatlar olamini Yana jabarut (buyuklik), malakut (farishtalar) va mulk (modliy) odami, deb uchga bo'ladilar. Tangri subxonaxu taolo olamlarni yaratgan va jamiki mavjudot esa Uning soyasi bo'lgan Voxidi vaxdatdir. U ilk daf'a ruhi avval — nafsi avvalni yaratdi. Ruhi avval bir javhardir. Allox Shu javharga nigox tashladi, u eriy boshladi va ko'pirdi. Uning kaymogi — qiyomidan ruhlarni, kuyqasidan jismlarni yaratdi. Ruhlar ham, jismlar ham darajalarga ega. «Ruh — javhardir, U jismni xdrakatga keltiradi va takomillashtiradi», — deb yozadi Aziziddin Nasafiy. Ruh tabiatga ko'ra — o'simlik darajasida; irodaga (harakat)ga ko'ra hayvon darajasida; akdga muvofiq esa inson darajasida zuhur etadi. Ko'rinadiki, Nasafiy inson ahlini uning ruhi bilan barobar narsa, deb biladi, Yani ruh inson darajasidagi akdair. (Rumiy ham akdii Shu mazmunda ta'riflagan.)

Biroq ruh darajalari faqat Shundan iborat emas. Nasafiy shariat, tariqat va hikmat (faylasuflar) ahlining no'zul va uruj, ruh va jism haqidagi qarashlarini qiyoslab chikar ekan, ularning Uxshash va farqli jihatlarini oydinlashtirib beradi. Uningcha, uxshash jihatlar Shundan iboratki, shariat ahli ham, hikmat ahli Ham, so'fiylar ham inson ruhi darajalarini e'tirof etadilar. Bu darajalar un uchtadir (agar Ruhi avval ham ular sirasiga qo'shilsa, to'rtta bo'ladi). Ular xuyidagilardan iborat: payg'ambari xotam ruhi; ululazm payg'ambarlar ruhi; mursal payg'ambarlar ruhi; qolgan nabilar ruhi; avliyolar ruhi; ilmi ma'rifat ahli ruhi; zoxidlar ruhi; taqvo ahli ruhi; imonlilar ruhi; qolgan odamlar ruhi; hayvonlar ruhi; o'simliklar ruhi; ma'danlar va ashyolar ruhi. Payg'ambari xotam — payg'ambarlar qo'losasi deganda, Nasafiy Muhammad Mustafoni nazarda tutgan. Parvardigor ruhi avval — javxdning kiyomidan (xaymogidan) ilk bor Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam ruhini yaratdi, keyin uning qaymog'idan ulul-aem, Yani shariat keltirgan payg'ambarlarni yaratdi. Shu tariqa, ruhlarning darajalari Yuqoridan pastga qarab ta'riflangan.

SHariat ahli fi Krita ko'ra, bu darajalar o'zgarmasdir. Parvardigor azaldan xdr bir odamning ruhini belgilab kuygan, bu ruhtar o'sha belgilangan manzildan pastga no'zul etadi, jism bilan qovunadi va jism maxv bo'lgach (odam vafot etgach), Yana avvalgi manil iga yo'l oladi.

AMMO ta'kidlash joizki, Aziziddin Nasafiy shariat ahlining bunday hukmini to'lik yoqlamaydi. Shu bois ul zot ko'proq hikmat va tasavvuf ahlining fikrlariga xusni tavajjuh bildirgan. Chunonchi, alloma bunday yozadi: «Insonning vazifasi — o'zluksiz ma'rifatga intilish va nur bilan to'lishish va ilm topib, musaffolik sari talpinishdir». Yana boshqa o'rinda bunday

deydi: «Odam naqadar ma'rifatli va pokiza bo'lsa, uning jannatdagi joyi ham Shu kadar yuksak bo'ladi».

Aziziddin Nasafiy nuzul va uruj haqida mulohaza yuritar ekan, taraqqiyot doirasi masalasini ham qiyosiy-nazariy tahlildan o'tkazadi. Ul zot ham ruhning chiqish (mabda') va qaytish (maod) nuqtalari borligini ta'kidlaydi. Ruh olami Kubro — Ilohamidan chiqib pastga no'zul etadi va inson tanasiga kelib joylashadi. Keyin Shu nuqtadan Yana Yuqoriga k, arab qaytish boshlanadi. Ammo bu qaytish qanday sodir bo'ladi, ruhda sifat o'zgarishi bo'ladimi, yo'qmi, yuksalish — takomillaShuv yuz beradimi Yoki tubanlashishmi? «Zubdat ul-xaqoyiq risolasida ta'kidlanishicha, inson ruhning javharini, «uluk olamning avvalu oxiri, zoxiru botini, mohiyat va shakllarini idrok etish uchun birinchi galda o'zining mohiyatini anglab etishi kerak. Demak, takomilning boshi ham o'zni anglashdir. No'zul etgan ruh odam orqali Yana uruj qilib Asliga qaytadi va Shu tariqa bu jarayon doyra shaklini oladi.

SHariat ahli fikri bo'yicha, Yana ruh — alohida, jism — alohidadir. Inson vujudiga ruh tashkaridan (Yuqori olam manzillaridan) kelib kiradi, ona qornidagi homila aniq shakl kasb etganidan keyin ruh unga no'zul etadi.

Ammo hikmat va vahdat ahdining ta'limotiga ko'ra, ruh va jism alohida-alohida voqe' emas, balki inson vujudining barcha belgi va sifat-hislatlari nutfa — uruvda pinhondir. Jon va ruh birga o'sib, inson qiyofasiga kiradi, inson tug'ilganidan so'ng ular birgalikda ravshanlashadi. Nasafiy usha nutfaning homiladagi taraqqiyotini xiyla tafsiloti bilan tushuntirgan. Ul zot Shu tariqa inson farzandining ona qornidayoq bir talay holat — bosqichlar, xususan, oddiy jismlar — o'simlik holatiga; o'simlikdan — hayvonlik holatiga; hayvonlikdan — insonlik holatiga o'sib borishini isbotlayli. Ona homilasila, balki ota o'rug'ida insonning keyingi taraqqiyotiga asos bo'ladigan jamiki zarur imkoniyatlar bor, deydi Nasafiy. Zotan, ul zotning o'qtirishicha, olami Kubro va olami Cyg'po (katta olam va kichik olam) ta'limoti Shuni taqozo etadi. Negaki, kichik olam — inson. Inson katta olamning kichraytirilgan nusxasi, katta olamning xususiyatlari uning Yana ham kichraytirilgan nusxasi — nutfaqd mavjud. Bu ta'limotdan kelib chikddigan qo'losa Shuki, birinchidan, Odam — ilohiy olamning ajralmas qismi, ilohiy olamdagi ilm va hikmat unda bor. Insonni Iloh olami bilan bog'laydigan javhar — ruhlir. Agar Allox olamini bilmoqchi bo'lsangiz, insonni, Yani o'zingizni o'rganing, o'zingizni taning. Insonning qalbi, ruhi, ko'nglini bilish, kashf etish vositasida Parvardigorning ismlari yu sifatleri, muъjjea — karomatlari, ilmu hikmati va hatto, zotini ham kashf etish mumkin. Demak, Xudoni anglash, tanish insonni anglash va tanish orqali kechadi. «Kimki O'zini tanisa, Rabbisini taniydi, — degan hadisning ma'nosi ana Shu. Aziziddin Nasafiy, Abu Xomid Bazzoliy, Jaloliddin Rumiy bu hadisni mudom zikr etganlar.

Ammo o'zlikni anglash, o'zini tanishga ruh va qalbni poklash, axdu Shuurni toblash, taqvo va tavba *yo'li* orqali boriladi. Faqat Shu tariqa ruh Asliga qaytadi, Yani loklanib, uruj etadi. Zotan, inson ruhi ilohiy olamdan no'zul etib, insonga kelib tuxtar ekan, Shu nukdadan Yana Yuqoriga k, aytish uchun ko'rash boshlanadi. Ruh jism bilan olishib, oxiri uni tark etadi yaa o'z maqomiga xaytadi:

«Har bir kishining oldindan belgilangan maqomi bor va belgilangan maqomiga erishgach, uning loirasi yakun topali, doyra yakun topgach esa, boshxa rivojlanish bo'lmaydi».

Bu mulohazalar Shunga xndoyat etadiki, inson o'z kamolotida cheksiz imkoniyatga ega Va har bir kishining kamoloti uning O'ziga boglix Ammo bu fikrlardan Aziziddin Nasafiy Yoki ul zotning maslakdoshlari bo'lg'an buyuk so'fiylar, faylasuflar taqdiri azalii tan olmagan ekan-da, degan qo'losa chiharmaslik kerak. Nasafiy mazkur risolasila bu masala xususidagi fikrini ham bayon etgan. Ul zot taqdiri azalii tan olgan. Ammo bu masalani shariat ahli kabi tor va sholastik ma'noda emas, balki faylasuf sifatida xiyla teran anglab tahlil etgan. Shayxning talqiniga ko'ra, taqdir bilan birga tadbir ham bor. Taqdir — Xudodan, tadbir — insondan. Xudo taqdirni belgilab kuygan bo'lsa-da, biroq insonga rivojlanish, ilm-ma'rifat egasi bo'lish imkonini ham bergan. Agar Shunday bo'lmasa edi, Xudoni tanish va sevish ham ilojsiz Bulardi.

Shunday qilib, ruh taraqqiyoti bir doira ichida sodir bo'ladigan hodisa emas. Balki har bir doiradan keyin yangisi boshlanadi va «har bir yangi doiradan boshlab yangi ibtido boshlanadi va u o'z takomiliga erishish uchun darajama-daraja intiladi» {*Nasafiy*}.

Ma'lum bo'ladiki, rivojlanishning oxiri yo'q, Shunki Parvardigorning ilmu hikmati chegarasizdir. «Agar xobiliyatli odamning umri ming yil bo'lsa va ming yil umrning barchasini taqvo va toatda o'tkazsa, u har kuni ilgari bilmagan biron narsasini bilib oladi», - deydi Nasafiy.

Aziziddin Nasafiy qarashlarining Yana bir jihatini dixkatni tortadi: ul zotning fikriga ko'ra, faqat ruh takomillaShuv hislatiga ega bo'lib qolmay, balki ruh va jism birga taraqqiy etadi, mukammallashadi. Allomaning salaflari va zamonloshlari Ibn al-Arabiy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Ibn Sino asosan ruh taraqqiyoti Haqila gapirganlar. Nasafiy esa bunday yozadi: «Jism ham, ruh ham birga rivojlanali hamda komillikka erishguncha, zinapoyalardan birga ko'tarilib borave- radi va darajalarni egallaydi*. Ruh — javhar, Javhari Zotning bo'lagi, u jismni harakatga keltiradi va takomillashtiradi hamda o'zi u bilan birga takomillashadi. Jonsiz moddalarning ajabtovur tarzda jonli shakllarga kirishi, hayot, tiriklik olamining vujudga kelishi, uning behisob ko'rinishlari — Bularning barchasi RUH mu'jizasi, uning quvvati va qudratining namoyishxonasi.

Ming yillar muqaddam idrok etilgan bunday tadrijiy rivojlanish nazariyasi, bir tomondan, odam farzandi bilan olamning, odam bilan mukaddas Mutlaq ruhning o'zaro vobastaligi, Mutlaq ruhning birlamchi asos ekanini anglatsa, ikkinchi tomondan, buyuk olamning kichik nusxasi bo'lmish odamning rivojlanish dialektikasini ham anglatib turadi. Boshqacha qilib aytganda, odam rivojlanib, onadan — tabiatlan ajralib chixali (Rumi aytganidek, tabiat sifatida «udali») va jamiyat barpo etadi. Keyin u jamiyatga ham sigmay, undan ajralib chiqmoqchi bo'ladi. So'fiylarning jiddu jahli ana Shu haqdadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tasavvuf ta'limotida komil inson konsepsiyasini tushuntiring.
2. Tasavvufga ta'limotida kamolot yo'li haqidagi qarashlarini ayting.
3. Komil insonni tarbiyalashning islomiy va dunyoviy ilmlardagi tavsifini keltiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf metodologiyasi va aqid.
2. Azvoj – ziddiy juftlik tasavvufni o'rganishning metodokogik tamoyili sifatida.

22-MAVZU. TASAVVUF PSIXOLOGIASINING ZAMONAVIY MASALALARI.

Reja:

1. *Shaxs, o'z o'zini anglash va tasavvuf.*
2. *“Men” konsepsiyasi va tasavvuf.*
3. *Fano tushunchasining psixologik mazmuni.*
4. *Bilishning tasavvufiy nazariyasi.*

Tayanch tushunchalar: *Shaxs, o'z o'zini anglash, tasavvuf, “Men” konsepsiyasi, aqliy va pragmatik so'fizm, fano tushunchasi, psixologik mazmun, bilishning tasavvufiy nazariyasi.*

Shaxs psixologiya fanida ham, tasavvufda ham markaziy tushunchalardan hisoblanadi. Shuning uchun biz Shaxs tushunchasini tarixiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilamiz.

“Katta psixologik lug'at”da Shaxsga Shunday ta'rif beriladi: “Shaxs insonning alohida sifati bo'lib, u ijtimoiy-madaniy muhitda hamkor fao-liyat va muloqot jarayonida o'zlashtiriladi. ...Shaxs-inson qadriyat sifatida kelib, jamiyatning rivojlanishi uning uchun amalga oshiriladi”.³¹⁰

³¹⁰ Bol'shoy psixologicheskiy slovar'. – SMb. Prayn – EVROZNAK, 2004. – S. 672.

Shaxs “ingl. personality; – aktYorning niqobi; roль, mavqe; yuz, Shaxs”.³¹¹ Lotin tilida qo’llaniladigan persona ko’p ma’no tashiydigan so’z bo’lib, u maska (niqob), teatr roli, insonning individual, Shu jumladan, jismoniy sifatlari, uning ijtimoiy mavqei singari ma’nolarda qo’llaniladi. Bu haqda I.S. Kon o’zining “V poiskax sebya” kitobida Shunday deb yozadi: “dispersonar va depersonar fe’llari o’rta asrlarda individuallikni yo’qotish Yoki psixik kasallik” (hozirgi zamon psixiatriyasida “depersonalizasiya”) ma’nolarini tashimagan, balki statusning, vijdonning yo’qotilishi, ijtimoiy ma’nodagi “qiyofa”, silsiladagi o’rin ma’-nolarida keladi. Foma Akvinskiy uni qiyofa mav-judligining shartlari Yoki usullarini anglatish uchun foydalangan. “Personaj” so’zi ingliz tilida paydo bo’lgan va XIII asrda fransuzlar tomonidan o’zlashtirilgan, ilk paytlar cherkov lavozimini (parson – pastor, rohib) anglatgan, Shundan so’ng-gi-na teatr olamiga taalluqli bo’ldi”.³¹²

Shaxsning mohiyati haqida yozishdan oldin Shaxs boshidan kechiradigan tarixiy bosqichlarga nazar tashlaylik. Bu jarayon “biz”dan “men”ga qarab ketadigan jarayon hisoblanadi. “Men”ning paydo bo’lishi jarayoni individualizasiya, psixika va xulq-atvorning individualizasiyasi ob’ektiv filogenetik xarakterga ega. Biologik evolyusiya jarayonida individning ahamiyati orta boradi va turning taraqqiyotiga uning ta’siri sezilarli bo’ladi. Bu jarayonda individual tajribaning to’planishi holati kuzatiladi (bolalik davri, ta’lim, tarbiya va h.k.) va natijada turning ichida morfologik, fiziologik va psixologik o’zga-rish-lar ko’paydi. Tirik mavjudotlar tashkil eti-lishining darajasi qanchalik Yuqori bo’lsa, ular-ning hayotiy darajasi Shunchalik murakkab bo’ladi va ular tomonidan o’zlashtirilgan tajriba Shuncha-lik muhim bo’ladi. Natijada, bir turning ichidagi individlar biri ikkinchisidan Shunchalik kuchliroq farqlana boradi. Bu farqlar individual tabiiy farqlar deb ataladi.

Individ mehnat va ijtimoiy funksiyalar taqsimlangan muhitda rivojlanadi va natijada ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida individual shaxs farqlari kuzatiladi. Undan keyingi bosqich haqida I.S. Kon shunday deb yozadi: “Individual farqlarning ijtimoiy va shaxsiy qadriyatining, ahamiyatliligining anglanishi-ni va bu bilan bog’liq holda individlarning avtomatizasiyasini personalizasiya deb ataymiz”.³¹³ Agar yuqorida inson boshidan kechirgan jarayonlar natijasini kuzatadigan bo’lsak, quyidagi tartib paydo bo’ladi: individ, ijtimoiy individ, Shaxs. Bu ma’lum ma’noda ijtimoiy taraqqiyotning turli xil bosqichlari hisoblanib, har biriga xos bo’lgan o’zini o’zi anglashning ma’lum tiplari paydo bo’lgan. O’zini o’zi anglash shaxs xususiyatlari bilan uzviy bog’liq bo’lib, turli xil madaniyat tiplariga mos holda shaxs sifatlari ierarxiyasi ham turli xil bo’ladi. Biz quyida shaxs o’zini o’zi anglashining Shaxs sifatlari ierarxiyasi nuqtai nazaridan, turli xil diniy-falsafiy e’tiqodlar kesimida ko’rib chiqamiz.

Shu o’rinda Yu.M.Lotmanning ikki xil tipdagi madaniyat mavjudligi to’g’risidagi g’oyasiga to’xta-lib o’tamiz. Uning fikriga ko’ra, birinchi madaniyat tipiga asosan predmetli faoliyatga va ob’ektiv bilishga yo’nalgan madaniyat kirs, ikkinchi ma-daniyat tipiga rivojlanishga, introspeksiya va avtokommunikasiyaga yo’nalgan madaniyat kiradi. “Birinchi madaniyat tipi harakatchan va dinamik bo’lsada, biroq u insonning ruhiy qirralarini nazardan chetda qoldiradi. Ikkinchi madaniyat tipi avtokommunikasiyaga yo’nalgan bo’lib, katta ruhiy faollik bilan xarakterlansa-da, biroq nisbatan kamroq dinamiklik xususiyatiga ega”.³¹⁴ Ma’lumki, shartli holda Sharq va G’arb madaniyati bir-biridan farqlanadi. Bu madaniyatlarning vakillari ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, insonning g’arbonsa modeli bo’yicha bilish faol predmetli ko’rinishda amalga oshiriladi. Shaxs, birinchi navbatda, o’zining xatti-harakatlari orqali shakllanadi, yuzaga chiqadi va o’zini anglaydi. U shu xatti-harakatlari Yordamida moddiy olamni va o’zi-ni o’zgartiradi.

Insonning Sharqona modeli bundan keskin farq qiladi. Bunda predmetli faoliyatga unchalik e’tibor qaratilmaydi. Bu model bo’yicha shaxsning mohiyatini tashkil etadigan ijodiy

³¹¹ O’sha asar, 263-bet.

³¹² Kon I.S. V poiskax sebya: Lichnost’ i eyo samosoznanie. – M.: olitizdat, 1984. – S. 335.

³¹³ O’sha asar, 39-bet.

³¹⁴ Lotman YU.M. O dvux modelyax kommunikatsii v sisteme kul’tury. V kn.: Trudy po znakovym sistemam. Tartu, 1973, v. 6. – S. 243.

faollik yolg'iz ichki ruhiy makonda amalga oshiriladi va bilish analitik ko'rinishda emas, balki intuisiya ko'rinishda, lahzalik anglanilish ko'rinishida amal-ga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy rolni o'zini o'zi realizatsiya qilish va o'zlikka "sho'ng'ish" singari holatlar o'ynaydi. Masalan, hind falsafasida "men" tushunchasi markaziy tushuncha hisoblansa-da, asosiy oliy maqsad "o'zlikdan ozod bo'lish"dir.

Sharq dinlarida ham Sharq falsafasi, insoniy "men"ning Shaxs shakllanishidagi o'rni alohida ko'rsatib beriladi. Masalan, buddizm eng qadimgi ta'limotlardan biri hisoblanadi va u mazkur masalaga o'z munosabatini bildirgan. Buddizm empirik individual "men"ning mavjudligini inkor etmaydi. Shuningdek, u ob'ektiv sifatlar bilan ham aniqlanmaydi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, "o'zlikdan ozod bo'lish", "mavjud bo'lmaslik" holatiga individ o'zining Shaxsiy egoizmidan, mulkdan va o'z "men"iga qiziqishdan to'liq qu-tul-gandagina erishish mumkin bo'ladi. Bunga erishish uchun mutloqiyat bilan qo'shilish maqomiga erishish zarur. Hech qanday "men"ning mavjud emasligi, balki alohida unsurlarning o'zgaruvchan va doi-miy o'ynab turadigan mashg'uloti mavjudligi bud-dizmning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Konfusiylik ta'limotida tartib saqlash, jamiyat qoidalariga amal qilish, hukmdorlarga quloq osish singari ko'plab talablarga qat'iy amal qilish buyuriladi. Talablarga qat'iy amal qilish deganda birinchi navbatda jamiyatdagi o'z o'rnini aniq bilish, o'zi egallab turgan mavqega mos sa'y-harakat ko'rsatish tushuniladi. Bunda endi "o'zlik-dan voz kechish" buddizmdagidan boshqacharoq ma'no tashiydi, Yani "o'zlikdan kechish" mavjud ijtimoiy munosabatlar doirasiga to'g'ri kelmaydigan hamma narsadan voz kechish ma'nosini bildiradi.

Umuman, Xitoy ta'limotlariga xos bo'lgan xususiyat Shundaki, jamiyatni (Shu jumladan, din-ni) ma'lum Shaxsning ruhiy imkoniyatlari ham, intellektual boyligi ham, uning har tomonlama rivojlani-shi ham qiziqirmaydi. Balki asosiy talab har qanday Shaxsning u qanday individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lmasin, ma'lum ijtimoiy rolga mos tushishida yotadi.

Daosizm ta'limotiga ko'ra, Shaxs faoliyati ma-rkazida narsalarning, voqea-hodisalarning tabiiy tartibini buzmaslikka intilish turadi. Tashqi, predmetli faoliyatdan voz kechish har qanday kishini (masalan, donishmandni) ichki sub'ektiv ehtirolardan ozod qiladi va ma'lum garmoniyaga erishtiradi. E'tibor berilsa, bu din g'oyasiga ko'ra, insonning asosiy faolligi ichkariga yo'naltirilgan bo'ladi va birmuncha sof ruhiy-ma'naviy ko'rinishga keladi.

Xristianlik ta'limotiga ko'ra, individ o'zini, avvalambor, ma'lum ijtimoiy guruhga (bu guruh uning "biz"ini tashkil etadi) taalluqli ekanligi orqali anglaydi. Insonda dunyoviy "biz"lari (oila, qo'shnilar, ishxonadagi xodimlar)dan tashqari, universal "biz"lar bor. Bu universal "biz" Yaratganga ruhiy aloqadorlik asosida dunyoga keladi. Xristianlik dinining kuchaygan paytlarida mana Shu ikkita "biz" o'rtasidagi munosabatlar-ning tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, individual "men" bilan cherkovning qonun-qoidalari o'rtasidagi munosabatlarga ham tartib berildi. Biroq ta'kidlash kerakki, Yuqoridagi munosabatlarga tartib berilsa-da, ko'plab ziddiyatlar paydo bo'ldi. Bugungi G'arb xristianligida bu ziddiyatlar natijasi o'laroq ijtimoiy hayotning barcha darajalarida konformizm va deindividualiza-siya kuzatilayapti.

Yuqoridagi ta'limotlardan bir masalani oy-dinlashtirib olish ehtiyoji paydo bo'lganligini his etish mumkin. Shaxs va insoniy "men" bir narsami? Ular mohiyatan bir narsani o'zida mujassamlashtiradimi? Agar insoniy "men" shaxs strukturasi-dagi bir komponent bo'lib hisoblansa, ular o'rtasidagi mazmuniy farqni yo'q deb bilsa bo'ladimi? Insoniy "men"ning mazmun-mohiyati Shaxs sa'y-harakatida to'liq yuzaga chiqadimi? Qisqasi, savollar ko'p, biroq ularga javob berish zarur. Bu savollarga javob berishda biz Shaxsning lug'aviy ma'nolaridan biri – niqobga murojaat qilamiz. Avvalambor, niqobning psixologik mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Niqobni yashirinish uchun, aniqrog'i, o'zining asl qiyofasini yashirish uchun, anonimlikni qo'lga kiritish uchun, o'zining emas, o'zganing qiyofasiga ega bo'lish uchun taqishadi. Niqobda qandaydir o'zganing qiyofasi aks etgan bo'ladi. Niqob insonni ko'p narsalardan ozod qila-di, masalan, atrofdagilar kutgan qiyofada bo'lish- majburiyatidan ozod qiladi. Yuqorida aytilgan fikrlardan bir qancha xulosalar chiqarish mumkin:

– niqob asl qiyofani yashiradi. Demak, inson ikki qiyofaga ega bo'lishdan manfaatdor, Yani u o'zining asl qiyofasini ko'rsatmasa, ko'proq erkinroq bo'ladi. Biz bu erda ikkita “men”ni farqla-shimiz zarur: asl “men” va kimningdir qiyofasi;

– o'ziga xos bo'lgan, uning mohiyatini yuzaga chi-qaradigan sifatlarni yashirish.k. O'zganing qiyofa-si-da, o'zga sifatlar bilan yashash osonroq va erkin harakat qilish imkoniyatini beradi;

– bizning ichki “men”imizdan tashqari atrof-dagi odamlar bizdan kutgan “men”. O'zgalar bizni qanday ko'rishni istagan bo'lsa, o'sha “men”. Biz ular-ga ular kutgandek ko'rinish uchun ham o'z “men”imizni yashiramiz. Shunki jamiyatda jamiyat kut-gandek bo'-lib yashash va ularning kutilmalariga mos faoliyat ko'rsatish bizda erkinlikni oshirib yuboradi.

Ma'lumki, maskarad – bu erkinlik, shod-xurram-lik, o'zgalarning qiyofasida bo'lish va o'sha qiyofaga moslashish degani. Biz yashab turgan hayotning o'zi ham maskaradga o'xshaydi, degan fikrni ilgari surishadi ba'zi olimlar. Sening atrofingdagi kishilar ham niqob “men”lardan iborat va Shaxslararo muloqot aslida “niqob men”larning o'zaro ta'siridir.

Tabiiyki, savol tug'iladi: niqobni yuzdan olib tashlash mumkin, bu juda oson. Xuddi kiyganingdek uni yuzingdan olasan, vassalom. Niqobni yuzdan olgach, inson Yana o'zining “haqiqiy men”i bilan qoladi. Tag'in hamma narsa asliga qaytadi-ko'yadi. Aslida Shundaymikin? Masala biz o'ylagandan an-cha murakkab.

I.S. Kon shunday yozadi: “Niqob – shunchaki bo'yalgan qog'ozning bo'lagi emas, balki xulq-atvor-ning ma'lum modeli, tipi. Bu tip “men”ga nisbatan neytral bo'lishi mumkin emas. Inson niqobni ixtiyoriy holda tanlamaydi. Niqob insonda etishmaydigan narsani to'ldirishi (kompensasiya qilishi) zarur va bu unga kerak”.³¹⁵ Jarayon davom etadi. Va nihoyat, kutilmagan hodisa sodir bo'ladi: niqob yuzning o'ziga aylanadi va insonning yangi qiyofasi paydo bo'ladi. Eng dahshatlisi, “niqob men” Shaxsning o'zi bo'ladi-qoladi va u “haqiqiy men”ga aylanadi. Insonning Shaxs strukturasi-dagi bir paytlar yashirilgan “haqiqiy men”ning o'rniga “niqob men” haqiqiy “men” bo'lib qoladi. “Men”lar joy almashadi.

Bu masala yapon yozuvchisi Kobo Abening “Chujoe liso” romanida chuqur va to'laqonli Yoritib be-riladi. Roman voqealarining qisqacha mazmuni quyidagicha: Bir olimning yuzi kuyib qoladi va yuzidagi qo'rqinchli dog'dan atrofdagilar oldida uyaladi, ulardan uzoqlashadi. O'sha olim Shunday bir niqob yaratadiki, bu niqob inson yuzidan qariyb farq qilmaydi. Olim bu niqob unga erkinlik beradi, deb o'ylaydi. Xuddi kiyimga o'xshab, niqob individual farqlarni kamaytiradi va odamlar bilan bo'ladigan munosabatlarni engillashtiradi, nisbatan universal va sodda ko'rinishga kel-tiradi. Inson o'z qiyofasini yashirar ekan, niqob unga haqiqiy qiyofadan ozod bo'lish tuyg'usini bera-di. Shuningdek, uni o'zgalar bilan bog'laydigan ruhiy rishtalardan ham qutuladi.

Biroq niqob yordamida qo'lga kiritiladigan erkinlik qalbaki bo'lib chiqdi. Niqob olimning yuzida qotib qoldi va uning o'zligiga aylandi. Niqob asar qahramonining o'zini o'zi begonalashtirishi-ning predmetli ifodasidir. O'zining ilk “men”ini qaytarishga urinish ham, o'zga kishilar bilan alo-qani tiklashga intilish ham aks natijani berdi. Qahramon niqobning o'z hayotining bir qismiga aylanganini, uning o'ziga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil bo'lganini, uning haqiqiy mohiyatini o'zgalardan yashirganini anglab qoladi. Niqob qahramonga xulq-atvor tarzini, o'zining tafak-kur usulini singdiradi. Natijada uning Shaxsi ikkiga ajraladi va qahramon anglaydiki, niqob uning haqiqiy qiyofasi ekan. Bu haqda G. Zlobin Shunday deb yozadi: “Ongda fojeali bo'linish, intilishlarning halokatli ikkilanganligi pay-do bo'-ladi va bu keyinchalik qahramonni to'liq axlo-qiy degradasiyaga olib keladi”.³¹⁶ Bu haqda qahra-monning o'zi Shunday deydi: “Men niqobni tay-Yor-lay turib, haqiqatda hech qanaqa niqobni yarat-ma-dim. Bu mening haqiqiy qiyofam, haqiqiy qiyofam deganim esa niqob bo'lib chiqdi”.³¹⁷ Haqiqiy “men”

³¹⁵ Kon I.S. V poiskax sebya: Lichnost' i eyo samosoznanie. – M.: Politizdat, 1984. – S. 138.

³¹⁶ Zlobin G. Doroga k drugim – doroga k sebe. – V kn.: Kobo Abe. Jenjina v peskax. CHujoe liso: Romany. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1988. – S. 13.

³¹⁷ Kobo Abe. Jenjina v peskax. CHujoe liso: Romany. – M.: Xudo-jestvennaya literatura, 1988. – S. 322.

qahramon ongining anglanmagan qatlariga sin-gib ketdi. Asarning oxiridagi “Xotining xati” bobida xotini eriga Shunday yozadi: “SHkafda yot-gan o’lik narsa – niqob emas, balki sening o’zing ...avvaliga niqob Yordamida o’zingni qaytarmoqchi bo’lding, biroq qandaydir daqiqadan boshlab sen unga o’zingdan qochish uchun faqat ko’rinmas shapkaga qaraganday qarading. Va Shuning uchun ham u niqob bo’lmadi, balki sening haqiqiy qiyofang bo’ldi”.³¹⁸

Kobo Abedagi simbolizm o’ta psixologik. Shuningdek, u o’zida turli xil mazmun tashiydi. Birinchidan, “niqob” dunyoga moslashish ramzi, ikkinchidan, o’z qonunlarini Shaxsga majburan tiqishtirayotgan, begona Shaxsga taalluqli bo’lmagan kuchlarning simbolidir. Bu o’rinda xronologiyaga alohida ahamiyat bering: qahramon avvaliga o’z qiyofasini yo’qotadi, qiyofasi” oldindan berilgan, niqobni esa qahramonning o’zi yasadi. Bunda u o’zi anglanmagan holda haqiqiy “men”ining sifatlarini niqobga singdirdi. Agar niqob va “haqiqiy men” munosabatlariga razm soladigan bo’lsak, niqob ha-misha salbiy xarakterga ega hisoblanadi va ziddiyatli hollarda niqobning g’olibligi kuzatiladi. Ularning ziddiyatli, nizoli munosabatining ma’nosi Shundaki, “men” o’zida ilgari o’zlashtirilgan axloqiy va boshqa qonun-qoidalarni mujassamlashtirsa, niqob-Shaxsni moslashish-ga majbur qiladigan real ijtimoiy vaziyatning ta-labini o’zida aks ettiradi. I.S. Kon yozadi: “Psixologik jihatdan niqobning kuchi shundaki, u real xulq-atvorni anglatadi (u ekspressiv ha-rakatlarda, o’zga kishilar bilan munosabatlarda ifodalangan) va shu ma’noda u hamisha “haqiqiy”, unda individ o’zining “haqiqiy men”i deb atal-gan narsa illyuziya bo’lishi mumkin”.³¹⁹

Niqob bilan “haqiqiy men” o’rtasidagi kurashda aksariyat hollarda niqob g’alabaga erishadi. Bunda asosiy aybdor jamiyat, deb hisoblaydi individ. Agar e’tibor berilsa, real xulq-atvorning illyuzior, o’ylab topilgan reallikdan ustunligini kuzatsa bo’ladi. Niqobning asosiy vazifasi moslashuvchanlik hisoblanadi. Moslashish yordamida odamning yashashi oson kechadi, u ma’lum vaziyatlarga moslaShuvni engillashtiradi. Niqobda aks etgan xulq-atvorning obrazi turg’un va takrorlanuvchan bo’lgani sababli Shaxs uni ongidan chiqarib yuborolmaydi. Odamning oldida dilemma paydo bo’ladi: yo o’zining haqiqiy “men”ini xulq-atvoriga, xatti-harakatlariga singdirib yuborishi va niqobni inkor qilishi Yoki niqobni o’zining haqiqiy qiyofasi sifatida qabul qilib, ilgari “haqiqiy men”ini illyuzior, o’ylab topilgan deb hisoblashi zarur. Shunga qarab inson ruhiyatidagi nizoni aniqlasa bo’ladi.

Shunday qilib, biz Shaxs tushunchasining lug’a-viy ma’nosi “niqob” ekanligini va niqob hamda Shaxs tushunchalari o’rtasidagi munosabatlarning psixologik sharhini berdik. Demak, “niqob men” – bu qiyofaning yo’qotilishi, “haqiqiy men”ga xos bo’lmagan sifatlarning shakllanishi va butunlay yangi qiyofaning paydo bo’lishidir. Asl qiyofaning yo’qotilishi bu Shaxsiy fojia emas, balki bu “hozirgi zamon kishilarining umumiy taqdiri” (Kobo Abe) hisoblanadi. “Niqob men” – jamiyat talablariga moslashish va o’zingday, aslingday bo’lish emas, balki atrofingdagi odamlar istaganday “Men”ga ega bo’lishdir.

G’arb psixologiyasida rolli nazariya mavjud bo’lib, bu nazariyaga ko’ra, har bir odam bir vaqtning o’zida bir qancha ijtimoiy rollarni bajaradi. “Роль – insonning ijtimoiy normalashgan xulq-atvori bo’lib, guruhda ma’lum mavqeni egallagan-likni bildiradi... Rolgа sub’ektdan turli xil va-ziyatlarda uning u Yoki bu guruhlarga va ijtimoiy pozisiyalarga taalluqligidan kelib chiqqan holda kutiladigan xulq-atvor (xatti-harakat) shakllari sifatida ta’riflash mumkin”.³²⁰ Har qanday rolning huquqlari va majburiyatlari mavjud. Rollar o’zlashtiriladi, o’ynaladi, buziladi, qabul qilinadi Yoki inkor qilinadi. Rollarning tiplariga quyidagilarni misol keltirish mumkin: yosh davrlariga xos rollar, oilaviy rollar, xizmat rollari, kasbiy rollar, o’yin rollari va hokazo. Bir odam bir vaqtning o’zida qator rollarni o’ynashi mumkin. Masalan, bir odam er rolini, rah-bar rolini, ota rolini, farzand rolini, yo’lovchi rolini, xaridor rolini, do’st rolini va hokazo. Har bir rolning o’z huquqlari, majburiyatlari va mas’uliyatlari mavjudligi bois, inson har bir rolda o’ziga xos qiyofada bo’lishga majbur.

³¹⁸ O’sha asar, 229–230-betlar.

³¹⁹ Kon I.S. V poiskax sebya: Lichnost’ i eyo samosoznanie. – M.: Politizdat, 1984. – S. 140.

³²⁰ Bol’shoy psixologicheskiy slovar’. – SMB. Prayn – EVROZNAK, 2004. – S. 479.

Boshqacha aytganda, har bir rolning o'ziga xos "niqob men"i mavjud bo'lib, turli xil rollarni to'xtovsiz o'ynayotgan odam, go'yoki, to'xtovsiz niqoblarini yangilab turayotgan aktyorga o'xshaydi. Bu nazariyaga ko'ra, inson nechta rol o'ynasa, Shuncha uning niqobi, Yani, "men"i yangilanib boraveradi.

Shunday qilib, har qanday odamning shaxsi ikkiga taqsimlanib, "niqob men"ga va "haqiqiy men"ga aylanadi. Shaxsning bunday bo'linishi Shaxs strukturasi, uning faoliyatida keskin funksional o'zgarishlar yasaydi va Shaxsni mo-hiyatan o'zgartirib yuboradi. Eng muhimi – shaxsning asl qiyofasi "niqob men"ga aylana boradi. Bu holat o'zbek tilida ikkiyuzlamachilik deyiladi va is-lom-dagi munofiqlik holatining aso-sida yotadi.

"Ikkiyuzlamachilik" – ikkita yuzga (qiyofaga) ega bo'lish degani, Yani bir qiyofa ikkinchi qiyofa-dan keskin farq qiladi. Biroq ular bir odamda yashaydi. Ikkiyuzlamachi tili boshqa, dili boshqa odam. Unda niyat boshqa, amal boshqa bo'ladi. Aytish mumkinki, unda niyat "men"i va amal "men"i har xil bo'ladi. Niyat "men"i botiniy "men", amal "men"i zohiriy "men" yashaydi. Ikkalasi maqsad ikki xil bo'lsa, u – ikkiyuzlamachi. Botiniy "men"ning izmi yo Rahmonning, yo shaytonning ilkida bo'lishi mumkin. Odamning botiniy "men"i shaytonning izmidagi bo'lib, u zohiriy "men"ini Rahmonning izmidagidek ko'rsatishi mumkin. Bu munofiqlik alomatidir. Agar inson o'z botiniy "men"idagi shaytonni (nafsni) o'ldirsa, endi undagi niyat "men"i bilan amal "men"i hech qachon har xil qiyofada bo'lmaydi. Inchunki, botiniy "men"dagi shaytonni (nafs, jaholat) o'ldirsa, ikkiyuzlamachi bo'lish-dan xalos bo'lasan.

Shu o'rinda, Jaloliddin Rumiyning "Yo ko'rin-ganingdek bo'l, yo bo'lganingdek ko'rin", degan mashhur gapi yodimizga tushadi. Bu erda ham ikkita qiyofa haqida gap ketayapti: odamlarga ko'ringanlik qiyofasi va aslida bo'lganlik qiyofasi. Rumi shu ikkalasidan birini tanlash kerakligini, ya'ni ikkilik holidan chiqib, butunlanish zarurligini yozayapti.

Yoki bo'lmasa, Rumiyning "Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil" pandini eslab ko'raylik. Bu holatda ham ikkita ko'z – zohiriy vujud ko'zi va botiniy ko'ngil ko'zi haqida fikr yuritilayapti. Masalaga chuqurroq yondoshsak, ikkita "men" haqi-dagi muammo bu o'rinda ko'tarilayapti. Agar Qur'-oni karimni o'qib chiqilsa, undagi ko'plab kel-tirilgan pandlardan biri insondagi ikkita

"men"ni yakka yoki munofiqlik holiga tushib qolmaslik g'oyasi ilgari suriladi.

Ma'lumki, "men – konsepsiya"da uch turli "men" mavjud. Bular:

– real "men" – men haqiqatda, fikrimcha, kimman;

– ideal "men" – men qanday bo'lishni xohlar edim;

– "ko'zguli men" – meni qanday odam sifatida ko'rishadi. Fikrimizga ko'ra, "niqob men" mohiyatan "ko'zguli men"ga o'xshaydi, odamlar bizdan kutgan "men", o'zgaralar bizni qanday ko'rishni istagan bo'lsa, o'sha "men".

Odamlar istagan qiyofadagi odam bo'lish bilan o'zing istagan qiyofadagi odam bo'lish istaklari to'qnashgan joyda nizo paydo bo'ladi va bu holat Shaxsning o'zini o'zi anglash ko'zgisida aks etadi. Nazarimizda, Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning quyidagi hadisi aynan Shu masalaga bag'ishlab aytilgandek: "Alloh sizning suratlariniz va amallaringizga emas, balki qalblaringizga va niyatlaringizga boqar".³²¹ E'tibor berilsa, bu o'rinda ham ikkita "men" haqida gap ketayapti: amal "men"i va niyat "men"i. Tasavvuf ta'limoti va amaliyotining asosiy qoidasi Shu ikkita "men"ni (u qanday nom bilan atalmasin) bir qiyofali qilishdir. Fikrimizni oydinlash-tirish uchun naqshbandiya tariqatining piri komil-laridan biri – Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy (qaddasallohu sirrahu)ning "Jome'ul mutun" kitobiga murojaat qilamiz. Unda shunday satrlar bor: "Olimlardan boshqa har kim halokatdadir, ammo ilmiga amal qilganlar halokatda emas. Amal qilganlar ham halokatdadir. Xolisona (ixlos bilan) ibodat qilganlar bundan mustasno".³²² Shu o'rinda ikkita holatni: amal holatini va ixlos holatini ajratib olish lozim. Insondagi mana Shu ikki holat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri, ijobiy aloqa o'rnatilmas ekan, bajarilgan amallarning bar-chasi riyo bo'lib qolishi mumkin. Mana ikkita "men"

³²¹ Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy. Jome' ul-mutun. – T.: "Movarounnahr", 2000. 159-bet.

³²² O'sha asar, 192-bet.

bilan yashayotganlarda kuzatiladigan Yana bir kasal-lik. Bu – riyo. Biz Yuqorida niyat haqida gapirgan edik. Niyat hamma narsaning boshi, asli va ildizidir. Niyatsiz qilingan amal mevasiz daraxtga o'xshaydi: daraxt o'sadi-yu, foydasi bo'lmaydi. Ixlossiz niyat esa riyodir. Mana, riyoga berilgan asl ta'rif.

Tasavvuf ahlining fikriga ko'ra, ixlos yo'q joyda shirk paydo bo'ladi. Ixlos tavhidda va amalda kuzatilishi mumkin. Tavhidda ixlos qilinmasa, uluhiyatda shirk keltiriladi. Amalda ixlosi bo'lmaganlar ubudiyatda (bandalikda) shirk keltirib qo'yishi mumkin. Sahl ibn Tustariy (qaddasallohu sirrahu)dan: "Nafsga eng qiyin keladigan narsa nima?" – deb so'ralganda, "Ixlos" deb javob bergan. Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy (qaddasallohu sirrahu) bu haqda Shunday deb yozadi: "Amal bobidagi ixlos ikki dunyoda ham amalning javobini (mukofotini) istamaslikdir. Ibadat orqali dunyo uchun Yoki oxirat uchun biror manfaat talab qilmoq ixlosga zid. Haqiqiy ixlos Alloh rizosi uchun qilingan ishq, bu siddiqlarning ixlosidir. Sidq olti xil bo'ladi: 1) so'zdagi to'g'rilik; 2) niyatdagi to'g'rilik; 3) azmdagi (azm etib intilishdagi) to'g'rilik; 4) vafodagi to'g'rilik; 5) amal bobidagi to'g'rilik; 6) dinning har qanday masalalaridagi to'g'rilik. Ana Shu olti sifat bilan sifatlangan kishi siddiqdir".³²³ "Amalning mukofotini istash, ibodat uchun manfaat ko'zlash, ixlossiz niyat qilish" – bularning bari, ta'bir joiz bo'lsa, "niqob men"ning talablari. "Niqob men"ning talablaridan voz kechish uchun yaxshisi uning o'zidan voz kechib qo'ygan afzal. Shunda ta-lablarning o'zi ham qolmaydi.

Shu o'rinda Yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tishni maqsad qilib qo'ygan edik. U ham bo'lsa, erkinlik, ozodlik masalasi. Agar e'tibor berilgan bo'lsa, niqobning muhim vazifalaridan biri – odamning niqobda o'zini erkin tutishi edi. Insonning erkinligi va ozodligi o'ta muhim qadriyat hisoblanadi. Aslida zohiran qaraganda niqob odamlar bilan muloqot jarayonida erkinlik beradigandek tuyuladi. Shunki inson niqobda ta'sirlangan odam qiyofasida o'zgalar bilan muomalaga kirishadi, asl "men"ni yashirish imkoniyati paydo bo'ladi. Biroq "niqob men" yillar davomida insonning Shaxsiga aylanadi va natijada endi "niqob men" erkinlik emas, mahbuslik, tutqunlik manbaiga aylana boradi. Tutqunlikning birinchi belgisi – Shaxsga aylangan odamning o'zgalar bilan o'zining "haqiqiy men"ni yashirgan holda chuqur insoniy munosabatlarga kirishmasligidadir. Shaxs – bu odamlar sendan kutgan va odamlar sendan istagan chegaradagi odamdir. Demak, muomalaning sayozlaShuvi, qalbakilaShuvi, rasmiylaShuvi, chegaralanganligi, ma'lum insoniy normalardan chiqib ketolmaganligi va h.k. – mana Shular Shaxs muloqotiga xos bo'lgan sifatlar. Bu sifatlar bilan amalga oshiriladigan muloqotda erkinlik emas, balki tutqunlik ko'proq ko'zga tashlanadi. O'zining yuziga niqob yasab olgan odamga xotini Shunday deb xat yozadi: "Senga men kerak emasman – senga ko'zgu kerak. Sen uchun har qanday begona odam sening aksingni aks ettirgan ko'zgudan boshqa narsa emas. Men bu ko'zgular sahosiga qaytishni istamayman".³²⁴ Aslida "niqob men"ning Shaxsga aylanishi qahramonimizning odamlardan qochishi natijasidir. Odamlardan uzoqlashish va qochish aslida o'zlikni yo'qotishni anglatadi. O'zga kishilar faqatgina ko'zguga aylangan kishi o'sha ko'zgularda o'z aksini ko'rib qolishdan ham qochadi. Demak, "niqob men" Shaxsga aylangach, inson erkinlikni yo'qotadi va tutqunlik holatida bo'ladi.

Insonga haqiqiy erkinlikni tasavvuf beradi, tasavvuf orqali inson o'ziga o'zi haqiqiy ozodlikni in'om etadi. Bu qanday amalga oshadi? Buning uchun inson o'z Shaxsidan ("niqob men"idan) voz kechishi va o'zining "haqiqiy men"i bilan yolg'iz qolishi zarur. Shundan keyin insonni bu dunyo bilan bog'lab turadigan "haqiqiy men"ining o'zidan ham voz kechishi talab etiladi. Buni tasavvufda "fano" deb atashadi. Fano Shaxsning dunyodan va dunyo bilan bog'lab turadigan barcha lazzatlardan uzilishidir. Shayx Kalobodiy Shunday yozadi: "Kishi nasibining (lazzatining – X. A.) uzilishi dunyodan bo'lsa, dunyo-ga bir narsaga etishishdan uziladi, oxiratdan bo'lsa, oxiratda bir narsa bo'lgandan uziladi va faqat Alloh taolodan umidi boqiy bo'ladi, bu esa Alloh-ning undan rozi bo'lishidir".³²⁵ Yoki boshqa bir o'rinda bu haqda Shunday

³²³ O'sha asar, 193-bet.

³²⁴ Kobo Abe. *Женщина в песках*. Chujoie liso: Романы /Пер. с yap. V.Grivnina: Predisl. G. Zlobina. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1988. – S. 350. 324-bet.

³²⁵ Shayx Kalobodiy. *Tasavvuf sarchashmasi (At-ta'arruf – tasavvuf-ni tanishtirish kitobi)*. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. 106-bet.

yozadi: “Fano – bu o‘z Mavlosining ilohiy sifat-lari og‘ushida o‘zining insoniy qiyofasini yo‘qo-tish demakdir”.³²⁶ Shayx Kalobodiyning Yuqoridagi satrlaridan ikkita holatni alohida ta’kidlab ko‘rsatish mumkin: birinchidan, fano – insonning o‘z “haqiqiy men”i-dan voz kechishi va o‘zining insoniy qiyofasini yo‘qotishidir. Ikkinchidan, fano – insonning “dunyo va oxirat” ziddiy juft-ligidan chiqishi hamda uning borlig‘ida “Alloh roziligidan” boshqa hech narsa qolmasligidir.

Agar Yuqoridagi holatlarni inson erkinligi va ozodligi nuqtai nazaridan kuzatadigan bo‘lsak, insonning haqiqiy ozodligi va erkinligini ta‘minlaydigan holat – insonda “men”likning, o‘zlikning qolmasligi va undagi hamma narsa Undan (Allohdan) bo‘lishi hamda “azvoj”dan (ziddiy juftlikdan) chiqish va yakkalanishdir. Bu holatga “fano” deyiladi. Demak, inson ozodligining man-bai sahih tasavvufdadir.

Bilishning tasavvufiy nazariyasi markazida oliy darajadagi hissiy, Allohni kashf etuvchi bilimlar yotadi va bu bilimlar alohida odamlargagina xosdir. Tasavvufning bilish nazariyasida mazkur bilimlarni “muShohada” (“Tasavvufda Allohni qalb ko‘zi bilan ko‘rishdir. U ikki xil bo‘ladi. Birinchisi, - komil ishonch va iymonning kuchliligidan Haqni ko‘z bilan ko‘rgandek dili bilan muShohada qilish.k. Ikkinchisi – mahbubiga bo‘lgan sevgisining kamoli kuchliligidan fikru zikri u bilan band bo‘lib, huzurida turgandek tasavvur etish”).³²⁷ “ma‘rifat” (aqlu donish, amaliy bilim, tanish, fahm, fahm, tasavvufga xos ilm; hol sirlari va ilohiy haqiqatlarga tegishli tegishli ilm-irfon. ...Tariqat Shayxlari esa Alloh xususidagi sihatli holni “ma‘rifat” deb ataganlar. Imom G‘azzoliyning ta‘kidiga ko‘ra, “Qalbdan ma‘rifat maydonga kelgach, qalbning holi o‘zgaradi, Yani amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog‘liq bo‘lib qoladi”,³²⁸ “ishroq” (“ishroq - porlamoq”³²⁹ “ilohiy nurning kutilmaganda porlashi”³³⁰, “zavq” (“huzur, lazzat. Ilohiy tajallilarning boshlanishi, Haqdan etadigan irfon nuri”,³³¹ “kashf” (“pardalarning ochilishi”, “his va aql yo‘li bilan idrok etish mumkin bo‘lmagan haqiqatlarni qalb ko‘zi bilan ko‘rish”³³² degan nomlar bilan nomlanadi.

“Ma‘rifat” degan tuShuchaga Aziziddin Nasafiy bergan sharhga e‘tibor beramiz. U Shunday deb yozadi: “...ma‘rifat nuri uning qalbiga yog‘iladi va u narsalarning asl mohiyatini his eta boshlaydi. “Ey Parvardigor, narsalar (aslida) qanday bo‘lsa, o‘shanday bizga ko‘rsat” hadisining (ma‘nosi) ravshan bo‘ladi, irfon yuz ko‘rsatganida va ma‘rifatda kamolotga erishganda, narsalar qanday bo‘lsa, o‘shanday holat kasb etganda, bu uning (solikning) o‘z borlig‘ida o‘lib, Tangri azza va jalla borlig‘ida qayta tirilishning nishonasidir”.³³³ Mazkur sitatadan bir qancha fikrlar bildirsa bo‘ladi: birinchidan, narsalarning asl mohiyati zohiriy idrokdan pardalangan, zulmatda bo‘ladi va ma‘rifat nuri bu zulmatni yoritib, asl mohiyatni yuzaga chiqaradi; ikkinchidan, ma‘rifat nuri solikni o‘ldiradi (“O‘lmasdan turib o‘ling”) va Alloh borlig‘ida tiriltiradi. E‘tibor berilsa, ma‘rifatdan ko‘zlangan maqsad ham Shu ikki ma‘noda mujassamdir. Fikrimizni Yanada oydinlashtiramiz. Agar bu olamga zohiriy idrok bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Men – bu men”, “Alloh – bu Allohdir” degan dilemma bo‘yicha o‘ylaymiz, fikr yuritamiz. Agar Allohning zoti, sifati va ismlarini qab ko‘zi bilan ʼotiniy idrok etsak, yuqoridagi dilemmani ayta olmaymiz. Shunki ma‘rifat nuri bilananglaymizki, Uning borlig‘i oldida bizning borlig‘imiz hechdir.

Bilish jarayoniga Imom G‘azzoliyning munosabati alohidaligini ta‘kidlamochimiz. U o‘zining “Ilm olish kitobi” deb atalgan kitobida bilimlarni ikkiga ajratadi: zarali va foydali bilimlarga. Zarali bilimlar bizning ma‘naviy-ruhoniy mohiyatimizni tushunishga Yordam bermaydi. G‘azzoliyning fikriga ko‘ra, o‘quv jarayonining uchta tarkibiy elementi bizning bilim

³²⁶ O‘sha asar, 107-bet.

³²⁷ Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar firhisti. – T.: “Movarounnahr”, 1993. -115-b.

³²⁸ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263-b.-227-bet.

³²⁹ Trimingem Dj.S. Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A. Staviskoy, pod redaksiyey i s predisl. O.F. Akimushkina. – M.: Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1989. – S. 328.-292-bet.

³³⁰ O‘sha asar, 119-bet.

³³¹ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: “Movarounnahr”, 2004. – 263-b.-220-bet.

³³² O‘sha asar, 220-bet.

³³³ Nasafiy Aziziddin. Zubdat ul-haqoyiq /Haqiqatlar qaymog‘i / (N. Komilov tarj.) – T.: Kamalak, 1996, – 56-b. -51-bet.

olishga nisbatan qobiliyatimizni chegaralab qo'yadi. Logika ruhoniy masalalarga baho berishda chegaralangan. Falsafa real vaziyatlar bilan hisoblashmaydi va o'zini o'zi chegaralaydi hamda o'zi chiqargan xulosalarnig to'g'riligini reallikda (hayotda) tekshirib ham o'tirmaydi. Akademik bilimlar xo'jako'rsinga bo'lgan bilimlar a o'zini bilishning yagona imkoniyati va yo'li deb hisoblaydi.

Foydali bilimlar shaxsning psixologik yuksalishiga yordam berishi zarur. Foydali bilimning eng foydali shakli bevosita bo'lib, uni ta'riflab bo'lmaydi, biroq uni o'zining shaxsiy tajribasida his qilish mumkin bo'ladi. Ibn al-Arabi bu bilimni reallik bilimi deb ataydi.

Tasavvufona bilish bevosita bilimlar bilanintuisiyaning qo'shilishi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Intuitiv bilim olish aql yordamida bilish mumkin bo'lmagan joylarda kerak bo'ladi. G'azzoliy intuisiyaning bilish jarayonidagi o'rnini Yuqori baholagan.³³⁴

Ma'rifat to'g'risida Idris Shoh shunday deb yozadi: "Chuqur bilim (ma'rifat) bilimning uchta nisbatan quyiroq shakllarini o'zida mujassamlashtiradi. Birinchisi, bu turli xil omillarning va so'zlarning ta'sir qilish mexanizmini bilish.k. Ikkinchisi, uning ish jarayonidagi har bir alohida omilni bilishga nisbatan qobiliyat.Uchinchisi, tafakkur Yordamida omillarni bilishga nisbatan qobiliyat. Tafakkurning odatdagi jarayoniga murojaat qilmasdan turib, hodisa va amallarning ma'nosini lahzada anglaydigan kishi "orif" deb, "donishmand" deb, "etilgan so'fiy" yoki "komil" deb ataladi".³³⁵

Idris Shoh ma'rifatning bosqichlari haqida yoza turib, unga ta'rif berishda "qobiliyat" degan psixologik tushunchaga e'tiborini qaratadi. Darhaqiqat, "hodisa va amallarning ma'nosini lahzada anglaydigan qobiliyat"ga esa insonlar tasavvuf ahlidan hisoblanadi.

N.Komilov ma'rifat to'g'risida shunday deb yozadi: "IlohShunoslik ilmi bo'lgan irfon Yoki ma'rifat ("ma'rifat" so'zi arabcha "arafa" – bilmoq so'zidan yasalgan)" tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Boshqacha aytganda, tariqatdan maqsad ma'rifatdir".³³⁶ Ma'rifat ilmini botiniy ilm ham deyiladi. Boshqacha aytganda, ilm ikki xil bo'ladi: zohiriy ilm va. Zohiriy ilm deganda o'qish, yozish va o'rganish bilan egallanadigan aqliy va naqliy ilm tushuniladi. Botiniy ilm esa toat-ibodat, zikr, riyozat, mujohada, tafakkur, taqvo va h.k. lar natijasida Alloh bandasiga ehson qiladigan ilmdir. Usmon Turar botiniy ilm to'g'risida Shunday deb yozadi: "Hollar ilmi bo'lgan botin ilmi odob ilmi bo'lgan zohiriy ilm talablarining bajarilishidan so'ng Haqning lutf etilishi bilan qozoniladi. Rivoyat ilmini o'rganib, u bilan sunnatga muvofiq amal qilgan kishini Alloh daroyat (zakovat, ziyraklik) ilmiga voris qiladi "Bilganiga amal qilganga Alloh bilmaganlarini o'rgatadi" hadisi Shunga ishoradir. Zohiriy ilm bilan botiniy ilm badan bilan ruh kabidir, bir birini taqozo qiladi, to'ldiradi".³³⁷

Botin ilmini tasavvuf ahli boshqa nomlar bilan ham atashadilar: ma'rifat, irfon, ilmi ladun, ilmi vahbiy, ilmi asror, g'ayb ilmi, mavhiba ilmi, farosat, ilmi mukoshafa, ilmi huzuriy va h.k.

Tasavvuf ahli ma'rifat bosqichlarini uchga bo'lishadi: ilmal yaqin, aynal yaqin va haqqal yaqin. Ilmal yaqinaql-idrok Yordamida hujjat va dalillarga asolangan bilimdir.Uning Yana boshqa nomi hambor, uni "muhodara" ham deyiladi. Muhodara solik qalbida zikr Yordamida paydo bo'ladigan bir lahzalik kashfiy bilim hisoblanadi. Bu daraja olimlarga va yangi soliklarga xos bo'lib, bunda ular shar'iy va diniy bilimlarni , hukmlarni qabul qilib, Allohga va uning sifatlariga ishonish bilan chegaralanadi. Bu ma'rifatning eng past darajasi hisoblanadi.

Aynal yaqinda bilim olish uchun dalil-isbot shart emas, balki bilim kashf yo'li bilan olindi. Inson Yoki tajriba Yordamida qo'lga kiritilgan bilimga ehtiyoj yo'q. Faqat ko'ngli pok banda bilan g'ayb olami o'rtasidagi pardalar ko'tariladi (kashf) va bunga o'rta holdagi soliklar (mutavassitlar) erishadilar.

³³⁴ Bol'shoy psixologicheskiy slovar'. – SMb. Prayn – EVROZNAK, 2004. – S. 672-b.

³³⁵ Idris SHax. Sufizm. – M.: "Kl'ishnikov, Komarov i K", 1994. – 445 s.-301-bet.

³³⁶ Komilov Najmiddin. Tasavvuf yoki komil in-son axloqi. K.1. – T.: "YOzuvchi", 1996. – 272-b. -36-bet.

³³⁷ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – 180-b.-142-bet.

Haqqal yaqin bandaning sifati Haq sifatida yo'q bo'ladi, ilm, Shuhud va hol jihatlaridan boqiy bo'lishdir. Bu darajada "yaqin"ni o'ylashdan qutilish va haqqal yaqinda yaqinda fano bo'lmoq, "Allohning mutlaq vujudining nuriga ega bo'lmoq darajasidir"]³³⁸

Usmon Turar bu darajalarni quyidagi misol bilan tushuntirishga harakat qiladi: "Ka'batullohni hech ko'rmasdan, boshqalar aytgan ma'lumot orqali u haqda paydo bo'lgan bilimga "ilmal yaqin", Shaxsan Makkaga borib, Ka'bani ko'rish orqali olingan bilimga "aynal yaqin", Ka'ba va uerda qilingan tavof va ibodatlar zamiridagi ilohiy sirlar haqida Alloh tomonidan bandaning ko'ngliga etilgan bilimga "haqqal yaqin" deyiladi".³³⁹ Tasavvuf ta'limoti va amaliyotida bu darajalarning boshqa nomlari ham bor: ular quyidagilar: "ilmal yaqin" – "muhodara" deb ataladi; "aynal yaqin" – mukoshafa deb ataladi; "haqqal yaqin" esa "muShohada" deb ataladi.

Imom G'azzoliy o'zining "Ilmi laduniy" asarida ma'rifat a uning o'ziga xos tomonlari to'g'risida batafsil to'xtaladi. U Shunday deb yozadi: "insoniyat ilohiy bilimlarni ikki xil yo'l bilan qo'lga kiritadi: birinchisi – insoniy ta'lim yo'li, ikkinchisi – ilohiy ta'lim yo'li. Birinchi yo'l odatdagi yo'l, hissiy yo'l, barcha fikrlovchi erlar uning yo'nalishi bo'yicha ketadilar. Biroq u ham ikki xil ko'rinishda bo'ladi: ulardan biri – tashqi, bilimlar ta'lim jarayonida o'zlashtiriladi, keyingisida – bilimlar fikrlash va o'ylab ko'rish orqali amalga oshiriladi. Fikrlash va o'ylab ko'rish ta'lim berish sifatida qatnashadi".³⁴⁰

Bilimning zohiriy o'zlashtirilishi deganda bir kishining (ustozning) ma'lum maqsad yuzasidan boshqa birovga (talabaga) maxsus ta'lim berish nazarda tutiladi. Fikrlash va anglash yo'li ilohiy inoyat bilan amalga oshiriladi. Tabiiyki, Allohning Yordamida olinadigan ta'lim oddiy inson beradigan ta'limdan cheksiz darajada samarali va ulug'dir.

G'azzoliyning fikriga ko'ra, ilohiy bilim ham ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi: vahiy yo'li va ilhom yo'li ("Vahiy – Alloh tomonidan payg'ambarlariga bevosita farishtalar Yordamida yuboriladiga ilohiy kashf".³⁴¹ "Ilhom – ilohiy fayz yo'li bilan qalbdan paydo bo'ladigan ma'no va haqiqatlar".³⁴² Olimning ta'kidlashicha, mukammal va ilohiy ruh o'quvchiday va Ilohiy aql o'qituvchiday bo'lib ta'lim jarayoni amalga oshadi. O'quvchi esa o'qimasdan, Shug'illanmasdan barcha bilim va haqiqatlarni o'zlashtiradi. Bu vahiy yo'li orqali bilim olishdir. "Ilhom anglashning Shunday bir turiki, bunda insonning individual ruhi Ilohiy ruhdan o'zining musaffoligibarobarida imkoniyat va qobiliyatlarga ega bo'ladi".³⁴³ Vahiy Yordamida qo'lga kiritiladigan bilimlar rasullarga berilsa, ilhom Yordamida qo'lga kiritiladigan bilimlar avliyolarga beriladi.

Biz Yuqorida ma'rifatning turlari haqida yozgan edik. Ularning barchasini ko'rib chiqishimkoniyatimiz bo'lmaganligi sababli, ulardan kashfga to'xtalib o'tamiz, xolos."Kashf" termini tasavvuf asarlarida odatda "pardalarning ko'tarilishi ma'nosida talqin qilinadi va bu pardalarborliqning haqiqiy ma'nosini insondan to'sadi, deb hisoblanadi. Bu ma'nolarni ehtimol Qur'oni karimning oyatlarida kelgankashafa fe'liga asolangan holda chiqargandir. Qur'oni karimning Qof surasi, 27-oyatida "...Biz sendan pardangni (Yani mana Shu qiyomat KUNi haqidagi shak-Shubhalarini) ochib yubordik. Endi bu KUN sening ko'zing juda o'tkirdir" va Van-n-najm surasining 57-58-oyatlarida "YAqin bo'lguvchi (qiyomat) yaqin qoldi Uning uchun Allodan o'zga bironochguvchi (qachon bo'lishini bildirguvchi) yo'qdir". Parda va uning ochilishi to'g'risidagi fikrlar ilgari suriladi.

Tasavvuf nazariyotchilarining fikriga ko'ra, pardalar ko'tarilgach, solikning qalbida keskin o'zgarishlar kuzatiladi, borliqning eng qimmatli sirlari ochiladi. E'tiborli tomoni Shundaki, bu holat, Yani to'satdan sirlarning ochilishi kashf holini beradi va u intuitiv holda sodir

³³⁸ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqloq", 1999. – 180-b.

³³⁹ O'sha asar, 144-bet.

³⁴⁰ Al-Gazali. Imam Abu Xamid Muxammad bin Muxammad. Ilm-i laduni. V kn.: Xisimatulin A.A. Sufizm. – SPb.: "Azbuka - klassika"; "Peterburgskoe Vostokovedenie", 2003. S. 175-216.

³⁴¹ Triningem Dj.S. Sufiyskie ordeny v islame. Per. s angl., A.A. Staviskoy, pod redaksiyey i s predisl. O.F. Akimushkina. – M.: Nauka. Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1989. – S. 328.-288-bet.

³⁴² Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263-b. – 223-bet.

³⁴³ Xisimatulin A.A. Sufizm. – SPb.: "Azbuka-klassika"; Peterburgskoe Vostokovedenie, 2003 –S224. -205-bet.

bo'ladi."Intuisiya (ingl. Intuition, lot. Intueri – diqqat bilan qaramoq) fikriy jarayon bo'lib, qidiruvning mantiqiy xulosa olish uchun etarli bo'lmagan Yoki mantiqiy bog'liq bo'lmagan orientirlari asosida masalalar echimini topishdir".³⁴⁴ Intuisiya uchun qaror qabul qilishning bir zumdaligi va undagi mantiqiy asoslarning to'liq anglanmaganligi xususiyatlari xosdir. Kashf holining intuitiv holda sodir bo'lishligi bois bilish jarayoni mantiqiy fikrlash orqali emas Yoki muqaddas matnlarni (Qur'on va Sunnat) va ularning sharhini o'zlashtirish orqali ham emas, balki kutilmaganda, bir lahzada, go'Yoki asossiz holda bilim olish orqali amalga oshadi. Buni geshtal'tspsixologiyada "insayt" deb ham atashadi. Alloh inoyati bilan solik bilimni o'zlashtirishning bilvosita usullariga zarurat sezmaydi. Shunki u endi Ilohiy kashf manbaiga to'g'ridan to'g'ri borishi mumkin. Tasavvuf ahli mazkur bevosita olinadigan bilimni "kimni istasa, o'shani Yoritadigan nur"³⁴⁵ deb baholashadi.

Shunday qilib, kashf mukoshafaga, Yani "kashf yo'li ila bilish, avliyoullohning qalbida g'aybiy sirlarning ochilishi"³⁴⁶ga olib keladi. Mukoshafa va kashf tushunchalariga "sitr" va "istitor" tushunchalari qarama qarshi qo'yiladi. Sitr (qisqartirish) va istitor (parda bilan to'sish) g'oyalarini ilgari surganlar inson tomonidan Ilohiy sirlarni egallash va, demak, Allohni bilish mumkin emas, deb hisoblashadilar. "Istitor g'ayb bilan o'zni ko'rish o'rtasida insonlikning to'siq bo'lib turishi"³⁴⁷ degani.

Imom G'azzoliy o'zining "Ilm kitobi"da mukoshafa haqida Shunday deb yozadi: "u hissiy a'zolar bilan idrok qilib bo'lmaydigan ilohiy sirlardan bir sirning, yashirin ne'matlardan bir ne'matning nomidir. Gohida u "ruh", gohida u "nafsi mutmainna"(xotirjam nafs) deyiladi. SHariat uni "qalb" deb nomlaydi, Shunki u ilohiy sirning ulovidir. Uning vositasi ila butun badan o'sha latofatga bir bosqich vazifasini o'taydi. Bu sirning pardasi faqatgina mukoshafa ilmi bilan ochiladi. Mukoshafa ilmidagi o'sha sirning pardasini ko'tarishga, uni ochiq zikr qilishga izn berilmagan".³⁴⁸

Imom G'azzoliy bu o'rinda qalbga "ilohiy sirlardan biri, ilohiy ne'matlardan biri" deb baho beradi va badanni o'sha latofatga (qalbga – X.A.) bir bosqich sifatida ko'radi. Eng muhimi – bu sirning pardasi mukoshafa orqali ochilishi va bu ochilgan sirni yashirin saqlash lozimligidir.

Bu masalada Abulqosim al-Qushayriyning ham o'ziga xos qarashlari mavjud. Uning fikriga ko'ra, solikning safarining asosiy bosqichlarini ta'riflash, sharhlash mumkin. Bu ma'naviy-psixologik safar "muxodara" bosqichidan, Yani "Alloh ishtirokida topish"dan boshlanadi. Bu bosqichda solik hali mantiqiy asoslar, Shuningdek, o'z aqlining pardasi bilan to'silgan bo'ladi. Boshqacha yatganda, u bu gunohkor dunyoda uning oyatlarini o'qish va kuzatish Yordamida Allohga etishishi mumkin. Qushayriyning fikricha, bu ilohiy safarning ikkinchi boqichi "pardalarning olinishi" (mukoshafa) deb ataladi. Solik endi oyatlarni emas, Alhning ismi sifatlarini ko'rib boshlaydi. Biroq bu brsqichda ham hali Ilohiy sirlar kashf qilinmagan bo'ladi. YAxshi sharoitlar bo'lganda solik keyingi bosqichlarga ko'tariladi. Keyingi bosqichning nomi "haqiqatning bevosita ishtiroki" deb ataladi. U tasavvufda hech qanday isbot talab qilinmaydigan bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda solik Ilohiy bilimlar quyiladigan bo'sh tomirga aylanadi.³⁴⁹

Abdulloh al-Ansoriy kashf va mukoshafani bevosita ilohiy nurning boshlanishi, deb hisoblaydi. Uning tasnifi bo'yicha, kashf "ishonchlilik" darajasi (yaqiyng)ga etishishning belgisi sifatida qaraladi. YAqin solikni borliq haqiqatlarini mutlaqo anglashga etib boradi. Uning oldida ilohiy tajalli paydo bo'ladi. Bu holat go'yo quyoshning chiqishiga o'xshaydi.³⁵⁰

³⁴⁴ Болъshoy psixologicheskiy slovarъ. – Smb. Prayn – EVROZNAK, 2004. – S. 672-b.-209-bet.

³⁴⁵ Кnish A. D. Musulъmanskiy mistisizm: kratkaya istoriya / A.D. Knish; per. s angl. M.G. Romanov. – SPb.: Izdatel'stvo «DILYA», 2004 –S.464-362-bet.

³⁴⁶ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – T.: "Movarounnahr", 2004. – 263-b.-228-bet.

³⁴⁷ Shayx Kalobodiy. Tasavvuf sarchashmasi (At-ta'arruf – tasavvuf-ni tanishtirish kitobi). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. 138-bet.

³⁴⁸ Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. (Din ilmlarining jonlantirish) Ilm kitobi. – T.: "Movarounnahr", 2003. – 231 b.-133-134-betlar

³⁴⁹ Кnish A. D. Musulъmanskiy mistisizm: kratkaya istoriya / A.D. Knish; per. s angl. M.G. Romanov. – SPb.: Izdatel'stvo «DILYA», 2004 –S.464

³⁵⁰ O'sha asar.

Tasavvuf ahlining ta'kidlashicha, kashf va mukoshafa holatlari solikka "Ilohiy qudrat" (jabarut)ning va "Ilohiy hokimiyat" (malakut)ning oliy sohalariga olib boradi. Bu holatda haqiqat solikning qarshisida butun ulug'ligi bilan ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga oddiy avomning ongi bu dunyoning o'zgaruvchan hodisalari bilan aldanib qoladi va ularning idroki borliqning haqiqatini anglash imkoniyatidan mahrum. Shuning uchun tasavvuf ahli kashf holatida qalbida kechgan holatlarini, sirlarini faqat xos ahliga, Yani "hol" kishilariga aytga. Ahmad Yassaviy ham o'zining "Hikmatlar"ida "hol" ilmimi "qol" ahliga aytish mumkinmasligi haqida yozadi.³⁵¹

Kashf bo'yicha bevosita asar yozgan al-Xujviriyy ("Kashf al-mahjub") kashf ta'limotini rivojlantiradi. Uning fikriga ko'ra, solikdan yashirin narsani, Yani haqiqiy reallikni ochish "pardalarning sekin-asta ochilishi" natijasida paydo bo'ladi. Bu dunyodayoq "pardalarning ochilishi" solikka bir olam zavq-shavq bag'ishlaydi, solik huzur-halovat topadi. Bu holatni ayrim insonlarning jannatda Allohning sodiq do'stlariga in'om qilinadigan mo'jizasi hisoblanib, bu maqomga etgan kishilar o'z shogirdlarining fikrlarini o'qish va kelajakni bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Imom G'azzoliyning asarlarida kashf tushunchasi muhim o'rin tutadi. Uning fikriga ko'ra, kashf yaqin asosida quriladi va yaqin bilimga qarama qarshi qo'yiladi. Bilim muqaddas kitoblarni o'qish va obro'li kishilarga ergashish (taqlid qilish) orqali qo'lga kiritiladi. Al-G'azzoliyda bu bilim turi Yorug'likka (nurga) qiyos qilinadi va Alloh o'zining tanlagan odamlariga bu nurni singdiradi. G'azzoliy bilimlarning ikki xil chegarasini ko'rsatadi: rituallar, urf-odatlar, huquqiy normalar va axloqiy qoidalar to'g'risidagi bilim bilan Ilohiy inoyat mahsuli hisoblangan bilimlar hisoblanadi. Ikkinchi bilim narsalarning haqiqiy mohiyatini tushuntirib beradi va u siddiqlarga va muqarrab (Allohg qinlar)ga beriladigan ilm hisoblanadi. G'azzoliyning fikricha, "nur" solikning qalbiga to'g'ridan to'g'ri tushadi. Buning uchun uning qalbi turli tuman "kir"lardan, gunohlardan tozalanib, musaffolashgan bo'lishi shart. Bu bilim haqiqatning bexato va intuitiv idrok qilish mahsuli hisoblanadi. Boshqacha yatganda, G'azzoliy uchun kashf – bu ham nur, ham Alloh inoyati va ular Alloh to'g'risida ishonchli va aniq bilimlarga ega bo'lganlarga beriladi.

Xulosa qilib aytganda, bilishning tasavvufona nazariyasiga binoan bilish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi va ularning ikkalasi ham so'fiyning ma'naviy-ruhiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Bilimsiz tasavvufga kirib bo'lmaydi. Johiliyat yo'li bilan tasavvuf yo'li hech qachon to'qnash kelmaydi, ular bir-biriga varshi tushunchalardir.

Shu o'rigda ayrim shariat ahkamlari bilishning tasavvufona ikkinchi yo'lini (mukoshafa yo'li) inkor qilishadilar. Ularning fikriga ko'ra, eng ishonchli yo'l – bu bevosita idrok, tajriba yo'lidir. Turli tuman kashflar, sirlarning ochilishi, intuitiv bilimlar aynan Allohdan ekanligi Shubhalidir. Ularga ishonib qo'yish ba'zida shar'iy qonun-qoidalarga xilof bo'lgan holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun bilim olishda faqat aqliy va naqliy manbalarga tayanib ish ko'rish kerak, deb hisoblanadi.

Tasavvufning bilish nazariyasiga boshqa tomondan salbiy fikrlar bildirildi. Masalan, ishroqiylik falsafasini ko'rib chiqaylik. Ularning fikriga ko'ra, haqiqatni tushunib etishning yagona yo'li qalbdagi nur va sezgilardir. Ular bevosita tajribaning va aqlning o'rmini bilish jarayonida inkor etishdilar.

To'g'ri sunniy tasavvuf nazariyasida ikki tomonni ham: ham aqliy va naqliy, tajribaviy bilimlarni ham, kashfu ilhomga tayangan ilohiy bilimlarni ham tan oladi.

Yuqorida aytilganlardan bir qancha xulosalar chiqarish mumkin. Birinchidan, bilish nazariyasida odatdagi bilim nazariyalaridan farqli o'laroq bilimning intuitiv shakliga alohida urg'u beradi. Biroq psixologiyadagi intuisiya bilan tasavvuf nazariyotchilari nazarda tutgan intuisiyaning farqi bor. Psixologiyada intuisiyaga Ilohiy inoyat deb qarash, bu jarayonda Allohning ishtirokini inkor qilish bor. Ikkichidan, Alloh tomonidan tanlangan kishilar o'zining nafsini tiygan, qalbini musaffolashtirgan, o'zida dunyoviy muhabbatni so'ndirgan kishilar

³⁵¹ YAssaviy Ahmad. Hikmatlar.

bo'lishadi. Bu Shu sifatlarga ega bo'lgan odamlarga kashf nasib etadi, degani emas. Balki Shunday odamlardan ayrimlarigagina bunday maqom nasib etadi.

Shu o'rinda solikning ruhoniyligini safarida qo'lga kiritadigan ilohiy ne'mati – borliqning haqiqati to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak. Boshqacha aytganda, ma'rifatning natijasi haqiqatdir. Haqiqat haqida Linn Vilokoks Shunday deb yozadi: “G'arb odami reallik sifatida “haqiqat” so'zining tor, chegaralangan definitsiyasini qabul qilgan. Psixologiya xuddi oynaga o'xshab Shu chegaralangan definitsiyani aks ettiradi. Odamlar haqiqat haqida o'ylashadilar. Lug'at bizga ma'lumot beradiki, haqiqatning nafaqat bir nechta definitsiyalari mavjud, balki uning to'rt xil tipi ham bor va hatto haqiqatning bir qancha nazariyalari ham yaratilgan. Lug'atlardan birining definitsiyasi ko'rsatadiki, aksariyat odamlar bilishadiki, haqiqat – haqiqiy din Yoki ruhoniyligidir. Tafakkur va o'qish, Shuningdek, haqiqat haqidagi suhbatlar - bularning barchasi falsafa, bu faqat g'oyalar, tasavvurlar, reallik emas”.³⁵² Bu o'rinda Linn Vilokoks haqiqatning g'arbone sharhini tanqid qiladi va tasavvufona ta'rifini ma'qul ko'radi. Uning fikriga ko'ra, dunyodagi hamma narsa o'zgaradi, hech narsa doimiy emas. Faqat ilohiy mavjudot hisoblangan “Men” o'zgarmaydi. “Men” olimning fikricha, “haqiqiy mohiyat” hisoblanadi. Solik ruhoniyligini safar natijasida “haqiqatga erishadi”. Haqiqatni anglash uchun mutlaqo zarur bo'lgan erkinlik nafsga qarshi kurash olib bormasdan, dunyoviy istak va xohishlarni inkor etmasdan, qalbni musaffolashtirmasdan qo'lga kiritilmaydi.

Professor Anka o'zining “Sirlil farishtalarning hayoti” kitobida “rasional ruh” tushunchasini ilgari suradi. “Rasional ruh – barcha hissiyotlarning, ruhiyl va intellektual kuchlarning markazi va ichki boshqaruv faoliyatining va tananing himoyachisidir”.³⁵³ Professor Ankaning ma'lumotiga ko'ra, rasional ruh quyidagi holatlar orqali realliklar bilan tanishadi: 1) jismoniy tana organlari; 2) beshta sezgi a'zolari; 3) donishmandlikning ichki kuchlari; 4) ruhiyl va ilohiy kuchlar. Olimning fikricha, Yuqoridagi kuchlar haqiqatni aniqlash uchun zarur hisoblangan elementlardir.³⁵⁴

Shunday qilib, biz Yuqorida tasavvuf ta'limoti va amaliyotida muhim hisoblangan “marifat” tushunchasini, uning turlarini YU kashfni, uning diniyl va psixologik tomonlarini tahlil qildik. Endi Yuqorida Yuqorida ko'rib chiqqanimiz mistik hollarni chaqiradigan tasavvufiy usullar masalasini ko'rib chiqamiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxs, o'z o'zini anglash va tasavvufni tushutiring.
2. “Men” konsepsiyasini tushuntiring.
3. Aqliyl va progmatik so'fizmi ayting.
4. Fano tushunchasining psixologik mazmunini ayting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Tasavvuf metodologiyasi va aqid.
2. Azvoj – ziddiy juftlik tasavvufni o'rganishning metodologik tamoyili sifatida.

³⁵² Lil Vilokoks. Sufizm i psixologiya. – M. – SPb.: “DILYA”, 2005. – S. 254.-204-bet.

³⁵³ O'sha asar, 207-bet.

³⁵⁴ O'sha asar

“TASAVVUF VA PSIXOLOGIYASI” FANIGA OID IZOHLI LUFAT

1. ABDOL (arab. – avliyo (lar)) - tasavvufda valiylikning muayyan bir darajasiga erishgan guruh.k. Keng ma'noda avliyolar va Shayxlarni ham anglatadi. Rivoyatlarda abdollar qirqta bo'lishi, birlari vafot etsa o'rinlariga boshqasi o'tishi, ular tufayli er koim turishi haqida aytiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida “chiltan” so'zi bilan ifodalanadi. Islom dunyosida abdollar haqidagi ilk tizimli qarashlar al-Hakim at- Termiziy tomonidan yaratilgan.

2. ABROR (arab. - yaxshilar, pok kishilar) - tasavvufga ko'ra, darajalari o'rta hol kishilar. Ularning darajasi avliyolardan quyi, oddiy xalqdan esa, Yuqori hisoblangan. Ular Allohning buyruqlarini bajaradilar, man qilgan ishlaridan saqlanib yuradilar. Tasavvufda “Abrorlarning kundalik qilib yurgan savobli ishlari aziz-avliyolarning gunoh ishlari bilan barobardir” degan arab nakli bor. Demak, avliyolar uchun shariatda buyurilgan amallarni bajarish bilan cheklanib qolish nokislik hisoblanadi. Ular o'z zimmalariga bir qancha kushimcha ibodatlarni olgan bo'ladilar.

3. AVLIYO (arab. - “valiy” so'zining ko'pligi, Xudoning do'sti) - tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan o'zini saklovchi, dunyo lazzati va shaxvoniy ishlardan yuz o'g'irgan kishini anglatadi. Islom an'anasida avliyolar qaysidir bir ishi, xizmati Yoki xislati tufayli Allohning marhamatiga erishgan, duolari mustajob, solih qobil va kamtar kishilar bo'lib, ularning darajasi Payg'ambarlar darajasidan keyin turadi, deb hisoblanadi. Kanafiy mazxabida mozorlarni, jumladan, avliyolarning mozorlarini ziYorat qilib, ibrat olish savobli amallardan biri sifatida qaraladi. “Do'st” ma'nosini bildiruvchi valiy (ko'pligi “avliyo”) Qur'onda ikki xil ma'noda kelgan: 1) “Allohning panoxida bo'lgan va ishlarini Alloh boshqarib to'rgan hamda uni nafsiga ulja qilib tashlab kuymaydigan kishi” sifatida. 2) “Allohga itoat - ibodatini o'rniga kuygan kishi” ma'nosida. Qur'onda Allohning do'stlari ko'p marotaba zikr qilingan, Shulardan eng mashhuri: *«Ogoq bo'lingizkim, albatta, Allohning do'stlariga biron-bir xavf-xatar yuqdir va ular g'amgin bo'lmaydilar. Ular imon keltirganlar va taqvo qilganlardir»* (Yunus 10:62-63) bo'lib, bu erda imon keltirgan va parxezkor bo'lgan har qanday kishini Alloh o'ziga do'st tutishi zikr qilinadi.

Bir kishining valiy bo'lishi uchun mazkur ikki fazilatga ega bo'lmog'i kerak. Bu fazilatlarga ega bo'lgan valiy - bandalik vazifalarini eng mukammal tarzda bajaradigan, Allohdan kurkuvchi, Shu tarika Unga do'st bo'lgan, Alloh ham uni bu fazilatlari tufayli har qanday holatda omonlikda va O'z xifzu himoyasida saklaydigan zot demakdir.

Valiylik o'z darajasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: umumiy va xos. Umumiy valiylik - barcha ixlosli mu'minlar erishishi mumkin bo'lgan daraja. Xos valiylik - Yuqori maqomlarga erishgan so'fiylarning darajasi. Mashhur so'fiy al-akim at-Termiziy (vaf. 932 y.) xos avliyolarning tabaqaviy bosqichlari mavzusiga birinchilardan bo'lib batafsil tuxtalib utgan. Mazkur tabaqaviy bosqichlarning yuqori nuqtasida *qutb* turadi, undan quyida uch *naqib*, keyin esa, to'rt *avtod*, etti *abror*, qirq *abdol*, uch yuz *axyor* va Yana to'rt ming ko'z ilgamas avliyolar urab turadi. Shunday qilib, valiylik ma'naviy-axloqiy barkamollik timsoli bo'lib, shariatning barcha buyruqlarini bajarish barobarida sulukning talablarini ham ado etgan har qanday ixlosli kishi erishishi mumkin bo'lgan martaba hisoblanadi.

Tasavvuf agiografik manbalarining asosiy mavzularidan biri ham avliyolarning ibratli hayot yo'llari hamda ularning ko'rsatgan karomatlaridir. Avliyolarning suv yuzasida yurish, xavoda uchish, uzoq masofalarga bir zumda kuchib o'tish, o'z muridlari ichidagi fikrlarni ukiy olish, kasallarni bir nazarning o'zi bilan davolash, muridlarining og'irlarini masofadan turib engillashtirish, ularning mashakkatlariga uzoqdan turib sherik bo'lish, egulikning goyibdan paydo bo'lib qolishi kabi ko'rsatgan karomatlari tasavvufiy adabiyotning doimiy diqqat nazarida to'rgan mavzulardir. Bu esa, avliyolarning hayotlik vaktlarida ham, vafotlaridan keyin ham odamlar o'rtasida ularga nisbatan o'ziga xos munosabat va marosimlarning shakllanishiga olib kelgan. Bu munosabatlar ba'zan xalqona urf-odatlariga ham singib ketgan. Masalan, befarzand ayollarning avliyo manzili Yoki uning makbarasini ziYorat qilib, uyinchok beshik Yoki latta botashi hamda agar ziYoratdan sung farzand tug'ilsa, uni Shu avliyoga nazr qilishi, Nazirjon, Hazratkul, Pirimkul, Niyozbek, Xujamberdi, Pirniyoz kabi ismlar quyish, qurbonliklar keltirish va boshqa marosimlar. Turklarda yovo'z kuchlardan saqlanish uchun yangi tug'ilgan farzandni avliyoga ramziy ma'noda "sotish" marosimi tarqalgan. Bunday holatda bolalar Satilmish, deb atalgan. O'zbeklarda esa Sotiboldi, Sotkinoy kabi ismlarning quyilishi bolani "sotish" marosimi bilan botik. Avliyolar mozorlarini ibrat olish uchungina ziYorat qilish xanafiy mazxabida savobli ish hisoblanadi. Islomda qabrlar ustiga sag'analar barpo etish ko'p ham ma'qullanmasada, o'rta asrlardan boshlab avliyolar qabrlari ustiga makbaralar kurish keng tarqaldi. Keyinchalik ba'zi makbaralar atrofida xonaqoh, zoviya, tak'ya, chillaxona va zikrxonalar paydo bo'lgan. XII asrdan keyin agiografik manbalarda avliyolarning karomatlari haqidagi rivoyatlar ko'paygani ko'zatiladi. Bu ayrim muridlarning o'z Shayxlarini ulushash va o'z va'zlarini ta'sirchan qilish nuqtai nazaridan ba'zan mubolaga bilan keltirgan rivoyatlaridir. Xalq orasida esa avliyolarning karomatlari haqidagi ba'zi rivoyatlar avloddan-avlodga o'tib kelib, mubolagali tafsilotlar bilan boyitilib, folklor namunasiga aylanib qolgan. Avliyoning karomatlari haqidagi rivoyatlar o'z navbatida uning qabrining boshqalarga nisbatan "fayzlirok" bo'lishiga, natijada esa ko'proq ziYorat qilinishiga sabab bo'lgan.

4. ADAB (arab.) - tasavvufda tariqatdan saboq beruvchi pir Yoki Shayx va saboq oluvchi murid yoxud Solikning rioya qilishi zarur bo'lgan qonun-qoidalar. Shayxlar va Soliklar adabi xususida ko'plab asarlar yozilgan.

5. AHROR (arab. - "hur" so'zining ko'pligi) - islomda "hur", "ozod" ma'nolarini anglatuvchi tushuncha. Tasavvufda uch xil asirlikdan xalos topgan kishiga "hur" unvoni beriladi. Birinchisi - hayvoniy va shaxvoniy xohish-istaklarni engib, ularning asirligidan kutulish.k. Bu martabaning nomi - "hurriyati omma". Bu xususiyat hammada ham bo'lishi mumkin. Ikkinchisi - ortiqcha orzu-xavaslardan voz kechish.k. Bu - "hurriyati xossa" atalib, u tasavvuf ahlining ko'pchiligida topilishi mumkin. Uchinchisi - barcha dunyoviy amallar, an'ana va mashg'ulliklardan dilni pok tutish.k. Bu - "hurriyatu xossati- l-xossa" atalib, u tasavvuf ahlining ayrimlarigagina nasib etadi, deb hisoblanadi.

6. BADAVIYA al-badaviya (yoxud Ahmadiya) - so'fiylik tariqati. Misrda Ahmad al-Badaviy asos solgan. Badaviya amaliyotda kodiriylar va rifo'iyilarga yaqin turadi. Badaviyaning tashkiliy asoslari aniq belgilanmagan. Maxalliy zoviya va jamoa raxbarlari nomigagina tariqat raxbariga itoat etib, kamdan-kam hollarda undan fatvo olganlar. Tariqat qarorgohi asosiy ziYoratgoh - Tanta shahrida joylashgan. 1333 yil tariqat asoschisining vorisi Solix 'Abdulol vafotidan sung badaviyaga raxbarlik qilish meros bo'lib uta boshlagan. XIV-XV asrlarda ayrim

mamluk sultonlari badaviya bilan aloqa boshlagan. Badaviya uzoq vakt mobaynida (XX asrning 50-yillarigacha) Misr xalqi orasida o'z ta'sirini saklab kelgan. Badaviyadan kamida 15ta tarmoq ajralib chiqqan, ularning ayrimlari (mas., dasukiya-burxoniy) mustaqil tariqatga aylangan. Badaviyaga Misr xalqining kadimiy islom va xristianlikdan avvalgi diniy e'tiqodlari, urf-odatlarini qorishib ketgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, 'Abdulvaxxob ash-SHa'roniy (1493-1565) badaviyani shariat yo'lidan ogganlikda ayblagan. Badaviya tarafdorlari o'ziga xos kizil rangda kiyim kiyib, ularning xirqasi va 12 shoqilali uzun kalpoklari, Shuningdek bayroklari ham kizil bo'lgan. Ular odatda chorshanba kunlari Tantanadagi markaziy ziYoratgohda, maxsus xonalarda va Qohiradagi al-Husayn masjidida jamoa bo'lib zikr tushishgan. Unda maxsus qo'shiqchi xonishi va nog'ora sadosi ostida davra bo'lib zikr tushganlar. Davra buylab aylanayotgan zikr ishtirokchilari vakti-vakti bilan chuqur ta'zim bajo keltirib, Shu holatda kullarini oldinga cho'zganlar. Tariqat a'zolari o'zaro uchrashganlarida kul sikishib kurishganlar. Tariqat yilda uch bayramni nishonlagan. Bayram sanalari kadimiy kibtiiy kuyosh takvimiga qarab belgilangan. Birinchi bayram sanasi "ilohiy chukintirish" kuniga turri keladi, qolgan ikki sana Nil daryosi suvining ko'tarilishi muddati bilan botik (xosildorlikka bagishlangan marosim). Bayramlar vaktidagi tartib ustidan badaviya a'zolaridan to'zilgan maxsus kurikchilar - Nuh avlodlari nazorat yurgizishgan. Ularning belida yogoch qilich, kullarida arkon kamchin, buyinlarida turli rangdagi munchok shodasi bo'lib, u kukrakka tushib to'rgan; bosh kiyimlarining tepasida rangli tizimchalardan qilingan tutama (uram) bo'lgan.

7. BAQO VA FANO (arab. baqo - bokiylilik, barkarorlik; fano - foniylilik, yo'qolish, o'tkinchilik) - islomdagi tasavvuf bilan bog'liq tushuncha. Islom dinida baqo - Alloh sifatlaridan biri. Tasavvufda baqo Allohning bokiyo do'sti bo'lib qolish uchun o'zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarini o'zida mujassam qilish, deb ham tushuniladi. Fano - o'zidagi barcha yomon sifatlarini yo'q qilish yo'li bilan Allohga yaqinlik xosil qilishdir. Tasavvufda Solik fano maqomiga etgach, Allohning haqligi va ulug'ligi turrisidagi fikru zikrga gark bo'lib, bu foniyo dunyodagi jamiki narsalarni uno'tib yuboradi. Bu maqom "fano fillox" deb ataladi.

8. BAHUDDIN NAQSHBAND, Muhammad ibn Muhammad Baxouddin an-Naqshband al-Buxoriyo (ko'proq Baxouddin Yoki Xoja Baxouddin Balogardon, Xojai Bo'zruk, Shoxi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318-1389) - mashhur avliyo, Naqshbandiylilik tariqatining eponimi. Buxoro viloyatining hozirgi Kogon tumanidagi Kasri Kinduvon qishlog'ida tug'ilib, Shu erda vafot etgan. Bu qishloq keyinchalik Baxouddin Naqshband sharafiga Kasri Orifon deb atalgan. Baxouddin Naqshbandning oilasi va farzandlari tugrisida aniq ma'lumot yo'q. Otasi to'quvchi hamda uyma Naqsh soluvchi (Naqshband) bo'lgan. Baxouddin Naqshbandning bobosi so'fiylar bilan yaqin munosabatda bo'lib, nabirasida ham tasavvufga katta kizikish uygotdi. Baxouddin Naqshband Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, mavlono Orif Revgariyo, Xalil ota, Kusam Shayx kabi ustozlardan saboq oldi. Baxouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda so'fiylik targ'iboti bilan utgan. U ikki marta xaj qilgan. Garibona hayot kechirgan, faqat o'z mexnati - dehqonchilik va keyinrok duxobaga Naqsh (gul) solish bilan kun kechirgan. Yusuf Kamadoniyo va 'Abdulholik G'ijduvoniyo g'oyalari va ta'limoti asosida vujudga kelgan "Dilba Yor-u dast-ba kor" ("Ko'ngil Xudoda bo'lsin-u kul ish bilan band bo'lsin") degan shiori uning ta'limotini mashhur qildi.

9. VASL (arab. - "etishish", "visol") - tasavvufda "fano" maqomidan keyingi martaba, "Fano" maqomiga etgan Solik Allohning haqligi va ulug'ligi turrisidagi fikru zikrga gark bo'lib, foniyo dunyodagi borliq narsalarni uno'tib yuborgan bo'lsa, "vasl" maqomiga erishgan Solik Allohndan o'zga barcha borliqdan ajralib, Unga "etishgan" bo'ladi.

10. VAXDATU-L-VUJUD (arab. - birlik va borliqning bir butunligi) - abadiyo yagona Allohgina bor, deb hisoblovchi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, moddiy olam va narsalar dunyosi hakikiyo emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning tajallisidir, Shu'lasidir. Vaxdatu-l-vujud namoyandalari Xudo butun borliqni yaratib turadi, deb hisoblashgan. Vaxdatu-l-vujud ayniqsa XVII-XIX asrlarda Xindiston va Turkistonda tasavvufning keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

11. VAHDATU-L-MAVJUD (arab. - mavjudot birligi) - Alloh bilan birga yagona

moddiy olam bor, deb hisoblaydigan ta'limot. Bu ta'limot tarafdorlari tabiatni abadiy, deb biladi. Alloh olamning o'zida, unga singib ketgan, deb qaraydi. Vaxdatu-l-mavjud vakillari odam bu dunyodan voz kechmay, tarki dunyo qilmay yashashga intilishi kerak degan fikrni olga suradi. Hindistonda vaxdatu-l-mavjud kadimdan mavjud bo'lib, olamni moddiylik asosida tushunishga ahamiyat bergan. Shuning uchun ko'pchilik musulmon ruxoniylari bu ta'limotga Shubha va extiyotkorlik bilan qarashgan edi. Al-Kindiy, Ibn Rushd bu ta'limotning namoyandalari hisoblanadi. Vaxdatu-l-mavjud namoyandalari fikricha, tabiat abadiy, undagi narsa va hodisalar o'zaro bog'liq, dunyo hamisha o'zgarish, rivojlanish holatida turadi. Vaxdatu-l-mavjud tarafdorlari musulmon Sharqida tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishi uchun falsafiy asoslar yaratib berdi.

12. VIRD (arab. - vazifa) - tark qilmay doim bajarib turiladigan vazifa, duo; tasavvufda Shayx va muridlarning kundalik o'qib yurishlari uchun zarur bo'lgan Qur'oni karim tilovati, zikr, tasbex ugrish, duo va salavotlar. Ular kechki va tungi ibodatlar orasida ado etilib, tariqatning asosi hisoblanadi.

13. GURGONIY Abu-l-Qosim Ali (vaf. 1058 y.) - tasavvufning Xurosan maktabi Shayxlaridan. Tug'ilgan va vafot etgan yili, qabrining kaerdaligi haqida aniq ma'lumotlar etib kelmagan. 'Ali ibn 'Usmon Xujviriy (vaf. 1072 y.) "Kashf ul-maxjub" asarida Gurgoniy bilan bir necha marta (aksariyat Tus shahrida) uchrashib, ba'zi masalalarni undan suraganligi haqida yozadi. Gurgoniyning Tusda xonako va masjidi bo'lib, u o'z davrining kutbi deya e'tirof etilgan. "Silsilat o'z-zaxab"dagi 9-piri murshid. Tasavvuf ta'limini Abu 'Usmon Magribiy va Abu-l-Hasan Harrakoni (vaf. 1034 y.)dan olgan. Tasavvufdagi nisbasi, bir tomondan, Abu 'Usmon Magribiy, Abu 'Ali al-Kotib, Abu 'Ali ar-Rudboriy orqali Junayd Bag'dodiy (vaf. 910 y.)ga, ikkinchi tomondan, Abu-l-Hasan Harrakoni orqali Boyazid Bistomiy (vaf. 848 Yoki 875 y.)ga borib boglanadi. Manbalarda Gurgoniy ikki yunalish "saxr" va "sukr"ni o'zida birlashtirgan murshid sifatida zikr etiladi. Gurgoniy Abu 'Ali Farmadiy (1011-1085)ning tasavvufdagi ustozidir. Shayx Abu Said Abu-l-Xayr (967-1049) bilan yaqin aloqada bo'lgan. Hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar "Tabaqotu-s-sufiya", "Risolai Kushayriya", "Nafaxotu-l-uns", "Nasoyimu-l-muhabbat" singari asarlardan joy olgan.

14. DARVESH, qalandar (fors.-turkcha - kashshok, kambag'al; arab. fakir) - tasavvufda o'zini Alloh yo'lida xizmat qilishga bagishlab, o'z-o'zini kamolotga etkazish yo'liga kirgan inson. "So'fiy" so'ziga sinonim sifatida ham kullaniladi. Darveshlik ta'limotining asosini zikr tushish orqali Xudo bilan "yaqinlashish" va hatto, u bilan "kushilib ketish" mumkin, degan g'oya tashkil qiladi. Eron, O'rta Osiyo va Turkiyada darvish so'zi tor ma'noda Shaxsiy mulki bo'lmagan kambag'al, daydi zoxidni (XVI asr boshigacha - "qalandar" atamasining sinonimi) anglatgan. Darveshning boshlangich ma'nosini bildirgan "kambag'al" so'zi so'fiylikning ixtiyoriy kambag'allik, oz narsaga qanoat qilish haqidagi ta'limotidan kelib chiqqan. Darveshlar muayyan maslak (suluk)ka birlashgan va uning g'oyalarini targ'ib qilgan.

Darveshlik g'oyalari aksini topgan suluklar: Naqshbandiylik, Yassaviylik, kubraviylik va boshqalar. Ta'limoti, amaliyoti, odati va kiyimlaridan kat'i nazar, darvishlar ikki guruh - daydi, doimo darbadarlik qilib yuruvchilar hamda Shayx va pirlar raxbarligida mukim yashovchilarga bo'lingan. Darveshlarning birinchi guruhi erta baxorda dunyo buylab safarga otlanganlar. Shuning uchun ularni "darbadar", eshikma- eshik yuruvchi, deb ham ataydi. Ikkinchi guruh, i xunarmandlar, savdogarlar, turli darajadagi amaldorlar va boshqalardan iborat bo'lib, o'z uyida yashab, ishlari bilan Shurullangan. Ular har kungi ibodatni bajargan, xafta Yoki oyning aniq belgilangan kuni umumiy zikr tushishga qatnashganlar. Inqilobdan oldin O'rta Osiyoda ham darveshlik keng yoyilgan, darveshlarning faoliyati bilan bog'liq qalandarxonalar va xonaqohlar mavjud bo'lgan. Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Eron va Afrikaning ayrim mamlakatlarida darveshlik suluklarining hozirgi kunda ham ta'siri bor.

15. DORU-L-FANO (arab. - foniyluk uyi) - islom dinida inson yashayotgan dunyo (bu dunyo) "foniy" (o'tkinchi) ekanini bildiruvchi tushuncha. Unga ko'ra, bu dunyo yaxshi va ezgu amallar, savob ishlar qiladigan joy; Doru-l-fanoda doru-l-baqo uchun tayYorgarlik kuriladi. Tasavvufda doru-l-fano g'oyasi Yanada rivoj topdi, bu dunyoga befark qarash, dunyo

lazzatlaridan voz kechish ayrim tasavvuf arboblari xos amallardan hisoblanadi. Bu dunyoni doru-l-fano deb atash IX-X asrlarda ayniqsa, malomatiylar tariqatida keng rasm bo'lgan.

16. JAZAVA (arab. - "jazba" so'zining bo'zilgan shakli) - kuchli asab ko'zgalishi, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmay qolish, xayolot va vokelik o'rtasidagi muvozanatini yo'qotish natijasida yuzaga keladigan ruxiy holat. Jazavaning eng ko'p turlari odatda shialikdagi "Shaxsey-vaxsey" marosimida uchraydi. Tasavvuf istillohida esa, jazava tariqat ahlining ilohiy ishq ta'sirida shavku zavkka tulishi, zikr va samo' asnosida o'zidan ketish holatlari sifatida talkin etiladi.

17. ZAVQ - tasavvufda avliyolar qalbiga Alloh tomonidan ato etiluvchi ma'rifat nuri. Uning yordamida avliyolar haq va nohaq narsalarni bir-biridan osongina ajratish kudratiga ega bo'ladilar.

18. ZIYORAT (arab. - biror erga yoki shaxs xo'zuriga borish) - mukaddas qadamjolarga, mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish.k. ZiYorat marosimi odatda qabr tepasida Qur'on o'qib, marhum haqqiga duo qilish, Shuningdek xayr-exson, sadaka berish kabilardan iborat. Islom dini akidasiga ko'ra, mozorlarga ziYorat uchun borilganda marhumlarning ruxlaridan madad tilash, xojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishini surash nojoizdir. Shunki, bu kabi amallarni ruyobga chiqarish faqat Allohning ixtiYoridadir. ZiYorat qilinuvchilar Payg'ambar bo'ladimi, avliyo Yoki tariqat Shayxi bo'ladimi, ulardan najot surash o'rniga haqlariga duoi xayr qilish, sadaka- exson savoblarini ularning ruxlariga xadya etish o'rinlidir.

19. ZIKR (arab. yodga olish, eslash) - tasavvufda Xudoni yodga olish bilan bog'liq marosim. Ko'pchilik Allohni yodga olish zarurligini Qur'oni karimning "Allohni zikr qilish bilan qalblar orom olur" (13:28) degan oyati bilan boglaydilar. Zikr ovoz chiqarib (az-zikr al-jaxriy) va ovoz chiqarmasdan (az-zikr al-xafiy) aytiladi. Ovoz chiqarib zikr tushish O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan. Bunda bir guruh so'fiylar avval davra qurib o'tiradi, bir kishi (kavvol) muayyan iboralarni ma'lum oxangda ukiydi, unga ayrim musiqa asboblari jur bo'ladi; bora-bora kishilar o'rnidan turib, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydilar. Zikr vaktida so'fiy va darvishlar "Alloh xayy" (Alloh tirik); "la ilaxa illAlloh" (Allohdan o'zga Illoh yo'q); "Allohu akbar" (Alloh - eng ulur); "al-hamdu lillox" (Allohga hamdu sanolar) va boshqa so'zlarni takrorlaydi. O'zoq vaqt takrorlangan so'zlar, musiqa va raks natijasida zikr tushayotganar o'zligini uno'tadi, Allohdan boshqa hech kim va hech narsani yodiga keltirmay kuyadi. Zikr mavlud va boshqa diniy marosimlarning tarkibiy qismiga aylangan.

20. ZOVIIYA - xonaqoh va rabotlardan xajmining kichikrok bo'lishi va aksar hollarda o'zlatni ixtiYor qilgan Shayxlar xo'zurida bo'lishi bilan farkanib to'rgan. Ammo ba'zi manbalarda «zoviya» va «xonaqoh» so'zlari sinonim sifatida ham kullanilgan.

21. ZOHID (arab. bee'tibor, moddiy manfaatga befark bo'luvchi) - tasavvufda tarkidunyo qilgan kishini anglatuvchi atama sifatida kullaniladi. Zoxidlar musulmonlarni bu dunyo rohat-farogatidan voz kechishga, Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydilar.

22. ZOHIDLIK - tarkidunyochilik, Xudoning marhamatiga musharraf bo'lish, jannatga tushish uchun tarkidunyo qilish zarurligi haqidagi diniy-mistik tasavvur. Zohidlik islomda darvishlik, chilla o'tirish, ro'za tutish, zikr tushish kabilarda namoyon bo'ladi. Tasavvufda zohidlik Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etish, demakdir. Bunda Allohga shirk keltirishdan saqlanish va ibodatda riyodan holi bo'lish; barcha gunohlardan va harom narsalardan saqlanish va nixoyat, ortiqcha dunyoviy ashyolarga mexr kuymaslik nazarda tutiladi. SHariat va tariqat qoidalariga bu xilda rioya etishni Baxouddin Naqshband, Xoja Axror, Najmiddin Kubro va boshqa pirlar ham targ'ib etganlar.

23. ILHOM - ko'ngilga solish; tasavvufda Solik qalbida Alloh tomonidan paydo etilgan fikr. SHariat ulamolari fikricha, ilhom qat'iy ma'lumot manbai bo'la olmaydi. Tasavvuf ahli, aksincha, ilhomni ilohiy fayz deb qabul qilib hamda unga asoslanib, so'z va ish yuritadi. Ilhom o'z mohiyatiga binoan "akliy ilm"dan ham farkanadi, Shunki ilhom fikr- mulohaza yuritish va qo'losa chiqarish yo'li bilan vujudga kelmaydi. Tasavvufga ko'ra, ilhom mu'min dilini

Yorituvchi ilohiy nurdir, Qur'onning botiniy ma'nosini ham ilhom orqali anglab etish mumkin.

24. ISHROQ ("porlash") - so'fiylikdagi falsafiy ta'limot; YAxyo as-Suhravardiy (vaf. 1191 y.) tomonidan ishlab chiqilgan. Yorug'lik va zulmat ramzlaridan, Shuningdek, zardushtiylikdagi mukaddas kitoblardan olingan obrazlardan keng foydalanib, as-Suxravardiy aslini olganda o'ziga xos ta'limot yaratgan. Ishrok haqidagi ta'limotga asosan har qanday mavjudlikning manbasi va energiyasi «Oliy nur» (nuru-l-anvor) bo'lib, u o'zining borligi bilan birinchi maxluk - «farishta», Baxman no'rini «Yoritadi». Ishrok ta'limotiga ko'ra bayon etilgan dunyo manzarasi so'fiyning uta berilib zikr tushishi paytida uta sezgir va ongli bilimga ega bo'lishi mumkinligiga isbot bo'lib xizmat qiladi. So'fiyning ruxi moddiy olamning har xil «chiktlari»dan zohidlik tajribasi orqali poklangach, ilohiy nur bilan «nurlanadi», u «dunyoning sir-asrorlaridan» boxabar bo'ladi va o'z manbasi tomon uchib, u bilan kushilib ketadi.

25. ISHQ (arab. - muhabbat) - tasavvufda Allohga bo'lgan ishq. Allohdan o'zga har qanday mahubga bo'lgan ishq yoki muhabbat soliklar nazdida majoziy ishq sanalgan. Tasavvufona bitilgan g'azal va boshqa turdagi She'rlarda majoziy ishq, ork,ali haqiqiy ishq, tarannum etiladi.

26. KOMIL INSON - tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan etuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa etishgan (Yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh komil insonda o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek kurib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihati: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga kushadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favkulotda ahamiyati ana Shundan kelib chiqadi, u - Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va iaqsadidir. Komil inson haqidagi ta'limot so'fiy faylasuf Ibn al-'Arabiy tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumi va boshqa tasavvuf arboblari tomonidan rivojlantirilgan. O'zbekistan mustaqillikka erishgach, komil insonni voyaga etkazish milliy istiklol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib quyildi. Prezident I.Karimov asarlarida komil insonni voyaga etkazish vazifalari atroflicha bayon etilgan.

27. KUBRO, Ahmad ibn 'Umar ibn Muhammad Xivakiy al- Xorazmiy (laqablari: "Najmiddin" ("Dinning yuldo'zi"), "Kubro" ("Ulu'r"), "Abu-l-jannob" ("Dunyodan chetlanuvchi, parxez etuvchi"), "Valiytarosh" ("Valiylarni tarbiyalovchi"); 11451221) - shayx so'fiylikning mashhur vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi. Xiva (Xorazm)da tug'ilgan. YOshligidanok xadis va kalomni o'rganadi, ilm istab Misrga boradi. U erda Shayx Ro'zbixon Vazzon al-Misriydan ta'lim oladi va uning kiziga uylanadi, Keyinchalik Tabriz, Hamadon, Dizfulga kelib ilohiyotdan saboq oladi. Kubro Misrga qaytgach, Ro'zbixon uni tula komil inson bo'lib etishdi, deb hisobladi va o'z vataniga qaytishni maslahat beradi. Kubro Xorazmga kelgach, xonaqoh ko'radi va o'z diniy maktabini yaratadi. Kubroning shogirdlari orasidan tasavvufning taniqli nazariyotchilari, so'fiylik buyicha mumtoz adabiyot vakillari etishib chiqdi. Kubro murul boskinchilariga karshi jangda shaxid bo'lgan, Uning qabri xonaqohi bilan birga Kuxna O'rganchda joylashgan. Bilishning Kubroga xos tasavvufiy yo'li buyicha inson o'z mohiyati bilan kichik olamdir, u katta olam bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni va sifatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ammo, ilohiy sifatlar Yuqori samoviy doiralarda birin- ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganidan, haqiqat yo'lini kidiruvchilar bunday kamolotga erishish uchun ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur. Kubro ana Shu kamolotga erishish asoslarini ishlab chiqdi. Kubro o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir necha risolalarida bayon etgan. Ulardan asosiylari: "Favoixu-l-jamol va favotixu-l-Jalol", "Un usul", "Rislatu-l-Xoifi-l-xoim min lavmi-l-loim". Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada chop etilgan. U Qur'onga so'fiylar nuktai nazaridan sharx berishni oxirigacha etkaza olmadi, bu ishni shogirdlari tugalladilar. Tasavvuf ta'limotining rivoji va keng tarqalishida katta omil bo'lgan Kubro merosi respublikamizda mustaqillik tufayli o'rganila boshlandi. 1995 y.da O'zbekistonda Kubro tavalludining 850 yilligiga nishonlandi. «Najmiddin Kubro» (Toshkent, 1995), «Sharhi risolayi odobu-z-zokirin» (Urganch, 1997) kitoblari nashr etildi.

28. KUBROVIYLIK - tasavvuf tariqati. XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro

asos solgan. Kubroviylik tasavvufning O'rta Osiyodagi maktabi bo'lib, ma'naviy vorislik zanjirini Ma'ruf al-Karxiy (vaf. 816 y.) orqali Abu Bakr Yoki Ali ibn Abu Tolibga etkazadilar. Kubroviylikda tariqat a'zolarining yagona tashkiliy tizimi bo'lmagan. Ularni ta'limotning ruxi va iaqsadi birlashtirgan. Kubroning shogirdi Sayfiddin Boharziy tomonidan Buxoro yaqinidagi Sektariy qishlog'ida tashkil etilgan xonaqoh Najmiddin Kubro nomi bilan atalgan. Bu erda Kubroviylik tariqati XVIII asrning oxirlarigacha keng tarqalgan edi. Uning a'zolari Kubro roylarini Xitoyning g'arbiy chegaralarigacha yoydi. Keyinchalik Kubroviylikning bir qancha mustaqil shaxobchalari vujudga keldi. Bular - firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, oliya, ittishoshiya, zaxabiya, nurbaxshiya. Kubroviylik ta'limotiga ko'ra, har bir kishi kamolotga erishish uchun 10 asosga tayanmog'i kerak. 1. Tavba - o'z xohishi bilan Haq taolaga qaytish; Xudoning amrisiz, kishining o'z ixtiyori bilan Xudoni sevishi, o'zining "men"idan kechishi. 2. Zuhd fi-d-dunyo - barcha dunyoviy narsalardan tiyilish.k. 3. Tavakkul - barcha ishlarni qilishda Xudoning mexribonligi va kudratiga umid bog'lash.k. 4. Qanoat - hayot kechirishda oz narsa bilan qanoatlanish, mu'tadillik, tuban mayllardan ozod bo'lish.k. 5. Uzlat - tanholikda bo'lish, ruxni mustahkamlash, xis-tuygularni jilovlash.k. Uzlatga ketish xisseyotlarning bosilishiga olib keladi. 6. Mulozamatuz-zikr (uzluksiz zikr) - Xudoning ismini yod qilib turish, butun qalbni U bilan to'ldirish.k. Shundagina pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razilliklar kishi kungliga yo'l topa olmaydi. 7. Tavajjuh - butun vujud bilan Xudoga murojaat qilish, Unga cheksiz muhabbat quyish, undan boshqa narsa borligani xis etmaslik. 8. Sabr - o'z ixtiyori bilan mashakkatlar chekib bo'lsa ham, nafs doirasidan o'zini olib qochish.k. Turri yo'ldan adashmasdan borish uchun kishi o'z mayllarini sundirishi lozim. Shundagina dil qudratlardan poklanadi, rux nafs natijasida zanglab qolgan bo'lsa, jilo topadi. 9. Muroqaba (tafakkurga g'arq bo'lish) - qalb poklangani va tuban extirolardan holiligini tuyib, xotirjam bo'linganini eslab xayolga chumish, Haq taolo rahm-shafkatini ko'tib turish holati. 10. Rizo - so'fiy endi Xudo uni sevib qolganligini, Alloh undan rozi, u ham Allohdan rozi ekanini sezadi, uning uchun ana Shu narsa muhimdir. Xudoga bo'lgan muhabbat so'fiyning Shaxsiy xis-tuygu sifatini yo'qotib, yangi ko'rinishda - Allohning istak-xohishi tarzida namoyon bo'ladi. Rizolik maqomi Haqqa etishganlikni bildiradi. Hozirda ham Kubroviylik ko'rinishlarini uchratish mumkin.

29. MAVLAVIYLAR, mavlaviya - so'fiylik tariqati. Taxminan 1240 yilda Jaloliddin Rumi Kuniya shahrida (Kichik Osiyo) asos solgan. Rumiyni ko'pincha "mavlon" ("janobimiz") deb atashgan. Shundan tariqat nomi olingan. Tariqat faoliyati Eron, sungra Turkiya xududi bilan cheklangan. Mavlaviya tariqatiga avval shahar aholisining o'rta va quyi qatlamlari, keyinroq xos tabaqalari kirgan. Mavlaviya o'z mavlaviyaxona va takyalariga ega bo'lib, bu erda zikri samo' qilishgan. Boshqa tariqatlardan farqli ularoq, mavlaviya jamoa bo'lib, musiqa tinglash, kuylash va gir aylanib zikr tushish marosimiga alohida e'tibor berishgan. Mavlaviylar fikricha, mutlaq rux - Illohning inson qalbidagi zarrasi musiqa ta'sirida, zikr tushish paytida tiniqlashib, poklanadi, Yani o'z o'zagiga yaqinlashadi, Allohga o'z muhabbatini tularoq ifodalashiga Yordam beradi. Mavlaviya "gardi darvishlar" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Mavlaviyaning birinchi rasmiy boshligi Shayx va xalifa unvonini olgan Hisomiddin Hasan CHalabiy (vaf. 1264 y.) edi. Rumiyning ug'li, Sulton Valad (1226-1312)ni uning vorisi, tariqatning amaldagi tashkilotchisi, deb hisoblash mumkin. Sulton Valaddan boshlab Mavlaviya raxbarlik lavozimi - asosan katta ug'li Ulur Orif CHalabiy (1272-1320) orqali vorislik lavozimiga aylangan. Mavlaviya ilk Usmonli turk sultonlari davrida (XIV asr) Kichik Osiyo buylab tarqalib, juda mashhur bo'lib ketgan. Mavlaviya tariqati Turkiyada to 1925 yilga kadar faoliyat ko'rsatgan va Shu yili Kamol Otaturk dekreti bilan tarkatib yuborilib, barcha erlari, kuchmas mulki va bankdagi mablagi musodara qilingan.

30. MALOMATIYLAR (arab. - ta'na ahli, ta'naga koluvchilar) - so'fiylik tariqatlaridan birining tarafdorlari. Malomatiylar ta'limotining asosiy qoidalarini Hamdun al-Qassor (vaf. 884 y.) ishlab chiqqan. Al-Muxosibiy, Abu YAzid al-Bistomiy va Saxl at-Tustariy kabi Irok zoxidlarining qarashlari mazkur ta'limotning shakllanishida muhim ro'ly uynagan. Malomatiylar harakati umuman yagona tashkiliy tuzulmaga ega bo'lmay, mustaqil maxalliy tugaraklar shaklida edi. Dastlab Nishopurda yuzaga kelib, garbga - Irok, va Suriyaga, Sharqqa -

Movarounnaxr va Turkistonga tarqalgan. Malomatiylar ayrim ruxoniylarning o'z taqvodorligini boshqalarga pesh qilib, ibodat va marosimlarni yuzaki, namoyishqorona bajo etishiga e'tiroz bildirishgan. Vakt o'tishi bilan Malomatiylar tariqati yo'qolib, uning tarafdorlari kolmadi. Bu ta'limotning ba'zi jihatlari Naqshbandiylik tariqatida namoyon bo'lgan.

31. MANOKIB (arab. - fazilatlar) - tasavvuf tushunchasi sifatida biror ulur zotning fazl va martabasini maktab, ta'rif-tavsif qilish.k. Ko'pincha shu haqdagi risola Yoki asar tushuniladi. Masalan, "Manoqibi Xoja Axror" (Xoja Axror ta'rifi), "Manokibi SHox Abdulloh" (SHox Abdullohning ta'rif va tavsifi) va x. k.

32. MA'RIFAT (arab. - bilish, anglash, idrok etish) - tasavvuf tushunchasi; tasavvufdagi bosqichlardan biri; Solik ma'naviyatining kundan-kunga ortib borishi, koinot va tabiat ilmu xikmatidan, Shuningdek, insoniy va ilohiy sir- asrorlardan vokif bo'lib borishi. Hadisi sharifda: "Kimki o'zini yaxshi tanisa, Parvardigorini ham, albatta, tanib oladi", deyilgan. Yani, inson o'zining to'zilishi, murakkab tarkibi, jismoniy va ruxoniy vujudini qanchalik chuqur tafakkur bilan o'rganib, bilib borsa, Allohning ulur xikmati va beqiyos kudratining buyuk ekanini Shunchalik idrok etadi. Inson o'zidagi kamchilik va xatolarni qancha ko'p sezib ikror etsa, Allohning benukson komil zot ekanini Shuncha paykab oladi. Har bir inson o'z ma'rifatini bilimiga qarab Yuqori darajalarga ko'tarishi mumkin.

33. MAQOM (arab. - joy, o'rin, manzil) - tasavvuf tushunchasi; har bir so'fiy bosib o'tishi lozim bo'lgan bosqichlar. Tariqatlarda maqomlarning soni har xil keltiriladi, lekin ko'p lollarda 4 maqom tilga olinadi: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat (k. Tasavvuf). Lekin, tasavvufning ayrim yirik namoyandalari maqomlarni ko'proq, deb hisoblagan. Masalan, Fariduddin 'Attor 7 maqom, G'azzoliy 9 maqomni ta'riflagan. Har bir maqom ham o'z navbatida bir necha kichik bosqichlarga bo'linadi (ayrim so'fiylarda bu bosqichlar 8 dan 10 gacha ko'rsatilgan) va ular "manzil" deb ataladi.

34. MURID (arab. - istovchi, aniq bir iaqsadni xoxlovchi) - tasavvufda ixtiyoriy ravishda izdan boruvchi, shogird. Atama sifatida tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma'nosida anglatadi. Murid shayh pir, murshid oldida o'z zimmasiga muayyan majburiyatlar oladi, ular bilan pinxona ishonchli munosabatlar urnatadi va ularning irodasiga buysunadi. Umuman murid atamasi so'fiy va hatto oddiy musulmon ma'nolarini ham anglatishi mumkin.

35. MURSHID (arab. - yo'l ko'rsatuvchi) - tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, Shayx va ustoz.

36. NAQSHBANDIYLIK - tasavvuf tariqatlaridan biri. Baxouddin Naqshband asos solgan. Naqshbandiylik ta'limotining asosida "ko'ngil Xudoda bo'lsinu kul ish bilan band bo'lsin"("dil ba Yoru dast ba kor") shiori yotadi. Unga ko'ra, dilni Alloh bilan boglagan xodda kasb-xunar va kul mexnatini aslo tark etmaslik kerak. Fakirona yashash, xayr-exson hisobiga emas, o'z mexnati hisobiga hayot kechirish lozim. Bu g'oya tariqat asoslanadigan un bir qoidada ham o'z ifodasini topgan. Turonzamin tasavvufida zikr tushishning ikki usuli amalda bo'lgan. Biri - zikri jaxriy, ikkinchisi - zikri xufiya. Naqshbandiylikda zikri xufiya amalda bo'lib, bunda zikr tushayotgan Solik so'zlarni til bilan talaffo'z qilmaydi, ovoz chiqarmaydi, so'zlar faqat dilda aytiladi. Naqshbandiylik o'zidan oldingi oqimlardan bevosita hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Naqshbandiylik tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq qoidalarni bir kadar yumshatdi, mu'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Bu esa, Naqshbandiylikning keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi. Naqshbandiylik O'rta Osiyo, O'rta va YAqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- madaniy hayotida muhim o'rin egalladi. Yusuf Hamadoniy, 'Abdulholik G'ijduvoni Naqshbandiylik tariqati rivojiga xissa kushdilar. XV asrda Xoja Axror bu tariqatning eng yirik rahnamosi bo'lib maydonga chiqdi. Temuriylar davrida mashhur Shaxslar Naqshbandiylik pirlariga murid bo'lgan edi. Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar Naqshbandiylik tariqatida edilar. Ular o'z asarlarida Naqshbandiylik ta'limotini targ'ib etdilar. Naqshbandiylik O'rta Osiyodan tashkari, Kichik Osiyo, Kavkaz, Kurdiston, Afgoniston, Eron, Pokiston, Xindiston, Turkiya va hatto AKSHda keng tarqaldi. Ayrim musulmon mamlakatlarida hozir ham bu tariqat katta mavkega ega.

37. NUJABO (arab. "oliy zot, zotdor") - tasavvufda bir toifa avliyolar faqat insonlarning

manfaati uchun faoliyat ko'rsatadilar. Ularning odamlar haqqiga qilgan duolari mustajobdir. Nujabolarning adadi 70 tadan 40 tagacha qilib ko'rsatiladi.

38. PIR (fors. - kekxa, kari) - so'fiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari Yoki obruli rahnamolar. Shuningdek, har bir murid o'z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida "Pir" tushunchasi avliyo, ma'lum bir xunarning asoschi-xomiysi ma'nosida ham ishlatiladi.

39. RIYOZAT (arab. - "kiynalish", "mashakkatlanish") - tasavvufda tariqatning asosiy shartlaridan biri. Darvish, murid so'fiyning o'z istagidan o'zini tiyib, bu yo'lda kiynalishi, mashakkat chekishi, azob uqubatlarga chidashi.

40. RIFO'IYLAR - so'fiylik tariqati a'zolari. O'rta asrlarda vujudga kelgan. Bu tariqatga Basralik Sayyid Ahmad Rifo'iy (vaf. 1182 y.) asos solgan. Rifo'iyilar YAqin Sharqda, xususan, Eronda keng tarqalgan darvishlardan iborat bo'lgan. Ular hozir ham mavjud.

41. ROBIYA AL-ADAVIYA (713/714-801) - Basra zoxidlarining taniqli vakilasi. Bolaligida churi qilib sotilgan. Keyinchalik xudojuyligi va zoxidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Bir necha yil saxroda yolgiz yashagan. Robiya al-Adaviya Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgan. U zoxidlardan birinchi bo'lib Allohdan hech bir tama' - manfaat ko'zlamay, uni mutlaq sevish - inson ma'naviy hayotining mohiyati ekanligini ta'kidlagan. Robiya al-Adaviya g'oyalari keyingi avlod so'fiylari orasida keng tarqalib, al-Bistomiy, al-Halloj, Ibn al-Foriz, Ibn al-'Arabiy va boshqa so'fiylar ta'limotining asosini tashkil etgan. Robiya al-Adaviya taqvodorlik, Allohni sevish namunasi deb bilinib, "avliyo" sifatida ulushanadi.

42. ROBITA ("aloqa", "rishta") - Sharqdagi tasavvufga xos bo'lgan istiloh. Murid bilan uning piri (murshid) Yoki avliyo (valiy) o'rtasida paydo bo'ladigan ruxiy aloqa. Muridning butun fikru zikrini murshid kiyofasiga jamlashi, u bilan mulokotga kirishi va o'zligini unda kushilib ketishi bilan erishiladi. Naqshbandiylik va kodiriya tariqatlarining ayrim risolalarida robita zikrdan afzal sanalgan.

43. SAFAVIYA - so'fiy-darvishlik tariqati. XIII asr oxirida Eron Ozarbayjonida paydo bo'lgan. Asoschisi - Shayx Safiyuddin Isxoq (1252-1334). Safaviya dastlab o'z tarafdorlarini hukmdorlarning jabr-zulmlaridan himoya qiladigan diniy jamoa sifatida shakllangan. XV asrda Safaviya Ardabil hukmdorlari xokimiyatining tayanchiga aylandi. Kizilboshlar safaviya Shayxlarining harbiy tayanchi bo'lgan. Safaviya tarafdorlari shialikdan mafkuraviy qurol sifatida foydalangan. 1499 yil Ismoil I (1487-1524) boshchiligida

44. SILSILA (arab. - zanjir, xalqalar) - tasavvufda tariqat mashoyixlarining ikki xil nisbiy boshanishlari: 1) har bir Shayx o'z pirining (Shayxi, murshidi) ustozini, ustozining ustozini va ulardan Yuqorilarini birma-bir to'rtinchi darajaga (s.a.v.) kadam nomma-nom bayon qilishi; 2) har bir Shayx o'z ota-bobolari (etti pushti) kimlar bo'lgani va qaysi mashhur zotga borib taqalishini isbotlab beradigan shajara. Silsila pir va murid o'rtasidagi barkaror munosabatga asoslanib, XII asr oxiri va XIII asr o'rtalarida so'fiylik tariqatlarining tashkiliy tuzulmasi rivojlanishi bilan mustahkamlandi. Hadislardagi isnod tizimi ham silsilaga bevosita ta'sir utkazgan.

45. SOLIK (arab. - yo'lchi, yo'ldan yuruvchi) - tasavvufda suluk-tariqatni ixtiyoriy qilib, uni o'zlashtirish harakatiga tushgan, lekin xali biror maqom Yoki martabaga erishmagan murid. Solik o'ziga xos odob-qoidalar majmuiga rioya etsagina, tariqat ahli sirasidan joy olgan.

46. SULUK (arab. - yo'l) - Solikning tariqat yo'lini o'tish jarayoni. Ilohiy ma'rifatni egallashga bel boglagan muridning ruxiy-axloqiy kamolotga erishish yo'li.

47. SO'FIY - so'fiylik tariqatiga mansub Shaxs, murid; "Tasavvuf" va "so'fiy" so'zlarining o'zagi va mazmuni turrisida olimlar fikri turlicha. Bu so'zlar arabcha "suf" (jun, pustin) so'zidan kelib chiqqan, degan fikr ko'pchilik ulamolarni tomonidan ma'qullangan. Shunki, tasavvuf yo'lga kirganlarning ko'pchiligi o'zlarini xilvatda tutish bilan birga egnilariga pustin kiyib yurishar edi. Lekin so'fiylar orasida pustin kiyimiydiganlari, kurok, xirqa Yoki boshqa xildagi kiyim kiyib yuradiganlari ham bo'lgan. Ammo, pustin kiyishga odat qilgan so'fiylar ko'pchilikni tashkil qilgan.

48. SUFI OLLOYOR, Sufi AllohYor (1644, Kattakurgon bekligi, Minglar qishlog'i 1724, Denov); - turkiy tasavvuf adabiyotining yirik vakili va Naqshbandiya tariqati arbobi, so'fiy

shoir. Buxorodagi Juybor Shayxlari madrasasida ta'lim olgan. O'z davrining an'anaviy hisoblangan barcha ilmlarini egallagan, arab va fors tillarini o'rgangan. Buxoro xoni 'Abdulazizxon tomonidan bojxonaga ma'mur etib tayinlangan. Sufiyona fe'li, shoirona tabiati tufayli bu lavozimdan iste'foga chiqib, mashhur Shayx Navro'zga murid tushgan, uning kulida un ikki yil tarbiya topib, Shayxlik martabasiga etishgan. Mansabdorlik paytidagi qattiqkulligi va o'zgalarga etkazgan zulmlaridan qattiq pushaymonligini baytlarida hamda ug'liga qilgan nasihatlarida aks ettirgan.

Sufi Olloyorning shox asari "Maslaku-l-muttakin" 12 ming bayt, 135ta katta-kichik boblardan iborat. Bu kitobning yozilish sabablaridan biri shoir yashagan davrlarda islom dinining odamlar hayotidagi o'rni zaiflashuvi, yuzlab soxta Shayx va eshonlarning "karomatlari" tufayli dinga nisbatan e'tiborning susayishi, natijada axloksizlikning kuchayishi edi. Fors tilida yozilgan mazkur asar el orasida mashhur bo'lib, yaqinlari undan turkiy tilda ham Shunday bir kullanna yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban, u "Maslaku-l-muttakin"ni birmuncha kiskartirib, turkiy tilda nazmiy asar bitadi va unga "Sabot ul-ojizin" deb nom beradi. Bu kitob akida, shariat va tasavvuf ta'limotlari haqida so'z yurituvchi turkiy falsafiy-didaktik adabiyotining etuk namunasi. Umuman olganda, "Maslaku-l-muttakin" va "Sabotu-l-ojizin" ikki mustaqil asar bo'lsada, ularda toyaviy va ma'naviy tomondan bir-birini tuldiradigan ko'plab baytlar uchraydi. Asarda akida masalalariga alohida e'tibor aratiladi. Usha davrda Aftonistondan kirib kelayotgan va aholi orasida keng tarqala boshlagan botil so'fiy oqim - ravshaniylarning yot mafkurasining islom ta'limotiga zid ekani asoslab beriladi. 1806 yili tatar olimi Tojiddin YO'lchitul ug'li o'zining Aziza ismli kiziga atab "Sabotu-l-ojizin" asariga "Risolai Aziza" nomli sharx yozadi. Bu sharx orqali Sufi Olloyor butun turk dunyosida tanildi. Sufi Olloyor birinchi navbatda yirik ilohiyotchi va fakih Abu Xanifa an'alarini omma orasida tarkatishda faol ishtirok etgan din arbobi edi. Asarlarida islom axkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birma-bir ta'riflab bergan. Xususan, "Maslaku-l-muttakin" va "Sabotu-l-ojizin" asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar katorida ukitilib kelingan. Uning tasavvufiy ruxdagi pandu xikmatga yurtilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Kashkardan tortib Volga, Ural daryolari xavzalari, Astraxan, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan va ko'p nusxalarda ko'chirilgan. XIX asrning oxirlariga kelib esa, Toshkent, Kozon, Boku, Istanbo'l va boshqa shaharlarda toshbosma yo'li bilan bir necha marta chop etilgan.

49. TAVAKKUL (arab. - "biror-bir zotga umid bog'lash", "suyanish") - o'zini Alloh irodasiga topshirish, faqat Uning irodasiga umid bog'lash.k. Tavakkul amallari zoxidlar va so'fiylar orasida keng yoyilgan. Ular Qur'onga asoslanib, tavakkulni imon bilan bog'lashgan, Allohdan chinakam umidvor bo'lgan insongina kundalik turmush tashvishlaridan yuz ugrib, Alloh yo'lida holis xizmat qilishga kodir, deb hisoblashgan. Keyinchalik so'fiylik yo'lining (tariqat) boshlangich maqomlaridan biri tavakkul istilohi bilan atala boshlandi. Tavakkul so'fiylikning boshqa bir maqomi - "konikish" (rizo) bilan ham boglangan. Tavakkulga amalda rioya etish ba'zi so'fiylarning deyarli har qanday mexnat faoliyatini tuxtatib quyishida ham namoyon bo'lgan. Fakixlar va ilohiyot olimlarining aksariyati bunday yondaShuvga e'tiroz bildirganlar. Ular fikricha, tavakkul mexnatdan butunlay voz kechishni bildirmaydi, Yani inson ishlashi, tijorat bilan Shugullanishi mumkin. Ammo bu kabi ishlarni hayotning asosiy iaqsadi qilib kuymay, o'z extiyojlarni kondirish uchun etarli darajada ishlab rizk topish, u yogiga esa, Allohga tavakkul qilib, uzoq va mavxum kelajak turrisida xayol surib, xom orzu- xavaslariga berilmaslik nazarda tutiladi.

50. TAVBA (arab. - qaytish, pushaymon bo'lish) - tasavvufda Solikning tariqat sari qadam quyishidan oldin qilgan barcha gunohlaridan tavba qilib, kelajakda biror gunoh ishni qasddan qilmaslikka azmu karor etishi. Tavba Solikning 1-maqomi sanaladi. Alloh tomonidan tavba qabul bo'lishining 2 sharti bor: 1) yomonlikni bilmasdan qilish; 2) tavbani kechiktirmaslik. Kimki tavbani kechga sursa, insoniy fazilatlardan mahrum va aksincha tavba qilishga shoshilsa, o'zini isloh qilgan bo'ladi. Tavba - insonning o'z-o'zini tarbiyalashda muhim axloqiy vosita sanalib, yomonlikdan yuz ugrib, yaxshilik sari qadam quyishga, ezgu ishlar qilishga undab

turuvchi xislat sanaladi.

51. TAJALLI (ko'pligi tajalliyot) - "Xudoning namoyon bo'lishi", Allohning dunyoda namoyish etishi. Tajalli tushunchasini dastlab basralik zoxid Rabox ibn Amr al- Qaysiy (vaf. 796 y.) kiritgan. Mashhur so'fiy Saxl at-Tustariy (vaf. 896 y.) tajallining uch to'rini farklagan: a) ilohiy mohiyatning namoyon bo'lishi (tajalliyu-z-zot), Yoki ilohiy vaxiy (mukoshafa); b) ilohiy mohiyatning o'z sifatlarida namoyon bo'lishi (tajalliyu sifati-z-zot), Yoki nur taratish; v) ilohiy hukmning namoyon bo'lishi (tajalliyu hukmi-z-zot), Yoki kelajak hayot (al-oxira va ma fiyxa). Mansur al-Hallogga ko'ra, Alloh doimo insonlarga narsa va atrofdagi hodisalar ko'rinishida namoyon bo'ladi (yatajalli), lekin Uni faqat ozchilik xos insonlargina tanishlari mumkin. Tajalli atamasini so'fiylar - vaxdatu-l-vujud ta'limoti tarafdorlari keng ishlatganlar.

52. TARIQAT (arab. - yo'l, usul) - so'fiylikka xos tushuncha. Uch ma'noda ishlatiladi: 1) umuman so'fiylik yo'li; 2) so'fiylikning muayyan tarmogi, yunalishi; 3) so'fiylik bosqichlaridan biri. Lekin tariqatni so'fiylik yunalishlari (suluklari), tarmoqlari ma'nosida kullash kengrok tarqalgan. So'fiylikning bosqichi sifatida tariqat so'fiylar oldiga quyiladigan o'ziga xos talablar majmuasini, xilma-xil ruxiy- jismoniy xatti-harakatlarni kamrab oladi. Tariqatga qadam quyish - tirikchilikning barcha tashvishlaridan yuz ugirish hamda ixtiYorni piri murshidga topshirishdan boshlanadi. Undan keyin tariqat yo'lida so'fiy Yana bir necha bosqich (maqom) larni, jumladan, doim kambag'allikda, tasodifiy rizk hisobiga yashash (fakr), tarki dunyo qilish (zuxd), har narsani faqat Xudoga solish (tavakkul), uni sevish va unga intilish (muhabbat, shavk) va boshqa bosqichlarni utaydi. So'fiylikning ba'zi yunalishlari insonni nafaqat zoxidlik, balki mutaassiblik yo'lga ham etaklaydi. So'fiylikda tariqatlar tarmogi ko'p bo'lgan. Hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib kelayotgan kodiriya (Eron va Afgonistonda), rifo'iya (Eron), tayfuriya (arab mamlakatlari), mavlaviya (Turkiya), chishtiya (Hindiston, Pokiston), bektoshiya (Turkiya), safaviya (Eron) va boshqalar Shular jumlasidandir. O'rta Osiyoda esa, ilgaridan Naqshbandiylik, kubroviylik, Yassaviylik va kodiriylilik tariqatlari tarqalgan.

So'fiylikka xos tushuncha sifatida, tariqat - pir- Shayxlar o'z muridlari Allohga yaqinlashmoq va Uning roziligiga erishmok iaqsadida joriy etgan qoida va rusumlar majmuasidir. Har bir tariqatda murid oliy iaqsadga erishishi uchun o'ziga xos va bir-biridan farklanuvchi uslub va yo'llar ishlab chiqilgan. "Tariqat" so'zi tarixiy jihatdan quyidagi tadrijiy bosqichlarni bosib utgan. 1. IX-X asrlarda tasavvuf nazariyotchilari (al-Muxosibiy, al-Junayd al-Bag'dodiy, al- Kalabodiy, as-Sarroj, al-Xujviriy, as-Sulamiy) tariqatni odob-axlok va ma'naviy-ruxiy kullanmalar majmui, deb hisoblaganlar. Uning vositasida ruxiy poklanishni iaqsad qilgan hakikatni chuqur tafakkur hamda ruxiy va jismoniy mashqlar yo'lga kirib, ular orqali ilohiy haqiqatni anglashga intiladi. Bu bosqichda tariqat tasavvuf mohiyatini anglash usuli bo'lgan.

XI-XII asr o'rtalarida Xurosanda so'fiy yigilishlar asosida pir-murid tartibi (instituti) shakllandi va butun musulmon olamiga keng tarqalib ketdi. Ushbu tuzulmaning asosiy figurasi pir bo'lib, barcha muridlar sulukdagi yo'lbo'shchi sifatida unga so'zsiz itoat qilishlari lozim bo'lgan. Mazkur bosqichda tariqat suluk yo'lini ta'lim berish maskaniga aylandi. Tariqat o'z ichiga jismoniy, ma'naviy-ruxiy, asketik mashqlar, o'ziga xos marosimlar majmuasi (xilvat, chilla, zikr, samo', ro'za)ni kamrab olgan hayot tarziga aylandi. Bu davrda tasavvuf xos kishilar tasavvufidan omma tasavvufiga aylandi.

XII asr oxirlariga kelib tariqatlarning silsila instituti - o'zluksiz ma'naviy vorislik zanjiri shakllanib, sulukdagi xususiy uslublarning jamiyatda "qonuniylashtirish" jarayonida asosiy o'rin tutdi. Silsila tariqatning hayotiy o'zagi sifatida e'tirof etilib, unga e'tibor doimo Yuqori bo'lgan. Bay'at berib, tariqatga kirgan har bir murid silsiladan ma'naviy madad olgan. Bu institutning paydo bo'lishi sulukni ta'lim beruvchi maktablarning tashkiliy tizimi va ierarxiya tuzulmasining shakllanish jarayonini tezlashtirib yubordi. Bu jarayon esa tasavvufiy tariqatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Tariqat - unga asos solgan pining silsila orqali etib kelgan sulukdagi o'ziga xos yo'lini tatbiq qiluvchi, ma'lum intizom va qoidalarga asoslangan, markazlashgan ierarxik tuzulmani tashkil etuvchi so'fiylarning ixtiYoriy jamoasiga aylandi. Shunday qilib, tariqat yagona uslub, yagona silsila va tashkiliy tizilma holatiga keldi.

XII-XIV asrlarda tasavvufda asosiy 12 tariqat: rifo'iya, Yassaviya, shoziliya, suxravardiya, chishtiya, kubraviya, badaviya, kodiriya, mavlaviya, bektoshiya, xalvatiya, Naqshbandiyalar vujudga keldi Bu tariqatlar keyinchalik vujudga kelgan barcha tariqat tarmoqlari Yoki alohida tariqatlarning o'zagi hisoblanadi. 'Abdu-l-K,odir al-G'iloniy (al-Jiloniy) (vaf. 1166 y.) ta'sis etgan kodiriya tariqati dastlabki tariqatlardan biri hisoblanadi. Keyingi o'rinda vujudga kelgan tariqatlardan biri Ahmad ar-Rifo'iy (1106-1183) asos solgan rifo'iya tariqati deyiladi. Ma'lumki, mazkur tariqat o'z asoschisining hayot paytida tulakonli tariqat sifatida e'tirof etib bo'lingan edi. Suxravardiya kabi ba'zi tariqatlar esa tashkiliy tuzulmasi yo'qligi tufayli tom ma'nodagi tashkilot sifatidagi tariqatga aylana olmadi. Tariqatlarni bir-biridan farkanishida zikr katta ahamiyat kasb etadi. Tariqatlarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: silsila orqali o'tadigan baraka meroShuri sifatida tariqat Shayxiga to'liq itoat etish tamoyili; ierarxik itoat asosiga kurilgan yagona tashkilot tizimining mavjudligi; tariqat Shayxiga bay'at berish; jismoniy, asketik va ruxiy mashqlar (o'zlat, zikr, nafl ro'za, bedorlik va x.k.)ni bajarishda ichki tartib-qoidalarning mavjudligi; jamoaviy zikrning marosim sifatidagi ahamiyati; tariqatda avliyolar qabri bilan botik e'tiqodning mavjudligi.

O'rta Osiyoda esa, ilgari Yassaviylik, kubraviylik, Naqshbandiylik va kodiriylik tariqatlari tarqalgan. Ba'zi tariqatlarda tashki kiyofaga, kiyimlarga katta ahamiyat beriladi (mavlaviya, bektoshiya). Naqshbandiya tariqatida esa oddiy va pokiza libos kiyish va salla urash bilan kifoyalaniadi. Tariqatlarda xirqa, kuloh kamar, shadd, abo, pustak, tannura kabi liboslar kiyiladi. Mazkur liboslar ham o'z o'rnida ma'lum bir tasavvufiy ma'noni ifodalaydi. Masalan, xirqa tariqat akli kiygan keng, uzun, oldi ochik, yokasiz, engi uzun bo'lgan libos. Xirqa kiyish Shayxga taslim bo'lishni ifoda etadi. Xirqa ikki xil bo'ladi: tabarruk xirqa va iroda xirqasi. Tabarruk xirqa tariqatga kirishga moyil bo'lgan, zikr majlislari, Shayx sukbatlarida ishtirok etadigan, ammo kali tariqatga kirmagan kishining o'z istagiga ko'ra unda tariqatga mehr paydo qilish, pirga kul berishga undash iaqsadida kiydiriladi. Tasavvufda xirqa kiyish an'anasi Payg'ambar Ibrohimga (a.s.) borib takaladi, deb aytiladi. Zero, Ibrohim (a.s.) gulxanga tashlanganlarida farishta Jabroil (a.s.) Allohning amri bilan jannatdan ipak kuylak olib kelib, Payg'ambarga kiydirgan, uning barakoti tufayli Payg'ambar olovdan saqlanib qolgan. Ushbu kuylakni Ibrohim Payg'ambar ug'li Ismoilni (a.s.) qurbon qilmoqchi bo'lganda kiydirgan. Keyinchalik bu kuylak Payg'ambarlar orasida kuldandan kulga o'tib, Yusuf Payg'ambarning quduqdan kutilishi, YA'kub Payg'ambarning ko'zlari ochilishiga vosita bo'lgan, deyiladi. So'fiylar xirqada bu kuylakning ma'naviy barakasini timsol qiladilar. Shu bilan birga, Mukhammad (s.a.v.) kam sahobiylarga libos kiydirganlari kakida turli rivoyatlar etib kelgan. Tariqatlarning tashki kiyofasini ifodalovchi Yana bir mukim ko'rinishlardan biri bu "quloq"dir. Quloq jundan tiqilgan bosh kiyimi bo'lib, uning ustiga turli shakllarda salla uraladi. Quloq kam xirqa kabi maxsus marosim asnosida kiydiriladi. Quloqning tiqilish shakli, rangi va sallani urash usullari so'fiyning tariqati, uning tariqatdagi maqomi va Yana boshqa ma'nolarni ifoda etadi.

53. TARKIDUNYOCHILIK - odamlardan, tashki dunyodan, Shuningdek, jamiyat va oiladan ajralib yashash, kimsasiz joylarga bosh olib ketish, darbadarlikda hayot kechirish - islomdan boshqa yirik dinlarga (brakmanizm, buddaviylik, yakudiylik, xristianlik) kam xususiyatdir. Uning mohiyati - din yo'lida riyozat chekish.k. Tarkidunyo qilganlar odamlardan uzoqda va g'orlarda hayot kechirishgan, o'zlarini xilma-xil uqubatlarga duchor qilganlar, ochyalong'och yashaganlar. Ayniqsa, uylanish, avlod qoldirishga, kundalik hayot tashvishlari bilan yashashga nafrat bilan qarashgan. Garchi tarkidunyochilik islom dinida ma'qullanmasada, o'rta asrlarda keng tarqalgan, so'fiylik oqimlarining vujudga kelishi bilan botik bo'lgan. Ular fakir, darvish, qalandar, zoxid deb atalgan. Ular gadolik va xayr-exson bilan kun kechirganlar. Ilgari O'rta Osiyoda ham tarkidunyochilik keng yoyilgan, darvishlar va qalandalarning faoliyati bilan botik qalandarxonalar va xonaqohlar mavjud bo'lgan.

54. TASAVVUF, so'fiylik - islomda insonning ruxiy olamiga bog'liq, qarash va amaliyotlar majmui. Bu atama kelib chiqishi haqida turli taxminlar bor. Lekin aksariyat olimlar nazdida tasavvuf "suf" -"jun", "pustin" so'zidan kelib chiqqan. Shunki, tarkidunyo qilgan zoxid, "o'zini Xudoga bagishlagan odam" odatda dagal jundan tuqilgan kiyim Yoki pustin kiyib

yurgan. Tasavvufga asos solgan tarkidunyochilik kayfiyatlari islom dini bilan deyarli bir vaktida paydo bo'ladi. Muhammad (s.a.v.) atrofidagi Abu-d-Dardo uning ayoli Ummu-d-Dardo, Abu Zarr al-Giforiy, Xo'zayfa ibn al-Yamoni, Salmon al-Forisiy kabi ayrim sahobiyalarda zoxidona qarash va turmush tarzi "tasavvuf" degan tushunchaning o'zi xali paydo bo'lmasidan ilgari namoyon bo'lgan edi. Zero, "tasavvuf" istilloh sifatida IX asrning boshlaridagina Irok va Suriyadagi zoxidlarga nisbatan kullana boshlagan. Manbalarda "nussok", "zuxxod", "ubbod" kabi nomlar bilan keltirilgan bu toifaga muxaddislar, sayYor baxshilar va nasihatguy voizlar (kussos), kori-yu kurrolar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashayotgan mujoxidlar, taqvodor xunarmandlar va savdogarlar, Shuningdek, islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi kiritilgan. Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur g'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlar ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ilk so'fiylar, Yani zoxidlarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'lgan: Qur'on oyatlari mazmuni ustida uzoq, muddat mushoxada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va Payg'ambar hadislaridagi ko'rsatmalarga kat'iy rioya etish, ko'p nafl ibodatlar qilish, tungi bedorlik, nafl ro'zalar tutish, tarkidunyochilik, har ishda taqvodor bo'lish, halol va haromni qat'iy ajratish, hukmdorlar bilan hamkorlik qilmaslik, tavakkul qilib, o'z takdirini Allohga topshirish kabilar bo'lgan. Shuningdek, fakirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va doimiy tavba qilish kayfiyati, berganiga Shukr qilish, azob-uqubatlarga sabr-toqatli bo'lishdan iborat edi. Ular o'z navbatida, Allohdan haqiqiy ma'noda qo'rqadigan banda o'tkinchi dunyodan, uning barcha gunoh va ma'siyatlaridan voz kechish kerakligini ta'kidlar edilar. O'z tarkidunyochiliklarining tashki ifodasi sifatida ko'pincha dakal pustak kiya boshladilar. Bu bilan ular o'zlarini shoyi va paxta kabi matolardan ishlangan kiyimlar kiyadigan oddiy odamlardan ajratib ko'rsatardilar. Dag'al pustin kiyish xristian roxiblarining odati ekaniga ishora qilib, ilk davrlardagi musulmon olimlar bu ko'rinishga salbiy munosabatlarini bildirganlar. "O'zini fakir qilib ko'rsatish - Alloh o'zining taqvoli bandalarini etarli darjada ta'minlamagan", deya da'vo qilish bilan barobar deb, hisoblab pustak kiyishni koralaganlar. Ammo Shunga qaramay, Suriya va Irokda tarkidunyochilik kayfiyatidagi kishilar orasida pustak kiyish odati keng tarqaldi.

Asta-sekin so'fiylik ta'limoti asosiy e'tiborni inson qalbi, uning ruxiyati, ko'ngil hollari, nafs tarbiyasi, komil inson, yuksak ma'aviyat, go'zal odob-axlok, ruxiy kamolot kabi mavzularga qarata boshladi. Tasavvufning dastlabki davrida ilm sifatida shakllanish jarayonini tobe'iy Xasan al-Basriy (642-768) Shaxsiyati bilan boshaydilar. U manbalarda inson qalbining nozik jihatlari ang'lay oladigan ruxshunos sifatida gavdalanadi. Uning aytgan xikmatlari keyingi davr tasavvufiy adabiyot uchun ulkan ozuka bo'ldi. Tariqat silsilalarining aksariyatida Xasan al-Basriy ismi uchrashi odatiy holga aylangan. Xasan al-Basriyning izdoshlari Rabox ibn Amr, ad-Daroniy (VIII asr oxiri IX asrning boshi)larning da'vatlarida Xudoga muhabbat, ilohiy ishq, mavzulari namoyon bo'la boshladi. Bu mavzu tasavvufga yangi shakl va mazmun bera boshladi. IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotida katta o'zgarishlar bo'lib utdi. Bu davrda bir qancha so'fiylik maktablari paydo bo'lib, ular orasida Basra maktabi bilan bir qatorda Bag'dod va Xurosan maktablari ham birmuncha ta'sirga ega bo'ldi. Bu tariqat vakillari asosiy e'tiborni ko'proq Solikning ichki holatiga, uning botiniy maqom va manzillariga, holiga qaratar edilar. Har bir amalda "sidk" va "ixlos"ni birinchi o'ringa kuydilar. Bu esa o'z navbatida Xoris al-Muhosibiy (781-857) tomonidan o'z-o'zini nazorat qilish - "murokaba" va "muxosaba" usullarini ishlab chiqishiga olib keldi. Bu usullar eng avvalo insonning niyatlari va qalbdagi nozik o'zgarishlarga qaratilgan edi. Zero, ular oxir-okibatda insonning faoliyatini belgilab beradigan omillar hisoblanadi. Al-Muxosibiyning "muxosaba" haqidagi ta'limoti Movarounnaxr va Xurosandada malomatiylik yunalishi shakllanishiga to'rtki bo'ldi. Malomatiylik g'oyalari ko'plab tariqatlarga, jumladan, Naqshbandiylikka ham ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf o'z tarqqiyoti davomida shialik va undagi oqimlardan biri - ismoiliylik ezoterizmi bilan yaqinlashib, Shu yo'l bilan "xoslar"gina egallashi mumkin bo'lgan "Qur'on oyatlarini ramzlar orqali ta'vil qilish", "botiniy, yashirin ma'nolarni kashf qilish" kabi g'oyalarni o'zlashtirdi. "Xoslar" uchun

muljallangan g'oyalarning keng omma orasiga tarkab ketishi, bu g'oyalar mualliflarini tazyik va ta'kiblarga uchrashlariga sabab Bulardi (Saxl at-Tustariy, al-Haqim at-Termiziy, Abu-l-Xusayn an-Nuriy, Ibn al-'Arabiyy) Mashhur so'fiy Xusay ibn al-Mansur al-Xalloy "Ana-l-Haq" ("Haq menman") degani uchun 922 yil Bavdodda katl etildi. Ba'zi nufo'zli sunniy ulamolarning tasavvufga Shubha bilan munosabatda bo'lishi so'fiylarni extiyotkorlikka, murosali yo'llar izlashga majbur etdi. Ularga doimo Qur'on va sunna ko'rsatmalaridan tashkariga chikmaslik, keskin va "tuturiksiz" fikrlarini oshkor etmaslik lozimligi ta'kidlanar edi. So'fiylar ham o'z navbatida, turli yo'l va usullar bilan o'z maslaklarini nikoblab, shariat me'yorlariga moyil ekanlarini ko'rsatishga harakat qilar edilar. Shunday mavke'ni egallagan so'fiylardan biri al-Junayd al-Batdodiy (vaf. 910 y.) edi. Aynan u Boyazid al-Bistomiy tomonidan "sukr"ga asoslangan jazavali so'fiylikka ters ularoq "mu'tadil" so'fiylik an'anasini boshlab berdi.

Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar - mayda savdogarlar, xunarmandlar va x.k. tashkil etgan edi. Tasavvufning ilk bosqichidayok murid-Shayx (murshid, pir) raxbarligida so'fiylik nazariyoti va amaliyotini egallash muhim hisoblangan. Muridlar Shayxga barcha diniy va dunyoviy masalalarda butunlay buysunishi shart edi. O'zining taqvodorligi, bilimi bilan tanilgan yirik so'fiy murshidlarni esa, vakt o'tishi bilan "valiy", ba'zan esa "kutb" deb ham atay boshladilar. Muridlarga ergashib, oddiy xalq ham ularning "ma'sumligi", tayrioddiy karomatlar ko'rsatishi, paytambarga kelgan vaxiytlarning "yashirin" ma'nosini izoxlab berishga kodirliigi, Xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqidagi islom ta'limotiga zid bo'lgan turli uydirmalarni gapira boshladilar. Bular ham o'z navbatida, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda ba'zi tasavvuf nazariyotchilarining asarlarida ifodasini topa boshladi. Tasavvufiy bilimlar va baraka Shayxdan muridga uzoq muddatli ta'lim jarayoni orqali o'tadi, deb hisoblangan. Saboq berish tugagach, Shayx shogirdiga o'ziga xos "guvoxnoma" vazifasini utovchi so'fiylik xirqasini kiydirgan. Bu esa, o'z navbatida muridga mustaqil tartibot olib borish hukukini bergan. Islom olamining turli chekkalaridan kelgan muridlar, ruxsat olganlaridan sung o'z yurtlariga qaytib borib, u erda zoviya, xonaqoh va so'fiylik xalqalarini tashkil qilib, o'zlari ham shogird etishtira boshlaganlar. Bu jarayon tasavvufning tez tarqalishiga olib kelgan.

X-XI asrlarda tasavvufiy hayot va tafakkur tarzi jamiyatning keng qatlamlarini kamrab oldi. Tasavvuf tarafdorlari soni doimiy ravishda ortib bordi. Bu davrda so'fiylik an'analari shakllanib, tasavvuf asoslarini Yoritib bergan ilk yozma manbalar vujudga keldi. Mazkur kitoblarning asosiy iaqsadi tasavvuf o'z nazariyoti va amaliyoti bilan islom ta'limotlariga batamom muvofiq ekanini ko'rsatib berish hamda tasavvufning ogzaki tarzda etib kelgan merosini tasniflashdan iborat bo'lgan.

X asr oxiri XI asr boshlarida tasavvufning mumtoz yuriknoma asarlari yozildi. Bundan at-Tusiyning (vaf. 988 i.) "al-Luma", al-Kalabodiyning (vaf. 990 Yoki 995 y.) "at-Ta'arruf", Abu Tolib al-Makkiyning (vaf. 998 y.) "Kutu-l-kulub", as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) "Tabaqotu-s-so'fiyya", al-Kushayriyning (vaf. 1072 y.) "ar-Risola", al-Xujviriyning fors tilidagi (vaf.1072 Yoki 1076-77 y.) "Kashfu-l-maxjub", al-Ansoriyning (vaf.1089y.) "Manazilu-s-soiriyn", Abu Nu'aym Isfaxoniyning (vaf. 1038 y.) "Xilyatu-l-avliyo" asarlari bizgacha etib kelgan. Bu davrda yaratilgan as-Sulamiyning "Haqoiku-t-tafsir" asari Qur'onning ilk tasavvufiy tafsirlari sirasida alohida o'rin egallab, tasavvufiy, ezoterik talkin an'analarni namoyon etadi. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar, so'fiylik istillohlarini tushuntirib berdilar hamda tasavvufni islom ta'limotlariga zid emasligini ko'rsatib bera oldilar.

XP-XSH asrlar musulmon jamiyatlarida tasavvufning mavke'i omma orasida kuchayishi bilan belgilanadi. Bu davrda tasavvufning rasmiy ta'limot sifatida e'tirof etilishida al-G'azzoliyning (vaf. 1111 y.) o'rni beqiyos bo'lib, "al-Munkiz min az-zolal" asarida tasavvuf axloki oxirat uchun asosiy zaxira ekani, "Ixyo ulum ad-din"da barcha ilmlarni zikr etib turib, xotimada tasavvufiy bilimni Yuqori qo'yishini aytib o'tadi. Uning islom olamidagi nufo'zi tasavvufning shariat tomonidan batamom tan olinishiga sabab bo'ldi. Xdnbaliy mazxabiga mansub bo'lgan 'Abdu-l-Kodir al-G'iloniy (al-Jiloniy, vaf. 1161y.) faoliyati tasavvufiy g'oyalarning ommallaShuvida katta ta'sirga ega bo'lgan. Uning ma'ro'zalari turli murakkab va ziddiyatli masalalardan holi bo'lib, aholi orasida keng Shuhrat qozondi. Umuman, tasavvuf

jamiyatda o'z ta'sir doirasini tobora kengaytirib borgani sari, hukmron tabaqalar, zodagonlar ham u bilan hisoblasha borib, ular ham pirlarning maslahatlariga quloq osadigan bo'ldilar. Valiy Shayxlarning qabrlari esa, ziYoratgohga aylantirilib, odamlar ularni mukaddaslashtirish darajasiga etdilar. Shuni ham kayd qilish lozimki, bu davrlarda islom dini jahongashta qalandar-darvishlar orqali islomlashmagan mintaqalarga yoyila boshladi. Ular o'zlari borgan joylarda xonako va zoviyalar tashkil etib, keyinchalik bunday joylar targ'ibot- tashvikot va diniy turmush tarzi markazlariga aylanib bordi.

XII asr o'rtalari XIII asr boshlarida so'fiylar tashkil etgan zoviyalar atrofida, xususan, shaharlarda tariqatlar shakllana boshladi. Dastlab, Bag'dodda paydo bo'lgan suxravardiya va kodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi. Tariqatlarning shakllanishi tasavvufning ta'siri Yanada kuchayishiga olib keldi. Umuman olganda, so'fiylar xalq ommasi bilan yaqinlashib, ularning diniy extiyojlarini kondirishga yuz tutgan edi. Xunarmandchilik uyushmalarining qarashlarida ham so'fiylik tamoyillari - "futuvva" va "ayYorlik" o'z aksini topa boshladi.

Avliyolar kul'bi omma e'tiqodi va diniy qarashlarida mustaxdam o'rin egalladi. Chunonchi, hatto ayrim avliyolar ba'zi kasblarning xomiy pirlariga ham aylanib bordi. Tasavvufning bu yo'sinda rivojlanishi ba'zi nufu'zli mutasavviflar bilan bir qatorda shariat peshvolarini ham tashvishga solar edi. Ibn al-Javziy (116-1201) "Talbisu-l-iblis", Ibn Taymiya (1263-1328) "Fatovo", Ibn Xaldun (1332-1406) "al-Ibar" kabi qat'iy sunniy qarashlar ifoda etilgan asarlarda shariatga zid keladigan, ular "bid'at" deb e'tirof etgan so'fiylikdagi ba'zi jihatlar: juldur kiyinish, uylanmaslik, doimiy ro'zadorlik, avliyolar qabrlarini mukaddaslashtirish, rijolu-l-gayb, tinimsiz ibodatlar, avliyolar muxri va boshqa mavzularni keskin tankid ostiga oldilar. Bunday sharoitda Boyazid al-Bistomiy tomonidan kiritilgan "sukr", Yani shatx va jushkin xatti-harakatlarga asoslangan tasavvufdan ko'ra al- Junayd al-Bag'dodiy tomonidan ta'kidlangan hamda "saxv" va "tamkin"ga asoslangan mu'tadil tasavvuf, barcha taraflarni koniktirar edi. Shu jihatdan ham hozirgacha mavjud bo'lgan aksariyat tariqatlarning poydevori al-Junayd al-Bag'dodiy ishlab chiqqan asosga binoan barpo qilingan. Har qaysi alohida mintaqada so'fiylik tashkilotlarining faoliyati maxalliy xususiyatlar va an'analar, urf-odat va udumlar bilan qorishib ketdi. Shuning uchun ham tasavvuf ko'p qirrali mintaqaviy ko'rinish kasb etdi.

XP-XSH asrlarda tasavvuf g'oyalariining musulmon jamiyatining turli qatlam va ijtimoiy guruhlari o'rtasida keng tarqalishi natijasida undagi ichki farqlanishlar yakkol namoyon bo'la boshladi. Asosan ommaning ma'naviy extiyojlarini kondirishga qaratilgan "amaliy" tasavvuf bilan bir qatorda tasavvuf ta'limotining ziyoli tabaqalarga qaratilgan ezoterik jihati Yanada rivojlandi. Mazkur "falsafiy" tasavvufning asosiy qoidalarini ishlab chiqishda as-Suhravardiy al-Maktul (vaf. 1191 y.), Ibn al-'Arabiy (vaf. 1240 y.), Ibn Sab'in (vaf. 1268 Yoki 1271 y.), 'Abdu-r-Razzok al- Koshoniy (vaf. 1329 y.), 'Abdu-l-Karim al-Jiliy (vaf. 1428 y.) kabi tasavvuf namoyandalari faol ishtirok etib, nomusulmon xalqlarning falsafiy qarashlarini tasavvuf ruxida talkin eta boshladilar. Bularning orasida Ibn al-'Arabiy "vaxdatu-l- vujud" deb nomlangan nazariyaga asos solgani bilan ajralib turadi. Ibn al-'Arabiy o'zidan avvalgi so'fiylarning taxvid va boshqa mavzularga oid qarashlarini tartibga solib, tizimli falsafa holiga keltirgan. Bu falsafa tasavvuf muhitida keng miqyosda qabul qilingan. Vaxdatu-l-vujudni keskin tankid qilib, unga karshi chiqqan 'Alauddavla as-Simnoniy (1261-1336) va Naqshbandiylik Shayxi Imom Rabboniy nomi bilan mashqur Ahmad as-Sirxindiy (1564-1624) "vaxdatu-sh-Shuxud" nazariyasini ilgari surdilar. Ammo "vaxdatu-sh-Shuxud" asosan Naqshbandiya tariqatiga ta'sir ko'rsatdi. "Falsafiy" tasavvuf XIII-XIV asrlarda yuksak chukqilarga ko'tarilgach, asta-sekin o'zining ijodkorlik salohiyatini yo'qota bordi. "Komil inson", "borliqning birligi" ("vaxdatu-l-vujud), "tajalli" kabi g'oyalar baxs va munozaralar manbaiga aylanib, bu baxslar ham ko'pincha besamarligicha kolib ketdi.

Tasavvuf g'oyalari ko'plab She'riy asarlarda ham o'z ifodasini topdi. So'fiylik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors She'riyatiga (Jaloliddin Rumiy, Sanoiy, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), Shuningdek,

ma'lum darajada arab She'riyati hamda turkiy xalqlarning (Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Alisher Navoiy), Bolkon yarim oroli, shimoliy Xindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va folkloriga singib ketdi.

VIII-IX asrlarda Robia al-Adaviya, Mansur al-Xalloy singari yirik so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiy She'riyat, X-XP asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obraz va timsollar, ramzlar va usullar olami paydo bo'ldi. Tasavvuf adabiyot bilan bir qatorda boshqa badiiy ijod yunalishlariga ta'sir ko'rsatdi. Zero, tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, raks san'atini, hattoki o'z so'fiy teatrini ham vujudga keltirdi. Chunonchi, samo' majlislari ko'pincha sahnalashtirilgan tomoshaga aylanib ketar, ularni tomosha qilgani ayollar ham yigilar edi. Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi mushtaraklik jihatlarini so'fiylar va ijod ahlining ruhiy yaqinligidan izlash darkor bo'lsa kerak. Zero, ijod zavki va sufiyona zavk inson ruhiy holati nukta nazaridan umumiylikka egadek guyo. Tariqatda ijodga moyil, qalbida Illoh,iy ishq jush o'rgan Soliklar ko'proq muvaffakiyatga erishganlar. Ibn al-'Arabi ham so'fiy shoir bo'lib, mashhur "Fususul-hikam" va "al-Futuhotu-l-Makkiyya" asarlarida ba'zi joylarni badiiy bezak berish uchun nazmda ifoda etgan. Shunki, tasavvufning nozik masalalarini akliy-nazariy usullardan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur vositasi bilan ifoda etish samaraliroq bo'lib tuyuladi. She'r va musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir kuchini sezgan tasavvuf Shayxlari xonaqolardagi yig'inlarda ulardan keng foydalanganlar. Ayniqsa, samo' yig'inlarida raks bilan bir qatorda She'r va musiqa Soliklarni o'zini yo'qotib atrof-muhitni anglay olmay koladigan darajaga borib qolishida ahamiyati katta edi.

Davr o'tishi bilan tasavvuf maxsus istillohlari, ramz va timsollarini ifodalaydigan She'riy adabiyot paydo bo'ldi. Natijada sufiyona yashirin ma'nolarni ifodalovchi maxsus til shakllanib, bu tilda yozilgan g'azal va ruboiylar adabiyotni murakkablashtirib, uni faqatgina "xos kishilar" anglaydigan bo'lib koldi. Ikkinchi tomondan esa, Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor kabi so'fiylar tomonidan sufiyona pand-nasihatlari juda sodda til va xalqchil usulda ifoda etilgan tasavvufiy She'rlar ham bitildi.

Tasavvufiy adabiyotni shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin: tasavvuf tarixi va ta'limotini bayon etgan, so'fiy istillohlar vositasida tushuniladigan asarlar: Abu Bakr al-Kalabodiyning "Ta'arruf", Jomiyning "SHarxi ruboiyot", Sufi Olloyorning "Sabotu-l-ojizin", Maxmud SHabistariyning "Gulshani roz", Bedilning "Muhiti a'zam" asarlari. Ikkinchisi tasavvuf g'oyalari kechinma va hayajonlar, siymo va timsollar orqali tavrirlanib talkin qilinadigan adabiyot: Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy-yi ma'naviy", Fariduddin 'Attorning "Ilohiynoma", Alisher Navoiyning "Xayratu-l-abror", "Lisonu-t-tayr" kabi asarlari. Tasavvuf adabiyoti turli adabiy janrlardan unumli foydalandi. Chunonchi, ruboiy, g'azal, kasida, masnaviy kabi janrlar so'fiy adabiyotiga yangi rux kiritib, o'zgacha talkin bilan rivoj topdi.

Tasavvufning moslaShuvchanligi va tashki ta'sirlarga "ochikligi" uni ko'pyoklamali oqimga aylanishiga olib keldi. Mumin-qobillik, itoatkorlik va dunyo halovatidan voz kechishni targ'ib qilgan tasavvuf, ba'zan isyonkorlik harakatlarining, (Andalusiya'dagi "muridlar isyoni" (XII asr), Antaliyada Shayx Badriddin (1416 y.da uldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiyalar, shoziliylar) keyinroq esa, mustamlakachilikka karshi ko'rash (sanusiylar, kodiriylar, SHomil, Dukchi Eshon) mafkurasiga aylandi. Tasavvuf ko'pchilik musulmon peshvolari tomonidan e'tirof etilgach, uning soyasida turli xil ashaddiy jamoa va oqimlar - hurufiylik, alaviylik, ravshaniylik, axlu-l-haqq va boshqalar faoliyat olib bordilar. Anatoliyadan keyin esa, Bolkon,

O'rta Osiyo va Eronda shialik-so'fiylik aralash ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matulloxiya, kubraviya, xalvatiya, zaxabiya) tarqaldi. XIV- XVII asr shia mutafakkirlari tasavvufning falsafiy merosiga, ayniqsa, vaxdatu-l-vujud konsepsiyasiga murojaat qilib, u erdan o'z ta'limotlari uchun ko'p qarashlarni o'zlashtirdilar.

XIX-XX asrlar boshida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol uynashda davom etdi. Musulmon olamining u Yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu holat ham reaksiya, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharqda jamiyatning yoppasiga dunyoviylashishga yuz tutishi, iqtisod va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi

ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning mavkeiga qattiq zarba berdi. Ko'pchilik arab mamlakatlarida tasavvuf diniy-siyosiy doiralar tomonidan keskin tankidga uchradi. Ular islom dinini zamon talablariga muvofiq moslashtirishga yoxud so'fiylik ta'limotlaridan holi bo'lgan ilk islomning "sof ko'rinishi"ni ortga qaytarishni talab qilib chiqar edilar. Arab-islom sosializmi tarafdorlari hamda progressiv yosh avlod o'z mamlakatining qoloqligida bir jihatdan tasavvufni ham ayblab, uni tarqqiyot va yurt gullab-yashnashi yo'lidagi rov, deb bildi. Bir qancha musulmon mamlakatlarida tariqatlar faoliyati qisman Yoki butunlay man qilindi. Garchi tasavvuf o'zining avvalgi obrusini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saklab kelmokda. Ular ruhiy taskin va madad izlab, so'fiylik tariqatlari safiga kirmokda. XX asrda ham yangi suluklar paydo bo'lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoirdagi al-alaviya, (asoschisi Ahmad al-'Alaviy. vaf.1934 y.) K,oxiradagi al-hamidiya ash-shoziliyani (asoschisi - Salama ar-Radiy, vaf. 50-yillar oxiri) kiritish mumkin. Hozirgi davrda so'fiylar orasida birmuncha zamonaviy kasb vakillari - o'qituvchilar, turli darajadagi davlat xizmatchilari va boshqalar ham bor. Ularning suluk yo'lida yurishlari o'z ijtimoiy faoliyatlarini olib borishlariga xalal bermayapti.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining rivojida ulkadan etishib chiqqan Ahmad Yassaviy, Abdulholik G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Baxouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, Xoja Axror kabi allomalarning xizmatlari katta bo'lgan.

55. TERMIZIY - AL-HAKIM AT TERMIZIY (to'liq nomi Abu 'Abdulloy Muhammad ibn 'Ali at-Termiziy) (taxm. 820-932) Mashhur so'fiy alloma al-^akim at-Termiziyning to'liq ismi Abu 'Abdulloh Muhammad ibn 'Ali ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy bo'lib, uning tarjimai holiga oid muxtasar ma'lumotlar o'rta asr tabaqot asarlari hamda uning o'z kalamiga mansub "Buduvvu sha'ni Abi 'Abdulloh" nomli avtobiografik risolasida keltirilgan. U Termiz shahrida ziyoli xonadonda tavallud topgan. Uning otasi - 'Ali ibn al-Hasan va bobosi o'z davrida xadis ilmining etuk bilimdonlaridan edi. Uning ilmiy kamolotida otasining xizmatlari benixoya katta bo'lgan. Al-Hakim at-Termiziyning o'z otasi haqida Shunday yozadi: "Alloh taolo meni ustozim - volidimdan judo qilganida men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga Shunday berilib ketgan edimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengkurlarim uyin-kulgi va vaktixushlik bilan ovara Bulardilar. Volidim tufayli men Shu yoshimda xadis ilmi va xanafiy mazxabi fiqxini chuqur egallab olgan edim..."

Al-Hakim at-Termiziy 27-28 yoshlarida xaj safariga chiqadi. Yo'lda u usha davrning ilm markazlari Balh Nishopur, Bag'dod, Kufa, Basrada tuxtab, u erda asosan xadis tuplash bilan Shurullanadi. Mana Shu davrda tuplagan hadisari uning keyingi ilmiy faoliyati, yozadigan ko'plab asarlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning asarlarida o'z fikrlarini asoslash uchun keltirilgan hadisar orasida iroklik muhaddislardan rivoyat qilgan hadisar katta ulushni tashkil etadi. Al-Hakim at-Termiziyning ikkinchi marotaba Iroqqa safar qilgani haqida ma'lumotlar esa, manbalarda uchramaydi. Ushbu safar davomida u bir qancha so'fiylar bilan uchrashadi, Abu Turob an-

Shu yo'sindagi asarlar ichida unga suriyalik Ahmad ibn al-Osim al-Antokiyning asari katta ta'sir utkazadi. Xaj safaridan Termizga qaytib kelganida al-Haqim at-Termiziy ruxiy yangilanishni boshidan utkazib, suluk yo'liga kiradi va zoxidona hayot tarzi kechira boshlaydi. Umrining mana Shu pallasi uning hayotida burilish nuktasi bo'ldi, deb aytishimiz mumkin. Taxminan 874 yil uning Allohga muhabbat va avliyolar haqidagi ba'zi qarashlari maxalliy din peshvolarida Shubha o'yg'otadi. Shundan sung u imon asoslariga putur etkazishda ayblanadi va Balx xokimi uni o'z qarorgohiga chakirtiradi. Balx xokimi bilan bo'lgan mulokotda al-Haqim at-Termiziy o'zining aybsiz ekanini isbotlab beradi. Xokim uni ozod etib, faqat ilohiy muhabbat mavzusida ortiqcha e'tiborni tortmaslikni tayinlaydi. Al- Haqim at-Termiziy ma'lum muddat Balx va Nishopurda yashab, bu erlarda o'z g'oyalarini targ'ib qiladi va xadis ilmidan dars beradi. Unga nisbatan buxton uyushtirgan ulamolar Termizdan quvg'in qilingandan sunggina Termizga

qaytib keladi va u erda taxminan 932 yillarda vafot etadi. Uning makbarasi Termiz shahri yaqinida Amudaryo kirgogida joylashgan.

Al-Haqim at-Termiziyning “xatmu-l-avliyo” - “Payg’ambarlik muxri” (Muhammad s.a.v.) bo’lgani kabi “valiylar muxri” ham mavjudligi, oxirtda barcha anbiyolar «Xotamu-l- anbiyo» - Muhammadning (s.a.v.) shifoatlariga muxtoj bo’lgani kabi, avliyolar ham “Xotamu-l-avliyo”ning shifoatiga muxtoj bo’lishi haqidagi islom ta’limotida mukaddam uchramagan qarashlari turli davrlarda keskin munozaralarga sabab bo’ladi. Jumladan, Ibn al-‘Arabiy bu g’oyalarni davom ettirib, o’zini “xatm al-avliyo” ekanini e’lon qilgan bo’lsa, Ibn Taymiya bu g’oyani kufr deb baholab, al-Haqim at-Termiziy ham, Ibn al- ‘Arabiyni ham keskin tankid ostiga olgan.

Al-Haqim at-Termiziy juda sermaxsul muallif bo’lgan. Manbalarda uning kalamiga mansub asarlar soni ikki yuzdan to’rt yuzgacha ekani keltiriladi. Bizning davrimizgacha bu bebaxo merosning oltmishga yaqini etib kelgan. Al-Haqim at-Termiziy o’z asarlarida doimo har qanday masalaning xikmatini, asl mohiyatini anglashga katta e’tibor qaratgan. U “Navodiru-l-usul”, “Bayonu-l-fark”, “Ilmu-l-avliyo”, “Manozilu- l-‘ibod” kabi asarlarida Qur’on tafsir qiladimi, Yoki xadis sharxlaydimi, albatta uning asl tub mohiyatini, yashirin xikmatlarini ochib berishga harakat qiladi. Shuning uchun ham u “al-Haqim” - Yani, “xikmat va donishmandlik sohibi” degan unvonga sazovor bo’lgan. Al-Haqim at-Termiziy o’z davrida doimo jamiyatning diqqat-e’tibor markazida to’rgan. Zero, uning ilmiy merosining kattagina qismini aholi tomonidan diniy masalalarning ruxiy jihatlari haqida berilgan savollarga javoblar tashkil etadi. Hatto usha davrda ommani o’z ortidan ergashtirgan ko’plab Shayxlar ham undan maslahat surab maktublar yozganlar. Al-Haqim at-Termiziy aholi orasida katta ta’sirga ega bo’lgan karromiya va malomatiya ta’limotlarini hamda ulkadagi etakchi make’dagi xanafiy fiqxidagi qiyos metodining ayrim jihatlari keskin tankid qilishi, uning o’ziga xos maslak sohibi bo’lganini namoyon etadi. Al-Haqim at- Termiziy “suf” - pustak kiyib, Shu nom orqali tanilishni riyo, deb hisoblagan. Chunonchi, u o’z asarlarida “suf (pustak) kiydi” degan iborani ishlatsada, “so’fiy” degan istilohni umuman ishlatmaydi. O’z zamonasidagi “pustak kiyganlar”ga salbiy munosabat bildiradi. Shunki, al-Haqim at-Termiziy yashagan davrda “tasavvuf”, “so’fiy” istilohlari Irokda urf bo’lib, usha er mintaqasi tasavvufiga nisbatan kullanar edi. Movarounnaxr va Xurosan tasavvufi esa xali ta’limot sifatida shakllanish jarayonida bo’lib, bu erlarda ko’proq zuxd haqida muozaralar olib borilar, Shu sababli bu davrda “so’fiy” degan istiloh Irok tasavvuf vakillariga Yoki uning tarafdorlariga nisbatan kullanar edi.

Al-Haqim at-Termiziy ijodida “avliyo - Allohning do’stlari” mavzusi katta o’rin tutadi. Al-Haqim at-Termiziy avliyolar haqidagi bilimlarni bir tizimga solishga harakat qilgan birinchi so’fiy olim hisoblanadi. O’zining “Navodiru- l-usul”, “Ilmu-l-avliyo”, “Xatmu-l-avliyo” nomi bilan tanilgan

“Siratu-l-avliyo” va boshqa asarlarida valiylar ierarxiyasi haqida fikr yuritadi. Unga ko’ra mu’minlar “avliyou-t- tavxid” (tavxid ta’limoti izdoshlari) bo’lib, ulardan tepada ixlosli “sodik”lar turadi. Ular Allohga ixlosli banda bo’lganlari bilan, nafslarini to’liq maxv etmaganlar. Ular nafslarining quroli bo’lmish tana a’zolari ustidan to’liq nazorat urnatishga intiladilar. Sodiklar bu darajadan o’tib “axror kirom” (ozod va muxtaram zotlar) bosqichiga etsalar, Alloh ularga nafs kirdikorlari bilan ko’rashishlari uchun O’zining kurbat va raxmat no’rini ato etadi. Bu bosqichda ham nafs o’zini to’liq maxv etishga imkon bermaydi. Kimki, bu bosqichda Yuqori pagonalarga erishsa, u “siddiqlar” (eng ixloslilar) darajasiga etishadi. “Siddiqlar” qirqta bo’lib, ular ham nafs ta’siridan to’liq holi emaslar, ammo ular Alloh muhabbatiga chumganlar. Siddiqlar pastdagi bosqich egalaridan afzalliklari ilhom olishlari, bashoratli tushlar ko’rishlarida bilinadi. Bu bosqichda siddiqlar Allohning un sifatini o’zida mujassam etib, keyingi bosqichga ko’tariladilar. Keyingi bosqichga etgan valiy “munfarid” (yagona) bo’lib, u tushlari orqali ilohiy ilhom va kashf oladi. Bu ierarxiyani “xatm al-avliyo” yakunlab beradi.

Al-Haqim at-Termiziyning ilmiy merosi jahon tasavvufiy tafakkur tarqqiyotiga katta xissa qo’shgan. Uning asarlari imom al-G’azzoliy, Muhammad Porso, Kurtubiy, Suyutiy kabi jahon durdonalarini ta’lif etgan ko’plab allomalarga ilhom manbai va dastak bo’lgan. Al-Haqim at-

Termiziyning abdol, avtod haqidagi qarashlari xalq ogzaki ijodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, omma o'rtasida chilton Yoki eranlar - qirq mard haqidagi xikoya va rivoyatlarning shakllanishiga, joylarda ularning kulsti bilan botik ziYoratgohlar paydo bo'lishiga olib kelgan.

56. UZLAT (arab. - biror narsadan saqlanish; chekinish, kishilardan chetlashish; o'zlat etish, yolgizlikni ixtiYor qilish) - holi joy; tanholik; hech nimaga boglanmaslik; dunyoning xilma-xil gavgolaridan foriglik. So'fiylar uchun Muhammadning (s.a.v.) Hiro togida utkazgan o'zlatdagi hayotlari ibrat va namuna bo'lgan deyiladi. Tasavvufda o'zlat deyilganda shayh pir, murshid rahnamoligi va ko'rsatmalariga binoan muridning maxsus bir makonda berkinib, ibodat va zikr orqali ma'lum darajaga erishishni istashi tushuniladi. Kamida qirq kun davom qiladigan bu jarayonga xalq tilida "chilla" ham deyiladi. Islomda hech qachon hayotni batamom xilvatda utkazish lozimligi targ'ib etilmagan. Tasavvufga ko'ra, o'zlat hayotdan qochish, kundalik turmushdan ajralib yashash, odamlardan bezish emas, balki ma'lum muddat ruxiy kamolotga erishib, Yana faoliyatni davom ettirish hisoblanadi.

57. FAQIR - kambag'al, moddiy Yoki ma'naviy jihatdan muhtoj odam. Kambag'al (fukaro)ga, Yani ijtimoiy jihatdan nochor odamlarga gamhurlik qilish zarurligi Qur'onda va hadisarda alohida ta'kidlanadi. Zohidlik va so'fiylik "kambag'allik"ni ("faqr", "fuqr") keng targ'ib qilgan. "Faqir" deyilganda "darvish" va "so'fiy"lar tushunilgan. SHoirilar, mualliflar, hattotlar ham o'zlarini kamtarlik bilan "fakir" deb atashgan.

58. FUTUVVAT (arab, yigitlik, mardlik) - tasavvufdagi mardonavorlik Yani, boshqalarni o'zidan Yuqori tutish, faqat yaxshilik qilish, ezgu qo'lk-atvorga ega bo'lish, piru ustozlar, do'st-birodarlar sharafini himoya qilishga o'zini bagishlash, eng olijanob odob va xislatlarni o'zida kamol toptirish.k.

Futuvvat g'oyalarining paydo bo'lishi ilk tasavvuf davriga borib takaladi. Futuvvat arabcha "fata" - "yigit" so'zidan olingan. Mashhur so'fiy al-Junayd al-Bamodiyning ta'rifiga ko'ra futuvvat - "Saxovatpeshalik, birovga zarar etkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noShukr bo'lmaslik)". SHia so'fiylarida Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayoti hisoblanadi, Shuning uchun ham ularda "Zulfikordan boshqasi qilich emas, 'Alidan boshqasi "fata" emas" iborasi keng tarqalgan edi. Futuvvat ahlini javonmardlar (fors. mard yigit), axiylar (arab. birodar) deb ham ataganlar. Javonmardlar oddiy xalq ichidan chiqqan xunarmandlar, kizikchilar, sipoxiylar va jamiyatning boshqa a'zolaridan tarkib topgan edi. Ularning har birining o'z jamoasi, piri, yig'iladigan joyi bo'lgan. Agiografik manbalarda "javonmard" so'zi ko'plab so'fiylarga, ayniqsa malomatiylarga nisbatan keng kullanilgan. Chunonchi, "Malomatiya haqida risola" muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) futuvvatga batishlab alohida bir risola bitgan. Ushbu asarida haqiqiy javonmardning 212 ta'rif va sifatini keltiradi. As-Sulamiyga ergashib Yana bir tasavvuf tarixnavisi al-Kushayriy (vaf. 1072y.) o'zining "Kushayriy risolasi" asarining bir bobini futuvvat mavzusiga bag'ishlaydi. Kaykovusning (XI asr) "Qobusnoma"sida 44-bob "Javonmardlik zikrida" deb atalib, unda futuvvat odobi, bu tur insonlarga xos go'zal axlok namunalari haqida so'z boradi. Xiroflik atokli olim Xusayn Voiz Qoshifiy (14401505) "Futuvvatnomai sultoniy" asarida futuvvatning etnish bir shartini sanab o'tadi hamda "Kimdaki, mazkur shartlardan birortasi topilmasa, u futuvvatdan bebaxradir", deb ta'kidlaydi. Qoshifiy futuvvatni tariqatning tarkibiy qismi, deb qaraydi. Vaholanki, ba'zi manbalarda garchi tariqat va futuvvat o'zaro chambarchas botlik bo'lsada, ammo ular alohida tushunchalar ekani aytilgan. Chunonchi, futuvvat tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbiti sifatida e'tirof etiladi.

Javonmardlar xuddi so'fiylar muridga murakkab Yoki xirqa kiydirgani singari o'z saflariga yangi kushilganlarga ajratib turuvchi maxsus shalvor kiydirganlar. Manbalarda sarbadorlar ham futuvvat ahli sifatida e'tirof etiladi.

Abbosiy xalifa Nosir (1180-1225) o'z mavke'ini mustahkamlash uchun birinchi bo'lib futuvvatga rasmiy tashkilot tusini berib, 'Ali ibn Abu Tolibni esa futuvvatning eng Yorkin misoli sifatida tartib qildi. Uning o'zi ham futuvvat shalvorini kiyib, "sayyidu-l-fityon" laqabini oladi. Shu yo'l bilan u Bag'dod aholisining kullab-kuvvatlashiga erishib, saljukiyularning ta'siridan kutulishga hamda rofiziylarni yo'q qilishni maqsad qilgan edi. Ushbu iaqsadini amalga oshirishda xalifaga suxravardiya tariqati asoschisi Abu-n- Najib as-Suxravardiyning (vaf. 1168

y.) jiyani Abu Xafs as-Suxravardiy (1145-1234) futuvvat g'oyalari aholidan keng qatlamlari orasida o'zining otashin va'zlari bilan tarkatish orqali Yordam ko'rsatadi. Abu Hafs as-Suxravardiy "So'fiylik yo'li oddiy musulmon uchun mashakkatli va otir bo'lgani sababli omma uchun futuvvat tariqatning bir bo'lagidir" deya e'tirof etdi. Abu Hafs as-Suxravardiy iaqsadli ravishda futuvvatga xos bo'lgan sharaf kodeksini tasavvufning ma'naviy ko'rsatmalari bilan botlashga o'rindi.

Futuvvat konsepsiyasi tasavvufdagi iysor - o'zgalarning manfaatini o'z manfaatlaridan ustun quyish toyasini eng Yuqori chukqilarga olib chiqdi. Futuvvat guruhlar ko'p davrlar mobaynida jamiyatda yuksak axlok, saxovat, mardlik, adolatparvarlikning oliy namunasi sifatida e'tirof etib kelindi. Futuvvat g'oyalari Movarounnaxrda ham keng tarqalgani haqida o'rta asr arab sayyohi ibn Battuta (vaf. 1368 y.) "Safarnoma" asarida juda tulkinlanib ifoda etadi. Arab sayyohining yozishicha xonaqoh va zoviyalarning aksari javonmardlar ixtiYorida bo'lgan. Ayniqsa, Turkiyada javonmardlik harakati "axiylar" nomi bilan keng tarqalgan bo'lib, ularning sardorlari sultonlarning ho'zurida ham muayyan obru-e'tiborga ega bo'lgan. X asrlarda paydo bo'lgan "ayYor"lik harakati ham aslida futuvvat bilan botlik. "AyYor" so'zi usha davrda salbiy ma'noda emas, balki "topqir", "zukko", "dono", "zehnli", "hozirjavob", "xiylagar" kabi so'zlar bilan uytun bo'lgan. Ular turli nayranglarni ishlatib dushmanlarga zarar etkazganlar, do'stlarni otir holatlardan chiqarishga Yordam berganlar. Ammo hech qachon o'z nayranglarini xiyonat va gunoh ishlarga qo'llamaganlar. "Qobusnoma"da ham ayYorlik javonmardlikning zakovat jihatdan yuksak namunasi sifatida aks ettiriladi. Futuvvat tasavvuf bilan kushilgandan keyin javonmardlarga nisbatan "ayYor" so'zi ishlatilmaydigan bo'lib koldi.

Tariqatlarda piri murshid bo'lganidek, futuvvat tashkilotlarining maslagiga mos ravishda paytambarlardan tanlab olingan pirlari bo'lgan. Chunonchi, hazrati Odam dehqonlar piri, hazrati SHis - paxtachilar piri, hazrati Idris - tikuvchi va hattotlar piri, hazrati Nux - savdogarlar, hazrati Solix - tuyakashlar, hazrati Ibroximsutchi va duradg'orlar, hazrati Ismoil - ovchilar, hazrati Isxok, - chuponlar, hazrati Zulkifl - novvoylar, hazrati Lut - tarixchilar, hazrati O'zayr - bog'bonlar, hazrat Ilyos - to'qimachilar, hazrati Dovud - temirchilar, hazrati Lukmon - hakimlar, hazrati Yunus - baliqchilar, hazrati Iso - sayyohlar, Muhammad (s.a.v.) - bog'bon va savdogarlar piri.

59. XILVATIYA - so'fiylik tariqati; XIV asr oxirida SHimoli-G'arbiy Eronda shakllangan. Tariqat dastlab shialikka e'tiqod qiluvchi aholi o'rtasida vujudga kelib, O'rta Osiyo tasavvuf maktabining (Ahmad Yassaviy) ayrim g'oyalari va malomatiya va qalandariyaning kuchli ta'siri ostida faoliyat olib borgan. Xilvatiya ellikdan ziyod mustaqil suluk va tariqatlarni boshlab bergan. Xilvatiyaning asoschisi gilonlik Zoxiriddin 'Umar al-Xilvatiy (vaf. 1397 y.) bo'lgan. U o'z izdoshlari uchun qoidalar ishlab chiqqan, unga ko'ra, qat'iy ravishda zohidlikka amal qilish (zuhd) va ko'p nafl ro'zalar tutish ko'zda tutilgan. Siyosiy sabablarga ko'ra, (Xilvatiya tarmoqlariga Usmoniylar rahnamolik qila boshlagach) xilvatiya ta'limoti vakt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchrab, sunniylik tariqatiga aylangan. Xilvatiya ta'limoti asosini quyidagilar tashkil qiladi: ju' (ixtiYoriy ochlik), samt (sukut saklash), sahar (bedor bo'lmok), i'tizol (yolg'izlik), zikr, fikr (meditaqiya), rabt (murid qalbi bilan Shayx qalbi o'rtasidagi aloqa) va ibodatda doimiy pokizalik. Xilvatiya tariqati yashil Yoki kora rangdagi to'rtburchakli kalpok kiyishi bilan ajralib to'rgan.

60. XOKSOR - so'fiylik tariqati; XVIII asr oxirida jaloliya-suxravardiya tariqatidan (SHim. Xindistonda Sayyid Jaloliddin Xusayniy tomonidan XIV asr o'rtasida asos solingan) mustaqil bo'lib ajrab chiqqan; o'ziga xaydariya (Mir Xaydariya) va qalandariyaning bir qancha guruh va jamoalarini, Shuningdek, ne'matulloxiylarning turli tarmoqlarini birlashtirgan. Xoksorning ilk tarixi mavxum, Shunki tariqatning adabiy an'anasi yo'q bo'lgan. Bizgacha etib kelgan turli kulyozma kullanna va ko'rsatmalar bir tuplamga keltirilib "Risolayi tarika-yi fakr-i Xoksor" deb atalgan. Xoksor tariqatining mustaqil nazariy qoidalari ishlab chiqilmagan. Undagi tartib-qoidalar avvalgi tariqatlar ta'limoti va qoidalarining qorishmasidan iborat bo'lgan. Xoksor tariqati to'rt bosqichdan iborat, unda 20 Yoki 44 manzil (maqom) bor. Xoksor darvishi tariqat yo'lidan yurishi lozim, Yani oziga qanoat qilmogi, barcha boyligini boshqalar bilan baham

kurmogi, ustozini doimo yodda tutishi, uni kundalik ibodatda eslashi, sochi, muylabi, qoshi va soqolini olib yurishi (hamma ham rioya etmagan) lozim bo'lgan. Hayoti davomida Xoksor darvishi to'rtta safarni amalga oshirishga intilish lozim: a) odamlardan Xudoga; b) Xudodan odamlarga, sungra Xudoga, keyin Xudodan Xudoga; v) Xudo bilan Xudoda; g) Xudo bilan odamlar orasida. Tariqat a'zolari o'z maslaklarini - "Tariqa-yi 'alaviya-yi Xoksori Xusayni-yi Jaloliy", deb atashadi.

61. YASSAVIY Ahmad (taxalluslari: Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy, Kul Xoja Ahmad, Qul Ahmad va boshqa) (1105-1166/67) - donishmand, shoir, Yassaviylik tariqatining asoschisi. Sayramda tug'ilgan. Otasi Shayx Ibroxim uzoq yillar YAssi va Sayramda Shayxlik qilgan. Yassaviy piri Arslonbob maslahati bilan Buxoroga borib, Yusuf Xdmadoniydan tasavvuf buyicha mukammal ta'lim olgan. Sungra, Turkistonga qaytib so'fiylikni targ'ib etgan. Muridlari ko'payib, Yassaviylik tariqati tashkil topgan. El orasida katta obru orttirib, avliyo deb ulug'langan. Hatto YAssida vafot topganidan keyin "Madinada - Muhammad, Turkistonda - Ahmad" (qabriga nisbatan) degan ovozarlar tarqalgan. Mozori mukaddas qadamjoga aylangan. 1395-97 yillarda Amir Temur Yassaviyning qabri o'zra mahobatli makbara kurdirgan. Yassaviy to'zgan tariqatning barcha qoidalari "Devoni xikmat" She'riy asarida bayon etilgan. Unda poklik, to'g'rilik, kamsuqumlik, mexr- shafkat, halol kun kechirish, nafsni tiyishga intilish, imonli bo'lish kabi asl insoniy fazilatlar maktalgan. Zolimlar, porahurlar, mutaassib Shayxlar, joxil va nodon kimsalar esa koralangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda Yassaviy hayoti, faoliyati va ijodi keng o'rganildi, uning "Devoni xikmat" asari ko'p nusxada chop etildi.

62. YASSAVIYLIK - tasavvuf tariqatlaridan biri. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan. Asoschisi Ahmad Yassaviy. Yassaviylik Yusuf Hamadoniy va Abdulholik G'ijduvoniylar ta'limotlari negizida shakllangan deyiladi, lekin tariqatning suxravardiya an'anasiga borib taqalishi haqida ham ma'lumotlar bor. Yassaviylikda tasavvufning asosiy to'rt maqomi shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat keng targ'ib etilgan. Unga ko'ra, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqatga erishib bo'lmaydi. Bularning har biri alohida bosqich bo'lib, bir-birini tuldirdi va takomillashtirdi. Murid o'z piri rahnamoligida mazkur bosqichlardan o'tib, ilohiy ishq sari intilishi, kamolotga erishishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Yassaviylikda murid rioya etishi shart hisoblangan odob qoidalari bo'lib, unga ko'ra, murid hech kimsani o'z piridan afzal kurmasligi, uning hamma topshiriklarini bekamu kust ado etishi, pand- nasihatlariga so'zsiz amal qilishi zarur. Yassaviylikda zikri samo'ga ham katta e'tibor berilgan, jaxriya (a'loniya) usuli kullangan. Pir va muridlar kundalik o'qib yuradigan maxsus avrod va duolarni baland ovoz chiqarib aytishgan. Shu bois Yassaviylik "jaxriylik" deb ham ataladi.

63. QALANDAR - tasavvuf yo'liga kirib darbadarlik va xayr-exson bilan kun kechiruvchi kishi. "Qalandar" so'zi arab tiliga ikki xil: "qarandar" va "qalandar" ko'rinishda utgan. Qalandar so'zi arab tilida "fakir", fors tilida "xunuk va besunaqay" degan ma'noni anglatadi. Turkchada bu so'z "dunyo lazzatlaridan voz kechgan, darveshlarday sargo'zashtga berilgan, haqiqatni va falsafani biluvchi kishi" ma'nosida aks etgan. Qalandar - o'zini Alloh yo'lida xizmat qilishga va ichki olamini kamolotga etkazish yo'liga kirgan insondir. Qalandar bu dunyo rohatlaridan voz kechib, so'fiylar (darvesh) yo'lini tutgan, kelajak hayoti va bugungi kun tashvishini butunlay unutgan, fakirlik, xokisorlik va malomatni o'zi uchun shior qilib tanlagan, jamoa odatini tark etgan kishidir.

O'rta asr manbalarida ham qalandariya mavzusiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, so'fiy shoir Bobo Toxir Uryoniylarning ruboiylarida, Abdulloh Ansoriyning "Qalandarnoma" deb atalgan kichik risolasida, Voxidiyning "Xodjai jixan va natjai jan", franqo'z sayyohi Nikolas de Nikolayning "Kemalar navigaqiyasi", SHixobuddin YAhyo Suxravardiylarning "Risolai qalandariya", Abu Xafs Umar Suxravardiylarning "Avorif" nomli asarlarida qalandarlar hayotiga oid ma'lumotlarni uchratamiz.

Mashhur so'fiy SHixobuddin YAhyo Suxravardiylar (vaf. 1234 y.) o'zining "Risolai qalandariya" (Qalandarlik haqida risola) deb nomlangan asarida qalandariya tariqati amaliyotiga oid masalalar: kuloh kiyish, bel (kamar) bog'lash, aso tutish, kashkul tutish, darvesh pustagini

tushayotganda uqiladigan duolar, tariqat gusli niyati va boshqa turli mavzular batafsil tasvirlagan. Shu bilan birga pir va murid o'rtasidagi munosabatlar tasvirlangan va zikr qilishning tavsiyalari keltirilgan.

O'rta Osiyoda qalandarlarning faoliyati bilan bog'liq qalandarxona va xonaqohlar mavjud bo'lgan.

64. QALANDARLIK - so'fiylik-zohidlik harakati. Qalandariya tariqati XI asr boshlarida malomatiya g'oyalari ta'sirida Xurosan va O'rta Osiyoda paydo bo'ldi. O'z tarqqiyoti davomida bir necha bosqichni bosib utdi. Dastlab, u aniq tashkiliy tuzulmaga ega emas edi. Lekin usha davr manbalarida kaladarlik "uyushma" ma'nosini beruvchi toifa sifatida tilga olinadi. Dastlab oz tarafdorlarga ega bo'lgan qalandariya tezda mashhur bo'lib, Sharqda Fargonagacha, garbda Irok va Suriyagacha tarqaldi.

65. QALB - yurak, dil - ilohiyot va tasavvuf tushunchasi. Qalb insonning diniy haqiqatlarni anglab oladigan, imon va taqvodorlik xislatlari jo bo'lgan a'zosi sifatida tavsiflanadi. Qur'onga ko'ra, Alloh gunohkor, imonsiz, zolim kimsalarning qalbini muxrlab kuyadi (10:74/75; 7:101), ularni o'z marhamatidan, haqiqatni bilishdan mahrum etib, do'zax azobiga maxkum qiladi. At-Tustariy, Balxiy, an-Nuriy, at-Termiziy, al-G'azzoliy kabi allomalarning fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo'lib, Shu tufayli inson hatto farishtalardan ham Yuqori turadi; qalb Alloh bilan inson muomala qilib turadigan joydir; qalb narsalarning tub mohiyatini ko'ra oladi; xudojuylar qalbi billur singari tiniq, gunohkorlar qalbi esa, aksincha, zang bosgan (83:14) va u haqiqatdan yiroqdir. Qalb inson xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, savob amallar uni no'rga tuldirdi, yomon amallar esa, aksincha, xiralashtiradi. So'fiy o'z qalbini "yumshatib", ilohiy bilimlarni o'zlashtirish uchun o'zini tayyorlab borishi, dunyoviy istaklardan voz kechishi zarur deyiladi. Tasavvufda qalb tushunchasi zikr bilan chambarchas bog'liq. Zikrda til bilan birga insonning barcha a'zolari qatnashadi, qalb esa, ular ichida eng muhimi sanalib, zikr tufayli Alloh so'fiyning qalbidan joy olib, bajaradigan barcha amallarining birdan-bir sababi va harakatlantiruvchi kuchiga aylana boradi, deya talkin qilinadi.

66. G'IJDUVONIY, Abdulholik, Xoja Abdulholik ibn Abduljamil G'ijduvoniy (1103-1179) - xojagon-Naqshbandiya tariqatining asoschisi; buxorolik etti pirning birinchisi. Xojai jahon nomi bilan ham mashhur. Gijduvonda (Buxoro yaqini) imom oilasida tug'ilib, islomiy tasavvur va urf-odatlar muhitida tarbiya topdi. Yigirma ikki yoshida Buxoroga keldi va Yusuf Hamadoniyning murid bo'ldi. G'ijduvoniy dunyoqarashining shakllanishida malomatiylar ta'limoti va qalandarlik harakati ta'sir ko'rsatdi. U zohidlikda yashashni, shariat ko'rsatmalari, Payg'ambar sunnatlariga qat'iy amal qilishni targ'ib etdi. U butun hayoti davomida ibodatu riyozat bilan mashg'ul bo'ldi. Yusuf Hamadoniyning so'fiylik ta'limotini xufiya zikr (so'zsiz, qalban) bilan boyitdi hamda xojagonlik tariqatining sakkizta rashxasini (qonun-qoida) ishlab chiqdi. Bu rashxalar har nafasni zoe ketkazmaslik, har qadamni turri bosish, azizlarning xizmatida bo'lish, har bir ishda Xudoni yoddan chiqarmaslik va tildan kuymaslik, niyatda mustahkam bo'lish kabilardir. G'ijduvoniy ta'limoti Naqshbandiylik tariqatiga asos bo'lgan. Baxouddin Naqshband G'ijduvoniyning axloqiy talablariga Yana 3 talab qo'shgan. G'ijduvoniyning "Vasiyatnoma" risolasi Toshkentda 1993 y. chop etildi. Bugun uning G'ijduvon shahridagi qabri tabarruk ziYoratgoh hisoblanadi. Bizgacha "Risolayi odobi tariqat", "Risolayi sohibiya", "Vasiyatnoma" va boshqa asarlari etib kelgan. 2003 yilda G'ijduvoniyning 900 yillik yubileyi nishonlandi. G'ijduvoniy yodg'orlik majmui qayta ta'mirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: ”Шарқ” нашриёт-матбаа концерни, 1992. – 495 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008. - 173 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -485 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
5. Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Али Ҳаким ат-Термизий. Манозил ул-ибод мин ал-ибода. –Т.: “Мовароуннаҳр”, 2003. -52 б.
6. Абдулқодир Жийлоний (Ғавсул Аъзам). Раббонийликни англаш ва раҳмоний файзни қозониш. Иккинчи китоб. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2006. - 127 бет.

7. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон/Таҳрир ҳайъати: А.Рустам ва бошқ. Форсийдан тарж. Сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмудхон Махдум Ҳасанхон Махдум ўғли. – Т.: Ёзувчи, 1993. – 208 б.
8. Абу Ҳомид Ғаззолий. Риёзатун-нафс (Нафс тарбияси), (араб тилидан таржима). Таржима ва сўзбоши муаллифи филология фанлари номзоди Рашид Зоҳид. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2006. - 80 б.
9. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тафаккур китоби. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. -79 бет.
10. Акимушкин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем. “Тримингем Дж.С.Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ., А.А.Ставиской, под редакцией и с предисл. О.Ф.Акимушкина. –М.:Наука. Главная редакция восточной литературы, 1989. – 328 с. китобида, 3-бет.
11. Акрам Ботирхон. Ҳазрати Нақшбанд ва Навоий. / “Ғойиблар хайлидан ёнган чироклар” китобида.- Т.: “Ўзбекистон”, 1994. 335 бет.
12. Ал-Ҳаким ат-Термизий. Нодир масалалар. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2007. – 86 бет.
13. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: В 2-х т. Т.1. – М.: Педагогика, 1980. – 232 с.
14. Андреева Г.М. Социальная психология. –М.: Изд-во МГУ, 1980. – 416 с.
15. Аҳмад Зиёуддин ал - Кумушхонавий. Жомеъ ул-мутун. – Т.:”Моварауннаҳр”, 2000. - 313 б.
16. Большой психологический словарь. - СМб. Прайн - ЕВРОЗНАК, 2004. - 672 с.
17. Годфруа Дж. Что такое психология: В 2-х т. Т.1: Пер. с франц. – М.: Мир, 1992. – 376 с.
18. Гольдцигер И. Ислом ҳақида маърузалар\Тарж.: О.Шарафиддинов. – Т.:”Академия”, 2001. – 46 бет.
19. Джовад Нурбахш. Психология суфизма (Дел ва нафс: сердце и душа). Пер. с англ. Л.М.Тираспольского. – М.1998. – 176 с.
20. Дин психологияси: ўқув қўлланма / Б.Валиев ва бошқ. – Т.: “Моварауннаҳр”, 2014. – 312 б.
21. Йўлдошхўжаев Ҳ. Тарикатчиликнинг замонавий кўринишлари. - Т.:“Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2010. – 78 бет.
22. Жийлоний Абдулқодир (Ғавсул Аъзам). Раббонийликни англаш ва раҳмоний фойзни қозониш (Иккинчи китоб). – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2006. – 127 б.
23. Жўшон М.А. Тасаввуф ва нафс тарбияси. –Т.: ”Чўлпон”, 1998. - 80 б.
24. Злобин Г. Дарога к другим – дарога к себе. – В кн.: Кобо Абэ. Женщина в песках. Чужое лицо: Романы. /Пер. с яп. В.Гривнина: Предисл. Г.Злобина. – М.:Художественная литература, 1988. - 350 с.
25. ЗигмундФрейд ЯиОно.–М.:МПО‘МЕТТЭМ’,1990,-С.54.
26. Икбал Муҳаммад. Реконструкция религиозной мысли в исламе. – М.: Восточная литература, 2002. – 200 с.
27. Имом Абу Абдурахмон ас-Суллами. Табақоти Суфийя. – Т.: Ўз.Р.ФА “Фан” нашриёти, 2004. - 91 бет.
28. Казанский К. Суфизм с точки зрения современной психопатологии. Самарканд, 1905, с. 71-150.
29. Кныш А.Д. Мусульмансий мистицизм: краткая история / А.Д.Кныш; пер. с англ. М.Г.Романов. – СПб.: “Издательство «ДИЛЯ»”, 2004. – 464 с.
30. Кобо Абэ. Женщина в песках. Чужое лицо: Романы. /Пер. с яп. В.Гривнина: Предисл. Г.Злобина. – М.: Художественная литература, 1988. - 350 с.
31. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К.1. – Т.:Ёзувчи, 1996. – 272 б.

32. Кон И.С. Психология старшекласника: Пособие для учителей. – М.: Просвещение, 1980. –192 с.
33. Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний. – “Комил инсон ҳақида тўрт рисола” китобида. – Т.: “Маънавият”, 1997. 166-275 бетлар.
34. Лил Вилкоккс. Суфизм и психология. – М.- СПб.: “Диля”, 2005. – С. 254.
35. Маҳмуд Асъад Жўшон. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. – Т.:”Истиқлол”, 2000. - 240 б.
36. Мир Валиддин. Коранический суфизм. / Пер. С англ. – СПб.: “Издательство “ДИЛЯ”, 2004. – 224 с.
37. Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо Ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2000. – 100 б.
38. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Имон: (Ислом, қуръон, одоб-ахлоқ). – Т.: “Камалак”, 1992. – 160 б.
39. Нажмиддин Кубро. Қўнглим кўзи билан кўрганларим. /Жузжоний Абдулҳаким Шаърий. Тасаввуф ва инсон. – Т.:”Адолат”, 2001. -78-96 бетлар.
40. Насафий Азизиддин. Зубдат-ул ҳақойиқ - / Ҳақиқатлар қаймоғи / Н.Комилов тарж. – Т.:Камалак, 1996. -56 б.
41. Николеску Басараб. Наука и традиция. “Две спицы одного колеса”// Курьер. Стр. 25-29.1986. декабрь.
42. Нурбоқий Холиқ. Қуръони каримнинг илмий мўъжизалари. – Т.: “Адолат”, 2002. – 120 б.
43. Нуриддинов Н.М. “Ихё улум ад -дин асарида нафс тарбиясининг босқичлари”, Битирув малакавий иш. 2015 йил.
44. Ориф Абдумалик. Навоий сўфийми ёки мутасаввифми?/ “Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар” китобида.- Т.: “Ўзбекистон”, 1994. 335 бет.
45. Ориф Усмон. Баҳовуддин Нақшбанд ва унинг таълимоти ҳақида. – Т.: “Университет”, 1993. - 33 бет.
46. Основы духовности. – СПб:“Издательство “ДИЛЯ”, 2007. – 192 с
47. Пиотровский Б.М. Послесловие. – В кн.: Ирвинг В. Жизнь Мухаммеда. Книга о пророке. – Алма-Ата: Жазуши, 1990. – 304 с.
48. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса: Новый диалог человека с природой. – М.: Прогресс, 1986. – 432 с.
49. Пригожин И. Новый союз науки и культуры. // Курьер, июнь, 1988. 9-13 стр.
50. Психологические аспекты буддизма. – Новосибирск, Издательство “Наука”, Сибирское отделение, 1986. – 158 с.
51. Рашаҳоту айнил-хаёт (“Обихаёт томчилари”): тарихий-маърифий асар.- Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004. – 536 бет.
52. Румий Жалолоддин. Ичиндаги ичиндадир. – Т.:”Янги аср авлоди”, 2003. – 199 б.
53. Рустамов А. Сўз гавҳари. Биринчи дафтар. – Т.: “Хазина”, 1995. – 43 б.
54. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. (Масъул муҳаррир: проф. Каримов Б.Р.). – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2017. - 360 бет.
55. Султонмурод Олим. Хожа Баҳоуддин ҳақиқати. – Наманган. 1994. - 40 бет.
56. Сумерки богов/ Сос. и общ. Ред.А.А.Яковлева: Перевод. – М.: Политиздат, 1990. -398 с.
57. Суфизм в контексте мусулманской культуры. – М.: “Наука”, Главная редакция восточной литературы, 1989. -341 с.
58. Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин. – Т.:”Меҳнат”, 1991. – 95-бет.
59. Тулепов Айдарбек. Ислом ва ақидапараст оқимлар. Тўлдирилган нашр. / Масъул муҳаррир Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2017. – 536 б.
60. Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Т.: “Истиқлол”, 1999. – 180 б.- 88-бет.
61. Ургутий, Шайх Муҳйиддин. Мактубот. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2006. – 187 б.

62. Усмон Ориф. Шайх Абдухолик Ғиждувоний. (Масъул муҳаррир С.Рафиддинов). Илмий-оммабоп рисола. – Т.: “Маворауннаҳр”, 2003. – 68 бет.
63. Усмонов Иброҳимжон. Ал-Ҳаким ат-Термизийнинг тасаввуфда тутган ўрни. Ал-Ҳаким ат-Термизийнинг “Нодир масалалар” китобида. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2007. – 86 бет. 6-22-бетлар.
64. Философия луғати. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 1976. - 639 бет.
65. Фиш Радий. Жалолиддин Румий: тарихий биографик роман. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. -282 б.
66. Фрейд З. Будущее одной иллюзии. //Сумерки богов/ Сос. И общ. Ред.А.А.Яковлева: Перевод. – М.: Политиздат, 1990. - 398 с.
67. Фрейджер Р., Фейдимен Д. Большая книга психологии. Теории, упражнения, эксперименты / Роберт Фрейджер, Джеймс Фейдимен/ Пер. с англ. – СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2008. – 704 с.
68. Хисматулин А.А. Суфизм. – СПб.:“Азбука-классика”; Петербургское Востоковедение”, 2003. - 224 с.
69. Хожа Абдухолик Ғиждувоний. Васиятнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. - 15 бет.
70. Хожа Абдухолик Ғиждувоний. Мақомати Юсуф Хомадоний. –Т.:”Янги аср авлоди”, 2003. - 87 бет.
71. Хожа Муҳаммад Ориф Ар-Ревгарий. Орифнома. – Т.: Наврўз, 1994. -16 б.
72. Хожа Убайдуллох Ахрор. Табаррук рисолалар. – Т.: “Адолат” нашриёти, 2004. – 385 бет.
73. Хожа Юсуф Хомадоний. Ҳаёт мезони (Рутбат ул-ҳаёт) – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. – 63 бет.
74. Холназарова М.Х. Нақшбандия таълимотида комил инсон муаммосининг психологик хусусиятлари. –Т.:”Фан ва технология”, 2014. -156 бет.
75. Шайх ал-Колободий. Тасаввуф сарчашмаси. (Ат – таъарруф – тасаввуфни таништириш китоби). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. - 144 б.
76. Шайх Ҳаким Моунуддин Чишти. Суфийское целительство. - СПб “Диля”, 2002. - 208с.
77. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2004. - 255 б.
78. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. Покланиш. 1-жуз. - Т.: “Шарқ” Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2007. - 447 б.
79. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Хислатли ҳикматлар шарҳи. 4-жуз. – Т.: “Nilol-Nashr”, 2014. – 271 бет.
80. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2004. – 263 б.
81. Шайх Саййид Абдулқодир Жийлоний. “Сиррул-асрор”, “Мактубот”/ Таржимон, сўзбоши ва луғат-изоҳлар муаллифи Отабек Жўрабоев. – Т.: “Мовароуннаҳр” нашриёти, 2005 йил. - 226 бет.
82. Шамсиддинхон Зиёвуддинхон ўғли Бобохонов, Абдулазиз Мансур. Нақшбандий тарикатига оид кўлёмалар фикристи. –Т.: “Мовароуннаҳр” нашриёти, 1993. – 127 бет.
83. Шилин Ким. Русские суфии: Новое человечество и образ будущего. – М.: Беловодье и др., 2007. – 96 с.
84. Шиммел Аннамарие. Жонон менинг жонимда. Ислом оламида хотин-қизлар сиймоси. –Т.: “Шарқ” нашриёт – матбаа концерни, 1999. –173 б.
85. Эргашев Убайдулло. Юсуф Хомадоний ва Абдухолик Ғиждувоний – хожагон тарикати асосчилари. – Т.:”Адолат”, 2003. -76 бет.
86. Ғаззолий Абу Ҳомид. Кимёи саодат: (Рух ҳақиқати). –Т.: “Адолат”, 2005. - 412 б.

87. Ғиждувоний, Хожа Абдухолик. Васиятнома// Масъул муҳаррир: Хуршид Даврон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. 16 бет.
88. Ҳамдамов У. Моҳият кашшофи. – Ж.Румийнинг “Ичиндаги ичиндаир” китобида. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. – 7-10 б.